Kirish. Xiva xonligida qilich bilan xizmat qilgan navkar ham, qalam bilan xizmat qilgan mirza ham xon in'omidan umidvor bo‘lgan. Biroq bu ikki soha rag‘batining tili turlicha edi. Harbiyga kalla puli, asir uchun mukofot va xil'at berilgan bo‘lsa, olim va shoirga mansab, ehson, asar buyurtmasi va xon majlisidan joy berilgan. Xonlikning madaniy hayotida Munis, Ogahiy, Bayoniy, Komil Xorazmiy kabi siymolarning yetishib chiqqani, Feruz davrida esa tarjima maktabi va yirik qo‘lyozma kutubxonasining shakllangani bu rag‘bat tizimi qanday ishlaganini o‘rganishni talab qiladi. Xorazm adabiy muhiti va saroy homiyligi masalalari adabiyotshunoslik va tarixshunoslikda ma'lum darajada o‘rganilgan. Q.Munirovning asarlarida, xonlarning tarixchilardan asar buyurtma qilgani va ularni in'om hamda mansab bilan taqdirlagani hujjatlar asosida ko‘rsatilgan [1], N.F.Axmedova Xiva saroyining adabiy muhitini o‘rganib, homiylik mexanizmini tahlil qilgan [2], D.G‘ayipov XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi o‘zbek adabiyoti tarixini yoritgan [3]. Kitob madaniyati manbalari X. Aminov [4], madrasa talabalariga beriladigan stipendiya masalasi esa H.S.Yusupov [5] tomonidan ko‘rib chiqilgan. M.M.Matyakubova xonlikning iqtisodiy hayotiga oid dissertatsiyasida xattotlarga to‘langan haqlarga ham to‘xtalgan [6], D.N.Abdullayev esa olim va shoirlarni taqdirlash misollarini Xiva xonligidagi mukofotlash an'analari qatorida keltirgan [7]. Biroq ilm, adabiyot va san'at ahlini rag‘batlantirish shakllari ularning moliyaviy asosi bilan birga yagona tizim sifatida hali maxsus o‘rganilmagan. Shu sababli, Xiva xonligida ilm-fan, adabiyot va san'at ahlini rag‘batlantirish shakllarini aniqlash, ularning moliyaviy asosi va tashkiliy tartibini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodlari. Mavzuni yoritishda manba sifatida Munis va Ogahiyning "Firdavs ul-iqbol", Ogahiyning "Riyoz ud-davla", "Gulshani davlat" va "Shohid ul-iqbol", Bayoniyning "Shajarayi Xorazmshohiy" asarlari, Xiva xonlari arxivining M.Y.Yo‘ldoshevning qaydlari, O‘zR FA Sharqshunoslik institutidagi "Xorazm tarixi" (H.Sulaymonov majmuasi, 280-raqam) qo‘lyozmasining X.Aminov tahlil qilgan ma'lumotlari hamda soha tadqiqotlardan foydalanildi. Tarixiy-qiyosiy, tipologik va miqdoriy tahlil usullari qo‘llanildi: rag‘bat turlari sohalar bo‘yicha ajratildi, hisob qaydlaridagi to‘lovlar esa oluvchi va sabab bo‘yicha guruhlandi. Saroy xarajatlaridagi ilm va kitob ahliga oid to‘lovlar jadvalga keltirildi, manbalardagi nom va atamalarning o‘qilishi esa o‘zaro solishtirildi.

Tadqiqot natijalari *Diniy-ma'rifiy xizmatni taqdirlash* Diniy arboblarga beriladigan hadyalar o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan: ular ko‘pincha xizmat haqi sifatida emas, ehtirom va ta'zim ifodasi – nazr sifatida taqdim etilgan. "Firdavs ul-iqbol"da Muhammad Rahimxon I Sham'un nabi maqbarasini ziyorat qilib, nufuzli din peshvolaridan Tursun xo‘jaga qimmatbaho xil'at bilan bir siqim oltinni nazr qilgani, so‘ngra murshid Gadoy xo‘ja eshon, Abdi xo‘ja, Isomiddin xo‘ja va boshqalarga ham nazrlar berib, ularning duosini olgani hikoya qilinadi [8; B. 44]. Nazr, sadaqa va ehson xizmat evaziga berilmagani uchun ularni mukofotdan farqlash lozim. Diniy mansab esa haqiqiy mukofot bo‘lgan: Taka qabilasi bilan jangda jasorat ko‘rsatgan Quttixo‘ja ibn Bobo devona shayxulislomlik mansabi bilan taqdirlangan [8; B. 383]. Bu misol diniy martaba harbiy xizmat uchun ham berilishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Diniy ilm xizmatlari alohida qadrlangan. Farmon bilan tafsir darsiga mutasaddi etilgan Badruddin oxund "ulug‘ xizmatni kamo haqquhu butkargani" uchun mo‘l pul va yangi xil'at olib, "o‘z aqronu ashbohi arosida quyoshdek mumtozlig‘ topgan" [9; B. 298–300]. Ramazon tarovihida

xatmi Qur'on qilgan qorilarga "xilo'i zarandud va nuqudi noma'dud" berilgan [10; B. 362]. Muhammad Rahimxon I farmoniga ko'ra, uzoq qishloq va shaharlarda yashovchi, masofa yoki turmush tashvishlari sababli ilm ololmayotgan oddiy xalq uchun maxsus qiroatxona va tajvid maktablari tashkil etilgan, tajvid ilmini yoyishdagi xizmatlari uchun xon Domla Muhammadsafo va uning shogirdlarini yuksak in'omlar bilan taqdirlagan [8; B. 282]. Diniy-ma'rifiy xizmat uchun beriladigan mukofotlar ko'lami jihatidan harbiy sarkardalarga berilgan in'omlardan kam bo'lmagan.

Madrasa ta'limi: rag'bat, imtihon va mansab. Ilm-fan sohasidagi rag'bat asosan madrasalar faoliyati bilan bog'liq holda shakllangan. Muhammad Rahimxon o'z madrasasi qurib bitkazilgach, hujralarni tolibi ilmlarga taqsimlab bergan va mudarris hamda mullalarni moddiy jihatdan ta'minlagan [9; B. 320–323]. Xiva madrasalarida talabalarga vaqf yerlari hisobidan g'alla ulashilgan [5; B. 255]. Rag'bat bilan birga jazo ham bo'lgan: darsni qoldirgan talabaning nafaqasi kamaytirilgan, uzoq vaqt kelmaganlar esa nafaqadan butunlay mahrum qilingan [5; B. 254]. Qo'shni Buxoroda a'lo o'qigan talabalarga maxsus imtihon asosida "dahyak" stipendiyasi berilgan va imtihon natijalari hukmdorning shaxsan o'ziga taqdim etilgan [5; B. 253–254]. Homiylik sohasida mukofot bilan jazo bir tizimda yuritilgan. Ta'limni tamomlagan iqtidorli kishilar uchun eng katta rag'bat mansab bo'lgan. Olloqulixon shoir va olimlar bilan savol-javob kechalari o'tkazib, "har kimni olgan ilmiga yarasha taqdirlashni munosib ko'rib", ularning bir qismini oliy madrasalarga mudarris, boshqalarini viloyatlarga qozi va rais etib tayinlagan [7; B. 4–8]. Sayid Muhammadxon davrida bu ish ma'lum tartibga solingan: darsni tamomlab, "masoili diniya va ulumi ayniyag'a mahorat paydo qilg'onlarning otlarin xatg'a olib", xon ularni huzuriga chorlagan, qozi va rais esa imtihonchi etib tayinlangan. Nomzodlarning bilimi "Tavzeh", "Hidoya" va "Mutavval" asarlari asosida sinovdan o'tkazilgan, sinovdan muvaffaqiyatli o'tganlar esa hukmdor e'tirofi va tegishli mukofotga sazovor bo'lgan [9; B. 62–63].

Tarixnavislik va adabiyotga hukmdorlar e'tibori. Xonlikda tarixnavislik rivojiga hukmdorlar katta hissa qo'shgan. Chunki ular tarixiy asarlar yozishni ilm-ma'rifatli insonlarga topshirganlar. Buyurtma janrlari xilma-xil edi. Muhammad Rahimxon II Ogahiyga shaxsan murojaat qilib, vafot etgan Muhammad Ya'qubxo'ja mahram xotirasiga bag'ishlab "aning vafoti haqida falak shikoyatig'a mushtamil bir marsiya nazm etsang" degan [9; B. 304–305]. Motam she'ri ham rasmiy topshiriq bo'lgan. Ogahiy o'z taqdirlanishlarini ham yozib qoldirgan: imorat qurilishiga bag'ishlab g'azal va ta'rix aytganida u "iltifoti begaronidin va in'omoti bepoyonidin bahramandlig'" topgan [9; B. 248–249], Navro'z ta'rifida qasida yozganida esa unga "bir poycha po'stin va bir moviy chakman va taxta-taxta choy-yu teva-teva qand" navro'zlik qilib berilgan [11; B. 39]. Tarjima ham xon buyurtmasi bilan amalga oshirilgan: "Qobusnoma"ni tarjima qilishni xonning o'zi topshirib, "bu nusxani turkiy tili bila tarjima qil, toki turk tavoyifining avomi ham bu pandlardan bahra olg'ay" degan [2; B. 45].

Shoirlar xon hayotidagi muhim voqealarga she'r bilan javob berib, buning uchun ham taqdirlangan. Bu an'ana Eltuzar va Muhammad Rahimxon I davridayoq shakllangan: nomdor fozillar va shoirlar zafar voqealariga qasida va tahniyatnomalar bitgan [8; B. 259]. Muhammad Rahimxon II taxtga o'tirganda shoirlar julus uchun tarix, qasida va masnaviylar aytib, "in'omi shohona va atoyi xusravonalaridin" bahramand bo'lgan [12; B. 18]. Shahzoda tug'ilganida "davron shuarosi va zamon fuzalosi" ta'rix va qasidalar bitib, xon saxovatidan bahramand bo'lgan [11; B. 88]. She'r shu tariqa suyunchining adabiy shakliga aylangan: xushxabarni birinchi yetkazgan chopar qanday taqdirlansa, uni go'zal ifodalagan shoir ham shunday taqdirlangan. Ogahiy "Riyoz ud-davla"da Munisning shunday munosabat bilan ikki ta'rix yozganini – biri marhum hukmdorning vafoti, ikkinchisi hukmron xonning tug'ilishi haqida ekanini qayd etadi [10; B. 254]. Madaniy-ma'rifiy salohiyat davlat xizmatida ham yuqori baholangan: saroy shoiri Chokar yozishicha, Komil Xorazmiy iqtidori va ishchanligi tufayli mirzaboshilikka, 1880-yilga kelib esa devonbegilik rutbasiga yetishgan [3; B. 34]. Madaniy hayotning gullagan davri Muhammad Rahimxon II Feruz hukmronligiga to'g'ri keladi. Uning rahnamoligida mingdan ortiq qo'lyozma ko'chirilgan, yuzdan ortiq asar arab va fors tillaridan o'zbek tiliga tarjima qilingan [2; B. 60]. Xon majlislardan birida saroy shoirlariga o'zining 101 g'azaliga javob yozishni topshirgan, natijada o'ttiz shoirdan 2998 javob g'azali to'plangan va ularni kitob qilish Tabibiyga buyurilib, "Majmuat ush-shuaro" tazkirasi yuzaga kelgan [2; B. 15]. Ogahiyning yozishicha, xon sharafiga qasida, g'azal va ta'rixlar bitgan shoirlar "in'omi vofir va

ehsoni mutakosiridin mahzuzu bahramand" bo‘lganlar [13; B. 33–34]. Feruz otasi singari saroyiga olim, shoir, tarixnavis, tabib, tarjimon, xattot va sozandalarni to‘plab, she’rxonlik kechalari o‘tkazgan [14; B. 205]. M.M.Matyakubova fikricha, "xonlikdagi adabiy muhit taraqqiyotini ta’minlagan asosiy omil xonlar tomonidan shoir va adiblar, muarrix va xattotlar, ulamoyu oriflarga nisbatan ko‘rsatilgan doimiy e’tibor va homiylik siyosati edi" [6; B. 57]. Saroy shoirlari rahbari Bobojon Tarroh esdaliklarida ham hukmdor adabiyot va san’at ahlining holidan xabardor bo‘lib turgani, saroyga jalb etilgan shoirlar moddiy jihatdan ta’minlangani aytiladi [2; B. 60].

Xattotlar va kitob madaniyati. Feruz kutubxonasi uchun ming nusxadan ortiq qo‘lyozmaning ko‘chirilishi katta mehnat talab qilgan. Shu bois xattotlar oylik maosh bilan birga qo‘shimcha mukofot pullari bilan ham rag‘batlantirilgan va bu ularning yanada samarali ishlashiga sabab bo‘lgan [6; B. 64]. Xiva xonlari arxivi hujjatlarida xattotlarga ajratilgan maoshlar va mohir xattotlarga beriladigan mukofotlar, saroy kutubxonasi uchun sotib olingan kitoblar va ularni ta’mirlash xarajatlari ham qayd etilgan [15; B. 364].

Saroy xarajatlarining hisob qaydlari bu haqda aniqroq ma’lumot beradi. O‘zR FA Sharqshunoslik institutining H.Sulaymonov majmuasida saqlanayotgan 280-raqamli "Xorazm tarixi" qo‘lyozmasida "Xon hazrat dargohig‘a bo‘lg‘on xarajat" sarlavhasi ostida 1285–1287/1868–1870-yillardagi saroy chiqimlari yozilgan [16]. X.Aminov tahlil qilgan bu qaydlardan ilm va kitob ahliga tegishli to‘lovlar quyidagi jadvalda umumlashtirildi [4; B. 58].

1-jadval.

"Xorazm tarixi" qo‘lyozmasida qayd etilgan ilm va kitob ahliga to‘lovlar (1285–1287/1868–1870)

To‘lov maqsadi	Oluvchi	Miqdori	Hijriy yili
Kitob uchun	Boqchali Mulla Bobojon	to‘rt marta 10 tillodan	1285–1286
Kitob uchun	Rahmonquli qori	10–25 tillo, bir necha marta	1285–1287
Kitob uchun	Mulla Yusuf	10 va 5 tillo	1285
Kitob va tafsir uchun	Nurniyoz xalifa	7 va 10 tillo	1285
Muhr yasash	Mullo Xudoybergan devon muhrkan	15 va 10 tillo	1285–1286
Qur’on jadvali va "Kalomulloh" uchun	Mullo Avaz	10 va 15 tillo	1285, 1287
Muhr siyohdoni oltini uchun	Otajon to‘ra	45 tillo	1285
Iydona va in’om	Muhammad Rizo mirob Ogahiy	40 va 30 tillo	1286–1287
Sadaqa	Hazorasp madrasasi mullalari	50 tillo	1286
"Al-hisn al-hasin"ni o‘qish	Kitob o‘quvchilari	1000 tillo	1287

Jadvaldan ko‘rinadiki, bu to‘lovlar uch xil bo‘lgan. Birinchisi – kitob ko‘chirish, muhr yasash va Qur’on bezagi kabi aniq ish uchun haq. Ikkinchisi – olim va shoirlarga bayram in’omi, masalan, Ogahiyga berilgan iydona. Uchinchisi – madrasa mullalariga sadaqa bo‘lib, u xizmat evaziga berilmagani uchun mukofot hisoblanmaydi. Kitob ustalariga odatda 5–25 tillo berilgan, eng katta summa – ming tillo esa kitobxonlik uchun ajratilgan. Boqchali Mulla Bobojon va Rahmonquli qori kabi ismlarning qayta-qayta uchrashi saroy bilan doimiy ishlaydigan ustalar doirasi bo‘lganini ko‘rsatadi.

Kitobxonlik kechalari ham saroy homiyligida o‘tkazilgan. Xon saroyida Shamsuddin al-Jazariy (vaf. 833/1429) tuzgan "Al-hisn al-hasin" duolar to‘plami tez-tez o‘qitilgan, bu kitob mutolaasi balo-ofatlarni daf qiladi degan e’tiqod bo‘lgan. Arxiv hujjatlarida bunga sarflangan mablag‘lar ham qayd etilgan: 1867-yil rajab oyidagi kitobxonlik kechasida bu kitobni o‘qigan mullalarga 20 tillo berilgan [15; B. 41]. M.Y.Yo‘ldoshev asar nomini "Hasan al-Husayn" deb o‘qigan, biroq "Xorazm tarixi" qo‘lyozmasidagi "Hisni hasin" shakli bu "Al-hisn al-hasin" ekanini ko‘rsatadi: qo‘lyozmaga ko‘ra, 1870-yilda uning o‘quvchilariga ming tillo ajratilgan [16; 26b-varaq]. O‘zR FA Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar katalogida Xorazmda ko‘chirilgan asarlarning aksariyati XIX – XX asr boshlariga to‘g‘ri kelishi [4; B. 42] ham bu homiylik siyosatining natijasini ko‘rsatadi.

Musiqa san’ati va xalq tomoshalari Musiqa san’ati ham davlat e’tiboridan chetda qolmagan. Xon sozanda va xonandalarni vaqti-vaqti bilan shaxsan sinovdan o‘tkazib, ularga maxsus san’atkorlik shahodatnomasini topshirgan. 1882-yilda esa alohida farmon chiqarilib, unda "Xorazm maqomlari

xalqning daxlsiz mulki, deb e’lon qilinsin. Ushbu farmoni oliyga shak keltirgan yoinki uni buzib ijro etgan kimsalar qattiq jazolansin” deyilgan [17]. Bu farmon taqdirlash va jazolashning madaniy sohadagi o‘ziga xos ifodasi edi: san’at himoyaga olinib, uni buzish jazoga loyiq deb topilgan. Sayil, poyga va kurash kabi tomoshalar mukofotlash eng faol qo‘llanilgan tadbirlar bo‘lgan. Ot poygalari yakunida xon “xazinayi in’omidin zarposhlig‘lar kurguzub, oti o‘tganlarning jaybi domonin... nuqudi farovon bila labrez qilgan” [10; B. 254]. Kurashda g‘olib chiqqan polvonlarga xazinadan katta miqdorda tillo va kumush tangalar berilib, shohona xil’atlar kiydirilgan [10; B. 255]. “Shohid ul-iqbol”da yutqazgan polvon ham quruq qolmagani she’riy tarzda qayd etilgan [9]:

“Yiqg‘on olibon adadsiz in’om,
Shah lutfi bila keyindagi ham”.

Tahlil ilm-fan va madaniyat sohasida rag‘batlantirishning ikki modeli bo‘lganini ko‘rsatadi. Ilm-fan sohasida ta’lim, imtihon, mansab va ehson yagona zanjirni tashkil qilgan: madrasada vaqf hisobidan ta’minlangan tolib imtihondan o‘tgach mudarris, qozi yoki rais lavozimini olgan, uning xizmati esa bayram in’omlari va xil’at bilan qo‘llab-quvvatlangan. Madaniy hayotda esa davlat buyurtmasi va homiylik yetakchi shakl bo‘lgan: tarixiy asar, marsiya, tarjima yoki javob g‘azali xon topshirig‘i bilan yaratilgan va in’om bilan taqdirlangan. Bizningcha, Feruz davrida tarjima maktabining shakllanishi, “Majmuat ush-shuaro”ning tuzilishi va maqom san’atining davlat himoyasiga olinishi aynan shu siyosatning natijasidir. Xattotlarga beriladigan qo‘shimcha mukofot pullari esa homiylik nafaqat ijodkorlarni, balki kitob madaniyatining butun mehnat zanjirini qamraganini ko‘rsatadi.

Xulosa: Xiva xonligida diniy-ma’rifiy xizmat xil’at, pul va mansab bilan taqdirlangan, ayrim hollarda esa diniy martaba harbiy jasorat uchun ham berilgan. Din peshvolariga beriladigan nazr va sadaqa xizmat evaziga berilmagani bilan mukofotdan farq qilgan. Ilm-fan sohasida ta’lim, imtihon, mansab va ehson o‘zaro bog‘langan zanjir hosil qilgan, madrasa ta’limida esa rag‘bat va jazo bir tizimda yuritilgan. Tarixnavislik va adabiyot davlat buyurtmasi asosida rivojlangan: tarixiy asar, marsiya, qasida va tarjimalar xon topshirig‘i bilan yaratilib, in’om bilan taqdirlangan, iqtidorli ijodkorlar esa davlat mansablariga ko‘tarilgan. Feruz davrida homiylik yangi ko‘lam kasb etgan: xattotlarga qo‘shimcha mukofot pullari berilgan, saroy xarajatlarida kitob ko‘chirish, muhr yasash, Qur’on bezagi va kitobxonlik uchun mablag‘lar muntazam qayd etilgan, saroy bilan doimiy ishlaydigan ustalar doirasi shakllangan, maqom san’ati esa 1882-yilgi farmon bilan davlat himoyasiga olingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Мунировр Қ. Хоразмда тарихнавислик (XVII–XIX ва XX аср бошлари). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002.
2. Axmedova N.F. Xiva xonligi saroyi adabiy muhiti (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari): Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Urganch, 2025.
3. G‘ayipov D. O‘zbek adabiyoti tarixi (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari). – Toshkent, 2023.
4. Aminov X. Xorazmda kitob tarixi manbalari (XVIII asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari: O‘zR FA ShI qo‘lyozmalar fondi asosida): Tarix fanlari nomzodi dissertatsiyasi. – Toshkent, 2009.
5. Юсупов Ҳ.С. Мадрасаларда стипендия // Фидойи ва жонкуяр педагоглар журнали. – 2021. – № 19, 1-тўплам. – Б. 253–255.
6. Matyakubova M.M. XVI–XIX asrlarda Xiva xonligida iqtisodiy hayot: Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Urganch, 2026.
7. Абдуллаев Д.Н. Хива хонлигида мукофотлаш анъаналари тарихидан // Тамаддун нури. – 2022. – № 4. – Б. 4–8.
8. Мунис, Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол // Огаҳий. Асарлар. 2-жилд, 2-китоб. – Тошкент: Шарқ, 2020.
9. Огаҳий. Шоҳид ул-иқбол. – Тошкент: Шарқ, 2019.
10. Огаҳий. Риёзу-д-давла (Давлат боғлари) / Нашрга тайёрловчи А. Ўрозбоев. – Тошкент: Sharq, 2020.
11. Огаҳий. Гулшани давлат // Асарлар. Олти жилдлик. 6-жилд / Нашрга тайёрловчи А. Ўрозбоев. – Тошкент: Шарқ, 2019.
12. Баёний. Шажараи Хоразмшоҳий. – Тошкент, 1991.
13. Muhammad Rizo Ogahiy. Shohidu-l-iqbol. – Toshkent: Muharrir, 2009.
14. Abdulloh I. Markaziy Osiyoda islom madaniyati. – Toshkent: Sharq, 2005.
15. Йўлдошев М.Й. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Тошкент: Ўздавнашр, 1959.
16. Хоразм тарихи. Қўлёзма. – ЎзР ФА ШИ, Ҳ. Сулаймонов мажмуаси, инв. № 280.
17. Ўзбек адабиёти ва санъати. – 1994. – 30 сентябрь.

UO‘K 94(575.1):378

MUSTAQILLIK YILLARIDA QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA’LIM TIZIMINING RIVOJLANISHI: QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI MISOLIDA

D.N.Axmedova, o‘qituvchi, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Maqolada 1995-yilda Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutiga aylantirilishi bilan bog‘liq tarixiy bosqichlar yoritiladi. Shuningdek, bu makonda muhandislik, energetika, neft va gaz, iqtisodiyot, qishloq xo‘jaligi hamda sanoat texnologiyalari yo‘nalishlari bo‘yicha malakali mutaxassislar tayyorlashdagi o‘rni, ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, kredit-modul tizimi hamda Moodle platformasidan foydalanish tajribasi ko‘rib chiqiladi. Maqolada institutning xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorligi, qo‘shma ta’lim dasturlari va xalqaro ilmiy-ta’limiy loyihalardagi ishtiroki ham tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *mustaqillik yillari, Qashqadaryo viloyati, oliy ta’lim tizimi, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti.*

Аннотация. *В статье рассматриваются исторические этапы, связанные с преобразованием Каршинского инженерно-экономического института в 1995 году. Особое внимание уделяется роли института в подготовке квалифицированных специалистов по направлениям инженерии, энергетики, нефтегазовой отрасли, экономики, сельского хозяйства и промышленных технологий, а также внедрению современных педагогических и цифровых технологий в образовательный процесс. Рассматриваются особенности применения кредитно-модульной системы и опыт использования платформы Moodle. Кроме того, анализируются сотрудничество института с зарубежными высшими учебными заведениями, реализация совместных образовательных программ и участие в международных научно-образовательных проектах.*

Ключевые слова: *годы независимости, Кашкадарьинская область, система высшего образования, Каршинский инженерно-экономический институт.*

Abstract. *The article examines the historical stages associated with the transformation of the Karshi Engineering and Economics Institute in 1995. It also explores the institute’s role in training qualified specialists in engineering, energy, oil and gas, economics, agriculture, and industrial technologies, as well as the introduction of modern pedagogical and digital technologies into the educational process. Particular attention is paid to the implementation of the credit-module system and the use of the Moodle platform. Furthermore, the article analyzes the institute’s cooperation with foreign higher education institutions, its joint educational programmes, and its participation in international scientific and educational projects.*

Key words: *years of independence, Kashkadarya Region, higher education system, Karshi Engineering and Economics Institute.*

Kirish. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida yuz bergan o‘zgarishlar oliy ta’lim muassasalarining jamiyat va iqtisodiyot taraqqiyotidagi vazifalarini yangicha mazmun bilan boyitdi. Bu davrda oliy ta’lim muassasalariga faqat nazariy bilim beruvchi tashkilot sifatida emas, balki hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantiruvchi, zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtiruvchi va malakali mutaxassislar tayyorlovchi ilmiy-ma’rifiy markazlar sifatida qarash kuchaydi. Ushbu jarayonni Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti faoliyati misolida o‘rganish Qashqadaryo viloyatida oliy ta’limning tarixiy taraqqiyoti, kasbiy ta’lim yo‘nalishlarining kengayishi va muhandislik kadrlarini tayyorlash tizimida yuz bergan o‘zgarishlarni aniqlash imkonini beradi. Institutning keyingi rivojlanishida hududning tabiiy resurslari va ishlab chiqarish tarmoqlariga mos mutaxassisliklarni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etdi. Qashqadaryo viloyatining neft-gaz sanoati, energetika, qishloq xo‘jaligi va qayta ishlash korxonalari uchun muhandislar, texnologlar hamda iqtisodchi mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyoj institut ta’lim yo‘nalishlarining amaliy ahamiyatini belgilovchi omillardan biri bo‘ldi. Masalan, neft-gaz yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning ishlab chiqarish jarayonlari, texnologik uskunalar va sanoat xavfsizligi bilan bog‘liq bilimlarni

egallashi kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun muhimdir. Xuddi shuningdek, energetika yo‘nalishidagi ta’lim elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarish, uzatish hamda undan samarali foydalanish bilan bog‘liq muammolarni hal qilishga tayyor mutaxassislarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu misollar institut ta’limining hudud iqtisodiyoti bilan uzviy aloqadorligini ko‘rsatadi. Mustaqillik davrida institut faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri ta’lim jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo‘ldi. 2020–2021-o‘quv yilida kredit-modul tizimining joriy etilishi va Moodle elektron ta’lim platformasidan foydalanish o‘quv faoliyatini tashkil etishda yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. Bunday yondashuv sharoitida talaba faqat ma’ruza mashg‘ulotlarida olingan bilimlar bilan cheklanmay, mustaqil izlanish, elektron o‘quv materiallarini o‘zlashtirish va topshiriqlarni belgilangan muddatlarda bajarish orqali ham kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishi mumkin. Masalan, muhandislik yo‘nalishi talabasi elektron platforma orqali fan materiallarini o‘rganib, hisob-kitob topshiriqlarini bajarishi, o‘zlashtirish natijalarini kuzatishi va o‘qituvchi tavsiyalari asosida bilimlarini mustahkamlashi mumkin. Shu jihatdan raqamli ta’lim vositalari o‘quv jarayonini tashkil etishning texnik vositasigina emas, balki talabaning mustaqil ta’lim faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi mexanizm sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar sharhi. Institut tarixiga doir ma’lumotlarni tahlil qilishda uning tashkil topishi, fakultetlari, ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassislar tayyorlash faoliyatini yorituvchi tarixiy hamda axborot manbalari ham alohida ahamiyatga ega. Ushbu ma’lumotlar institutning dastlabki agrar yo‘nalishdagi faoliyatidan muhandislik, energetika, neft-gaz, iqtisodiyot va sanoat texnologiyalari kabi sohalarni qamrab oluvchi ta’lim tizimiga aylanishini o‘rganishga imkon beradi. Masalan, agrar ta’lim bilan muhandislik tayyorgarligining uyg‘unlashuvi qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash, ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish va texnik vositalardan samarali foydalanish kabi yo‘nalishlarda mutaxassislar tayyorlash uchun zamin yaratgan. Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining o‘quv faoliyatiga oid materiallar ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish masalasini o‘rganishda muhim o‘rin tutadi. Jumladan, 2020-2021-o‘quv yilida kredit-modul tizimining joriy etilishi, Moodle elektron ta’lim platformasidan foydalanish va mustaqil ta’limga ajratilgan vaqtning oshirilishi institutda o‘qitish jarayonining tashkiliy hamda mazmuniy jihatdan yangilanganini ko‘rsatuvchi dalillar sifatida qaralishi mumkin. Mazkur o‘zgarishlarning ahamiyati shundaki, muhandislik yo‘nalishlarida talabalarning bilimlari faqat nazariy mashg‘ulotlar bilan chegaralanmaydi; hisoblash, texnologik jarayonlarni tahlil qilish, amaliy topshiriqlarni bajarish va mustaqil yechim ishlab chiqish ko‘nikmalari ham kasbiy tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Shu sababli raqamli platformalardan foydalanish institutning ta’lim faoliyatini o‘rganishda alohida tahliliy yo‘nalish sifatida qaraladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining rivojlanishi haqida ma’lumotlar turli yo‘nalishlarda yoritilgan bo‘lsa-da, ularni yagona tarixiy izchillikda o‘zaro bog‘lash muhim ilmiy vazifa hisoblanadi. Xususan, institutning tashkiliy shakllanishi, hudud iqtisodiyotiga mos mutaxassisliklarning rivojlanishi, ta’lim jarayonining raqamlashtirilishi va xalqaro hamkorlikning kengayishi o‘rtasidagi munosabatlarni birgalikda tahlil qilish uning mustaqillik yillaridagi taraqqiyotini chuqurroq anglashga imkon beradi. Shu jihatdan mazkur tadqiqot mavjud hujjatlar va axborot materiallarini qiyosiy o‘rganish orqali institut rivojlanishining asosiy xususiyatlarini aniqlashga qaratiladi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining mustaqillik yillaridagi faoliyatini tarixiy dalillar asosida o‘rganishga yo‘naltirilgan. Tadqiqot metodologiyasi tarixiylik, xronologik izchillik, manbashunoslik tahlili, qiyosiy tahlil va tizimli yondashuv tamoyillariga asoslanadi. Mazkur metodlarning o‘zaro uyg‘un qo‘llanilishi institutning tashkil topishidan boshlab ta’lim mazmuni, tashkiliy tuzilishi va xalqaro aloqalaridagi o‘zgarishlarni izchil yoritish imkonini beradi. Institut taraqqiyotida xalqaro akademik hamkorlikning kengayishi ham muhim o‘rin tutadi. Jumladan, 2019-yildan Belarus milliy texnika universiteti bilan qo‘shma ta’lim dasturining amalga oshirilishi xalqaro tajribani o‘quv jarayoniga olib kirish va talabalar uchun qo‘shimcha akademik imkoniyatlar yaratish yo‘nalishidagi amaliy misoldir. Xalqaro loyihalarda ishtirok etish esa o‘quv dasturlarini takomillashtirish, ta’lim sifatini baholash va zamonaviy muhandislik ta’limi tajribalarini o‘rganish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bunday aloqalarning

samaradorligini faqat hamkor tashkilotlar soni bilan emas, balki talabalar va o‘qituvchilar almashinuvi, qo‘shma ilmiy ishlar, o‘quv dasturlaridagi yangilanishlar hamda amaliy natijalar orqali baholash maqsadga muvofiq. Mavzuning ilmiy ahamiyati Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti tarixini alohida tashkilot faoliyati doirasida emas, balki hududiy oliy ta’lim taraqqiyotining muhim tarkibiy qismi sifatida o‘rganish zarurati bilan belgilanadi. Institutning shakllanishi, ta’lim yo‘nalishlarining rivojlanishi, o‘qitish usullarining yangilanishi va xalqaro aloqalarining kengayishi o‘zaro bog‘liq jarayonlardir. Ularni tarixiy dalillar asosida tahlil qilish institutning rivojlanish xususiyatlarini aniqlash, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi munosabatlarni yoritish hamda kelgusidagi tadqiqotlar uchun ilmiy asos yaratishga xizmat qiladi.

Tarixiy-xronologik metod institut taraqqiyotining asosiy bosqichlarini vaqt ketma-ketligida o‘rganish uchun qo‘llanildi. Dastlab 1975-yilda Qarshi filialining tashkil etilishi, 1992-yilda Qarshi agrar-iqtisodiyot institutining shakllanishi va 1995-yilda Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining tashkil topishi bilan bog‘liq voqealar o‘rganildi. Keyingi bosqichda ta’lim jarayonini yangilash, kredit-modul tizimi va elektron platformalardan foydalanish, shuningdek, xalqaro qo‘shma ta’lim dasturlarining amalga oshirilishi bilan bog‘liq ma’lumotlar tahlil qilindi. Bunday yondashuv alohida voqealarni sanab o‘tish bilan cheklanmay, ular o‘rtasidagi tarixiy bog‘liqlikni aniqlashga xizmat qiladi. Manbashunoslik tahlili tadqiqotda foydalanilgan huquqiy hujjatlar, tarixiy ma’lumotlar va axborot materiallarining mazmunini o‘rganish uchun qo‘llanildi. Tizimli yondashuv institut faoliyatini bir-biriga bog‘liq yo‘nalishlar majmuasi sifatida tahlil qilish imkonini berdi. Bunda ta’lim yo‘nalishlari, o‘quv dasturlari, raqamli texnologiyalar, kadrlar tayyorlash va xalqaro hamkorlik o‘zaro ta’sir qiluvchi tarkibiy qismlar sifatida qaraldi. Masalan, muhandislik yo‘nalishidagi o‘quv dasturini yangilash jarayoni faqat fanlar ro‘yxatini o‘zgartirish bilan cheklanmaydi; u amaliy mashg‘ulotlar mazmuni, talabalarning mustaqil ishlashi va ishlab chiqarishga oid bilimlarni egallashi bilan ham bog‘liq. Shu sababli institut faoliyatidagi yangilanishlar alohida hodisalar sifatida emas, balki ta’lim tizimining umumiy rivojlanishi doirasida o‘rganildi. Mazkur metodlar Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining mustaqillik yillaridagi rivojlanishini tarixiy izchillik, hujjatli dalillar va qiyosiy tahlil asosida o‘rganishga xizmat qiladi. Bu yondashuv institut tarixini tavsiflash bilangina cheklanmay, uning rivojlanish jarayonlaridagi asosiy yo‘nalishlarni ilmiy asosda izohlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 28-fevraldagi 356-sonli Farmoni. Qarshi agrar-iqtisodiyot institutini tashkil etish to‘g‘risida.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 3-iyundagi 211-sonli qarori. Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutini tashkil etish to‘g‘risida.

3. O‘zbekiston Respublikasi. Ta’lim to‘g‘risida: O‘RQ-637-son Qonun. 2020-yil 23-sentabr.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida.

UO’K 94(575.1):398.2

SURXON VOHASI XALQ DOSTONLARIDA MILLIY QADRIYATLAR VA XALQ QAHRAMONLIGI MOTIVLARINING BADIIY IFODASI: TARIXIY TAHLIL

Axmedova G. O‘., dotsent, Termiz davlat universiteti, Termiz

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Surxon vohasi xalq dostonlarida aks etgan milliy qadriyatlar, xalq qahramonligi va tarixiy xotira masalalari tarixiy nuqtayi nazardan tadqiq etiladi. Unda voha aholisining an’anaviy turmush tarzi, urug‘-qabilaviy munosabatlari, oilaviy qadriyatlari, el-yurt daxlsizligini himoya qilish, ijtimoiy adolat va vatanparvarlik haqidagi qarashlarining epik asarlarda ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Xususan, “Alpomish” dostoni hamda “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi asarlarning tarixiy-etnografik mazmuniga e’tibor qaratiladi.*

Kalit so‘zlar: *Surxon vohasi, tarixiy xotira, xalq dostonlari, Alpomish, Go‘ro‘g‘li, Sherobod dostonchilik maktabi, milliy qadriyatlar, xalq qahramonligi, etnik munosabatlar, urug‘-qabila, vatanparvarlik, tarixiy-etnografik manba.*

Аннотация. *В статье с исторической точки зрения исследуются национальные ценности, народный героизм и историческая память, отражённые в народных эпосах*

Сурханского оазиса. Анализируются традиционный уклад жизни населения, родоплеменные отношения, семейные ценности, представления о защите родной земли, социальной справедливости и патриотизме. Особое внимание уделяется историко-этнографическому содержанию эпоса «Алпомиш» и произведений цикла «Гороглы».

Ключевые слова: *Сурханский оазис, историческая память, народный эпос, Алпомиш, Гороглы, Шерабадская школа сказительства, национальные ценности, народный героизм, этнические отношения, родоплеменные отношения, патриотизм, историко-этнографический источник.*

Abstract. *This article examines national values, popular heroism and historical memory reflected in the folk epics of the Surkhan oasis from a historical perspective. It analyses the traditional lifestyle of the population, kinship relations, family values, and popular perceptions of homeland defence, social justice and patriotism. Particular attention is paid to the historical and ethnographic content of the epic "Alpomish" and works belonging to the "Gorogly" cycle*

Keywords: *Surkhan oasis, historical memory, folk epic, Alpomish, Gorogly, Sherabad epic storytelling tradition, national values, popular heroism, ethnic relations, kinship relations, patriotism, historical and ethnographic source.*

Xalqning tarixiy taraqqiyotini o‘rganishda yozma manbalar bilan bir qatorda og‘zaki tarixiy xotira, xalq og‘zaki ijodi namunalari va etnografik materiallar ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, xalq dostonlari muayyan tarixiy davrlarda shakllangan ijtimoiy munosabatlar, turmush tarzi, ma’naviy qarashlar, urf-odatlar va xalqning tarixiy xotirasini o‘zida mujassam etgan murakkab manbalardan hisoblanadi. O‘zbekistonning janubiy hududlaridan biri bo‘lgan Surxon vohasi qadimdan o‘zining boy tarixiy-madaniy merosi, etnik tarkibi, an’anaviy xo‘jalik faoliyati va xalq og‘zaki ijodi bilan ajralib turgan. Vohada shakllangan dostonchilik an’analari, xususan, Sherobod baxshichilik maktabi o‘zbek xalqining epik merosini saqlash va rivojlantirishda muhim o‘rin egallaydi[1].

Surxon vohasi dostonlarida aks etgan voqealar va obrazlarni tarixiy jihatdan o‘rganish hudud aholisining o‘tmishdagi ijtimoiy munosabatlari, urug‘-qabilaviy tuzilmalari, oilaviy qadriyatlari, harbiy an’analari hamda el-yurtni himoya qilish haqidagi tasavvurlarini aniqlash imkonini beradi. Biroq dostonlarda tasvirlangan voqealarni muayyan tarixiy hodisalarning bevosita bayoni sifatida qabul qilish to‘g‘ri emas. Chunki epik asarlarda tarixiy voqelik xalq tasavvuri, badiiy umumlashtirish va avlodlar davomida shakllangan an’analar bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Shu sababli xalq dostonlarini tarixiy manba sifatida o‘rganishda ulardagi tarixiy xotira qatlamlari, ijtimoiy munosabatlar, etnografik tafsilotlar va badiiy talqin o‘rtasidagi farqlarni aniqlash muhim hisoblanadi. Mavzuning dolzarbligi Surxon vohasi xalq dostonlarini faqat badiiy meros sifatida emas, balki xalqning tarixiy tafakkuri, ijtimoiy hayoti va milliy o‘zligini anglash jarayonlarini aks ettiruvchi tarixiy-etnografik manba sifatida tadqiq etish zarurati bilan belgilanadi[2].

Tadqiqotning maqsadi Surxon vohasi xalq dostonlarida aks etgan milliy qadriyatlar va xalq qahramonligi motivlarini tarixiy nuqtayi nazardan tahlil qilish, ularning voha aholisining ijtimoiy-tarixiy hayoti, etnik munosabatlari va tarixiy xotirasi bilan bog‘liqligini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda tarixiylik, xolislik, tizimli tahlil, tarixiy-qiyosiy va tarixiy-etnografik metodlardan foydalanildi. Dostonlardagi ma’lumotlar yozma tarixiy manbalar, etnografik tadqiqotlar va folklor materiallari bilan qiyosiy tahlil qilish tamoyili asosida ko‘rib chiqildi.

O‘zbek xalq qahramonlik eposini tarixiy jihatdan o‘rganishda V.M. Jirmunskiy va H.T. Zarifovning “Узбекский народный героический эпос” asari alohida ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotda o‘zbek xalq qahramonlik dostonlarining tarixiy ildizlari, epik an’analari va shakllanish xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. H. Zarifovning xalq dostonlarining tarixiy asoslariga bag‘ishlangan tadqiqotlari epik obrazlar, xususan, jangovar ot timsolining qadimiy ildizlarini aniqlashda muhim nazariy ahamiyatga ega. T. Mirzayevning xalq baxshilarining epik repertuari va “Alpomish” dostonining o‘zbek variantlariga oid tadqiqotlari esa dostonlarning hududiy variantlari, ijro an’analari va tarixiy xotirani saqlashdagi o‘rnini o‘rganishga imkon beradi. Surxon vohasidagi baxshichilik an’analari va mahalliy ijrochilik maktablari masalasi keyingi tadqiqotlarda ham

yoritilgan. Xususan, voha baxshilari repertuari, ustoz-shogird munosabatlari va doston ijrochiligining mahalliy xususiyatlariga bag‘ishlangan ishlar hududning epik merosini tarixiy-etnografik jihatdan o‘rganish uchun muhim ma’lumotlar beradi. Manbashunoslik nuqtayi nazaridan dostonlarning turli variantlarini bir-biri bilan qiyoslash, ularning yozib olingan vaqti, ijrochisi, hududi va nashr tarixini aniqlash muhimdir. Chunki bir dostonning turli baxshilar tomonidan ijro etilgan variantlarida ayrim tarixiy-etnografik tafsilotlar, mahalliy atamalar va ijtimoiy munosabatlarning talqini farqlanishi mumkin[3].

Surxon vohasi tarixan turli etnik guruhlar, urug‘ va qabilalar istiqomat qilgan, o‘zaro xo‘jalik, savdo va madaniy aloqalar rivojlangan hududlardan biri hisoblanadi. Vohaning tabiiy-geografik joylashuvi, tog‘oldi va tekislik hududlarining o‘zaro tutashuvi, chorvachilik hamda dehqonchilik uchun qulay sharoitlari aholining an’anaviy turmush tarziga ta’sir ko‘rsatgan. Mazkur hududda shakllangan xalq og‘zaki ijodi namunalari ham ana shu tarixiy va ijtimoiy muhit bilan bevosita bog‘liqdir. Surxon vohasining Sherobod, Boysun va boshqa hududlarida saqlanib kelgan baxshichilik an’analari xalqning tarixiy xotirasini avloddan-avlodga yetkazishning muhim vositalaridan biri bo‘lgan. Baxshilar tomonidan ijro etilgan dostonlar xalq yig‘inlari, marosimlar va turli ijtimoiy muhitlarda tinglangan. Shu tariqa epik asarlar xalqning tarixiy tajribasi va ma’naviy qadriyatlarini jamoaviy xotirada saqlashga xizmat qilgan. Dostonchilik an’analarining tarixiy ahamiyati shundaki, ularda faqat qahramonlik voqealari emas, balki xalqning ijtimoiy hayotiga oid ko‘plab ma’lumotlar ham saqlanib qolgan. Masalan, urug‘lar o‘rtasidagi munosabatlar, qarindoshlik aloqalari, nikoh va quda-andachilik an’analari, mehmondo‘stlik, jamoaviy birdamlik va ijtimoiy mavqe masalalari epik syujetlarda muhim o‘rin egallaydi. Shu bilan birga, dostonlarda aks etgan ijtimoiy munosabatlarni tarixiy haqiqat sifatida qabul qilishdan oldin ularni yozma manbalar va etnografik dalillar bilan solishtirish talab etiladi[4].

O‘zbek xalq qahramonlik eposining eng yirik namunalaridan biri bo‘lgan “Alpomish” dostoni xalqning tarixiy xotirasi, ijtimoiy munosabatlari va ma’naviy qadriyatlarini o‘rganishda alohida o‘rin tutadi. Dostonning tarixiy-etnografik mazmuni, avvalo, unda urug‘-qabilaviy munosabatlarning aks etishi bilan belgilanadi. Boybo‘ri va Boysari o‘rtasidagi qarindoshlik aloqalari, ularning o‘zaro munosabatlari, avlod davomiyligi va nasl masalalari orqali an’anaviy jamiyatda qarindoshlik rishtalarining ijtimoiy ahamiyati namoyon bo‘ladi. Dostonda Boysun-Qo‘ng‘irot muhitiga oid nomlar va ijtimoiy munosabatlarning ifodalanishi ham alohida e’tiborga loyiq. Alpomish obrazida xalqning ideal qahramon haqidagi tasavvurlari mujassamlashgan. Qahramonning el-yurt sha’nini himoya qilishi, oilaviy birlikni tiklashga intilishi, qiyinchiliklarga bardosh berishi va o‘z maqsadiga sodiqligi xalqning mardlik va matonat haqidagi qarashlarini ifodalaydi. Dostondagi Barchin obrazi ham tarixiy-etnografik jihatdan muhimdir. Uning o‘z tanloviga sodiqligi, oilaviy sha’n va or-nomusni himoya qilishi, aql-zakovati va qat’iyati orqali an’anaviy jamiyatdagi ayolning ma’naviy mavqei va oilaviy munosabatlardagi o‘rni badiiy aks ettirilgan. Dostonda Alpomishning uzoq muddatli ayriliq va sinovlardan so‘ng o‘z yurtiga qaytishi tarixiy xotira nuqtayi nazaridan ham muhim mazmun kasb etadi. Bu syujet orqali xalqning o‘z yurti, urug‘i va oilasiga daxldorlik hissi, buzilgan munosabatlarni tiklash va adolatni qaror toptirishga intilishi ifodalanadi. Shu jihatdan “Alpomish” dostoni xalqning tarixiy xotirasi, ijtimoiy munosabatlari va milliy qadriyatlarini o‘rganishda muhim folklor-etnografik manba hisoblanadi[5].

“Go‘ro‘g‘li” turkumidagi dostonlarda esa xalqning adolatsizlikka qarshi kurash, mazlumlarni himoya qilish, do‘stlik va jamoaviy birdamlik haqidagi qarashlari aks etadi. Go‘ro‘g‘li obrazi orqali xalqning adolatli boshliq, himoyachi va jasur inson haqidagi ideal tasavvurlari namoyon bo‘ladi. Mazkur dostonlarda qahramonlikning ijtimoiy mazmuni shundaki, qahramonning faoliyati shaxsiy manfaat doirasidan chiqib, jamoa va xalq manfaatlari bilan bog‘lanadi. Bunday tasvirlar xalqning ijtimoiy adolatga bo‘lgan ehtiyoji, o‘zaro yordam va hamjihatlik haqidagi tarixiy qarashlarini aks ettiradi. Biroq dostonlardagi jangovar voqealar, raqiblar va harbiy to‘qnashuvlarni muayyan tarixiy urushlar bilan aynan tenglashtirish uchun qo‘shimcha yozma manbalar zarur. Shu sababli qahramonlik motivlarini tarixiy voqealarning bevosita bayoni sifatida emas, balki xalqning tarixiy-ijtimoiy tajribasi va ideallarining badiiy ifodasi sifatida o‘rganish lozim[6].

Xalq dostonlari orqali Surxon vohasi aholisining an'anaviy oilaviy munosabatlari, nikoh marosimlari, qarindoshlik aloqalari va ijtimoiy qadriyatlarini o'rganish mumkin. "Alpomish" dostonida sovchilik, unashtirish, nikoh, to'y marosimlari, qarindoshlik munosabatlari va oilaviy sadoqat bilan bog'liq voqealar keng aks etgan. Bu holat an'anaviy jamiyatda oila va urug' munosabatlari ijtimoiy hayotning muhim tarkibiy qismi bo'lganini ko'rsatadi. Dostondagi nikoh va quda-andachilik munosabatlari faqat ikki yoshning oila qurishi bilan chegaralanmaydi. Ular urug'lar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, qarindoshlik rishtalarini kengaytirish va jamoaviy birlikni ta'minlash kabi ijtimoiy vazifalarni ham bajargan[7].

Xulosa. Surxon vohasi xalq dostonlari hudud aholisining tarixiy xotirasi, ijtimoiy tajribasi va ma'naviy qadriyatlarini o'rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi. "Alpomish" dostonida aks etgan urug'-qabilaviy munosabatlar, qarindoshlik, nikoh va oilaviy sadoqat masalalari an'anaviy jamiyatning ijtimoiy munosabatlarini tarixiy-etnografik jihatdan o'rganish uchun muhim material hisoblanadi. Sherobod dostonchilik an'analari xalq og'zaki merosining uzluksizligini ta'minlash, tarixiy xotirani avlodlarga yetkazish va mahalliy madaniy o'ziga xoslikni saqlashda muhim o'rin tutadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alpomish: O'zbek xalq qahramonlik dostoni. – Toshkent: Sharq, 1998.
2. Mirzayev T. "Alpomish" dostonining o'zbek variantlari. – Toshkent: Fan, 1968.
3. Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. – Toshkent: Fan, 1979.
4. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990.
5. Zarifov H. O'zbek xalq dostonlarining tarixiy asoslari bo'yicha tekshirish. Jangovar ot obrazining qadimiy asoslariga doir. – Toshkent: Fan, 1976.
6. Жирмунский В. М., Зарифов Х. Т. Узбекский народный героический эпос. – Москва: Издательство Академии наук СССР, 1947.
7. Кармышева Б. Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – Москва: Наука, 1976.
8. Кароматов Ф. О локальных стилях узбекской народной музыки. – Москва: Музыка, 1964.
9. Сухарева О. А. К истории городов Бухарского ханства. – Ташкент: Фан, 1958.

UO'K 008(575.1)(091)

YANGI O'ZBEKISTONDA MADANIYAT SOHASIDAGI ISLOHOTLAR VA IJODIY ZIYOLILAR FAOLIYATINING YANGILANISHI

Bokiyev B. U., PhD, Qarshi davlat texnika universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar, madaniyat sohasini izchil rivojlantirish, jahon miqyosidagi ijobiy tajriba va an'analar, yutuq va natijalarni har tomonlama chuqur o'rganish, respublikada milliy estrada yo'nalishi bo'yicha malakali mutaxassislar va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, ularning ilmiy-ijodiy faoliyat bilan shug'ullanishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish haqida bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *Mustaqillik, Yangi O'zbekiston, islohot, madaniyat, yutuq, natija, milliy madaniyat, milliy estrada, ilmiy-pedagogik kadrlar, O'zbekiston davlat konservatoriyasi, "ustoz-shogird", o'zbek ijodkorlari.*

Аннотация. *В данной статье изложены проводимые в последние годы в Новом Узбекистане реформы, последовательное развитие сферы культуры, всестороннее и глубокое изучение положительного опыта и традиций мирового масштаба, достижений и результатов, подготовка в республике квалифицированных специалистов и научно-педагогических кадров по направлению национальной эстрады, а также создание широких возможностей для их научно-творческой деятельности.*

Ключевые слова: *Независимость, Новый Узбекистан, реформа, культура, достижение, результат, национальная культура, национальная эстрада, научно-педагогические кадры, Государственная консерватория Узбекистана, «учитель-ученик», узбекские творческие деятели.*

Abstract. *This article discusses the reforms being implemented in New Uzbekistan in recent years, the consistent development of the cultural sphere, the comprehensive and in-depth study of*

positive experiences and traditions at the global level, achievements and results, the training of qualified specialists and scientific-pedagogical personnel in the field of national pop music in the Republic, and the creation of broad opportunities for their engagement in scientific and creative activities.

Keywords: *Independence, New Uzbekistan, reform, culture, achievement, result, national culture, national pop music, scientific and pedagogical personnel, State Conservatory of Uzbekistan, "teacher-apprentice", Uzbek creative artists.*

Mustaqillik yillarida respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning markazida inson va uning manfaatlari turdi. Barcha o'zgarishlarning pirovard maqsadi aholi farovonligini oshirishga qaratildi. 2017-yildan e'tiboran barcha sohalarda davlat o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Barcha sohalarda keng ko'lamli qayta qurish va islohotlarning yangi davri boshlandi. Xususan, barcha rahbarlar faoliyati qaytadan ko'rib chiqilib, tanqidiy tahlil qilindi. E'tiborning asosiysi ko'p yillardan buyon yetilib qolgan dolzarb masalalar va xalq manfaatlari yo'lida yechilishi zarur bo'lgan muammolarni hal qilishga qaratildi. Yangilanayotgan O'zbekistonda asosiy e'tibor ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratildi [1].

Yangi O'zbekistonda hukumat o'z faoliyatini xalq bilan muloqot va inson manfaatlariga e'tibor berishdan boshladi. Ayniqsa uzoq yillar mobaynida yetilib qolgan ko'plab muammolarni hal qilish, xususan korrupsiya, rahbarlar faoliyatiga tanqidiy tahlil asosida yondashish, har bir rahbarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish, xalqning dardu-tashvishlari bilan yashash, oddiy insonlar murojaatlari bilan ishlash tizimini shakllantirish, inson omiliga e'tibor kuchaydi. Shuningdek, joylarda xalq bilan ishlashning eng ta'sirchan mexanizmi, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonalari tashkil etildi. 2017-yil mamlakatimizda "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili", deb e'lon qilinishi "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun" degan olijanob g'oyani izchillik bilan hayotga tatbiq etishda yana bir muhim bosqich bo'ldi [2].

Davlatning bosh islohotchilik rolini oshirish va kuchli ijtimoiy himoya siyosatini yo'lga qo'yilishi natijasida davlat budjetining katta qismi ijtimoiy sohaga yo'naltirilishi mamlakat siyosiy tuzumining asosiy maqsadi milliy manfaatlar va xalq farovonligini ta'minlashga qaratilganligining ifodasidir.

Mustaqillik yillarida madaniyat sohasini izchil rivojlantirish, jahon miqyosidagi ijobiy tajriba va an'analar, yutuq va natijalarni har tomonlama chuqur o'rganish asosida madaniyat va san'at muassasalari faoliyatini samarali yo'lga qo'yish, ularning tarmog'ini kengaytirish, moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyatini mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor berilmoqda [3]. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil madaniyat va san'at sohasi rahbarlari bilan uchrashuvda shunday ta'kidlagan edi: "Bir haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak: mamlakatimizda madaniyat va san'at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Xalqimizning rivojlanish darajasi, avvalo, milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Shu ma'noda, madaniyat – bu xalqimiz, jamiyatimiz qiyofasidir. Biz O'zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz, buni avvalo, milliy madaniyatimizni rivojlantirishdan boshlashimiz lozim" [4].

Jumladan, respublikada milliy estrada yo'nalishi bo'yicha malakali mutaxassislar va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, ularning ilmiy-ijodiy faoliyat bilan shug'ullanishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-dekabrdagi "O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirov tavalludining 85 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi PQ-4908-son qarorida [5] belgilangan vazifalarni amalga oshirish doirasida, 2021-yil 16-oktabrdagi PQ-5261-son qarori [8]ga muvofiq O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzurida Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti tashkil etildi. Institutda shuningdek, Botir Zokirov xotirasiga bag'ishlangan yodgorlik majmuasi va muzey, o'zbek milliy estradasi namoyandalarining "ustoz-shogird" ijrochilik maktablari, zamonaviy ijodiy studiyalar va axborot-resurs markazi tashkil etildi. Muzeyga Botir Zokirov va Zokirovlar ijodiy sulolasi hayoti va faoliyati, milliy estrada san'atini rivojlanishi va dunyo miqyosida keng targ'ib etilishini yorqin aks ettiruvchi eksponatlar, Botir Zokirov ijodiga mansub tasviriy san'at namunalari hamda adabiy asarlar jamlanmasi tashkil etildi.

Davlatimiz rahbarining O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov, O‘zbekiston xalq artisti Botir Zokirov, O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov tavalludining yubiley sanalari nishonlanishi bilan bog‘liq hujjatlari milliy san’atimiz, adabiyotimizni e’zozlash, atoqli o‘zbek ijodkorlari xotirasiga ehtirom ko‘rsatish yo‘lidagi amaliy e’tiborning yana bir yorqin namunasidir.

Bugungi kunda milliy ma’naviyatimiz taraqqiyoti, ma’naviy barkamol insonning madaniyati masalalari davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Zero, “Ma’naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo‘q joyda hech qachon baxt-saodat bo‘lmaydi” [6]. Milliy musiqiy estrada san’ati ijrochiligini professional darajaga ko‘tarish, jumladan, estrada xonandaligi milliy maktabini yaratish va rivojlantirish yo‘lida ijobiy harakatlar qilinmoqda. 1996-yilda Toshkent davlat konservatoriyasida ilk bor “Estrada ijrochiligi” bo‘limining ochilishi, 2002-2003 o‘quv yilidan boshlab O‘zbekiston davlat konservatoriyasida yangi “Estrada san’ati” fakulteti, konservatoriya qoshida iqtidorli bolalar akademik litseyining tashkil etilishi shu soha rivojiga katta ahamiyat berilayotganligining yana bir dalili bo‘ldi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-2778-son qaroriga muvofiq “O‘zbeknavo” va “O‘zbekraqs” birlashmalari negizida “O‘zbekkonsert” davlat muassasasi tashkil etildi [9]. Milliy estrada san’ati bugungi kunda rivojlanish yo‘lidan bormoqda. Respublikada taniqli kompozitorlardan Mutavakkil Burhonov, Ikrom Akbarov, Manas Leviyev, Sulayman Yudakov, Doni Zokirov, Sharif Ramazanov, Enmark Solixov kabilarning yaratgan asarlari va ularni yuksak mahorat bilan kuylovchi xalq artisti Tamaraxonim, O‘zbekiston xalq artisti Botir Zokirovlarning uzoq yillik samarali izlanishlari tufayli estrada san’atining milliy shakli vujudga keldi.

Ma’lumki, o‘z vaqtida Botir Zokirov hamda Ikrom Akbarov, Enmark Solixov, keyinchalik “Yalla” guruhi va Yevgeniy Shiryayev, Muhabbat Shamayeva, Ra’no Sharipova, Yunus Turayev va Yevgeniy Jivayev, so‘ngra Farrux Zokirov, Doni Ilyosovlarning ijodiy mehnatlari tufayli zamonaviy o‘zbek estrada qo‘shiqchiligining mustahkam poydevoriga asos solinib, u kasbiy-badiiy sifatlariga ega bo‘ldi [7]. Ularning davomchilari o‘zbek estradasi yulduzlari darajasiga ko‘tarilgan iste’dodli xonandalardan – Yulduz Usmonova, G‘ulomjon Yoqubov, Nasiba Abdullayeva, Kumush Razzoqova, Kozim Qayumov, Azim Mullaxonov, Ravshan Nomozov hamda “Qars” va “Toshkent” guruhlari Alisher Ikromov, Dilorom Omonullayeva, Alisher Rasulov, Vladimir Baramikov, Sarvar Qoziyev kabi kompozitor va aranjirovkachilar hukumatning davlat dasturi bo‘yicha milliy estrada musiqasini rivojlantirish yo‘lida ijodiy izlanishlar olib bormoqdalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-fevraldagi “Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to‘lash mexanizmini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2753-son qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent: 2017. 6-son, 73-modda.

2. Mirziyoev Sh. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017 yil. – B. 7.

3. Fayzullaeva X. Madaniyat va san’at muassasalari faoliyatini samarali boshqarishda iqtisodiy omillardan foydalanish masalalari // O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Xabarlari. 2018/1(5). – B. 85.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning madaniyat va san’at sohasidagi dolzarb masalalar muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishda so‘zlagan nutqi, 25-dekabr 2021-yil // https://kun.uz/57189892?q=%2 fuz%2F57189892

5. O‘zbekiston xalq artisti Botir Zokirov tavalludining 85 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida // “Yangi O‘zbekiston”, 3 dekabr 2020. 233-son (233).

6. Karimov I. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 1996. 1-jild. – B. 81.

7. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi joriy arxivi. M-7-fond, 1-ro‘yxat, 599-ish, 2-varaq.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-oktabrdagi “Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-5261-son qarori. https://www.lex.uz/mact/-5680302.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-2778-son qarori. https://test.lex.uz/uz/docs/-3135875.

UO'K 008(575.1)

YANGI O'ZBEKISTONDA MADANIYAT VA SAN'AT SOHALARI RIVOJI

Bokiyev B. U., PhD, Qarshi davlat texnika universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Yangi O'zbekistonda zamonaviy o'zbek tasviriy san'ati turli yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatayotgan ijodkorlar, xususan, rassom va haykaltaroshlar faoliyati, o'zbek tasviriy va amaliy san'ati hamda dizayn yo'nalishlarini yanada rivojlantirishi, mutaxassislarning ijodiy imkoniyatlari oshib borishi, ularga shart-sharoit yaratish, badiiy salohiyatini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *Badiiy meros, jahon san'ati va madaniyati, zamonaviy o'zbek, tasviriy san'at, ijodkorlar, rassom, haykaltarosh, O'zbekiston Badiiy akademiyasi, milliy meros, islohotlar, shart-sharoit, milliy musiqa san'ati.*

Аннотация. *В данной статье освещается деятельность представителей современного изобразительного искусства Нового Узбекистана, работающих в различных направлениях творческой деятельности, в частности художников и скульпторов, дальнейшее развитие узбекского изобразительного и прикладного искусства, а также дизайна, повышение творческих возможностей специалистов, создание необходимых условий для их деятельности и проводимые реформы, направленные на повышение их художественного потенциала.*

Ключевые слова: *Художественное наследие, мировое искусство и культура, современное узбекское искусство, изобразительное искусство, деятели искусства, художник, скульптор, Академия художеств Узбекистана, национальное наследие, реформы, условия, национальное музыкальное искусство.*

Abstract. *This article examines the activities of representatives of contemporary Uzbek fine arts in New Uzbekistan, working in various fields of creative activity, particularly painters and sculptors. It also discusses the further development of Uzbek fine and applied arts, as well as design, the expansion of specialists' creative capabilities, the creation of favourable conditions for their work, and the reforms being implemented to enhance their artistic potential.*

Keywords: *Artistic heritage, world art and culture, contemporary Uzbek art, fine arts, creative professionals, painter, sculptor, Academy of Arts of Uzbekistan, national heritage, reforms, favourable conditions, national musical art.*

Respublikamiz o'zining boy badiiy merosi bilan jahon san'ati va madaniyati rivojiga katta hissa qo'shgan qadimiy sivilizatsiyalar o'chog'i sifatida dunyo davlatlari tomonidan e'tirof etilib kelinmoqda. Bugungi kunda zamonaviy o'zbek tasviriy san'atiga ko'plab yosh iste'dod egalari kirib kelmoqda. Ular turli yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatayotgan ijodkorlar, xususan, rassom va haykaltaroshlardir. Xalq ustalarining ijodida yangicha mazmun va shakl qaror topib, jahon san'at maydonida munosib o'rin egallamoqda. Ayniqsa, o'zbek tasviriy va amaliy san'ati hamda dizayn yo'nalishlarini yanada rivojlantirish, xalqimizning ushbu nafis san'atga bo'lgan estetik ehtiyojini qondirish O'zbekiston Badiiy akademiyasining faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirishni talab etadi. Keng yo'nalishda faoliyat olib borayotgan mutaxassislarning ijodiy imkoniyatlaridan unumli foydalanish, ularga shart-sharoit yaratish, badiiy salohiyatini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi PQ-3219-son qaroriga muvofiq "O'zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatini rivojlantirish va yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar" [1] dasturi ishlab chiqildi.

Tasviriy va amaliy san'at sohalarida milliy merosimizni tiklash, ya'ni mamlakatimiz tarixidagi ikkinchi Renessansning yirik vakili Kamoliddin Behzodning boy ijodiy merosini xalqimizga to'la yetkazish, soha rivojiga katta hissa qo'shgan atoqli rassom va xalq ustalari xotirasini abadiylashtirish, ijodiy yo'nalishda oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni tashkil etish, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn sohasi samaradorligini yanada oshirish maqsadida 2020-yil 21-aprelda Prezidentimizning "Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4688-son qarori qabul

qilindi [2]. Unga ko‘ra, Kamoliddin Behzod tavalludining 565 yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita tarkibi tasdiqlandi, uni nishonlashga oid chora-tadbirlar rejasi belgilandi.

Shuningdek, Prezident Sh. Mirziyoyevning 2020-yil 26-maydagi “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6000-son Farmonida O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish, sohada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, respublikaning barcha hududlarida teatr, muzey, ko‘chma sirk va hayvonot bog‘lari faoliyatini doimiy ravishda yo‘lga qo‘yish, madaniyat va san’at sohasidagi islohotlarni jadal davom ettirish, madaniyat organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish vazifalari qo‘yildi [3]. Farmonda madaniyat va san’at sohasining rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ijodkor ziyolilarga ijtimoiy va davlat buyurtmalari berishning huquqiy asoslari belgilandi.

Shuningdek, unda O‘zbekiston davlat konservatoriyasining o‘zbek maqom san’ati fakulteti hamda O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining tegishli ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari negizida maqom ijrochiligi, baxshichilik va katta ashula yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlar tayyorlovchi tayanch oliy ta’lim muassasasi – Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti, davlat muassasasi shaklidagi Madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi.

Bugungi kunda dunyoda ilm-fan va uning yutuqlarisiz, innovatsion g‘oyalarsiz biror soha istiqbolini tasavvur qilish juda mushkuldir. O‘zbekistonning eng katta boyligi – bu xalqning ulkan ma’naviy salohiyatidir. Davlat rahbarining tashabbusi bilan respublikada ta’lim va ilm-fan tizimini takomillashtirish bo‘yicha olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlar mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining ustuvor vazifalaridan biriga aylandi [4].

Respublika hukumatining iqtisodiyot sohasidagi boshqaruv usulining to‘g‘ri yo‘naltirilganligi xususan, aholining madaniy xizmat turlariga, dam olish va hordiq chiqarishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga bo‘lgan e’tibor ziyoli qatlam vakillariga ijtimoiy foydali xizmatlarni yanada rivojlantirishga imkon berdi. Shuning uchun ham mamlakatimizda yuritilayotgan iqtisodiy siyosat madaniyat xodimlarining moddiy manfaatdorligini qondirishni, shu bilan birga madaniyat va san’at muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularning tarmoqlarini kengaytirish, ijtimoiy-tarbiyaviy faoliyatini takomillashtirish, madaniyat va san’at sohasini monosubyekt modelidan polisubyekt modelida rivojlantirish imkonini berdi [5].

Hukumat tomonidan belgilab berilgan chora-tadbirlar rejasi madaniyat va san’at muassasalarining o‘z faoliyatida xo‘jalik yuritishning turli ko‘rinishlari va usullaridan foydalanish imkonini bermoqda. Xorijiy davlatlar tajribasidan ma’lumki, Xitoyda ham madaniyat va san’at muassasalari asosan davlat qaramog‘ida. Biroq bu madaniyat va san’at muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, xodimlarni qo‘llab-quvvatlash, ixtiyoriy uyushmalar tuzishning moliyalashtirishda aholiga pullik xizmat ko‘rsatishdan tushgan daromadlar ham ishtirok etishi mumkin. Xitoy madaniyat va san’at muassasalari rang-barang faoliyat bilan shug‘ullanuvchi madaniyat va san’at korxonasini eslatadi [6].

Xorijiy mamlakatlarda madaniyat va san’at muassasalarini moliyalashtirish modellari turlicha bo‘lib, davlat va xususiy manbalar birgalikda qo‘llanilishi mumkin. Masalan, AQShdagi Smithsonian Institution federal ajratmalar bilan birga xususiy mablag‘lardan ham foydalanadi [7]. Shu sababli AQSh va boshqa sanab o‘tilgan mamlakatlarda davlat tomonidan moliyalashtiriladigan madaniyat muassasalari yo‘q, degan umumiy xulosa chiqarish to‘g‘ri emas. Ammo o‘tkaziladigan madaniy-ommaviy tadbirlar, havaskorlik uyushmalarining chiqishlari mahalliy hokimiyat, san’at bo‘yicha maxsus fondlar orqali qo‘llab-quvvatlanadi. Masalan, Shotlandiyada havaskorlarga xalq an’anaviy san’ati bilan shug‘ullanuvchilarga maxsus san’at fondi yordam ko‘rsatadi. O‘zbekistonda esa madaniyat va san’at xodimlarining moddiy manfaatdorligini unutmagan holda ularni bepul xizmat qilishga jalb qilish, pullik xizmat bilan bepul xizmatni muvofiqlashtirish, havaskorlik ijodidan madaniyatni rivojlantirishda foydalanish, kishilarning bo‘sh vaqtini unumli o‘tkazishni yo‘lga qo‘yish kabilar sohada amalda bo‘lgan ish yuritish shakli hisoblanadi.

Bugungi murakkab globallashuv davrida ma’naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma’naviyatini asrash va yuksaltirish, ayniqsa, yosh avlodning qalbi va ongini

turli zararli g‘oya va mafkuralar ta’siridan saqlash va himoya qilish masalalariga alohida e’tibor qaratilayotgan bir davrda soha vakillarining ma’naviy salohiyati yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 16-августдаги ПҚ-3219-сон қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. –Тошкент 2017. 34-сон, 876-модда.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tasviriy va amaliy san’at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // “Xalq so‘zi”, 22-aprel 2020. 82 (7584).

3. Prezident Sh. Mirziyoyevning 2020-yil 26-maydagi “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. O‘zbekiston Respulikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – Toshkent: 2020. 0673-son.

4. Мухаммадиев Ў.А., Юзбаева М.З. Олий таълим ва илмий тадқиқот муассасалари ходимларининг меҳнатини рағбатлантиришда меҳнатга ҳақ тўлашнинг ўрни // Таълим, фан ва ишлаб чиқариш интеграциясида инновацион технологияларни қўллаш-мамлакат тараққиётининг муҳим омили” мавзусидаги XV Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. V қисм. – Самарқанд: 2-3 июнь 2018. – Б. 97.

5. Юлдашев А. Мустақил Ўзбекистонда маданиятни бошқариш муаммолари. Фалсафа фанл. докт. дисс… автореферати. – Тошкент: 2000. – Б. 12.

6. Файзуллаева Х. Маданият ва санъат муассасалари фаолиятини самарали бошқаришда иқтисодий омиллардан фойдаланиш масалалари // ЎзДСМИ Хабарлари. 2018/1(5). – Б. 86.

7. Smithsonian Institution. Frequently Asked Questions. https://www.si.edu/support/frequently-asked-questions.

UO‘K 070:654.19

TELERADIOJURNALISTIKADA HUDUDIYLASHUV VA IXTISOSLASHUV MASALALARI (XORAZM TVR MISOLIDA)

N.S.Boltaev, katta o‘qituvchi, O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Xorazm telejurnalistika maktabi, dasturlari, ularni yoritishda hududiylashuv va ixtisoslashuvning o‘ziga xos yutuqlari va kamchiliklari borasida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Xorazm televideniyesi, ijodiy maktab, hududiylashuv, ixtisoslashuv, mahalliy muammolar.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются Хорезмская школа тележурналистики, её программы, а также специфические достижения и недостатки регионализации и специализации в процессе их освещения.*

Ключевые слова: *Хорезмское телевидение, творческая школа, регионализация, специализация, местные проблемы.*

Abstract. *This article discusses the Khorezm school of television journalism, its programs, as well as the specific advantages and disadvantages of regionalization and specialization in their coverage.*

Key words: *Khorezm television, creative school, regionalization, specialization, local issues.*

Kirish. Radio va televideniyedan dastlab axborot tarqatish vositasi sifatida foydalanilgan. Keyinchalik ular siyosiy, madaniy va ijtimoiy g‘oyalarni targ‘ib qilish imkoniyatlarini ham kengaytirdi. Ushbu vositalar uzoq masofalarga xabar yetkazish, jamoatchilikni xabardor qilish va kundalik hayotga ta’sir ko‘rsatishda muhim o‘rin egalladi.

Ayniqsa, har bir davrga xos mafkuraviy kuchlar o‘z g‘oyalarini targ‘ib qilib, inson ruhiyatiga, tuyg‘ulariga ta’sir qilishda bu imkoniyatdan keng foydalanishga intilgan. Bu borada rus olimi V. Krisko: "Axboriy-psixologik ta’sir – bu so‘z, axborotning ta’siri. Ushbu turdagi psixologik ta’sir o‘zining asosiy maqsadi sifatida ma’lum mafkuraviy (ijtimoiy) g‘oyalar, qarashlar, tasavvurlar, e’tiqodlarni shakllantiradi, odamlarda ijobiy yoki salbiy his-tuyg‘ularni paydo qiladi” [1], deya yozgan.

Ma’lumki, 1956-yil 5-noyabrda Toshkentda O‘rta Osiyo mintaqasidagi birinchi telemarkaz qurilishi yakunlangan [3]. O‘zbekiston milliy televideniyesi: zamon bilan hamqadam” kitobida

ta’kidlanishicha, Toshkentda televizion ko‘rsatuvlarni muntazam efirga uzatish 1956-yildan boshlangan” [2].

Mazkur sanadan besh yil o‘tgach, mamlakatimiz hududida ikkinchi televideniye faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Xorazm televideniyesi ilk bor 1961-yil 31-dekabr kuni efirga chiqqan [2].

Filologiya fanlari doktori (DSc) P.K. Allambergenovaning yozishicha, garchi Qoraqalpog‘iston televideniyesi 1964-yildan o‘z ishini boshlagan bo‘lsa-da, qoraqalpoq tilidagi ko‘rsatuvlarni efirga uzatish 1961-yildan amalga oshirilgan. Ya’ni, Xorazm televideniyesi Qoraqalpog‘istonning chegara tumanlarini ham qamrab olganligi sababli, ular uchun maxsus ko‘rsatuvlar tayyorlangan [4].

2026-yilda Xorazm televideniyesi tashkil etilganiga 65 yil to‘ladi. Bu vaqt oralig‘ida xorazmlik teleradiojurnalistlar o‘z ijodiy maktablariga asos qo‘yishdi, shakllantirishdi, rivojlantirishdi. Telejurnalistlar Jabbor Jumaniozov, Do‘stjon Matjonov, Ismoil Shomurodov, Ozod Ro‘zmetov, Quronboy Matrizayev, Nur Ahmad, O‘tkir Matqurbonov, Rashid Jumaniozov, Raxmon Sultonov, Abdulla Sobirov, Abdurahim Otamurodov, Ollom Xudaynazarov, Otamurot Pirmatov, Mirsiddiq Usmonov, Dilbar Ro‘zmetova, Bekposhsha Xo‘jaeva, Muborak Abduhalilova, Igor Al’tman, Davron Sharipov, Boris Rudnev, Ibrohim Ismoilov, Shuhratjon Matkarimov, Qahramon Soburov, Ro‘zmat Otaev, Quronboy Qulimov, Muhammad Sapaev, Muborak Eshjonova, Gulbahor Ro‘zmetova, Sayyora Xasanova, Boltabika Jumaniozova, Gulsanam Mannonova, Xayitboy Matyoqubov, rejissorlar Erkaboy Jumagaldiev, Kenja Qurbonboev, Muxtorjon G‘aniev, Komiljon Rajabov, Yuldosh Otanazarov, operatorlar Sobir Xudoyberganov, Baxtiyor Buriyev, Maxmudjon To‘jimurodov, Saparboy Botirov, Albert Siddiqov, Bardi Xusainov, Xorazm televideniesining ilk diktorlari Shukurjon Polvonova, Stella Matveeva (keyinchalik telejurnalist), Nukuljon Inoyatova, Nina Danilyuk, Dilbar Ibrohimova, Bibisora Otaeva kabi jonkuyarlar bu maktabning shakllanishi va rivojlanishiga alohida hissa qo‘shishgan.

Bu maktabning barpo bo‘lishi turli davr va turli janrlarda efirga uzatilgan yirik va muhim dasturlar bilan bog‘liq. “Oltin voha”, “Yoshlik gulshani”, “Qopqon”, “Inson va qonun”, “Keling bellashaylik”, “Gulchehralar”, “Dehqon va zamin”, “Qadamingda gullar ochilsin”, “Mening fikrim”, “Davraga kel, dugonajon”, “Nafosat” kabi ko‘rsatuvlar voha ahlining mehrini qozongan va mashhurlik qozonib, tomoshabinlarning e’tiborini o‘ziga jalb qilgan. Ushbu dasturlarning har biri o‘zining maxsus mavzulari, axloqiy va madaniy qadriyatlarni targ‘ib qilishdagi ahamiyati bilan ajralib turgan.

Mashhurligi esa telejurnalistlar faoliyatlarida bir qator mas’uliyatlarni o‘z zimmasiga olganliklari bilan bevosita bog‘liq. Haqiqatni yetkazish, aniq va ishonchli ma’lumotlarni taqdim etish, har qanday xabarni tarqatishdan oldin uni tekshirish, bir nechta manbalar asosida tasdiqlash va auditoriyaga ta’sirini hisobga olish, ijtimoiy xavfsizlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni tarqatmaslik, siyosiy va moliyaviy bosimlarga qarshi turish kabi mas’uliyatlar faoliyatning asosiy tamoyillaridan biridir.

Bitta misol. O‘tgan asrning 80- 90-yillarida ular o‘z faoliyatlarida yangicha yondashuv – hududiylashuv, ya’ni ma’lum tuman, chegara, had [4] doirasida (regionlashuv) ijod qilishni sinab ko‘rishdi. Ma’lumki, viloyat televideniyelarida hududiylashuv deganda jurnalistlarning tuman miqyosida ixtisoslashuvi tushuniladi. Hududiylashuv – bu jurnalistning aniq bir geografik hududda faoliyat yuritishi va o‘sha hududga xos barcha yangiliklarni qamrab olib, ularni atroflicha yoritishga harakat qilishidir. Bunday yondashuv, avvalo, o‘sha hududining ijtimoiy, iqtisodiy, qurilish, madaniy hayotiga chuqur e’tibor qaratish, aholi uchun dolzarb bo‘lgan masalalarni aniq va ishonchli yoritish bilan birga, atrofdagi voqealarga nisbatan ko‘proq mahalliy va xususiy qarashlarni ilgari surishga, ommaga yanada yaqinlashishga, ularning muammolari, ehtiyojlari va istaklarini kengroq, aniqroq tushuntirib berishga xizmat qiladi. Hududning o‘ziga xosligini tushunish, uning boshqa hududlardan ajralib turuvchi xususiyatlarni yoritish – regionlashtirilgan jurnalistikaning muhim jihatlaridan biridir.

Biroq, bu yondashuvning ayrim murakkabliklari ham mavjudligi bilinib qoldi. Hududlarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy holati, axborot oqimining cheklanganligi qiziqarli va dolzarb materiallarni taqdim etishni qiyinlashtiruvchi birinchi sabab bo‘lsa, jurnalistlarning o‘z faoliyatlarini aniq va xolis amalga oshirishda asosiy institutsional va moliyaviy qiyinchiliklar, mustaqillik va

obyektivlikni ta’minlash uchun barcha resurslarning yetishmasligi mavjud axborot manbalarining bir xil to‘liqligini va ishonchliligini ta’minlashni mushkullashtirgan.

Shunga qaramay, regionlashtirilgan jurnalistika o‘zining ijtimoiy va madaniy maqsadlari orqali jamiyatni shakllantirishda, mahalliy hayotga ta’sir etuvchi muhim muammolarni yoritishda sezilarli darajada ahamiyatli rol o‘ynaydi. Hududga xos yangiliklar va ma’lumotlarni aniq va to‘g‘ri yetkazish, jamoatchilikning haqiqatga bo‘lgan ishonchini oshirish va mahalliy muammolarni ko‘rsatish orqali aholining ehtiyojlariga javob berishda muhim vazifalarni bajaradi.

Hozirgi kunda regionlashtirilgan jurnalistika o‘zining yanada kengaygan shakllari bilan, hamkorlik va axborot almashishning yangi imkoniyatlari orqali o‘z o‘rnini mustahkamlashda davom etish barobarida yangi strategiyalar va texnologiyalarga murojaat qilish zaruratini talab qilmoqda.

Hududiylashuv amaliyotga kiritilganidan keyin oradan bir oz muddat o‘tganidan so‘ng, televideniya ijodkorlari orasida ma’lum bir soha doirasida ixtisoslashuv amaliyoti ham kuchga kirdi. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida ixtisos haqida shunday deyiladi: “Ixtisos – inson tomonidan hayotning muayyan sohasi bo‘yicha maxsus tayyorgarlik yo‘li bilan hosil qilingan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar majmui. Ixtisos kasb, mutaxassislik singari tushunchalarga nisbatan torroq ma’noda qo‘llaniladi va muayyan kasb yoki mutaxassislikning biror sohasini anglatadi” [4]. Bu fikrga asoslangan holda, ixtisoslashuv jurnalistning siyosat, iqtisodiyot, tibbiyot, sport, madaniyat, san’at kabi aniq bir sohada mutaxassis darajasiga chiqishini anglatadi, deyish mumkin. Afzalligi shundaki, jurnalist bir sohada chuqur bilimga ega bo‘lib, murakkab mavzu va hodisalarni tushuntirishda hamda tahlil qilishda yanada tajribali bo‘ladi.

Jurnalist ixtisoslashuvining ham o‘ziga xos kamchiliklari mavjud. Birinchidan, ma’lum bir sohada ixtisoslashgan jurnalistning auditoriyasi ham cheklanib qolishi mumkin. Aytaylik, aniq bir fan yoki sohada bag‘ishlangan materiallar ba’zan keng yoki ommaviy tinglovchiga qiziq bo‘lmasligi bor gap. Ikkinchidan, ixtisoslashgan jurnalist vaqt o‘tgan sayin ushbu sohaning yakka o‘lchamlariga kirib ketish xavfi bor. Qolaversa, boshqa soha muammolarini yoritishga qiynalib qolishi, boshqa sohalarga oid bilim yoki tajriba yetishmasligi sababli muammo paydo bo‘lishi mumkin.

Xorazmlik telejurnalistlar ijodini kuzatar ekanmiz, regionallashuv va ixtisoslashuvning o‘z afzalliklari va kamchiliklari borligi ko‘zga yaqqol tashlanadi. Shunday ekan, qaysi birini tanlash muhim? Bizningcha, bu jurnalistning shaxsiy qiziqishlariga va professional maqsadlariga bog‘liq. Agar u o‘z shahri yoki tumani haqida bag‘ishlangan mahalliy muammolarni yoritishni xohlasa, regionallashuv usuli maqbul. Aniq bir sohada kuchli bilim va tajribaga ega bo‘lishni istasa, u holda ixtisoslashuvi maqsadga muvofiqdir.

Bu, o‘z navbatida, boshqa sohalarga oid muammolarni yoritishda qiyinchiliklar yaratadi va boshqa sohalar bo‘yicha bilim yoki tajriba yetishmasligi sababli tahlil qilishda xatoliklar yuzaga kelishi mumkin.

Shu o‘rinda, jurnalistika sohasida hududiylashuv va ixtisoslashuv o‘rtasidagi farqni tushunish nihoyatda muhimdir. Har bir usulning o‘z afzalliklari va kamchiliklari mavjud. Masalan, regionalizatsiya jurnalistga o‘zining yashash joyi yoki mintaqasida yuzaga kelayotgan voqealar va muammolarni chuqur yoritish imkonini beradi. Ixtisoslashuv esa, alohida bir sohada mukammal bilim va tajriba shakllantirishga xizmat qiladi, bu esa ko‘proq ma’lumotli va tahliliy yondashuvni ta’minlaydi.

Har bir jurnalistning o‘z ishini qanday tashkil qilishini tanlashi muhimdir. Agar jurnalist o‘z shahri yoki mintaqasiga oid mahalliy masalalarni yoritishni xohlasa, hududiylashuv uning uchun maqbul tanlov bo‘lishi mumkin. Agar jurnalist aniq bir soha bo‘yicha chuqur bilim va tajriba orttirishni istasa, u holda ixtisoslashuv o‘ziga maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bizningcha, ixtisoslikning kuchayib borishi avvalo global auditoriyaga chiqish osonlashgani bilan izohlanadi. Endilikda Xorazm TVRni dunyoning istalgan nuqtasidan tomosha qilish, tinglash mumkinligi ham fikrimizga asos bo‘la oladi. Ixtisoslashgan jurnalist tahlili, tushuntirishi va chuqur bilimi bilan ustunlikka ega. Lekin, ixtisoslashgan jurnalistni hushyor torttiradigan jihatlar ham bor. Bu avvalo, voqealarning mahalliy jihatlarini yetarlicha anglamasligida ko‘rinadi. Shuning uchun ham ixtisoslashuv va ma’lum bir hududni yaxshi bilish jurnalist nufuzini yanada oshiradi.

Globalizatsiya sharoitida ixtisoslashuv juda kuchli ustunlik beradi. Uni regional tushuncha bilan boyitish — eng to‘g‘ri strategiyadir. Shu ma’noda xorazmlik teleradiojurnalistlar to‘g‘ri yo‘lni tanlaganlar, deb aytish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Крысько В. Секреты психологической войны (цели, задачи, методы, формы, опыт). – Минск, 1999.
2. Ўзбекистон миллий телевидениеси: замон билан ҳамқадам. Тошкент, “O‘zbekiston” НМИУ, 2016.
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/O‘zbekistonda_televideniye
4. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O‘zbek%20tilining%20izohli%20lug‘ati%20-%20H.pdf

UO‘K 28-1:316.4

TASAVVUF ALLOMALARI ASARLARIDA IJTIMOIY HAMJIHATLIK VA BARQARORLIK G‘OYALARINING IFODALANISHI

Choriyeva D., PhD, O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Toshkent

Annotatsiya. *Mazkur tadqiqot tasavvuf allomalari asarlarida ijtimoiy hamjihatlik va barqarorlik g‘oyalarining tarixiy-falsafiy, ma’naviy-axloqiy hamda ijtimoiy jihatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Unda Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Rumiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bahouddin Naqshband va Xoja Ahror Valiy merosida ilgari surilgan mehr-oqibat, bag‘rikenglik, adolat, saxovat, o‘zaro hurmat va insonparvarlik tamoyillari yoritiladi. Shuningdek, shaxs ma’naviy kamoloti va jamiyat barqarorligi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ochib beriladi. Tadqiqotda tasavvufiy-ma’naviy merosning ijtimoiy birdamlik, tinchlik-totuvlik va zamonaviy jamiyatda barqarorlikni ta’minlashdagi ahamiyati asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *tasavvuf, tasavvuf allomalari, ijtimoiy hamjihatlik, ijtimoiy barqarorlik, ma’naviy kamolot, insonparvarlik, bag‘rikenglik, adolat, axloqiy qadriyatlar, mehr-oqibat, birdamlik, murosa, ijtimoiy munosabatlar.*

Аннотация. *Данная статья посвящена исследованию историко-философских, духовно-нравственных и социальных аспектов идей общественного согласия и стабильности, отражённых в трудах выдающихся представителей суфизма. В ней рассматриваются принципы милосердия, толерантности, справедливости, щедрости, взаимного уважения и гуманизма, нашедшие отражение в духовном наследии Ахмада Ясави, Наджмиддина Кубро, Джалаладдина Руми, Абдурахмана Джами, Алишера Навои, Бахауддина Накшбанда и Ходжи Ахрара Вали. Раскрывается тесная взаимосвязь между духовным совершенствованием личности и общественной стабильностью. Обосновывается значение духовно-нравственного наследия суфизма в укреплении общественного единства, мира, согласия и стабильности в современном обществе.*

Ключевые слова: *суфизм, суфийские мыслители, социальная солидарность, социальная стабильность, духовное совершенствование, гуманизм, толерантность, справедливость, нравственные ценности, милосердие, единство, согласие, социальные отношения.*

Abstract. *This article examines the historical-philosophical, spiritual-moral, and social aspects of the ideas of social harmony and stability reflected in the works of prominent Sufi scholars. It explores the principles of compassion, tolerance, justice, generosity, mutual respect, and humanism embodied in the spiritual heritage of Ahmad Yasawi, Najmuddin Kubra, Jalaluddin Rumi, Abdurahman Jami, Alisher Navoi, Bahauddin Naqshband, and Khoja Ahrar Vali. The article also reveals the close relationship between the spiritual development of individuals and social stability. Furthermore, it substantiates the significance of the spiritual and moral heritage of Sufism in strengthening social unity, peace, harmony, and stability in contemporary society.*

Keywords: *Sufism, Sufi thinkers, social solidarity, social stability, spiritual self-improvement, humanism, tolerance, justice, moral values, compassion, unity, social harmony, reconciliation, social relations.*

Kirish. Bugungi globallashuv va ijtimoiy-siyosiy transformatsiyalar sharoitida jamiyatda tinchlik, barqarorlik, ijtimoiy hamjihatlik va o‘zaro bag‘rikenglikni ta’minlash masalasi alohida

ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Turli ijtimoiy, madaniy va dunyoqarashga ega bo‘lgan qatlamlar o‘rtasida o‘zaro hurmat, muloqot va hamkorlikni mustahkamlash zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, tarixiy-madaniy merosda mujassam bo‘lgan insonparvarlik, adolat, bag‘rikenglik, mehr-oqibat va o‘zaro hamjihatlik g‘oyalarini ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarb vazifalardan biridir.

Markaziy Osiyo xalqlarining ma’naviy taraqqiyoti tarixida tasavvuf ta’limoti va uning yirik namoyandalari – Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy, Jaloliddin Rumiy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning ijodiy-ma’naviy merosi muhim o‘rin tutadi. Ularning asarlarida insonning ma’naviy kamoloti bilan bir qatorda, jamiyatda adolat va osoyishtalikni qaror toptirish, insonlar o‘rtasida mehr-oqibat va o‘zaro hurmatni kuchaytirish, nafrat va adovatning oldini olish, muhtojlarga ko‘maklashish, halol mehnat qilish va jamiyat manfaatiga xizmat etish kabi g‘oyalar keng targ‘ib etilgan [1].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tasavvuf allomalari merosida inson ma’naviyati, komil inson, axloqiy kamolot hamda ijtimoiy munosabatlar masalalari O‘zbekiston va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan turli yo‘nalishlarda o‘rganilgan. Xususan, Najmiddin Komilov tadqiqotlarida tasavvufning insonparvarlik mohiyati, komil inson axloqi, nafs tarbiyasi, futuvvat va insonning jamiyatdagi o‘rni masalalari keng tahlil qilingan. Olim tasavvuf ta’limotida inson axloqini takomillashtirish ijtimoiy nizolar va ziddiyatlarni bartaraf etishning ma’naviy asoslaridan biri sifatida talqin qilingan [2].

Alisher Navoiyning tasavvufiy qarashlari va “Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi komil inson konsepsiyasi N. Komilov, B. Valixo‘jaev va boshqa adabiyotshunos olimlar tadqiqotlarida yoritilgan. Ularda Navoiy ijodida insonparvarlik, adolat, mehr-oqibat, saxovat va ma’naviy yetuklik g‘oyalarining o‘rni ochib berilgan. Shuningdek, Navoiyning Jomiy tasavvufiy an’analarini davom ettirib, ularni turkiy adabiy va ma’naviy muhitda rivojlantirgani ta’kidlangan [3].

Xoja Ahror Valiyning ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy merosi B. Valixo‘jaev, U. Uvatov, A. Juzjoniy, R. Tillaboev, B. Ahmedov, N. Komilov, G. Navro‘zova, R. Shodiev, B. Bobojonov, X. Raxmatova va boshqa tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Mazkur tadqiqotlarda Xoja Ahrorning jamiyat hayotidagi ishtiroki, adolat, tinchlik va murosa g‘oyalari, xalq manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan faoliyati tahlil qilingan. Jumladan, X. Raxmatovaning tadqiqotlarida Xoja Ahror Valiy ma’naviy merosida murosa falsafasi, tinchlik va ijtimoiy kelishuv masalalari maxsus tadqiq etilgan.

Muhokama va natijalar. Markaziy Osiyo xalqlarining ma’naviy-madaniy taraqqiyotida tasavvuf ta’limoti alohida o‘rin egallaydi. Tasavvuf faqat insonning ruhiy-irfoniy kamolotini ta’minlashga qaratilgan ta’limot bo‘lib qolmay, balki insonning jamiyatdagi o‘rni, axloqiy mas’uliyati, boshqa insonlarga munosabati va ijtimoiy hayotdagi faoliyati bilan bog‘liq masalalarni ham qamrab olgan. Tasavvuf allomalari o‘z asarlarida komil inson konsepsiyasi orqali ma’naviy poklik, adolat, mehr-oqibat, saxovat, qanoat, sabr, bag‘rikenglik va o‘zaro hurmat kabi qadriyatlarni targ‘ib etganlar [4]. Tasavvuf ta’limotining markaziy masalalaridan biri insonning o‘zligini anglashi va ma’naviy kamolotga erishishidir. Biroq mazkur kamolot faqat shaxsiy tajriba doirasida qolmay, insonning jamiyat va atrofidagi kishilar bilan munosabatida ham o‘z ifodasini topadi. Shu ma’noda tasavvufdagi “komil inson” g‘oyasi ijtimoiy-axloqiy mazmunga ega bo‘lib, u shaxsni ezgulik qilish, boshqalarga naf keltirish, adolat va insof asosida yashashga undaydi [1. 136-b].

Ahmad Yassaviyning “Devoni Hikmat” asarida ham insonning ma’naviy tarbiyasi, nafsni jilovlash, dunyoga hirs qo‘ymaslik, kamtarlik va insoniy fazilatlarni ulug‘lash bilan bog‘liq g‘oyalar salmoqli o‘rin egallaydi. Yassaviy ta’limotida insonning haqiqiy qadri uning tashqi mavqei yoki boyligi bilan emas, balki ma’naviy pokligi va ezgu amallari bilan belgilanadi. Bu qarash ijtimoiy munosabatlarda tenglik, o‘zaro hurmat va inson qadrini e’zozlash tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi [5]. Shu bilan birga, Yassaviyning tasavvufiy qarashlarida nafsni yengish g‘oyasi ham ijtimoiy ahamiyatga ega. Zero, manmanlik, ochko‘zlik, hasad, kibr va adovat kabi illatlar nafaqat shaxsning ma’naviy holatiga, balki jamiyatdagi munosabatlarga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Aksincha, sabr, qanoat, saxovat va mehr-oqibat kabi fazilatlar insonlar o‘rtasida ishonch va hamjihatlikni kuchaytiradi.

Bahouddin Naqshband ta’limotida ham insonning jamiyatdan uzilib qolmasligi, halol mehnat qilishi va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi muhim o‘rin tutadi. Naqshbandiya ta’limoti bilan bog‘liq bo‘lgan “Dil ba yor, dast ba kor” tamoyili insonning ma’naviy hayoti bilan amaliy faoliyati o‘rtasidagi uyg‘unlikni ifodalaydi [6].

Xoja Ahror Valiy faoliyatining o‘zi ham tasavvufning ijtimoiy mohiyatini anglash uchun muhim manba hisoblanadi. U jamiyatdagi turli tabaqalar o‘rtasidagi munosabatlar, hokimiyat va xalq manfaatlari, muhtojlarga yordam berish kabi masalalarga e’tibor qaratgan. Shu jihatdan uning merosida tasavvufning “jamiyatdan uzoqlashish” emas, balki jamiyat hayotiga ma’naviy ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan jihatlari namoyon bo‘ladi [7].

Akademik B. Valixo‘jayev o‘zining “Xoja Ahror tarixi: (Samarqand va samarqandliklar)” nomli asarida Xoja Ahror Valiyning jamiyat hayotidagi faol ishtiroki, xalq manfaatlarini himoya qilish va insonlarga ijtimoiy jihatdan naf keltirishga qaratilgan faoliyatini keng yoritadi. Muallif ta’kidlaganidek, Naqshbandiya ta’limotida insonning boshqalarga foyda keltirishi, kishilar ko‘nglini xushnud etishi muhim axloqiy qadriyatlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, Xoja Ahror Valiyning musulmonlarni zulm va adolatsizlikdan himoya qilish, ularning manfaatlarini ko‘zlab hokimiyat vakillari bilan muloqot olib borishi uning tasavvufiy qarashlarining amaliy-ijtimoiy mazmunini yaqqol ifodalaydi [7. 68-72 betlar].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo xalqlarining ma’naviy taraqqiyoti tarixida tasavvuf ta’limoti insonning ichki dunyosi, axloqiy kamoloti va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirishga qaratilgan muhim ma’naviy-falsafiy ta’limot sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot davomida ko‘rib chiqilgan Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy, Jaloliddin Rumiy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy merosi tahlili tasavvufda inson kamoloti masalasi shaxsiy ruhiy poklanish bilan cheklanib qolmaganini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Моваройуннаҳр, 2009. – Б. 137–145.
2. Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. – Тошкент: Ёзувчи, 1996. – Б. 272
3. Валихўжаев Б. Хожа Аҳрор тарихи. – Тошкент, 1993. – 70 б.
4. Бертелс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. – Москва: Наука, 1965. – С. 25–32.
5. Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар. //Таҳрир ҳайъати: А.Қаюмов ва бошқ; Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи, тўпловчи И.Ҳаққулов;/. –Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – 256 б.
6. Р. Султонов, “Нақшбандия тариқати ва унинг ижтимоий-фалсафий аҳамияти”. – Тошкент: Фан, 2018, 17-бет.
7. Валихўжаев Б. Хожа Аҳрор тарихи: (Самарқанд ва самарқандликлар). – Тошкент: Ёзувчи, 1994. – 96 б.

UO‘K 327(575.1)

TURKIY DAVLATLAR HAMKORLIGIDA O‘ZBEKISTONNING TUTGAN O‘RNI: TARIXIY ASOSLAR VA YANGI TASHABBUSLAR

S.R.Davletov, tarix fanlari doktori (DSc), professor, Ma’mun universiteti, Xiva
Sh.X.Yusupov, PhD, Ma’mun universiteti, Xiva
Yu.X.Yuldashev, PhD, dotsent, Ma’mun universiteti, Xiva

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekistonning Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) doirasidagi hamkorligi tarixiy va institutsional yondashuv asosida tahlil qilinadi. Unda so‘nggi yillardagi sammitlar va rasmiy uchrashuvlar misolida transport, raqamli iqtisodiyot, innovatsiya va madaniy aloqalarning mazmun-mohiyati ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston, turkiy dunyo, Turkiy davlatlar tashkiloti, O‘rta yo‘lak, raqamli iqtisodiyot, innovatsiya, madaniy diplomatiya.*

Аннотация. *В статье анализируется сотрудничество Узбекистана в рамках Организации тюркских государств (ОТГ) с опорой на исторический и институциональный подходы. Рассматривается содержание взаимодействия в таких сферах, как транспорт, цифровая экономика, инновации и культурные связи, на примерах недавних саммитов и официальных встреч.*

Ключевые слова: *Узбекистан, тюркский мир, Организация тюркских государств, «Средний коридор», цифровая экономика, инновации, культурная дипломатия.*

Abstract. *The article analyzes Uzbekistan's cooperation within the framework of the Organization of Turkic States (OTS) based on historical and institutional approaches. It examines the substance of cooperation in areas such as transport, the digital economy, innovation, and cultural ties, drawing on examples from recent summits and official meetings.*

Key words: *Uzbekistan, Turkic world, Organization of Turkic States, Middle Corridor, digital economy, innovation, cultural diplomacy.*

Kirish. Turkiy dunyo deganda til va tarixiy-madaniy aloqalarga ega xalqlar hamda ularning keng geografik makoni tushuniladi. Turkiy davlatlar tashkiloti esa a'zoligi, hujjatlari va institutlari belgilangan hukumatlararo tuzilmadir. Turkiy davlatlar o'rtasidagi hozirgi institutsional hamkorlik mustaqillikdan keyin shakllangan uzoq muddatli muloqot natijasidir. 1992-yilda davlat rahbarlari darajasida boshlangan uchrashuvlar dastlab o'zaro siyosiy aloqalarni yo'lga qo'yish va umumiy manfaatlarni muhokama qilishga xizmat qildi. Keyinchalik muntazam sammitlar, ko'p tomonlama bitimlar va ixtisoslashgan tuzilmalar paydo bo'lishi bilan hamkorlikning huquqiy hamda tashkiliy asoslari mustahkamlandi. Shu jihatdan, bugungi Turkiy davlatlar tashkilotini faqat umumiy til va tarixiy xotira ifodasi sifatida emas, balki a'zo mamlakatlar muayyan sohalarda kelishuvga erishadigan hukumatlararo maydon sifatida o'rganishni ham taqozo qiladi.

O'zbekistonning ushbu jarayondagi ishtiroki hamkorlikning geografik va amaliy ko'lamini kengaytirdi. Mamlakatning Markaziy Osiyodagi joylashuvi transport aloqalari uchun ahamiyatli bo'lsa, uning ilmiy muassasalari, tarixiy shaharlari va madaniy merosi ta'lim, tadqiqot hamda turizm sohalarida qo'shma tashabbuslarga asos yaratadi.

Tahlil va natijalar. Turkiy tilli xalqlarning aloqalari qadimgi va o'rta asrlardagi migratsiya, savdo, siyosiy munosabatlar hamda adabiy an'analar bilan bog'liq. VI asr Turk xoqonligi va keyingi turkiy sulolalar tarixiy o'rganish uchun muhim mavzulardir. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" va Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarlari til, ijtimoiy tasavvurlar va siyosiy tafakkurni o'rganishda alohida o'rin tutadi. Shu bilan birga, mintaqaning barcha tarixiy davlatlari yoki allomalarini bitta etnik tarixga biryoqlama kiritish ilmiy jihatdan asosli emas, Markaziy Osiyo merosi turli tillar va madaniyatlar o'zaro ta'sirida shakllangan.

Turkiy davlatlar hamkorligining institutsional rivojlanishida 2009-yil 3-oktabrda imzolangan Naxichevan bitimi muhim bosqich bo'ldi. Unga muvofiq Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi tashkil etildi. Kengashning birinchi sammiti 2011-yil 20–21-oktabrda Olmaotada o'tkazilib, unda siyosiy muloqot bilan bir qatorda iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalarni kuchaytirish masalalari ko'rib chiqildi. O'zbekiston 2019-yil 14-sentabrda Naxichevan bitimini ratifikatsiya qilish jarayonini yakunladi va shu yilgi Boku sammitida to'liq a'zo sifatida ishtirok etdi [9]. 2021-yil 12-noyabrda Istanbulda o'tgan sammitda tuzilma «Turkiy davlatlar tashkiloti» nomini old [1]. Bu bosqichlar sammitlar shaklidagi muloqotning doimiy institutga aylanishini ko'rsatadi. Tashkilot a'zolari Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkiya va O'zbekistondan iborat, Turkmaniston esa kuzatuvchi maqomiga ega.

Hamkorlikning madaniy-gumanitar yo'nalishi alohida institutlar orqali rivojlanmoqda. 1993-yilda tuzilgan TURKSOY madaniy aloqalarni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi [10]. Ostonada joylashgan Turkiy akademiya esa til, adabiyot, tarix va madaniyat bo'yicha tadqiqotlarni muvofiqlashtiradi; uning xalqaro tashkilot sifatida ta'sis etilishi 2012-yilga to'g'ri keladi [11]. Turkiy madaniyat va meros jamg'armasining ustavi ham 2012-yilda qabul qilingan, uning faoliyati esa 2015-yilgi qarordan keyin yo'lga qo'yilgan [12].

O'zbekistonning turizm sohasidagi ishtiroki ushbu hamkorlikning aniq misolidir. 2021-yil 24-iyunda Qo'qonda turizm uchun mas'ul vazirlarning oltinchi yig'ilishi o'tkazildi va shahar Turkiy dunyoning ilk turizm poytaxti deb e'lon qilindi [13]. Shuningdek, «Tabarruk ziyorat» tashabbusi turkiy davlatlardagi tarixiy va muqaddas qadamjolarni birgalikda tanitish yo'nalishi sifatida ilgari surildi. Bunday loyihalar madaniy merosni kengroq auditoriyaga yetkazish imkonini beradi, albatta.

2024-yil 6-noyabrdagi Bishkek sammitida TDT a’zo davlatlari hukumatlari o‘rtasida Raqamli iqtisodiyot bo‘yicha sheriklik bitimi imzolandi [2]. Bitimning imzolanishi raqamli savdo va elektron hamkorlik uchun huquqiy asos yaratishga qaratilgan. Bishkek deklaratsiyasida transport bog‘liqligi hamda iqtisodiy aloqalar ham muhokama qilingan [3]. 2025-yil 21-may kuni Budapeshtda tashkilotning norasmiy sammiti o‘tkazildi. Unda tashkilot doirasidagi ko‘p qirrali hamkorlikning bugungi holati va istiqbollari yuzasidan fikr almashildi, amaliy hamkorlikning dolzarb masalalari muhokama qilindi. Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi amaliy hamkorlikni rivojlantirish masalalariga to‘xtalar ekan, O‘zbekiston yetakchisi bu borada ishga solinmagan ulkan salohiyat mavjudligini ko‘rsatib o‘tdi va qator yangi takliflar bildirdi [4].

2025-yil 7-oktabrdagi Gabala sammiti deklaratsiyasi tashkilotning keyingi hamkorlik vazifalarini belgiladi. Ushbu sammitsa O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qisqa muddatda jadal rivojlanib borayotgan nufuzli xalqaro tuzilmalar qatoriga kirgan Turkiy davlatlar tashkilotining o‘rni va ahamiyati tobora ortib borayotganini ta’kidladi. Oliy darajadagi siyosiy muloqot kengayib, o‘zaro ishonch mustahkamlanib borayotgani, qo‘shma loyihalar va gumanitar dasturlar faol amalga oshirilayotgani bundan dalolat beradi [5].

2026-yil 15-mayda Turkistonda “Sun’iy intellekt va raqamli rivojlanish” mavzusidagi norasmiy sammit bo‘lib o‘tdi. Unda Turkiston deklaratsiyasi va tashkilot kotibiyatining institutsional hamda raqamli salohiyatini kuchaytirishga oid qaror qabul qilindi [6]. 2026-yil 23-sentabrda Toshkentda o‘tkazilgan TDT texnologiyalar forumi IT Park Uzbekistan, Azerbaijan Innovation and Digital Development Agency, Astana Hub, Qirg‘iziston High Technology Park va Turkiyaning Bilişim Vadisi vakillarini bir joyga jamladi. Forumda startaplarni qo‘llab-quvvatlash va texnoparklar o‘rtasidagi amaliy aloqalar muhokama qilindi. Bu voqea O‘zbekistonning tashabbuslari raqamli hamkorlik sohasida ham ko‘rinayotganini tasdiqlaydi. 2026-yil 24-sentyabrda Nyu-Yorkda o‘tgan tashqi ishlar vazirlari uchrashuvida Anqarada rejalashtirilgan 13-sammitga tayyorgarlik va tashkilotning BMT Bosh Assambleyasida kuzatuvchi maqomi uchun arizasi muhokama qilindi.

O‘rta yo‘lak Xitoy va Markaziy Osiyodan Kaspiy dengizi, Kavkaz va Turkiya orqali Yevropaga chiqadigan ko‘p tarmoqli yo‘nalishlar majmuasidir. O‘zbekiston uchun bu yo‘nalish xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlarini diversifikatsiya qilish nuqtayi nazaridan ahamiyatli. Uning raqobatbardoshligi esa tranzit va bojxona tartiblari, chegara o‘tish vaqti, port quvvati va tariflar uyg‘unligiga bog‘liq. 2026-yil 14-sentabrda bojxona hamkorligi bo‘yicha ishchi guruh Istanbulda qarorlar ijrosini va kelgusi uchrashuvga tayyorgarlikni muhokama qildi [7]. Aynan shunday texnik muloqot kelishuvlarni yuk tashuvchilar uchun sezilarli yengillikka aylantirishda muhim.

Samarqand, Buxoro va Xiva merosi turkiy dunyo tarixini mintaqaning ko‘p tilli va ko‘p madaniyatli tarixi bilan bog‘lab o‘rganish imkonini beradi. Arxiv hujjatlarini raqamlashtirish, qo‘lyozmalar kataloglarini qiyoslash, tarixiy xaritalar va umumiy manbalar nashrini tayyorlash qo‘shma ilmiy ishlar uchun aniq yo‘nalishlardir. Ekologik hamkorlik ham mintaqa uchun dolzarb sanaladi. Orolbo‘yi, suvdan foydalanish va iqlimga moslashuv bo‘yicha qo‘shma tadqiqotlar umumfoydali bo‘lishi mumkin. Biroq bu muammolarning geografiyasi TDT a’zolari bilan chegaralanmaydi; yechimlar barcha qo‘shni davlatlar va mavjud xalqaro mexanizmlar bilan uyg‘unlashishi lozim.

Xulosa. O‘zbekistonning TDT bilan hamkorligi tarixiy-madaniy yaqinlikdan amaliy iqtisodiy va texnologik aloqalarga o‘tmoqda. Bishkekdagi raqamli bitim, Turkistondagi 2026-yilgi sammit, Toshkent texnologiyalar forumi va bojxona muloqoti bu yo‘nalishni ko‘rsatadi. O‘zbekiston uchun eng samarali yondashuv mintaqaviy hamkorlikni ochiq, pragmatik va boshqa xalqaro sherikliklarga mos tarzda rivojlantirishdir. Ushbu jarayonlar tahliliga oid tadqiqotlarda transport va bojxona xarajatlari, amalga oshgan qo‘shma investitsiyalar, startap sherikliklari hamda ilmiy nashrlar bo‘yicha tekshiriladigan ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Organization of Turkic States. https://turkicstates.org/en/organization-of-turkic-states

2. The Eleventh Summit of the Organization of Turkic States Convened in Bishkek. 06.11.2024. https://turkicstates.org/en/news/the-eleventh-summit-of-the-organization-of-turkic-states-convened-in-bishkek-1

3. Organization of Turkic States. Bishkek Declaration of the Eleventh Summit. 06.11.2024. https://turkicstates.org/u/d/temel_belgeler/bishkek-declaration.pdf

4. O'zbekiston Prezidenti turkiy davlatlar hamkorligini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini ko'rsatdi. 21.05.2025. https://president.uz/oz/lists/view/8142

5. O'zbekiston Prezidenti Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish muhimligini ta'kidladi. 07.10.2025. https://president.uz/oz/lists/view/8550

6. The Informal Summit convened in Turkistan. 15.05.2026. https://turkicstates.org/en/news/the-informal-summit-of-the-organization-of-turkic-states-convened-in-turkistan-kazakhstan

7. OTS Working Group Meeting on Customs Cooperation held in Istanbul. 14.09.2026. https://turkicstates.org/en/news/ots-working-group-meeting-on-customs-cooperation-held-in-istanbul

8. The 1st Summit of the Cooperation Council of Turkic Speaking States was held in Almaty on October 20–21, 2011. https://turkicstates.org/en/news/the-1st-summit-of-the-cooperation-council-of-turkic-speaking-states-was-held-in-almaty-on-october-20-21-2011

9. Statement of the Secretary General on the membership of Uzbekistan. 14.09.2019. https://turkicstates.org/en/news/statement-of-the-secretary-general-of-the-turkic-council-on-the-membership-of-the-republic-of-uzbekistan-at-the-turkic-council

10. About TURKSOY. https://www.turksoy.org/en-US/about-turksoy

11. Turkic Academy. https://turkicstates.org/en/partners-detail/turkic-academy

12. Turkic Culture and Heritage Foundation. https://turkicstates.org/en/partners-detail/turkic-culture-and-heritage-foundation

13. The 6th Meeting of the Ministers in Charge of Tourism convened in Uzbekistan. 24.06.2021. https://turkicstates.org/en/news/the-6th-meeting-of-the-ministers-in-charge-of-tourism-of-the-turkic-council-convened-in-uzbekistan

UO'K 930.1:94(575.171)

AFRIG'IYLAR DAVRI XORAZMINING O'RGANILISH TARIXI VA TARIXSHUNOSLIK MASALALARI

H.H.Egamberganov, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), assistent, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti; katta ilmiy xodim, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti, Nukus

Annotatsiya. *Maqolada afrig'iylar davri Xorazmining (III–VIII asrlar) arxeologik va tarixiy jihatdan o'rganilish tarixi yaxlit va mustaqil tarixshunoslik predmeti sifatida tizimli tadqiq etiladi. Izlanishning manbashunoslik bazasini XIX asr oxiridan 2025-yilgacha chop etilgan nashrlar tashkil qiladi. Ular orasida Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasining (XAEE) «Труды» va «Материалы» seriyalari, fundamental monografiyalar, yodgorliklar davlat svodi hamda 2013–2025-yillardagi so'nggi mintaqaviy davriy nashrlar mavjud. Tadqiqot natijasida 1873–2025-yillardagi o'rganish jarayoni 5 ta konseptual bosqichga ajratildi, qator nazariy talqinlarning birlamchi nashr sanalariga aniqlik kiritildi hamda xronologiya, donjon genezisi va Kerder etnomadaniy qiyofasiga oid ilmiy bahslar tizimlashtirildi. Maqola Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti Arxeologiya bo'limi tomonidan bajarilayotgan «Janubiy Orolbo'yining antik davrdan o'rta asrlargacha bo'lgan shahar va qishloq madaniyati: o'rganilish tarixi va istiqbolli tadqiqotlar» nomli ilmiy-tadqiqot mavzusi doirasida tayyorlangan.*

Kalit so'zlar: *afrig'iylar davri, Xorazm arxeologiyasi, tarixshunoslik tahlili, manba tanqidi, Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi, dala hisoboti, S. P. Tolstov, E. E. Nerazik, Berkut-qal'a vohasi, Yakke-Parsan, Tok-qal'a, Kerder madaniyati, qasr donjoni, irrigatsiya.*

Аннотация. *В статье история археологического и исторического изучения афригидского Хорезма (III–VIII вв.) системно исследуется как целостный и самостоятельный историографический предмет. Источниковедческую базу исследования составляют публикации, вышедшие с конца XIX века по 2025 год. Среди них — серии «Труды» и «Материалы» Хорезмской археолого-этнографической экспедиции (ХАЭЭ), фундаментальные монографии, государственный свод памятников, а также новейшая региональная периодика 2013–2025 гг. В результате исследования процесс изучения 1873–2025 гг. разделен на пять концептуальных этапов, уточнены даты первой публикации ряда теоретических интерпретаций и систематизированы научные дискуссии по хронологии, генезису донжона и этнокультурному облику Кердера. Статья подготовлена в рамках научно-исследовательской темы «Городская и сельская культура Южного Приаралья с*

античности по средневековье: история изучения и перспективы дальнейших исследований», выполняемой Отделом археологии Каракалпакского НИИ гуманитарных наук.

Ключевые слова: *афригидский период, Хорезм, историография, источниковедческая критика, Хорезмская археолого-этнографическая экспедиция, полевой отчёт, С. П. Толстов, Е. Е. Неразик, Беркут-калинский оазис, Якке-Парсан, Ток-кала, Кердер, донжон, ирригация.*

Abstract. *The article provides a systematic study of the history of archaeological and historical research on Afrighid Khwarezm (3rd–8th centuries AD) as an integrated and independent historiographical subject. The source base of the study comprises publications issued from the late 19th century to 2025, including the "Proceedings" (Trudy) and "Materials" (Materialy) series of the Khwarezm Archaeological and Ethnographic Expedition (XAEE), fundamental monographs, the state register of monuments, and recent regional periodicals from 2013–2025. As a result of the research, the study process between 1873 and 2025 is divided into five conceptual stages, the primary publication dates of several theoretical interpretations are clarified, and scholarly debates concerning chronology, the genesis of castle donjons, and the ethnocultural identity of Kerder are systematized. The article was prepared within the framework of the research project "Urban and Rural Culture of the Southern Aral Sea Region from Antiquity to the Middle Ages: History of Study and Prospects for Further Research", carried out by the Department of Archaeology of the Karakalpak Research Institute of the Humanities.*

Key words: *Afrighid period, Khwarezm archaeology, historiography, source criticism, Khwarezm Archaeological and Ethnographic Expedition, field reports, S. P. Tolstov, E. E. Nerazik, Berkut-kala oasis, Yakke-Parsan, Tok-kala, Kerder culture, donjon, ancient irrigation.*

Kirish. O‘rta Osiyo xalqlari qadimgi va ilk o‘rta asrlar davri tarixining eng murakkab hamda o‘ziga xos bosqichlaridan biri Xorazm vohasida milodiy III–VIII asrlarni qamrab olgan davr hisoblanadi. Mahalliy davlatchilik an’analari va ijtimoiy-madaniy tuzilmaning tubdan o‘zgarishi bilan xarakterlanuvchi mazkur davr fanda afrig‘iylar davri (yoki afrig‘iy madaniyati) deb yuritiladi. Mazkur atama buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning «Osor ul-boqiya an al-qurun al-xoliya» («Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar») asariga borib taqaladi. Beruniy o‘z asarida Afrig‘ ismli shoh milodiy 305-yilda al-Fir qal’asi ichida ulkan mustahkam qasr qurdirgani va Xorazm taqvimi bo‘yicha yangi yil hisobi aynan o‘sha qurilish va yangi sulola boshqaruvidan hisoblana boshlaganini ma’lum qiladi [40. 10].

Arxeologik nuqtayi nazardan afrig‘iylar davri Xorazm vohasining antik shaharsozlik madaniyatidan (Tuproq-qal’a, Jonbos-qal’a, Bozor-qal’a) ilk o‘rta asrlarga xos mustahkam istehkomli qishloq qo‘rg‘onlari, ko‘shklar va qasrlarga o‘tishi bilan belgilanadi. Ushbu tub ijtimoiy-iqtisodiy va topografik siljishlarni har tomonlama tahlil qilgan S.P. Tolstov afrig‘iylar davrini «madaniyatning butun majmuasi tubdan va jadal o‘zgargan, quldorlik tuzumi o‘rnini ilk feodal munosabatlar egallagan o‘tish davri» deb ta’riflagan edi [39. 50]. Shunga qaramasdan, davrning xronologik chegaralari, xususan, quyi (boshlanish) sanasi arxeologiya va tarix fanida uzoq yillar davomida keskin bahslarga sabab bo‘lib kelmoqda: S.P. Tolstov 1962-yilda ushbu chegarani V–VI asrlarga surgan bo‘lsa [42. 246], so‘nggi yillardagi arxeologik tadqiqotlar yangi sulolaviy va moddiy madaniyat qatlami IV asr boshlaridayoq shakllanganini tasdiqlamoqda [5. 77].

Afrig‘iylar davri yodgorliklari 1873-yildan buyon o‘rganib kelinayotgan bo‘lsa-da, shu kunga qadar ushbu davr arxeologik tarixshunosligi yaxlit, tizimli va mustaqil tadqiqot mavzusiga aylantirilmagan. Aksariyat adabiyotlarda o‘rganish tarixi umumlashtiruvchi fundamental monografiyalarning kirish qismlarida qisqacha xronologik ro‘yxat shaklida keltirilgan bo‘lib, muayyan ilmiy xulosalarning qanday nazariy va manbashunoslik bosqichlaridan o‘tib shakllangani, birlamchi dala qaydlari bilan yakuniy xulosalar o‘rtasidagi tafovutlar ochib berilmagan.

Ushbu maqolaning bosh maqsadi uchta asosiy ilmiy vazifani bajarishga qaratilgan: birinchidan, 1873–2025-yillar oralig‘idagi afrig‘iylar davri Xorazmini o‘rganish tarixini yaxlit tizimga solish va taraqqiyot bosqichlarining aniq mezonlarini belgilash; ikkinchidan, shakllangan ilmiy qarashlarni XAEE va boshqa arxeologik guruhlarning birlamchi dala hisobotlari bilan bevosita qiyosiy tekshirish; uchinchidan, hanuzgacha yechimini topmagan konseptual tarixshunoslik bahslarini

tizimlashtirish hamda ularning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan manbashunoslik va metodologik omillarni tahlil qilishdan iboratdir. Mazkur tadqiqot bitta yodgorlik yoki alohida muassasa doirasi bilan cheklanmay, mavzuga oid yuz ellik yillik ilmiy davrni to‘liq qamrab oladi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Afrig‘iylar davri Xorazmining o‘rganilish tarixi shu paytga qadar asosan alohida yodgorliklar yoki qazishma hududlariga bag‘ishlangan nashrlarning kirish qismida qisqa bibliografik xronika sifatida berilgan. Xususan, E. E. Nerazik o‘zining 1966-yilgi fundamental monografiyasida Berkut-qal’a vohasida olib borilgan qazishma ishlari xronikasini qisqacha bayon qilgan [25. 4]. Xuddi shuningdek, A. V. Gudkova Tok-qal’a yodgorligini tadqiq etish bosqichlarini qayd etish bilan cheklangan [10. 5-6]. So‘nggi yillarda yaratilgan mintaqaviy sharhlarda ham arxeologik izlanishlar tarixi umumiy xarakterda yoritilib, maxsus davrlashtirish va manbashunoslik tahliliga tortilmagan [4. 187-188].

Mavjud tarixshunoslik adabiyotlaridagi mazkur holatni zamonaviy tadqiqotchilarning o‘zlari ham e’tirof etmoqda. Jumladan, B. Bobojonov va T. Mkrtichev 2024-yilda chop etilgan tadqiqotida Orolbo‘yining yirik yodgorligi bo‘lgan Mizdaxqon bo‘yicha to‘plangan adabiyotlarning mutlaq ko‘pchiligi sof tavsifiy xarakterda ekanini alohida ta’kidlaydilar [3. 47]. Tarixshunoslikdagi mavjud sharhlarning asosiy kamchiligi shundaki, ular faqat bitta yodgorlik (masalan, Tok-qal’a yoki Mizdaxqon) yoxud bitta ilmiy markaz doirasi bilan cheklanadi hamda tahlilda faqat yakuniy monografik nashrlarga tayanadi. Holbuki, yakuniy monografiyalarda ilmiy xulosa va gipotezalarning birlamchi dala qaydlari, stratigrafik qatlamlar va qazishma mavsumlari davomida qanday o‘zgarib borgani ko‘pincha yashirin qoladi. Birlamchi dala hisobotlarida esa har bir obyektning qachon ochilgani, qazishma dinamikasi va dastlabki sana talqinlari aniq qayd etiladi. Shu bois afrig‘iylar davri tarixshunosligini qayta ko‘rib chiqishda aynan birlamchi hisobotlar va davriy nashrlarni ilmiy tahlilga tortish zarurati yuzaga keladi.

Tarixshunoslikdagi ikkinchi jiddiy bo‘shliq manba qamrovi bilan bog‘liqdir. XAEEning o‘z nashrlari xususan, ko‘p jildli «Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции» va «Материалы Хорезмской экспедиции» to‘plamlari keyingi sharhlarda deyarli chuqur manbashunoslik tanqidiga tortilmagan. Vaholanki, mazkur seriyalar dala qidiruvlari natijalari, rejalari, chizmalari, antropologik va paleozoologik laboratoriya tahlillari ilk bor to‘liq e’lon qilingan asosiy ilmiy manba hisoblanadi.

Tadqiqot materiali va metodlari. Tadqiqotning manbashunoslik bazasini afrig‘iylar davri Xorazmi bo‘yicha XIX asrning oxirgi choragidan 2025-yilgacha e’lon qilingan ilmiy nashrlar tashkil etadi. Tizimli tahlil qilish maqsadida manbalar to‘rtta asosiy guruhga ajratildi:

1. Ekspeditsiyalarning birlamchi dala hisobotlari va to‘plamlari: «Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции» seriyasining I, II, IV, IX va XVI jildlari hamda «Материалы Хорезмской экспедиции» ning 1, 3, 6 va 7-sonlari. Ushbu guruh tarkibiga maxsus yondosh soha tadqiqotlari ham kiritildi: masalan, I jilddagi V. I. Tsalkin tomonidan bajarilgan fauna tahlili 10 500 dan ortiq hayvon suyaklari qoldiqlarining qiyosiy tahliliga asoslangan [46. 213].

2. Fundamental umumlashtiruvchi monografiyalar: S. P. Tolstovning uchta asosiy asari («Древний Хорезм», 1948; «По следам древнехорезмийской цивилизации», 1948; «По древним дельтам Окса и Яксарта», 1962), E. E. Nerazikning qishloq turar-joylari va ilk o‘rta asrlar jamiyatiga oid monografiyalari (1966, 1976, 2013), B. I. Vaynbergning Xorazm numizmatikasi va etnogeografiyasiga oid asarlari (1977, 1999), A. V. Gudkovaning Tok-qal’a monografiyasi (1964) hamda akademik Ya. G‘. G‘ulomovning sug‘orish tarixiga bag‘ishlangan fundamental tadqiqoti (1959).

3. Arxeologik yodgorliklar davlat hisobi (svodlari): V. N. Yagodin tahriri ostida nashr etilgan Qoraqalpog‘iston tarixi va madaniyati yodgorliklari svodining 1 va 2-chiqarilishi (1985, 1986).

4. So‘nggi davr (2013–2025-yillar) mintaqaviy ilmiy davriy nashrlari va hisobotlari: «История и археология Турана», «История и археология Приаралья» jurnallari to‘plamlari.

Tadqiqotda quyidagi asosiy ilmiy metodlar majmuasidan foydalanildi:

• Qiyosiy-tarixiy tahlil metodi. Turli yillarda chop etilgan tadqiqotlarning xronologik, hududiy va nazariy xulosalari o‘zaro qiyoslanib, ularning har biri o‘sha davrning uslubiy paradigmasi bilan bog‘liq holda o‘rganildi. Shu yo‘l bilan o‘rganish tarixining besh bosqichi aniq belgilandi.

• Manba turini stratifikatsiyalash va dekonstruksiya qilish metodi. Har bir nazariy da’voga nisbatan uning manbasi birlamchi dala hisobotidan olinganmi yoki keyingi umumlashtiruvchi asarlardagi subyektiv talqinmi, degan qat’iy savol qo‘yildi. Birlamchi va ikkilamchi manbalar o‘rtasidagi nomuvofiqliklar aniqlanib, ilmiy dekonstruksiya qilindi. Natijada qator konsepsiyalar monografiyalardan bir necha yil avval hisobotlarda shakllangani aniqlandi.

• Qat’iy manbashunoslik tanqidi va verifikatsiya. Barcha raqamlar, o‘lchamlar, arxeologik sanalar va xronologik ko‘rsatkichlar asl nashrlarning aniq sahifalari (sahifalari) bo‘yicha qayta tekshirildi.

Natijalar. Afrig‘iylar davri Xorazmining o‘rganilish tarixini qiyosiy-tarixiy tahlil qilish ushbu 150 yillik davrni beshta bosqichga ajratish imkonini beradi. Sovet davridagi 1950 va 1970-yillardagi chegaralar nisbiy bo‘lib, dala ishlari uzluksiz davom etgan bo‘lsa-da, aynan tadqiqot metodologiyasi, yodgorliklarni hujjatlashtirish va ilmiy nashr shakllarining o‘zgarishi mazkur bosqichlar chegaralarini belgilab beradi.

1. Birinchi bosqich (1873–1936-yillar): Dastlabki to‘plov, topografik o‘lchovlar va yozma manbalar nashri. Xorazmning ilk o‘rta asr yodgorliklari haqidagi ilk yozma qaydlar mahalliy tarixchilar asarlarida uchraydi. Xususan, Tok-qal’a xarobalari Munis va Ogahiyning mashhur «Firdavs ul-iqbol» asarida bir necha bor tilga olinadi [10. 8]. Mintaqada zamonaviy ilmiy qidiruvlarning boshlanishi 1873-yildagi Rossiya imperiyasining harbiy yurishidan so‘ng amalga oshirilgan topografik va gidrografik tadqiqotlar bilan bog‘liqdir. A. V. Kaulbars Orolbo‘yi deltasida keng qamrovli o‘lchov ishlarini olib bordi va uning natijalari 1881-yilda nashr etildi [34. 53]. Mazkur sanani afrig‘iylar davri yodgorliklari tarixshunosligining shartli boshlanish nuqtasi sifatida qabul qilish mumkin.

Quyi Amudaryoning Kerder yodgorliklaridagi dastlabki statsionar kuzatuvlar 1929-yilga to‘g‘ri keladi: A. I. Milkov Tok-qal’a, Quyuq-qal’a va Qushqanatav ossuariy qabristonini ko‘zdan kechirdi va ularning ilk o‘rta asrlarga oidligini taxmin qildi [34. 54]. Numizmatika sohasida esa mazkur bosqichda jiddiy chalkashliklar hukm surdi: H. Kyoler 1850-yilda «noma’lum xorazmshoh» tangasini e’lon qilgan bo‘lsa, A. K. Markov 1892-yilda ushbu tangalarni so‘nggi Kushon hukmdorlariga noto‘g‘ri bog‘ladi [39. 173-175].

Keyingi bosqichning dastlabki yillarida arab va fors yozma manbalarini ilmiy muomalaga kiritish jarayoni boshlandi. 1939-yilda «Материалы по истории туркмен и Туркмении» to‘plamining I jildi bosmadan chiqdi va unda O‘rta Osiyo tarixiga oid barcha arab-fors manbalari rus tiliga tarjima qilinib, izohlar bilan berildi. Ushbu nashrdagi ilmiy izohlarda Muhammad ibn Iroq Beruniy asariga ko‘ra Xorazm afrig‘iylar sulolasining 20-hukmdori ekanligi aniq ko‘rsatib o‘tilgan [19. 156]. Bu fakt shuni ko‘rsatadiki, Beruniyning afrig‘iy shohlari ro‘yxati ilmiy jamoatchilik tomonidan S.P. Tolstovning 1948-yildagi kitobidan ancha oldin ya’ni 1939-yildayoq faol qo‘llanila boshlagan. Ushbu nashr yozma manbalar bazasining keyingi bosqichda mustahkamlanganini ko‘rsatadi.

2. Ikkinchi bosqich (1937–1949-yillar): XAEEning tashkil topishi, aerorazvedka va ilk davr konsepsiyasi. Xorazm tarixshunosligida tub burilish 1937-yilda SSSR Fanlar akademiyasining Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi (XAEE) tashkil etilishi bilan boshlandi. S.P. Tolstov rahbarligida o‘sha yildan e’tiboran qadimgi va o‘rta asr Xorazm tangalarining tizimli kolleksiyasi shakllantirila boshlandi [6. 5]. A.I. Terenojkin tomonidan o‘ng qirg‘oqdagi Berkut-qal’a vohasining kashf etilishi afrig‘iylar davri moddiy madaniyatini o‘rganishda chorak asrdan ortiq asosiy tayanch maydoniga aylandi [25. 4].

Ushbu bosqichning eng muhim metodologik yangiligi aviatsiya usulining (aerorazvedka) keng qo‘llanilishi bo‘ldi. 1948-yilga kelib maxsus tashkil etilgan aviamarshrutlar orqali Amudaryoning qadimgi o‘zanlari va sahro hududlarida 200 dan ortiq yangi yodgorliklar kashf qilindi [44. 10]. S.P. Tolstov afrig‘iylar davrining dastlabki yaxlit ijtimoiy-madaniy konsepsiyasini ilgari surdi. U me’moriy qurilish texnikasidagi o‘zgarishni davrning bosh belgisi deb bildi: yangi davrda antik davrga xos to‘rtburchak xom g‘isht o‘rnini paxsa bloklari va yirik kvadrat g‘ishtlar egalladi [40. 195]. S.P. Tolstov mustahkam qo‘rg‘onlarning magistral kanal tarmoqlari bo‘ylab to‘p-to‘p bo‘lib

joylashishini birinchi bo‘lib ilmiy tavsifladi [39. 135] hamda qadimgi xorazm yozuvi VIII asrgacha arxaik shaklini saqlab qolganini ko‘rsatdi [39. 187].

Biroq ushbu bosqichda jiddiy xronologik ziddiyatlar ham yuzaga keldi. S.P. Tolstovning «Древний Хорезм» kitobida Afrig‘ qasri al-Firning qurilishi Iskandar erasining 660-yiliga qo‘yilgan bo‘lsa [39. 127], xuddi shu yili chiqqan «По следам древнехорезмийской цивилизации» kitobida ushbu voqea «Iskandardan keyingi 616-yil» deb ko‘rsatildi [40. 10]. Eng qizig‘i, o‘sha kitobning 191-betida yana 660-yil sanasi takrorlanadi [40. 191]. Shunday qilib, ikkinchi bosqichda davrning umumiy ijtimoiy-arxeologik modeli yaratilgan bo‘lsa-da, uning boshlang‘ich sanasi borasida qat’iy yechim berilmadi.

3. Uchinchi bosqich (1950–1969-yillar): Keng ko‘lamli statsionar qazishmalar, tipologiya va monografik umumlashtirish. 1950–1960-yillarda afrig‘iylar davri haqidagi ilmiy bilimlar monografik bosqichga ko‘tarildi va bugungi kundagi tasavvurlarning asosiy zamini yaratildi. Mazkur davrni dala hisobotlari orqali tahlil qilish quyidagi muhim jihatlarni ochib beradi:

Berkut-qal’a vohasidagi qazishmalar va xronologiya. XAEEning Berkut-qal’a otryadi 1953–1960-yillarda vohadagi o‘ndan ortiq asosiy obyektlarda statsionar qazishmalarni amalga oshirdi [25. 4], B. V. Andrianov otryadi esa qadimgi sug‘orish tarmoqlarining mukammal kartasini tuzdi [25. 8]. Birlamchi dala hisoboti shuni ko‘rsatadiki, 28-sonli qasr qazishmasi 1958-yilda boshlanib uch mavsum davom etgan; qasr deyarli kvadrat shaklda (26 × 24 m) bo‘lib, sharqiy devorga tutashgan donjoni 8 × 10 metr o‘lchamga ega [43. 14]. Dala hisobotida donjon qurilishini VIII asrdan oldiga qo‘yib bo‘lmasligi qat’iy ta’kidlangan [43. 13], bu xulosa E. E. Nerazikning 1966-yilgi monografiyasida aynan takrorlangan [25. 44]. Demak, donjonlarning kech paydo bo‘lishi haqidagi xulosa monografiyadan uch yil oldin dala hisobotida e’lon qilingan.

Shu bilan birga, voha yodgorliklarining yoshi bo‘yicha bitta to‘plam ichida ikki xil baho berilgani aniqlandi: E. E. Nerazik 1959-yilgi hisobotida vohani 100 dan ortiq VI–VIII asrlar yodgorligidan iborat deb ta’riflagan bo‘lsa [23. 96], B. V. Andrianov o‘sha to‘plamdagi o‘z maqolasida mazkur qo‘rg‘onlarni «kech afrig‘iy, VIII–IX asrlar» deb belgilagan [2. 143]. Ushbu tafovut keyingi adabiyotlarda e’tiborsiz qoldirilgan.

Aerometodning takomillashuvi. 1958–1964-yillarda Orolbo‘yi deltasida 1 650 ta aviamarshrut o‘tkazilib, 5 million gektar maydonni qamragan o‘n minglab aerofotosuratlar qayta ishlandi va qadimgi sun’iy kanallarni nisbiy sanalash metodikasi yaratildi [8. 206].

Yakka-Parsan qal’asi. Vohaning ikkinchi yirik tayanch yodgorligida qazishmalar 1959–1961-yillarda olib borildi (qo‘rg‘on maydoni 74 × 54 m) [43. 15]. Nerazik hisoboti donjonning 9 metrli paxsa platforma ustiga qurilgan 8 xonali binosi (24 × 24 m) o‘lchamlarini beradi [24. 5]. O‘sha hisobotda butun O‘rta Osiyo me’morchiligida kam uchraydigan o‘ziga xos xususiyat – ikki tamburli eshik o‘rinlari aniqlangan [24. 7].

Turar-joylar tipologiyasi va etnoarxeologik parallellar. Nerazikning 1966-yilgi kitobida afrig‘iy turar-joylarining ikki asosiy tipi ajratildi: 1) donjonsiz istehkomli qo‘rg‘onlar (IV asr boshidan); 2) donjonli qasrlar (VIII asr boshidan) [25. 32; 25. 44]. Tarixshunoslikda afrig‘iy qo‘rg‘onlari rejasi bilan an’anaviy o‘zbek hovlilari o‘rtasidagi o‘xshashlik odatda Nerazikning 1972-yilgi maqolasiga bog‘lanadi [27. 45-46]. Biroq dala hisobotlari shuni isbotlaydiki, mazkur etnoarxeologik parallel ilk bor 1963-yildayoq e’lon qilingan [43. 15]. Demak, bu konsepsiya to‘rtinchi emas, uchinchi bosqich mahsulidir.

Sopol xronologiyasi va kulolchilik markazlari. Nerazik 1959-yilda afrig‘iy sopoliga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotida VI asr va VII–VIII asrlar majmuasini tabaqalashtirdi [22. 223, 232]. 1968-yilda Yakka-Parsandan 6 km janubda 150 × 130 metrlik maydonda 15 dan ortiq xumdon qoldiqlari ochildi [26. 55], birinchi xumdonning faoliyati III–IV asrlar bilan sanalandi [26. 59]. Shu bilan birga, Sariqamishbo‘yi deltasini o‘rganish afrig‘iy qatlamini VI–VIII asrlar bilan chekladi [20. 194], bu esa Nerazikning IV asrdan boshlanuvchi xronologiyasiga zid kelib, bosqichdagi qarashlar rang-barangligini ko‘rsatadi.

Qoraqalpoq arxeologiya maktabining shakllanishi va Kerder madaniyati. 1958-yilda Qoraqalpoq ilmiy-tadqiqot instituti rejasiga delta yodgorliklari kiritilib, 1959-yildan Tok-qal’ada V. N. Yagodin boshchiligida qazishmalar boshlandi [10. 5-6]. A. V. Gudkova 1962-yilda Tok-qal’aning

tashqi mudofaa tizimi qum bilan to‘ldirilib, ustiga yangi qal’a devori qurilganini arablar istilosi bilan bog‘ladi [9. 79]. 1964-yilgi monografiyasida esa Quyi Amudaryoning o‘ziga xos Kerder madaniyatini afrig‘iy madaniyatidan ajratib, mustaqil etnomadaniy hodisa sifatida fanga kiritdi [10. 124]. Akademik Ya. G‘. G‘ulomov o‘zbek tilidagi adabiyotda ilk bor Xorazm irrigatsiyasi va Beruniy shajarasi tahlilini berdi [49. 122]. 1963-yilda Yu. P. Manilov Kat (al-Fir) shahrida dastlabki qazishmalarni amalga oshirdi [16. 49-50].

4. To‘rtinchi bosqich (1970–1994-yillar): Numizmatik sintez, davlat hisobi (svod) va differensiatsiya. Mazkur bosqichning markazida B. I. Vaynbergning 1977-yilda chop etilgan fundamental numizmatik monografiyasi turadi. Muallif tanga orqasidagi yozuv va tamg‘alarga ko‘ra tangalarni 4 guruhga ajratdi [6. 48] hamda tanga vazni sana mezoni bo‘la olmasligini isbotladi [6. 50]. Eng muhim natija Beruniyning shohlar ro‘yxatini tanga ma’lumotlari bilan solishtirish bo‘ldi: shajara VIII asr boshidan sulola tugaguniga qadar (995-yil) tangalar orqali to‘liq tasdiqlandi, biroq VIII asrgacha bo‘lgan qismi moddiy jihatdan deyarli tasdiqlanmadi [6. 82].

Antik davr inqirozi bo‘yicha ham yangi xulosalar shakllandi: Yu. A. Rapoport Tuproq-qal’a shohlar saroyi IV asr boshida hech qanday harbiy talafotsiz, tinch yo‘l bilan tashlab ketilganini aniqladi [35. 228-230], bu esa afrig‘iylar davri boshlanishi to‘g‘risidagi mulohazalarga mustahkam zamin yaratdi.

Ikkinchi yirik yutuq V. N. Yagodin tahririda chop etilgan yodgorliklar svodi bo‘ldi. Svodning 1-qismi Kerder yodgorliklarini to‘liq tizimlashtirdi [17. 21], 2-qismi esa Berkut-qal’a vohasida kamida 140 ta afrig‘iy qo‘rg‘onini hujjatlashtirdi [18. 117]. Yakka-Parsan bo‘yicha muhim tuzatish kiritildi: bu yerda IV–V asrlarga oid dastlabki qasr mutlaqo donjonsiz bo‘lgan [18. 180-182]. Nerazik o‘z tadqiqotlarini kengaytirib, afrig‘iy qo‘rg‘onlarini I–XIV asrlar qishloq me’morchiligi kontekstida ko‘rib chiqdi [28. 59] va deltalarda shahar tipidagi manzilgohlar VII–IX asrlardan oldin paydo bo‘lmaganini ko‘rsatdi [29. 220]. 1991-yilda XAEEning XVI jildi chiqdi va unda qo‘lda yasalgan dog‘li sirlanmagan sopol III asr oxiri – IV asrga oid ilk afrig‘iy qatlamlarida uchrashi qayd etilib, davrning quyi chegarasini III asr oxiriga surish imkonini berdi [13. 111-112].

5. Beshinchi bosqich (1995-yildan hozirgacha): Xalqaro hamkorlik, mintaqaviy ilmiy maktablar va yangi metodlar. Mustaqillik davridagi so‘nggi bosqichni xalqaro ilmiy hamkorlik va O‘zbekiston mintaqaviy arxeologiya markazlarining mustaqil izlanishlari belgilab beradi. Aqchaxon-qal’ada 1995-yildan boshlab Qoraqalpog‘iston–Avstraliya xalqaro ekspeditsiyasi faoliyat yuritib, antik davr san’atining noyob devoriy suratlarini kashf qildi [4. 187-188]. Ushbu ekspeditsiya mintaqaga zamonaviy dala-tadqiqot standartlarini olib kirdi.

Mintaqaviy maktablarning faollashuvi natijasida Janubiy Orolbo‘yi moddiy madaniyati yangi qirralardan o‘rganildi: S. Saypov 2020–2024-yillarda ilk o‘rta asrlar sopol tayyorlash texnologiyasi va xo‘jalik idishlari morfologiyasini batafsil tadqiq qildi [37. 426; 38. 235]; O. Dospanov o‘ng qirg‘oq shaharlarining iqtisodiy asoslarini yoritdi [12. 274]. O. Kdirniyazov VI asrda Buyuk ipak yo‘lining Xorazm tarmog‘i faollashganini [14. 99-101], B. Turganov 2025-yilda VI–VIII asrlar badiiy metall buyumlari (kumush idishlaridagi ma’buda va sher tasviri) mahalliy ustalar san’ati bilan bevosita bog‘liq ekanini isbotladi [50. 236].

Umumlashtiruvchi tadqiqotlar doirasida E. E. Nerazikning 2000 va 2013-yillardagi ishlari ilk o‘rta asrlar jamiyati rivojini to‘liq rekonstruksiya qilishga bag‘ishlandi [31. 69; 33. 33-35]. 2013-yildagi fundamental jamoaviy monografiyada afrig‘iylar (Vazamaridlar) davlati 995-yilda Ma’muniylar tomonidan tugatilgani va u 600 yildan ortiq uzluksiz hukmronlik qilgani qayd etildi [48. 99]. Antropologiya sohasida T. K. Xodjayov va G. K. Xodjayova kalla suyagini sun’iy deformatsiyalash odati aynan afrig‘iylar davrida keng tarqalib, rivojlangan o‘rta asrlarga kelib deyarli yo‘qolganini ko‘rsatdi [47. 250]. M. M. Mambetullayev Quyuq-qal’a tumorlari asosida ilk Kerder majmuasini VI asr oxiri – VIII asr o‘rtalari bilan sanaladi [15. 47].

Muhokama. Besh bosqichli tarixshunoslik tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘tgan 150 yil davomida afrig‘iylar davri Xorazmi bo‘yicha bir qator fundamental ilmiy muammolar yuzasidan munozaralar

davom etib kelgan. Quyida ulardan eng asosiylari tahlil qilinadi hamda manbashunoslik tanqidi asosida aniqlangan ikkita yangi ilmiy natija bayon etiladi.

1. Davrning quyi chegarasi va xronologik differensiatsiya bahsi

Afrig'iylar davrining quyi (boshlang'ich) chegarasi muammosi Xorazm arxeologiyasida eng ko'p munozaralarga sabab bo'lgan masaladir. Turli yillarda e'lon qilingan asosiy nashrlardagi sanalarni qiyoslash quyidagi ilmiy manzarani beradi (1-jadval).

1-jadval.

Ilmiy adabiyotlarda afrig'iylar davriga berilgan sanalarning qiyosiy ko'rsatkichi (1948–2022-yillar)

Tadqiqotchi va nashr	Nashr yili	Berilgan davriy chegara	Tayanilgan asosiy dalillar bazasi
S. P. Tolstov. «Древний Хорезм» [39]	1948	IV asrdan boshlanadi	Abu Rayhon Beruniyning shohlar ro'yxati
S. P. Tolstov. «По следам…» [40]	1948	305-yildan boshlanadi	Beruniy sanasining eraga o'girilishi
ТХАЭЭ, II jild [41]	1958	IV–V, IV–VI, VI–VIII, VII–VIII	Stratigrafik qatlamlar va moddiy buyumlar
МХЭ, 3-son [20]	1960	VI–VIII asrlar	Sariqamish deltasining davrlashtirilishi
S. P. Tolstov. «По древним дельтам…» [42]	1962	V–VI asrlar	Konseptual umumlashtirish (dalilsiz)
ТХАЭЭ, XVI jild [13]	1991	III asr oxiri – IV asr	Qo'lda yasalgan ilk dog'li sopol majmuasi
E. E. Nerazik [30]	1997	IV–VIII asrlar	Qishloq turar-joylari va qasrlar evolyutsiyasi
S. B. Bolelov [5]	2022	IV asr boshi (305-yil)	Yozma manbalar va zamonaviy stratigrafiya

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, afrig'iylar davrining quyi chegarasi yetmish yil davomida IV asrdan VI asrgacha surilib turgan. Ushbu tarqoqlik tasodifiy emas, balki tadqiqotchilar tayangan metodik manbaga bevosita bog'liqdir: yozma manbaga (Beruniy) tayangan mualliflar chegarani qat'iy IV asr boshiga (305-yil) qo'ygan bo'lsa, arxeologik qazishma qatlamlariga tayangan tadqiqotchilar uzoq vaqt davomida VI–VIII asrlar oralig'ini ko'rsatib kelganlar.

Ayniqsa, XAEE asarlarining II jildidagi nomuvofiqlik alohida e'tiborga loyiqdir. Mazkur bitta jildda S. P. Tolstovning bitta maqolasida afrig'iylar davriga besh xil sana berilgan: IV–VI asrlar [41. 69], IV–V va VI–VIII asrlar [41. 216], VII–VIII asrlar [41. 98] hamda VI–VIII asrlar [41. 34]. Ushbu jiddiy tafovut sovet arxeologiyasida qatlamlar xronologiyasi hali to'liq unifikatsiya qilinmaganidan dalolat beradi.

Xronologik bo'shliq (lakuna) masalasi ham ushbu bahs bilan chambarchas bog'liq. S.P. Tolstov Quyi Amudaryodagi Ko'hna-Uaz qal'asi «klassik afrig'iy davrda, ya'ni VI–VIII asrlarda bo'shab qolgan» deb yozadi [41. 216]. Yodgorlikda bevosita qazishma o'tkazgan E. E. Nerazik ham buni mustaqil ravishda tasdiqlaydi: VI–VIII asrlarga oid birorta moddiy ashyo na qatlamda va na yuza terimlarida topilgan [21. 369]. Demak, Ko'hna-Uazdagi bo'shliq qazishma xatosi emas, balki ilk o'rta asrlarda Orolbo'yi gidrografiyasi va demografiyasida yuz bergan inqirozli jarayonlarning oqibatidir.

2. Afrig' hukmronligining boshlanish sanasi: 304 va 305-yillar hisobi. Tarixshunoslikdagi yana bir bahsli nuqta Afrig' sulolasi taxtga o'tirgan yil hisobidir. S. P. Tolstov Beruniyning Iskandar erasi bo'yicha keltirgan ma'lumotidan milodiy 305-yilni chiqarib olgan edi [41. 211]. Biroq 2013-yilda nashr etilgan jamoaviy monografiyada xuddi shu Beruniy matni asosida milodiy 304-yil ko'rsatilgan [48. 94]. Bir yillik bu farq astronomik yil hisobining qaysi taqvim tizimi (salavkiy yoki eroniy-xorazmiy quyosh taqvimi) orqali o'girilganiga bog'liq bo'lib, adabiyotlarda ko'pincha sharhsiz qoldirilmoqda.

3. Donjon me'moriy shaklining genezisi. E. E. Nerazik tipologiyasiga ko'ra donjonsiz istehkomli qo'rg'onlar ilk afrig'iy bosqichini (IV–VI asrlar), donjonli mustahkam qasrlar esa rivojlangan afrig'iy bosqichini (VII–VIII asrlar) tashkil qiladi [25. 32; 25. 44]. Donjonning kech paydo bo'lishi 28-sonli qasr [43. 13] va Yakka-Parsan [18. 180-182] qazishmalarida to'liq tasdiqlangan. Biroq donjonning kelib chiqishi ichki ijtimoiy tabaqalanish (feodallashuv) mahsulimi

yoki tashqi dasht ko‘chmanchilari madaniyatining ta’sirimi, degan masala hanuz ochiq qolmoqda. S. P. Tolstov donjonlarning paydo bo‘lishini dasht ko‘chmanchilari bilan aloqador deb hisoblagan bo‘lsa [25. 34], E. E. Nerazik keyinchalik mazkur me’moriy shaklning Xorazm tashqarisidagi ildizlarini izlash masalasini ko‘ndalang qo‘ydi [30. 54; 32. 4-5].

4. Kerder aholisining etno-madaniy va antropologik mansubligi. 1964-yilda A. V. Gudkova Quyi Amudaryoda o‘ziga xos Kerder madaniyatini ajratib, uning afrig‘iy madaniyatiga qo‘shilib ketmaganini ko‘rsatdi [10. 124]. B. I. Vaynberg 1977-yilda kerderliklarni eroniyzabon qadimgi kangar-kengaraslar bilan bog‘ladi [6. 98], keyinchalik esa ularning etnik tarkibiga turkiy unsurlar ham kirganini ta’kidladi [7. 258-259]. E. E. Nerazik 2013-yilda bu masalani yanada kengaytirdi [33. 33-35]. Zamonaviy kraniologik tadqiqotlar Kerder aholisining kalla suyagini sun’iy deformatsiyalash an’anasi Orolbo‘yi skif-sarmat qatlamiga borib taqalishini tasdiqlamoqda [47. 250]. Biroq yozma manbalarning o‘ta kamligi va Tok-qal’a ossuariy bitiklarining qisqaligi [11. 7-8] tufayli ushbu etnik muammo hali to‘liq yechilganicha yo‘q.

5. Manbashunoslik tanqidining birinchi yangi natijasi: S.P. Tolstov tomonidan T.A. Trofimova xulosasining noto‘g‘ri talqin qilinishi. Manbashunoslik tekshiruvi doirasida XAEE asarlarining II jildidagi ma’lumotlar qiyosiy o‘rganilganda jiddiy ilmiy xatolik aniqlandi. S.P. Tolstov mazkur jilddagi umumlashtiruvchi maqolasida antropolog M.M. Gerasimov laboratoriyasida Ko‘hna-Uaz kalla suyaklari asosida tiklangan qiyofa «hozirgi turkmanlar tipini yaqindan eslatadi» deb yozadi va buning isboti sifatida o‘sha jildda bosilgan T.A. Trofimovaning antropologik maqolasiga havola beradi [41. 218].

Biroq T.A. Trofimovaning asl maqolasi sinchkovlik bilan o‘rganilganda, uning matnida bunday xulosa umuman yo‘qligi aniqlandi! Trofimova Ko‘hna-Uaz kalla suyaklarini hozirgi turkmanlar bilan aslo taqqoslamaydi; Gerasimovning ishdagi ishtiroki esa faqat kalla suyaklari profilining grafik chizmasini bajarish bilan cheklangan [45. 657-658]. Trofimovaning o‘z xulosasi mutlaqo boshqacha: u Ko‘hna-Vaz seriyasini yevropeoid va mongoloid irqlarining qorishuvidan hosil bo‘lgan metis shakllar deb baholaydi hamda ushbu ikki tipning qayerda va qachon aralashgani mavjud material bilan aniqlanmasligini ochiq aytadi [45. 682-683]. Qolaversa, Trofimova o‘zining dastlabki fikridan qaytib, Ko‘hna-Uaz kraniologik seriyasini «ural va shimoliy Osiyo tipi»ga yaqin degan dastlabki bahosini bekor qiladi [45. 679-680].

Demak, ilmiy adabiyotlarda keng tarqalgan «afrig‘iylar davri aholisi turkman antropologik tipiga yaqin» degan da’vo birlamchi antropologik tahlildan emas, balki S.P. Tolstovning subyektiv umumlashtirishidan kelib chiqqan. Ushbu kashfiyot maqolamizning asosiy metodologik tezisini umumlashtiruvchi monografiyalarga ko‘r-ko‘rona ishonmay, birlamchi tadqiqot hisobotlarini doimiy tanqidiy tekshirish zarurligini to‘liq isbotlaydi.

6. Manbashunoslik tanqidining ikkinchi yangi natijasi: B. V. Andrianovning Chermen-yob gidrologiyasiga oid o‘rganilmagan kuzatuvi. B. V. Andrianov 1952-yilda Chermen-yob qadimgi kanali havzasida 120 ta qidiruv nuqtasini kartaga tushirib, kanalning 48 ta ko‘ndalang kesim profilini o‘lchab chiqdi [1. 311-313]. Stratigrafik va geomorfologik o‘lchovlar o‘zanning turli uchastkalari turlicha davrlarga oidligini ko‘rsatdi [1. 317-320]. Muallif irrigatsiya tarmog‘ining rivojlanishini 4 bosqichga ajratadi va eng muhim to‘rtinchi bosqich uchun alohida ilmiy qayd kiritadi: mazkur kanal tarmog‘i V–IX asrlardagi uzoq davom etgan to‘liq qurish va inqirozdan so‘ng qayta tiklangan [1. 320-321].

B. V. Andrianovning ushbu xulosasi butun afrig‘iylar davri oralig‘ini (V–IX asrlar) qamrab oladi va Xorazm irrigatsiyasi bo‘yicha Tolstov, Nerazik va G‘ulomov ilgari surgan konsepsiyalar qatoriga to‘rtinchi mustaqil gidroarxeologik nuqtayi nazar bo‘lib qo‘shiladi. Biroq eng ajablanarlisi, Andrianovning bu konseptual xulosasi keyingi arxeologik va tarixiy adabiyotlarda biror marta ham maxsus muhokama qilinmagan. Shu maqoladagi izohda Ya. G‘. G‘ulomovning bunga zid fikri keltirilib, unga ko‘ra Ko‘zaliqir va Qal’aliqir atrofida sun’iy kanallar umuman bo‘lmaganligi aytiladi [1. 327].

7. Tarixshunoslik bahslarining tub gnoseologik va metodologik sabablari. Tahlil qilingan barcha xronologik, me’moriy va etnik bahslarning umumiy sababi bitta metodologik muammoga borib taqaladi: Xorazm ilk o‘rta asrlar tarixi bo‘yicha yozma manbalar o‘ta kam bo‘lib, ular asosan

Beruniy keltirgan hukmdorlar ro'yxati bilan cheklanadi; arxeologik va numizmatik materiallar esa juda boy bo'lsa-da, ular yodgorliklarning mutlaq sanasini hamda aholining aniq etnik mansubligini bevosita ko'rsatib bermaydi. S.P. Tolstov ushbu uslubiy ziddiyatni 1958-yildayoq ochiq e'tirof etgan edi [41. 104] va oradan yarim asrdan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa-da, mazkur gnoseologik holat o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Xulosa. Afrig'iylar davri Xorazmining 1873–2025-yillardagi o'rganilish tarixini manbashunoslik va qiyosiy-tarixiy tahlil qilish quyidagi asosiy ilmiy xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

1. Afrig'iylar davri Xorazmi tarixshunosligi 150 yillik taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan bo'lib, u 5 ta yirik bosqichga ajraladi. Bosqichlar chegaralarini faqat siyosiy voqealar emas, balki ekspeditsiyalarning tashkil etilishi, yangi tadqiqot usullari (aerorazvedka, kartografiya, kraniologiya) hamda fundamental umumlashtiruvchi nashrlar belgilab bergan.

2. Birinchi bosqich (1873–1936-yillar) dastlabki razvedka va topografik kuzatuvlar bilan tavsiflanadi. Yozma manbalar bazasi keyingi bosqich boshida kengaydi: Abu Rayhon Beruniy keltirgan shajara 1939-yildayoq ilmiy adabiyotlarda hukmdorlarni sanashda qo'llanilgan [19. 156].

3. Qator ilmiy talqinlarning ilk e'lon qilingan sanalariga muhim tuzatishlar kiritildi: afrig'iy qo'rg'onlari bilan an'anaviy o'zbek hovlilari o'rtasidagi etnoarxeologik bog'liqlik 1972-yilda emas, 1963-yildayoq e'lon qilingan [43. 15]; qasr donjonlarining VIII asrdan oldin qurilmagani haqidagi xulosa 1966-yilgi kitobdan uch yil oldin dala hisobotida bosilgan [43. 13]; Tok-qal'a mudofaa tizimi haqidagi ilk xulosa monografiyadan ikki yil oldin chiqqan [9. 79].

4. Davrning quyi chegarasi 70 yil davomida IV asrdan VI asrgacha surilib turgani va bitta muallif bitta maqolada besh xil sana bergani [41] ko'rsatib berildi. Chegaraning siljishi tadqiqotchilar tayangan dalillar turiga (yozma manba yoki arxeologik qatlam) bevosita bog'liqdir.

5. Manbashunoslik tanqidi ikkita yangi ilmiy natijani berdi: birinchidan, S.P. Tolstov T.A. Trofimovaga uning asl matnida bo'lmagan «turkman tipi» qiyosini nisbat bergani isbotlandi [41. 218; 45. 657-658]; ikkinchidan, B. V. Andrianovning Cherman-yob sug'orish tizimi V–IX asrlarda uzoq muddatli qurish va inqirozga uchragani haqidagi xulosasi [1. 320-321] fanda muhokamasiz qolib ketgani aniqlandi.

6. Istiqboldagi tadqiqotlar uchun ikkita ustuvor yo'nalish belgilandi: 1) XAEEning e'lon qilinmagan va kam o'rganilgan boshqa dala hisobotlarini ushbu tanqidiy metod bilan qayta tahlil qilish; 2) Afrig'iylar davrining quyi chegarasini zamonaviy radiouglerod (14C) tahlillari va sopol majmualarining texnologik tipologiyasi asosida qayta verifikatsiya qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Андрианов Б.В. Археолого-топографические исследования древней ирригационной сети канала Черменяб // Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. Т. II. – М.: Изд-во АН СССР, 1958. – С. 311–328.

2. Андрианов Б.В. Археолого-топографические исследования на землях древнего орошения Турткульского и Бирунийского районов Каракалпакской АССР в 1955–1956 гг. // Материалы Хорезмской экспедиции. Вып. 1. – М.: Изд-во АН СССР, 1959. – С. 142–149.

3. Бабаджанов Б., Мкртычев Т. К истории Миздахкана: от города живых к городу мертвых // История и археология Турана. № 6. – Ташкент, 2024. – С. 44–63.

4. Бауетдинов Р. Из истории археологических исследований в Каракалпакстане // История и археология Приаралья. № 3. – Нукус, 2022. – С. 185–189.

5. Болелов С.Б. Археологические данные к истории Хорезма в эпоху «Великого переселения народов» (III–V вв.) // История и археология Приаралья. № 3. – Нукус, 2022. – С. 75–90.

6. Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма. – М.: Наука, 1977. – 191 с.

7. Вайнберг Б.И. Этногеография Турана в древности. VII в. до н.э. – VIII в. н.э. – М.: Восточная литература, 1999. – 359 с.

8. Галиева З.С. Новые данные к истории орошения древних антропогенных ландшафтов среднего Заравшана (на примере Придаргомья) // История и археология Турана. № 3. – Самарканд, 2017. – С. 205–226.

9. Гудкова А.В. Раскопки городища Ток-кала в 1960–1961 гг. (Сообщение первое) // Вестник Каракалпакского филиала АН УзССР. – Нукус, 1962. – № 3 (9). – С. 71–79.

10. Гудкова А.В. Ток-кала / отв. ред. Л.И. Альбаум. – Ташкент: Наука УзССР, 1964. – 152 с.

11. Гудкова А.В., Лившиц В.А. Новые хорезмийские надписи из некрополя Ток-калы и проблема «хорезмийской эры» // Вестник Каракалпакского филиала АН УзССР. – Нукус, 1967. – № 1 (27). – С. 3–19.

12. Доспанов О. Экономико-хозяйственное развитие средневековых городов и поселений правобережного Хорезма // История и археология Турана. № 6. – Ташкент, 2024. – С. 273–282.

13. Древности Южного Хорезма / Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. Т. XVI. – М.: Наука, 1991. – 287 с.

14. Кдырниязов О.-Ш. Великий Шелковый путь и раннесредневековая цивилизация Хорезма // История и археология Турана. № 2. – Самарканд, 2016. – С. 99–102.

15. Мамбетуллаев М.М. К изучению раннекердерских амулетов (VI–VIII вв.) (по материалам Куюк-калы) // История и археология Турана. № 1. – Ташкент, 2013. – С. 47–57.

16. Манылов Ю.П. К изучению городища Кят // Вестник Каракалпакского филиала АН УзССР. – Нукус, 1966. – № 2 (24). – С. 49–56.

17. Материалы к своду памятников истории и культуры Каракалпакской АССР. Вып. 1 / отв. ред. В.Н. Ягодин, С.М. Мадияров. – Нукус: Каракалпакстан, 1985. – 164 с.

18. Материалы к своду памятников истории и культуры Каракалпакской АССР. Вып. 2 / отв. ред. В.Н. Ягодин, С.М. Мадияров. – Нукус: Каракалпакстан, 1986. – 252 с.

19. Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. I: VII–XV вв. Арабские и персидские источники / под ред. С.Л. Волина, А.А. Ромаскевича, А.Ю. Якуbovского. – М.; Л.: Изд-во АН СССР, 1939. – 612 с.

20. Материалы Хорезмской экспедиции. Вып. 3: Низовья Аму-Дарьи, Сарыкамыш, Узбой. История формирования и заселения / под общ. ред. С.П. Толстова и А.С. Кесь. – М.: Изд-во АН СССР, 1960. – 232 с.

21. Неразик Е.Е. Археологическое обследование городища Куня-Уаз в 1952 г. // Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. Т. II. – М.: Изд-во АН СССР, 1958. – С. 367–396.

22. Неразик Е.Е. Керамика Хорезма афригидского периода // Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. Т. IV. – М.: Изд-во АН СССР, 1959. – С. 221–260.

23. Неразик Е.Е. Раскопки в Беркут-калинском оазисе в 1953–1956 гг. // Материалы Хорезмской экспедиции. Вып. 1. – М.: Изд-во АН СССР, 1959. – С. 96–127.

24. Неразик Е.Е. Раскопки Якке-Парсана // Материалы Хорезмской экспедиции. Вып. 7. – М.: Изд-во АН СССР, 1963. – С. 3–40.

25. Неразик Е.Е. Сельские поселения афригидского Хорезма (по материалам Беркут-калинского оазиса). – М.: Наука, 1966. – 154 с.

26. Неразик Е.Е. Новые материалы по гончарному ремеслу в Древнем Хорезме // Вестник Каракалпакского филиала АН УзССР. – Нукус, 1968. – № 2 (32). – С. 55–61.

27. Неразик Е.Е. Из истории хорезмского сельского жилища // Советская этнография. – 1972. – № 3. – С. 43–54.

28. Неразик Е.Е. Сельское жилище в Хорезме (I–XIV вв.) // Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. Т. IX. – М.: Наука, 1976. – 254 с.

29. Неразик Е.Е. К проблеме развития городов Хорезма // Культура и искусство древнего Хорезма. – М.: Наука, 1981. – С. 219–227.

30. Неразик Е.Е. Раннее средневековье в Хорезме // Этнографическое обозрение. – 1997. – № 1. – С. 41–58.

31. Неразик Е.Е. Хорезм в раннем средневековье (IV–VIII вв. н.э.) // Рапопорт Ю.А., Неразик Е.Е., Левина Л.М. В низовьях Окса и Яксарта. Образы древнего Приаралья. – М.: Индрик, 2000. – С. 69–104.

32. Неразик Е.Е. Раннесредневековая культура Хорезма и проблемы её происхождения // Transoxiana. Тарих ва маданият. – Ташкент, 2004.

33. Неразик Е.Е. Формирование раннесредневекового общества в низовьях Амударьи. – М.: Гриф и К, 2013. – 374 с.

34. Отчёт о научно-исследовательской работе (промежуточный) «Низовья Амударьи в древности и средневековье. Первые века нашей эры – XIV в.». – Нукус: ККНИИГН ККО АН РУз, 2024. – 152 с.

35. Рапопорт Ю.А. Некоторые итоги изучения дворца на городище Топрак-кала // Культура и искусство древнего Хорезма. – М.: Наука, 1981. – С. 228–240.

36. Рапопорт Ю.А., Трудновская С.А. Городище Гяур-кала // Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. Т. II. – М.: Изд-во АН СССР, 1958. – С. 347–366.

37. Сайпов С. Некоторые технологические процессы изготовления средневековых керамических изделий в Южном Приаралье // История и археология Турана. № 5. – Ташкент, 2020. – С. 426–436.

38. Сайпов С. Неполивные хозяйственные сосуды южного Приаралья IX–XI вв. // История и археология Турана. № 6. – Ташкент, 2024. – С. 231–246.

39. Толстов С.П. Древний Хорезм: опыт историко-археологического исследования. – М.: Изд-во МГУ, 1948. – 352 с.

40. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. – М.; Л.: Изд-во АН СССР, 1948. – 328 с.

41. Толстов С.П. Работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции АН СССР в 1949–1953 гг. // Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. Т. II. – М.: Изд-во АН СССР, 1958. – С. 7–258.

42. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: Изд-во восточной литературы, 1962. – 324 с.

43. Толстов С.П., Жданко Т.А., Итина М.А. Работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции в 1958–1961 гг. // Материалы Хорезмской экспедиции. Вып. 6. – М.: Изд-во АН СССР, 1963. – С. 3–90.

44. Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. Т. I: Археологические и этнографические работы Хорезмской экспедиции 1945–1948 гг. / отв. ред. С.П. Толстов. – М.: Изд-во АН СССР, 1952. – 350 с.

45. Трофимова Т.А. Материалы по палеоантропологии Хорезма и сопредельных областей // Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. Т. II. – М.: Изд-во АН СССР, 1958. – С. 639–701.

46. Цалкин В.И. Фауна античного и раннесредневекового Хорезма // Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. Т. I. – М.: Изд-во АН СССР, 1952. – С. 213–246.

47. Ходжайов Т.К., Ходжайова Г.К. К этнической антропологии Центральной (Средней) Азии // История и археология Турана. № 4. – Самарканд, 2019. – С. 246–254.

48. Хорезм в истории государственности Узбекистана / отв. ред. Э.В. Ртвеладзе, А.Х. Саидов. – Ташкент: Узбекистан файласуфлари миллий жамияти, 2013. – 371 с.

49. Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи (қадимги замонлардан ҳозиргача). – Тошкент: ЎзССР ФА нашриёти, 1959. – 324 б.

50. Turganov B. Xorazmning antik davrdagi badiiy metall buyumlari // История и археология Турана. № 7. – Самарканд, 2025. – С. 235–246.

UO'K 94(575.1)

TOSHKENT VOHASINING SO'NGGI BRONZADAN ILK O'RTA ASRLARGACHA BO'LGAN ETNOMADANIY EVOLYUTSIYASI

B.I.Isabekov, katta ilmiy xodim, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Antropologiya instituti, Toshkent

Annotatsiya. *Maqolada Toshkent vohasining so'nggi bronza va ilk temir davriga oid Burg'ulik madaniyati hamda antik va ilk o'rta asrlarda rivojlangan Qovunchi madaniyatining o'zaro lokalizatsiyasi, genetik aloqalari va xronologiyasi tahlil qilingan. Shoshtepa yodgorligi stratigrafiyasi, Quyun manzilgohi va Ertosh qabr-qo'rg'onidan olingan so'nggi radiokarbon (C14) tahlillari asosida ushbu madaniyatlarning rivojlanish bosqichlari yoritib beriladi. Shuningdek, vohada xom g'isht me'morchiligi, monumental mudofaa inshootlari, o'ziga xos zoomorf sopol idishlar shakllanishi, tog'-kon metallurgiyasining yuksalishi hamda o'zbek xalqi etnogenezida o'troq turkiy qatlamning tutgan o'rni ko'rsatib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Toshkent vohasi, Burg'ulik madaniyati, Qovunchi madaniyati, Shoshtepa, stratigrafiya, xronologiya, radiokarbon tahlil, zoomorf keramika, tog'-kon sanoati.*

Аннотация. *В статье анализируются взаимная локализация, генетические связи и хронологические рамки бургулюкской (эпоха поздней бронзы и раннего железа) и каунчинской (античность и раннее средневековье) культур Ташкентского оазиса. На основе стратиграфии Шаштепа, поселения Куюн, а также новейших радиоуглеродных (C14) анализов из курганного могильника Ирташ освещаются этапы развития данных культур. Особое внимание уделено становлению сырцовой архитектуры и монументальных фортификаций, специфике зооморфной керамики, расцвету горно-металлургического производства и роли оседлого тюркского пласта в этногенезе узбекского народа.*

Ключевые слова: *Ташкентский оазис, Бургулюкская культура, Каунчинская культура, Шаштепа, стратиграфия, хронология, радиоуглеродный анализ, зооморфная керамика, горно-металлургическое производство.*

Abstract. *This article examines the spatial localization, genetic continuity, and chronological framework of the Burgulyuk (Late Bronze and Early Iron Ages) and Kaunchi (Antiquity and Early Middle Ages) archaeological cultures of the Tashkent oasis. Drawing upon the stratigraphy of Shoshtepa, the Kuyun settlement, and recent radiocarbon (C14) dating results from the Ertosh burial mounds, the evolutionary phases of both cultures are outlined. The study highlights the emergence of mudbrick architecture and monumental fortifications, zoomorphic ceramic styles, the rise of specialized mining and metallurgy, and the contribution of the settled Turkic substratum to the ethnogenesis of the Uzbek people.*

Key words: *Tashkent oasis, Burgulyuk culture, Kaunchi culture, Shoshtepa, stratigraphy, chronology, radiocarbon dating, zoomorphic ceramics, mining and metallurgy.*

Toshkent vohasi etnomadaniy tarixida Burg'ulik madaniyati mintaqaning eng so'nggi bronza va ilk temir davri qadimgi dehqonchilik madaniyati sifatida ma'lum. Bugungi kunga qadar Burg'ulik madaniyati bir guruh olimlar G. B. Grigoryev, A. I. Terenojkin, Yu. F. Buryakov, M. Qosimov, X.

Duke tomonidan [1,2,3,4] tadqiq etilgan bo‘lsa-da, Burg‘ulik madaniyatining xronologik davriy sanasi, bahsli masala sanaladi. Shu sababli Burg‘ulik madaniyati ko‘plab arxeologlar tomonidan turlicha davrlashtirilgan va talqin etilgan. A. I. Terenojkin avval madaniyatning yoshini IV-VI deb belgiladi va uni ikki bosqichga Burg‘ulik-I va Burg‘ulik-II ga ajratgan [5]. Yu. F. Buryakov Tuyabo‘g‘iz makonlar guruhining ilk bosqichini mil. avv. IX-VII asrlarga (Burg‘ulik-I), so‘nggi bosqichlari (Burg‘ulik-II)ni mil. avv. VI-III asrlarga taalluqli deb hisobladilar [6]. A. A. Asqarov va M. Filanovich Shosh moddiy madaniyat tarixini Shoshtepa materiallari asosida 2 bosqich — Burg‘ulik madaniyatining tugallanish bosqichi (mil. avv. VI-IV asrlar) va Burg‘ulik madaniyatining Qovunchi madaniyatiga o‘tish bosqichi (mil. avv. III-II asrlar)ga ajratadi [6]. S. Baratov tomonidan Burg‘ulik madaniyatining ilk bosqichi mil. avv. XIII-IX asrlar bilan sanalashtirilgan [7]. Biroq so‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida Quyun manzilgohining burg‘ulik va andronov madaniyatiga oid qatlamlari o‘rganildi [8,9]. Natijada burg‘ulik madaniyati qatlamlari taxminan mil. avv. XI asr o‘rtalari — X asr oxiri, andronov madaniyati qatlamlari esa taxminan mil. avv. XIV asr oxiri — XII asr boshlari bilan davrlashtirildi [10].

Bu davr aholisi moddiy madaniyatida me'morchilikning biror belgisi ko‘zga tashlanmaydi, aholi yer to‘la shaklidagi kulbalarda yashagan. Kulolchilik mahsulotlari qo‘lda, charxsiz yasalgan dag‘al sopol idishlardan iborat. Asosiy sopol idishlar tasma uslubida mato qolipida qo‘lda yasalgan [11]. Ularning turi juda cheklangan: tagi oval kosa va nimkosalar, qulog‘siz xumcha va ko‘zalar, qo‘shquloqli ko‘za va xurmachalar, novsimon jumrakli qorni keng xumchalardan iborat. Ular ikki yarusli xumdonlarda emas, balki bir yarusli maxsus ko‘ralarda pishirilgan. Idishlarning sirti nimrang qizg‘ich angobli, mo‘rt qilib yasalgan. Madaniyat sohiblarining asosini o‘troqlashgan mahalliy saklar tashkil etadi [12]. Burg‘ulik madaniyati sohiblarining sopollari shakli jihatidan qadimgi Farg‘onaning Chust va Eylatan madaniyatlari kulolchilik mahsulotlariga o‘xshab ketadi. Chust madaniyatining so‘nggi bosqichi va Eylatan madaniyati yodgorliklarida xom g‘ishtdan uy-joy va mudofaa inshooti qurish paydo bo‘ladi [13].

Burg‘ulik madaniyatining Burg‘ulik II bosqichi qadimgi Toshkent vohasining Shoshtepa yodgorligi misolida yaxshi o‘rganilgan. Yodgorlik stratigrafiyasi Shosh I (mil. avv. VI-IV asrlar), Shosh II (mil. avv. III asr), Shosh III (mil. avv. II-I asrlar), Shosh IV (milodiy I-III asr boshlari), Shosh V (III asr boshlari-VI asr), Shosh VI (VII-VIII asrlar) bosqichlarga bo‘lingan. Agar Shoshtepa davriy bosqichlarini Qovunchi madaniyati bosqichlari bilan qiyoslaganda quyidagi manzarani ko‘rish mumkin: Shosh I, Burg‘ulik madaniyatining II bosqichiga zamondosh, Shosh II o‘tish davri, Shosh III, Qovunchi I ga, Shosh IV, Qovunchi II A ga, Shosh V, Qovunchi II B ga, Shosh VI esa Qovunchi III ga xronologik jihatdan to‘g‘ri keladi [14].

Ammo, yodgorlikning Shosh I va Shosh II bosqichlarida qurilish materiallari uchramaydi. Ular faqat Shosh III bosqichida uchraydi. Kulolchilik mahsulotlari va turar-joylar xarakteriga ko‘ra, Shosh I bosqichi mutlaqo Burg‘ulik madaniyatiga tegishli, Shosh II bosqichida, barcha sohalarda Burg‘ulik an'anasi davom etgan holda, keramika kompleksida o‘zga etnik guruhlarning ta'siri ko‘zga tashlanadi [14].

Sarmatlarning Jetiasar madaniyati siymosida Toshkent vohasiga kirib kelishi Shoshtepa stratigrafiyasida mil. avv. III asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Ular asta-sekin mahalliy Burg‘ulik aholisi bilan qorishib, Qovunchi madaniyatining tarkib topishiga olib kelgan. Demak, Shosh II bosqichi (mil. avv. III asr) Burg‘ulik madaniyatidan Qovunchi madaniyatiga o‘tish davrini xarakterlaydi. Aynan shu o‘tish davrida Qovunchi madaniyatiga xos elementlar (Tuyabo‘g‘iz manzilgohlarida uchratilgan xom g‘isht devor izlari hamda antropologik materiallar seriyasida Jetiasar odamlari tipi) paydo bo‘la boshlaydi [5]. Shosh III bosqichi esa to‘liq Qovunchi madaniyatining shakllangan davridir. Shosh III kompleksi, Shosh I va Shosh II bosqichlaridan farqli o‘laroq, o‘ziga xos komponentlar bilan xarakterlanadi [14]: 1) moddiy madaniyatda me'moriy-qurilish massivi paydo bo‘ladi; 2) moddiy madaniyatda oddiy qishloqdan tubdan farq qiluvchi monumental mudofaa kompleksi shakllanadi; 3) moddiy madaniyatda tub sifat o‘zgarishlari yuz beradi; 4) aholi tarkibida ko‘p komponentli etnik guruhlar qorishmasi asosida yangi antropologik tip, ya'ni o‘zbek xalqiga xos “O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i tipi”ga asos solinadi; 5) shakllangan yangi etnos yetakchiligida yarim o‘troq va yarim ko‘chmanchi qabilalarning harbiy-siyosiy davlat konfederatsiyasi, ya'ni Qang davlati tarkib topadi.

Sirdaryoning o‘rta havzalarida tarkib topgan Qovunchi madaniyati o‘z navbatida uchta xronologik bosqichga bo‘linadi:

1) Qovunchi I. Unga xos xarakterli xususiyatlar: innovatsiya sifatida moddiy madaniyatda me'moriy-qurilish majmuasi, monumental mudofaa inshootlari paydo bo‘ladi, arxeologik kompleks tarkibida tub sifat o‘zgarishlari yuz beradi, mahalliy aholi orasiga chorvador turkiy tilli etnik guruhlarning kirib kelishi jadallashadi.

Kulolchilikda tubdan o‘zgarishlar yuz beradi [4]: sopol buyumlar mutlaqo qo‘lda yasalgan, Burg‘ulik madaniyati kulolchilik mahsulotlaridan farqli o‘laroq, sopol idishlarning osti tekis, yalpoq. Idishlar turining ko‘pchiligi tiniq qizg‘ich-oqish angobli, uning ustiga taram-taram jigarrang yoki qora rang oqizilgan. Ular bo‘ydor xum va xumchalar bo‘lib, ularning bo‘yin qismi torroq, yokasimon labi biroz tashqariga qayrilgan, ba'zida yelkasiga xochsimon yoki qo‘shqavat uchburchak shaklida tamg‘a bosilgan.

Ko‘zalari bo‘ydor, bir dastali, ba'zida dastasi hayvon (zoomorf) qiyofasida ishlangan. Dasta qarama-qarshi tomonida ko‘zaga jumrak yopishtirilgan. Bunday ko‘zalar sirtiga qora rangda bezak berilgan, ba'zida rangli naqsh to‘lqinsimon shaklda tasvirlangan. Uchinchi xil idishlar og‘zi keng va osti tekis xurmachalar bo‘lib, ularning yelkasiga kichkina qo‘shaloq dasta ishlangan. Ustki qismiga xuddi ko‘zalardek rangli naqsh berilgan.

Qovunchi I sopollari orasida zoomorf dastali krujkalar (yog‘log‘ilar) ko‘plab uchraydi. Ularning qorin qismi sharsimon, yelkadan yuqorisi biroz tashqariga qayrilgan yoki tik ko‘tarilgan. Krujkalar orasida silindrik shakldagi nusxalari ham uchraydi. Krujkalar dastasining yuqori qismi hayvon figurasi bilan yakunlangan. Keng tarqalgan sopol idishlardan yana biri yelkadan pasti konus shakldagi kosalar bo‘lib, ularning og‘zi keng, yalpoq tubi torroq, yelkasi konussimon tanasidan ajrab turadi. Ba'zida ular orasida qo‘shquloqli nusxalari ham uchraydi.

Qovunchi I kompleksi mehnat va harbiy qurollarining asosini tosh yorg‘uchoqlar, tosh keli soplari, to‘qimachilik dastgohining osma toshlari, qayroqtoshlar, palahmon toshlari, ruda qazish va yanchish tosh gurzilari, kundalik turmush buyumlari, tarkibi va materiallari turfa xil bo‘lgan qimmatbaho toshlardan yasalgan taqinchoqlar tashkil etadi. Bu davrda temirdan ishlangan mehnat va harbiy qurollar keng yoyilgan. Ular bir tig‘li yoysimon temir pichoqlar, xanjar, katta va kichik hajmdagi uch parroqli temir paykonlar, igna va bigiz hamda teri oshlash toshlari bo‘lib, paykonlarning asosi uchi uchli bigizsimon shaklda yasalgan. Bunday temir paykonlar O‘rta Osiyoning antik davr chorvador qabilalari hamda sarmat qabilalarining jetiasar va proxorov madaniyati yodgorliklarida keng tarqalgan. Bulardan tashqari, kompleksda temir omoch tishi, qarmoq, zanjir, ot egar-jabdug‘ining detallari va bel kamarining to‘qalari keng ko‘lamda uchraydi [15].

2) Qovunchi II kompleksida monumental me'morchilik va mudofaa tizimi rivojlanishda davom etadi. Bu davr me'morchiligi kompleksida Sitadel (Arki-A'lo) paydo bo‘ladi. Masalan, Shoshtepada Shosh III (Qovunchi I) bosqichi aylana devori ustida yangi (Shosh IV, Qovunchi II A) davrining paxsadan qurilgan to‘g‘riburchak shakldagi Arki-A'losi qad ko‘taradi [14]. Sitadel devorlari qo‘shimcha ichki qurilmalar bilan 4 m gacha kuchaytiriladi, koridorlar xonalarga aylantiriladi. Ammo, Qovunchi II B (Shosh V) davrida xonalar xom loyga to‘ldirilib, Sitadel tashqi devori ichida paxsa platformasi hosil qilinadi. Uning ustida Qovunchi II B davrining qurilmalari, ya'ni paxsa-g‘ishtdan tiklangan yangi monumental kompleks quriladi. Bu kompleks avvalgi Sitadel tashqi devorini qamrab olib, to‘g‘riburchak shaklida mahobatli yangi Sitadeli qad ko‘taradi. Natijada Sitadelning tashqi devori 6 m ga qalinlashadi, tashqi devor ustida keng maydon hosil bo‘lib, u joy, dushmanga qarshi palaxmontosh otish qurilmasi mexanizmi uchun maydon vazifasini o‘tagan.

Bu bosqichning yana bir muhim belgisi bo‘ydor xurmacha va krujkalar dastasini real hayvonsifat (zoomorf) shaklda rasmiylashtirish keng ko‘lamda rivoj topadi. Sirti to‘lqinsimon chizma naqshli bir dastali ko‘zalar paydo bo‘ladi. Ilk bor lagansimon idish yoki bosma barmoq izli gullar solingan sopol dasturxonlar paydo bo‘ladi [14]. Bunday gulli dasturxonlar Sug‘d, qadimgi Farg‘ona, umuman Movarounnahrning VII-VIII asrlar keramikasi uchun xarakterlidir [3].

Qovunchi II davrida metallurgiya va metallni ishlab chiqarish rivojlanadi. Masalan, Kulota Sitadeli va Shahristonida, Qovunchi I ning oxiri va Qovunchi II davrida ruda eritish ko‘ralari, ruda

bo‘laklari va toshqollar uchragan. Ular Kulotada polimetal (mis va kumush rudasi) eritish bilan bog‘liq ustaxonalar faoliyat ko‘rsatganidan dalolat beradi. Qadovatdepa yodgorligining metallurgiya ustaxonalarida silindr shaklida qurilgan temir ruda eritish ko‘ralari bo‘lganligi haqida materiallar bor.

3) Qovunchi III kompleksida monumental me'morchilik va mudofaa tizimi yanada rivojlanishda davom etadi. Shahriston atrofi mudofaa devorlari bilan o‘rab olinadi. Vohaning yirik shaharlarida urbanistik jarayonlarning jadallashgani bois, shaharda ikkinchi shahriston ham tarkib topa boshlaydi.

Vohada mil. avv. III asrdan e'tiboran dehqonchilik madaniyatining rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq holda boshlangan ilk shahar hayoti hunarmandchilikning turli sohalarining yuksalishiga, tabiiy yer osti xomashyo boyliklarining o‘zlashtirilishiga, birinchi navbatda, tog‘ sanoatining rivojlanishiga olib keladi. Qovunchi II davridan boshlab (milodiy I ming yillikning boshlaridan) mis va kumush, temir va oltinga boy polimetall ruda konlarini o‘zlashtirish boshlanadi. Dastlab ularni konchilar oddiy usulda, yer yuzasiga chiqib qolgan punktlarda o‘zlashtiradilar. Rudalarni eritish dastlab ruda konlari yaqinida olib boriladi. Sekin-asta ularni o‘zlashtirish uchun maxsus ixtisoslashgan punktlar paydo bo‘ladi. Masalan, Shovgaz, Qadovatdepa, Toshbulak, Kulota va boshqalar.

Qovunchi III davridan boshlab tog‘ sanoati iqtisodiyotning asosiy yo‘nalishiga aylanadi. Ruda qazish, yanchish, rudani maxsus (diametri 1-1,20 sm) ko‘ralarda eritib, sof metall xomashyosi olish, undan mehnat va harbiy qurollar yasash, shuningdek, tog‘ sanoatida mehnat taqsimoti boshlanadi, ya'ni metallurgiya ishlab chiqarishda ixtisoslashish jarayoni jadal kechadi. Ohangaron vodiysida metall ishlab chiqarishga ixtisoslashgan shaharlar paydo bo‘ladi. Masalan, Tunket shahri. Vohaning har bir katta va kichik shaharlarida, qishloqlarida... metallurgiya bilan bog‘liq hayot qaynaydi. Metallurgiya bilan bog‘liq savdo-sotiq rivojlanadi, tanga pullar zarb etish yo‘lga qo‘yiladi.

Qovunchi III davri komplekslarida silindrik shakldagi terrakotik muhrlar ham uchraydi. Ularning ichiga o‘yilgan yuzasida o‘simliklar va echki figurasi, shoxlari orqaga qayrilgan holatda tasvirlangan [16].

Marhumlarni ko‘mish qurilmalari qatorida yer osti tosh kameralari hamda paxsa va xom g‘ishtlardan yer yuzasiga qurilgan sag‘analar paydo bo‘ladi. Sag‘analarda murdalar uchun maxsus supalar qilinib, ular ustiga mayitlar yotqizilgan, kamera pollariga esa qabr inventarlari qo‘yilgan. Aynan shu davrda Ohangaron vodiysida marhumlarning suyaklarini etidan tozalab, ostadonlarga solib ko‘mish udumi ilk bor paydo bo‘ladi.

Qovunchi madaniyati va uning bosqichlarining davriy sanalari masalasida mutaxassislar orasida munozarali bahslar mavjud. Masalan, G. V. Grigoryev Qovunchi madaniyatini ikki bosqichga bo‘ladi. U Qovunchitepani quyi qatlamlaridan temir predmetlari uchramagani bois, Qovunchi I bosqichini bronza davrining yakunlovchi davri bilan, ya'ni mil. avv. II ming yillikning oxiri va I ming yillikning boshlari bilan belgilaydi. Qovunchi II arxeologik kompleksining arxaik xarakteriga ko‘ra, mil. avv. I ming yillikning o‘rtalari bilan belgilaydi va uning asosida sak qabilalari madaniyati yotishini ta'kidlaydi [17].

A. I. Terenojkin Qovunchi kompleksini usun madaniyati bilan zamondosh ekanligini ta'kidlab, dastlab uni mil. avv. I ming yillikning birinchi yarmiga tegishli deb topdi [18], keyinroq esa Qovunchi I bosqichini mil. avv. II-I asrlar bilan belgilaydi [19]. Jun kompleksini esa milodiy II-IV asrlarga tegishli degan xulosaga keladi [14]. S. P. Tolstov Qovunchi I bosqichini milodiy I-II asrlar, Qovunchi II ni esa II-IV, ehtimol V-VI asrlarga tegishli ekanini ta'kidlaydi [21]. B. A. Litvinskiy esa Qovunchi madaniyati yodgorliklari orasidan jun kompleksini ajratib olib, uni mustaqil Jun madaniyati sifatida tavsiflaydi [22] va uning davriy sanasini milodiy III-IV asrlar bilan belgilaydi [23].

T. G. Oboldueva Qovunchi madaniyatini milodiy era boshlariga tegishli hisoblab, unga Sirdaryo havzasidagi Sug‘d madaniyatining mahalliy varianti deb qaraydi. L. M. Levina esa jun yodgorliklarini Qovunchi madaniyatining varianti sifatida qarab, jun kompleksini Qovunchi II kompleksiga qo‘shib yuboradi [24] va Qovunchi madaniyatini uch bosqichga bo‘ladi. U taklif etgan davriy sanada Qovunchi I, mil. avv. I-milodiy III, Qovunchi II, milodiy IV-V, Qovunchi III, milodiy VI-VIII asr boshlariga tegishli ekanini asoslaydi [24].

Yu. F. Buryakov Qovunchi madaniyatini uch bosqichga bo‘linishini tan olgan holda, Qovunchi I bosqichini mil. avv. II-milodiy II asrlar, Qovunchi II bosqichini milodiy II-IV, Qovunchi III bosqichini esa milodiy IV-VI asrning birinchi yarmi bilan belgilaydi [4]. Aynan bu davrlashtirishga D. Normurodov ham qo‘shilgan [9]. O. Inomov Qovunchi madaniyatining yakunlovchi bosqichi sanasining yuqori chegarasini VIII asr boshlari bilan belgilab, bu borada L. M. Levinaning fikrlarini ma’qullagan [25]. Bu masalada M. I. Filanovich tomonidan Shoshtepada olib borilgan stratigrafik kuzatuvlar bizningcha tarixiy haqiqatga yaqindir. Masalan, Shoshtepa stratigrafiyasida Shosh I (mil. avv. VI-IV asrlar), Shosh II (mil. avv. III asr), Shosh III (mil. avv. II-I asrlar), Shosh IV (milodiy I-III asr boshlari), Shosh V (III asr boshlari-VI asr), Shosh VI (VII-VIII asrlar) bosqichlarga bo‘lingan. Agar Shoshtepa davriy bosqichlarini Qovunchi madaniyati bosqichlari bilan qiyoslaganda quyidagi manzarani ko‘rish mumkin: Shosh I, Burg‘ulik madaniyatining II etapiga zamondosh, Shosh II o‘tish davri, Shosh III, Qovunchi I ga, Shosh IV, Qovunchi-II A ga, Shosh V, Qovunchi II B ga, Shosh VI esa Qovunchi III ga xronologik jihatdan to‘g‘ri keladi. Mana shu stratigrafik sxemadan kelib chiqib Qovunchi madaniyati bosqichlarining absolyut davriy sanalarini quyidagicha tasavvur etish mumkin: Qovunchi I bosqichi davriy sanasini mil. avv. II-milodiy II asr boshlari, Qovunchi II milodiy II-IV asrlar, Qovunchi III milodiy V-VIII asr boshlari bilan belgilash mumkin.

So‘nggi yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Ertoshdan topilgan Qovunchi madaniyatining II bosqichiga oid qabr-qo‘rg‘onidan radiokarbon analiz (Poznań Radiocarbon Lab tomonidan) o‘tkazildi. Bog‘ishamol_B1 namunasi uchun radiokarbon (C14) tahlilining OxCal dasturida kalibrlangan natijalariga ko‘ra, Bog‘ishamol_B1 namunasi 95% ishonch bilan milodiy taxminan 127–320-yillarga to‘g‘ri kelishi ma'lum bo‘ldi.

Olingan radiokarbon analiz Qovunchi madaniyatining II bosqichi to‘g‘ri davrlashtirilganini anglatadi. Kelgusi yillarda olib boriladigan yangi arxeologik tadqiqotlar va laboratoriya analizlari Burg‘ulik va Qovunchi madaniyatlarning davrlashtirish masalasiga yanada aniqlik kiritib munozarali bahslarga javob beradi deb umid qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Древности Туябугуза. — Ташкент: Фан, 1978.
2. Дуке Х. Бургулюкская культура // Древности Туябугуза. — Ташкент, 1978.
3. Дуке Х. И. Туябугузские поселения Бургулюкской культуры. — Т., 1982.
4. Буряков Ю. Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. — Ташкент, 1982. — С. 72–74.
5. Тереножкин А. И. Согд и Чач // КСИИМК. Вып. — М., 1950. — С. 153–155.
6. Буряков Ю. Ф. Древняя и средневековая культура Чача. — Ташкент, 1979. — С. 167–174.
7. Дуке Х., Баратов С. Бурғулик маданияти // “Ўзбекистон пойтахти Тошкент 2200 ёшда”. Халқаро илмий конференция материаллари. — Тошкент, 2009.
8. Максудов Ф. А., Ильясова С. Р. Куюн — поселение эпохи поздней бронзы раннего железа в Ташкентском оазисе // ИМКУ. Вып. 40. — Самарқанд, 2019. — С. 69–75.
9. Нормуродов Д. Р. Тошкент воҳасининг қадимги ва ўрта асрлар даври моддий маданияти тарихи (мил. авв. XIII — милодий XIII аср бошлари). — Тошкент, 2020. — Б. 16.
10. Ильясова С. Р. Куюн — памятник Бургулюкской культуры в Ташкентской области // Культуры Азиатской части Евразии в древности и средневековье: Материалы Международной научной конференции, посвящённой 80-летию со дня рождения и 50-летию научно-педагогической деятельности проф. Н. А. Аванесовой. — Самарканд, 2021. — С. 88–93.
11. Тошкент воҳаси археологияси. Бурғулик маданияти.
12. Спришевский В. И. Оборонительные сооружения эпохи бронзы на территории Узбекистана // СА. — 1972. — № 3. — С. 228.
13. Дуке Х. Исследование в зоне Туябугузского водохранилища // АО 1980 года. — 1981. — С. 449.
14. Филанович М. И. Ташкент: зарождение и развитие города и городской культуры. — Ташкент, 1983. — С. 133.
15. Мешкерис В. А. Коропластика Согда. — Душанбе, 1977. — С. 59–60.
16. Абдуллаев К. Уникальная находка терракотового фриза // ОНУ. — 1974. — № 2. — С. 23.
17. Григорьев Г. В. Отчёт об археологической разведке в Янгиюльском районе Узбекской ССР в 1934 г. — Ташкент, 1935. — 39 с.
18. Тереножкин А. И. Памятники материальной культуры на Ташкентском канале // Изв. УзФАН СССР. — Ташкент, 1940. — С. 86–87.
19. Тереножкин А. И. Рец.: Г. В. Григорьев. Каунчитепа // УзФАН СССР. — № 8. — С. 84–86.
20. Тереножкин А. И. Каунчитепа: материалы датировки культуры (уточнённая ссылка) // КСИИМК. — М., 1950.

21. Толстов С. П. К вопросу о датировке культуры Каунчитепа // ВДИ. — 1946. — № 1. — С. 175–176.
22. Литвинский Б. А. Джунский могильник и некоторые аспекты кангюйской проблемы // СА. — 1967. — № 2. — С. 29–37.
23. Оболдуева Т. Г. Курганы каунчинской и джунской культуры // КСИИМК. Вып. 23. — М.–Л., 1948. — С. 101–102.
24. Левина Л. М. Керамика нижней и средней Сырдарьи в I тыс. н.э. — М., 1971. — С. 181–182.
25. Иномов О. У. Қовунчи маданияти ва унинг ўзбек халқининг шаклланишидаги роли: Дис. ... фалсафа доктори (PhD). — Тошкент: ЎзР ФА ТИ, 2019.

UO'K 39(575.1)

QASHQADARYO TURKMANLARINING ETNIK TARIXI VA JOYLASHUVI: AN'ANAVIY XO'JALIK VA MODDIY MADANIYAT

S.R.Jurayev, o'qituvchi, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Termiz

Annotatsiya. *Maqolada Qashqadaryo vohasida yashovchi turkmanlarning etnik tarixi, hududiy joylashuvi, an'anaviy xo'jaligi va moddiy madaniyati tarixiy-etnografik manbalar asosida yoritiladi. Voha turkmanlarining asosiy qatlami XVIII–XIX asrlarda O'rta Amudaryo bo'yidan ko'chib kelgan ersari qabilasi bilan bog'liqligi ko'rsatilib, ularning Qarshi cho'lining g'arbiy qismida – Mirishkor (Pomuq), Kasbi, Koson va Muborak tumanlarida joylashuvi tavsiflanadi.*

Kalit so'zlar: *Qashqadaryo vohasi, turkmanlar, ersari, etnik tarix, joylashuv, an'anaviy xo'jalik, qorako'lchilik, gilamdo'zlik, moddiy madaniyat, turar joy, kiyim, Pomuq.*

Аннотация. *В статье на основе историко-этнографических источников освещаются этническая история, территориальное размещение, традиционное хозяйство и материальная культура туркмен Кашкадарьинского оазиса. Показано, что основной пласт местных туркмен связан с племенем эрсари, переселившимся в XVIII–XIX вв. со Средней Амударьи, и описано их расселение в западной части Каршинской степи – в Миришкорском (Помук), Касбийском, Касанском и Мубарекском районах.*

Ключевые слова: *Кашкадарьинский оазис, туркмены, эрсари, этническая история, расселение, традиционное хозяйство, каракулеводство, ковроткачество, материальная культура, жилище, одежда, Помук.*

Abstract. *Drawing on historical and ethnographic sources, the article examines the ethnic history, territorial distribution, traditional economy and material culture of the Turkmens of the Kashkadarya oasis. It shows that the core of the local Turkmen population is linked with the Ersari tribe, which migrated from the Middle Amu Darya in the eighteenth and nineteenth centuries, and describes their settlement in the western Karshi steppe – the Mirishkor (Pomuq), Kasbi, Koson and Muborak districts.*

Key words: *Kashkadarya oasis, Turkmens, Ersari, ethnic history, settlement, traditional economy, karakul breeding, carpet weaving, material culture, dwelling, dress, Pomuq.*

O'zbekiston xalqlari etnografiyasida kichik etnik guruhlarning an'anaviy xo'jaligi va moddiy madaniyatini o'rganish ularning etnik tarixini tiklashning eng ishonchli yo'llaridan biridir, chunki yozma manbalar sukut saqlagan joyda turar joy shakli, gilam naqshi yoki mehnat quroli ko'p narsani aytib beradi. Qashqadaryo viloyati turkmanlari ana shunday guruhlardan bo'lib, 2026-yilgi aholini ro'yxatga olishning dastlabki natijalariga ko'ra respublikadagi 194,7 ming turkmanning [1] salmoqli qismi shu vohada, asosan Qarshi cho'lining g'arbiy tumanlarida yashaydi. Ular bir necha asr davomida o'zbek, arab va tojik aholisi bilan yonma-yon yashab, o'ziga xos xo'jalik-madaniy tipni saqlab qolgan.

Mazkur maqolaning maqsadi – Qashqadaryo turkmanlarining etnik tarixi va joylashuvini qisqacha tavsiflab, asosiy e'tiborni ularning XIX asr oxiri – XX asrdagi an'anaviy xo'jaligi va moddiy madaniyati (hunarmandchilik, turar joy, kiyim, taom)ga qaratish hamda qo'shni xalqlar bilan madaniy o'zaro ta'sir mexanizmlarini aniqlashdan iborat.

O'rta Osiyo turkmanlarining xo'jaligi va moddiy madaniyati bo'yicha asosiy ilmiy baza sovet davri etnograflari tomonidan yaratilgan. G.P. Vasilyeva turkman xalqining etnogenezi va turli qabilalar tarkibidagi komponentlarni tahlil qilgan [2], 1950-yillarda esa Chorjo'y va Buxoro

viloyatlari bo‘ylab etnografik marshrut o‘tkazib, Qorako‘l vohasiga ko‘chgan turkmanlarning o‘zbek madaniyati ta’siriga uchraganini qayd etgan [3]. Ya. R. Vinnikov Chorjo‘y viloyati aholisining urug‘-qabila tarkibi va joylashuvini yaxlit tekshirgan [4]. V.G. Moshkovaning 1929–1945-yillardagi ekspeditsiya materiallari asosida yaratilgan “O‘rta Osiyo xalqlari gilamlari” asari turkman, jumladan ersari gilamlarining texnikasi, naqsh tizimi va urug‘ belgilari (go‘l) bo‘yicha eng mukammal manba bo‘lib qolmoqda [5].

Janubiy O‘zbekiston uchun B.X. Karmishevaning ishlari alohida ahamiyatga ega. Olima O‘rta Amudaryo turkmanlarining bir qismi Qashqadaryo va Zarafshon quyi oqimlariga ko‘chib, qabiladoshlari bilan aloqani saqlagan holda milliy o‘zligini va madaniyatini saqlab qolganini ko‘rsatgan [6]; 1971–1986-yillardagi dala materiallari asosida esa ersari turkmanlarining xo‘jaligi, turar joyi, hunarmandchiligi va qo‘shnilar bilan ayirboshlashini batafsil tavsiflagan [7]. XIX asr oxiridagi rus harbiy-statistik kuzatuvlari – N.A. Mayev [8] va N. Fevralyov ma’lumotlari turkmanlarning kasb-hunari haqida qimmatli dalillar beradi. Biroq Qashqadaryo turkmanlarining moddiy madaniyati maxsus tadqiq etilmagan; mavjud ma’lumotlar tarqoq bo‘lib, ularni jamlash va tizimlashtirish mazkur maqolaning vazifasidir.

Tadqiqot tarixiylik va tizimlilik tamoyillariga tayanadi. Xo‘jalik-madaniy tiplar nazariyasi asosida turkmanlarning xo‘jaligi tabiiy-geografik muhit va etnik an’ana birligida qaraladi. Tarixiy-qiyosiy usul yordamida O‘rta Amudaryo, Surxon va Zarafshon turkmanlariga oid etnografik ma’lumotlar Qashqadaryo materiallari bilan solishtirildi; retrospektiv tahlil orqali XX asr o‘rtalaridagi kuzatuvlardan ilgarigi davr holati tiklandi. Manba bazasini etnografik monografiya va maqolalar, XIX asr oxiri sayyohlari va harbiy kuzatuvchilari qaydlari, 1926-yilgi rayonlashtirish materiallari, ensiklopedik nashrlar va zamonaviy statistik ma’lumotlar tashkil etadi.

Qashqadaryo turkmanlarining etnik tarixi uch qatlamdan iborat. Eng qadimgi qatlam Amudaryo yuqori oqimiga tutash hududlarning XII asrdan o‘g‘uz-turkmanlar tomonidan o‘zlashtirilishi bilan bog‘liq; Shayboniylar davrida Termizdan Qarshigacha bo‘lgan hudud qo‘ng‘irot yurtiga aylangach, bu turkmanlar qisman ketgan, qisman o‘zbeklashgan [7]. Asosiy qatlam – XVII asr oxiri – XVIII asrda Mang‘ishloqdan O‘rta Amudaryoga kelib o‘rnashgan ersari qabilasi vakillarining XVIII–XIX asrlarda Qashqadaryo quyi oqimiga ko‘chishi. B.X. Karmisheva buning sababi sifatida Amudaryoning har yili yuzlab gektar ekin yerini yuvib ketishi, yangi kanal qazishning qiyinligi va noqulay ijtimoiy sharoitni ko‘rsatadi [6]. Uchinchi qatlam XX asrning 60–80-yillarida Qarshi cho‘lini o‘zlashtirish davrida shakllangan.

Hududiy jihatdan voha turkmanlari Qarshi cho‘lining g‘arbiy, Turkmaniston bilan chegaradosh qismida to‘plangan. Eng yirik ixcham maskan – Mirishkor tumanidagi Pomuq shaharchasi bo‘lib, 2018-yilda bu yerda 16 mingdan ortiq, asosan turkman aholi yashagan; Pomuq shevasi turkman tilining o‘zbek tili bilan kuchli aralashuvi natijasida shakllangan [14]. Kasbi, Koson va Muborak tumanlarida turkmanlar o‘zbek va arablar bilan aralash, tarqoq joylashgan. Ersari qabilasining to‘rt yirik bo‘linmasi – qora, bekovul, gunesh va ulug‘depe – ko‘chish jarayonida ixcham guruhlar holida yangi qishloqlar barpo etgan, bu urug‘iy tuzilishning saqlanishini ta’minlagan [7].

Qashqadaryo turkmanlarining xo‘jaligi O‘rta Amudaryo turkmanlariga xos *kompleks tip*ga mansub bo‘lib, unda sug‘orma dehqonchilik yaylov va haydov-yaylov chorvachiligi bilan uyg‘unlashgan [6]. Dehqonchilikda asosiy ekin jo‘xori (*Andropogon cernus*) bo‘lgan; uni qo‘ng‘irot o‘zbeklari qovun evaziga, bug‘doy va arpa evaziga bajonidil ayirboshlagan [7]. Keyinchalik turkmanlar bog‘ va tokzorlar barpo etgan; ular yetishtirgan yirik oq mevali tut navlari va jiyda mevasi bozorlarda mashhur bo‘lgan. Turkmanlar to‘qayzorlarni tozalab, kanal qazib, yangi yerlarni o‘zlashtirishda katta tajribaga ega edi – bu ko‘nikma keyinchalik Qarshi cho‘lini o‘zlashtirishda ham qo‘l kelgan.

Chorvachilikda yetakchi tarmoq qorako‘lchilik edi. B.X. Karmishevaning ta’kidlashicha, Qashqadaryo quyi oqimi va Zarafshon vodiysida yashagan guruhlar qorako‘lchilikni sug‘orma dehqonchilik bilan qo‘shib olib borgan [6]. Qarshi cho‘lining shuvoq-sho‘ra o‘simlikli yaylovlari qorako‘l qo‘ylari uchun qulay bo‘lib, Mirishkor va Muborakning hozirgi kungacha past aholi zichligi (32–42 kishi/km²) aynan shu cho‘l-yaylov xo‘jaligi merosidir. Qo‘y bilan birga tuya va ot boqilgan; tuya karvon tashuvida, ot esa harbiy-ko‘chmanchi turmush an’anasi sifatida saqlangan. Daryo

bo‘yidagi kambag‘al turkmanlar uchun baliqchilik, qayiqlarda (kayuk) yollanib ishlash va aravakashlik yordamchi kasb bo‘lgan; N. Fevralyov 1890-yillar boshida to‘qay turkmanlari gilam, palos va yopinchiq to‘qishi, baliqchilik va aravakashlik bilan shug‘ullanishini yozgan.

1-jadval.

Qashqadaryo turkmanlari an’anaviy xo‘jaligining tarkibiy tuzilishi (XIX asr oxiri – XX asr o‘rtalari)

Tarmoq	Mazmuni	Manba
Sug‘orma dehqonchilik	jo‘xori, bug‘doy, arpa; bog‘dorchilik (tut, jiyda, uzum); kanal qazish, to‘qay tozalash	[7]; [6]
Chorvachilik	qorako‘l qo‘ylari (yaylov va haydov-yaylov), tuya, ot; echki	[6]
Yordamchi kasblar	baliqchilik va baliq tuzlash, qayiqda yollanma ish, aravakashlik, o‘tin tayyorlash	[7]
Uy hunarmandchiligi	gilam, palos, xurjun, namat; yog‘och idish va kuvi; meshkob; jun ip yigirish	[5]; [7]
Ayirboshlash	qo‘ng‘irotlardan qovun, qovoq, don; tojiklardan tegirmon toshi, dorivor o‘tlar; Poshxurd kulollaridan sopol	[7]

Izoh: jadval muallif tomonidan adabiyotlar asosida tuzilgan.

Turkman moddiy madaniyatining eng yorqin ko‘rinishi – gilamdo‘zlik. 2019-yilda turkman gilamdo‘zligi san’ati YUNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi reprezentativ ro‘yxatiga kiritilgan. V.G. Moshkovaning kuzatishicha, har bir turkman qabilasi va urug‘i o‘z *go‘l*iga (medalyonsimon naqsh) ega bo‘lgan; ersari gilamlari boshqa qabilalarnikidan farqli ravishda yirik, nisbatan erkin kompozitsiyali, qizil-jigarrang fonda o‘simliksimon va geometrik naqshlar uyg‘unligi bilan ajralib turadi [5]. Qashqadaryo turkmanlari orasida gilam (*xali*), palos, namozlik (*namozliq*), xurjun, o‘tov bezaklari (*ensi, qapiliq*) to‘qish ayollar ishi bo‘lib, qiz uzatishda sep tarkibining asosiy qismini tashkil etgan. Ip qorako‘l va hisori qo‘ylarining junidan oddiy urchuqda yigirilgan, bo‘yoqlar an’anaviy ravishda ro‘yan ildizi, anor po‘sti, yong‘oq po‘chog‘idan olingan. XX asr o‘rtalaridan anilin bo‘yoqlar va fabrika iplari tarqalgan.

Qashqadaryo turkmanlarining etnik yadrosi O‘rta Amudaryo ersarilaridan iborat bo‘lib, ular XVIII–XIX asrlarda Qashqadaryo quyi oqimiga ko‘chib, Qarshi cho‘lining g‘arbiy qismida – hozirgi Mirishkor, Kasbi, Koson va Muborak tumanlarida urug‘iy tamoyil asosida qishloqlar barpo etgan. Ularning xo‘jaligi sug‘orma dehqonchilik (jo‘xori, bog‘dorchilik) va qorako‘lchilikka asoslangan kompleks tipga mansub bo‘lib, gilamdo‘zlik, namatchilik va yog‘ochga ishlov berish rivojlangan; bu xo‘jalik tizimi voha o‘zbeklari va arablarining xo‘jaligini to‘ldirgan va ayirboshlash orqali barqaror qo‘shnichilik aloqalarini ta’minlagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Васильева Г.П. Этнографические данные о происхождении туркменского народа // Советская этнография. – 1964. – № 6.

2. Васильева Г.П. Этнографический маршрут в центральных районах Чарджоуской области Туркменской ССР и в Бухарской области Узбекской ССР // Краткие сообщения Ин-та этнографии АН СССР. – 1957. – Вып. XXVI. – С. 130–131.

3. Винников Я.Р. Родоплеменной и этнический состав населения Чарджоуской области Туркменской ССР и его расселение // Труды Ин-та истории, археологии и этнографии АН ТССР. Т. VI. – Ашхабад, 1962. – С. 5–110.

4. Мошкова В.Г. Ковры народов Средней Азии конца XIX – начала XX в. Материалы экспедиций 1929–1945 гг. – Ташкент: Фан, 1970.

5. Кармышева Б.Х. «Кочевая степь» Мавераннахра и ее население в конце XIX – начале XX вв. (по этнографическим данным) // Советская этнография. – 1980. – № 1. – С. 46–55.

6. Кармышева Б.Х. Краткие этнографические сведения о населении правобережной полосы Амударьи от Термеза до Келифа (начало XX в.) // Этнографическое обозрение. – 2001. – № 4. – С. 114–117.

7. Маев Н.А. Очерки Гиссарского края // Материалы для статистики Туркестанского края. Вып. V. – СПб., 1879.

8. Февралев Н. Правобережная полоса Пянджа и Аму-Дарьи от Калы-Ванч до Керки // Военный сборник. – 1895. – № 10.

UO‘K 94(575.1:540)"16":327:930.2

XO‘JA ABDURAHIM JO‘YBORIY ELCHILIGI (1626–1627): BUXORO VA BOBURIYLAR MANBALARINING QIYOSIY TAHLILI

Karimov A. A., tayanch doktorant, Namangan davlat pedagogika instituti, Namangan

Annotatsiya. *Maqolada Ashtarxoniy Imomqulixon tomonidan Boburiy Jahongir saroyiga yuborilgan Xo‘ja Abdurahim Jo‘yboriy elchiligi (1626–1627) Buxoro xonligi tarixnavisligi (‘‘Matlab ut-tolibin’’), Boburiylar saroy solnomalari (‘‘Maosiri Jahongiriy’’, ‘‘Shohjahonnoma’’, ‘‘Muntaxab ul-lubob’’, ‘‘Maosir ul-umaro’’) va zamonaviy tarixshunoslik ma’lumotlari asosida qiyosiy tahlil qilinadi. Elchilikning maqsadi, yo‘nalishi, qabul marosimi va natijalari bo‘yicha manbalardagi farqlar aniqlanib, ularning sabablari ko‘rsatiladi.*

Kalit so‘zlar: *Buxoro xonligi, Boburiylar, Imomqulixon, Jahongir, Jo‘ybor shayxlari, elchilik, diplomatik protokol, Qandahor, ‘‘Matlab ut-tolibin’’, manbashunoslik.*

Аннотация. *В статье проводится сравнительный анализ посольства Ходжи Абдурахима Джуйбари, направленного аштарханидским правителем Имамкулиханом ко двору могольского императора Джахангира в 1626–1627 годах, на основе источников историографии Бухарского ханства (‘‘Матлаб ут-талибин’’), придворных хроник Бабуридов (‘‘Маасир-и Джахангири’’, ‘‘Шахджаханнаме’’, ‘‘Мунтахаб уль-лубаб’’, ‘‘Маасир уль-умара’’) и данных современной историографии. Выявляются расхождения в источниках относительно целей посольства, маршрута его следования, церемонии приёма и результатов дипломатической миссии, а также анализируются причины этих расхождений.*

Ключевые слова: *Бухарское ханство, Великие Моголы, Имамкулихан, Джахангир, джуйбарские шейхи, посольство, дипломатический протокол, источниковедение.*

Abstract. *This article presents a comparative analysis of the diplomatic mission of Khoja Abdurahim Juybari, dispatched by the Ashtarkhanid ruler Imam Quli Khan to the court of the Baburid emperor Jahangir in 1626–1627. The study draws upon the historiographical sources of the Bukhara Khanate (Matlab ut-Talibin), the court chronicles of the Baburid dynasty (Maasir-i Jahangiri, Shah Jahan Nama, Muntakhab ul-Lubab, and Maasir ul-Umara), as well as modern historiographical scholarship. The article identifies and comparatively examines discrepancies among these sources concerning the objectives of the embassy, its itinerary, the diplomatic reception ceremony, and the outcomes of the mission. Furthermore, it explores the underlying reasons for these differences in historical accounts.*

Keywords: *Bukhara Khanate, Mughals, Imam Quli Khan, Jahangir, Juybari shaykhs, embassy, diplomatic protocol, source criticism.*

Kirish. XVII asrning birinchi yarmida Buxoro xonligi va Hindistondagi Boburiylar davlati o‘rtasidagi munosabatlar Abdullaxon II va Akbarshoh davrida yaratilgan an’analarga tayangan holda davom etdi. Ashtarxoniy Imomqulixon (1611–1642) davrida bu munosabatlarning muhim xususiyati Jo‘ybor shayxlari xonadoni vakillarining diplomatik vositachilikka jalb etilishi bo‘ldi. A. Burton qayd etishicha, 1620-yil avgustida Hindistondagi naqshbandiy shayxlar bilan aloqada bo‘lgan Jo‘ybor xo‘jalari imperatorga alohida elchi yuborgan[1, P. 151]. N. Kenjeaxmet esa XVI–XVII asrlarda Buxoro xonligining siyosiy va iqtisodiy hayotida Jo‘ybor shayxlari hal qiluvchi rol o‘ynaganini ta’kidlaydi[2, P. 74]. Shu fonda Xo‘ja Abdurahim Jo‘yboriyning 1626–1627-yillardagi elchiligi Buxoro–Hindiston diplomatiyasida diniy nufuz va davlat manfaatlari qanday uyg‘unlashganini ko‘rsatuvchi eng yorqin misoldir.

Mazkur elchilik bir vaqtning o‘zida Buxoro tarixshunosligida va Boburiylar saroy tarixnavisligida batafsil aks etgani bilan alohida qiziqish uyg‘otadi. Bu holat ikki tomon manbalarini bir voqea misolida solishtirish va har bir manbaning yozilish maqsadi uning bayoniga qanday ta’sir qilganini aniqlash imkonini beradi. Maqolaning maqsadi — elchilikning maqsadi, borishi va natijalari haqidagi ma’lumotlarni qiyosiy tahlil qilish hamda tarixshunoslikdagi talqinlarni tanqidiy baholashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Elchilik tarixshunoslikda bir necha bor tilga olingan. Abdurahim Imomqulixon Mir Barakani bir necha yil ushlab turgach, katta izzat bilan jo‘natgani va Xo‘ja Abdurahim hamda Xo‘ja Hasanni Hindistonga elchi qilib yuborganini yozadi; uning ma’lumotiga ko‘ra, Abdurahim bosh elchi, ukasi esa yordamchi bo‘lgan[3, P. 86–89]. ‘‘Akbardan Avrangzebgacha Mo‘g‘ul diplomatiyasi’’ mavzusidagi dissertatsiyada Jahongir elchilarni katta dabdaba bilan kutib olgani, bunda Eron elchisiga ta’sir ko‘rsatish maqsadi ham bo‘lishi mumkinligi taxmin qilinadi. A. Burton Imomqulixon maktubida Abdullaxon va Akbar o‘rtasidagi shartnoma eslatilib, Eron va Xurosonni bo‘lib olish taklif qilinganini ko‘rsatadi[1, P. 170]. R. Folts esa Jahongir va Imomqulixon o‘rtasidagi munosabatlarda shaxsiy omil — Jahongirning elchiga ‘‘yengiltaklik bilan’’ berilgan savoli — muhim rol o‘ynaganini ta’kidlaydi[4, P. 33].

O‘zbek tarixshunosligida I.G‘. Nizomiddinov Xo‘ja Abdurahim bilan uchrashganda Jahongir uni quchoqlab, ikki yuzidan o‘pganini va elchi taxtga yaqin o‘tqazilganini ‘‘Matlab ut-tolibin’’ asosida bayon qilgan[5, C. 85]. T. Halimov esa B.P. Saksena Abdurahimni Xurosonni bo‘lish taklifini olib borgan rasmiy elchi deb hisoblaganini, ilovadagi hujjatga ko‘ra unga ‘‘Hindiston voqeanavisi’’ vazifasi ham yuklatilgan bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatgan. Ammo mavjud tadqiqotlarda manbalar o‘rtasidagi farqlar tizimli solishtirilmagan va ularning sabablari maxsus tahlil qilinmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tarixiylik va xolislik tamoyillariga tayanildi. Asosiy usul — qiyosiy-tarixiy tahlil bo‘lib, bir voqea haqidagi Buxoro va Mug‘ul manbalari ma’lumotlari ketma-ket solishtirildi. Shuningdek, manbashunoslik tahlili (muallif, yozilish sanasi va maqsadini aniqlash) qo‘llanildi. Masalan, ‘‘Matlab ut-tolibin’’ning yozilish sanasi bo‘yicha V. Vyatkin, qo‘lyozma kolofoni va P. Ivanov turli sanalarni ko‘rsatgani hisobga olindi[6, Б. 7–8]. Fors tilidagi manbalarning o‘zbekcha bayoni tarjima loyihasi xarakteriga ega ekani, qo‘lyozma iqtiboslari esa raqamli tasvir raqami bo‘yicha berilgani alohida qayd etildi.

Tahlil va natijalar. Elchilikdan oldin ikki saroy o‘rtasida munosabatlar notekis kechgan. Abdurahim ma’lumotiga ko‘ra, Jahongir bir safar elchidan Imomqulixonning shaxsiy hayoti haqida so‘rab, uni g‘azablantirgan; bu voqeadan keyin Mir Sayyid Baraka Turonga javob elchiligi bilan yuborilgan[7, P. 134–135]. ‘‘Tarixi Muqimxoniy’’da ham elchining ‘‘bizning xonimiz bu dunyoga bog‘liqlikdan xoli’’ degan javobi va Jahongirning kinoyali so‘zlari saqlangan[8, C. 88]. ‘‘Maosiri Jahongiriy’’ga ko‘ra, Imomqulixon Mir Barakani bir necha yil Movarounnahrda ushlab turgan, Shohjahonning otasiga qarshi chiqqani haqidagi xabar tarqalgach esa Xo‘ja Abdurahimni sovg‘alar bilan yuborgan[9, P. 467–468]. Shu orada saroy ayollari orqali ham aloqa o‘rnatilgan: Imomqulixon onasi Nurjahon begimga maktub va tuhfalar yuborgan[9, P. 329]. A. Burton 1622-yilda Jahongir Mir Barakani yana Imomqulixon huzuriga, Abdurahim Xo‘ja uchun tuhfalar bilan yuborganini va imperator xonning ‘‘farzandlik sadoqati’’ni Xo‘ja Nosirning ta’siriga bog‘laganini qayd etadi[1, P. 163].

Buxoro manbasi esa elchilikning shaxsiy va oilaviy sabablarini ham ochadi. Muhammad Tolibga ko‘ra, Imomqulixon Abdurahimxo‘janing Hindiston yo‘li bilan hajga ketmoqchi ekanidan xabar topib, avval uni yo‘ldan qaytarish uchun odam yuborgan[6, Б. 225]. Xo‘ja akasi oldida o‘zini ‘‘lochin qarshisidagi chumchuq’’ deb his qilishini aytgan[6, Б. 264]. T. Halimov bu ma’lumotlarni Abdurahim merosda kam ulush olgani va Imomqulixon davrida e’tibori pasaygani bilan bog‘laydi[10, B. 73–74]. Demak, Buxoro tarixshunosligida elchilik ham davlat topshirig‘i, ham shaxsiy ziyorat safari sifatida tasvirlanadi.

Elchilik maqsadi masalasida manbalar ikki guruhga bo‘linadi. Birinchi guruhga ‘‘Matlab ut-tolibin’’ va F. Gladvin kompilyatsiyasi kiradi. Muhammad Tolibga ko‘ra, Shoh Xurramning otasiga qarshi isyoni haqida xabar kelgach, Abdurahimxo‘ja Imomqulixonga ota-o‘g‘ilni yarashtirish uchun elchi yuborishni taklif qilgan, xon esa ‘‘bunday xizmatlar sizga ajdodlaringizdan meros’’ degan[6, Б. 316]. Gladvin ham Imomqulixon Shohjahonning isyoni haqida eshitib, vositachilik qilish uchun Abdurahimni yuborganini yozadi[11, P. 150].

Ikkinchi guruh manbalari geosiyosiy maqsadni birinchi o‘ringa qo‘yadi. ‘‘Maosiri Jahongiriy’’da keltirilgan Imomqulixon maktubida Abdullaxon va Akbar o‘rtasidagi ‘‘qarindoshlik’’ natijasida Haramayn yo‘li ochilgani, Xuroson va Iroqi Ajamning ko‘p qismi fath etilgani eslatiladi[9, P. 472–473]. Maktubda Mir Baraka orqali yetkazilgan ‘‘og‘zaki maqsadlar va yashirin mazmunlar’’

Hasan Xo‘ja va Abdurahim Xo‘ja vositasida bildirilgani aytiladi[9, P. 471]. ‘‘Shohjahonnoma’’ qo‘lyozmasida Imomqulixon Qandahorning qizilboshlar qo‘liga o‘tganini eshitib, Abdurahim Xo‘jani yuborgani va taklifini uning og‘zaki bayoniga topshirgani qayd etilgan. Shohnavozxonga ko‘ra, maktubda Shoh Abbos ‘‘qadimiy aloqalarni e’tiborga olmay’’ Qandahorni Boburiylar qo‘lidan olgani ta’kidlangan[12, B. 588]. Xofixon esa ikkala maqsadni birlashtiradi: noma Eron bilan urushda yordam berishga tayyorlik va shahanshoh bilan valiahd o‘rtasidagi nizoni isloh etish taklifini o‘z ichiga olgan[13, B. 387].

Bizningcha, bu zidlik manbalarning janriy xususiyati bilan izohlanadi. Tarixiy asar shayxning ma’naviy nufuzini, ya’ni ikki hukmdor o‘rtasida vositachi bo‘la olish qobiliyatini ta’kidlashga intilgan. Saroy solnomalari esa davlatlararo munosabatlarni Eron bilan raqobat nuqtai nazaridan yozgan. Xofixonning umumlashtiruvchi bayoni ikki maqsad birga mavjud bo‘lganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, harbiy taklif maktubda emas, balki og‘zaki tarzda yetkazilgani[14, 237-tasvir; 9, P. 471] uning maxfiy xarakterga ega bo‘lganini ko‘rsatadi.

‘‘Matlab ut-tolibin’’ elchilikning moddiy tayyorgarligi haqida noyob ma’lumot beradi: Jahongir karvon o‘tishi uchun tog‘ dovonini kengaytirishga toshtaroshlar yuborgan, xo‘ja esa uch yuz ming xoniy qarz olgan, Imomqulixon yuz ming tanga va to‘qqiz ot bergan[6, Б. 316–317]. Yo‘l Buxoro — Balx — Xujjon orqali o‘tgan; Balxda Nazr Muhammadxon boj olmagan, Xujjonda esa Balx bojgiri boj olgan[6, Б. 317–318]. Bu tafsilot Balx hokimining Buxoro xonidan nisbiy mustaqilligini bilvosita ko‘rsatadi. Abdurahim ma’lumotiga ko‘ra, elchilarni Kobulda Tozxon kutib olib, dabdabali ziyofat bergan. Chinob daryosidan o‘tgach, Nurjahon begim, Osafxon va xo‘ja Abulhasandan maktublar kelgan; Jahongir esa ‘‘xo‘ja Movarounnahr podshohlari bilan qanday ko‘rishgan bo‘lsa, biz bilan ham shunday ko‘rishsin’’ degan[6, Б. 318–319]. Gladvin Lohurga yetmasdan Musoviyxon xo‘jaga imperatorning o‘zi kiygan libos va javohirli xanjarni olib kelganini yozadi[11, P. 150].

Lohurda ikki saroy odobi to‘qnashgan: xo‘ja podshohni ko‘rmasdan oldin boshqaning uyiga tushish ‘‘bizning rasmimizda yo‘q’’ deb rad etgan, Osafxon esa ‘‘bizning viloyat dasturi’’ga rioya qilishni talab qilgan[6, Б. 319]. G‘uslxonadagi qabulda Jahongir taxtdan turib xo‘jani quchoqlagan va ‘‘Imomqulixon bizning farzandimizdir… Siz ham sunniy, biz ham sunniy’’ degan; shahzoda Shahriyor va amirlar tik turganda faqat xo‘jaga o‘tirishga ruxsat berilgan[6, Б. 320]. Gladvin ham elchi ko‘rinish va taslim marosimlaridan ozod qilinib, taxt yonida o‘tqazilganini tasdiqlaydi[11, P. 150]. Mo‘g‘ul saroyining odatiy protokoli bilan solishtirilganda bu istisno holat edi. Masalan, keyinchalik Avrangzeb saroyida Buxoro elchilari uzoqdan ‘‘hindcha salom’’ bergan va maktublarni amir vositasida topshirgan[15, P. 117]. Demak, Abdurahimga ko‘rsatilgan imtiyozlar uning elchi sifatidagi emas, balki naqshbandiy shayx sifatidagi maqomi bilan belgilangan.

In’omlar ham bu maqomni aks ettiradi. ‘‘Maosiri Jahongiriy’’ga ko‘ra, xo‘jaga ellik ming rupiya in’om qilingan, ertasiga esa xos oshxonadan oltin va kumush idishlarda taom yuborilib, idishlar ham unga in’om etilgan[9, P. 469]. A. Burton Abdurahim Jahongir va Nurjahonga qiymati yuz ming rupiya deb aytilgan kosa va likopcha, besh yuz nor tuya va ming ot taqdim etganini yozadi[1, P. 171]. Muhammad Tolibga ko‘ra, Jahongir ‘‘qanday so‘zingiz bo‘lsa, o‘zimga ayting, oramizda vositachi darkor emas’’ deb, xo‘janing iltimosi bilan bir amirni jazodan ozod qilgan[6, Б. 321]. Bu epizod elchining saroydagi ta’sirini ko‘rsatadi.

Xoja Kashmir safariga taklif qilingan, Navro‘z Chinob bo‘yida nishonlangan[6, Б. 322]. Jahongir vafotidan keyin taxtga o‘tirgan Shohjahon ham xojaga ehsonlar qilgan; Abdurahimxo‘ja 1038-yilda 54 yoshida Hindistonda vafot etgan[6, Б. 322–323]. Xofixon Abdurahim Shohjahonning julus bazmida qabul qilinib, ellik ming rupiya olganini qayd etadi[13, B. 400]. ‘‘Maosiri Jahongiriy’’ muharriri esa uning Shohjahon davrida ham saroyda nufuzli vositachi bo‘lib qolganini ta’kidlaydi. Muhammad Tolibga ko‘ra, Shohjahonning elchisi Hakim Hoziq xojaning jasadini olib kelgan va Tojiddin Hasanxojaga podshohdan ellik ming tanga keltirgan[6, Б. 214]. Shunday qilib, Abdurahim elchiligi Boburiylar saroyida ikki imperator almashinuvi davrini qamrab olgan va keyingi Hakim Hoziq elchiligiga bevosita ulangan.

Xulosa

Tahlil quyidagi xulosalarga olib keladi. Birinchidan, Xo'ja Abdurahim elchiligi haqidagi ma'lumotlar Buxoro va Mo'g'ul manbalarida bir-birini to'ldiradi: Buxoro tarixnavisligi elchilikning shaxsiy sabablari, yo'nalishi va protokol tafsilotlarini, saroy solnomalari esa uning geosiyosiy mazmunini saqlagan. Ikkinchidan, elchilik maqsadi bo'yicha manbalar zidligi ularning janriy vazifasidan kelib chiqadi; Xofixon bayoni vositachilik va Eronga qarshi ittifoq taklifi birga mavjud bo'lganini ko'rsatadi[13, B. 387]. Uchinchidan, elchiga ko'rsatilgan istisno imtiyozlar uning naqshbandiy shayx sifatidagi maqomi bilan bog'liq bo'lib, Jo'ybor xo'jalari Ashtarxoniylar diplomatiyasining samarali vositasi bo'lganini tasdiqlaydi[6, Б. 320; 11, P. 150]. To'rtinchidan, elchilik sanalari va tafsilotlarini aniqlash uchun ''Matlab ut-tolibin''ning tanqidiy matnini Mo'g'ul manbalarining asl fors nashrlari bilan solishtirish keyingi tadqiqotlarning muhim vazifasidir[6, Б. 7–8].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Burton A. The Bukharans: A Dynastic, Diplomatic and Commercial History 1550–1702. – Richmond, Surrey: Curzon Press, 1997. – 664 p.

2. Kenzheakhmet N. The Tūqmāq (Golden Horde), the Qazaq Khanate, the Shībānid Dynasty, Rūm (Ottoman Empire), and Moghūlistan in the XIV–XVI Centuries: from Original Sources. – Almaty: Eurasian Research Institute, 2019. – 138 p.

3. Abdur Rahim. Mughal Relations with Persia and Central Asia (Babur to Aurangzeb). – Aligarh: Department of History, Muslim University, [s.a.]. – 108 p. [Reprinted from: Islamic Culture. Vol. VIII–IX (1934–1935)].

4. Foltz R.C. Mughal India and Central Asia. – Karachi: Oxford University Press, 1998. – 190 p.

5. Низамутдинов И.Г. Из истории среднеазиатско-индийских отношений (IX–XVIII вв.). – Ташкент: Узбекистан, 1969. – 146 с.

6. Муҳаммад Толиб. Матлаб ут-толибин / Таржимонлар: Ғ. Каримий, Э. Миркомилов. – Тошкент: Movarounnahr, 2016. – 384 б.

7. Rahim A. Mughal Diplomacy from Akbar to Aurangzeb: An Account of the Foreign Relations of the Mughal Empire: PhD thesis. – London: School of Oriental and African Studies, University of London, 1932. – 108 p.

8. Мухаммед Юсуф Мунши. Муким-ханская история / Пер. с тадж., предисл., примеч. А.А. Семенова. – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1956. – 303 с.

9. Khwaja Kamgar Husaini. Ma'asir-i-Jahangiri: A Contemporary Account of Jahangir / Ed. by Azra Alavi. – Bombay: Asia Publishing House, 1978. – ix, 65, 601 p.

10. Halimov T.T. XVI–XVIII asrlarda Hindiston va O'rta Osiyo xonliklari: magistrlik dissertatsiyasi. – Buxoro: BuxDU, 2014. – 110 b.

11. Gladwin F. History of Jahangir / Ed. with notes by K.V. Rangaswami Aiyangar. – Madras: B.G. Paul & Co., 1930. – 184 p.

12. Shah Nawaz Khan. Maasir-ul-Umara. Vol. I / Ed. by Maulavi Abd-ur-Rahim. – Calcutta: Asiatic Society of Bengal, 1888. – 835 p.

13. Muhammad Hoshim Xofixon. Muntaxab al-lubob. Qism 1 / Nashrga tayyorlovchi Kabiruddin Ahmad. – Calcutta: Asiatic Society of Bengal, 1869. – 783 b.

14. Shohjahonnoma [Aminoi Qazviniyga nisbat berilgan]. Fors tilidagi qo'lyozma. – Washington: Library of Congress, Lessing J. Rosenwald Collection, rosen1791. – 519 varaq.

15. Bernier F. Travels in the Mogul Empire, A.D. 1656–1668 / Transl. by A. Constable; 2nd ed. revised by V.A. Smith. – London: Oxford University Press, 1916. – 497 p.

UO'K 903.01(575.1)

ZIRABULOQ TOG' TIZMASI YONBAG'IRLARIDAGI NEOLIT DAVRIGA OID YANGI TOPILMA JOYLARI XUSUSIDA

R.U.Karimov, tayanch doktorant, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Zirabuloq tog' tizmasining janubiy, janubiy g'arbiy yon bag'irlarida tosh asri yodgorliklarini topish maqsadida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti arxeologiya guruhi tomonidan amalga oshirilgan arxeologiya qidiruv ishlarining natijalarini yoritish nazarda tutilgan. Arxeologiya qidiruv ishlarimizga o'tgan asr 50-yillar oxiri – 60 yillarda geolog G. Polishchuk tomonidan Timsoy yon terrasalaridan qiziqarli tosh buyumlar to'plami yig'ib olgani ma'lumotlari turtki berdi. Arxeologik qidiruv ishlari asosan Zirabuloq tog' tizmasi janubiy qismidagi Piyozlitog'dan o'z suvini oluvchi Timsoy yon terrasalari sathida hamda*

ushbu tog‘ orqa yon qismidagi qadimgi buloqlar yon terrasalari bo‘ylab amalga oshirildi. Hammasi bo‘lib 8 ta topilma joylari topilib, ulardan tosh davri jamoalari madaniyat izlari aniqlanishiga erishildi.

Kalit so‘zlar: *Arxeologiya qidiruv, tosh davri, Zirabuloq tog‘ тизмаси, Timsoy, Arab ota yodgorligi, Qo‘tirbuloq (Chillabuloq), G‘irillaq buloq, Piyozlitog‘, Ostona bobo qabristoni, Jonabuloq, Momoy qishloq, Qo‘chqorli buloq, G‘ildirovuqsoy.*

Аннотация. *В данной статье представлены результаты археологических разведочных исследований, проведённых археологической группой Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова на южных и юго-западных склонах Зирабулакского горного хребта с целью выявления и изучения памятников каменного века. Основанием для проведения археологических разведок послужили сведения о коллекции каменных артефактов, представляющих значительный научный интерес, собранной геологом Г. Полищуком в конце 1950-х — в 1960-е годы на боковых террасах сая Тимсай. Археологические разведочные работы были сосредоточены преимущественно на террасовых поверхностях вдоль сая Тимсай, берущего начало в районе горы Пиёзлитог, расположенной в южной части Зирабулакского горного хребта, а также на террасах вблизи древних родников, находящихся на противоположном склоне указанного горного массива. В результате проведённых исследований было выявлено восемь местонахождений археологических материалов, на которых обнаружены следы материальной культуры древних сообществ эпохи каменного века.*

Ключевые слова: *Археологическая разведка, каменный век, Зирабулакские горы, Тимсай, памятник Араб-ота, Кутирбулак (Чиллабулак), родник Гириллак, Пиёзлитог, кладбище Остона-бобо, Джонабулак, кишлак Момой, родник Кучкарли, Гилдировуксай.*

Abstract. *This article presents the results of archaeological surveys conducted by the archaeological research team of Samarkand State University named after Sharof Rashidov on the southern and southwestern slopes of the Zirabulak Mountain Range, with the aim of identifying Stone Age archaeological sites. The archaeological investigations were prompted by reports of a scientifically significant collection of stone artifacts recovered by geologist G. Polishchuk in the late 1950s and throughout the 1960s from the lateral terraces of the Timsoy stream. The archaeological surveys were primarily carried out on the terrace surfaces along the Timsoy stream, which originates in the Piyozlitog Mountain area in the southern part of the Zirabulak Mountain Range, as well as on terraces adjacent to ancient springs located on the opposite slopes of this mountain massif. As a result of the investigations, eight archaeological findspots were identified, yielding evidence of the material culture of prehistoric Stone Age communities.*

Key words: *archaeological survey, Stone Age, Zirabulak Mountains, Timsay, Arab-Ota Mausoleum, Kutirbulak (Chillabulak), Girillak Spring, Piyozlitog, Ostona-Bobo Cemetery, Jonabulak, Momoy village, Kuchkarli Spring, Gildirovuksay.*

Kirish, mavzuning dolzarbligi va hozirgi xolati. Bugungi kunda jahon tarixshunosligida tosh asrining so‘nggi bosqichi bo‘lgan neolit davri ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotda tub o‘zgarishlar sodir bo‘lgan tarixiy davr sifatida e’tirof etiladi. Chunki, bu davrda kishilik tarixining urug‘ jamoalari o‘zlashtiruvchi xo‘jalikdan ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka o‘tishgan. Bu inqilobiy tub o‘zgarish qator xo‘jalik va madaniy kashfiyotlarga olib keldi. Diniy-ma’naviy hayotda totemistik, animistik, sehru-jodu qarashlardan obyektiv hayotni tahlil etish, ya’ni inson hayotining davomiyligini ta’minlovchi tabiat unsurlari – quyoshga, ona zamin – yerga va obihayot – suvga topinish boshlandi va nihoyat, kishilik jamiyati rivojlanishida sivilizatsiyalar tarixini boshlanishiga asos solindi, bu tarixiy davrda qadimgi sivilizatsiyalarning tarixiy ildizlari shakllanib, tomir otgan.

Zirabuloq tog‘lari Samarqand viloyatidagi tog‘ hisoblanib, geologik jihatdan Zarafshon tog‘ tizmasining shimoli-g‘arbiy qismining davomi hisoblanadi. Sharqda Jom cho‘li, g‘arbda Ziyovuddin tog‘lari bilan chegaralangan. Janubda Qarnob cho‘li tekisligidan tik pog‘ona bilan ajratilgan, shimolda Zarafshon daryosi vodiysiga tutashgan. Eng baland joyi 1120 m. Shimoliy qismining balandligi 930-1100 m, markaziy qismi 830-890 m. Janubiy qismida Ayribel, Qo‘shdara, Jalqir,

Alyomiy (1054 m), Piyoztog‘, Mahmudtog‘ (962 m), shimolda Beshtog‘ va boshqa tog‘ tizmalari mavjud. Ularning janubiy va janubi-g‘arbiy yon bag‘irlari tik ko‘tarilgan qoyali, tub jinslari yalang‘och, turli nurash shakllari bilan murakkablashgan, chuqur va tor daralar hamda soylar bilan kuchli parchalangan.

Zirabuloq tog‘ tizmasi janubi-g‘arbiy yon bag‘irlarida tosh asrining mezolit-neolit davriga kelib odamzod yashashi uchun qulay ekologik va iqlimiy sharoit yuzaga kelganligi bu joylarni ibtidoiy jamoalar tomonidan yanada jadalroq o‘zlashtirilishiga imkoniyat bergan. Buni mazkur hududda keyingi yillar mobaynida amalga oshirilgan tadqiqotlar jarayonida tosh asri va keyingi tarixiy davrlar jamoalari madaniyatiga oid topilma joylari, yodgorliklar aniqlanganligi asoslab turibdi.

Zirabuloq tog‘larining janubi-g‘arbiy qismi mezolit-neolit davri yodgorliklari arxeolog va geolog olimlarimiz tomonidan o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab o‘rganila boshlangan. Ular orasida geolog G. Polishchuk tomonidan Timsoyning Kudakcha-Soy irmog‘i boshlanishi joyida, Tim qishlog‘i o‘rta maktabi yonlaridan va unga yaqin masofadagi bolalar oromgohi hududida, Qo‘chqorli bulog‘i yon atroflari terrasalari yer sathidan qiziqarli tosh buyumlari to‘plami yig‘ib olingan. Tosh buyumlar to‘plamida qiziqarli mikrolit qurollari, tosh o‘zaklari, qirg‘ich qurollar to‘plami bo‘lgan va bu to‘plam o‘z vaqtida G. Polishchuk tomonidan Samarqand davlat universiteti arxeologiya kabineti fondiga topshirilgan. Mazkur tosh buyumlar to‘plami o‘z vaqtida arxeolog M.Djuraqulov tomonidan ilmiy jihatdan o‘rganilgan, tosh qurollari tipologik jihatdan tahlil etilgan. Ilmiy tahlil natijasi esa bu tosh qurollar tosh asri neolit davri jamoalari moddiy madaniyatiga tegishli ekanligini ko‘rsatgan [1].

Zirabuloq, Ziyovuddin tog‘ tizmasining shimoliy yon bag‘irlarida o‘tgan asr 60-70-yillari mobaynida kishilik tarixi tosh asriga oid Qo‘tirbuloq, Zirabuloq yodgorliklarida qazishma ishlari amalga oshirilgan. Xususan, Qo‘tirbuloq makoni 1971-yili Yu. F. Buryakov tomonidan aniqlangan. Yodgorlikda 1971-1972 yillarida N.X. Toshkenboev tomonidan qazilma ishlari olib borilib, katta hajmdagi materiallar qo‘lga kiritilgan. Tosh buyumlar tipologik tahliliga ko‘ra yodgorlik o‘rta paleolit davri jamoalariga tegishli deb topilgan [2]. Keyinchalik, Qo‘tirbuloq yodgorligida 1995-yili O‘zbekiston-Polsha xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi, (T. Grechkina, K. Shiymchak, M. Xujanazarov), 1998-2002-yillari Qo‘tirbuloq yodgorligida O‘zbekiston-Rossiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi (O‘.Islomov va A.P.Derevyanko) xodimlari tomonidan yodgorlikning stratigrafik ma’lumotlarini oydinlashtirish va xronologiyasi masalasini ishlab chiqish maqsadida qazilma ishlari olib borilgan.

Zirabuloq makoni Zirabuloq tog‘ tizmalarining shimoliy yonbag‘rida Qo‘tirbuloq makonidan bir kilometrlar chamasi sharqroqda chashma yoni terrasasida joylashgan. Yodgorlikda qazilma ishlari 1971-1972 N.Toshkenbayev, va 1977-1978 yillari M.Djurakulovlar rahbarligida amalga oshirilgan. Yodgorlikning stratigrafik ma’lumotlari, topilgan tosh buyumlar tipologiyasi Qo‘tirbuloq makoni materiallari ma’lumotlariga o‘xshash [2].

Asosiy qism. Yuqorida keltirilgan faktik materiallar Zirabuloq tog‘ tizmasi yon bag‘irlari o‘rta paleolit davridan odamzod tomonidan o‘zlashtirilganligi va keyingi taraqqiyot tarixiy bosqichlarida (mezolit, neolit davrlari) ham uzluksiz yashashib, o‘ziga xos moddiy madaniyat yaratishganligi ma’lumotini beradi.

Shu bois, biz neolit davri jamoalari moddiy madaniyatini tizimli o‘rganish uchun shu hududlarda qidiruv ishlarini amalga oshirishni rejalashtirdik. Arxeologik guruhimiz dastavval arxeologik qidiruv ishlarini Zirabuloq tog‘larining janubi-g‘arbiy qismida joylashgan va ushbu tog‘ning davomi hisoblangan kichik tog‘lar yon bag‘rida olib borishga qaror qildik. Mahalliy aholi tomonidan Tiriktog‘, To‘rttog‘ nomlari bilan tilga olinadigan tog‘lar atroflarida tekshiruv ishlari olib borildi. Xususan, Suvqaytdi degan qishloq mahalliy aholi va cho‘ponlarning ma’lumoti bo‘yicha Ajdarhotepa, Qoplontepa nomlari bilan ataluvchi tepaliklar yonlari va Yangitazar, Esantazar, Qizilkesak nomli buloqlar yon terrasalarini tekshiruvdan o‘tkazdik. Lekin, bu kuzatuvlar kutilgan natijani bermadi, ya’ni sanoqli keyingi tarixiy davrga oid sopol idishlar parchalarini (4 dona) hisobga olmaganda, tosh davri jamoalariga tegishli madaniyat izlari topilmadi. Bu hududlardan o‘tib, Qarnab qishlog‘i tomon yo‘l oldik. Yo‘l-yo‘lakay duch kelgan cho‘ponlar ko‘rinib turgan tog‘ tizmasi To‘rttog‘ deb atalishi va ulardan birining janubiy yon bag‘rida g‘or borligi haqida ma’lumot berishdi.

Haqiqatdan ham g‘or bor ekan. Lekin, u sun’iy qazilgan g‘or bo‘lib, kirish qismi tor (1,5x1,5 metr) va kirish qismida g‘or oldi supasi ham yo‘q. G‘or ichki qismi ham ko‘zdan kechirilganda, uning tag qismida tuproq qatlami mavjud emasligi ma’lum bo‘ldi.

Guruhimizning (N.Xolmatov, O.Ergashev, R.Karimov, D.O‘razov, Ilhomjon Botirov) navbatdagi arxeologiya qidiruv ishlarining yo‘nalishi Zirabuloq tog‘ tizmasining janubiy, janubi-g‘arbiy yon bag‘irlari, aniqrog‘i o‘z vaqtida geolog G. Polishchuk tosh buyumlar to‘plamlarini topgan joylarga qaratildi (uning fakultetimizdagi “Arxeologiya muzeyi” fondida saqlanayotgan dala kundaligi ma’lumotlaridan foydalandik). Bu joylar Nurobod tumani Tim qishlog‘i o‘rtasidan o‘tgan Timsoy yon terrasalari bilan bog‘liq hisoblanadi.



1-rasm. Zirabuloq tog‘ tizmasi janubiy, janubi-g‘arbiy yon bag‘ri topilmajoylari tosh buyumlari - Qo‘tirbuloq (Chillabuloq) 1,7,8,9,14,15,16,18,21; -2,5,10,20; G‘irillaq buloq-13; “Nurafshon” mahallasi-17; Ostona bobo-6,11; “Jonabuloq”-12,19; Momoy qishlog‘i- 4; G‘ildirovuqsoy-3.

Zirabuloq tog‘ tizmasi janubiy, janubi-g‘arbiy qismida Kalavashtog‘i, Jaltiroqtog‘, Xolmattepatog‘i, Piyozlitog‘, Miskontog‘i deb ataluvchi tog‘lar bor. Shulardan biri Piyozlitog‘dan o‘z suvini oluvchi Timsoy ancha suvli, vohasi keng, yon terrasalariga ega bo‘lib, janubiy-g‘arb tomon cho‘zilib ketgan soy hisoblanadi.

Arxeologik qidiruv ishlarimiz bevosita ushbu Timsoy yon terrasalari va soy yon qirg‘oqlari bilan bog‘liq qadimiy buloqlar atrofini tekshirish bilan boshlandi. Hozirgi kunda soy yon terrasalari mahalliy aholi hovli joylari bilan to‘liq o‘zlashtirilgan. Shu bois, bilgan ma’lumotlarimizni qishloqning keksa kishilaridan so‘rab taxminan aniqlashtirib oldik. Qidiruv ishimizni Tim qishlog‘i markazidagi qadimiy qabriston va unda joylashgan “Arab ota” yodgorligi yon atroflarini ko‘zdan kechirishdan boshladik va 1 dona kulrangli chaqmoqtoshli slanetsdan yasalgan, bo‘yi 0,9 sm. eni 0,6 sm. o‘lchamli mikroplastina, 1 dona bo‘yi 2,9 sm, eni 2,1 sm.o‘lchamli yon qirralari yupqa va o‘ta keskir to‘q kulrangli qayroqtosh bo‘lagi topildi. Qabriston etagi, yangi machit yonida “Qo‘tirbuloq” va “Chillabuloq” nomlari bilan ataladigan qadimiy yonma-yon joylashgan buloqlarni mahalliy aholi ko‘rsatishdi. Buloq atrof terrasalari qisman saqlanib qolgan bo‘lib, ular yer sathi ko‘zdan kechirilganda bir nechta keyingi tarixiy davrga oid sopol parchalari va ikki dona tosh buyumi topildi. Ulardan biri oq rangli chaqmoqlashgan ohaktoshdan tayyorlangan uzunligi 1,9 santimetr, eni 1,3

santimetr o‘lchamga ega bo‘lgan plastinka bo‘lib, uning bir yon qirrasi yupqa va o‘tkir, unga ishlov berilganligi izlari yaqqol ko‘zga tashlanmaydi. Ikkinchi tosh buyumi chaqmoqtoshli-slanetsdan yasalgan (bo‘yi 2,0 sm, eni 1.6 sm. o‘lchamli) ishlov berilmagan uchirindi hisoblanadi. Shuningdek, bu ikkala buloqqa tegishli terrasalar sathi hamda “Arab ota” yodgorligidan buloqlar tomon keladigan yo‘llardan 2 dona sarg‘imtil rangli ohaktoshdan yasalgan tosh o‘zagi bo‘laklari, 1 dona sifatsiz dioritdan yasalgan uchirindi, 1 dona katta o‘lchamli qayroqtosh bo‘lagi, 3 dona mayda o‘lchamli ishlov berilmagan uchirindilar, bittasi ohaktoshdan uchirilgan oqimtir rangli, ikkitasi esa to‘qrangli chaqmoqtoshli-slanetsdan yasalgan uchirindilar topilgan (1-rasm, 1,7,8,9,14,15,16,18,21). Tosh o‘zagi bo‘laklari oldingi tarixiy davrlarga oid bo‘lishi mumkin (so‘nggi paleolit). Shu terrasaning sathi enish bo‘lgan joyida bir devorli qazilma qazib ko‘rildi. Lekin, qazilma jarayonida arxeologik ashyo topilmadi (3-rasm). Tosh buyumlar yasalish xom ashyosi, morfologik va tipologik tahliliga ko‘ra neolit davri jamoalariga tegishli degan xulosaga kelindi. Shuningdek, 5 dona keyingi tarixiy davrlarga oid sopol buyum parchalari ham topildi.

Keyingi arxeologik qidiruv ishlari Tim qishlog‘idagi 64-umumiy o‘rta maktab hududi doirasida olib borildi. Mahalliy keksa odamlar aytishicha, bu joy geolog G. Polishchuk maktab va unga uzoq bo‘lmagan joy bolalar oromgohi hududidan yig‘ib olgan mikrolitlar joyiga to‘g‘ri keladi. Hozirgi kunda maktab binolari qurilgan, odamlar hovli joyi bo‘lgan bu joy qadimda haqiqatdan ham soy yon terrasasi bo‘lganligi ko‘rinib turibdi. Maktab hovlisida mahalliy aholi tomonidan “Ming yillik archa” nomi bilan ataluvchi archa mavjud. Archa yon terrasalari ko‘zdan kechirildi. Maktab hovlisi stadion yoni terrasalari ko‘zdan kechirilganda keyingi tarixiy davrga oid sopol buyum parchalari hamda 1 dona ohaktoshli slanetsdan yasalgan tosh buyumi (ehtimol uch tomonida ish maydoniga ega bo‘lgan qirg‘ich quroli bo‘lishi mumkin), 1 dona chaqmoqtoshli-slanetsdan yasalgan qirg‘ich quroli, 2 dona kichik o‘lchamli ishlov berilmagan, kulrangli chaqmoqtoshli-slanetsdan uchirilgan chiqindi bo‘laklari topildi (1-rasm, 2,5,10,20). Yirikroq o‘lchamli ishlov berilgan ohaktoshli slanetsdan yasalgan tosh quroli yasalish texnikasiga ko‘ra so‘nggi paleolit davri jamoalariga tegishli bo‘lishi mumkin. Qolganlari o‘z jihatlari bilan neolit davri jamoalariga tegishli hisoblanadi. Shu atrofdan keyingi tarixiy davrlarga oid 4 dona sopol buyum parchasi ham topildi. Topilma joylarining koordinatalari olinib, xaritaga kiritildi.


Keyingi arxeologik qidiruv ishlarimiz yuqorida nomlari tilga olingan Zirabuloq tog‘ tizmasi janubi-g‘arbiy yon bag‘ri tog‘lari yonlarida amalga oshirildi. Jumladan, Piyozlitog‘ etagida joylashgan “G‘irillaq buloq” nomi bilan ataladigan buloq atrofi ko‘zdan kechirildi. Aynan buloqning borligi va soy terrasalarining mavjudligi mazkur hududda qadimgi tosh davrida odamlar yashashi uchun qulay imkoniyatlar hisoblanadi. Shu jihatlarni e’tiborga olgan holda, soy yon terrasalari sathi ko‘zdan kechirildi. O‘t-o‘lanlar ko‘pligidan tekshiruv ishlari biroz chigallashdi. 1 dona ishlov berilmagan uchirindi topildi. U to‘q yashil rangda bo‘lib, chaqmoqtoshli slanetsdan yasalgan va bo‘yi 1,4 sm, eni esa 1,3 sm. o‘lchamga ega (1- rasm, 13).

Tim qishlog‘i “Nurafshon” mahallasi joylashuvi tog‘ etagi terrasali adiri o‘z jihatlari bilan ibtidoiy odamlar yashashiga qulay joylar sirasiga kiradi. Ayni vaqtda terrasa sathlari qalin buta, o‘t-o‘lanlar bilan qoplangani bois bu joylarni erta bahor, kech kuz mavsumi paytida arxeologik tekshiruvdan o‘tkazish samaraliroq bo‘ladi. Shunday bo‘lsada soyga yaqin joydan 1 dona kulrangli bo‘yi 3,6 sm. eni 1,5 sm. o‘lchamli yon qirrasi o‘tkir, lekin ikkinchi marta ishlov berilmagan qayroqtosh qurolini topdik. U uch qismida ish maydoniga ega bo‘lgan qirg‘ich quroli bo‘lishi ham mumkin (1- rasm, 17).

Keyingi arxeologik qidiruv ishlarimiz Ingichka qishlog‘i atroflari joylarida amalga oshirildi. “Ostona bobo” nomli qadimgi qabriston hududidagi “Qo‘tirbuloq”ning yon terrasalari diqqatimizni tortdi. Bu terrasalar qadimda suvli bo‘lgan soyning yon qirg‘og‘i hisoblanadi. Shu bois, bu joylar ibtidoiy odamlar yashashiga qulay imkoniyatlarga ega. Terrasalar yer sathini kuzatganimizda 4 dona keyingi tarixiy davrlarga oid sopol buyum parchalari va 1 dona 1,7x1,3 sm. o‘lchamli jigarrang rangli chaqmoqtoshli-slanetsdan yasalgan plastinka, 1 dona oppoq rangli kvartsitdan ishlangan uchirma buyumini topdik (1-rasm, 6,11). Kelgusida terrasalarda qidiruv shurflarini qazish rejalashtirildi.

Shu joylardan yuqorilab (Piyozli tog‘ orqa qismlari) arxeologik qidiruv ishlarimizni davom ettirdik. Sababi, shu joylarda tug‘ilib o‘sgan Ilhomjon Botirov atroflarda bir nechta qadimgi buloqlar borligi ma’lumotini aytdi.

Shu buloqlar yon terrasalarini ko‘zdan kechirish maqsadida yo‘lga otlandik. Shunday buloqlardan biri Qo‘shasigir qishlog‘i yaqinidagi “Jonabuloq” bulog‘i bo‘lib chiqdi. Haqiqatdan ham bu buloq qadimgi soy yon terrasalarida joylashgan bo‘lib, geografik joylashuvi jihatidan ibtidoiy odamlar yashashiga qulay imkoniyat beradi. Ayniqsa, uning ustki yon keng maydonli terrasa sathiga quyosh nurlari tik tushadi. Terrasa sathi ko‘zdan kechirilganda 3 dona keyingi tarixiy davrlarga oid bo‘lgan sopol buyumlar parchalari va 1 dona kulrangli chaqmoqtoshli-slanetsdan ishlangan, yon qirralariga ishlov berilmagan, lekin ustki sathi yuzasida mikroplastinkalar uchirib olinganligi izlari saqlanib qolgan uchirindi topildi (1- rasm, 12,19). Shuningdek, turkum keyingi tarixiy davrlarga oid bo‘lgan sopol buyum parchalari ham yig‘ib olindi. Ular ichida yupqa qoramtir rangli parchalar ham borki, ehtimol ular qadimiyroqdir.



2-rasm. Tim va Ingichka qishloqlaridan aniqlangan topilma joylar umumiy xaritasi.

Keyingi arxeologik qidiruv ishlarimizni Momoy qishlog‘i atroflarida amalga oshirdik. Bu yerda ham qadimiy buloq bo‘lib, uning ustki qismi maydoni sathidan 5 dona sopol buyum parchalari topildi. Ular ichida yupqa devorli qoramtir rangli sopol parchalari ham bor. 1 dona to‘q kulrangli chaqmoqtoshli-slanetsdan yasalgan kichik o‘lchamli ishlov berilmagan uchirindi topildi (1-rasm, 4). Kelgusida terrasa sathida qidiruv shurfini qazib ko‘rish rejalashtirildi.

Arxeologik qidiruv ishlarimizni Qo‘chqorli qishlog‘ida joylashgan qadimgi buloq atroflarini ko‘zdan kechirish bilan davom ettirdik. Bu buloq atroflarida terrasalar bor, lekin ularda ziyoratgoh imoratlari hamda aholi yashash hovli joylari qurilgan. Tekshirish imkoni bo‘lgan terrasalarning ba’zi yer sathlardan tosh buyumlar uchratilmadi, sanoqli keyingi tarixiy davrlarga oid sopol parchalari terib olindi.

Qidiruv ishimiz nihoyasida Changalli qishlog‘ining tepasida joylashgan G‘ildirovuqsoy yon terrasalarini ham kuzatish imkoni bo‘ldi. Bu Samarqand viloyati Madaniy meros boshqarmasining hududiy mahalliy inspektori Ilhomjon Botirov tashabbusi bilan amalga oshirildi. Sababi bu joyda erta bahorda O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi Yahyo G‘ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti ilmiy xodimlari xitoylik olimlar hamkorligida mis konlari joylarini tekshirish maqsadida bo‘lishgan. Shu jarayonda terrasalar sathidan bir nechta tosh buyumlarini yig‘ib olishgan (tosh buyumlar to‘plami Yahyo G‘ulomov nomidagi Samarqand Arxeologiya instituti fondida saqlanmoqda). Terrasalar ko‘zdan kechirildi, lekin soy bo‘yiga qaytishda tasodifan 1 dona kichik o‘lchamli ishlov berilmagan kulrangli uchirma topildi (1-rasm, 3). Shu bois, kelgusi arxeologik mavsumda bu terrasalarni sinchkovlik bilan tekshirish rejasini belgilab oldik.

Shuningdek, Zirabuloq tog‘ tizmasidan bo‘lgan Beshbarmoq tog‘i, Uch tayoq tog‘i, Qorovultepa atroflarida ham bo‘ldik. Ibtidoiy odamlar yashaganligi ehtimolini bildiruvchi xarakterli joylar ekan. Shu bois kelgusi mavsumda qidiruv ishlarini amalga oshirish rejalashtirildi.

Olingan natijalar tahlili sifatida Zirabuloq tog‘ tizmasi yon bag‘irlari bo‘yicha amalga oshirilgan qidiruv ishlarimiz jarayonida topilma joylardan qo‘lga kiritilgan tosh buyumlarning tipologik tahlili natijalari ular xom ashyosi, tosh qurollarining turlari, shakllari, ishlov berilishi usullari bilan bir tomondan O‘rta Zarafshon vohasi Qoratepa tog‘ massivi shimoliy yon bag‘ri Sazog‘on neolit madaniyati [3.], ikkinchi tomondan Quyi Zarafshon vohasi (Uchashi 131, Oyoqog‘itma, Chorbaqti, Darbozaqir 1,2, Tuzkon makonlari) kaltaminor neolit jamoalari tosh qurollariga [4,5] o‘xshashligini keltirish mumkin.



3-rasm. Tim qishlog‘i, Qo‘tirbuloq (Chillabuloq), девор кесмаси.
Koordinatalar: 39°41'41.8"N 65°47'31.1"E

Xulosa. Xullas, O‘rta Zarafshon vohasi Zirabuloq tog‘ tizmasi janubiy, janubi-g‘arbiy yon bag‘rida o‘tgan asr 50-60-yillarida geologik tekshiruvlar jarayonida qo‘lga kiritilgan tosh davri jamoalari moddiy madaniyatiga tegishli mikrolitlar topilgan joylar ma’lumotlari bo‘yicha amalga oshirilgan qidiruv ishlarimiz kutilgan natijalarni berdi. Shuningdek, Timsoy vohasi va Ingichka qishlog‘i ustki qismlari bo‘yicha yangi tosh davri topilma joylari aniqlanishiga erishildi. Bu topilma joylar xaritasi yaratildi va ularning joylanishi koordinatlari ma’lumotlari aniqlandi. Oldingi yillarda qo‘lga kiritilgan va ilmiy tahlil etilgan tosh buyumlar ma’lumotlari hamda 2026-yilgi arxeologik qidiruv ishlarimiz jarayonida qo‘lga kiritilgan ushbu faktik materiallarimiz (саккизта топилма joylar, 2-rasm) Zirabuloq tog‘ tizmasi janubiy, janubi-g‘arbiy yon bag‘ri tosh, xususan neolit davri jamoalari moddiy madaniyati tadqiqotining kelgusidagi istiqbolini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Джуракулов М.Д. Новые археологические данные из совхоза “Карнап” (по материалам собрания кабинета археологии им. Д.Н.Лева) Труды СамГУ. Новая серия вып.218, Самарканд, 1972, С.89-96.

2. Тошкенбаев Н.Х, Сулайманов Р.Х. Культура древнекаменного века долины Зарафшана. Тошкент, 1980.С.8-66.

3. Холматов Н.Ў. Сазоғон маданияти ва унинг Ўзбекистон неолит даврида тутган ўрни. 2020. Б. 383.

4. Гулямов Я.Г., Исламов У.И., Аскаров А.А. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зарафшана. Ташкент,1966. С.21-87.

5. Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского междуречье. - М., 1981. 64-78.

UDC 52(091):091

DO YOU KNOW OF AN ASTRONOMICAL TREATISE BY ABU RAYHAN AL-BIRUNI THAT HAS NOT YET BEEN FULLY TRANSLATED INTO A MODERN LANGUAGE?

Kuranbayeva U. S., PhD, Senior Researcher, Abu Rayhan Beruni Institute of Oriental Studies, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Tashkent

Annotatsiya. *Maqolada Abu Rayhon Beruniyning zamonaviy tillarga hali to'liq tarjima qilinmagan astronomik asarlari, xususan, «Kitāb fī Istiʿāb al-Wujūh al-Mumkina fī Ṣanʿat al-Asṭurlāb» («Astrolabiya yasashning mumkin bo'lgan usullarini to'liq qamrab olish kitobi») ko'rib chiqiladi. Risolaning tuzilishi, asosiy mazmuni va o'rta asr astronomiyasi rivojidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, asarga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar tarixshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganiladi.*

Kalit so'zlar: *Abu Rayhon Beruniy, Kitāb fī Istiʿāb al-Wujūh al-Mumkina fī Ṣanʿat al-Asṭurlāb, astrolabiya, astronomiya, fan tarixi, qo'lyozma, kodikologiya, manbashunoslik, tarixshunoslik, ilmiy tarjima.*

Аннотация. *В статье рассматриваются астрономические труды Абу Райхана Беруни, ещё не переведённые полностью на современные языки, в частности «Kitāb fī Istiʿāb al-Wujūh al-Mumkina fī Ṣanʿat al-Asṭurlāb» («Книга о полном охвате возможных способов изготовления астролябии»). Анализируются структура и основное содержание трактата, его значение для развития средневековой астрономии. Также представлен историографический обзор научных исследований, посвящённых этому сочинению.*

Ключевые слова: *Абу Райхан Беруни, Kitāb fī Istiʿāb al-Wujūh al-Mumkina fī Ṣanʿat al-Asṭurlāb, астролябия, астрономия, история науки, рукопись, кодикология, источниковедение, историография, научный перевод.*

Abstract. *This article focuses on Abu Rayhan al-Biruni's astronomical works that have not yet been fully translated into any modern language. One such work is Kitāb fī Istiʿāb al-Wujūh al-Mumkina fī Ṣanʿat al-Asṭurlāb (The Book on the Comprehension of the Possible Methods of Constructing the Astrolabe). The article examines the treatise, its structure and principal content, and evaluates its significance for the development of medieval astronomy. It also provides a historiographical analysis of the scholarly research conducted on this work.*

Keywords: *Abu Rayhan al-Biruni, Kitāb fī Istiʿāb al-Wujūh al-Mumkina fī Ṣanʿat al-Asṭurlāb, astrolabe, astronomy, history of science, manuscript, codicology, source studies, historiography, scholarly translation.*

The scholarly legacy of the polymath Abu Rayhan al-Biruni (973–1048) comprises 184 works. Today, manuscripts of his writings are preserved in collections in the United States, the United Kingdom, Ireland, France, Germany, the Netherlands, Russia, Turkiye, Iraq, Israel, Egypt, Tunisia, Morocco, Qatar, Lebanon, Iran, India, Afghanistan, Tajikistan, Uzbekistan, and several other countries. In recent years, research has increasingly focused on reassessing al-Biruni's works from the perspectives of the exact sciences, social sciences, source studies, and historiography. In particular, the emergence of foreign electronic catalogues, digitized manuscripts, and new scholarly editions have created opportunities for a more in-depth study of the scholar's legacy. Nevertheless, al-Biruni's astronomical works, especially his treatises concerning the theory and construction of the astrolabe, have not yet been studied comprehensively, critically edited, or fully translated into modern languages.

Interest in al-Biruni's Works: Past and Present. A significant part of al-Biruni's scholarly legacy is devoted to astronomy and mathematics. During the twelfth to fifteenth centuries, there was considerable demand for the study of these disciplines. In particular, his treatises in this field served not only as theoretical manuals but also as practical guides in medieval Muslim society. The development of trade, the use of new caravan routes, the conquest of distant territories, and other

practical needs created a demand for al-Biruni's works on the astrolabe and its application. On the one hand, this demonstrates the scientific value of his writings; on the other, it indicates that they served as important sources within the astronomical schools that developed in the Muslim East.

Thus, the surviving manuscript copies of al-Biruni's astronomical works, particularly those devoted to the astrolabe, as well as the fact that they were repeatedly copied in different periods and locations, testify to the continued demand for these works.

The scholarly study of al-Biruni's astronomical legacy entered a new phase in the second half of the twentieth century. The initial findings of research in the exact and natural sciences were included in collections published in connection with the 1,000th anniversary of al-Biruni's birth, whereas a greater number of studies addressing social, economic, and philosophical issues were brought together in publications commemorating the 1,050th anniversary of his birth. Between 1957 and 1987, and again from 2015 to 2023, fundamental works by the scholar were published in Russian and Uzbek under the series entitled *Selected Works*. It should be acknowledged that, over the past decade, new studies of al-Biruni's writings have continued to appear. These include research into his astronomical and astrolabe-related works that had previously remained unstudied and untranslated. This demonstrates that al-Biruni's astronomical writings retain their significance even in the present age of rapidly developing digital technologies.

Kitāb fī Istiʿāb al-Wujūh al-Mumkina fī Ṣanʿat al-Asṭurlāb. Eighty percent of al-Biruni's scholarly legacy is associated with the exact sciences. In his work entitled *Fihrist kutub Muhammad ibn Zakariyya al-Razi* (A Catalogue of the Works of Muhammad ibn Zakariyya al-Razi, hereafter *Fihrist*), compiled in the autumn of 1036, the scholar listed a total of 70 works devoted to astronomy. The section of the *Fihrist* entitled "My Works on Astronomical Instruments and Their Use" includes the titles of five of his works concerning the astrolabe and its application. The inclusion in this section of the title and extent of *Kitāb fī Istiʿāb al-Wujūh al-Mumkina fī Ṣanʿat al-Asṭurlāb* constitutes one of the most reliable primary sources confirming the work's authorship.

Today, in the rapidly advancing digital age, electronic platforms provide access to the works of scholars of the First and Second Renaissances, as well as information about the collections in which their manuscripts are preserved. One such resource is the website of the Islamic Scientific Manuscripts Initiative (ISMI), established within the framework of Germany's "Rational Knowledge in Islam" project. The website provides information on the history of science, particularly manuscripts of medieval works related to the exact sciences.

The ISMI database classifies al-Biruni's works according to subject area. Under the heading "Works Devoted to Astronomical Instruments," it lists the titles of 13 books by the scholar, of which only 11 have survived to the present day. At present, preliminary scholarly research has been undertaken on only nine of these treatises. They have not been fully translated into German, English, French, Russian, or Uzbek.

According to the information provided in the ISMI database, 24 manuscript copies of *Kitāb fī Istiʿāb al-Wujūh al-Mumkina fī Ṣanʿat al-Asṭurlāb* are currently known to exist. However, the database of the website established by the Dutch historian of science J. Hogendijk records 28 manuscript copies of the work. All these manuscripts are in Arabic and written in naskh script. According to our preliminary findings, the oldest surviving copy is preserved in Leiden. It was copied on 7 October 1277 by Siddiq ibn al-Hizr ibn Abdallah ibn Shifa al-Munajjim al-Maraghi (thirteenth century).

The Date of Composition. Al-Biruni provides no information in the treatise concerning the year in which *Kitāb fī Istiʿāb al-Wujūh al-Mumkina fī Ṣanʿat al-Asṭurlāb* was written. However, he mentions this work in the chapter "On the Lunar Mansions, Their Rising, Setting, and Forms" in *Al-Athar al-Baqiya ʿan al-Qurun al-Khaliya* (*The Chronology of Ancient Nations*), which he composed between 1000 and 1003.

In his commentary on *The Chronology of Ancient Nations*, the prominent Biruni scholar A. Ahmedov suggests that al-Biruni completed this treatise between 998 and 1000. This suggests that the work may have been composed in the cities of Rayy or Gurgan. According to the *Fihrist*, the

treatise comprised 80 folios (160 pages). Catalogue records indicate that only five of the surviving manuscript copies have retained this original extent.

The Study of the Treatise. Interest in the study of al-Biruni's works emerged in Europe during the second half of the nineteenth century. His writings on the astrolabe, in particular, have been highly valued for their contribution to the development of astronomy. One such work is *Kitāb fī Istiʿāb al-Wujūh al-Mumkina fī Ṣanʿat al-Asṭurlāb*.

In Europe, E. Wiedemann was among the first scholars to investigate this treatise in the early twentieth century. He based his research on the manuscript preserved in the Berlin Library (No. 8 in Table 1). Wiedemann emphasized that al-Biruni's work was written in a specialized scientific language for readers directly engaged in the practical use of astrolabes. He also substantiated the significance of the scholar's new scientific ideas.

Subsequently, J. Frank, G. Zeman, and T. Mittelberger also conducted research on certain chapters of the same manuscript, particularly those concerning the mechanics of using the astrolabe. Their studies highlighted al-Biruni's innovative proposals for the practical application of the instrument and demonstrated their significance.

After 1947, the study of al-Biruni's works became a state-level priority in the Soviet Union, creating broader opportunities for research into the scholar's life, activities, and writings. In the 1970s, A. Abdurahmanov examined the Berlin manuscript using its photocopy, which had previously been studied by E. Wiedemann, J. Frank, G. Zeman, and T. Mittelberger. As a result, Abdurahmanov presented a brief summary of *Kitāb fī Istiʿāb al-Wujūh al-Mumkina fī Ṣanʿat al-Asṭurlāb* and the titles of its chapters in his articles.

B. A. Rozenfeld, M. M. Rozhanskaya, and Z. K. Sokolovskaya investigated individual chapters of the treatise. They assessed al-Biruni's scientific views in the exact sciences from the perspective of modern historiography of science and highlighted his contribution to the development of world science. In particular, their studies provide detailed descriptions of Chapters 1–3, 36–50, and 69–70, while the remaining chapters have not been examined. It is important to note that all these researchers relied on only one manuscript copy. Consequently, the other surviving copies have remained virtually unstudied.

Translation of the Treatise. Although E. Wiedemann studied *Kitāb fī Istiʿāb al-Wujūh al-Mumkina fī Ṣanʿat al-Asṭurlāb*, he translated only its introductory section into German. An English translation of the chapter concerning the "perfect compass" was produced by R. Rashed.

The complete Arabic text of *Kitāb fī Istiʿāb al-Wujūh al-Mumkina fī Ṣanʿat al-Asṭurlāb* was prepared for publication by Muhammad Akbar Javadi Husayni on the basis of manuscript copies Tehran 3959, Tehran 705, and Istanbul 2947. The Arabic edition, accompanied by indexes and explanatory notes, was published in 2001. Nevertheless, the work has not yet been fully translated into any other language.

The Content of the Treatise. Described by P. Bulgakov as an "encyclopedia of Eastern astrolabes," *Kitāb fī Istiʿāb al-Wujūh al-Mumkina fī Ṣanʿat al-Asṭurlāb* occupies a distinctive place among al-Biruni's works on mathematics and astronomy. The treatise also reveals the particular characteristics of his geometrical approach. According to E. Wiedemann, al-Biruni provided detailed explanations, accompanied by diagrams, of all the types of astrolabes known in the eleventh century.

Scholarly studies indicate that, in this work, al-Biruni comparatively examined the views of al-Farghani, al-Battani (ninth century), and Abu Hamid al-Saghani (eleventh century) on the astrolabe and introduced corrections to their approaches. Furthermore, the scholar critically analyzed certain problems in medieval geometry, including the construction of ellipses, hyperbolas, and other conic sections.

At the beginning of the eleventh century, al-Biruni developed a comprehensive and systematic collection of methods that could be applied to the construction of astrolabes. He proposed the use of projection parallel to the axis of a sphere, that is, the cylindrical projection method.

In his study of the treatise, E. Wiedemann noted that al-Biruni did not merely compile the methods known for constructing astrolabes; rather, he subjected them to further mathematical analysis. In Wiedemann's view, the work covers almost all the major theoretical issues involved in

astrolabe construction and occupies a distinctive encyclopedic position within the medieval Islamic scientific tradition.

The contemporary researcher R. Rashed emphasizes that the relationship between geometry and astronomy is particularly evident in this work by al-Biruni. According to Rashed, the problem of representing spherical surfaces on a plane is considered in the treatise not only from the perspective of practical astronomy but also as an independent mathematical problem. This demonstrates the highly developed nature of al-Biruni's mathematical thinking.

Conclusion. Approximately 70 of Abu Rayhan al-Biruni's works were devoted to astronomy, of which 17 have survived to the present day. Of these works, only six have been fully translated into Uzbek and Russian in Uzbekistan, while one has been partially translated into Russian. Thus, *Kitāb fī Istiʿāb al-Wujūh al-Mumkina fī Ṣanʿat al-Asṭurlāb* is one of al-Biruni's astronomical works that have not yet been translated into Uzbek.

The significance of this treatise lies, among other things, in the fact that it contains diagrams of approximately ten types of astrolabes that existed before the eleventh century but have not survived to the present day.

Regarded as an encyclopedic work on the astrolabe in the Muslim East, the treatise was copied repeatedly between the twelfth and eighteenth centuries. These manuscript copies are currently preserved in collections in 13 countries around the world. Therefore, the study and full translation into Uzbek of al-Biruni's treatises devoted to astronomical instruments, which have not yet been fully translated into any modern language, remain among the important tasks facing scholars of al-Biruni's legacy.

REFERENCES:

1. Abu Rayhon Beruniy ilmiy merosining jahon fani rivojidagi o'rni. Buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning 1050 yillik yubileyiga bag'ishlangan. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari / Mas'ul muharrirlar: B. Abduhalimov, M. Hojimatov. Tuzuvchilar: S. Karimova, U. Kuranbayeva, U. Hamdamov. Toshkent: Ma'naviyat, 2023. – 408 b.

2. Baron Carra de Vaux. Les penseurs de l'Islam. T. 2. – Paris: Rue Jacob, 1921. https://archive.org/details/lespenseursdelis02carr/page/n5/mode/2up.

3. Rashed, R. Geometry and Dioptrics in Classical Islam. London: Al-Furqan Islamic Heritage Foundation, 2005.

4. Rezvani, P. R. "Two Treatises on the Astrolabe by Abu Rayhan Muhammad ibn Ahmad Biruni (973–1048 A.D.)." Doctoral dissertation, Universiteit Utrecht. Utrecht, 2019.

5. Wiedemann, E. "Einleitungen zu arabischen astronomischen Werken." Das Weltall 20 (1920), reprinted in IMA 34. https://www.jphogendijk.nl/biruni/Wiedemann-Einleitung1.pdf.

6. Wiedemann, E. "Einleitungen zu arabischen astronomischen Werken." In: Das Weltall. Bd. 6. 1906.

7. Wiedemann, E., and J. Frank. "Allgemeine Betrachtungen von al Biruni in einem Werk über die Astrolabien." Beiträge zur Geschichte der Naturwissenschaften LXI, Sitzungsberichte der physikalisch-medizinischen Sozietät in Erlangen 52–53 (1920–21), reprinted in IMA 34. https://www.jphogendijk.nl/biruni/Wiedemann-F-Ist.pdf.

8. Abu Rayhan Beruniy. Tanlangan asarlar, I jild. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. A. Rasulov tarjimasi asosida qayta ishlab, to'ldirib, nashrga tayyorlovchi, kirish maqolasi va izohlar muallifi A. Ahmedov. Ko'rsatkichlar muallifi: B. Abdullaev va U. Kuranbaeva. Toshkent: O'zbekiston, 2022. – B. 426, 570.

9. Beruniy tug'ilgan kunining 1000 yilligiga bag'ishlangan to'plam / Mas'ul muharrirlar: U. I. Karimov va A. Irisov. Toshkent: Fan, 1973.

10. Biruni. Sbornik statey k 1000-letiyu so dnya rozhdeniya / Otv. red.: A. K. Arends. Tashkent: Fan, 1973.

11. Biruniy – o'rta asrning buyuk olimi / Mas'ul muharrir: Ya. G'. G'ulomov. Toshkent, 1950.

12. Biruni. Sbornik statey / Pod red. S. P. Tolstova. Moskva–Leningrad, 1950.

13. Bulgakov, P. G. Zhizn' i trudy Beruni. Tashkent: Fan, 1972.

14. Kuranbaeva, U. "Mesto russkogo perevoda 'Indii' Beruni v mezhkul'turnom dialoge." Turkic Historical Studies Scientific Journal, No. 1 (8), January–March 2026, Kazakhstan.

15. Maslikov, S. Astrolyabiya kak astronomicheskiy instrument: ot antichnosti do novogo vremeni. Dissertation for the degree of Candidate of Physical and Mathematical Sciences. Moscow, 2017. Pp. 35–37.

16. Rasulov, A. "Abu Rayhon Beruniyning o'z asarlariga o'zi tuzgan ro'yxati." In: Beruniy tug'ilgan kunining 1000 yilligiga bag'ishlangan to'plam / Mas'ul muharrirlar: U. I. Karimov va A. Irisov. Toshkent: Fan, 1973.

17. Rozenfeld, B. A., and A. Abdurahmanov. "Traktaty Beruni ob 'Astrolyabiyakh'." In: Beruni. Sbornik statey k 1000-letiyu so dnya rozhdeniya / Otv. red. A. K. Arends. Tashkent: Fan, 1973.

18. Rozenfeld, B. A., M. M. Rozhanskaya, and Z. K. Sokolovskaya. Abu-r-Raykhan al-Biruni (973–1048). Moscow: Nauka, 1973.

19. البيروني، أبو الريحان محمد بن أحمد. استيعاب الوجوه الممكنة في صنعة الأسطرلاب، تحقيق وتصحيح محمد أكبر الحسيني جوادي، تقديم وإشراف علمي: آية الله حسن حسن زاده الآملي، مشهد: مؤسسة الطبع التابعة للآستانة الرضوية المقدسة، ط1، 1422هـ/2001م، ص. 25.

20. https://heritageof.beruni.uz/

21. https://www.jphogendijk.nl/biruni.html
22. https://ismi.mpiwg-berlin.mpg.de/index.php/text/154768

UO'K 316.77:004.738.5

IJTIMOIY TARMOQLAR VA BLOGERLIK – JAMIYAT OCHIQLIGINI TA'MINLOVCHI VOSITA SIFATIDA

Murodova N., bosh mutaxassis, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Toshkent

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlar va blogerlik faoliyatining jamiyat ochiqligini ta'minlashdagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, raqamli axborot makonining rivojlanishi, fuqarolarning axborot olish va fikr bildirish imkoniyatlarining kengayishi, jamoatchilik nazoratini shakllantirish hamda davlat organlari faoliyatida shaffoflikni ta'minlash masalalari tahlil qilingan. Blogerlarning ijtimoiy muammolarni yoritish, jamoatchilik fikrini shakllantirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi ishtirokiga alohida e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarda axborot ishonchliligi, media savodxonlik va axborot tarqatish mas'uliyatining ahamiyati ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy tarmoqlar, blogerlik, jamiyat ochiqligi, axborot erkinligi, so'z erkinligi, jamoatchilik nazorati, fuqarolik jamiyati, raqamli kommunikatsiya, axborot madaniyati, shaffoflik, media savodxonlik, ommaviy axborot vositalari.*

Аннотация. *В данной статье освещается роль и значение социальных сетей и блогинга в обеспечении открытости общества. Также анализируется развитие цифрового информационного пространства, расширение возможностей граждан получать информацию и выражать свое мнение, формирование общественного контроля и вопросы обеспечения прозрачности в деятельности государственных органов. Особое внимание уделяется участию блогеров в освещении социальных проблем, формировании общественного мнения и развитии гражданского общества. Одновременно раскрывается важность достоверности информации, медиаграмотности и ответственности за распространение информации в социальных сетях.*

Ключевые слова: *социальные сети, блогинг, открытость общества, свобода информации, свобода слова, общественный контроль, гражданское общество, цифровая коммуникация, информационная культура, прозрачность, медиаграмотность, средства массовой информации.*

Abstract. *This article highlights the role and importance of social networks and blogging in ensuring the openness of society. It also analyzes the development of the digital information space, the expansion of citizens' opportunities to receive information and express their opinions, the formation of public control, and the issues of ensuring transparency in the activities of state bodies. Special attention is paid to the participation of bloggers in covering social problems, forming public opinion, and developing civil society. At the same time, the importance of information reliability, media literacy, and the responsibility of disseminating information in social networks is revealed.*

Keywords: *social networks, blogging, openness of society, freedom of information, freedom of speech, public control, civil society, digital communication, information culture, transparency, media literacy, mass media.*

Kirish

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda ijtimoiy tarmoqlar jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Internet va raqamli kommunikatsiya vositalarining keng tarqalishi natijasida axborot almashinuvi tezlashib, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlardagi ishtiroki uchun yangi imkoniyatlar yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar va blogerlik faoliyati jamiyatda ochiqlik, oshkoralik hamda jamoatchilik nazoratini ta'minlashda muhim vositalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda nafaqat muloqot qilish va axborot almashish maydoni, balki jamiyatda mavjud muammolarni keng jamoatchilikka yetkazish, dolzarb masalalarni muhokama qilish va ularning yechimiga e'tibor qaratish imkonini beruvchi muhim kommunikatsiya

platformasidir. Fuqarolar turli ijtimoiy muammolar, davlat tashkilotlari faoliyati, ta’lim, sog‘liqni saqlash, iqtisodiyot va boshqa sohalardagi kamchiliklar haqida o‘z fikrlarini erkin bildirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bu esa jamiyatda axborot ochiqligini kuchaytirish, fuqarolik faolligini oshirish va davlat organlari bilan aholi o‘rtasidagi muloqotni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Blogerlik faoliyati ham zamonaviy axborot makonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Blogerlar o‘zlarining shaxsiy kuzatuvlari, tahlillari va jamoatchilik fikriga asoslangan materiallari orqali turli muammolarni yoritib, aholining muayyan masalalar yuzasidan xabardorligini oshirmoqda. Ular jamiyatdagi dolzarb voqea-hodisalarni tezkor ravishda yoritish, ijtimoiy adolat, qonun ustuvorligi, inson huquqlari va fuqarolarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalalariga jamoatchilik e’tiborini qaratishda muhim o‘rin tutadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

2016-yil O‘zbekiston axborot makonida chuqur sifat o‘zgarishlari boshlangan davr sifatida e’tirof etiladi. Mamlakat tarixida ushbu yil siyosiy tranzit, ya’ni birinchi Prezident Islom Karimov vafotidan so‘ng hokimiyatning yangi rahbarga o‘tishi bilan tavsiflanadi. Siyosiy tizimdagi ushbu o‘zgarishlar davlat boshqaruvi falsafasida ham o‘z aksini topdi. Yangi siyosiy rahbariyat, xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev o‘z faoliyatining dastlabki oylaridanoq «ochiqlik» va «xalq bilan muloqot» tamoyillarini davlat boshqaruvining asosiy yo‘nalishlari sifatida ilgari surdi. Ushbu konsepsiya davlat idoralari faoliyatida shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlash, shuningdek, fuqarolarning davlat boshqaruvi hamda qarorlar qabul qilish jarayonidagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan islohotlarni nazarda tutadi. Huquqiy-institutsional islohotlar doirasida Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonalar faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi mamlakatda ochiqlik siyosatini rivojlantirish yo‘lidagi muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Yangi murojaatlar tizimi davlat va jamiyat o‘rtasida o‘ziga xos «ochiq eshiklar» mexanizmini shakllantirdi.

Prezidentning hukumat mulozimlari faoliyatiga nisbatan tanqidiy munosabat bildirishi jamoatchilikni, shu jumladan, jurnalistlarni ham davlat boshqaruvi jarayonlariga tanqidiy nigoh bilan qarashga undadi. Natijada jurnalistlar ijtimoiy-siyosiy mavzularni chuqurroq yoritishga intila boshladilar. Biroq yangi davrda bosma ommaviy axborot vositalari va yangiliklar saytlarining faoliyatida keskin rivojlanish kuzatilmadi. Aksincha, media muhitida yangi mualliflar hamda blogerlar qatlami shakllana boshladi. An’anaviy ommaviy axborot vositalaridan nisbatan mustaqil ravishda shakllangan blogerlik harakati ko‘plab yangi tashabbuslarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Ularning ayrimlari o‘z auditoriyasi va sodiq o‘quvchilarini shakllantirishga muvaffaq bo‘ldi. Hukumat tomonidan olib borilgan ochiqlik siyosati ushbu yangi tendensiyaning rivojlanishiga turtki berdi va bloglar faoliyati keng media maydoniga kirib keldi.

Muhokama va natijalar

Blogerlik faoliyatining rivojlanishiga turtki bergan muhim omillardan yana biri 2016-yildan boshlab «Telegram», «Facebook» va «YouTube» kabi ijtimoiy tarmoqlarning O‘zbekiston fuqarolik jamiyatidagi muhim kommunikatsiya maydonlariga aylangani bilan izohlanadi. Mamlakatda internet foydalanuvchilari sonining ortishi, mobil aloqa infratuzilmasining kengayishi va smartfonlardan foydalanish darajasining oshishi ushbu platformalarning ta’sir doirasini sezilarli darajada kengaytirdi. Masalan, 2013–2022-yillar davomida mobil aloqa abonentlari soni 20,3 milliondan 30,2 millionga, internet foydalanuvchilari soni esa 6,07 milliondan 27,2 millionga yetgan. 2024-yil yanvar holatiga ko‘ra, internet foydalanuvchilari soni 29,52 millionni tashkil etgan. 2025-yilda esa mamlakatimizda internet foydalanuvchilari soni 32,7 millionga yetgani, ijtimoiy tarmoqlardagi faol foydalanuvchi identifikatorlari soni 11,7 millionni tashkil etgani qayd etilgan.

Blogerlar ijtimoiy tarmoqlar orqali fuqarolik faolligini oshirishga, mavjud muammolarni shaxsiy masala sifatida emas, balki umumjamiyat muammosi sifatida talqin qilishga katta hissa qo‘shdilar. Ular ilgari surgan tashabbuslar, jumladan, ekologik muammolarga oid chiqishlar keng jamoatchilik e’tiborini jalb qilib, davlat idoralarini tezkor choralar ko‘rishga undadi. Xususan, daraxtlarning noqonuniy kesilishi bilan bog‘liq postlar keng jamoatchilik muhokamasiga sabab bo‘lib, atrof-muhitni muhofaza qilish organlari faoliyatining faollashishiga xizmat qildi. Jumladan, siyosatchi, jurnalist va muharrir, 2020–2022-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati, 2023-yilda esa O‘zbekiston Respublikasi Tabiat resurslari vazirining maslahatchisi

sifatida faoliyat yuritgan, keng jamoatchilik orasida bloger sifatida tanilgan Rasul Kusherbayev o‘z chiqishlari orqali bir qator ekologik muammolarni ko‘tarib chiqdi va ularning ijobiy hal etilishiga munosib hissa qo‘shdi. Jumladan, Amirsoy kurorti hududida taxminan 700 tup daraxtning kesilishi masalasiga bloger tomonidan e’tibor qaratilganidan so‘ng, prokuratura tomonidan tegishli materiallar o‘rganilib, jinoyat ishi qo‘zg‘atilgani haqida xabar berildi. Yetkazilgan zarar miqdori taxminan 400 million so‘mga baholangan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlar va blogerlik bugungi kunda jamiyatda ochiqlik va oshkoralikni ta’minlashning muhim vositalaridan biriga aylandi. Ular fuqarolarning axborot olish, erkin fikr bildirish va jamoatchilik nazoratida ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Blogerlar tomonidan dolzarb ijtimoiy muammolarning yoritilishi davlat tashkilotlari faoliyatida shaffoflikni oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, axborotning haqqoniyligi va ishonchliligini ta’minlash, blogerlik mas’uliyatini oshirish muhim ahamiyatga ega. Demak, ijtimoiy tarmoqlar va blogerlik faoliyatini rivojlantirish fuqarolik jamiyati va demokratik qadriyatlarni mustahkamlashning muhim omilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 5-maydagi O‘RQ-369-sonli «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida»gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 15-yanvardagi O‘RQ-78-sonli «Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida»gi Qonuni (yangi tahriri).
4. O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 24-apreldagi 400-I-sonli «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida»gi Qonuni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-4151-son qarori. https://www.lex.uz/mact/-4188851.

UÖK 94(575.1):331.5

ÖZBEKISTONDA AHOLINI IŞ BILAN TA’MINLAŞ MUAMMOLARI (1991–2000-yillardagi aholi murojaatlari misolida)

Odiljonova P. Ş., tayanç doktorant, Özbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti, Toşkent

Annotatsiya. *Uşbu maqolada Özbekistonda 1991-2000-yillarda aholi bandligini ta’minlaş sohasida yuzaga kelgan muammolar fuqarolarning davlat organlariga yöllagan murojaatlari asosida tahlil qilingan. Şuningdek, murojaatlarda aks etgan işga joylaşiş bilan boğliq masalalar, bandlik sohasidagi qiyinçiliklar hamda ularning aholi turmuş tarziga ta’siri tarixiy nuqtayi nazardan yoritilgan.*

Kalit sözlar: *aholi bandligi, işsizlik maqomi, mehnat bozori, ariza, aholi murojaatlari, işsizlik nafaqasi, bandlikka kömaklaşiş, iş örinlari, mehnat resurslari, davlat qabulxonalari.*

Аннотация. *В данной статье анализируются проблемы, возникшие в сфере обеспечения занятости населения Узбекистана в 1991–2000 годах, на основе обращений граждан в государственные органы. Также с исторической точки зрения рассматриваются вопросы, связанные с трудоустройством, существующие трудности в сфере занятости и их влияние на социально-экономическое положение населения.*

Ключевые слова: *занятость населения, статус безработного, рынок труда, заявление, обращения населения, пособие по безработице, содействие занятости, рабочие места, трудовые ресурсы, государственные приёмные.*

Abstract. *This article examines the problems related to employment in Uzbekistan between 1991 and 2000, based on citizens’ appeals to government authorities. It also provides a historical analysis of issues raised in these appeals concerning employment, existing çallenges in the labor market, and their impact on the socio-economic conditions of the population.*

Keywords: *population employment, unemployed status, labor market, application, citizens' appeals, unemployment benefits, employment assistance, jobs, labor resources, government reception offices.*

Kiriş. Özbekiston mustaqillikka erişgaç, mamlakatda amalga oşirilgan iqtisodiy islohotlar va işlab çiqariş tizimidagi özgarişlar mehnat bozoriga ham sezilarli ta'sir körsatdi. Ayrim fabrika va zavodlarning faoliyati töxtatilişi yoki qisqarişi natijasida aholining muayyan qismi iş örinlaridan mahrum böldi. Bu esa işsizlik, moddiy qiyinçiliklar va aholi turmuş darajasining pasayişi kabi muammolarni yuzaga keltirdi. Mazkur şaroitda fuqarolarning bandlik masalasida davlat organlariga yöllagan murojaatlari mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni örganişda muhim tarixiy manba bölib xizmat qiladi. Uşbu maqolada mustaqillikning dastlabki yillarida bandlik sohasida yuzaga kelgan muammolar, fuqarolar murojaatlarida aks etgan talab va muammolar hamda ularning ijtimoiy oqibatlari tarixiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavzuni yoritişda Özbekiston Milliy arxivi, Jizzax viloyat davlat arxivi va Kambağallikni qisqartiriş va bandlik vazirligining joriy arxivida saqlanayotgan hujjatlardan foydalanildi. Şuningdek, tadqiqotda mustaqillik yillarida Özbekistonda aholi bandligi va işsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy sabablariga oid tadqiqotlar va davriy matbuot naşrlaridan ham foydalanildi. Mazkur manbalar mamlakatda amalga oşirilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, aholini iş bilan ta'minlaşga qaratilgan çora-tadbirlar va fuqarolarning bandlik sohasidagi muammolarini örganişda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, xronologik ketma-ketlik, qiyosiy tahlil, tizimli yondaşuv kabi metodlardan unumli foydalanildi. Mazkur metodlar tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta'minlaş va tarixiy jarayonlarni xolis tahlil qilişga xizmat qiladi.

Natijalar va muhokamalar. Mustaqillikka erişgan yoş respublika, mamlakatda endigina şakllanib borayotgan bozorning haqiqiy talablaridan kelib çiqqan holda malakali mutaxassislar tayyorlaş va qayta tayyorlaş tizimiga hali moslaşib ulgurmagan edi. Natijada mehnat bozorida işçi kuçi taklifi va unga talab örtasida keskin tarkibiy nomutanosiblik yuzaga keldi va bozor munosabatlari örnaşib borgan sayin bu jarayon tobora çuqurlaşib bordi. Bularning hammasi iş haqi oila daromadining yakkayu-yagona manbai bölgan işçilar uçun haqiqiy fojiaga aylandi, ular yuzaga kelgan tang vaziyatdan çiqiş, oilani ta'minlaş çoralarini izlaşga majbur qildi. Işsizlik muammosi oxir-oqibatda salbiy va ziddiyatli holatlarni yuzaga keltirişi mumkinligini e'tiborga olib, Özbekiston Respublikasi bu masalani hukumat darajasida hal qilişga kirişdi. Natijada 1992-yildan boşlab, işsizlik davlat tomonidan rasmiy tan olindi. Işsizlar röyxatga olinib, mehnat bozorlari orqali ularga iş qidirildi, agar iş topilmasa ularga vaqtinçalik nafaqalar belgilandi[1; 104]. Iş bilan ta'minlanmagan fuqarolarga esa işsizlik maqomi berilib, ularga işsizlik nafaqasi tölab borildi. Biroq işsiz fuqarolarning barçasi ham işsizlik maqomini rasmiylaştiriş va işsizlik nafaqasini oliş imkoniyatiga ega bölmadi. "Işsizlik maqomi"[1] Qonunga asosan hamma hujjatlar tayyorlanib, fuqaro yaşaydigan viloyat komissiyasidan ötgandan söng berilgan. Masalan, 1992-yilda Jizzax viloyati, Baxmal tumani böyiça 31 kişi işsizlik maqomini oliş uçun murojaat qilgan, lekin ulardan viloyat komissiyasi 16 kişiga "Işsizlik maqomi"ni belgilab nafaqa tölaşga ruxsat bergan[2; 4]. Işsizlik nafaqasi işsiz deb e'tirof etilgan fuqarolarga oldingi iş joyidan oladigan iş haqining 50 % miqdorida 3 oydan 6 oygaça muddatda tölangan[2].

Statistik körsatkiçlar va rasmiy hujjatlar iş bilan ta'minlaş imkoniyatlarini aks ettirsa-da, amaliyotda köp iş qidiruvçilar öz murojaatlarida iş söraşganiga qaramay, ular iş bilan band bölmagan. Ya'ni, iş sörab murojaat qilganlarning soni rasmiy işga joylaştirilganlar sonidan ança köp bölgan. Şu

[1] "Işsizlik maqomi" – 16 yoşdan to pensiya yoşgaça bölgan, mehnatga layoqatli özlariga boğliq bölmagan sabablarga köra işsiz va daromadsiz qolgan, iş izlovçi sifatida röyxatga olingan şaxs (işdan böşatilganlardan taşqari) röyxatga olingan kundan boşlab 10 kalendar kuni davomida mehnat birjalari tomonidan biror muvofiq iş bilan ta'minlanmasa yoki muvofiq iş taklif etilmasa, u holda bu kişi işsizlik maqomini oladi.

[2] Passport, agar passport bölmasa, tuğilganlik töğrisidagi guvohnoma, şu kişining yaşaş joyini tasdiqlovçi ma'lumotnoma, mehnat daftarçasi, diplom yoki ma'lumoti yoki kasbiy tayyorgarligi haqida biror hujjat, söngi yildagi oxirgi iş joyidan yoki öqiş joyidan örtaça iş haqi yoki stipendiya miqdori körsatilgan ma'lumotnoma.

jihatdan, aholi murojaatlari orqali iş bilan ta'minlanmagan şaxslarning aniq soni va tizimning yetarliça samarali işlamaganligi haqida tasavvur hosil qiliş mumkin. Bu holat şuni körsatadiki, statistik ma'lumotlar va rasmiy körsatkiçlar bilan bir qatorda aholi murojaatlarini tahlil qiliş ham iş bozoridagi muammolarni, ayniqsa iş bilan ta'minlanmaganlar sonini aniqlaşda muhim manba sifatida xizmat qiladi. Şu tarzda, aholi murojaatlari iş qidiruvçilarning haqiqiy ehtiyojlarini aniqlaş va mehnat bozorida mavjud bölmagan iş örinlarini aniqlaşda muhim rol öynaydi. Xususan, 1999-yil Jizzax viloyati uçun tuzilgan "Bandlik" dasturi rejalari va bajariliş körsatkiçlari nomiga bölib, hisobotlar vaqtida tahlil etilmagan. Yuqorida tahlil qilingan dasturning bajariliş körsatkiçlarini foiz hisobida ifodalaydigan bölsak, iş sörab murojaat qilgan fuqarolar böyiça natijalar quyidagi jadvalda aks ettirilgan[3; 2].

	1996-yil	1997-yil	1998-yil
Işga joylaytiriş	64 %	63,7 %	93 %
Işsizlik maqomi berilişi	20 %	15 %	100 %
Işsizlik nafaqasi berilişi	2 %	16 %	38 %
Kasbga öqitiş	0 %	50%	75 %

2000-yilda Sirdaryo viloyatining mehnat bölimlariga 4184 nafar ayol iş sörab murojaat qilgan. Şulardan 2150 nafarining bandligi ta'minlangan, 328 nafar ayolga işsizlik nafaqasi tayinlangan, yana 561 nafar ayol esa öz mutaxassisligi böyiça iş izlovçi sifatida işsizlar röyxatida qolgan[4; 141-162]. Şu bilan birga, statistik ma'lumotlar tahlili 2000-yillar boşida Qoraqalpoğiston Respublikasida 555,6 ming nafar mehnatga layoqatli aholining 40 770 nafari ijtimoiy işlab çiqarişda band bölmaganini körsatadi. Bu esa mehnatga layoqatli aholining taxminan 7 foizi işsiz bölganini anglatadi. Ularning 46 foizi (18 840 kişi) şahar aholisi bölib, bu guruhning 78 foizini ayollar taşkil etgan[5; 94].

Xususan, 2001-yilda mehnat birjalariga işga joylaşiş uçun yordam sörab murojaat etganlar soni 462,8 ming nafarga teng böldi, bu körsatkiç 2000-yildagiga qaraganda 41,4 ming kişiga köpaydi[6; 76].

2000-yillarning boshida respublikada işsizlarni röyxatga oliş va ularni iş bilan ta'minlaş böyiça olib borilgan hisob-kitoblarga köra, jami 67 289 nafar fuqaro iş izlovçi sifatida röyxatga olingan. Ularning 27 065 nafari ayollar, 50 358 nafari esa qişloq joylarda istiqomat qiluvçi fuqarolar hisoblanadi. Mazkur davrda 60 318 nafar fuqaro iş bilan ta'minlangan, şundan 25 543 nafari ayollar, 46 304 nafari qişloq aholisi hissasiga töğri kelgan. Respublika aholisining 63 % qişloq joylarda istiqomat qilgan va qişloq aholisining umumiy soni 2000-yillar holatiga köra 14 mln kişi bölib, şundan 60 mingdan ortiq iş bilan band bölmagan fuqarolardir, izlanişlar şuni körsatmoqdaki, qişloqlarda işsiz deb röyxatga olingan aholining aksariyati 70-80% xotin-qizlar bölib, ular uçun qişloqlarda iş örinlari topib beriş katta muammo bölgan[7; 65].

Tahlillar şuni körsatadiki, iş sörab murojaat qilgan fuqarolar sonining yil sayin ortib borişi örganilayotgan davrda aholini iş bilan ta'minlaş borasida muayyan muammolar mavjud bölganidan dalolat beradi. Bu holat bandlikni ta'minlaşga qaratilgan çora-tadbirlarning mavjud ehtiyojlarga töliq mos kelmaganini hamda mehnat bozorida işçi kuçi va mavjud iş örinlari örtasida nomutanosiblikni, şu bilan birga fuqarolar murojaatlarining köpayişi işga joylaştiriş mexanizmlari, yangi iş örinlarini yaratiş va aholining kasbiy malakasini oşiriş bilan boğliq muammolar yuzaga kelganligini körsatadi. Şu nuqtayi nazardan, davlat organlariga yöllangan murojaatlar nafaqat fuqarolarning işga joylaşiş bilan boğliq talablarini, balki öşa davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat va bandlik siyosatining amaliy natijalarini örganişda ham muhim tarixiy manba hisoblanadi.

Xulosa. Mustaqillikning dastlabki yillarida Özbekistonda aholi bandligini ta'minlaş va işsizlikni kamaytiriş dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy masalalardan biri böldi. Aholi bandligini ta'minlaşdagi asosiy muammolar iş izlovçilarga körsatilayotgan xizmatlar sifatining pastligi, mutaxassisligiga mos iş topişdagi qiyinçiliklar, iş haqi va işsizlik nafaqalarining kamligi, böş iş örinlari töğrisida yetarli ma'lumotga ega emasligi hamda iş qidiriş jarayonining uzoq davom etişi bandlik tizimidagi asosiy muammolar sifatida namoyon böldi.

Mamlakat mehnat resurslarining katta qismi qişloq hududlarida yaşagani va işsiz aholining asosiy uluşi ham aynan şu hududlarga töğri kelgani bandlik muammosining hududiy xususiyatga ega ekanligini körsatdi. Bunga qişloq xöjaligida ortiqça mehnat resurslarining mavjudligi, yangi iş örinlarini yaratişga investitsiyalar yetarli darajada yönaltirilmaganligi, mehnat bozorida talab va taklif

örtasidagi nomutanosiblik hamda mahalliy aholining malaka va raqobatbardoşligi pastligi sabab böldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RÖYXATI:

1. Salimov Ş.Y. "Özbekistonda ötiş davri ijtimoiy-demografik muammolar: holati va transformatsiyalar (1991-2016 yillar)" tarix fanlari böyiça falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini oliş uçun dissertatsiya. Toşkent-2022. 104-varaq.

2. Jizzax viloyat davlat arxivi. 101-jamğarma, 1-röyxat, 131-yiğma jild, 4-varaq.

3. Jizzax viloyati davlat arxivi.101-jamğarma, 1-röyxat, 241-yiğma jild. 2-varaq.

4. ÖzMA. M-37-jamğarma, 1-röyxat, 2560-yiğma jild, 141-162-varaqlar.

5. Abdullayeva Y.A. Qoraqalpoğiston xotin-qizlari: keça va bugun (XIX asrning oxiri va XX asr). Ijod dunyosi. Toşkent-2004. 94-varaq.

6. Alimova G.A. "Bozor iqtisodiyotiga ötiş şaroitida ijtimoiy-madaniy infratuzilma va mehnatda aholi bandlik muammosi". Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini oliş uçun dissertatsiya. Toşkent-2002. 76-varaq.

7. Ernazarov Ş.Y. "Bozor iqtisodiyoti şaroitida qişloq xöjalik korxonalarining bandlik muammosi va uni hal qiliş yöllari (Qaşqadaryo viloyati misolida)". Mikroiqtisodiyot (agrosanoat majmui) ixtisosligi böyiça iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini oliş uçun dissertatsiya. Toşkent-2001. 65-varaq.

UO'K 94(575.172):338(091)

MUSTAMLAKACHILIK DAVRIDA QORAQALPOQLAR XO'JALIK HAYOTIDAGI O'ZGARISHLAR (XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHI)

X.M.Otegenov, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus

Annotatsiya. *Maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshida mustamlaka boshqaruvi sharoitida qoraqalpoqlarning xo'jalik hayotida yuz bergan o'zgarishlar tadqiq etiladi. Amudaryo bo'limi va Xiva xonligining qoraqalpoqlar yashagan hududlari misolida dehqonchilik va sug'orish tizimi, yerdan foydalanish shakllari, paxtachilik va bedachilikning tovar tarmog'iga aylanishi, savdo va transport yo'llari, dastlabki sanoat korxonalari hamda baliqchilik sohasi tahlil qilinadi. 1912–1913-yillardagi statistik-iqtisodiy tekshiruv materiallari, arxiv hujjatlari va dala yozuvlari asosida hududning imperiya bozoriga xomashyo manbai sifatida tortilishi, natural xo'jalikning asta-sekin yemirilishi va bu jarayon ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirgani ko'rsatiladi.*

Kalit so'zlar: *Amudaryo bo'limi, qoraqalpoqlar, dehqonchilik, chig'ir, aspek, paxtachilik, savdo, sanoat, baliqchilik, Mo'ynoq.*

Аннотация. *В статье исследуются изменения в хозяйственной жизни каракалпаков в условиях колониального управления во второй половине XIX – начале XX века. На примере Амударьинского отдела и каракалпакских районов Хивинского ханства анализируются система орошаемого земледелия, формы землепользования, превращение хлопководства и люцерноводства в товарные отрасли, торговые и транспортные пути, первые промышленные предприятия и рыболовство. На основе статистико-экономического обследования 1912–1913 годов, архивных документов и полевых записей показано, что вовлечение края в имперский рынок в качестве сырьевого источника разрушало натуральное хозяйство и усиливало социальное неравенство.*

Ключевые слова: *Амударьинский отдел, каракалпаки, земледелие, чигирь, хлопководство, торговля, промышленность, рыболовство.*

Abstract. *The article examines changes in the economic life of the Karakalpaks under colonial administration in the second half of the 19th and early 20th centuries. Using the Amu Darya Department and the Karakalpak districts of the Khanate of Khiva as case studies, it analyses irrigated agriculture, forms of land use, the transformation of cotton and alfalfa growing into commercial sectors, trade and transport routes, the first industrial enterprises and the fishing industry. Drawing on the 1912–1913 statistical and economic survey, archival documents and field records, it shows that the integration of the region into the imperial market as a source of raw materials eroded the subsistence economy and deepened social inequality.*

Key words: *Amu Darya Department, Karakalpaks, agriculture, chigir, cotton growing, trade, industry, fishing.*

1873-yildan keyin Quyi Amudaryo hududi Rossiya imperiyasining iqtisodiy makoniga asta-sekin tortila boshladi. Dehqonchilikni jonlantirish, paxtachilikni kengaytirish, dastlabki sanoat korxonalarini tashkil etish va savdoni rivojlantirish uchun muayyan sharoitlar paydo bo‘ldi. Biroq Amudaryo bo‘limi iqtisodiy jihatdan Turkiston o‘lkasining boshqa viloyatlariga nisbatan ham qoloq hudud bo‘lib qolaverdi.

Qoraqalpoqlarning xo‘jaligi dehqonchilik, chorvachilik va baliqchilikning o‘zaro uyg‘unligiga asoslangan edi [1; 19]. Mustamlakachilik davrida bu an’anaviy tizim tashqi bozor talablari ta’sirida o‘zgara boshladi: paxta va beda tovar ekinlariga aylandi, baliqchilik sanoat tarmog‘i darajasiga ko‘tarildi, pul munosabatlari kengaydi. Ushbu o‘zgarishlarning mazmunini va ularning aholi ahvoliga ta’sirini aniqlash maqolaning asosiy masalasi hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar bir necha yo‘nalishda shakllangan. Mustamlakachilik davri mualliflari – K.G.Girshfeld, A.V.Kaulbars, O.A.Shkapskiy, S.K.Kondrashev – hududning tabiiy sharoitlari, sug‘orish tizimi va yerdan foydalanish haqida qimmatli ma’lumotlar qoldirgan [2; 3; 4; 18]. Sovet davrida K.Saribayev sug‘orish va agrar masala tarixini, T.G.To‘xtametov Amudaryo bo‘limining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini, I.V.Pogorelskiy Xiva xonligining iqtisodiy tarixini, M.Yu. Yo‘ldoshev Xiva dehqonlarining ahvolini tadqiq etgan [7; 8; 9; 15; 20].

Etnografik yo‘nalishda «O‘rta Osiyo va Qozog‘istonning tarixiy-etnografik atlasi» uchun tayyorlangan «XIX – XX asr boshida Qoraqalpog‘iston xo‘jaligi» to‘plami hamda «Qoraqalpoqlar etnografiyasi» asari alohida o‘rin tutadi [17; 19]. Mustaqillik yillarida M.K.Saribayevning paxtachilik tarixiga, A.R.Qudiyarovning Chimboy shahriga, G.U.Seydametovaning Xo‘jayli savdosiga, S.A.Sulaymonovning suv yo‘llariga va M.Seytimbetovning quruqlikdagi yo‘llarga bag‘ishlangan tadqiqotlari paydo bo‘ldi [5; 10; 11; 12; 13].

Shunga qaramay, dehqonchilik, savdo, sanoat va baliqchilikdagi o‘zgarishlar bir-biri bilan bog‘langan holda, mustamlakachilik siyosatining umumiy kontekstida tahlil qilinmagan. Maqolaning maqsadi – ushbu sohalardagi o‘zgarishlarni kompleks tarzda ko‘rsatib, ularning ijtimoiy oqibatlarini baholashdan iborat.

Tadqiqotda tarixiylik va xolislik tamoyillariga tayanildi. F. Brodelning struktur tarix konsepsiyasi vaqtning uch darajasini ajratish imkonini berdi: uzoq muddatli (Orolbo‘yining ekologik va xo‘jalik sharoitlari), o‘rta muddatli (ijtimoiy tuzilma) va qisqa muddatli (ma’muriy qarorlar). Miqdoriy tahlil usuli paxta hosili, savdo aylanmasi va korxonalar soni haqidagi ma’lumotlarni solishtirishda qo‘llanildi. Qiyosiy-tarixiy usul Amudaryo bo‘limi bilan Xiva xonligining qoraqalpoqlar yashagan hududlaridagi vaziyatni qiyoslashga yordam berdi.

Ko‘chirish boshqarmasining 1912–1913-yillarda Amudaryo bo‘limida o‘tkazgan statistik-iqtisodiy tekshiruvi materiallari [6].

Harbiy-statistik tavsiflar, ayniqsa K.G.Girshfeld va M.N.Galkin tayyorlagan «Xiva vohasining harbiy-statistik tavsifi» [2].

O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivining Turkiston general-gubernatori devonxonasi fondidagi bo‘lim boshliqlarining raportlari va xatlari.

Muallifning dala yozuvlari hamda O‘zR FA Qoraqalpog‘iston bo‘limi qo‘lyozmalar fondidagi etnografik ekspeditsiyalar materiallari. Ular dehqonlarni ekspluatatsiya qilishning mahalliy shakllari haqida ma’lumot beradi.

1875-yilda yangi qo‘shib olingan hududdagi dehqonchilik, yerdan foydalanish va soliq masalalarini hal etish uchun Amudaryo bo‘limiga polkovnik Nosovich boshchiligidagi maxsus Tashkiliy komissiya yuborildi. Komissiya 1875–1876-yillarda faoliyat yuritib, volostlar tuzish va yangi yer-soliq tizimi uchun materiallar to‘pladi. Uning xulosalari asosida diniy muassasalarning yirik vaqf yerlari va Xiva saroy aslzodalarining yer-mulklari bekor qilindi. Sho‘raxon uchastkasida 13,3 ming tanob vaqf yeri davlat ixtiyoriga olindi.

Sug‘orish tizimini saqlab turish uchun ma’muriyat Xiva tartiblarini tiklab, qazuv majburiyatlarini qonunlashtirdi. Sho‘raxon uchastkasida har 10 tanob yerdan bir kishi 12–15 kunga, Chimboy uchastkasida har bir o‘tovdan bir kishi 12 kunga qazuv ishlariga chiqarildi. Amalda bu ishlar o‘rtacha 35–40 kunga cho‘zildi. Bo‘lim inspektorining hisobiga ko‘ra, Chimboy uchastkasi

aholisining bu majburiyati yiliga 537 503 ish kunini yoki pul hisobida 430 002 rubl 40 tiyinni tashkil etdi.

Suv tizimlarini boshqarish uchun ariq oqsoqollari, ovullar ichidagi suv taqsimotini nazorat qilish uchun miroblar tayinlandi. Bo‘lim oltita suv tizimidan suv olardi: Sho‘raxon va Shimom tizimlari Sho‘raxon uchastkasini, Amudaryo, Eshonchiqqi, Kegeyli va Quvanishjarma tizimlari Chimboy uchastkasini ta’minladi. Shunga qaramay, imperiya yirik muhandislik-irrigatsiya inshootlarini qura olmadi. K.G.Girshfeld va M.N.Galkinning o‘zlari daryoga 30 yil egalik qilish davomida viloyatni sug‘orishga hech qanday yangilik kiritilmaganini tan olgan [2].

Dehqonlarning o‘zlari an’anaviy sug‘orish tizimiga tayangan. Magistral kanallar «jarma», «jarmish» yoki «arna» deb atalgan, ulardan «jap», «salma» va «qo‘lchiq» tarmoqlari chiqqan [9; 17]. Yerlarning ko‘pchiligi kanallardagi suv sathidan baland joylashganligi sababli suvni chig‘ir yordamida ko‘tarishga to‘g‘ri kelgan. Chig‘ir qimmat bo‘lgani uchun kambag‘allar bitta chig‘ir uchun 10–12 xo‘jalik bo‘lib birlashgan. Suv «aspek» tizimi bo‘yicha taqsimlangan: kanal bir necha uchastkaga bo‘linib, har birini sug‘orish uchun 3–5 kun belgilangan. Bu tengsizlik xalq maqolida ham o‘z aksini topgan: «Boshdagi suv ichar, oyoqdagi zahar ichar».

1912–1913-yillardagi tekshiruv natijalariga ko‘ra, eng boy egalar barcha xo‘jaliklarning 4–5 foizini tashkil etib, ularning har biri o‘rtacha 6–10 desyatinadan ortiq yerga ekin ekkan. Xo‘jaliklarning 50,9 foizi esa o‘rtacha atigi bir desyatinaga ekin ekkan [6]. Eng boy guruhdagi 395 xo‘jalik (1,2 foiz) 4 tadan 13 tagacha otga ega bo‘lib, 9 desyatina va undan ortiq yerga ekin ekkan. Ular yillik va muddatli 922 nafar yollanma ishchidan foydalangan, ya’ni har bir xo‘jalikka o‘rtacha 2,3 ishchi to‘g‘ri kelgan.

Dala yozuvlari va etnografik materiallar dehqonlarni ekspluatatsiya qilishning o‘ndan ortiq mahalliy shaklini aniqlash imkonini berdi.

Ishchilarning ahvoli ham og‘irlashdi. 1900-yilda batrak yiliga 180–225 rubl olgan bo‘lsa, 1913-yilda to‘liq xo‘jalik ta’minoti hisobidan yiliga atigi 32–45 rubl olgan. Tekshiruv ma’lumotlariga ko‘ra, bo‘limda 12 204 kishi yollanma dehqonchilik, batraklik va qora ishlar bilan band bo‘lgan. Ko‘chirish boshqarmasi materiallariga qaraganda, 26 mingdan ortiq yersiz dehqon yarim och hayot kechirgan.

Mustamlakachilik siyosatining asosiy iqtisodiy yo‘nalishi paxtachilikni kengaytirish bo‘ldi. General-gubernator A.N.Kuropatkin Turkiston paxtasining umumdavlat ahamiyatini Amerika paxtasiga qaramlikni bartaraf etishda deb bilgan. Amudaryo bo‘limida paxta hosili 1895-yilda 296 ming pud, 1898-yilda 411 080 pud, 1912-yilda 600 ming pud bo‘lgan bo‘lsa, 1913-yilda 943 622 pudga yetdi, ya’ni 18 yilda qariyb 3,2 baravar o‘sdi [10].

XX asr boshigacha Sho‘raxon uchastkasida faqat mahalliy g‘o‘za navlari ekilgan. 1894-yilda ularning maydoni 3 286 desyatinani tashkil etgan. Keyinchalik serhosil Amerika navlari tez tarqaldi: 1912–1913-yillarda 5 066 desyatina paxta maydonining 4 283 desyatinasiga shu nav ekildi. Paxtachilik bilan shug‘ullanuvchi xo‘jaliklar soni 1906-yilga kelib 9 mingga yetdi.

Bedachilik ham tovar tarmog‘iga aylandi. 1907–1908-yillarda bo‘limdan 50 ming pud, 1913–1914-yillarda 100 ming pud beda urug‘i chiqarildi. Beda ekinlari maydoni 7 325 desyatinani tashkil etdi, beda urug‘i bug‘doydan taxminan uch baravar qimmat baholangan. Beda urug‘i Germaniya va AQShgacha eksport qilingan.

Bo‘lim ma’muriyati O‘rta Osiyoning boshqa viloyatlari bilan aloqalarni o‘rnatish uchun bir qator yo‘llar qurdi: Qoratov orqali To‘rtko‘l–Chimboy, Porli kechuvi orqali Qo‘ng‘irot–Chimboy va Orol dengizi sohiligacha bo‘lgan Oqbo‘get–Chimboy yo‘llari. Bo‘lim Qo‘ng‘irot, Emba va Uralsk orqali Orenburg bilan, Qo‘ng‘irot orqali Kaspiy dengizining Sesarevich qo‘ltig‘i bilan, Petro-Aleksandrovsk orqali Chorjo‘y va Qazali bilan bog‘landi [12; 13].

Savdo aylanmasi tez o‘sdi. 1874-yilda Xiva xonligi bilan yillik savdo aylanmasi 750 ming rublga yetdi. 1893-yilda bo‘limdan 1 361 ming rubllik 477 ming pud tovar chiqarilib, 1 112 ming rubllik 285 ming pud tovar keltirildi. Paxta xomashyosi eksporti 1899-yildagi 120 ming puddan 1906-yilda 464 ming pudga, 1911-yilda 665 ming pudga ko‘tarildi. Markaziy Rossiyadan fabrika-zavod mahsulotlari, Kiyevdan qand, Bakudan kerosin keltirilgan.

Chimboy va Petro-Aleksandrovsk eng yirik savdo markazlariga aylandi. Chimboyga 1880-yilda rasman shahar maqomi berildi. 1912–1913-yillarda uning aholisi 2 619 kishini tashkil etib, u to‘qqiz volostning savdo markazi bo‘lgan. Kuz kunlari bozorga ikki minggacha odam yig‘ilib, savdo aylanmasi 30 ming rublga yetgan [5]. Petro-Aleksandrovskda ichki savdo aylanmasi 1910-yilda o‘rtacha 700 ming rublni tashkil etgan. Xiva qoraqalpoqlari hududida Qo‘ng‘irot, Xo‘jayli, Ko‘hna Urganch, Yangiqal’a savdo markazlari bo‘lib, bozorlar haftasiga ikki marta – «kalta bozor» va «uzun bozor» kunlari o‘tkazilgan [11].

Savdoning rivojlanishi sudxo‘rlikning kuchayishi bilan birga kechdi. Paxta hisobiga olingan qarz foizi qarz summasining 20–30 foiziga, ayrim hollarda 30–50 foizgacha yetgan. Xiva xonligi aholisining taxminan 12 foizi savdo va sudxo‘rlik bilan shug‘ullangan.

Zavod sanoati sekin rivojlandi. 1882-yilda Chimboy uchastkasi boshlig‘i uchastkada aka-uka Vanyushinlarning ishlamay turgan teri oshlash zavodidan boshqa hech qanday fabrika va zavod yo‘qligini xabar qilgan. 1870-yillarda Petro-Aleksandrovskda teri oshlash va pivo zavodlari ishlagan. 1874-yilda asos solingan Penkovning teri zavodi dastlabki yillarda 15–20 ishchi bilan 10–15 ming rubllik mahsulot ishlab chiqargan, 1880-yillarda bu ko‘rsatkich yiliga 40 ming rublga yetgan.

Paxtachilikning rivojlanishi paxta tozalash korxonalarining paydo bo‘lishiga olib keldi. Dastlabki paxta tozalash zavodi 1880-yilda qurilgan bo‘lsa, 1907-yilda ularning soni 18 taga, 1913–1914-yillarda 24 taga yetdi. 1907-yilda bo‘limda 135 ta moyjuvoz, 84 ta tegirmon, 12 ta bo‘yoqchilik, 38 ta yog‘ochsozlik va 14 ta aravasozlik korxonasi, 32 ta temirchilik ustaxonasi bo‘lgan. 1910-yilda bo‘limdagi barcha korxonalarda taxminan 465 nafar ishchi ishlagan, ularning yalpi mahsuloti 570 ming rublga baholangan.

Mehnat sharoitlari juda og‘ir edi. Ish kuni 10–12, ayrim korxonalarda 16–17 soatga cho‘zilgan, xavfsizlik me’yorlari bo‘lmagan. Paxta tozalash zavodlari ishchilarining o‘rtacha yillik ish haqi 160–180 rubldan oshmagan. 1915-yilda paxta tozalash, moyjuvoz va savdo korxonalarining yetti nafar egasi 127 106 rubl foyda olgan.

An’anaviy hunarmandchilik aholi bandligining asosiy manbai bo‘lib qoldi. 1913-yilda bo‘limda taxminan 25 ming kishi (aholining 12,6 foizi) uy hunarmandchiligi bilan shug‘ullangan. Ular orasida 110 nafar temirchi-chilangar hamda 360 pud pilla yetishtirgan 335 nafar pillakor bo‘lgan [14; 16]. Xotin-qizlarning uy hunarlari – jun va paxta matolarini to‘qish, palos, kigiz va o‘tov uchun gilam buyumlarini tayyorlash keng tarqalgan.

Baliqchilik Orolbo‘yi qoraqalpoqlarining an’anaviy kasbi bo‘lgan. Moyten, balg‘ali, ashamayli va qiyot urug‘lari uchun u asosiy oziq-ovqat va daromad manbai edi. Eng qadimgi baliq ovlash quroli sanchqi bo‘lgan, u bilan bog‘liq «Sakkiz qirrali baliqni to‘qqiz qirrali yigit sanchar» degan maqol bor.

XIX asrning oxirida Orol dengizidagi baliqchilik sanoati orenburglik yirik savdogar Makeyev qo‘lida to‘plandi. Belyavskiyning ma’lumotiga ko‘ra, Ko‘kjiydali ovulida 10 nafar rus baliq sanoatchisi qo‘lida 60 ga yaqin ural kazagi va 300–400 nafar qoraqalpoq baliqchisi yollanib ishlagan. 1910-yilda Astraxan va Kavkaz baliq sanoatchilarini birlashtirgan «Xiva» aksiyadorlik jamiyati tuzildi. 1912-yilda «Aralskoye tovarishchestvo» va «Chernyak» firmalari Qo‘ng‘irotdan shimoldagi o‘zanda to‘rtta «sholan» (muz saqlash omborxonasi) qurdi.

XX asr boshida Mo‘ynoq Quyi Amudaryodagi baliqchilikning markaziga aylandi. 1912-yilgi ro‘yxatga olishga ko‘ra, bu yerda 200 ta qayiq va 18 ta «sholan»ga ega 160 rus hamda 340 qoraqalpoq va qozoq oilasi yashagan. 1913-yilda Mo‘ynoqda ovlangan baliq miqdori 600 ming pudga yetib, 1,9 million rublga baholangan. 1912–1916-yillar oralig‘ida ovlangan baliq 472 ming puddan 760 ming pudga ko‘tarildi, 1917-yilda esa baliqchilik sohasida band bo‘lganlar soni 10 ming kishiga yetdi. Baliqchilar solig‘i ham oshdi: 1888-yilda bir qayiq va bitta to‘r uchun 2 rubl to‘langan bo‘lsa, 1900-yilda bu summa 6 rublga yetgan.

Natijalar mustamlakachilik davrida qoraqalpoqlar xo‘jaligi ikki qarama-qarshi jarayon ta’sirida bo‘lganini ko‘rsatadi. Bir tomondan, yo‘llarning qurilishi, kema qatnovining yo‘lga qo‘yilishi va imperiya bozoriga chiqish tovar-pul munosabatlarini kengaytirdi. Bozorlarning tarqoqligiga chek qo‘yilib, natural xo‘jalik asta-sekin yemirildi, shaharlar o‘sa boshladi. Boshqa tomondan, bu

integratsiya teng huquqli emas edi: hudud metropoliya sanoati uchun xomashyo manbai va uning mahsulotlari uchun sotuv bozori vazifasini bajardi.

Bu holat sanoatning mazmunida yaqqol ko‘rinadi. Paydo bo‘lgan korxonalar asosan qishloq xo‘jaligi xomashyosiga dastlabki ishlov berish bilan cheklandi: paxta tozalash, teri oshlash, moyjuvoz. 1916-yilga kelib Xiva xonligidagi 36 ta paxta tozalash zavodining ko‘pchiligi Markaziy Rossiyaning 24 ta savdo-sanoat firmasi agentliklariga tegishli bo‘lgan. Mahalliy kapital esa asosan savdo va sudxo‘rlik sohasida to‘plangan.

Paxtachilikning o‘sishi dehqonlar ahvolini yaxshilamadi. Aksincha, hosil hisobidan avans berish tizimi dehqonlarning tez qashshoqlashuviga va yerlarning boylar qo‘lida to‘planishiga olib keldi. Shu sababli 1912–1913-yillardagi tekshiruv xo‘jaliklarning o‘ndan to‘qqiz qismini juda mayda xo‘jaliklar qatoriga kiritgan. Bu xulosa T.G.To‘xtametov va K.Saribayevning agrar masala bo‘yicha fikrlarini tasdiqlaydi [8; 15].

Xiva xonligidagi qoraqalpoqlarning ahvoli o‘ng sohildagilarnikidan ham og‘ir bo‘lgan. XIX asrning 90-yillarida Amudaryoning o‘ng sohilida aholining atigi 4,8 foizi ko‘chmanchi bo‘lsa, Xiva tomonida bu ko‘rsatkich 36 foizga yetgan. Buning sababi Qiyotjarg‘on va Shumanay kanallarining qurib qolishi edi: dehqonchilik bilan shug‘ullangan qoraqalpoqlar chorvachilikka o‘tishga majbur bo‘ldi. Bu misol sug‘orish tizimining holati xo‘jalik yo‘nalishini bevosita belgilaganini ko‘rsatadi.

Baliqchilikning rivojlanishi etnik va madaniy integratsiya maydoniga ham aylandi. Qoraqalpoqlar rus baliqchilaridan to‘r bilan ovlash, «kema-chana» va yangi turdagi qayiqlar kabi bir qator usullarni o‘rgandi. Shunga qaramay, baliqchilik korxonalarining egalari asosan rus sanoatchilari bo‘lib, mahalliy baliqchilar yollanma ishchi o‘rnida qoldi.

Mustamlaka boshqaruvi Quyi Amudaryoda yer-suv munosabatlarini qayta tuzdi: vaqf va saroy yerlari bekor qilindi, biroq sug‘orish majburiyatlari saqlanib, amalda kuchaytirildi. Imperiya yirik irrigatsiya inshootlarini qurmadi, dehqonlar avvalgidek chig‘ir va «aspek» tizimiga tayangan.

Yer va suvning notekis taqsimlanishi ijtimoiy qutblanishni chuqurlashtirdi: xo‘jaliklarning yarmidan ko‘pi atigi bir desyatina yerga ega bo‘lgan, boy guruh esa yollanma mehnatdan keng foydalangan. «Jarimshi», «eginsherik», «sutina», «ko‘gine», «mayina» va «toljari» kabi ekspluatatsiya shakllari dehqonlarning qaramligini mustahkamladi.

Paxtachilik va bedachilik tovar tarmoqlariga aylandi: 1895–1913-yillarda paxta hosili qariyb 3,2 baravar o‘sdi, beda urug‘i xorijga chiqarildi. Bu jarayon hududni metropoliyaning xomashyo bazasiga aylantirdi.

Yangi yo‘llarning qurilishi va suv yo‘llarining rivojlanishi savdo aylanmasini kengaytirib, natural xo‘jalikning yemirilishiga hamda Chimboy, Petro-Aleksandrovsk, Xo‘jayli kabi savdo markazlarining o‘sishiga sabab bo‘ldi.

Sanoat asosan qishloq xo‘jaligi xomashyosiga dastlabki ishlov berish bilan cheklandi, korxonalarning ko‘pchiligi tashqaridan kelgan kapitalga tegishli bo‘ldi. Mahalliy aholining bandligida an’anaviy hunarmandchilik yetakchi o‘rinda qoldi.

Baliqchilik yirik sanoat tarmog‘iga aylanib, Mo‘ynoq uning markazi bo‘ldi. Bu soha etnik va madaniy integratsiya maydoni bo‘lgan bo‘lsa-da, uning foydasi asosan rus sanoatchilariga tegishli bo‘ldi.

Tadqiqot natijalaridan Qoraqalpog‘istonning iqtisodiy tarixi bo‘yicha maxsus kurslar ishlab chiqishda, shuningdek, Quyi Amudaryodagi sanoat tarmoqlari tarixiga bag‘ishlangan hujjatli filmlar va muzey ekspozitsiyalarini tayyorlashda foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Баллыева Р. Традиционное природопользование Каракалпакии. – Нукус: Каракалпакстан, 1996.

2. Гиршфельд К.Г. Военно-статистическое описание Хивинского оазиса / Переработано начальником Амударьинского отдела Галкиным. Ч. 1. – Ташкент, 1902. – 248 с.

3. Каульбарс А.В. Низовья Аму-Дарьи, описанные по собственным исследованиям в 1873 г. // Записки ИРГО. – Кн. 9. – СПб., 1881.

4. Кондрашев С.К. Орошаемое хозяйство и водопользование Хивинского оазиса. – М., 1916.

5. Кудияров А.Р. История города Чимбая (XIX – начало XX вв.). – Нукус: Илим, 2019. – 260 с.

6. Материалы по обследованию кочевого и оседлого туземного хозяйства и землепользования в Амударьинском отделе Сыр-Дарьинской области. Вып. 2. – Ташкент, 1915.

7. Погорельский И.В. Очерки экономической и политической истории Хивинского ханства конца XIX – начала XX века (1873–1917). – Л., 1968.

8. Сарыбаев К. Аграрный вопрос в Каракалпакии (конец XIX – начало XX вв.). – Нукус: Каракалпакстан, 1972. – 320 с.

9. Сарыбаев К. История орошения Каракалпакстана. – Нукус: Каракалпакстан, 1995. – 310 с.

10. Сарыбаев М.К. Из истории хлопководства Каракалпакстана в конце XIX – начале XX века. – Ташкент: Изд-во Национальной библиотеки Узбекистана им. Навои, 2006.

11. Сейдаметова Г.У. Ходжейли – центр торговли каракалпаков (XIX – начало XX вв.) // Торговля в этнокультурном измерении: Материалы Четырнадцатых Международных Санкт-Петербургских этнографических чтений. – СПб., 2015. – С. 212–215.

12. Сейтимбетов М. Қубла Арал аймағындағы қурғақлықтағы жоллар ҳәм байланыс қураллары // ҚМУ Хабаршысы. – 2020. – № 3.

13. Сулайманов С.А. Орол денгизи ва Амударё сув йўллари тарихи (XIX асрнинг 70-йиллари – XX асрнинг 80-йилларининг биринчи ярми). – Нукус: Lesson press, 2022. – 230 б.

14. Тлеубергенова Н.А. Ремесла и промыслы каракалпаков как историко-этнографический источник // Вестник ККО АН РУз. – 2004. – № 7.

15. Тухтаметов Т.Г. Амударьинский отдел (социально-экономическое и политическое значение для Хорезмского оазиса). – Нукус: Каракалпакстан, 1977. – 287 с.

16. Утемисов А. Қарақалпақлардың өнер-кәсиплери. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1991.

17. Хозяйство Каракалпакии в XIX – начале XX века. Материалы к историко-этнографическому атласу Средней Азии и Казахстана. – Ташкент: Фан, 1971.

18. Шкапский О. Аму-Дарьинские очерки. К аграрному вопросу на Нижней Аму-Дарье. Землевладение в Шураханском участке Аму-Дарьинского отдела. – Ташкент, 1900.

19. Этнография каракалпаков. XIX – начало XX века (материалы и исследования). – Ташкент: Фан, 1980.

20. Юлдашев М.Ю. К истории крестьян Хивы XIX века. – Ташкент: Фан, 1966.

UO'K 94(575.1):351.74

O'ZBEKISTONDA SOVET MILITSIYA TIZIMINING MARKAZLASHUVI VA UNING QASHQADARYO VOHASIDA NAMOYON BO'LISHI

Poyonov B. R., o'qituvchi, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Maqolada O'zbekistonda sovet militsiya tizimining markazlashuvi, uning tashkiliy-huquqiy asoslari va ushbu jarayonning Qashqadaryo vohasidagi mahalliy tuzilmalarda namoyon bo'lishi respublikada amalga oshirilgan ma'muriy islohotlar, sovet davlat boshqaruvining markazlashuvi hamda huquq-tartibot tizimini qayta tashkil etish jarayonlari bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi tarixiy jihatdan tahlil qilinadi. XX asrning dastlabki choragida Qashqadaryo vohasida militsiya idoralarining shakllanishi, tashkiliy tuzilishi va faoliyatining asosiy yo'nalishlari maqolada yoritildi.*

Kalit so'zlar: *sovet militsiyasi, markazlashuv, O'zbekiston SSR, Qashqadaryo vohasi, ichki ishlar organlari, ishchi-dehqon militsiyasi, milliy-hududiy chegaralanish, hududiy bo'linmalar, jinoiy qidiruv, ma'muriy boshqaruv.*

Аннотация. *Аннотация. В статье анализируется исторический контекст централизации советской милицейской системы в Узбекистане, её организационно-правовые основы, а также проявление этого процесса в местных структурах Кашкадарьинского оазиса, тесно связанное с административными реформами, проведёнными в республике, централизацией советского государственного управления и реорганизацией системы правопорядка. В статье рассматриваются основные направления формирования, организационная структура и деятельность органов милиции Кашкадарьинского оазиса в первой четверти XX века.*

Ключевые слова: *Советская милиция, централизация, Узбекская ССР, оазис Кашкадарья, органы внутренних дел, рабоче-крестьянская милиция, национально-территориальное разграничение, территориальное деление, уголовный розыск, административное управление.*

Abstract. *This article provides a historical analysis of the centralization of the Soviet police system in Uzbekistan including its organizational and legal foundations and its manifestation within local structures in the Qashqadaryo oasis, demonstrating how these developments were closely linked to the administrative reforms, the centralization of Soviet state governance, and the reorganization*

of the law enforcement system carried out in the republic. The article also examines the formation, organizational structure, and primary operational focus of police agencies in the Qashqadaryo oasis during the first quarter of the 20th century.

Keywords: *Soviet militia, centralization, Uzbek SSR, Kashkadarya oasis, internal affairs bodies, Workers' and Peasants' Militia, national-territorial delimitation, territorial units, criminal investigation, administrative management.*

XX asrning birinchi choragida Turkiston va unga tutash hududlarda yuz bergan siyosiy o‘zgarishlar davlat boshqaruvi tizimining tarkibi va faoliyatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. 1917-yilgi inqilobiy voqealar, sovet hokimiyatining o‘rnatilishi, fuqarolar urushi hamda 1924-yilgi milliy-hududiy chegaralanish yangi ma’muriy tuzilmalarni shakllantirish jarayonini tezlashtirdi. Marksizm ta’limotining XX asr boshlaridagi davomchisi bo‘lgan V.I. Lenin sinfiy kurashning mohiyati, jamiyatni boshqarish va uni “proletariat diktaturasi” tamoyillari asosida qayta tashkil etish yo‘llarini ishlab chiqdi. Hokimiyat xalqning qo‘liga o‘tgandan so‘ng, uni saqlab qolish va mustahkamlash uchun maxsus nazorat organlarini tashkil etish zarurligini ko‘rsatib o‘tdi[1]. Ushbu o‘zgarishlar doirasida jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va hokimiyat qarorlarini joylarda amalga oshirishga mas’ul bo‘lgan militsiya organlarini tashkil etish lozim edi. Bu jarayonda bolsheviklar yetakchisi “…aholining barcha kambag‘al qatlamlarining ishonchiga sazovor bo‘ladigan, ularga uyushishda yordam beradigan, haqiqiy sinfiy revolyutsion kuch, proletar militsiyasini barpo etish” g‘oyasini ilgari suradi [2].

Sovet militsiyasi tarixini faqat huquqni muhofaza qilish idorasining paydo bo‘lishi sifatida talqin qilish yetarli emas. Uning keyingi taraqqiyoti markaziy hokimiyatning hududlarni boshqarish imkoniyatlarini kengaytirish, yagona me’yor va buyruqlarni joylarda tatbiq etish va ijrosini ta’minlash, shuningdek, yangi siyosiy tizimning ma’muriy tayanchlarini yaratish bilan bog‘liq bo‘lgan.

Mustabid sovet hukumati dastlabki kundanoq mamlakatda «kommunizmga sakrash» siyosatini o‘tkazishga kirishdi. Bu hol o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan Turkiston hayotining barcha jabhalarini ostin-ustun qilib, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy sohalarda har tomonlama buzilishlarni keltirib chiqardi[3].

Sovet militsiyasining tashkiliy-huquqiy asoslari 1917-yilgi inqilobiy o‘zgarishlardan keyin shakllana boshladi. RSFSR Ichki ishlar xalq komissarligi tomonidan 1917 yil 28 oktyabrda (yangi sana bilan 10 noyabr), ya‘ni oktyabr to‘ntarishidan 3 kun o‘tgach, RSFSR Ichki ishlar xalq komissarligi “Ishchi militsiyasi to‘g‘risida” qaror qabul qildi[4]. Ushbu qaror sovet militsiya tizimining dastlabki tashkiliy-huquqiy asoslarini belgilab bergan hujjatlardan biri bo‘ldi. Sovet hokimiyatining Turkistonda o‘rnatilishi ushbu tizimning mintaqa hududlariga ham bosqichma-bosqich tatbiq qilinishiga zamin yaratdi. Sovet davlat apparatining muhim bo‘g‘inlari sifatida tashkil etilgan nazorat organlari VChK (Butunrossiya favqulodda komissiyasi), GPU (Davlat siyosiy boshqarmasi), OGPU (Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasi), keyinchalik NKVD (Ichki Ishlar Xalq Komissarligi), ishchi-dehqon militsiyasi va boshqalar yangi tuzum huquq-tartibotini himoya qilishga qaratilgan tashkilotlar tarzida barpo etildi.

1918-yil yanvarida Turkiston hududida militsiyani qayta tashkil etish va kadrlar zaxirasini shakllantirishga doir buyruqlar chiqarildi, shahar va tuman militsiyasi ishini boshqaruvchi tuzilmalar yaratildi. 1919-yil 26-iyunda Turkiston ASSR Ichki ishlar Xalq Komissariatining “Rossiya sovet federatsiyasining Turkiston respublikasidagi Sovet ishchi-dehqon militsiyasi to‘g‘risida”gi nizom ushbu organning vakolatlarini belgilashga, 1920-yil 22-aprelda Turkiston ASSR Xalq komissarlari kengashi tomonidan qabul qilingan “Sovet ishchi-dehqon militsiyasi to‘g‘risida”gi nizom esa uning vazifalari va faoliyatini batafsil tartibga solishga xizmat qilish yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi. Bunday vakolatlar militsiyaning bir vaqtning o‘zida ham huquqni muhofaza qilish, ham davlat boshqaruvi topshiriqlarini bajaruvchi tuzilma sifatida shakllanganini ko‘rsatadi.

1920 yilning oxiriga kelib Turkiston ASSR hududida 34 ta shahar, 26 ta uyezd va 92 ta rayon militsiya bo‘limlari mavjud edi [5].

1924-yil 12-iyulda RKP(b) MQ Siyosiy byurosi “O‘rta Osiyo respublikalarining milliy-davlat chegaralanishi to‘g‘risida” maxsus qaror qabul qildi. Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm respublikalari hududlarida faoliyat yuritgan ichki ishlar tuzilmalari O‘zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligi tasarrufiga o‘tkazildi. Yangi tuzilma zimmasiga militsiya va jinoiy qidiruv bo‘limlari faoliyatini umumiy nazorat qilish vazifasi yuklatildi [6].

Qashqadaryo vohasida militsiya idoralari Buxoroda hokimiyat egallanganidan ko‘p o‘tmay, 1920 yil sentabr boshlarida tashkil etiladi. Militsionerlar soni tez orada 10 mingtaga yetkaziladi. 1924 yilning 31 dekabrida Behbudiy, Koson, Chim, G‘uzor, Shahrisabz, Chiroqchi, Yakkabog‘ va Kitob tumanlarida sud huzurlarida militsiya guruhlari tashkil etiladi [7]. Tumanlar ro‘yxatida nomlari keltirilgan ushbu mahalliy bo‘g‘inlar respublika miqyosidagi tuzilma bilan bog‘langanini ko‘rsatadi.

1925-yil 1-dekabrda “O‘zbekiston SSR Sovet ishchi-dehqon militsiyasi to‘g‘risida nizom” qabul qilindi. Nizomning birinchi bandiga ko‘ra, militsiya markaziy va mahalliy hokimiyatning ijro etuvchi organi sifatida inqilobiy tartib va xavfsizlikni ta’minlash yuzasidan e’lon qilingan qaror, buyruq va farmoyishlarni amalga oshirishi belgilangan [8].

Nizom militsiyaning umumiy vazifalarini belgilash orqali hududiy bo‘linmalar faoliyatini yagona tashkiliy mezonlar doirasida olib borishga zamin yaratdi.

Qashqadaryo vohasidagi mahalliy militsiya tuzilmalarining shakllanishini O‘zbekiston SSR miqyosida kechgan tashkiliy o‘zgarishlardan ajratib ko‘rib bo‘lmaydi. Qashqadaryo hududiy bo‘linmalarining mavjudligi haqidagi ma’lumotlar hududda ma’muriy boshqaruvning bir necha pog‘onali tuzilmasi shakllanganini ko‘rsatadi.

1926 yilga kelib garchi ichki ishlar idoralarini qayta tashkil etish va faoliyatini takomillashtirish masalasida tegishli huquqiy-normativ hujjatlar qabul qilingan bo‘lsa-da, 1925-1926 yillarda joylarda ularni tuzish va faoliyatini yo‘lga qo‘yishda bir qator muammolarga duch kelingan[9].

Vohaning mahalliy sharoitlari militsiya faoliyatining amaliy tashkil etilishiga ta’sir ko‘rsatgan bo‘lishi mumkin. Aholi punktlari o‘rtasidagi masofa, transport va aloqa imkoniyatlari, kadrlar bilan ta’minlash hamda mahalliy tilni bilish kabi omillar o‘sha davrdagi ko‘plab hududiy idoralar faoliyatida katta ahamiyat kasb etgan.

1928 yilning oxiriga kelib, Qashqadaryo okrugida qishloqni xonavayron qiluvchi yer-suv islohotini o‘tkazish uchun tayyorgarlik ishlarini yakuniga yetkazish ko‘rsatma kutilayotgan edi [5]. Ushbu omil Militsiya tizimining markazlashuvi boshqaruvini kuchayishiga zamin yaratadi. Bu bilan o‘lkada buyuk rus mustamlakachiligi siyosatini yurgizish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratildi va shovinistik tartib-qoida va idora qilish talablariga javob bera oladigan boshqarish uslubini joriy etdi[6]. Mahalliy kadrlar masalasi ham markazlashuvning muhim jihatlaridan biri edi. Xodimlarning kasbiy tayyorgarligi, xizmat intizomi va moddiy ta’minot idoralar faoliyatining amaliy imkoniyatlariga ta’sir ko‘rsatgan.

Qashqadaryo vohasidagi militsiya organlarining mahalliy boshqaruv idoralari bilan aloqalari, aholi murojaatlariga munosabati, jinoyatlarni qayd etish amaliyoti va kadrlar tarkibi haqida aniqroq xulosalar chiqarish uchun arxiv hujjatlari muhim ahamiyatga ega. Xususan, Qashqadaryo hududiy ijroiya qo‘mitasi qarorlari, ichki ishlar organlarining yillik hisobotlari, kadrlar ro‘yxatlari va intizomiy ishlar mazkur masalalarni yoritishi mumkin. Shu bilan birga, voha misolida markazlashuvning amaliy natijalarini to‘liq yoritishga imkon etiladi.

Xulosa va takliflar. O‘zbekistonda sovet militsiya tizimining markazlashuvi 1917-yildan boshlangan tashkiliy jarayonlarning 1924-1926-yillarda respublika miqyosida yangi bosqichga ko‘tarilishi bilan tavsiflanadi. Turkiston ASSR davrida militsiya boshqaruvining dastlabki shakllari va huquqiy asoslari yaratilgan bo‘lsa, O‘zbekiston SSR tashkil topganidan keyin avvalgi ma’muriy birliklarda faoliyat yuritgan ichki ishlar organlari yagona respublika boshqaruvi doirasiga kiritildi.

Qashqadaryo viloyat bo‘linmasi hamda Kitob, Shahrisabz va G‘uzor tuman bo‘linmalarining rasmiy tarixiy manbalarda qayd etilishi vohaning respublika militsiya tizimiga tuzilmaviy jihatdan kiritilganini tasdiqlaydi. Ushbu bo‘linmalar markaziy boshqaruv va mahalliy ijro o‘rtasidagi tashkiliy

aloqaning hududiy ko‘rinishi bo‘lgan. Biroq ularning tashkil topgan aniq sanalari, shtat tarkibi va amaliy faoliyatini chuqur yoritish uchun mahalliy arxiv manbalari bilan ishlash zarur.

Tadqiqotdan kelib chiqadigan asosiy xulosa shuki, sovet militsiyasining markazlashuvi faqat idoraviy bo‘ysunuvni o‘zgartirishdan iborat bo‘lmagan. U hududiy boshqaruvni mustahkamlash va siyosiy-ma’muriy nazoratni joylarda amalga oshirish jarayoni bilan ham bog‘liq edi. Qashqadaryo vohasidagi tajribani chuqurroq anglash uchun kadrlar hujjatlari va ijroiya qo‘mitalari materiallari bilan o‘rganish kelgusidagi tadqiqotning asosiy yo‘nalishi bo‘lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ерметов Аваз Абдуллаевич. Ўзбекистонда ички ишлар органлари фаолияти (1925-1991 йй.). диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2019.

2. М. Жўраев, Б. Нуруллин, С. Камолов ва бошқ. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб: Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Т.: «Шарқ», 2000.

3. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi. Vazirlik tarixi. “Turkistonda ishchi-dehqon militsiyasining tashkil etilishi va faoliyati (1917-1924 yy.)” bo‘limi Elektron manba. URL: https://gov.uz/oz/iiv/pages/vazirlik-tarixi

4. Д. А. Алимова. Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликларини талаш сиёсати: тарих шоҳидлиги ва сабоқлари (1865-1990 йиллар) – Т., «Шарқ», 2000.

5. Равшанов П. Қамоқ салтанати. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2014.

6. Ерметов А. Ўзбекистонда ички ишлар органлари фаолияти (1925–1991 йиллар). – Тошкент: «Адабиёт учқунлари», 2018.

7. Равшанов П. Қизил салтанат исканжасида. Тажовуз.(Хужжатлардаги тарих) Уч жилдлик. Биринчи жилд. – Т.: Sharq, 2011.

8. Доклад Центрального Исполнительного Комитета Советов Узбекской социалистической советской Республики. – Самарканд: ЦИК УзССР, 1925.

9. Шамсутдинов Р. ва бошқ. Ватан тарихи (Учинчи китоб). – Т.: «Шарқ», 2010.

UO'K 94(575.172):556.18

MUSTAQILLIK YILLARIDA QORAQALPOG‘ISTONNING SUVDAN FOYDALANISH SIYOSATI VA UNING ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHDAGI O‘RNI

A.Sh.Qaypnazarov, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Nukus

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘istonning suvdan foydalanish siyosati va Qoraqalpog‘iston uchun suv ta’minoti hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan. Ta’kidlash lozimki, mustaqillikning dastlabki yillarida mintaqadagi ekologik vaziyatni yaxshilash uchun ishlab chiqilgan dasturlarni amalga oshirish ma’lum qiyinchiliklarni keltirib chiqargan.*

Kalit so‘zlar: *Quyi Amudaryo, Irrigatsiya tizimi, Qoraqalpog‘iston, ekologik xavfsizlik, aholi, Orol dengizi havzasi, kollektor.*

Аннотация. *В данной статье представлена информация о политике водопользования Каракалпакстана в годы независимости и объеме водоснабжения Каракалпакстана. Следует отметить, что в первые годы независимости реализация программ, разработанных для улучшения экологической ситуации в регионе, создавала определенные трудности.*

Ключевые слова: *Нижняя Амударья, ирригационная система, Каракалпакстан, экологическая безопасность, население, бассейн Аральского моря, коллектор.*

Abstract. *This article presents information on the water use policy of Karakalpakstan during the years of independence and the volume of water supply for Karakalpakstan. It should be noted that in the early years of independence, the implementation of programs developed to improve the environmental situation in the region created certain difficulties.*

Key words: *Lower Amu Darya, Irrigation system, Karakalpakstan, environmental safety, population, Aral Sea basin, collector.*

O‘z davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgan O‘zbekiston Respublikasi sobiq Ittifoq boshqaruvi davridan noqulay ekologik muhit va bir qator ekologik muammolarni meros qilib oldi. Davlat oldida sovet davridan qolgan noqulay ekologik muhit va uning bir qator muammolarini bartaraf etish kabi vazifalar turgan. Bunday keskin ekologik vaziyatlar sobiq ittifoq tarkibiga kirgan boshqa respublikalarning deyarli barchasida, shu jumladan, Janubiy Orolbo‘yi mintaqasi turli tumanlarida

ham kuzatildi. Avvallari belgilangan iqtisodiy maqsadlarga erishish asosan ustuvor vazifa bo‘lib, atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rasmiyatchilik sifatida qaralib, muammoga jiddiy e’tibor berilmagan edi.

O‘zbekiston hukumatining suv xo‘jaligiga oid siyosatining asosiy maqsadi suvdan oqilona foydalanishni rag‘batlantirish va suv resurslarini muhofaza qilishdan iborat etib belgilandi. Shuningdek, mamlakatimiz suv xo‘jaligini boshqarish samaradorligi va ishonchliligini oshirish, suv ta’minotini kafolatlangan holda ta’minlash hamda mavjud infratuzilmani rekonstruksiya qilish, ulardan foydalanish va muhofaza qilish bo‘yicha ham jamiyatga [1], ham tabiiy ekotizimlarga xizmat ko‘rsatish asosiy vazifalardan hisoblangan.

1991-yili sobiq ittifoq parchalanib ketganidan so‘ng, 1993-yilda besh davlat rahbarlari tomonidan Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi tuzish bo‘yicha chora-tadbirlar qabul qilingan va 1994-yil 11-yanvarda Orol dengizi havzasida, shu jumladan, Orolbo‘yi mintaqasida ekologik vaziyatni yaxshilash bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar rejasi tasdiqlanmaguncha bu yillar oralig‘ida boshlangan ishlar to‘xtatildi. Xususan, mazkur yig‘ilishda «Orol dengizi qurigan tubi va unga tutash bo‘lgan hududlarda, Amudaryo va Sirdaryo deltalarida sun’iy landshaft ekotizimlarini yaratish bo‘yicha ishlarni olib borish, unga tegishli loyihalarni ishlab chiqish bo‘yicha muhandislik yechimlarini tadqiq etish va ishlab chiqish to‘g‘risida»gi Qaror qabul qilindi va ushbu hududlarning tabiiy-tarixiy rejimini tiklash va obodonlashtirish maqsadida zarur meliorativ tadbirlarni amalga oshirish ishlari belgilab olindi [12].

1991-yilda SSSR parchalanishi bilan Orol dengizini saqlash va qayta tiklash hamda Orolbo‘yi mintaqasida ekologik vaziyatni normallashtirish konsepsiyasida (Asosiy qoidalar ..., 1991-yil) belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha ishlar olib borish boshlanmagan, ammo Orol havzasida joylashgan davlatlar mavjud suv resurslaridan birgalikda oqilona foydalanish muhim ahamiyatga ega ekanligini anglab, 1992-yil 18-fevralda Olmaota shahrida “Davlatlararo suv resurslaridan foydalanish manbalarini muhofaza qilishni birgalikda boshqarish sohasida hamkorlik to‘g‘risida bitim” imzolashdi, 1993-yil 26-martda esa Qizil O‘rda shahrida Orol va Orolbo‘yi muammosini hal qilish, Orol dengizi havzasining butun mintaqasini ekologik sog‘lomlashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha birgalikdagi harakatlar to‘g‘risida shartnoma imzolandi [14].

MDH davlatlarining Markaziy Osiyodagi (Qozog‘iston Respublikasi, Qirg‘iziston Respublikasi, Tojikiston Respublikasi, Turkmaniston va O‘zbekiston Respublikasi) Orol dengizi va Orolbo‘yi muammosini hal etish, atrof-muhitni tiklash [3; 4] va Orol mintaqasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash to‘g‘risidagi bitim bo‘yicha birgalikdagi harakatlar olib borildi. Ushbu Bitimda ekologik inqirozdan chiqish va mintaqada ekologik xavfsizlik tizimini yaratish uchun moddiy va moliyaviy resurslarni birlashtirish zarurligi hamda dolzarbligi qayd etilgan. Bu kelishuvlar doirasida, Davlatlararo muvofiqlashtiruvchi suv xo‘jaligi komissiyasini tashkil etish ko‘zda tutilgan bo‘lib, uning vazifasi suv resurslarini va suv taqsimotini operativ boshqarish, bosh inshootlarni, davlatlararo daryo va kanallarni saqlash, transchegaraviy suv oqimlarida suvni tejash [7; 8; 9], suv oqimini bashorat qilish va hisobga olish va boshqalar belgilangan.

O‘zbekistonning asosiy suv resurslari transchegaraviy daryolar, ya’ni Amudaryo va Sirdaryo o‘zanlarining irmoqlari bilan, shuningdek, Qashqadaryo va Zarafshon daryolari tomonidan hosil bo‘lgan yer usti oqimi zaxiralari hisoblanadi [5]. Amudaryo oqim jihatidan eng katta daryo bo‘lib, Orol dengizi havzasining umumiy suv resurslarining 2/3 qismiga to‘g‘ri keladi. Amudaryo 2540 km uzunlikda, shu jumladan, O‘zbekiston hududi bo‘ylab 1000 km ga yaqin joylarni o‘z ichiga oladi. Havza keng maydonni (taxminan 1327000 km^2) egallaydi. Amudaryo havzasining O‘rtacha yillik oqimi (Zarafshon daryosidan tashqari) taxminan 74,22 km^3 (74 220 mln m^3) ga teng. Oqimning 5% (yuqori darajadagi namlik yil) va 95% (quruq yil) yillik oqimi asoslanishi mos ravishda 102 million m^3 va 55,1 million m^3 ni tashkil qiladi [6].

Suv resurslarini irrigatsion boshqarishning milliy strategiyasini ishlab chiqish O‘zbekistonda mavjud to‘siqlarni yengib o‘tishga va demografik o‘sish, migratsiya va aholining o‘sib borayotgan ehtiyojlari bilan bog‘liq suvdan foydalanish va yerdan foydalanishdagi o‘zgarishlarga moslashishga yordam beradi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi tomonidan, respublika vazirligi, tuman hokimiyatlari va boshqa idoralar tomonidan suv xo‘jaligi, melioratsiya ishlari, respublika bo‘yicha sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, kanallarni qurish, ta’mirlash, tozalash va boshqa bir qator ishlar amalga oshirilgan [16]. Amalga oshirilgan ishlar natijasida sug‘oriladigan yerlardan yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hosildorligi sezilarli darajada oshdi. Har yili respublika kollektorlari tomonidan 2,0-3,0 mlrd kub metr drenaj va chiqindi suv ajralib chiqadi, bu umumiy suv yig‘imining 30-35% ini tashkil qiladi. Keyinchalik 1993-1999-yillarda mana shu yo‘nalishda suv omborlari va boshqa suv havzalari, daryolar, magistral kanallar va kollektorlarning suvni muhofaza qilish hududlari, shuningdek, ichimlik suvi va maishiy suv ta’minoti manbalari, tibbiy va madaniy dam olish uchun Qoidalar qabul qilingan [18]. Qoraqalpog‘iston Vazirlar Kengashining (1992-yil 24-iyundagi 146/6-son) qabul qilingan qarorida kanallarda qurilgan to‘siq inshootlari yetarli emasligi sababli suv nasos agregatlari orqali ta’minlanishi qayd etilgan [18].

Qoraqalpog‘istonda 1991–1999-yillarda sug‘orish uchun berilgan suv hajmi quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval). Qoraqalpog‘iston uchun suv ta’minoti hajmi yildan yilga o‘zgarib turdi. Har bir sug‘orish tizimi uchun taqsimlanadigan suv hajmi Quyi Amudaryo havzasi irrigatsiya tizimlari boshqarmasi (AITB) tomonidan Amudaryo suv oqimi prognozi asosida belgilanadi [10]. Quyi Amudaryo havzasi irrigatsiya tizimlari boshqarmasi sug‘orish davrida Tuyamo‘yin to‘g‘onining suv saqlash hajmi va Amudaryoning suv oqim rejimining o‘zgarishiga qarab har bir sug‘orish tizimi hajmining taqsimlanishini vaqti-vaqti bilan o‘zgartiradi [9]. Zarurat tug‘ilganda, Quyi Amudaryo havzasi irrigatsiya tizimlari boshqarmasi har bir kanal bo‘yicha suv taqsimotini o‘zgartirish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Ushbu qaror irrigatsiya tizimi boshqarmalari orqali barcha suvdan foydalanuvchilar uyushmalariga yetkaziladi. [19]

1-jadval

Qoraqalpog‘istonda 1991–1999-yillarda sug‘orish uchun Amudaryodan berilgan suvning o‘rtacha oylik sarfi

O‘rtacha oylik suv sarfi (m^3/s)													
Yillar	**I**	**II**	**III**	**IV**	**V**	**VI**	**VII**	**VIII**	**IX**	**X**	**XI**	**XII**	**O‘rtacha yillik**
1991	767	727	995	675	1250	2340	2160	1000	1230	720	321	660	1070
1992	938	855	913	677	2400	3550	3980	1770	1410	448	756	483	1520
1993	488	751	1200	538	1660	3000	3200	1570	855	454	299	550	1210
1994	623	671	1300	902	1030	1890	3560	2770	1300	797	416	651	1330
1995	715	908	655	181	810	899	1450	1310	487	299	259	279	687
1996	196	353	830	461	1070	1510	2280	1770	758	484	413	445	881
1997	249	423	459	351	941	880	995	1030	674	161	138	180	532
1998	113	621	980	710	2420	3270	3820	2980	1250	571	604	670	1500
1999	326	705	549	364	972	1150	1680	1680	633	388	269	717	786

Albatta, sug‘orish kanallarining hozirgi texnik holati zamon talablariga javob bermaydi. Kollektor-drenajlarning juda sho‘r suvlarining Amudaryoga quyilishi hali ham davom etgan [16]. Oqibatda daryo suvlarining O‘rtacha yillik sho‘rligi 1,17–1,20 g/l ko‘rsatkichga yetgan [17].

So‘nggi yillarda respublikamizda suvdan oqilona foydalanish madaniyatini keng targ‘ib qilishga e’tibor kuchaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-dekabrdagi PQ-439-son qaroriga ko‘ra, 2023-yil 1-yanvardan yer osti suvlarining ko‘p yillik o‘rtacha sathiga nisbatan 5 metrdan ortiq pasaygan hududlarda sug‘orish va ishlab chiqarish uchun gidrogeologik xulosa berish, yer osti suv quduqlarini burg‘ilash hamda mavjud quduqlardan suv tejovchi texnologiyalarsiz sug‘orish taqiqlangan. Bunda tasdiqlangan davlat dasturlari doirasida va jismoniy shaxslar tomonidan 25 metrgacha chuqurlikdagi quduqlarni burg‘ilash, shuningdek, shaxsiy ehtiyojlar uchun sutkasiga 5 m^3 gacha suv olish istisno etilgan. Sug‘orishda suv tejovchi texnologiyalar qo‘llanmaganda burg‘i quduqlaridan foydalanishni taqiqlash Davlat geologiya qo‘mitasi huzuridagi Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasi vakolatiga kiritilgan [20].

Shunday qilib, mustaqillik yillarida Quyi Amudaryo irrigatsiya tizimi ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, Shumanay, Qo‘ng‘irot, Kegayli, Chimboy va Qorao‘zak tumanlaridagi paxta ekilgan maydonlarda sug‘orish qayta-qayta amalga oshirilgan. 2008-yilda sug‘orish muddati sezilarli darajada qisqartirilgani bois, vaziyat naqadar jiddiy ekanini tasavvur qilish mumkin [13; 14].

Ta'kidlash lozimki, mustaqillikning dastlabki yillarida mintaqadagi ekologik vaziyatni yaxshilash uchun ishlab chiqilgan dasturlarni amalga oshirish ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Chunki qo'shni davlatlar ham qator kelishuvlarga qo'shilib, uni qo'llab-quvvatlasa-da, amalda sezilarli harakatlar olib borilmadi. Bu esa mavjud vaziyatning yanada qiyinlashishiga zamin yaratdi. Endilikda respublika oldida atrof-muhitni muhofaza etishdek dolzarb vazifalar turar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Акрамов З., Рафиков А. Прошлое, настоящее, будущее Аральского моря. Ред. Н. А. Кривоносова. – Ташкент: МЕХНАТ.1990. – С.144;

2. Глазовский Н. Ф. Аральский кризис, причины возникновения и пути выхода – Москва: Наука, 1990. - 134 с.;

3. Зиёмухаммедов Б. Экология: тарих, назария и ҳозирги замон. – Тошкент: Меҳнат, 1990. - 79 б.;

4. Орешкин Д. Арат: беда воды, беда людей // Химия и жизнь. — 1989. -№ 8. – С. 2-7;

5. Мирзаев А. Суғориладиган ерларни самарали бошқаришни ташкил этиш соҳасида экологик назорат ва экспертиза ташкилотлари фаолиятини такомиллаштириш //Iqtisodiyot va ta'lim. – 2021. – №. 5. – С. 48-54.;

6. Портал знаний о водных ресурсах и экологии Центральной Азии CAWater-Info как яркий пример регионального сотрудничества // http://www.cawater-info.net

7. Социально-экономические проблемы охраны окружающей среды // Проблемы регионального природопользования в Узбекистане. – Ташкент: Фан, 1984;

8. Хашимова И. Диалектика соотношения глобального и зонального в экологии. – Ташкент: Фан. 1986. - 122 с.;

9. Юриц А. А. Восстановление экономического потенциала и проведение необходимых природоохранительных мероприятий в дельте Амударьи. – Нукус, 1986. – 172 с.;

10. Ўзбекистонда дренаж лойиҳасини дастлабки ўрганиш. «Мот-Макдональд-Темельсу» ЖБ лойиҳаси, 1, 2-босқич, 1996-1999.

11. ЎзМА, 2742-фонд, 1-рўйхат, 13-иш. 131-варақ.

12. ЎзМА, Р-837-фонд, 41-рўйхат, 7469-иш, 32-45-варақлар.

13. ҚРМДА, 1-фонд, 58-рўйхат, 211-иш, 33-35-варақлар.

14. ҚРМДА,1-фонд, 16-рўйхат, 374-иш, 36-варақ.

15. ҚРМДА, М-500-фонд, 1-рўйхат, 213-иш, 1-5 ва 10-16-варақлар.

16. ҚРМДА, М-500-фонд, 1-рўйхат, 23-иш, 83-87-варақлар.

17. ҚРМДА, М-500-фонд, 1-рўйхат, 23-иш, 88-89-варақлар.

18. ҚРМДА, М-500-фонд, 1-рўйхат, 33-иш, 120-варақ.

19. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси (1992 йил 8 декабрда қабул қилинган таҳрир) // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси. — 1993. — № 1. — 4-модда. — https://www.lex.uz/ru/docs/20596.

20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-dekabrdagi PQ-439-son «Yer osti suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori. — https://lex.uz/uz/acts/-6311240.

UÖK 94(575.1):39(=411.21)

ZARAFŞON VOHASIDA ARAB JAMOALARINING JOYLAŞUVI TARIXI

Qurbonov E. Q., tarix fani öqituvçisi, Şarof Raşidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 1-son akademik litseyi, Samarqand

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Zarafşon vohasiga turli tarixiy bosqiçlarda etnik jamoalarning kirib kelişi, joylaşuvi va mahalliy madaniyatlar bilan qorişuv jarayonlari yoritilgan. Xususan, mintaqaga arab jamoalarining kirib kelişi, muqim örnaşuvi hamda ularning şakllaniş bosqiçlari tahlil qilinadi. Şuningdek, tadqiqotda Samarqand viloyati arab jamoalarining hududiy joylaşuvi, tabiiy-geografik xususiyatlari hamda an'anaviy xöjalik yuritiş madaniyatining özіga xos jihatlari oçib berilgan.*

Kalit sözlar: *Zarafşon vohasi, Samarqand, arab jamoalari, migratsiya, etnik integratsiya, etnolingvistika, an'anaviy xöjalik.*

Аннотация. *В статье освещаются процессы проникновения, расселения и взаимодействия различных этнических групп с местными культурами в Зеравшанской долине на различных исторических этапах. В частности, анализируются процессы миграции, оседлого расселения и этапы формирования арабских общин в регионе. Кроме того, в исследовании раскрыты особенности территориального размещения, природно-*

географические характеристики и специфика традиционной хозяйственной культуры арабских общин Самаркандской области.

Ключевые слова: *Зеравшанская долина, Самарканд, арабские общины, миграция, этническая интеграция, этнолингвистика, традиционное хозяйство.*

Abstract. *This article examines the influx, settlement, and integration of various ethnic groups into the Zarafşan Valley across different historical stages, along with their interaction with local cultures. Specifically, it analyzes the migration, permanent settlement, and formative phases of Arab communities in the region. Furthermore, the study highlights the geographic distribution, environmental çaracteristics, and traditional economic and subsistence patterns of the Arab communities in the Samarkand region.*

Keywords: *Zarafşan Valley, Samarkand, Arab communities, migration, ethnic integration, ethnolinguistics, traditional economy.*

Kiriş. Bizga ma'lumki, Zarafşon vodiysi tabiiy-geografik joylaşuvi va ahamiyatiga köra faqatgina Özbekistonning emas, balki Örta Osiyo mintaqasining markaziy qismi hisoblanadi. Şu boisdan bu hudud asrlar davomida iqtisodiy va siyosiy jarayonlarning tranzit markazi sifatida köplab tarixiy voqealarni boşdan keçirgan. Uşbu qulay şaroit va ijtimoiy-siyosiy omillar turli tarixiy bosqiçlarda har xil xalq va elatlarning mintaqaga kirib kelib, doimiy örnaşib qolişlariga hamda özaro madaniyatlar qorişuviga zamin yaratdi. Aynan şu sababli ham bugungi kunda voha aholisi etnik tarkibining şakllanişi öziga xos murakkab va şu bilan birga g'oyat qiziqarli tarixga ega. Xususan, bunday köp qatlamli etnokultural jarayonlar natijasida vodiy arab jamoalarining ham doimiy makonlaridan biriga aylandi. Bugungi kunda Zarafşon vohasining Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlarida, şuningdek, uşbu mintaqa bilan geografik, tarixiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan uzviy bog'liq bölgan Qaşqadaryo va Surxondaryo hududlarida arablar ziç yaşab kelayotgan önlab aholi manzilgohlarini uçratiş mumkin. Zero, "…arablarning O'rta Osiyodagi manzilgohlari qançalik keng yoyilganligini anglaş uçun istalgan batafsil xaritaga nazar taşlaş kifoya: deyarli şunday bir rayon yo'qki, unda "Arab" yoki "Arabxona" nomli qişloqlar bo'lmasin" [1. 114].

Asosiy qism. Mintaqaga arab jamoalariga mansub aholining kirib kelişi va joylaşuvi ming yillikdan oşiqroq tarixga ega. Şu bilan birga, uşbu jarayon uzoq davr mobaynida turli ijtimoiy-siyosiy hamda etnodemografik omillar ta'sirida bosqiçma-bosqiç keçgan bölib, uni ilmiy jihatdan tizimlaştiriş va davriylaştiriş masalasi tarixşunoslikda uzluksiz tadqiq etib kelinmoqda. B.X. Karmişeva takidlaganidek "Tarixiy manbalar ma'lumotlari, şuningdek, tilşunoslik, etnografik va antropologik materiallar arablarning O'rta Osiyoga yagona bir hududdan va bir vaqtning o'zida kelmaganligini aniq ko'rsatib turibdi" [2. 249]. Albatta, sovet davri olimlari B.X. Karmişeva, S. L. Volin, G. V. Sereteli va I. N. Vinnikovlarning tadqiqotlari asosida arablarning O'rta Osiyoga qaçon ko'çib kelgani va ularning qaysi arab mamlakatlaridan çiqqanligi xususidagi masalalar atrofliça tahlil qilingan. Tarixçi olim Ş. Iskandarov takidlab ötganidek, "Örta Osiyoga arablarning kirib kelişini uç davrga böliş mumkin" [3. 51]. Zero, har bir davr özining tarixiy-siyosiy xususiyatlari, arab jamoalarining kirib kelişi sabablari va ularning mintaqaning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy hayotiga ta'siri bilan ajralib turadi.

Şubhasizki, arablarning mintaqaga kirib kelişining birinçi bosqiçi Arab xalifaligi istilolari hamda islom dinining yoyiliş jarayonlari bilan boğliq bölib, VII asr örtalaridan VIII asr oxirigaça bölgan davrni öz içiga oladi. Uşbu davrda Zarafşon vohasi va unga tutaş hududlarga harbiy-ma'muriy hamda diniy-taşviqot maqsadlarida kelgan arab bölinmalari joylaştirilib, ular mintaqada islomiy infratuzilma va etnik mavjudlikning dastlabki tayanç nuqtalarini şakllantirdilar. B.X. Karmişeva ta'kidlaganidek, VII–VIII asrlarda Movarounnahrning boş şaharlari — Buxoro va Samarqandda arablardan iborat yirik garnizonlar qoldirilgan bölib, Buxoroda ularga poytaxt aholisi uylari va yerlarining yarmi berilgan edi [2. 250]. Britaniyalik taniqli şarqşunos H. A. R. Gibb özining fundamental tadqiqotida uşbu jarayonni tahlil qilib, xalifalik siyosatining ustuvor yönalişi sifatida mahalliy markazlarda harbiy qarorgohlar barpo etiş va boşqaruvni mustahkamlaşga alohida e'tibor qaratilganini körsatib ötgan [4. 38-41].

Örta Osiyoga arab migratsiyasining ikkinçi bosqiçini umumiy holda IX–XV asrlarni öz içiga oladi deyiş mumkin. Qolaversa, uşbu jarayonni çuqurroq oçib beriş maqsadida uni içki jihatdan ikki davrga — IX–XII asrlar hamda XIV–XV asrlarga bölib örganiş ilmiy jihatdan yanada maqsadga muvofiqdir. Jumladan, V. V. Bartold örta asr geografi al-Istaxriy ma'lumotlariga tayanib, arablar X asrdayoq Samarqanddan şimolda joylaşgan Vedar qişloği va rustagida to'planganligini qayd etib o'tgan [1. 124]. Garçi hozirgi kunda ham Samarqand va Kattaqörğon arablari orasida öz ajdodlarining bu hududlarga köçib kelişlarini Amir Temur bilan boğlaş va buni asoslovçi rivoyatlar keltiriş odatiy holat bölsa-da, biroq S. L. Volin ta'kidlaganidek, uşbu fikr va rivoyatlarning haqiqiyligiga şubha tuğdiruvçi köplab mulohazalar mavjud [2. 251]. Arab immigratsiyasining uçinçi bosqiçi XVI–XIX asrlarga tög'ri keladi. Şu davrda köçib kelib örnaşgan arablarning juda köpçilik qismi hunarmandlar va kosiblardan taşkil topgan [3. 52].

Arab jamoalari aholisining uzoq davr mobaynida Zarafşon vohasida öz atrofidagi mahalliy özbek va tojik aholisi bilan yagona hududiy, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy muhitda yaşab kelayotganliklari, qolaversa e'tiqod jihatidan farqlarning yöqligi kabi omillar ta'sirida mahalliy xalqlar bilan etnik qorişuvi sodir bölgan. Bu holat ayniqsa til masalasida yaqqol namoyon böladi. Zarafşon vohasi arab jamoalari aholisi içida hozirgi kunda hatto özaro oilaviy suhbatlarda ham özbek yoki tojik tilidan foydalaniş odatiy holatga aylangan. Xususan, B.X. Karmişevaning "Samarqand viloyatida arab tilining tojik yoki o'zbek tili bilan butunlay almaşinuvi XX asr boşlarida yakunlangan" deya bergan xulosasi ham yuqoridagi fikrlarning ilmiy asosini taşkil etadi [2. 52]. Umuman olganda Zarafşon vohasi, ayniqsa Samarqand va Kattaqörğon hududlarida yaşovçi arablar içida til bilan boğliq bu jarayon boşqa hududlarga qaragandan kuçliroq sodir bölgan deyişimiz mumkin. Fikrimizça, bunaqa etnolingvistik holatga Zarafşon vohasining qadimdan yirik şaharsozlik, savdo-sotiq va madaniy markaz bölgani, şuningdek, mahalliy özbek va tojik aholisi bilan uzluksiz iqtisodiy-ijtimoiy hamda maişiy aloqalar sabab bölgan.

Özbekiston hududida yaşovçi arablarning salmoqli qismi Zarafşon vodiysi, ayniqsa Samarqand viloyati hududlarida istiqomat qilib kelmoqda. Ular asrlar davomida asosan viloyatning markaziy, şimoliy-ğarbiy va ğarbiy tumanlarida öz qişloqlari hamda mahallalarini barpo etişgan. Samarqand viloyati arablarining yaşaş hududlari, tabiiy-geografik xususiyatlari hamda aholining an'anaviy xöjalik yuritiş turlariga köra ularni şartli ravişda 3 ta guruhga böliş maqsadga muvofiqdir:

Birinçi guruh — Zarafşon daryosi havzasi hamda undan çiqarilgan tarmoqlar, xususan, Darg'om kanali böylab joylaşgan arab jamoalarining aholi manzilgohlaridir. Uşbu qişloqlar sug'orma dehqonçilik uçun öta qulay hududlarda joylaşgani tufayli, ularning aholisi azaldan, asosan, dehqonçilik va bog'dorçilik bilan şug'ullanib kelgan. Jumladan, Samarqand, Kattaqörg'on va Narpay tumanlarida umumiy «Arabxona» nomi bilan ataluvçi qator qişloqlar, şuningdek, Kattaqörg'on tumanidagi «Arabqişloq» hamda Narpay tumanidagi «Arabboy» kabi aholi punktlarida istiqomat qiluvçi arablar neça asrlardan buyon dehqonçilik, bog'dorçilik va ularga tutaş xöjalik tarmoqlarini an'anaviy turmuş tarzi sifatida saqlab kelmoqda.

Ikkinçi guruh — Samarqand viloyatining janubiy-g'arbiy hududlaridagi Örtaçöl daştida joylaşgan va aholisi, asosan, çorvaçilik bilan şug'ullanadigan qişloqlardir. Bu hududlardagi arab jamoalari azaldan çorvaçilik, xususan, qoramolçilik hamda mayda şoxli çorvani köpaytiriş borasida boy amaliy tajribaga ega bölib kelgan.

Uçinçi guruhga esa şahar hududlari va ularga tutaş atrof-muhitda joylaşgan arab jamoalarining aholi manzilgohlarini kiritiş mumkin. An'anaviy şahar muhitiga mos ravişda, uşbu jamoalar azaldan xöjalik yuritişda hunarmandçilik va savdo-sotiq sohalarini ustuvor deb bilişgan. Xususan, Samarqand, Kattaqörg'on, Ziyovuddin (Paxtaçi), Juma (Pastdarg'om) şaharlarida hamda ularga yondoş aholi maskanlarida arablar uzoq davrlardan buyon alohida mahallalar yoki ixçam guruhlar şaklida istiqomat qilib kelgan. Biroq yaqin tarixiy davr mobaynida faol urbanizatsiya va etnodemografik jarayonlar ta'sirida bu kabi mahallalarning etnik qiyofasi ham özgarib, tobora rang-baranglaşib bormoqda.

Xulosa. Xulosa örnida ta'kidlaş joizki, arablarning Özbekiston hududiga kirib kelişi va uning keyingi tarixiy taraqqiyot bosqiçlariga nazar taşlasak, ular özbek xalqining köp asrlik etnografik va tarixiy qiyofasining şakllanişida öziga xos iz qoldirganini körişimiz mumkin. Xususan, Zarafşon

vohasi, jumladan, bugungi Samarqand viloyati hududida asrlar davomida istiqomat qilib kelayotgan arab jamoalarining mahalliy aholi bilan etnolingvistik qorişuvi hamda ularning mintaqa xöjaligi va madaniy hayotidagi örni va ta'sirini alohida ilmiy yondaşuv asosida tadqiq etiş muhim amaliy hamda nazariy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RÖYXATI:

1. С. Л. Волин. К истории среднеазиатских арабов. (труды второй сессии ассоциации арабистов 19—23 октября 1937 г.). Москва, Ленинград.

2. «Издательство Академии наук СССР». 1941, с.114

2. Б. Х. Кармышева. Очерки этнической истории районов Таджикистана и Узбекистана. Москва. 1976, с.249

3. Ş. Iskandarov. O'zbekiston arablari: an'analar va transformatsion jarayonlar. Toshkent. Yangi nashr. 2017, 51-bet.

4. Gibb H. A. R. The Arab Conquests in Central Asia. — London: The Royal Asiatic Society, 1923. — P. 38–41.

5. Turakulov E., Shonazarov Sh. Darg'omlik al-arab avlodlari. Samarqand: So'g'diyona, 1998

UO'K 001.32:94(575.171)

XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR BO'LIMI FAOLIYATIDA AKADEMIK ISLOHOTLAR

D.Sh.Rajabova, katta ilmiy xodim, Xorazm Ma'mun akademiyasi, Xiva

Annotatsiya. *Maqolada O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimini takomillashtirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 27 dekabrdagi PQ-390-son qarori ijrosi doirasida hududiy ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini modernizatsiya qilish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Xorazm Ma'mun akademiyasi Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'limi misolida voha tarixi, moddiy-madaniy merosini o'rganish, ilmiy kadrlar tayyorlash hamda tadqiqot natijalarini xalqaro standartlarga moslashtirishning asosiy yo'nalishlari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Xorazm Ma'mun akademiyasi, PQ-390-son qaror, Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'limi, moddiy madaniyat, manbashunoslik.*

Аннотация. *В статье анализируются вопросы модернизации деятельности региональных научно-исследовательских учреждений в контексте реализации нормативно-правовых актов, направленных на совершенствование системы Академии наук Республики Узбекистан, в частности постановления Президента Республики Узбекистан от 27 декабря 2025 года № ПП-390. На примере Отдела социально-гуманитарных наук Хорезмской академии Маъмуна освещены ключевые направления исследования истории и материально-культурного наследия оазиса, подготовки научных кадров и адаптации результатов исследований к международным стандартам.*

Ключевые слова: *Хорезмская академия Маъмуна, постановление № ПП-390, отдел социально-гуманитарных наук, материальная культура, источниковедение.*

Abstract. *The article analyzes the issues of modernizing the activities of regional research institutions within the framework of implementing regulatory legal acts aimed at improving the system of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, particularly the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. RP-390 dated December 27, 2025. Using the Department of Social Sciences and Humanities of the Khwarazm Mamun Academy as a case study, the paper highlights the key directions for studying the history and material-cultural heritage of the oasis, training academic personnel, and adapting research outputs to international standards.*

Key words: *Khwarazm Mamun Academy, Resolution No. RP-390, Department of Social Sciences and Humanities, material culture, source studies.*

Kirish: Akademik ilm-fan sohasini me'yoriy-huquqiy jihatdan mustahkamlash va tadqiqotlar faoliyatini samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) asosida baholash zamonaviy ilm-fan tizimining muhim shartlaridan biri hisoblanadi [1, b. 12-15]. Hududiy ilmiy markazlar, jumladan Xorazm vohasining tarixiy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy va arxeologik merosini fundamental tadqiq etishda yetakchi tuzilma sanalgan Xorazm Ma'mun akademiyasining ilmiy salohiyatini oshirish hamda hudud tarixining

dolzarb muammolarini yangicha metodologik yondashuvlar asosida tadqiq etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi [2, b. 45].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-dekabrda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-390-son qarori akademik tadqiqotlar sifatini oshirish, ilmiy muassasalarning tashkiliy tuzilmasini maqbullashtirish hamda hududiy bo‘linmalar faoliyatini yangi akademik standartlarga moslashtirish uchun muhim huquqiy zamin yaratdi [3].

Tadqiqot jarayonida qiyosiy-huquqiy tahlil, tizimli yondashuv, manbashunoslik hamda tarixiy-xronologik metodlardan foydalanildi [1, b. 18]. Akademik ilm-fan tizimini tubdan isloh qilish va soha faoliyatini natijadorlikka yo‘naltirishning institutsional asosi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-390-son qarorida belgilangan strategik vazifalarni ijtimoiy-gumanitar fanlar hamda hududiy akademik bo‘linmalar kontekstida tahlil qilish jarayonida quyidagi asosiy maqsadli ko‘rsatkichlar ajratib ko‘rsatildi [3]:

Ilmiy maqolalar ko‘rsatkichi: PQ-390-son qarorning 1-bandi “b” kichik bandiga ko‘ra, 2030-yilga qadar nufuzli xalqaro ilmiy nashrlarda chop etilgan maqolalar sonini 4 baravarga oshirish belgilangan [3].

Kadrlar tarkibi: 2030-yilga qadar ilmiy xodimlar tarkibida yoshlar ulushini 60 foizgacha yetkazish belgilangan [3]. PhD yoki DSc izlanuvchisi maqomi o‘z-o‘zidan yoshlar toifasiga mansublikni anglatmaydi.

Xalqaro integratsiya: qarorda 2030-yilga qadar xalqaro hamkorlikda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar sonini 3 baravarga oshirish ko‘zda tutilgan [3]. Arxeologik ekspeditsiyalar va alohida loyihalar ko‘rsatkichlari tegishli dastur va rejalar bilan aniqlashtirilishi lozim.

Ilmiy faoliyatni reyting baholash: Ilmiy xodimlar va muassasa bo‘linmalari ish samaradorligini xalqaro standartlarga mos reyting tizimi asosida xolis baholab borish mexanizmini amaliyotga tatbiq etish [3].

PQ-390-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalar va strategiyadan kelib chiqib, Xorazm Ma’mun akademiyasining Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘limida ilmiy-tadqiqot faoliyatini maqbullashtirish hamda tadqiqotlar sifatini oshirish bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlar taklif etiladi:

Raqamli gumanitar fanlar va moddiy madaniyatni tadqiq etish: Xorazm vohasining qadimgi va o‘rta asrlarga oid shaharsozlik, me’morchilik hamda hunarmandchilik yodgorliklarini o‘rganishda an’anaviy arxeologik va etnografik usullar bilan bir qatorda raqamli gumanitar fanlar (Digital Humanities) vositalarini keng qo‘llash talab etiladi. Xususan, tarixiy obyektlar va yodgorliklarning 3D-modellarini yaratish, landshaftlarni virtual rekonstruksiya qilish va aerofotosuratlar yordamida stratigrafik tahlil o‘tkazish orqali manbaviy bazani raqamlashtirish va muhofaza qilish ko‘lami kengaytirilmoqda [4, b. 88-92].

Arxiv manbalari va konseptual ilmiy nashrlar ustida ishlash: Markaziy Osiyo va xorijiy mamlakatlar (Buyuk Britaniya, Rossiya, Turkiya, Eron va b.) arxiv fondlari hamda qo‘lyozma markazlarida saqlanayotgan Xorazm tarixi va etnografiyasiga oid birlamchi noyob manbalarni aniqlash, ularni ilmiy muomalaga kiritish hamda transliteratsiya va tarjimalarini fundamental nashr ettirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [5, b. 112-115].

Mazkur yo‘nalishdagi tizimli tadqiqotlarning amaliy natijasi sifatida bo‘lim tomonidan «Xorazm tarixidagi jarayonlar (1925–1941-yillar)» nomli fundamental monografik tadqiqot va kitob loyihasi ustida faol ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu kitob loyihasi arxiv hujjatlari, davriy matbuot va yangi manbaviy ma’lumotlar asosida quyidagi to‘rtta asosiy akademik blok (bob) bo‘yicha tadqiq etilmoqda:

Xorazm okrugida ma’muriy boshqaruv tuzilmasining shakllanishi (respublikaning tugatilishi, okrug va rayon ma’muriy tizimining tashkil etilishi, xususiy yer egaligining tugatilib, kolxoz-sovxoz tizimiga majburiy o‘tkazilishi);

Xorazm okrugi va oblastida ta’lim, matbuot va madaniyat sohasidagi jarayonlar (ma’rifiy islohotlar, matbaa sohasining jamiyatdagi o‘rni, teatr, muzey va madaniyat uylari faoliyati);

Kollektivlashtirish, surgun va qatag‘on siyosati davri (sovetlarning quloqlashtirish siyosati hamda «Katta terror» davri fojialari);

Xorazmda sanoat, iqtisodiyot va suv xo‘jaligi tizimidagi jarayonlar (yangi kanallarning ishga tushirilishi, gidrotexnik inshootlar qurilishi hamda iqtisodiy-sanoat o‘zgarishlari).

Ta’kidlash joizki, 1925–1941 yillarda Xorazm vohasida yuz bergan murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, jumladan, majburiy kollektivlashtirish, "quloqlashtirish", ma’muriy-hududiy qayta qurishlar hamda 1937–1938 yillardagi "Katta terror" davri fojialari manbashunoslik nuqtai nazaridan alohida tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda bo‘lim olimlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi hamda Xorazm viloyati davlat arxivining noyob fondlari (xususan, Xorazm okrug va oblast ijroiya komitetlari, sud-huquq hamda partiya organlarining maxfiy hujjatlari) ilmiy muomalaga kiritildi [6, b. 15–20].

U.Bekimmetovning fundamental monografik va ilmiy-ommabop tadqiqotlarida 1920–1930-yillarda Xorazmda amalga oshirilgan sovet islohotlarining mahalliy aholi turmush tarziga ko‘rsatgan salbiy ta’siri, deportatsiyaga uchragan oilalar taqdiri hamda surgun qilingan "quloq"lar geografiyasi kompleks tahlil qilingan [6, b. 45–50]. Muallifning ilmiy maqolalarida 1937–1938 yillarda otuvga hukm qilingan va mehnat-tuzatish lagerlariga yuborilgan Xorazm ziyolilari, davlat va jamoat arboblari, maorif xodimlari hamda matbuot vakillarining shaxsiy va tergov hujjatlari asosida ularning nohaq qatag‘on qilinish mexanizmlari ochib berilgan [7, b. 22–27].

Shu bilan birga, Bo‘lim olimlarining tadqiqotlarida mazkur davrdagi madaniy va ma’rifiy jarayonlar – vohada vaqtli matbuot tizimining shakllanishi, savodsizlikni tugatish jamiyatlari faoliyati, teatr va muzey ishining yo‘lga qo‘yilishi kabi jarayonlar g‘oyaviy cheklovlar va siyosiy senzura kontekstida xolis baholandi [5, b. 112; 8, b. 48]. Ushbu to‘plangan boy arxiv manbalari va e’lon qilingan monografik ishlar Bo‘lim tomonidan tayyorlanayotgan "Xorazm tarixidagi jarayonlar (1925–1941-yillar)" fundamental kitob loyihasining manbaviy va metodologik bazasini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bo‘lim tadqiqotchilari va mustaqil izlanuvchilari tomonidan tayyorlanayotgan doktorlik (DSc) va falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarini shakllantirishda Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) tomonidan belgilangan amaldagi nizom va qoidalarga qat’iy rioya etilishi ta’minlanmoqda [1, b. 22]. Dissertatsiya tadqiqotlarining ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini oshirish, tadqiqot natijalarini OAK tomonidan e’tirof etilgan milliy va xalqaro (Scopus, Web of Science) jurnallarda e’lon qilishni tizimli muvofiqlashtirish hamda antiplagiat talablari bo‘yicha nazoratni kuchaytirish nazarda tutilgan [1, b. 30; 3].

Xulosa: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 27 dekabrdagi PQ-390-son qarori mamlakatimizda akademik ilm-fan tizimini tubdan modernizatsiya qilish, xususan, Xorazm Ma’mun akademiyasi Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘limi faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish uchun mustahkam tashkiliy-huquqiy va metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi [3]. Ushbu me’yoriy hujjat ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida fundamental tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish, tadqiqotlarni raqamlashtirish hamda hududiy ilmiy salohiyatni xalqaro integratsiya jarayonlariga faol jalb etish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссияси. Диссертация ва диссертация авторефератини расмийлаштириш қоидалари. – Тошкент: ОАК, 2023. – 48 б.

2. Садуллаев А., Мадраҳимов А. Хоразм воҳасининг қадимги ва ўрта асрлар моддий ва маънавий маданияти тадқиқоти. – Тошкент: Фан, 2021. – 240 б.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. «Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси фаолиятини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-390-сон қарори. – 2025 йил 27 декабрь. URL: https://lex.uz/uz/docs/-7954065.

4. Matqurbanov F. 3D visualization and practical reconstruction of a Neolithic settlement. – Urgench: Khorezm Mamun Academy, 2026. – 120 p.

5. Маҳмудов М. Марказий Осиё тарихий манбашунослиги ва археологияси масалалари. – Урганч: Хоразм, 2024. – 180 б.

6. Бекмуҳаммад У. Хоразмдаги қатағонлар: фожиалар ва тақдирлар. – Тошкент: Navro‘z, 2017. – 180 б.

7. Бекмуҳаммад У. 1937 йилнинг Хоразмдаги акс-садоси: сургун ва отишмалар тарихидан // Гулистон. – Тошкент, 2019. – № 4. – Б. 22–27.

8. Матёқубов Ҳ., Абдуллаев Ў. 1925–1930 йилларда Хоразм округида маъмурий-ҳудудий ислоҳотлар ва уларнинг оқибатлари // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. – Хива, 2024. – № 3. – Б. 45–51.

UO'K 94(575.152):338.48

QASHQADARYO VILOYATIDA TURIZM SOHASI RIVOJLANISH JARAYONLARI TAHLILI

Rasulova M. A., tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi, Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Shahrisabz

Annotatsiya. *Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar jarayoni va turizmni rivojlantirish konsepsiyasi soha institutsional tuzilmasining mazmunida va u bajaradigan funksiyalar tarkibida tub o'zgarishlar kiritishni taqozo etadi. Shu sababli turizmni davlat tomonidan tartibga solish, boshqarish va uning faoliyatiga davlatning aralashuvi institutlarini takomillashtirish muhim hisoblanadi. Ushbu maqolada mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatida turizm sohasi rivojlanish jarayonlari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *"O'zbekturizm", "Tong" mehmonxonasi, "Qashqadaryo sayyoh", ga "Shahrisabz sayyoh", "Sulton Mir Haydar" majmuasi, "Ko'k Gumbaz" masjidi, Odina masjidi, Qarshi qal'a devori, "Imom Mu'in an-Nasafiy" majmuasi, Xo'ja Shamsiddin Halvoniy maqbarasi, O'g'lonjon ota maqbarasi*

Аннотация. *Процесс масштабных экономических реформ и реализуемая в нашей стране концепция развития туризма требуют фундаментальных изменений в содержании институциональной структуры сектора и выполняемых им функций. Поэтому важно совершенствовать институты государственного регулирования, управления туризмом и государственного вмешательства в его деятельность. В данной статье анализируются процессы развития туристического сектора в Кашкадарьинской области в годы независимости.*

Ключевые слова: *«Узбектуризм», гостиница «Тонг», «Кашкадарья туристическая», «Шахрисабз туристическая», комплекс «Султан Мир Хайдар», мечеть «Кок Гумбаз», мечеть Одина, Каршинская крепостная стена, комплекс «Имам Муин ан-Насафий», мавзолей Ходжи Шамсиддина Халваний, мавзолей Оглонджон Ота.*

Abstract. *The process of large-scale economic reforms and the concept of tourism development being implemented in our country require fundamental changes in the content of the institutional structure of the sector and the functions it performs. Therefore, it is important to improve the institutions of state regulation, management of tourism and state intervention in its activities. This article analyzes the development processes of the tourism sector in the Kashkadarya region during the years of independence.*

Keywords: *"Uzbektourism", "Tong" hotel, "Kashkadarya tourist", "Shahrisabz tourist", "Sultan Mir Haydar" complex, "Kok Gumbaz" mosque, Odina mosque, Karshi fortress wall, "Imam Mu'in an-Nasafiy" complex, Khoja Shamsiddin Halvaniy mausoleum, Oglonjon Ota mausoleum*

Kirish. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida turizm iqtisodiyoti strategik tarmoq sifatida o'zining muhim o'rnini egallab, uning rivojlanishi iqtisodiyotning asosiy drayverlaridan biriga aylanib ulgurgan. Turizmning mamlakatlar yalpi ichki mahsulotidagi o'rni muntazam ravishda oshib bormoqda, bu esa uning iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishdagi ahamiyatini yanada orttiradi, shuning uchun turizmni rivojlantirish biz uchun ustuvor iqtisodiy vazifalardan biri bo'lib, ushbu sohani qo'llab-quvvatlash va samarali rivojlantirish orqali mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli hissa qo'shish imkoniyatlari paydo bo'ladi

Adabiyotlar tahlili. Ushbu maqolani tayyorlashda O'zbekiston milliy arxivi materiallari, Qashqadaryo viloyati turizm qo'mitasi joriy arxivi ma'lumotlari, sohaga doir ilmiy adabiyotlar, davriy matbuot nashrlari hamda qonunchilik hujjatlari batafsil o'rganilgan hamda tahliliy foydalanilgan.

Metodologiya. Tadqiqot mavzusini yoritishda tizimlashtirish, xolislik, muammoviy-xronologik, taqqoslash, qiyosiy tahlil, statistik tadqiqot hamda fanlararo yondashuv usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab respublikamizda sayyohlik masalalari bilan shug‘ullanuvchi mintaqaviy bo‘linmalar tashkil etildi. 1993-yildan Qashqadaryo viloyatida “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi Qashqadaryo viloyat mintaqaviy bo‘linmasi tashkil etildi [1]. “O‘zbekturizm” MK kengashining 2003-yil 25-fevraldagi qaroriga asosan, “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi Qashqadaryo viloyati Sayyohlik va ekskursiya byurosi nomi bilan qayta tashkil etilgan [2]. Ushbu tashkilotning asosiy vazifasi sifatida viloyatdagi barcha sayyohlik va turizm sohasini rivojlantirish belgilab qo‘yilgan.

1994-yilda “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi Qashqadaryo viloyat mintaqaviy bo‘linmasi 1994-yil bajarilgan ishlarning yakunlari bo‘yicha bo‘linma tizimidagi “Hamroh” jamoasi hamda Koson sayr va sayohatlar byurosi, Shahrisabz restoranlari belgilangan rejalarni bajara olmadilar. Mintaqaviy bo‘linmaga qarashli 105 o‘rinli “Shahrisabz”, 117 o‘rinli “Tong” mehmonxonalari 1994-yilgi belgilangan xizmat ko‘rsatish rejalarini ortig‘i bilan bajardilar [3]. Shunday qilib Qashqadaryo viloyatida 1991-yilda 28,3 mingta sayyohga xizmat ko‘rsatilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 1995-yilda 1,7 mingtaga tushdi, 1999-yilda esa 41,2 mingtaga [4] yetdi. “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi Qashqadaryo viloyati bo‘yicha 2003-yilda umumiy hajmi rejada amalga oshirish belgilangan 75 000 ming so‘m o‘rniga 91479 ming so‘mga, foyda olish rejadagi 3500 ming so‘m o‘rniga 1109,4 ming so‘mga bajarildi. Qashqadaryo OXJ da 2 ta mehmonxonada 148 ta o‘rin mavjud bo‘lib, “Qashqadaryo sayyoh” OXJ ga 97 o‘rinli 1 ta mehmonxona, 51 o‘rinli 1 ta mehmonxona “Shahrisabz sayyoh” OXJ ga tegishli edi.

Viloyat hududiga 2004-yilda jami 31 mingdan ziyod turistlar tashrif buyurdi.

2008-yil yanvar – sentabr oylarida viloyatga 5806 nafar turistlar mehmon bo‘ldi. Vaholanki, 2007-yilda ularning soni 2424 nafarni tashkil qilgan edi. 2008-yilning uch choragi davomida vohada 30 mingga yaqin mahalliy va xorijiy sayyohlarga xizmat ko‘rsatilib, turistik va mehmonxona xizmatlari hajmi 2007-yildagiga nisbatan 1,5 baravar oshdi [5]. O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasidagi islohotlar olib borilganiga qaramasdan, mavjud turistik xizmat salohiyatidan to‘liq foydalanilmadi. Jumladan, 2009-yilda turizm sohasidagi xizmatlar yalpi ichki mahsulotlar umumiy hajmining bor yo‘g‘i 0,6 foizini tashkil etgan [6].

2011-yilda viloyatda 19 ta turistik tashkilotlar va mehmonxonalar faoliyat ko‘rsatdi (2004-yilda viloyatda 4 ta turistik tashkilot va mehmonxonalar faoliyat ko‘rsatgan). Jumladan, Viloyat Sayyohlik va ekskursiyalar byurosi, “Kitob Sayyoh” firmasi, “Nasaf – Travel” kompaniyasi, “Tur and Travel Shahrisabz” MChJ, “Afsona – AMB” MChJ, “Jayhun” mehmonxona kompleksi, “Tinchlik tuyg‘usi”, “Sarbon LTD” MChJ, “Real comfort”, “Koson Darvozasi” MChJ, “Nazira” SICHF ga qarashli “Grand lyuks” mehmonxonasi, “Gissarneftgaz” KK MChJ, “Ark kompyuter servis” MChJ, “Agromashmatvneshservis” MChJ, “Nasaf Oqshomi” MChJ, “Yoshlik” XF, “Agroavtoxizmat” MChJ ga qarashli “Sokin Plaza” mehmonxonasi, “Nasaf Media Star” XF kabilar [7]. Mustaqillik yillarida viloyatga tashrif buyurayotgan turistlarni munosib kutib olish va ularning ko‘ngildagidek hordiq chiqarishlari, xalqimizning shonli o‘tmishi va bugungi taraqqiyoti bilan tanishishlari uchun turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 1-noyabrdagi 294-sonli “2013–2015-yillarda Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi qarori bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. Viloyatimizdagi 36 ta me’moriy obyektni ta’mirlash rejasi dasturga kiritildi. Mazkur me’moriy obyektlardan 7 tasida 2014–2016-yillarda “Sulton Mir Haydar” majmuasi, “Ko‘k Gumbaz” masjidi, Odina masjidi, Qarshi qal’a devori, “Imom Mu’in an-Nasafiy” majmuasi, Xo‘ja Shamsiddin Halvoniy maqbarasi, O‘g‘lonjon ota maqbarasida kapital ta’mirlash ishlari bajarildi, ularning ayrimlarida bu jarayon davom ettirildi. Qolgan obyektlarda 2018–2019-yillarda ta’mirlash ishlari rejalashtirildi. “Xumdon ota”, “Tuya Bo‘ynoq Ostona buva”, Konsoy ziyoratgohi, Dinozavr izi, “Xo‘jai Pok Ota”, Amir Temur g‘ori, Suvtushar sharsharasi kabi tarixiy yodgorliklar, ziyoratgohlar va tabiat mo‘jizalarini ham yaqin kelajakda ta’mirlash, bu hududlarda turizm infratuzilmasini yaratish mo‘ljallandi.

Mirishkor tumani Achinko‘l suv havzasi atrofida dam olish maskani barpo etish va uning infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha samarali ishlar olib borildi. 12 kishiga mo‘ljallangan mehmonxona va sayyohlar dam olish maskani, avtomobillar to‘xtash joyi, mobil aloqa markazi, baliq

oviga mo‘ljallangan suv havzasi qurib bitkazildi. Achinko‘l yaqinida katta hududda ekologik buyurtmaxona ham barpo qilindi. Butun ko‘l bo‘ylab rezina qayiqda sayr qilish xizmati yo‘lga qo‘yildi [8].

Bundan tashqari “Kitob Sayyoh” xususiy korxonasi tomonidan har biri 4 o‘ringa mo‘ljallangan 6 ta milliy urf-odatlar aks etgan maskan qurildi. Sayyohlarga xizmat ko‘rsatish dasturiga binoan Shahrisabzning madaniy-tarixiy obyektlari va qadamjolarini ziyorat qilish, Kitob kenglik stansiyasida teleskop orqali yulduzlarni tomosha qilish, Suqar, Qaynar, Ayoqchi kabi tog‘li hududlarga sayohat qilish yo‘nalishlari belgilab olindi. Bunda, ayniqsa, chet ellik sayyohlarni milliy urf-odatlarimiz va boy tariximiz bilan tanishtirishga alohida e’tibor qaratildi. Qashqadaryo viloyatida nafaqat ekoturizm, balki sayyohlikning ko‘plab turlarini rivojlantirishda mazkur sohada yo‘lga qo‘yilgan xizmat ko‘rsatish borasidagi faoliyat, imkoniyat va yutuqlar aks etgan ma’lumotlarni tarqatishga ko‘proq urg‘u berildi. Bu borada “Visitkashkadarya” rasmiy veb-sayti imkoniyatlaridan foydalanilgan holda viloyatning turistik brendi tayyorlandi. Shu bilan birgalikda, viloyatda turizm sohasiga informatsion-aloqa texnologiyalari va bank xizmatlarini keng targ‘ib qilish ham ko‘zda tutildi. E’tiborlisi, Qarshi va Shahrisabz shaharlarida turistlar ko‘p tashrif buyuradigan 10 ta hududda Wi-Fi zonalar tashkil qilindi. Albatta, turizm rivojini targ‘ibot va reklamasiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Dam olish maskanlari, ko‘rsatiladigan xizmat turlari haqidagi ma’lumotlar aniq va batafsil taqdim etilishi vohaga kelayotgan sayyohlarning soni ortishiga katta hissa qo‘shdi.

Bugungi kunda viloyat miqyosida sayyohlik yo‘nalishlarini ko‘paytirish, mavjud imkoniyatlardan unumli foydalangan holda turizm turlarini, ayniqsa, ekoturizmni yanada rivojlantirish bo‘yicha amaliy ishlar olib borilmoqda. Viloyatdagi har bir tumanning turistik xaritasini tuzish, ekoturizmni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini qabul qilish, turizmni rivojlantirish yo‘nalishida faoliyat yuritmoqchi bo‘lgan yosh tadbirkorlarga imtiyozli kredit mablag‘i ajratish, turistik firmalarga litsenziya berish tartibini soddalashtirish, agroturizm, etnografik turizmni rivojlantirish, mehmonxona va servis xizmati imkoniyatlarini kengaytirish, turistik marshrutlar hamda viloyat qo‘riqxonalarini jahon standartlari darajasida takomillashtirish yuzasidan vazifalar belgilab olingan [9:21-23].

Qashqadaryo viloyatining sayyohlik salohiyatini yanada rivojlantirish, sayyohlarni noyob tarixiy va madaniy-me’moriy meros bilan tanishtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, maqsadli turizm xizmatlarini taqdim etish uchun turizm infratuzilmasini kengaytirish, mintaqani madaniy-ko‘ngilochar tadbirlar markaziga aylantirish va viloyatning sayyohlik potensialini oshirish maqsadida mintaqaga sayyohlar oqimini ko‘paytirish, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan ustuvor yo‘nalishlar asosida amalga oshirildi.

2022-yilda Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Mazkur konsepsiyada “Maydanak” observatoriyasi va “Langar ota” ziyoratgohi hududida zamonaviy ilmiy-turistik maskan tashkil etish, hududda sayyohlikning astroturizm, ekoturizm, agroturizm, ziyorat turizmi va boshqa turlarini rivojlantirish, sohadagi mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etish hamda Qamashi tumanining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni yanada rivojlantirish maqsadida Qamashi tumanining turizm salohiyati, xususan, tumanda tog‘ va ekstremal turizm turlari, jumladan, alpinizm, aeronavtika, velosport, motosport, shuningdek, ekologik va agroturizmni rivojlantirish uchun yetarlicha imkoniyatlar mavjudligi asoslangan. Shu bilan birga “Maydanak” observatoriyasi hududida joylashgan obyektlarning, jumladan, ilmiy texnikaviy inshootlarning eskirganligi, observatoriyaga olib boruvchi 38 kilometrlik 4R 86 “Langar – Maydanak” yo‘lining ta’mirtalab ekanligi va yo‘l yoqalab o‘tgan qismida avtomashinalar harakati xavfsizligining ta’minlanmaganligi, elektr, suv va aloqa ta’minotidagi qator muammolarning mavjudligi tashrif buyuruvchi turistlar soniga salbiy ta’sir ko‘rsatayotganligi ko‘rsatib o‘tilgan [10].

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, konsepsiyadan kutilayotgan natija sifatida Qamashi tumaniga tashrif buyuruvchi xorijiy sayyohlar sonini 2025-yilga qadar 200 mingga yetkazish hisobiga ko‘rsatiladigan turizm xizmatlari eksporti hajmini 10 million dollarga yetkazish, tadbirkorlik subyektlarini 3 barobar oshirib, qo‘shimcha ravishda 300 dan ortiq ish o‘rinlari yaratishga erishish,

Qashqadaryo viloyatiga tashrif buyuruvchi turistlarning Qamashi tumanida qolish muddatini o'rtacha 6 soatdan 3 kunga uzaytirish maqsad qilingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zMA. Fond M – 141, ro'yxat – 1, jild – 362, varaq – 7.
2. Qashqadaryo viloyati davlat arxivi. Fond M – 475, ro'yxat – 1, jild – 30, varaq – 4.
3. O'zMA. Fond M – 377, ro'yxat – 1, jild - 131, varaq – 21.
4. O'zMA. Fond M – 377, ro'yxat – 1, jild - 261, varaq – 37.
5. Nizomov T. Welcome to Kashkadarya. Қашқадарё газетаси, 2008-йил 26-сентябрь сони.
6. Сиддиқов Р. Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасида кадрлар тайёрлаш муаммолари. – Тошкент: "Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари" журнали, 2012-йил. – Б. 25.
7. Qashqadaryo viloyati turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi joriy arxiv fondi materiallari, 2020-yil dekabr.
8. Inside Kashkadarya. №7. July 20, 2021. Achinkul is one of glamorous lakes in Kashkadarya, Pg. 6.
9. Qashqadaryo viloyati Madaniy meros boshqarmasi joriy arxiv fondi materiallari, 2022-yil yanvar.
10. Қашқадарё вилоятининг Қамаши туманида туризм соҳасини ривожлантириш концепцияси. – Б. 4.
11. Khamraeva, N. (2022). Independent work as a form of learners'cognitive activity. *Science and innovation*, *1*(B6), 770-774.

UDC 94(575.1):339.727.22

THE IMPACT OF FOREIGN INVESTMENT ON THE ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE KASHKADARYA REGION DURING THE INDEPENDENCE OF UZBEKISTAN

Ravshanov A., Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences, University of Economics and Pedagogy, Qarshi

Annotatsiya. *Xorijiy investitsiyalar mintaqaviy iqtisodiy taraqqiyotni rag'batlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, eksport salohiyatini kengaytirish va yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada O'zbekistonning Qashqadaryo viloyati iqtisodiy rivojlanishida xorijiy investitsiyalarning o'rni, xususan, sanoatni rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, tashqi savdo faoliyati hamda xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni tashkil etish masalalari yoritilgan. Maqolada investitsiya muhitini yaxshilash, ilg'or texnologiyalarni jalb qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatini rivojlantirish, transport va ishlab chiqarish infratuzilmasini mustahkamlash hamda eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni kengaytirishning ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *xorijiy investitsiyalar, mintaqaviy iqtisodiy taraqqiyot, Qashqadaryo viloyati.*

Аннотация. *Иностранные инвестиции играют важную роль в стимулировании регионального экономического развития, модернизации производства, расширении экспортного потенциала и создании новых рабочих мест. В статье рассматривается роль иностранных инвестиций в экономическом развитии Кашкадарьинской области Узбекистана, в частности в развитии промышленности, переработке сельскохозяйственной продукции, внешнеторговой деятельности и создании предприятий с участием иностранного капитала. Особое внимание уделяется значению улучшения инвестиционного климата, привлечения передовых технологий, развития перерабатывающей промышленности на основе сельскохозяйственного сырья, укрепления транспортной и производственной инфраструктуры, а также расширения экспортно ориентированного производства.*

Ключевые слова: *иностранные инвестиции, региональное экономическое развитие, Кашкадарьинская область.*

Abstract. *Foreign investment plays a significant role in promoting regional economic development, modernising production, expanding export capacity, and creating new employment opportunities. This article examines the role of foreign investment in the economic development of Kashkadarya Region, Uzbekistan, during the years following independence, with particular emphasis on industrial development, agricultural processing, foreign trade, and the establishment of enterprises with foreign capital participation. The article highlights the importance of improving the investment climate, attracting advanced technologies, developing agro-processing industries, strengthening transport and production infrastructure, and promoting export-oriented manufacturing.*

Keywords: *foreign investment, regional economic development, Kashkadarya Region.*

Introduction. Following the independence of the Republic of Uzbekistan in 1991, the country embarked on a transition towards a market-oriented economy, making the attraction of foreign investment one of the important priorities of its economic policy. Foreign investment has played a significant role in modernising production facilities, introducing advanced technologies, developing industrial infrastructure, creating new jobs, and strengthening the country's integration into the global economy. In this context, the study of foreign investment at the regional level is particularly important for understanding the specific features and outcomes of economic reforms.

Methods. This study employs historical, statistical, and comparative analysis methods to examine the role of foreign investment in the economic development of the Kashkadarya region during the independence period of Uzbekistan. Statistical data, archival documents, official reports, and academic literature are analyzed to assess investment trends, their sectoral distribution, and their contribution to regional economic growth.

Literature review. Foreign capital and technology can contribute to accelerated economic development and sustainable growth across various sectors. In addition to supporting industrial modernisation, foreign investment can facilitate job creation, enhance product competitiveness, and strengthen export capacity. The establishment of free economic zones in Uzbekistan provides an example of the institutional measures adopted to stimulate investment and industrial development. According to data from the Ministry of Economy of the Republic of Uzbekistan, as of 1 August 2018, the country had 17 free economic zones and more than 100 small industrial zones. [5] Foreign investment is particularly important for expanding national export capacity and creating favourable investment conditions across regions. The geographical distribution of foreign trade and investment, however, has historically been uneven. A substantial proportion of imports was concentrated in Tashkent City and the Andijan, Tashkent, and Samarkand regions. The development of transport networks and other infrastructure is also essential for improving regional investment attractiveness. Kashkadarya Region possesses considerable potential for economic development, particularly in industry, including the fuel and energy sector, and agriculture, including cotton cultivation, grain production, horticulture, and melon and vegetable growing. [1] The region's investment attractiveness is closely linked to the availability of raw materials, the potential for industrial expansion, and the provision of legal guarantees for investors' legitimate interests. Against this background, examining the role of foreign investment in Kashkadarya Region is important for understanding the opportunities and constraints affecting regional economic development. Particular attention should be given to the expansion of foreign-invested enterprises, the development of export-oriented production, the processing of agricultural raw materials, and the diversification of the regional economy.

Results and discussion. In recent years, efforts have been undertaken in Kashkadarya Region to increase foreign capital inflows and implement major investment projects. Lists of priority projects have been compiled, and corresponding road maps have been approved to facilitate their implementation. Under the relevant investment programme, 409 projects with a total value of UZS 1.128 trillion were planned for implementation in the region in 2018. These projects were expected to create 5,171 new jobs. As of 1 August 2018, 122 projects, representing an investment value of UZS 205 billion, had been commissioned, creating 849 new jobs. [4] Among the projects implemented were several enterprises established with foreign capital participation. These included LT Textile in Karshi District, designed to process 22,000 tonnes of cotton fibre annually; Conchcement in Kitab District, with a planned annual cement production capacity of 1.5 million tonnes; Kitobtegirmonmontajservis in Kitab District; and Radian Silk in Karshi City, specialising in the processing of raw silk materials. Such projects demonstrate the potential contribution of foreign investment to industrial modernisation, the development of local processing capacity, and the creation of employment opportunities. In particular, investment in textile production, cement manufacturing, and silk processing can support the development of value-added industries and strengthen the links between local raw-material suppliers and industrial enterprises. According to data from the

Kashkadarya Regional Statistics Department, 49 enterprises with foreign investment were registered in the region in 2017, of which 46 were operating enterprises. [4] The total foreign trade turnover of these enterprises amounted to USD 200.5292 million in 2017, representing an increase of 28% compared with the previous year. Exports accounted for USD 1.7491 million, while imports reached USD 198.7801 million. [2] As of 1 August 2018, seven new enterprises with foreign investment had been established in Kashkadarya Region. At the same time, the number of such enterprises in certain districts was reported to be fewer than two. Compared with other regions of Uzbekistan, Kashkadarya occupied a relatively low position in terms of the number of enterprises involving foreign capital.[4] This situation points to the need for a more geographically balanced distribution of investment and for measures to encourage foreign investors to establish businesses beyond the region's principal industrial centres. Expanding investment opportunities in smaller districts could promote local employment, strengthen regional supply chains, and support the processing of agricultural products close to their production sites. The region's overall foreign trade performance also provides important insights into its economic structure. In 2017, Kashkadarya's total foreign trade turnover amounted to approximately USD 674 million, comprising exports of USD 302 million and imports of USD 372 million. [4] The composition of foreign trade highlights the importance of strengthening domestic production capacity, particularly in sectors that rely heavily on imported machinery, equipment, and industrial inputs. At the same time, imports of advanced equipment and technology can be essential for modernising production and improving productivity. Therefore, reducing import dependence should not be understood as indiscriminate import substitution, but rather as the development of competitive domestic industries capable of supplying goods efficiently while retaining access to essential foreign technologies. In Guzar District, major industrial facilities included Shurtanneftgaz, a subsidiary unitary enterprise engaged in the production of natural gas and gas condensate, and the Shurtan Gas Chemical Complex, which manufactures products such as polyethylene granules and polyethylene pipes. In Mubarek District, the Mubarek Oil and Gas Production Department has played an important role in the production of natural gas, oil, and condensate. The activities of these enterprises have contributed significantly to the region's industrial output and foreign trade. Their presence illustrates the relationship between the concentration of large-scale industrial production and the geographical distribution of external trade flows. One important avenue for achieving this objective is the establishment of processing facilities that convert agricultural raw materials into higher-value products. Realising these benefits requires a comprehensive approach to investment policy. Particular attention should be paid to improving the reliability of transport and logistics infrastructure, simplifying administrative procedures, strengthening the protection of investors' legitimate rights, facilitating access to finance, and improving the availability of qualified personnel. Furthermore, investment projects should be assessed not only in terms of their financial volume but also in relation to their contribution to employment, productivity, technological development, export diversification, environmental sustainability, and the long-term competitiveness of the regional economy.

Conclusion. Foreign investment represents an important instrument for promoting economic development in Kashkadarya Region. The region's substantial natural-resource base, established industrial enterprises, agricultural potential, and opportunities for expanding processing industries create favourable conditions for attracting foreign capital and technology. The statistical evidence for 2017–2018 demonstrates that investment projects contributed to the establishment of new production facilities and the creation of employment opportunities.

REFERENCES:

1. Soliev A. S. O'zbekiston geografiyasi. Textbook. Tashkent, 2014.
2. State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics. Statistical data. Tashkent, 2019.
3. Kashkadarya Regional Department of Statistics. Statistical data. April 16. 2022.
4. Statistical Bulletin of Kashkadarya Region. – Karshi, 2019. – pp. 66–67.
5. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On the Establishment of the Chiroqchi Free Economic Zone." // Xalq so'zi newspaper. – Tashkent, September 14, 2019. – No. 191 (7421).

UO'K 94(575.1):351.74-055.2

O'ZBEKISTON ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA XOTIN-QIZLAR FAOLIYATI TARIXI (1991-2022-YILLAR)

Z.B.Rustamova, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), o'qituvchi, Pedagogika va iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya. *Maqolada 1991-2022-yillarda O'zbekiston ichki ishlar organlarida xotin-qizlar faoliyatining shakllanishi va rivojlanishi, ularning tizimdagi kasbiy o'rni hamda xizmat faoliyatini tartibga solishning huquqiy va tashkiliy asoslari tahlil qilinadi. Shuningdek, xotin-qizlarni ichki ishlar organlarida xizmat qilishga jalb etish, ularning kasbiy salohiyatini oshirish, rahbarlik lavozimlaridagi ishtirokini kengaytirish va ijtimoiy himoyasini ta'minlash masalalariga e'tibor qaratiladi.*

Kalit so'zlar: *O'zbekiston Respublikasi, ichki ishlar organlari, xotin-qizlar, xizmat faoliyati tarixi, gender tengligi, huquqiy maqom, kasbiy rivojlanish.*

Аннотация. *В статье анализируются становление и развитие деятельности женщин в органах внутренних дел Республики Узбекистан в 1991–2022 годах, их профессиональная роль в системе, а также правовые и организационные основы регулирования служебной деятельности. Особое внимание уделяется привлечению женщин к службе в органах внутренних дел, повышению их профессионального потенциала, расширению участия в руководящих должностях и обеспечению социальной защиты.*

Ключевые слова: *Республика Узбекистан, органы внутренних дел, женщины, история служебной деятельности, гендерное равенство, правовой статус, профессиональное развитие.*

Abstract. *This article analyzes the formation and development of women's activities within the internal affairs bodies of the Republic of Uzbekistan from 1991 to 2022, their professional roles within the system, and the legal and organizational framework governing their service. Particular attention is paid to the recruitment of women into internal affairs bodies, the enhancement of their professional competencies, the expansion of their participation in leadership positions, and the provision of social protection.*

Key words: *Republic of Uzbekistan, internal affairs bodies, women, history of service activities, gender equality, legal status, professional development.*

Kirish. O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi davlat boshqaruvi tizimi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati va jamiyatda xotin-qizlarning o'rnini belgilash jarayonida yangi tarixiy bosqichni boshlab berdi. Mustaqillik yillarida ichki ishlar organlarining tashkiliy faoliyati va xizmat yo'nalishlari takomillashib borishi bilan bir qatorda, xotin-qizlarning mazkur tizimdagi ishtiroki, kasbiy imkoniyatlari va jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni ham muhim ahamiyat kasb etdi. Shu jihatdan 1991-2022-yillarda O'zbekiston ichki ishlar organlarida xotin-qizlar faoliyatining rivojlanishini o'rganish mamlakatning ijtimoiy-huquqiy taraqqiyoti tarixini yoritishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ichki ishlar organlarida xotin-qizlar faoliyatini faqat muayyan lavozimlarni egallash yoki xizmatga qabul qilinish jarayoni bilan cheklab bo'lmaydi. Ushbu faoliyat ularning kasbiy tayyorgarligi, xizmat vazifalarining o'zgarishi, huquqiy kafolatlarining rivojlanishi, jamoatchilik bilan hamkorligi hamda rahbarlik faoliyatida ishtirok etish imkoniyatlari bilan chambarchas bog'liq. Xotin-qizlarning huquqbuzarliklar profilaktikasi, oilaviy nizolarning oldini olish, voyaga yetmaganlar bilan ishlash va tazyiq hamda zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarni qo'llab-quvvatlashdagi ishtiroki ham ushbu faoliyatning ijtimoiy ahamiyatini belgilaydi.

Adabiyotlar sharhi. O'zbekiston ichki ishlar organlarida xotin-qizlar faoliyati tarixini o'rganishda milliy qonunchilik, ilmiy maqolalar, xizmat faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslariga bag'ishlangan tadqiqotlar hamda xorijiy davlatlar politsiya tizimi tajribasiga oid manbalar muhim o'rin tutadi. Ushbu manbalar xotin-qizlarning ichki ishlar organlaridagi faoliyatini kasbiy, ijtimoiy va institutsional rivojlanish nuqtayi nazaridan o'rganish imkonini beradi. Xotin-qizlarning davlat xizmatidagi ishtiroki, kasbiy rivojlanishi va gender tengligini ta'minlash masalalari xalqaro

miqyosdagi tadqiqotlarda ham yoritilgan. UN Women va Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (OSCE) materiallarida xotin-qizlarning davlat xizmatidagi ishtirokini kengaytirish, teng imkoniyatlarni ta’minlash va ularning huquqlarini himoya qilishga doir yondashuvlar uchraydi. Heidenheimer va Johnstonning davlat boshqaruvi hamda korrupsiya masalalariga oid ilmiy ishlari esa davlat institutlari faoliyatini tahlil qilish uchun nazariy asoslardan biri bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bunday manbalar ichki ishlar organlarida xotin-qizlarning kasbiy faoliyatini kengroq ijtimoiy-huquqiy sharoitda o‘rganishga yordam beradi. Xorijiy tajribaga oid materiallarda AQSh, Kanada, Angliya va Uels kabi mamlakatlarning politsiya tizimlarida xotin-qizlarni xizmatga qabul qilish, kasbiy tayyorlash, xizmat sharoitlarini tashkil etish va ularning professional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash masalalari ko‘rib chiqiladi. Ushbu tajribalar xizmatni tashkil etish, kasbiy etika, ijtimoiy himoya va rahbarlik lavozimlariga ko‘tarilish imkoniyatlarini qiyosiy o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosini tarixiylik, xolislik, izchillik va qiyosiy tahlil tamoyillari tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar 1991-2022-yillarda O‘zbekiston ichki ishlar organlarida xotin-qizlar faoliyatining rivojlanish xususiyatlarini, xizmat yo‘nalishlaridagi o‘zgarishlarni hamda huquqiy-tashkiliy asoslarini o‘rganishga xizmat qiladi. Tarixiylik metodi yordamida xotin-qizlarning ichki ishlar organlaridagi faoliyati mustaqillik davrining turli bosqichlari doirasida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda 1991-2016-yillar dastlabki rivojlanish davri, 2017-2019-yillar islohotlar faollashgan bosqich, 2020-2022-yillar esa profilaktika va xizmat faoliyatining keyingi rivojlanish davri sifatida tahlil qilinadi. Ushbu davrlashtirish tadqiqotning ishchi yondashuvi bo‘lib, bosqichlarning xususiyatlari tegishli tarixiy hujjatlar va rasmiy ma’lumotlar bilan asoslanishi lozim. Qiyosiy-tarixiy metod turli davrlardagi xizmat vazifalari, tashkiliy yondashuvlar va xotin-qizlarning kasbiy imkoniyatlarini o‘zaro taqqoslash imkonini beradi. Shuningdek, AQSh, Kanada, Angliya va Uels politsiya tizimlariga oid materiallardan foydalanib, xotin-qizlar xizmatini tashkil etishning umumiy va o‘ziga xos jihatlari ko‘rib chiqiladi. Bunda xorijiy tajribani O‘zbekiston sharoitiga bevosita ko‘chirish emas, balki uning tarixiy va institutsional xususiyatlarini aniqlash nazarda tutiladi. Tizimli tahlil metodi orqali xotin-qizlar faoliyati huquqiy tartibga solish, kasbiy tayyorgarlik, ijtimoiy himoya va huquqbuzarliklar profilaktikasi bilan o‘zaro bog‘liq holda o‘rganiladi. Normativ-huquqiy tahlil yordamida esa xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, xizmat faoliyatini tashkil etish hamda tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olishga doir hujjatlarning mazmuni ko‘rib chiqiladi

Tahlil va natijalar. 1991-2022-yillarda O‘zbekiston ichki ishlar organlarida xotin-qizlar faoliyatining rivojlanishi mamlakatdagi ijtimoiy-huquqiy o‘zgarishlar, xizmat faoliyatining takomillashuvi va xotin-qizlarning kasbiy imkoniyatlari bilan uzviy bog‘liq holda kechdi. Ushbu jarayonni tahlil qilishda xotin-qizlarning xizmat yo‘nalishlari, ularning huquqiy maqomi, profilaktika faoliyatidagi ishtiroki hamda davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorligi asosiy mezonlar sifatida olinadi. Mustaqillikning dastlabki davrida xotin-qizlar ichki ishlar organlarining tergov, kadrlar, moliya-iqtisod, tibbiyot va aloqa kabi yo‘nalishlarida faoliyat yuritgan. Ushbu xizmat turlari tizimning kundalik faoliyatini tashkil etish, hujjatlar bilan ishlash, tergov jarayonlarini amalga oshirish va xodimlarga zarur xizmat ko‘rsatishda muhim o‘rin tutgan. Biroq xotin-qizlarning kasbiy faoliyatini faqat ayrim an’anaviy yo‘nalishlar bilan cheklab baholash to‘g‘ri emas, chunki ularning vakolatlari va mas’uliyati egallagan lavozimi hamda tegishli xizmat talablariga bog‘liq bo‘lgan. Shu sababli mazkur davrni o‘rganishda xizmat turlari bilan bir qatorda, xotin-qizlarning amaliy vakolatlari va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini ham hisobga olish zarur. 2017-yildan keyingi davr ichki ishlar organlari faoliyatini isloh qilish, aholi muammolarini aniqlash va huquqbuzarliklarning oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish bilan tavsiflanadi. Bu jarayonda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, oilaviy nizolarni aniqlash va profilaktika tadbirlarini tashkil etish masalalari alohida ahamiyat kasb etdi. 2019-yil 2-sentabrda “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi xotin-qizlarni himoya qilishning huquqiy asoslarini mustahkamlash yo‘lidagi muhim voqea bo‘ldi. Qonun doirasidagi himoya mexanizmlari tazyiq va zo‘ravonlik holatlarining oldini olish, jabrlangan shaxslarning huquqlarini ta’minlash va mas’ul tashkilotlar faoliyatini tartibga solish nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir.

2019-yil yakunlariga ko‘ra, ichki ishlar organlari xodimlari tarkibida xotin-qizlar ulushi 8,5 foizni tashkil etgani qayd etilgan. Ushbu statistik ko‘rsatkichni mustaqillik davridagi xotin-qizlar ishtirokini tavsiflovchi ma’lumot sifatida qo‘llash mumkin. Biroq uni ilmiy tahlilda ishlatishdan oldin rasmiy manba orqali tasdiqlash, ko‘rsatkich qaysi toifadagi xodimlarni qamrab olganini aniqlashtirish lozim. Shundagina ushbu raqamdan tarixiy xulosa chiqarishda ishonchli foydalanish mumkin. 2020-2022-yillarda xotin-qizlar bilan ishlash, oilaviy nizolarning oldini olish va jamoat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan faoliyatni ichki ishlar organlarining umumiy vazifalari bilan bog‘liq holda tahlil qilish muhimdir. Bu davrda mahalla bilan hamkorlik, muammoli oilalarni aniqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi hamda tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash masalalari alohida e’tiborga loyiq. Bunday faoliyatning samaradorligi muammolarni erta aniqlash, fuqarolar bilan muntazam muloqot qilish va tegishli tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bilan bog‘liq. Xotin-qizlar bilan ishlash tizimida ichki ishlar organlari xodimalari va mahalladagi xotin-qizlar faollarining vazifalarini farqlash ham muhim metodologik masaladir. Mahalladagi xotin-qizlar faollari aholining ehtiyojmand qatlamlarini aniqlash, «Ayollar daftari»ga kiritilgan xotin-qizlar bilan manzilli ishlash, kasb-hunar va tadbirkorlikka jalb etishga ko‘maklashish, oilaviy muammolarni hal etish kabi vazifalarni bajaradi. Ichki ishlar organlarining xotin-qizlar masalalari bo‘yicha inspektorlari esa o‘z vakolatlari doirasida huquqbuzarliklar profilaktikasi, huquqiy himoya va tegishli xizmat choralarini amalga oshirishda ishtirok etadi. Ushbu ikki yo‘nalish o‘zaro hamkorlik qilishi mumkin, biroq ularning tashkiliy maqomi va vakolatlari bir xil emas. Xorijiy davlatlar politsiya tizimiga oid materiallar ham xotin-qizlar xizmatini tashkil etishda huquqiy kafolatlar, kasbiy tayyorgarlik, xavfsiz xizmat sharoitlari va professional rivojlanish imkoniyatlari muhimligini ko‘rsatadi. AQSh, Kanada, Angliya va Uels tajribasini qiyosiy o‘rganish xodimlarni tanlash, kasbiy etika, ijtimoiy himoya va rahbarlik lavozimlariga ko‘tarilish bilan bog‘liq yondashuvlarni tahlil qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, xorijiy politsiya tizimlarining huquqiy va boshqaruv xususiyatlari O‘zbekiston sharoitidan farq qilishi sababli, ularning tajribasini mamlakatimiz tarixiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tatbiq etish mumkin emas. Bunday qiyoslashning asosiy vazifasi turli tizimlarda xotin-qizlar faoliyatini tashkil etishning umumiy tendensiyalari va o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashdan iborat. O‘zbekiston ichki ishlar organlarida xotin-qizlar faoliyati tarixini mustaqillik davridagi huquqiy, tashkiliy va ijtimoiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda o‘rganish lozimligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuni. 2016-yil 16-sentabr, O‘RQ-407-son.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 2-sentabr, O‘RQ-561-son.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 2-sentabr, O‘RQ-562-son.

4. Kdirbaeva A. M. Ichki ishlar organlarida xotin-qizlar xizmat o‘tash tartibini belgilashga doir rivojlangan mamlakatlar tajribasining ilmiy tahlili.

UO‘K 94(575.1):316.343

XX ASR BOSHIDA TURKISTON O‘TROQ QISHLOG‘INING IJTIMOIY TABAQALANISHI (ANDIJON VA CHIMKENT UEZDLARIDAGI AGRAR-STATISTIK TEKSHIRUVLAR ASOSIDA)

T.T.Safarov, dotsent, Buxoro davlat texnika universiteti, Buxoro

Annotatsiya. *Maqolada Ko‘chirish boshqarmasi tomonidan 1906-yilda Chimkent uezdining to‘rt qishlog‘ida va 1909-yilda Andijon uezdining to‘rt qishlog‘ida o‘tkazilgan xonadonma-xonadon tekshiruvlar materiallari qiyosiy tahlil qilinadi. Bu manbalar “Turkiston to‘plami”ning 576 va 577-jildlarida saqlangan. Yer egaligi, ekin maydoniga ko‘ra xo‘jaliklar guruhlari, chorikorlik va yollanma mehnat, paxta zavodlari oldidagi qarzdorlik, ko‘pxotinlilik va savodxonlik ko‘rsatkichlari asosida o‘troq qishloqning ijtimoiy tuzilishi tiklanadi. Farg‘onada paxta monokulturasi va qarzdorlik, Sirdaryo viloyatida esa yerlarning rus posyolkalariga o‘tishi tabaqalanishning asosiy*

omillari bo'lgani ko'rsatiladi. Manbalarning ko'chirish siyosati ehtiyojlari uchun yaratilgani ham tanqidiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *o'troq qishloq, ijtimoiy tabaqalanish, chorikorlik, mardikorlik, paxta monokulturasi, qarzdorlik, ko'chirish siyosati, "Turkiston to'plami", Farg'ona viloyati, Sirdaryo viloyati.*

Аннотация. *В статье сравниваются материалы подворных обследований, проведенных Переселенческим управлением в 1906 г. в четырех кишлаках Чимкентского уезда и в 1909 г. в четырех кишлаках Андижанского уезда (тт. 576 и 577 «Туркестанского сборника»). На основе данных о землевладении, группах хозяйств по размеру посева, издольщине, найме, задолженности хлопкоочистительным заводам, многоженстве и грамотности реконструируется социальная структура оседлого кишлака. Показано, что в Фергане главными факторами расслоения были хлопковая монокультура и задолженность, а в Сыр-Дарьинской области – переход земель к русским поселкам.*

Ключевые слова: *оседлый кишлак, социальное расслоение, издольщина (чайрикерство), батрачество, хлопковая монокультура, задолженность, переселенческая политика, «Туркестанский сборник».*

Abstract. *The article compares household surveys conducted by the Resettlement Administration in four villages of the Chimkent district (1906) and four villages of the Andijan district (1909), preserved in volumes 576 and 577 of the Turkestan Collection. Data on landholding, groups of households by sown area, sharecropping, hired labour, indebtedness to cotton gins, polygamy and literacy are used to reconstruct the social structure of the sedentary village. In Fergana, cotton monoculture and debt were the main drivers of stratification, while in the Syr-Darya region the transfer of land to Russian settlements played the key role.*

Key words: *sedentary village, social stratification, sharecropping, hired labour, cotton monoculture, indebtedness, resettlement policy, Turkestan Collection.*

Kirish. Turkiston general-gubernatorligining XIX asr oxiri – XX asr boshidagi ijtimoiy-iqtisodiy tarixi tarixshunoslikda asosan paxtachilikning rivojlanishi, ko'chirish siyosati va mustamlakachilik sharoitida mahalliy aholining iqtisodiy jihatdan ekspluatatsiya qilinishi jarayonida o'rganilgan. Biroq o'troq dehqonchilik qishloqlarning ichki tuzilishi xonadonlarning yer bilan ta'minlanganligi, ijara va yollanma mehnat munosabatlari, qarzdorlik darajasi, oila tuzilishi va savodxonlik masalasi aniq raqamlar asosida kam tahlil qilingan. Buning asosiy sababi umumlashtiruvchi hisobot ma'lumotlarning yo'qligi bo'lib hisoblangan. Chunki 1897-yilda o'tkazilgan aholi ro'yxati hisobga olish ishlarida ijtimoiy tabaqalanish haqida deyarli ma'lumotlar qayd qilinmagan. Ko'chirish boshqarmasining 1906–1912-yillardagi hisobotlari bu bo'shliqni qisman to'ldiradi. Ular rus dehqonlarini ko'chirib keltirish uchun "ortiqcha" yerlarni aniqlash maqsadida o'tkazilgan, bu ishlar xonadonma-xonadon olib borilgani sababli mahalliy qishloq jamiyati haqida noyob ma'lumotlar to'plangan. "Turkiston to'plami" ning 576 va 577-jildlarida saqlangan ikki shunday tekshiruv Andijon uezdidagi (1909) va Chimkent uezdidagi (1906) "sart xo'jaligi" hisobotlari Farg'ona va Sirdaryo viloyatlarining dehqonchilik qishlog'ini bir xil usulda solishtirish imkonini beradi. Maqolaning maqsadi ushbu ikki tekshiruv ma'lumotlari asosida XX asr boshlaridagi dehqonchilik qishlog'ining ijtimoiy tabaqalanishini qiyosiy tahlil qilish va uning hududiy xususiyatlarini aniqlashdir.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Birinchi manba Ko'chirish boshqarmasi agronomi V.Yuferevning "Хозяйство сартов Ферганской области" asaridir [1]. Tekshiruv 1909-yil 15–30-iyulda Andijon uezdining to'rt qishlog'ida Oltinko'l volostidagi Oqtepa va Mirobodda, Xakan volostidagi Sariqo'y va Zavrakda o'tkazilgan. Jami 793 xonadon ro'yxatga olingan, ulardan 19 oilaning daromad va xarajatlari batafsil yozilgan [1, s. 527]. Tadqiqotning maqsadi ochiq ko'rsatilgan bo'lib, unda ko'chirib keltiriladiganlar uchun yer me'yorini aniqlash ko'zda tutilgan [1, s. 528]. Ikkinchi manba P. Skriplev tahriri ostida chiqqan "Сартовское хозяйство в Чимкентском уезде Сыр-Дарьинской области" [2]. Tadqiqot 1906-yilda Sirdaryo statistika boshqarmasi tomonidan o'tkazilgan, ammo uni nashr qilish uchun mablag' muammosi tufayli 1912-yilda nashr qilingan.

Sayram, Qoramurt, Qorabuloq va Sulton-Rabot qishloqlari xonadonma-xonadon ro‘yxatga olinib bir vaqtning o‘zida uezdning qozoq volostlari va 18 ta rus qishlog‘i ham o‘rganilgan [2, s. 6–7]. Qo‘shimcha manba sifatida 1913-yilgi Namangan uezdi qirg‘izlarining yerdan foydalanishiga oid ma’lumotlari [3] jalb etildi. Tarixshunoslikda bu ma’lumotlar umumiy tarzda tilga olingan bo‘lsa-da, ularni ikki viloyat kesimida solishtirish amalga oshirilmagan. Paxtachilikning ijtimoiy oqibatlari haqida Z. Isoqov va S.S. Gubayevaning ishlari mavjud [4; 5]. Ikki tekshiruvning xo‘jaliklarni guruhlash mezonlari bir xil bo‘lmagani (Andijonda tanob, Chimkentda desyatina) sababli guruhlar o‘lcham birligi hisobga olingan holda solishtirildi (6 tanob taxminan 1 desyatinaga teng (1 desyatina 1,0925 gektar) [1, s. 536]).

Tahlil va natijalar. Andijon qishloqlarida sug‘oriladigan yerlar ayrim xo‘jalik egalari uchun merosiy bo‘lgan. Uni sotish va garovga qo‘yish mumkin hisoblangan, meros shariat bo‘yicha bo‘lingan, sotishda esa qo‘shnilarning birinchi navbatda sotib olish huquqi saqlangan. Lalmi yerlar jamoa foydalanishida bo‘lgan. Muallifning qayd etishicha, yerlarni garovga qo‘yish amaliyoti keng miqyosda qo‘llanilgan [1, s. 533a–534].

Qishloqlarning paydo bo‘lishi haqidagi ma’lumotlar Farg‘ona o‘troq aholisining ko‘chmanchilik ildizlarini ko‘rsatgan. Zavrak qishlog‘i taxminan 200 yil oldin vujudga kelgan, uning yerlari boy qirg‘iz Boybacha-Zaur ismli kishiga qarashli bo‘lib, u yerni asosan sartlarga: bir qismini mahalliy andijonliklarga, qolgan qismini esa Qashqardan ko‘chib kelgan kishilarga sotgan. Bo‘stonoqqa taxminan 112 yil oldin Qo‘qon uezdidagi Qashg‘ar qishlo‘idan ko‘chib kelganlar asos solgan [1, s. 532 a–533 a]. Bu misollar o‘troq qishloq aholisi ko‘chmanchilar yerlarining sotib olinishi va qo‘shni hududlardan kelgan muhojirlar hisobiga kengayganini ko‘rsatadi. Tekshiruvda 1898-yilgi Andijon qo‘zg‘olonidan keyingi jazo choralari ham qayd etilgan bo‘lib, Darxon qishlog‘i aholisi Dukchi eshon boshchiligidagi qo‘zg‘olonda qatnashgani sababli unga tegishli sug‘oriladigan yer maydonlarining bir qismi musodara qilinganidan keyin yangi ariq qazishga majbur bo‘lganligi qayd qilingan [1, s. 534 a]. XIX asr oxiri–XX asr boshlariga oid rus tilidagi manbalardagi “sart” atamasi bu yerda manbaning tarixiy atamasi sifatida qo‘llanadi; uni zamonaviy etnik tasnif bilan aynanlashtirish mumkin emas.

Chimkent qishloqlari esa boshqa tarixiy sharoitda shakllangan. Muallifning fikricha, sartlar ko‘chmanchi qabilalar qurshovida yashaganligi bois, ular zarurat yuzasidan yirik uyushmalarga birlashishga majbur bo‘lganlar. Bu ularni tog‘li vodiylarda kichik qishloqlarda yashagan tojiklardan farqlagan [2, s. 031]. 1906-yilda to‘rt qishloqda 3261 xonadon, 19 950 kishi (10 767 erkak, 9183 ayol) yashagan. Sayramda 1488 xonadon (9029 kishi), Qorabuloqda 1106 (6785), Qoramurtda 477 (2965), Sulton-Rabotda 190 (1171) istiqomat qilgan [2, s. 031]. Andijon qishloqlarida esa 793 xonadonda jami aholi soni 4 122 kishini tashkil etgan bo‘lib, ularning 2 237 nafari erkaklar, 1 885 nafari esa ayollardan iborat bo‘lgan. [1, s. 539a]. Bir xonadonga Andijonda o‘rtacha 5,2 kishi, Chimkentda 6,11 kishi to‘g‘ri kelgan. Taqqoslash uchun, Chimkent uezdidagi rus qishloqlarida bu ko‘rsatkich 6,86, qozoqlarda 6,58 bo‘lgan [2, s. 031–036].

Chimkent qishloqlarida ekinsiz xonadonlar ulushi ancha yuqori bo‘lib 38,5 foizni tashkil etgan. Biroq bu singari xonadonlar bir xil bo‘lmasdan uning taxminan uchdan ikki qismi yersiz dehqonlar va yollanma mehnat bilan kun kechiruvchi aholi qatlamlari bo‘lib, qishloq xo‘jaligida yollanib (46 foiz) va qora ishda (21 foiz) ishlagan, qolgan uchdan bir qismi esa savdo, hunar va xizmat bilan yashagan va ancha ta’minlangan bo‘lgan [2, s. 036]. Chimkentdagi o‘rta qatlam o‘rtacha 9,3 desyatina, eng boy qatlam o‘rtacha 24,12 desyatina yerga ekin ekib dehqonchilik qilgan. Ikkala hududda ham yer va mehnat o‘rtasidagi munosabatlarning asosiy shakli chorikorlik bo‘lgan. Andijon qishloqlarida boy qatlamdagi xo‘jaliklarning 57,9 foizi yerini chorikorlarga bergan, jami bo‘lib esa bu ko‘rsatkich 17,4 foizni tashkil etgan. Yer egasi faqat urug‘ bersa, hosil teng ikkiga bo‘lingan [1, s. 537a]. Yersiz oilalarning boshqa xo‘jalik egalariga iqtisodiy jihatdan qaramligi nafaqat turar joy, balki ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish imkoniyatida ham namoyon bo‘lgan. Hosilning uchdan ikki qismining yer egasiga berilishi chorikorlarning mehnat natijasidan foydalanish imkoniyatini cheklagan deb ta’riflaydi manba muallifi. [1, s. 536a, 564a]. Yollanma ishchi yollaydigan xonadonlar ulushi xo‘jalik kattalashgani sari oshib borgan va 33,9 foizga yetib uch oyga

yollangan mardikor oyiga 10–12 rubl olgan, ovqat va kiyim xo‘jayinning hisobidan berilgan [1, s. 540].

Chimkent qishloqlarida yollanma mehnat yanada keng tarqalgan. Yollanma ishchi ishlatadigan 1188 xonadondan 773 tasi muddatli ishchi, 710 tasi ishbay ishchi, 146 tasi kunbay ishchi yollagan, yillik yollash esa kam bo‘lgan (175 xonadon) [2, s. 050]. Manbada ulushli ijaraning ikki turi qayd etilgan bo‘lib yer egasining ishchi hayvoni bo‘lmasa, ijarachi hosilning yarmini olganligi qayd qilingan. Muallif yersiz sartlarni ijtimoiy-iqtisodiy mavqei jihatidan batraklar, ya’ni yollanma qishloq xo‘jaligi ishchilari toifasiga yaqin qatlam sifatidagi chorikor bo‘lganligini tavsiflagan [2, s. 092]. Xonadonlarning 54,5 foizi dehqonchilikdan tashqari hunar va boshqa ishlar bilan ham shug‘ullangan, ammo boshqa joylarga borib ishlash bilan atigi 7,1 foiz xonadon kishilari band bo‘lgan [2, s. 214, 219].

Andijon qishloqlarida ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalanishning kuchayishiga ta’sir ko‘rsatgan asosiy omillardan biri paxta yetishtirishga ixtisoslashuv va paxta monokulturasining qaror topishi bo‘lgan. Sug‘oriladigan yerdagi ekinlarning 73,0 foizi paxta, 10,9 foizi sholi, 8,8 foizi makkajo‘xori bo‘lib, paxtaning faqat Amerika navlari ekilgan [1, s. 542–543]. Paxta katta aylanma mablag‘ talab qilgani uchun dehqon zavodlardan qarz olishga majbur bo‘lgan. Tekshiruv bu qarz tizimining jarayonini batafsil tasvirlab zavod bahorda 100 rubl berib, kuzda 130 rubllik paxta olganligiga aniqlik kiritgan. Manbada qayd etilishicha, qarz miqdori 400 rublni tashkil etgan hollarda, qarzdorlik vekselda (Veksel muayyan muddatda belgilangan pul miqdorini to‘lash majburiyatini tasdiqlovchi yozma qarz hujjati. T.T.Safarov) 800–1000 rubl miqdorida qayd etilgan. Bu holat qarz majburiyatlarining dastlabki qarz miqdoridan ancha yuqori miqdorda rasmiylashtirilganini ko‘rsatadi. Natijada dehqon qarz majburiyatlarini bajarish jarayonida yillik hisobda 50–60 foiz, hatto undan ham yuqori miqdorda ortiqcha to‘lov qilishga majbur bo‘lgan holda zavodga to‘liq qaram bo‘lib qolgan, qarzni to‘lay olmasa, yeri kim oshdi savdosida sotilgan [1, s. 565–565a]. Qarz munosabatlari faqat yirik yer egalari bilan cheklanmagan. Manbada mahalliy boy sartlar va yahudiy savdogarlar ham dehqonlarga qarz beruvchi iqtisodiy subyektlar sifatida ko‘rsatiladi. Bu holat o‘sha davr qishloq xo‘jaligida kredit munosabatlarining turli ijtimoiy va savdo qatlamlari ishtirokida shakllanganini anglatadi. To‘rt qishloqning umumiy qarzi 98 896,5 rublni, ya’ni bir xonadonga 124,71 rublni tashkil etgan. Qarzdor, muallifning xulosasiga ko‘ra, tekshirilgan qishloqlardagi jami sug‘oriladigan yerlarning qariyb oltidan bir qismi mohiyatan mahalliy aholining mustaqil mulki hisoblanmagan. Bu holat yerga egalikning rasmiy shakli bilan undan amalda foydalanish va uni tasarruf etish imkoniyatlari o‘rtasida muayyan tafovut mavjud bo‘lganini ko‘rsatib yersizlar orasida ham uchdan bir qismni, 20 tanobdan ko‘p yer ekadiganlar orasida esa uchdan ikki qismni tashkil etgan. Muallifning xulosasiga ko‘ra, tekshirilgan qishloqlardagi jami sug‘oriladigan yerlarning qariyb oltidan bir qismi mohiyatan mahalliy aholining mustaqil mulki hisoblanmagan. Bu holat yerga egalikning rasmiy shakli bilan undan amalda foydalanish va uni tasarruf etish imkoniyatlari o‘rtasida muayyan tafovut mavjud bo‘lganini ko‘rsatgan chunki uning qiymati umumiy qarzga teng bo‘lgan [1, s. 565a–566]. Bir kishiga yillik yalpi daromad Andijonda 79,69 rubl, Chimkent uezdidagi sartlarda esa 86,54 rubl bo‘lgan [1, s. 540a]. Hisobot muallifi Farg‘ona vodiysida dehqonchilik, xususan, paxtachilikning yuqori daromadligiga qaramay, mahalliy dehqonlarning turmush darajasi boshqa hududlar aholisinikiga nisbatan ancha past bo‘lganini qayd etgan. Shu munosabat bilan u ekin yetishtirishdan olinadigan daromadni aholi farovonligi bilan aynan bir narsa deb qarash mutlaqo mumkin emas degan xulosaga kelgan. Mazkur kuzatuv qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligi bilan undan bevosita manfaatdor bo‘lgan aholining moddiy farovonligi har doim ham o‘zaro mutanosib bo‘lmaganini ko‘rsatgan [1, s. 572a].

Chimkent qishloqlaridagi tabaqalanishning o‘ziga xos omili yerlarning qo‘shni qozoq ovullari va rus qishloqlari hisobiga o‘tishi bo‘lgan. Tekshiruvda bu jarayon har bir qishloq misolida tavsiflangan [2, s. 064–067]. Sayramning Jon arig‘idagi 100 botmon yer dastlab sartlarda chorikor bo‘lib ishlagan sergeli urug‘i qozoqlariga berilgan, ular keyinchalik yerga o‘zlari ishlay boshlagan. Nizo chiqqach, sartlar rus ma’muriyatiga murojaat qilgan, ma’muriyat esa yerni Krasnovodskoye rus qishlog‘i aholisiga berib, qozoqlarga pul to‘lab bergan [2, s. 065]. 1906-yil bahorida sartlar Badam daryosidagi yangi rus qishlog‘i uchun Chohay arig‘idagi 50 botmon haydaladigan yerni bergan [2, s.

66]. Qoramurt qishlog‘i yerlari Qo‘qon xonining yorlig‘i va rus hukumati tomonidan tasdiqlangan bo‘lsa ham, sartlar harbiy gubernator orqali rus ko‘chmanchilariga taxminan 300 botmon yer bergan [2, s. 066]. Qorabuloqda yer Mankent sartlari bilan nizodan keyin ma’muriyatga o‘tgan va unda Belovodskoye qishlog‘i tashkil etilgan. Shu davrdan boshlab yer va suv resurslariga egalik qilish hamda ulardan foydalanish bilan bog‘liq nizolar keskinlashib, ayrim hollarda ochiq to‘qnashuvlargacha yetib borgan [2, s. 067]. To‘rt qishloqdan faqat Sulton-Rabotning yerlari tortib olinmagan.

Chimkent tekshiruvi o‘troq dehqonchilik jamiyatining kam o‘rganilgan ayrim ko‘rsatkichlarini ham ochib bergan. Hisobot mualliflari ko‘pxotinlilik masalasini o‘sha davrga qadar deyarli o‘rganilmagan ijtimoiy hodisalardan biri sifatida baholaganlar. Ularning kuzatuvlariga ko‘ra, sartlar orasida ko‘p xotinlilik nisbatan kam tarqalgan. Jumladan, tavsiflangan qishloqlardagi 156 ta xo‘jalikda mazkur hodisaning jami 158 ta holati qayd etilgan. Ushbu statistik ma’lumotlar tekshirilgan hududlarda ko‘pxotinlilikning tarqalish darajasini aniqlash imkonini bergan (4,8%). Ko‘pxotinlilik ekinsiz guruhda 2 foiz, o‘rta guruhda 5,1 foiz, boy guruhda esa 11,9 foiz bo‘lgan [2, s. 55–56], ya’ni u ijtimoiy mavqening belgisi sifatida namoyon bo‘lgan.

Savodxonlik bo‘yicha ma’lumotlarga ko‘ra, katta yoshli erkaklarning 9,8 foizi savodli, 2 foizi chala savodli bo‘lgan, ayollarda esa savodli va chala savodlilar jami 1,4 foizni tashkil etgan. Maktab yoshidagi o‘g‘il bolalarning 32 foizi, qizlarning 8,8 foizi o‘qigan. Faqat Sayramning o‘zida 391 o‘g‘il va 80 qiz o‘qigan, maktablar soni 20 tadan kam bo‘lmagan [2, s. 60–62]. Mualliflarning mahalliy maktab haqidagi bahosi esa mafkuraviy xarakterga ega bo‘lib hisobot mualliflari mahalliy aholining savodxonlik darajasi va ta’lim tizimiga baho berar ekan, uni Yevropa ta’lim mezonlaridagi savodxonlik tushunchasidan keskin farqlaganlar. Ularning fikricha, mahalliy ta’lim ko‘proq matnlarni yodlash va takrorlashga asoslangan bo‘lib, mustaqil fikrlash hamda bilimlarni amaliy qo‘llash imkoniyatlarini yetarli darajada rivojlantirmagan [2, s. 60]. Biroq mualliflarning bu bahosi o‘sha davrdagi imperiyaviy-ma’rifiy qarashlar ta’sirida shakllanganini ham hisobga olish lozim. Bu baho manbadagi raqamlarni muallif talqinidan ajratib o‘qish zarurligini ko‘rsatadi.

Muhokama. Ikki tekshiruv o‘troq qishloq tabaqalanishining ikki xil modelini ko‘rsatgan. Farg‘ona modelida yer kam, ammo intensiv foydalanilgan; tabaqalanish asosan paxta monokulturasi va u bilan bog‘liq qarzdorlik orqali kechgan. Bu yerda yersizlar kam bo‘lsa-da, mayda xo‘jaliklar ko‘p bo‘lgan va yerning bir qismi amalda qarz evaziga yo‘qotilgan. Sirdaryo modelida esa yer nisbatan ko‘p, ammo ekstensiv foydalanilgan tabaqalanishning asosiy omili yersiz kishilarning katta qatlamining vujudga kelishiga va yerlarning qo‘shni hududlar hamda rus qishloqlariga o‘tishiga sabab bo‘lgan. Har ikki tekshiruv ham ko‘chirish siyosati ehtiyojlari uchun o‘tkazilgani ularning xulosalariga ta’sir ko‘rsatgan. Yuferev o‘z tadqiqotini rus ko‘chmanchilari xo‘jaligi ham paxta yoki sholiga ixtisoslashishi kerak, degan tavsiya bilan yakunlagan. Muallifning hisob-kitoblariga ko‘ra, alohida xo‘jalik birligi, ya’ni bir xonadonning ehtiyojlarini ta’minlash uchun 3–4 desyatina (taxminan 3,28–4,37 gektar) qulay sug‘oriladigan yer maydoni yetarli hisoblangan. [1, s. 573]. Bu tavsiyani tekshiruvning o‘z ma’lumotlari bilan solishtirish muhim xulosaga olib keladi, ya’ni mahalliy xonadon uchun 1–2 desyatina yetarli deb hisoblangan bo‘lsa, ko‘chib kelgan rus oilasi uchun ikki baravar ko‘p yer ko‘zda tutilgan. Shunday qilib, mahalliy qishloqning ijtimoiy muammolarini aniq hujjatlashtirgan tadqiqot bir vaqtning o‘zida ko‘chirish siyosatining asoslanishiga xizmat qilgan. Chimkent misoli esa sart va qozoq aholisi o‘rtasidagi yer nizolarini rus ma’muriyati ko‘pincha yerni uchinchi tomonga — rus qishloqlariga berish orqali “hal qilgani”ni ko‘rsatgan. Bu holatda esa mahalliy qatlamlar o‘rtasidagi ichki ziddiyatlar mustamlakachilik siyosatining vositasiga aylangan.

Xulosa. Yuqorida bayon qilingan fikrlarga muxtasar xulosa qiladigan bo‘lsak, Ko‘chirish boshqarmasining 1906 va 1909-yillardagi xonadonma-xonadon tekshiruvlari XX asr boshidagi o‘troq dehqonchilik qishlog‘ining ijtimoiy tuzilishi haqida aniq raqamlar beradigan noyob manbalardir. Ular rus aholisini Turkiston hududlariga ko‘chirish siyosatini asoslash maqsadida yaratilganligi sababli tanqidiy o‘qishni talab qiladi. Andijon qishloqlarida tabaqalanishning asosiy omili paxta monokulturasi va qarzdorlik bo‘lganligi, qarz bo‘yicha yillik ortiqcha to‘lov 50–60 foizdan oshganligi, sug‘oriladigan yerlarning taxminan oltidan bir qismi esa amalda qarz evaziga yo‘qotilganligi oydinlashadi. Chimkent qishloqlarida xonadonlarning 38,5 foizi ekin ekmagan va

ularning katta qismi yollanma mehnat bilan kun kechirishi natijasida qishloq yerlarining bir qismi bosqichma-bosqich qozoq ovullari va rus qishloqlari tasarrufiga o‘tgan. Ikkala hududda ham chorikorlik yer va mehnat munosabatlarining asosiy shakli bo‘lib, yersiz dehqonning ijarachidan yollanma ishchiga aylanish jarayonini aks ettirgan. Ko‘pxotinlilik va savodxonlik bo‘yicha raqamlar o‘troq jamiyat haqidagi mustamlaka davri qarashlarini aniqlashtirish imkonini beradi. Ko‘pxotinlilik xonadonlarning atigi 4,8 foizida uchragan va asosan boy qatlamga xos bo‘lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Юферев В. Хозяйство сартов Ферганской области. – Ташкент, 1911 // Туркестанский сборник. – Т. 576.

2. Материалы по изучению хозяйства оседлого туземного населения в Туркестанском крае. Сартовское хозяйство в Чимкентском уезде Сыр-Дарьинской области / под ред. П. Скрыплева. – Ташкент, 1912 // Туркестанский сборник. – Т. 577.

3. Материалы по киргизскому землепользованию. Ферганская область. Наманганский уезд. – Ташкент, 1913 // Туркестанский сборник. – Т. 576.

4. Исоқов З. Фарғона водийси анъанавий деҳқончилик маданияти (хўжалик-маданий анъаналар: тавсифи ва таҳлили) / масъул муҳаррир У.С. Абдуллаев. – Тошкент: Yangi nashr, 2011. – 144 б.

5. Губаева С.С. Население Ферганской долины в конце XIX – начале XX в. (этнокультурные процессы). – Ташкент: Фан, 1991.

UO‘K 902:930.1(5-191.2)

XXI ASR INGLIZ TILLI TARIXSHUNOSLIGIDA MARKAZIY OSIYO ARXEOLOGIYASINI O‘RGANISHDA ILMIY YONDASHUVLARNING TRANSFORMATSIYASI

Tojiboyev R. I., tayanch doktorant, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Antropologiya instituti, Toshkent

Annotatsiya. *Maqolada XXI asr ingliz tilli tarixshunosligida Markaziy Osiyo arxeologiyasini o‘rganishga doir ilmiy yondashuvlarning o‘zgarishi tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor arxeologik madaniyatlarni tipologik tasniflash va qadimgi jamoalarni umumlashtirilgan xo‘jalik kategoriyalari asosida tavsiflashdan landshaft arxeologiyasi, arxeobotanika, zooarxeologiya, barqaror izotoplar va biomolekulyar tahlillar natijalariga tayanuvchi fanlararo tadqiqotlarga o‘tish jarayoniga qaratilgan. M. Frachetti, R.N. Spengler III, P. Doumani, A. Ventresca Miller, W.T.T. Taylor va boshqa tadqiqotchilarning qarashlari qiyosiy-tarixshunoslik nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi. Zamonaviy metodlarning ahamiyati faqat yangi turdagi ma’lumotlarni olish bilan cheklanmasdan, Markaziy Osiyoning qadimgi jamiyatlari haqidagi mavjud tarixiy modellarni tekshirish va qayta ko‘rib chiqish imkonini berganligi asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *Markaziy Osiyo, arxeologiya, tarixshunoslik, archaeoscience, landshaft arxeologiyasi, arxeobotanika, zooarxeologiya, mobil pastoralizm, fanlararo tadqiqotlar.*

Аннотация. *В статье анализируется трансформация научных подходов к изучению археологии Центральной Азии в англоязычной историографии XXI века. Особое внимание уделяется переходу от типологической классификации археологических культур и обобщённых моделей древнего хозяйства к междисциплинарным исследованиям, основанным на данных ландшафтной археологии, археоботаники, зооархеологии, анализа стабильных изотопов и биомолекулярных методов. В сравнительно-историографическом аспекте рассматриваются научные позиции М. Фрачетти, Р.Н. Спенглера III, П. Думани, А. Вентреска Миллер, У.Т.Т. Тейлора и других исследователей. Обосновывается положение о том, что значение новых методов состоит не только в расширении источниковой базы археологии, но и в возможности проверки и пересмотра сложившихся моделей исторического развития древних обществ Центральной Азии.*

Ключевые слова: *Центральная Азия, археология, историография, archaeoscience, ландшафтная археология, археоботаника, зооархеология, мобильный пасторализм, междисциплинарные исследования.*

Abstract. *The article examines the transformation of scholarly approaches to Central Asian archaeology in twenty-first-century English-language historiography. Particular attention is given to the transition from typological classifications of archaeological cultures and generalized models*

of ancient economies towards interdisciplinary research based on landscape archaeology, archaeobotany, zooarchaeology, stable isotope analysis, and biomolecular methods. The scholarly positions of Michael Frachetti, Robert N. Spengler III, Paula Doumani, Alicia Ventresca Miller, William T.T. Taylor, and other researchers are considered from a comparative historiographical perspective. It is argued that the significance of modern analytical methods lies not merely in expanding the archaeological evidence base but also in providing new possibilities for testing and revising established models concerning the historical development of ancient Central Asian societies.
Keywords: *Central Asia, archaeology, historiography, archaeoscience, landscape archaeology, archaeobotany, zooarchaeology, mobile pastoralism, interdisciplinary research.*

Markaziy Osiyo arxeologiyasi uzoq vaqt davomida yirik arxeologik madaniyatlarni aniqlash, ularning xronologiyasi va hududiy chegaralarini belgilash, moddiy madaniyatdagi o‘xshashlik va farqlarni qiyoslash asosida rivojlandi. Ushbu tadqiqot an’anasi mintaqaning bronza va temir davri tarixini davrlashtirish, alohida madaniy komplekslarni ajratish hamda qadimgi jamoalarning o‘zaro aloqalarini aniqlashda katta ilmiy natijalar berdi. Shu bilan birga, arxeologik materialdan qadimgi aholining xo‘jaligi, mobilligi va ijtimoiy munosabatlarini rekonstruksiya qilishda ayrim umumlashtiruvchi kategoriyalar uzoq vaqt yetakchi o‘rin egalladi.

Bunday kategoriyalardan biri Markaziy Osiyoning dasht va tog‘ hududlarida yashagan qadimgi jamoalarni “ko‘chmanchi chorvadorlar” sifatida umumlashtirish bilan bog‘liq edi. Arxeologik madaniyatning muayyan hududda tarqalishi, chorva hayvonlari suyaklarining mavjudligi yoki doimiy monumental turarjoylarning kamligi aholining yuqori mobilligi bilan izohlanishi mumkin edi. Natijada “ko‘chmanchi” va “o‘troq”, “chorvador” va “dehqon” kabi qarama-qarshi kategoriyalar Markaziy Osiyoning qadimgi tarixini tavsiflashda nafaqat iqtisodiy, balki kengroq tarixiy tushuntirish vositasiga aylandi.

XXI asr boshidan ingliz tilli arxeologik adabiyotlarda ushbu tasvir sezilarli darajada murakkablashdi. Bu holat oldingi arxeologik tadqiqotlarning inkor etilishi bilan emas, balki tadqiqot savollari va manbaviy bazaning kengayishi bilan bog‘liq edi. Endilikda sopol buyumlar, me’moriy qoldiqlar va dafn komplekslari bilan bir qatorda qadimgi o‘simlik qoldiqlari, inson va hayvon suyaklarining kimyoviy tarkibi, hayvon tishlari, qadimgi DNK, landshaftning fazoviy tuzilishi hamda ekologik ma’lumotlar mustaqil tarixiy manba sifatida faol qo‘llanila boshladi.

Bu jarayonda Maykl Frachetti tadqiqotlari alohida o‘rin egallaydi. Uning Markaziy Yevrosiyodagi mobil pastoralizmga bag‘ishlangan ishlarida mobillik doimiy va tartibsiz ko‘chish sifatida emas, balki tog‘ va dashtning turli ekologik zonalaridan mavsumiy foydalanishga asoslangan xo‘jalik strategiyasi sifatida talqin qilindi. Begash, Mukri hamda janubi-sharqiy O‘zbekiston tog‘ hududlariga oid tadqiqotlar pastoral jamoalarning uzoq muddatli manzilgohlardan foydalanishi, ularning harakat shakllari hudud va davrga qarab o‘zgarishi mumkinligini ko‘rsatdi.

Keyingi arxeobotanik, zooarxeologik va biomolekulyar tadqiqotlar mazkur muammoni boshqa turdagi dalillar orqali chuqurlashtirdi. R.N. Spengler III va uning hammualliflari tomonidan Begash, Tasbas va boshqa Markaziy Yevrosiyo yodgorliklarida olib borilgan tadqiqotlar pastoral deb tasniflangan ayrim jamoalarning madaniy o‘simliklardan foydalanganini ko‘rsatdi. Bu topilmalar “pastoralist” kategoriyasini bekor qilmagan bo‘lsa-da, chorvachilik bilan dehqonchilikni bir-biriga mutlaq qarama-qarshi xo‘jalik shakllari sifatida talqin qilish imkoniyatini chekladi. Spengler va hammualliflarning keyingi tarixshunoslik tahlilida ham Markaziy Osiyodagi “nomadik narrativlar” yangi arxeobotanik, izotop va boshqa ilmiy ma’lumotlar asosida qayta ko‘rib chiqildi.

Alisiya Ventresca Miller va boshqa tadqiqotchilarning barqaror izotop tahlillariga asoslangan ishlari esa tashqi jihatdan o‘xshash arxeologik komplekslarga mansub aholining oziqlanish va xo‘jalik strategiyalari bir xil bo‘lmaganligini aniqlash imkonini berdi. William Taylor boshchiligidagi ilmiy arxeozoologiya yo‘nalishidagi izlanishlarda hayvon suyaklarining oddiy tur tarkibidan tashqari, tishlarning morfologiyasi va patologiyasi, biomolekulyar belgilar va boshqa indikatorlar orqali hayvonlarni boshqarish, transportda foydalanish va chorvachilik amaliyotlarini bevosita tekshirishga e’tibor kuchaydi.

Shu tariqa XXI asrda yuz bergan o‘zgarishni faqat “an’anaviy arxeologiyadan tabiiy fan metodlariga o‘tish” deb tushuntirish yetarli emas. Masalaning tarixshunoslik jihatdan muhim tomoni shundaki, yangi metodlar avval mavjud bo‘lmagan ma’lumotlarni berish bilan birga, oldindan shakllangan tarixiy kategoriyalarni empirik tekshirish imkonini yaratdi. “Ko‘chmanchi”, “o‘troq”, “chorvador”, “dehqon” yoki “migrant” kabi kategoriyalar endilikda faqat moddiy madaniyatdagi o‘xshashlikdan kelib chiqadigan tavsif sifatida emas, turli mustaqil dalillar bilan tekshirilishi lozim bo‘lgan ilmiy gipoteza sifatida ko‘rilmoqda.

Bu yondashuvning tarixshunoslikdagi ahamiyati “ko‘chmanchilik” tushunchasining mazmunini o‘zgartirishida ko‘rinadi. Harakatchanlikning o‘zi aholining doimiy manzilgohlarga ega bo‘lmaganini anglatmaydi. Aksincha, pastoral jamoalar muayyan hududlarga mavsumiy ravishda qaytishi, turli balandlik zonalaridan muntazam foydalanishi va shu orqali barqaror landshaft tizimini shakllantirishi mumkin edi. Frachetti va Maksudovning janubi-sharqiy O‘zbekiston tog‘laridagi tadqiqotlari bu qarashni Markaziy Osiyoning bevosita mahalliy materiali bilan mustahkamladi. Ular tog‘ hududlaridagi pastoral landshaftning uzoq muddatli rivojlanishini kuzatib, pastoralizmni faqat dasht hududlariga bog‘langan xo‘jalik modeli sifatida tushuntirishning yetarli emasligini ko‘rsatdilar.

Mazkur yondashuv keyinchalik Paula Doumani va boshqa tadqiqotchilar ishlarida xo‘jalik faoliyatining yanada kengroq majmuasi bilan bog‘landi. Tasbas yodgorligi materiallari pastoral jamoaning hayotini faqat chorvachilik bilan izohlash mumkin emasligini ko‘rsatdi. Dafn amaliyotlari, hunarmandchilik faoliyati, uzoq muddatli yashash belgilari va dehqonchilik dalillarining bir arxeologik kontekstda o‘rganilishi pastoral jamoalarning iqtisodiy tuzilishi oldingi tasniflardan murakkabroq bo‘lganini ko‘rsatdi. Shu tariqa landshaft arxeologiyasi asosida boshlangan mobillikni qayta talqin qilish jarayoni paleoiqtisodiy tizimning o‘zini qayta ko‘rib chiqishga olib keldi.

Bu tendensiya Spengler, Ventresca Miller, Schmaus, Motuzaitė Matuzevičiūtė, Taylor va boshqa tadqiqotchilar hammuallifligida chop etilgan *An Imagined Past? Nomadic Narratives in Central Asian Archaeology* maqolasida konseptual darajada umumlashtirildi. Mualliflar Markaziy Osiyo tarixida uzoq vaqt qo‘llanilgan “nomad” kategoriyasini butunlay rad etmaydi. Ularning tanqidi ushbu atamaning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan turli jamoalarni yagona model ostida birlashtirishiga qaratilgan. Arxeobotanika, izotop tadqiqotlari, bioarxeologiya va boshqa yangi dalillar ayrim pastoral jamoalarda dehqonchilik mavjudligini, mobillik darajasi esa hudud va davr bo‘yicha farqlanganini ko‘rsatadi.

Shu nuqtada XXI asr tarixshunosligining yana bir muhim xususiyati ko‘zga tashlanadi: tadqiqotlar alohida ilmiy metodlar doirasidan chiqib, bir xil tarixiy muammoni bir necha mustaqil ma’lumot turi orqali tekshirishga yo‘nalmoqda. Arxeobotanik ma’lumot xo‘jalikda o‘simliklarning o‘rnini ko‘rsatsa, zooarxeologiya chorva podasining tarkibi va undan foydalanish strategiyalarini, barqaror izotoplar esa inson va hayvonlarning oziqlanishi yoki ayrim hollarda harakatchanligiga oid ma’lumotlarni beradi. Ushbu dalillar bir-biri bilan mos kelgan yoki aksincha, bir-biriga zid bo‘lgan holatlarda mavjud tarixiy model qayta tekshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Doumani P. N., Frachetti M. D., Beardmore R., Schmaus T. M., Spengler R. N. III, Mar’yashev A. N. Burial Ritual, Agriculture, and Craft Production among Bronze Age Pastoralists at Tasbas (Kazakhstan) // *Archaeological Research in Asia*. 2015. Vol. 1–2. P. 17–32. DOI: 10.1016/j.ara.2015.01.001.

2. Frachetti M. D. Variability and Dynamic Landscapes of Mobile Pastoralism in Ethnography and Prehistory // Barnard H., Wendrich W. (eds.). *The Archaeology of Mobility: Old World and New World Nomadism*. Los Angeles: Cotsen Institute of Archaeology, 2008. P. 366–396. DOI: 10.2307/j.ctvdjrq8t.19.

3. Frachetti M. D. *Pastoralist Landscapes and Social Interaction in Bronze Age Eurasia*. Berkeley: University of California Press, 2008/2009. DOI: 10.1525/9780520942691.

4. Frachetti M. D., Maksudov F. The Landscape of Ancient Mobile Pastoralism in the Highlands of Southeastern Uzbekistan, 2000 B.C.–A.D. 1400 // *Journal of Field Archaeology*. 2014. Vol. 39, No. 3. P. 195–212. DOI: 10.1179/0093469014Z.00000000085.

5. Spengler R. N. III, Frachetti M. D., Doumani P., Rouse L., Cerasetti B., Bullion E., Mar’yashev A. Early Agriculture and Crop Transmission among Bronze Age Mobile Pastoralists of Central Eurasia // *Proceedings of the Royal Society B: Biological Sciences*. 2014. Vol. 281, No. 1783. Article 20133382. DOI: 10.1098/rspb.2013.3382.

6. Spengler R. N. III, Frachetti M. D., Doumani P. N. Late Bronze Age Agriculture at Tasbas in the Dzhungar Mountains of Eastern Kazakhstan // *Quaternary International*. 2014. Vol. 348. P. 147–157. DOI: 10.1016/j.quaint.2014.03.039.

7. Spengler R. N. III, Ventresca Miller A., Schmaus T., Motuzaitė Matuzevičiūtė G., Miller B. K., Wilkin S., Taylor W. T. T., Li Y., Roberts P., Boivin N. An Imagined Past? Nomadic Narratives in Central Asian Archaeology // *Current Anthropology*. 2021. Vol. 62, No. 3. P. 251–286. DOI: 10.1086/714245.

UO'K 008:327(575)

MARKAZIY OSIYO-JANUBI-SHARQIY OSIYO: SIYOSIY MULOQOTNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TENDENSIYASI

S.R.Tolibova, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz, Toshkent

Annotatsiya. *Mazkur maqolada mustaqillikning dastlabki yillaridan bugungi kunga qadar Markaziy Osiyo va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarining o'zaro ikki va ko'p tomonlama siyosiy-diplomatik munosabatlarining shakllanishi va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda diplomatik munosabatlarning rivojlanish bosqichlari, siyosiy muloqotning asosiy yo'nalishlari hamda zamonaviy bosqichdagi yangi tendensiyalar yoritiladi. Shuningdek, ikki mintaqa davlatlari o'rtasidagi siyosiy-diplomatik hamkorlikning rivojlanish istiqbollari baholanadi.*

Kalit so'zlar: *Markaziy Osiyo, Janubi-Sharqiy Osiyo, diplomatik aloqalar, siyosiy muloqot, ikki tomonlama munosabatlar, ko'p tomonlama diplomatiya.*

Аннотация. *В статье анализируются становление и основные тенденции развития двусторонних и многосторонних политико-дипломатических отношений между государствами Центральной и Юго-Восточной Азии с первых лет независимости до настоящего времени. Рассматриваются основные этапы развития дипломатических отношений, ключевые направления политического диалога, а также новые тенденции современного этапа сотрудничества. Кроме того, оцениваются перспективы дальнейшего развития политико-дипломатического взаимодействия между государствами двух регионов.*

Ключевые слова: *Центральная Азия, Юго-Восточная Азия, дипломатические отношения, политический диалог, двусторонние отношения, многосторонняя дипломатия.*

Abstract. *This article analyzes the formation and development trends of bilateral and multilateral political and diplomatic relations between the states of Central Asia and Southeast Asia from the early years of independence to the present. The study examines the main stages of diplomatic relations, key areas of political dialogue, and emerging trends in cooperation at the contemporary stage. It also assesses the prospects for further development of political and diplomatic cooperation between the states of the two regions.*

Key words: *Central Asia, Southeast Asia, diplomatic relations, political dialogue, bilateral relations, multilateral diplomacy.*

Kirish. Geosiyosiy beqarorlik va geoiqtisodiy raqobat kuchayib borayotgan sharoitda xalqaro munosabatlar tizimi chuqur o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Osiyoning jahon siyosati va iqtisodiyotidagi o'rni ortishi mintaqalararo hamkorlikni rivojlantirish va siyosiy muloqotni institutsionallashtirish ahamiyatini kuchaytirmoqda. Shu bois Markaziy Osiyo davlatlari tashqi siyosatida Janubi-Sharqiy Osiyoning o'rnini, ikki mintaqa hamkorligining hozirgi holatini va ikki tomonlama aloqalardan ko'p tomonlama hamkorlikka o'tish tendensiyalarini tahlil qilish dolzarbdir.

Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi iqtisodiy aloqalarini kengaytirishga intilishi bugungi bosqichda mintaqalararo hamkorlikning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, Osiyo makonida transport va logistika tizimlarining transformatsiya qilishga qaratilgan tashqi siyosiy yondashuvlarning kuchayishi ikki mintaqa davlatlari o'rtasidagi aloqalarga qo'shimcha imkoniyatlar yaratmoqda. Mazkur holat Markaziy va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari o'rtasidagi ikki tomonlama va ko'p tomonlama munosabatlarni kompleks tahlil qilish zaruratini belgilab, tadqiqot mavzusining dolzarbligini asoslaydi.

Tadqiqot materiallari va usullari. Mavzuga doir qator mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, birlamchi manbalar o'rganildi va tahlil qilindi. Shu bois ularni tadqiqotning o'rganilish muammosiga ko'ra, ikki guruhga bo'lish maqsadga muvofiq. *Birinchi guruhni* markaziy osiyolik, xususan, G.M.

Djuraeva, M.A. Janabergenova, S.S. Safoev, X.B. Payvandov, J.A. Iskakova, A.A. Sharapov va boshqa tadqiqotchilar tomonidan ASEAN tashkilotining Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi o‘rni, uning Markaziy Osiyo integratsiya jarayonida “ASEAN modeli”ni qo‘llash imkoniyatlari hamda Markaziy Osiyo davlatlarining Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari bilan ikki tomonlama aloqalariga bag‘ishlangan ilmiy ishlar tashkil etadi. *Ikkinchi guruh*ni esa Janubi-Sharqiy Osiyolik tadqiqotchilari tomonidan Markaziy Osiyo davlatlarining ASEAN mamlakatlari bilan siyosiy, iqtisodiy va diplomatik munosabatlariga oid masalalarni tadqiq etgan Paradorn Rangsimaporn, Yuxon Li, Aleksey Asiryan va Bilaxari Kausikan kabi mualliflar ilmiy ishlarini kiritish mumkin. Ushbu tadqiqotlarda asosan Osiyodagi mintaqaviy integratsiyaning o‘ziga xos jihatlari, ASEAN tajribasidan foydalanish istiqbollari hamda “ASEAN yo‘li”ning mintaqalararo hamkorlik uchun ahamiyati tahlil qilingan.

Tadqiqotning asosiy maqsadi — 1991–2025-yillarda Markaziy Osiyo va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi munosabatlarning asosiy bosqichlarini aniqlash, rivojlanish dinamikasini tahlil qilish hamda ikki tomonlama aloqalardan institutsionallashgan hamkorlikka o‘tish tendensiyalarini baholash.

Tadqiqot natijalari. Ikki mintaqa o‘rtasidagi munosabatlar 90-yillarning boshida shakllanib, bugungi kunga qadar izchil rivojlanib kelmoqda. So‘nggi yillarda ular o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va boshqa yo‘nalishlardagi hamkorlikning yangi shakllari tobora kengayib bormoqda. Xususan, ikki mintaqa davlatlari o‘rtasida siyosiy muloqotning institutsionallashuvi, parlamentlararo aloqalarning faollashuvi va diplomatik vakolatxonalar tarmog‘ining kengayishi natijasida hamkorlikning mazmuni va mexanizmlari yangi bosqichga ko‘tarildi. Biroq Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi siyosiy faoliyatida “Janubi-Sharqiy Osiyo” vektori mintaqa davlatlari tashqi siyosiy manfaatlari va hamkorlik sohalari hamda yillar kesimida turlicha shakllangan. Shu boisdan, Markaziy Osiyo davlatlari tashqi siyosati va diplomatik aloqalarida Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarining tutgan o‘rnini alohida tahlil qilish muhim.

Qozog‘iston Respublikasi mustaqillikning dastlabki yillaridayoq ASEANga a’zo davlatlar bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatishga kirishdi. 1992-2000 yillar davomida Tailand, Vetnam, Indoneziya, Singapur, Kambodja, Laos, Filippin, Myanma va Bruney bilan diplomatik aloqalar yo‘lga qo‘yildi [1] Keyingi yillarda mazkur munosabatlarni institutsional jihatdan mustahkamlash maqsadida o‘zaro elchixonalar tashkil etildi, yuqori darajadagi davlat tashriflari amalga oshirildi hamda tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida muntazam siyosiy maslahatlashuvlar mexanizmi shakllantirildi. Qozog‘istonning Janubi-Sharqiy Osiyodagi asosiy hamkorlari sifatida Singapur, Vetnam, Indeneziya va Tailand alohida o‘rin egallaydi. Singapur bilan munosabatlarda investitsiyalar, davlat boshqaruvi va raqamli iqtisodiyot sohalari ustivor ahamiyat kasb etgan bo‘lsa, Vetnam bilan hamkorlik siyosiy muloqot va savdo-iqtisodiy sheriklikning barqaror rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Hozirgi kunga qadar ikki davlat o‘rtasida jami 50 dan ortiq davlatlararo, hukumatlararo va idoralararo shartnomalar va kelishuvlar imzolangan [2]. Indoneziya bilan munosabatlarda iqtisodiy hamkorlikning huquqiy asoslari yaratilgan bo‘lib, bu davlat Qozog‘iston tomonidan Janubi-Sharqiy Osiyodagi muhim strategik sheriklardan biri sifatida baholanadi. Xususan, ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlikning huquqiy bazasi 25 dan ortiq hujjatni qamrab oladi. Jumladan, 1995-yilda iqtisodiy va texnik hamkorlik to‘g‘risidagi hukumatlararo Bitim [3], shuningdek, savdo, investitsiya va bank sohalaridagi kelishuvlar imzolangan [4]. Mazkur hujjatlar ikki davlat munosabatlarida iqtisodiy hamkorlik muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi. Tailand bilan esa diplomatik munosabatlar yuqori darajadagi tashriflar va doimiy siyosiy muloqot orqali rivojlanib kelmoqda [5.P.1]. Shu bilan birga, Kambodja, Laos, Myanma va Bruney bilan diplomatik munosabatlar mavjud bo‘lishiga qaramasdan, ularning asosiy qismi hozircha siyosiy muloqot va diplomatik aloqalarni saqlab turish bilan cheklanib qolmoqda. Mazkur davlatlar bilan iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik salohiyati hali to‘liq ishga solinmagan bo‘lib, ushbu yo‘nalish ikki tomon uchun istiqbolli hamkorlik sohalaridan biri hisoblanadi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston Respublikasi va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yildi. Xususan, 1992 yilning o‘zida Vetnam, Malayziya, Filippin, Tailand, Indoneziya, Laos, 1995-2001 yillarda yana Kambodja,

Bruney-Dorussalom, Singapur, Myanma mintaqa davlatlari bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatildi [6]. Biroq mintaqa mamlakatlari qatoriga kiruvchi, Sharqiy Timor davlati bilan esa hali o‘zaro rasman diplomatik munosabatlar o‘rnatilmagan. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi bilan ASEANga a’zo har bir davlat o‘rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishning siyosiy va iqtisodiy sharoitlar bilan belgilanadigan o‘ziga xos maqsad va vazifalari mavjud [7 C.75-77]. Hozirda O‘zbekiston Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasining Malayziya, Indoneziya va Singapur kabi rivojlangan davlatlari bilan faol ikki va ko‘p tomonlama aloqalar olib boradi. Bu borada 2019 yili O‘zbekistonning Malayziya bilan munosabatlarini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqildi [8]. Biroq O‘zbekistonning Laos, Myanma, Kambodja bilan o‘zaro siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy munosabatlarda nisbatdan cheklangan aloqalar davom etayotganini qayd etish lozim. Bunga mazkur davlatlarning iqtisodiyoti qishloq xo‘jaligiga asoslangan agrar davlat ekanligi, mamlakatlarning tashqi va ichki siyosatidagi beqarorlik hamda diniy masalalardagi qarama-qarshiliklarni sabab sifatida ko‘rsatish mumkin.

Davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarda hukumat rahbarlarining rasmiy va norasmiy uchrashuvlari alohida ahamiyatga ega. 1992 yil iyun oyida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov Indoneziyaga [9], 1996 yil Vetnamga, 2005 yil Malayziyaga [10] va 2007 yil Singapurga rasmiy tashrif buyurdi va 1995 yil Indoneziya Respublikasi Prezidenti X.M.Suxarto [11.C.412], 2003 yil Malayziya qiroli Tuanku Sayyod Sirajuddin Jamalullayl O‘zbekistonga rasmiy tashrifi amalga oshirildi. 2017 yilda O‘zbekiston va Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqa davlatlari munosabatlarida yangi tendensiyalar shakllana boshladi. Xususan, 2023 yil yanvar oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning Singapurga, may oyida esa Singapurning shu davrdagi rahbari Halima Yaqubning Markaziy Osiyo davlatlariga tashrifi bo‘lib o‘tdi [12]. Bunday rasmiy va norasmiy uchrashuvlar davlatlararo iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy sohadagi hamkorlikni mustahkamlash, o‘zaro hamkorlikni rivojlantirishga oid yangi yo‘nalishlarni ishlab chiqish va mamlakatlar milliy manfaatlariga xizmat qilishida alohida rol o‘ynaydi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda yangi hukumatning iqtisodiyotni erkinlashtirish, yanada ochiq, xalqaro integratsiyalashgan va raqobatbardosh bozor iqtisodiyotini qurish bo‘yicha olib borilayotgan tashabbuslari natijasida Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari bilan savdo-iqtisodiy munosabatlari yangi rivojlanish bosqichiga o‘tganidan dalolat beradi. Xususan, Malayziya, Indoneziya, Singapur, Tailand davlatlari bilan iqtisodiyot, tovar ayirboshlash, investitsiya, ilm-fan, sog‘liqni saqlash, turizm sohasida, Vetnam, Filippin bilan qishloq xo‘jaligi va baliqchilik, sog‘liqni saqlash hamda o‘zaro gumanitar yordam sohasida faol hamkorlik o‘rnatilgan.

Qirg‘iziston Respublikasining Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari bilan hamkorligi mustaqillikning dastlabki yillarida shakllana boshladi. Bugungi kunda respublikaning tashqi siyosiy faoliyatida Osiyo davlatlari, xususan, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamkorlik xalqaro hamkorlikning asosiy yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan [13]. Shunga qaramay, Qirg‘iziston va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar hozircha unchalik keng qamrovli va chuqur emas, ammo so‘nggi yillarda bu munosabatlarni asosan ikki tomonlama diplomatik muloqotlar, BMT, ShHT, YeOII va boshqa xalqaro tashkilotlar orqali turli sohalardagi aloqalarni kengaytirishga intilmoqda. Ayniqsa, Malayziya, Indoneziya, Singapur va Tailand bilan siyosiy muloqotlarni faollashtirish, Vetnam bilan YeOII-Vetnam erkin savdo bitimi orqali iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur bitim tovar pozitsiyalarining 90 foizdan ortig‘i uchun erkin savdo rejimini joriy etib, Qirg‘izistonning Vetnam bilan savdo-iqtisodiy aloqalarini institutsional asosda kengaytirishga xizmat qilmoqda [14]. Biroq mamlakatning diplomatik infratuzilmasi cheklanganligi, transport-kommunikatsiya yo‘laklarining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda institutsional hamkorlik mehanizmlarining sustligi munosabatlarning chuqurlashuvini cheklab turibdi.

Tojikiston tashqi siyosiy konsepsiyasida Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari bilan, xususan, Tailand, Indoneziya, Malayziya, Vetnam va Singapur bilan o‘zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirishga alohida ahamiyat berilgan. Mazkur hamkorlikni yangi bozorlar, kapital va texnologiyalarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim tashqi siyosiy yo‘nalishlardan biri sifatida baholash mumkin [15]. Mustaqillikning dastlabki yillarida mintaqa davlatlari bilan yo‘lga

qo‘yilgan diplomatik aloqalar natijasida yuqori darajadagi rasmiy tashriflar, 2003 yil Indoneziya bilan qator muhim huquqiy hujjatlar, jumladan, “Iqtisodiy va texnik hamkorlik to‘g‘risidagi kelishuv” kabi shartnomalar imzolandi [16.C.180], Malayziya bilan siyosiy maslahatlashuvlar o‘tkazildi [17], shuningdek, Bruney Dorussalom [18] va Kambodja Qirolligi [19] tashqi ishlar vazirliklari va hukumatlararo ikki tomonlama anglashuv memorandumlari imzolandi. Shu bilan birga, munosabatlarning asosiy qismi hali ham ko‘p tomonlama diplomatiya, BMT va ESKATO kabi xalqaro tuzilmalar doirasida global muammolarda, terrorizm va ekstremizm qarshi kurash, iqlim o‘zgarishi va barqaror rivojlanish masalalarida bir-birini qo‘llab-quvvatlab kelmoqda.

Turkmaniston Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari bilan uzoq istiqbolga ega hamkorlik aloqalarni mustaqillikni dastlabki davrida yo‘lga qo‘ygan. Respublika Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasidagi 11 mamlakatdan 10 tasi bilan diplomatik aloqalar o‘rnatgan [20]. So‘nggi yillarda Turkmaniston Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari uyushmasi (ASEAN) davlatlari bilan hamkorlikni rivojlantirmoqda [21]. Shunga qaramay, Turkmanistonning Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari bilan munosabatlari mamlakatning doimiy betaraflik maqomi bilan belgilanadi. Bu holat siyosiy hamkorlikning xususiyatiga ham ta’sir ko‘rsatib, munosabatlarning asosan iqtisodiy diplomatiya, energetika va transport sohalari orqali rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Xususan, Malayziya bilan energetika sohasidagi strategik hamkorlik, Indoneziya, Tailand va Vetnam bilan tashqi ishlar vazirliklari darajasidagi muntazam siyosiy maslahatlashuvlar Turkmanistonning mintaqa bilan pragmatik munosabatlar shakllantirayotganini ko‘rsatadi. Biroq davlatning betaraflik siyosati, yuqori darajadagi rasmiy tashriflarning cheklanganligi hamda diplomatik vakolatxonalar tarmog‘ining torligi siyosiy munosabatlarning institutsional rivojlanishini sekinlashtirmoqda.

Xulosa. Olib borilgan qiyosiy tahlil Markaziy Osiyo davlatlarining Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan munosabatlari tashqi siyosatning mustaqil yo‘nalishi sifatida shakllanib borayotganini ko‘rsatdi. Biroq mazkur jarayon mamlakatlar kesimida bir xil emas. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston va Qozog‘iston hamkorlikning institutsional va amaliy modelini shakllantirgan bo‘lsa, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmanistonda munosabatlar asosan diplomatik aloqalarni qo‘llab-quvvatlash, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasidagi hamkorlik hamda alohida iqtisodiy tashabbuslar orqali rivojlanmoqda. Umuman tendensiyalarni baholaganda birinchi navbatda, munosabatlarning institutsional poydevori diplomatik aloqalar hamda xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasidagi o‘zaro hamkorlik asosida shakllanganini ko‘rish mumkin. Ikkinchidan, Malayziya, Indoneziya, Singapur, Tailand va Vetnam ushbu davlatlar uchun eng faol hamkorlar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Qolgan ASEAN davlatlari bilan aloqalar esa asosan rasmiy diplomatik munosabatlar darajasida saqlanib qolmoqda. Uchinchidan, munosabatlarning asosiy drayverlari siyosiy omillardan ko‘ra savdo-iqtisodiy, transport-tranzit, investitsiya va energetika manfaatlari bilan bog‘liq. Ayni paytda diplomatik infratuzilmaning cheklanganligi, yuqori darajadagi siyosiy muloqotning muntazam emasligi va institutsional mexanizmlarning yetarlicha rivojlanmaganligi ikki mintaqa o‘rtasidagi hamkorlik salohiyatining to‘liq ro‘yobga chiqishiga to‘sqinlik qiluvchi asosiy omillar bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Двусторонние отношения. https://www.gov.kz/memleket/entities/mfa/activities/directions?lang=ru. (09.07.2026)

2. О казахстанско-вьетнамских отношениях. https://www.gov.kz/memleket/entities/mfa-hanoi/activities/2170?lang=ru (04.06.2026)

3. Об утверждении Соглашения между Правительством Республики Казахстан и Правительством Республики Индонезия об экономическом и техническом сотрудничестве. https://adilet.zan.kz/rus/docs/P970000243_ (26.06.26)

4. Казахстанско-индонезийская договорно-правовая база. https://www.gov.kz/memleket/entities/mfa-jakarta/activities/2174 (26.06.26)

5. Seksan Anantasirikiat. Connecting the Connectivities between Thailand and Kazakhstan. International Studies Center. N 2/2025. – P.1

6. Сотрудничество Республики Узбекистан со странами АТР. https://gov.uz/ru/mfa/pages/o-zbekiston-respublikasining-osiyo-tinch-okeani-mintaqasi-davlatlari-bilan-hamkorligi. (20.05.26)

7. Шарапов А.А. Интеграционные процессы в Азиатско-Тихоокеанском регионе. Хозяйство и право. – Тошкент, 2004. №4. –С. 75-77.

8. Сотрудничество Республики Узбекистан со странами АТР. https://gov.uz/oz/mfa/pages/o-zbekiston-respublikasining-osiyo-tinch-okeani-mintaqasi-davlatlari-bilan-hamkorligi. (20.05.26)
9. ЎМА.Фонд-М-37, рўйхат-1, йиғма жилд-1280. 25-варақ
10. ЎМА. Фонд-М-37, рўйхат-1, йиғма жилд-450, 43-варақ.
11. Тюриков В., Шагулямов Р. По пути независимости. –Тошкент, Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма. 2000. –С.412.
12. Сингапур Президенти Тошкент шаҳрига келди. https://president.uz/uz/lists/view/6367 (01.06.26)
13. Департаменты МИД КР. https://mfa.kg/system/departaments-2_ru.html (14.07.26)
14. Атамбаев подписал закон о свободной торговле между ЕАЭС и Вьетнамом. https://www.zakon.kz/redaktsiia-zakonkz/4796991-atambaev-podpisal-zakon-o-svobodnojj.html. (31.07.26)
15. Концепция внешней политики Республики Таджикистан https://mfa.tj/ru/main/view/988/kontseptsiya-vneshnei-politiki-respubliki-tadzhikistan (02.04.25)
16. Назаров Т., Сатторзода А. Дипломатияи муосири тоҷик. - Душанбе: Ирфон. 2006. — С. 180.
17. Таджикистан и Малайзия укрепляют политическое сотрудничество. https://www.mfa.tj/ru/main/view/17489/tadzhikistan-i-malaiziya-ukreplyayut-politicheskoe-sotrudnichestvo (17.07.26)
18. Meeting of the Minister of Foreign Affairs of Tajikistan with the Sultan of Brunei Darussalam. http://tajemb-my.org/meeting-of-the-minister-of-foreign-affairs-of-tajikistan-with-the-sultan-of-brunei-darussalam/. (24.09.25)
19. Имзои Ёддошти тафоҳум миёни Вазорати корҳои хориҷии Тоҷикистон ва Вазорати корҳои хориҷӣ ва ҳамкории байналмилалии Камбоҷа. https://mfa.tj/tg/main/view/16550/imzoi-joddoshti-tafohum-mijoni-vazorati-korhoi-khorijii-tojikiston-va-vazorati-korhoi-khoriji-va-hamkorii-bainalmilalii-kamboja. (24.07.26)
20. Государства, с которыми Туркменистан установил дипломатические отношения. https://www.mfa.gov.tm/ru/articles/55. (17.07.26)
21. Turkmenistan extends cooperation with Southeast Asian countries. https://daryo.uz/en/2023/09/08/turkmenistan-expands-cooperation-with-southeast-asian-countries. (25.07.26)

UO'K 902(575.1)(092)

AKADEMIK O'TKUR ISLOMOVNING O'ZBEKISTON ARXEOLOGIYASI RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI

Xudoyberdiyev A. A., mustaqil tadqiqotchi, Guliston davlat pedagogika instituti, Guliston

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, tarix fanlari doktori, professor, Respublikada arxeologiya va tarix sohasining rivojiga va tarixchi kadrlarning yetishtirishga ulkan hissa qo'shgan ulug' ustoz O'tkur Islomovich Islomov hayoti va faoliyati, ibratlari hamda O'zbekiston arxeologiyasiga kirib kelishi haqida to'xtalib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *Arxeologiya, arxeologik maktab, akademiya, madaniy aloqalar, ekspeditsiya, neolit madaniyati, xronologiya, Obishir, Qo'shilish, Machay, Selung'ur, Mohandaryo, Kampirak, Qizilqir, Obirahmat*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются жизнь и научная деятельность академика Академии наук Республики Узбекистан, доктора исторических наук, профессора, выдающегося наставника Уткура Исламовича Исламова, внесшего значительный вклад в развитие археологии и исторической науки в республике, а также в подготовку высококвалифицированных кадров-историков. Особое внимание уделяется его жизненному пути, научному наследию, педагогической деятельности, личному примеру и его вхождению в сферу археологии Узбекистана.*

Ключевые слова: *Археология, археологическая школа, академия, культурные связи, экспедиция, неолитическая культура, хронология, Обишир, Кошилиш, Мачай, Селунгур, Мохандарья, Кампирак, Кызылкыр, Обирахмат*

Abstract. *This article examines the life and scholarly activities of O'tkur Islamovich Islamov, an Academician of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Historical Sciences, Professor, and an outstanding mentor who made a significant contribution to the development of archaeology and historical studies in the Republic, as well as to the training of professional historians. Particular attention is paid to his life path, scholarly legacy, pedagogical activities, personal example, and his entry into the field of archaeology in Uzbekistan.*

Keywords: *Archaeology, archaeological school, academy, cultural relations, expedition, Neolithic culture, chronology, Obishir, Qo'shilish, Machay, Selungur, Mohandaryo, Kampirak, Qizilqir, Obirahmat*

Insonlarning ijtimoiy dunyoqarash va xulq-atvor me’yorlari bir avloddan ikkinchi avlodga oila sharoitida ota-onalardan, ta’lim muassasalarida ustoz-shogird munosabatlari shuningdek, milliy tarixiy merosimizni o‘rganish vositasida yetib kelgan. Prezidentimizning “Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy- ma’naviy me’rosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak”. (1.1) degan fikrlari zamirida avvalambor, milliy ta’lim tizimini ana shunday ruh bilan sug‘orish, mazkur ma’naviy xazinani bugungi avlodlarga sodda tushunarli, jozibali shaklda yetkazib berish muhimligi ta’kidlab o‘tiladi. Yaqin tariximizdagi buyuk ustoz tarixchimiz yuzlab shogirtlarga ustozlik qilgan ustozimiz akademik O‘tkur Islomovich Islomovning ilmiy me’rosini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘tkir Islomov butun umrini O‘rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi tarixini o‘rganishga bag‘ishlagan keksa arxeologlar avlodining yetakchi namoyondasi hisoblanib, mashaqqatli va o‘z navbatida zafarli hayot yo‘lini bosib o‘tgan.

Xususan, Vatanimiz arxeologiyasini o‘rganish jarayonida “shaxs aspekti” muhim ahamiyatga ega. O‘zR FA akademigi, A. Beruniy nomidagi davlat mukofoti sohibi O‘tkur Islomovich Islomovning shaxsi va uning O‘rta Osiyo arxeologiyasiga qo‘shgan hissasi o‘rganish va yoshlarga yetkazish dolzarb ahamiyatga ega.

Akademik O‘tkur Islomovning ilmiy faoliyati va Markaziy Osiyo arxeologiyasi va tarix fani rivojiga qo‘shgan hissasi ko‘plab manbalarda yoritilgan. A. Asqarov, T. Sh. Shirinov va A. P. Derevyanko tomonidan yozilgan maqolalarda [2, 3], B. Nazirov, A. Jumayev tomonidan yozilgan maqolalarda [4] olimning ilmiy merosi, arxeologik maktab yaratishdagi o‘rni hamda O‘zbekiston arxeologiyasining taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi atroflicha tahlil qilingan. Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Milliy Arxeologiya Markazi tomonidan F. Maqsudov muharrirligida O‘zbekiston akademigi O‘tkir Islomovich Islomov xotirasiga bag‘ishlangan «O‘rta Osiyoning tarix oldi madaniyatlari» mavzusidagi xalqaro ilmiy – amaliy konferensiya materiallarida, Farhod Maqsudov, Baxtiyor Sayfullaev, Sayyora Mirsoatova, Anvar Omonov, Ra’noxon Ahmadaliyeva, Raxmon Ibragimov, Rustam Sulaymanov, Akmal Muhammadiyev, Sunatulla Tursunov, Ergashev Orifjon, Pavlenok K. K., Pavlenok G. D., Kogai S. A., Derevnina A. S., Yudin I. A., Tursunov S. S. maqolalarida[5] Akademik O‘tkur Islomovning tarix va arxeologiya faniga kirib kelishi, arxeologik ekspeditsiyalarni tashkil etishdagi ilmiy boshqaruvi, shuningdek, yosh arxeologlarni tayyorlashdagi xizmatlari yoritilib, uning Markaziy Osiyo arxeologiyasidagi o‘ziga xos ilmiy maktabi alohida ta’kidlab o‘tilgan.

Tadqiqotda akademik O‘tkur Islomovich Islomovning ilmiy faoliyati arxeologiya faniga kirib kelish tarixini o‘rganishda xolislik tamoyiliga amal qilinib, tahlil, sintez, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tarixiy tahlil hamda xronologik yondashuv kabi ilmiy usullardan foydalanildi.

Akademik O‘tkur Islomov 1932-yilda Toshkent shahrida ziyolilar, ya’ni o‘qituvchilar oilasida tavallud topgan. Uning otasi Islom Ismoilov – O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi, onasi Habiba Ismoilova esa el suygan pedagog va tarbiyachi sifatida yosh avlod tarbiyasi va kamolotga yetkazish yo‘lida faoliyat olib borganlar [2, 147].

O‘tkur Islomovning yoshlig chog‘ida yoq oila muhiti, ota-onaning mehnatsevarligi hamda maktab o‘qituvchilarining ma’naviy ta’siri ostida qalbida o‘z xalqining boy tarixi va ma’naviy-madaniy merosiga bo‘lgan chuqur qiziqishni uyg‘otdi. O‘tkur Islomov maktabni a’lo baholar bilan tamomlagandan so‘ng ota-onasi izidan borib, dastlab Toshkent pedagogika bilim yurtida (1947-1951), so‘ngra Toshkent davlat pedagogika institutining Tarix fakultetida (1952-1956) tahsil oldi [3, 145].

O‘tkur Islomov institutni imtiyozli diplom bilan tamomlab, dastlabki pedagogik faoliyatini Toshkent viloyati Qorasuv tumanidagi 14-sonli o‘rta maktabda o‘qituvchilikdan boshladi. U bu yerda o‘z faoliyatini g‘ayrat va fidoyilik bilan olib borib, mahalliy aholi orasida tezda e’tibor qozondi. Biroq tarix va arxeologiyaga bo‘lgan kuchli qiziqish uni O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Tarix va arxeologiya institutiga yetakladi. [1, 147].

O‘tkur Islomov O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Tarix va arxeologiya institutida arxeologiyaning otasi hisoblangan Yahyo G‘ulomov rahbarligida katta laborant lavozimida ish boshladi. 1957-yilda Yahyo G‘ulomov uni Buxoro viloyatida olib borilayotgan Mohandaryo

arxeologik ekspeditsiyasiga yubordi. O‘. Islomov dastlab Qizilqir yodgorligida, so‘ngra aspirantlar M. Qosimov va H. Nasriddinovlar bilan birgalikda H. Muhammediyev rahbarligida Buxoro vohasini antik davrda o‘rab turgan Kampirak devor qoldiqlarini tadqiq etishda ishtirok etdi. Ushbu ishlarni bajarish jarayonida ekspeditsiya a’zolari bir oy davomida og‘ir sharoitda, tuya karvonlaridan foydalanishga majbur bo‘lishdi. [2, 147]. Ekspeditsiya natijasida xalq orasida noma’lum bo‘lgan “Kampirak devor” qoldiqlari hamda Varg‘azut tosh davri yodgorliklari kashf etildi. Bundan tashqari, Qizilqum hududidagi Boshtepa va Baraxsha kabi qadimiy yodgorliklarga oid yangi ilmiy ma’lumotlar to‘plandi. Mohandaryo ekspeditsiyasi o‘z ishini muvaffaqiyatli yakunlab, O‘tkur Islomovning arxeolog sifatida shakllanishi muhim qadamlardan biri bo‘ldi.[6].

O‘tkur Islomovning ilmiy malakasini oshirish maqsadida 1959-1963 yillarda sobiq Ittifoq Fanlar akademiyasining Arxeologiya institutining Leningrad bo‘limida mashhur arxeolog, akademik A. P. Okladnikov rahbarligida aspiranturada tahsil oldi. Ushbu ilmiy muhit O‘tkur Islomovning iste’dodli olim sifatida shakllanishiga, arxeologiya fanini chuqur va izchil o‘rganishiga hamda O‘zbekiston tosh davrini o‘rganilishida muammolarini muvaffaqiyatli hal etishiga asosiy omil bo‘ldi. 1963-yilda u “Quyi Zarafshonning neolit madaniyati” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi, O‘tkur Islomov O‘zbekistonda tosh davrini o‘rgangan birinchi o‘zbek olimi sifatida tarixda qoldi. [6].

O‘tkur Islomovning ilmiy faoliyatida O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Tarix va Arxeologiya Institutida dastlab kichik ilmiy xodim (1963-1964) so‘ngra katta ilmiy xodim (1964-1970), bo‘lim mudiri (1970-2000) lavozimlarda faoliyat ko‘rsatgan. [2, 148]. Uning qariyb ellik besh yillik mehnat faoliyati davomida erishgan salmoqli natijalarida aynan shu dargohning o‘rni beqiyosdir. O‘tkur Islomov O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Samarqand shahrida tashkil etilgan Arxeologiya institutini shakllantirishda, xususan, “Samarqand arxeologiya maktabi”ga asos solishda faol ishtirok etdi.

O‘tkur Islomov ilmiy faoliyatida mezolit davri yodgorliklarini ham keng ko‘lamda tadqiq qildi. Toshkent yaqinidagi “Qo‘shilish”, Farg‘onadagi “Obishir” va Surxondaryodagi “Machay” g‘orida [7]. muhim yodgorliklarda tadqiqot ishlari boshlandi. O‘tkur Islomov O‘rta Osiyo hududida 50 dan ortiq tosh davriga oid yangi yodgorliklar mavjudligini aniqladi. O‘rganilgan tadqiqotlar natijasida 1978-yilda “O‘rta Osiyo mezoliti” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi [8].

1980-yillardan boshlab, O‘tkur Islomov rahbarligida paleolit davriga oid Selung‘ur g‘orida keng ko‘lamli qazish ishlari olib borildi[9].O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, akademik O‘tkur Islomov va uning shogirdlari faoliyati yangi bosqichga ko‘tarilib, katta muvaffaqiyatlarga erishildi. Shu jumladan 1998-yildan boshlab O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi va Rossiya Fanlar Akademiyasining qo‘shma arxeologik ekspeditsiyasi tashkil etildi. Bu ilmiy ekspeditsiyaga O‘zbekiston tomonidan akademik O‘. Islomov, Rossiya tomonidan esa akademik A.P. Derevyanko rahbarlik qildi [10].

2003-yilning yozida arxeologlar tomonidan Obirahmat g‘orida kamida 50 ming yil muqaddam yashagan qadimgi odamning suyak qoldiqlari topildi Obirahmatdagi bu topilma nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo qadimgi tosh davri arxeologiyasi uchun ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etdi.

Xulosa qilib aytganda, Akademik O‘tkur Islomovning ilmiy ishlarida nazariya va amaliyot chambarchas qo‘llanilgan. Akademik O‘tkur Islomovning ko‘p yillik ilmiy izlanishlari jami 8 ta monografiya, yirik asarlar va 160 dan ortiq ilmiy, ilmiy-ommabop ishlarida o‘z aksini topgan. Olim arxeologik materiallarni tarixiy va madaniy jihatdan tahlil qilib davriy klassifikatsiyani aniq belgilash va ibtidoiy jamiyatning iqtisodiy rivojlanish bosqichlarini asoslash kabi masalalarda o‘z maktabini yaratdi. Olimning ilmiy tadqiqotlari nafaqat tarixning eng qadimgi bosqichlarini yoritishga, balki milliy arxeologiya maktabining rivojlanishiga ham xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sh.M. Mirziyoyev “Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi” Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti 2023, 214-b.

2. Asqarov A., Shirinov T. Sh. Akademik O‘tkir Islomov // O‘zbekiston arxeologiyasi. 2014. № 1 (8). – B. 147-150.

3. Деревянко А. П. Академик Ўткир Исломович Исломов // Ўзбекистон археологияси. 2014. № 1 (8). – С. 145-146.

4. B. Nazirov, A. Jumayev O‘tkur Islomov – Markaziy Osiyo Paleolitshunosligining Yirik Namoyandasi // Tadbirkorlik va Pedagogika. 2025. № 5. – B.42-51.

5. F. A. Maqsudov. “O‘zbekiston Moddiy Madaniyati Tarixi” 43-Nashri T-2022.

6. Исламов У. И. Первобытная культура в низовьях Зарафшана. – Ташкент: Фан 1966.

7. Исламов У. И. Пещера Мачай. – Ташкент: Фан 1980.

8. Исламов У. И. Обиширская культура. – Ташкент: Фан 1988.

9. Исламов У. И. Культура каменного века Центральной Ферганы- Ташкент: Фан 1995

10. Деревянко.А.П., Исламов.У.И., Петрин В.Т., Сулайманов Р.Х., Алимов К., Крахмаль К.А., Исследования грота Оби-Рахмат (Республика Узбекистан) в 1998 г.// Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий.-Новосибирск: Изд-во ИАЭт СОРАН. 1998

UO‘K 94(575.1):745/749

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA MILLIY HUNARMANDCHILIKNI QO‘LLAB-QUVVATLASH SIYOSATINING TARIXIY SHAKLLANISHI (1997–2025 YILLAR)

S.I.Yoqubjonov, tayanch doktorant, Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona

Annotatsiya. *Maqolada mustaqillik yillarida milliy hunarmandchilikni saqlash va rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatining tarixiy shakllanishi tahlil qilinadi. Tarixiy an’analar bilan yangi huquqiy-tashkiliy mexanizmlar o‘rtasidagi bog‘liqlik, normativ hujjatlarda belgilangan vazifalar va ularning amaliy natijalarini farqlash zarurati asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *Milliy hunarmandchilik; davlat siyosati; tarixiy meros; huquqiy asos; mustaqillik; institutsional yondashuv.*

Аннотация. *В статье анализируется историческое становление государственной политики, направленной на сохранение и развитие национального ремесленничества в годы независимости. Рассматривается связь исторических традиций с новыми правовыми и организационными механизмами. Обосновывается необходимость разграничивать задачи, закреплённые в нормативных документах, и практические результаты их реализации.*

Ключевые слова: *национальное ремесленничество, государственная политика, историческое наследие, правовая основа, независимость, институциональный подход.*

Abstract. *The article analyzes the historical development of state policy aimed at preserving and developing national handicrafts during the years of independence. It examines the relationship between historical traditions and new legal and organizational mechanisms. It emphasizes the need to distinguish between the objectives set out in regulatory documents and the practical outcomes of their implementation.*

Key words: *national handicrafts, state policy, historical heritage, legal framework, independence, institutional approach.*

Kirish. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda milliy hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash jarayonlari an’anaviy kasbiy bilimlarni saqlash, yangi iqtisodiy munosabatlarga moslashish va hunarmandlar manfaatlarini institutsional ifoda etish vazifalari bilan bog‘liq holda rivojlandi. «Hunarmand» uyushmasining faoliyati mazkur jarayonlarning tarixiy dinamikasini tadqiq etish imkonini beradi.

Tadqiqotning asosiy muammosi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilab qo‘yilgan vazifalar, uyushmaning tashkiliy imkoniyatlari va amalda hujjatlar bilan tasdiqlangan natijalar o‘rtasidagi nisbatni aniqlashdan iborat. Shu sababli tadqiqotda vazifa belgilanishi va natija qayd etilishi alohida dalil darajalari sifatida baholanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Maqola uchun asosiy manbaviy tayanch sifatida O‘zbekistonda milliy hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlashga doir normativ-huquqiy hujjatlar, nashr etilgan ilmiy adabiyotlar va ochiq rasmiy materiallar qo‘llanildi. Tarixiy-qiyosiy, muammoviy-xronologik va institutsional tahlil usullari asosida hodisalarning ketma-ketligi, huquqiy mexanizmlari va ijtimoiy-madaniy mazmuni o‘zaro solishtirildi. Uyushmaning ayrim yillik hisobotlari birlamchi

nusxada o‘rganilmagani uchun ularga oid ikkilamchi ma’lumotlar mustaqil arxiv dalili sifatida talqin etilmadi.

Natijalar va muhokama. O‘zbekiston hududida hunarmandchilikning shakllanishi va rivojlanishi uzoq tarixiy jarayon bo‘lib, u aholining xo‘jalik faoliyati, turmush tarzi, mahalliy tabiiy resurslar, shahar va qishloqlarning iqtisodiy ixtisoslashuvi hamda madaniy an’analari bilan uzviy bog‘liq holda kechgan. Asrlar davomida kulolchilik, to‘qimachilik, zardo‘zlik, zargarlik, misgarlik, yog‘och o‘ymakorligi, gilamdo‘zlik va boshqa ko‘plab hunar turlarining muayyan hududlarga xos maktablari vujudga kelgan. Mazkur maktablar mahsulot tayyorlashning texnologik usullari bilan bir qatorda badiiy uslub, naqsh tizimi, xomashyodan foydalanish xususiyatlari, mehnatni tashkil etish va kasbiy bilimlarni keyingi avlodga yetkazish mexanizmlari bilan ham o‘zaro farqlangan [1;2].

Shu jihatdan an’anaviy hunarmandchilikni faqat muayyan buyumlarni ishlab chiqarish bilan bog‘liq iqtisodiy faoliyat sifatida talqin qilish yetarli emas. U muayyan hududda tarixan shakllangan kasbiy bilimlar, ishlab chiqarish tajribasi, badiiy an’analar va ijtimoiy munosabatlarni birlashtirgan o‘ziga xos tarixiy-kasbiy muhitni ham ifodalagan. Buxoro, Farg‘ona vodiysi, Xorazm va boshqa tarixiy-madaniy hududlarga oid tadqiqotlar mahalliy hunarmandchilik maktablarining rivojlanishi shahar va qishloq iqtisodiyoti, ichki va tashqi savdo, xomashyo bazasi, mahalliy ehtiyoj hamda ustalarning kasbiy faoliyati bilan bog‘liq kechganini ko‘rsatadi [2;25].

O‘zbekiston hunarmandchiligining mazkur xususiyati uning tarixan bir xil ko‘rinishda rivojlangan yagona tizim bo‘lmaganini ham anglatadi. Turli hududlarda tabiiy resurslar, tarixiy ixtisoslashuv, mahalliy iste’mol, savdo aloqalari va badiiy an’analar ta’sirida o‘ziga xos kasbiy muhitlar shakllangan. Jumladan, Farg‘ona vodiysi hunarmandchilik an’analari hamda Buxoroning ko‘p tarmoqli shahar hunarmandchiligiga oid tadqiqotlar hududiy kasbiy muhitlarning tarixiy o‘ziga xosligini ko‘rsatadi. Xiva va Xorazm hunarmandchilik maktablari bo‘yicha qiyosiy xulosalarni esa maxsus manbalar bilan alohida mustahkamlash talab etiladi. Bu holat mustaqillik yillarida respublika miqyosida amalga oshirilgan yagona qo‘llab-quvvatlash siyosatining turli tarixiy-kasbiy muhitlarda namoyon bo‘lish xususiyatlarini o‘rganish uchun ham muhim nazariy-tarixiy asos vazifasini bajaradi [3;14].

An’anaviy hunarmandchilikning tarixiy davomiyligini ta’minlagan asosiy mexanizmlardan biri usta–shogird munosabatlari edi. Kasbiy bilim va amaliy mahoratning ustadan shogirdga bevosita o‘tishi orqali muayyan texnologik usullar bilan birga badiiy me’yorlar, mehnat madaniyati va professional tajriba ham saqlanib kelgan. Usta–shogird munosabatlarining oilaviy va nooilaviy shakllari o‘rtasidagi farqni aniqlash uchun esa alohida tarixiy va etnografik dalillar talab etiladi. Shu bois usta–shogird tizimi an’anaviy hunarmandchilikda faqat ta’lim usuli emas, balki kasbiy davomiylikni ta’minlovchi ijtimoiy mexanizm sifatida ham ahamiyat kasb etgan [4;24].

Mustaqillik yillarida milliy hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati ana shunday ko‘p asrlik tarixiy-kasbiy muhit negizida shakllandi. Shu sabab mazkur siyosatni tarixiy an’analardan uzilgan holda vujudga kelgan mutlaqo yangi tizim sifatida baholash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Aksincha, davlat mustaqilligi sharoitida avvaldan mavjud mahalliy hunarmandchilik maktablari, usta–shogird an’analari va kasbiy bilimlarni saqlash hamda ularning faoliyatini yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga moslashtirish zarurati yuzaga keldi [5;18].

O‘zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, milliy madaniy meros va an’anaviy qadriyatlarga munosabatning o‘zgarishi xalq amaliy san’ati va hunarmandchilik sohasiga nisbatan yondashuvda ham namoyon bo‘ldi. Biroq mazkur jarayonni faqat milliy madaniy merosni tiklash bilan cheklab talqin qilish yetarli emas [6;21]. Bozor munosabatlariga o‘tish hunarmandlarning iqtisodiy faoliyat sharoitlarini ham o‘zgartirib, xomashyo bilan ta’minlanish, mahsulot ishlab chiqarish, uni realizatsiya qilish, iste’molchi topish, ichki va tashqi bozorlarga chiqish kabi masalalarni yangi iqtisodiy muhit bilan bog‘ladi. Natijada milliy hunarmandchilikni saqlash vazifasi uning subyektlarini tashkiliy va iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash zarurati bilan to‘ldirildi [7;41].

Mustaqillikning dastlabki yilidayoq mazkur yo‘nalishda muayyan tashkiliy choralar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 30-dekabrdagi 317-son qarori bilan «Musavvir» ilmiy-ishlab chiqarish xalq san’ati markazi negizida yuridik shaxs maqomiga ega Respublika «Musavvir» firmasi tashkil etildi. Mazkur qaror va u bilan

tasdiqlangan Ustav tahlili «Musavvir» faoliyatining faqat madaniy yoki ijodiy vazifalar bilan cheklanmaganini ko‘rsatadi [8;51].

Jumladan, an’anaviy xalq amaliy san’ati turlarini tiklash va rivojlantirish, yuqori badiiy qiymatga ega buyumlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish, xalq ustalari va rassomlar mahsulotlarini tayyorlash va realizatsiya qilish, ularni ichki va tashqi bozorlarga chiqarish, ko‘rgazma-yarmarkalar hamda kimoshdi savdolari orqali sotish kabi vazifalar belgilangan edi. Hunarmandchilik ustaxonalarini joylashtirish uchun binolar ajratish va savdo-hunarmandchilik rastalarini tashkil etishga oid choralarning belgilanishi ham ishlab chiqarish bilan bozor infratuzilmasini o‘zaro bog‘lashga intilish mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi [9;36].

Bu dalillar mustaqillikning dastlabki yillarida hunarmandchilik va xalq amaliy san’ati sohasida «institutsional bo‘shliq» mavjud bo‘lgan, degan xulosani qabul qilishga imkon bermaydi. Aksincha, an’anaviy amaliy san’atni tiklash, mahsulot ishlab chiqarish, ustalarning faoliyatini tashkil etish va tayyor mahsulotni bozorga olib chiqish vazifalarini bir-biri bilan bog‘lashga qaratilgan muayyan tashkiliy tajriba shakllangan.

Shu bilan birga, 1991-yildagi «Musavvir» modelini keyinchalik tashkil etilgan «Hunarmand» uyushmasi bilan to‘liq aynanlashtirish ham asosli emas. «Musavvir»ning dastlabki faoliyatida xalq amaliy san’ati, badiiy ishlab chiqarish va mahsulotni realizatsiya qilish vazifalari muhim o‘rin tutgan bo‘lsa, keyingi jarayonda hunarmandlarni maxsus respublika uyushmasi doirasida birlashtirish, ularning kasbiy va iqtisodiy manfaatlarini qo‘llab-quvvatlash hamda hududiy tarmoqqa ega institutsional tuzilma yaratish zarurati tobora aniqroq namoyon bo‘ldi [10;39].

Shu nuqtai nazardan 1991–1996 yillarni keyingi institutsional tizimning tayyor modeli mavjud bo‘lgan davr sifatida ham, tashkiliy tuzilmalar umuman mavjud bo‘lmagan davr sifatida ham baholash maqsadga muvofiq emas. Mazkur davrda milliy hunarmandchilikni saqlash va rivojlantirish bilan bog‘liq madaniy, kasbiy, ishlab chiqarish va iqtisodiy mexanizmlarning yangi sharoitga mos shakllari izlangan. Bu jarayon keyinchalik maxsus hunarmandlar uyushmasining tashkil etilishi uchun muayyan tashkiliy tajriba va institutsional zamin yaratdi [11;58].

1997-yilga kelib hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash masalasi sifat jihatidan yangi bosqichga o‘ta boshladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 31-martdagi PF-1741-son «Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san’atini yanada rivojlantirishni davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni bu jarayonda muhim institutsional chegara vazifasini bajardi. Farmonda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’atining milliy madaniyat rivojidagi ahamiyati bilan birga, asriy an’analarni qayta tiklash, xalq ustalariga davlat tomonidan ko‘mak ko‘rsatish va ular faoliyati uchun amaliy shart-sharoitlar yaratish masalalari ham belgilandi.

Mazkur hujjatning mazmuniy tahlili 1997-yilga kelib hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash siyosati bir nechta o‘zaro bog‘liq mexanizmlarni qamrab ola boshlaganini ko‘rsatadi. Avvalo, xonadon sharoitida badiiy buyumlar ishlab chiqaruvchi hunarmandlarni mahalliy xomashyo, materiallar, asboblar va kichik mexanizatsiya vositalari bilan ta’minlashda amaliy yordam ko‘rsatish vazifasi belgilandi. Bu ishlab chiqarish jarayonini resurslar bilan ta’minlash davlat siyosatining amaliy yo‘nalishlaridan biriga aylanganini anglatadi.

Shu bilan birga, tayyor mahsulotni realizatsiya qilish masalasi ham alohida e’tiborga olindi. Ko‘rgazmalar va kimoshdi savdolarini tashkil etish, hunarmandchilik mahsulotlarini sotishga ixtisoslashtirilgan savdo nuqtalarini tashkil etishga ko‘maklashish kabi vazifalarning belgilanishi ishlab chiqaruvchi bilan iste’molchi o‘rtasidagi bozor aloqalarini qo‘llab-quvvatlashga intilishni ko‘rsatadi. Shu tariqa davlat siyosatida hunarmandchilik mahsulotini yaratishning o‘zi bilan birga uni bozorga olib chiqish masalasi ham institutsional ahamiyat kasb eta boshladi.

Farmonda yoshlarni xalq san’ati ustalarining kasbiy ko‘nikmalariga o‘rgatish uchun shart-sharoitlar yaratish masalasining belgilanishi ham alohida ahamiyatga ega edi. Mazkur yondashuv tarixan shakllangan usta–shogird mexanizmini yangi institutsional sharoitda qo‘llab-quvvatlashga intilishni aks ettirdi. Bunda an’anaviy kasbiy bilimlarni avloddan avlodga yetkazish jarayoni madaniy merosni saqlash vazifasi bilan bir qatorda kadrlar tayyorlashning amaliy mexanizmi sifatida ham qarala boshladi.

1997-yilgi siyosatning yana bir muhim xususiyati hunarmandning iqtisodiy faoliyat subyekti sifatidagi imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan choralarda ko‘rindi. Xonadon sharoitida xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’at buyumlarini ishlab chiqaruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlarga mahsulot narxini bozordagi talab va taklifdan kelib chiqib mustaqil belgilash imkoniyatining nazarda tutilishi hunarmandchilikning madaniy funksiyasi bilan uning bozor iqtisodiyotidagi iqtisodiy xususiyati o‘zaro bog‘lanayotganini ko‘rsatuvchi belgilardan biri bo‘ldi.

Biroq 1997-yilgi o‘zgarishlarning dissertatsiya mavzusi nuqtai nazaridan eng muhim jihati hunarmandlarni maxsus tashkiliy tuzilma doirasida birlashtirish masalasining institutsional yechim topishida namoyon bo‘ldi. PF-1741-son Farmonda xalq ustalari, «Usto» birlashmasi va «Musavvir» ilmiy-ishlab chiqarish markazining takliflari asosida «Musavvir» markazi huzurida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida hududiy bo‘linmalarga ega «Hunarmand» xalq ustalari uyushmasini tashkil etish belgilandi.

Ushbu fakt ikki jihatdan muhim. Birinchidan, «Hunarmand» uyushmasi institutsional jihatdan mutlaq bo‘sh maydonda tashkil etilmagan. Uning vujudga kelishida avvaldan mavjud xalq ustalari muhiti, «Usto» birlashmasi va «Musavvir» kabi tuzilmalarning tashkiliy tajribasi muayyan o‘rin tutgan. Ikkinchidan, mazkur holat «Usto», «Musavvir» va «Hunarmand» funksiyalari o‘rtasida to‘liq huquqiy yoki funksional vorislik mavjud bo‘lgan, degan xulosani avtomatik ravishda anglatmaydi. Bunday vorislikni asoslash uchun har bir tuzilmaning vakolat va funksiyalarini birlamchi hujjatlar asosida alohida qiyoslash talab etiladi.

Shu sabab mazkur tadqiqotda 1997-yilgi o‘zgarishlar avvalgi tashkiliy tajriba negizida maxsus hunarmandlar uyushmasining institutsionallashuvi sifatida talqin qilinadi. Bu yondashuv, bir tomondan, avvalgi tashkiliy tajribani inkor etmaslik, ikkinchi tomondan esa «Hunarmand» uyushmasining paydo bo‘lishi bilan yuz bergan sifat o‘zgarishini aniq ajratib ko‘rsatish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 4-iyundagi 282-son «“Hunarmand” xalq hunarmandlari uyushmasini tashkil etish va uning faoliyati masalalari to‘g‘risida»gi qarori mazkur institutsional modelning tashkiliy mexanizmlarini yanada aniqlashtirdi. Qarorga muvofiq «Hunarmand» uyushmasi «Musavvir» ilmiy-ishlab chiqarish markazi huzurida tashkil etildi va uning tarkibiga kiritildi. Uyushma raisi lavozimi bo‘yicha «Musavvir» markazi bosh direktorining o‘rinbosari hisoblanishi ham ikki tuzilma o‘rtasida dastlabki davrda formal tashkiliy bog‘liqlik mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi.

Ayni paytda Uyushmaning respublika va hududiy darajadagi tashkiliy tuzilmalari belgilanishi hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini mamlakat miqyosida hududiy tarmoq orqali amalga oshirish imkoniyatini yaratdi. Uyushma ijro apparatida badiiy ekspertiza, moliya-iqtisodiyot, marketing, ko‘rgazmalar, auksionlar va mahsulot sotish, kasb mahoratini rivojlantirish va kadrlar tayyorlash, moddiy-texnika resurslari bilan ta’minlash kabi yo‘nalishlarning nazarda tutilishi yangi tuzilmaning faoliyat doirasi faqat madaniy-ma’rifiy vazifalar bilan cheklanmaganini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi tarixiy materiallardan kelib chiqadigan muhim metodologik xulosa shundaki, davlat siyosatida muayyan vazifaning belgilanishi uning barcha hududlarda bir xil darajada amalga oshganini anglatmaydi. Shuningdek, uyushma ishtirok etgan tadbirlar, kasbiy qo‘llab-quvvatlash shakllari va hududiy tashabbuslar haqidagi xabarlar iqtisodiy samaradorlik yoki bandlik natijalarining mustaqil statistik isboti o‘rnini bosmaydi. Tarixiy baholashda manbaning turi, sanasi, maqsadi va qamrovi e’tiborga olinishi lozim.

Xulosa. Birinchidan, milliy hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash tarixi davlat siyosati, kasbiy uyushish va mahalliy hunarmandchilik an’analarining o‘zaro munosabatida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchidan, «Hunarmand» uyushmasining tarixiy o‘rnini baholashda huquqiy vakolatlar, tashkiliy vositachilik va hujjatlashtirilgan amaliy natijalarni farqlash muhimdir.

Uchinchidan, sohadagi o‘zgarishlarni yanada aniq yoritish uchun birlamchi hisobotlar, hududiy materiallar va qiyosiy statistik ma’lumotlarni kelgusida mustaqil o‘rganish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1991 yil 30 dekabr, 317-son. «Respublika «Musavvir» firmasini tashkil etish haqida». Rasmiy elektron manba: https://lex.uz/uz/acts/1031240

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 4 iyun, 282-son. ««Hunarmand» xalq hunarmandlari uyushmasini tashkil etish va uning faoliyati masalalari». Rasmiy elektron manba: https://lex.uz/ru/acts/540056

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabr, PF-5242-son. «Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida». Rasmiy elektron manba: https://lex.uz/uz/acts/3416134

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabr, PQ-3393-son. ««Hunarmand» uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida». Rasmiy elektron manba: https://lex.uz/uz/acts/3416129

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 27 noyabr, 960-son. «Xalqaro hunarmandchilik festivalini o‘tkazishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida». Rasmiy elektron manba: https://lex.uz/uz/acts/4082255

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 noyabr, PQ-4539-son. «Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida». Rasmiy elektron manba: https://lex.uz/uz/acts/4622088

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabr, PQ-77-son. «Hunarmandchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida». Rasmiy elektron manba: https://lex.uz/uz/acts/5807559

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 19 mart, PF-50-son. «Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida». Rasmiy elektron manba: https://lex.uz/uz/acts/7444738

UO’K 94(575.1:560)"12"

XORAZMDAN ONADO‘LIGACHA: TARIXIY MIGRATSIYA JARAYONLARI VA ULARNING SHAKLLANISH OMILLARI

Yuldasheva N. N., mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. *Maqolada XIII asrdagi mo‘g‘ullar istilosi va Xorazmshohlar davlatining siyosiy inqirozi natijasida Xorazmlik aholi, harbiylar va siyosiy-ijtimoiy guruhlarning Yaqin Sharq hamda Onado‘li hududlariga harakatlanish jarayonlari tarixiy manbalar va zamonaviy tadqiqotlar asosida tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Xorazm, Xorazmshohlar, Jaloliddin Manguberdi, mo‘g‘ullar istilosi, migratsiya, Onado‘li, Xorazmlik turklar, toponimika, etnotoponim, tarixiy xotira.*

Аннотация. *В статье на основе исторических источников и современных исследований анализируются процессы переселения хорезмийского населения, военных и социально-политических групп на территории Ближнего Востока и Анатолии в результате монгольского нашествия XIII века и политического кризиса государства Хорезмшахов.*

Ключевые слова: *Хорезм, Хорезмшахи, Джалалиддин Мангуберды, монгольское завоевание, миграция, Анатолия, хорезмские тюрки, топонимика, этнотопоним, историческая память.*

Abstract. *Drawing on historical sources and contemporary research, this article analyzes the migration of the Khwarazmian population, military personnel, and socio-political groups to the Middle East and Anatolia following the 13th-century Mongol invasion and the political collapse of the Khwarazmian Empire.*

Keywords: *Khwarazm, Khwarazmshahs, Jalal al-Din Manguberdi, Mongol invasion, migration, Anatolia, Khwarazmian Turks, toponymy, ethnotoponym, historical memory.*

XIII asrning birinchi choragi Markaziy Osiyo, Eron, Kavkaz va Onado‘li tarixida keskin siyosiy, demografik va etnomadaniy o‘zgarishlar yuz bergan davrlardan biri hisoblanadi. Chingizxon boshchiligidagi mo‘g‘ullar istilosi nafaqat Xorazmshohlar davlatining siyosiy barham topishiga, balki uning tarkibida yashagan aholi, harbiylar, amaldorlar, hunarmandlar va boshqa ijtimoiy guruhlarning turli yo‘nalishlarda harakatlanishiga ham olib keldi.

Bu jarayonni faqat “qochqinlar harakati” sifatida baholash biryoqlama yondashuv bo‘ladi. Xorazmliklarning bir qismi harbiy qo‘shinlar tarkibida, ayrimlari siyosiy hukmdorlar xizmatida, boshqa guruhlar esa yangi hududlarda joylashish orqali o‘z tarixiy mavjudligini davom ettirgan. Shu nuqtayi nazardan XIII asrdagi Xorazm – Onado‘li munosabatlarini siyosiy tarix bilan bir qatorda migratsiya tarixi, etnik jarayonlar va tarixiy geografiya nuqtayi nazaridan ham o‘rganish muhimdir.

Mazkur masalaning yana bir muhim jihati shundaki, Xorazmliklarning Onado‘lidagi tarixi keyingi asrlarda turli joy nomlari, qabila va urug‘ nomlari hamda aholi guruhlari nomi orqali saqlanib qolgan. Muammer Gul Onado‘lining sharqiy, janubi-sharqiy va g‘arbiy qismlarida Xorazmliklarning izlarini joy nomlari, qabila va urug‘ nomlari orqali kuzatish mumkinligini ta’kidlaydi [1].

Shu sababli Xorazmdan Onado‘liga yo‘nalgan migratsiya jarayonini o‘rganish keyingi bosqichda toponimik manbalarni tarixiy manba sifatida tahlil qilish uchun metodologik asos vazifasini bajaradi.

Xorazmshohlar tarixi, Jaloliddin Manguberdining siyosiy va harbiy faoliyati hamda mo‘g‘ullar istilosi masalalari Sharq va G‘arb tarixshunosligida keng o‘rganilgan. Biroq Xorazmliklarning Onado‘lidagi keyingi tarixi, ularning jamoa va qabilaviy tuzilmalar sifatida saqlanishi hamda bu jarayonning toponimik natijalari alohida tadqiqot yo‘nalishi sifatida nisbatan kam o‘rganilgan.

Zamonaviy turk tarixshunosligida Muammer Gulning “Harezmli Türklerin Anadolu ve Yakındoğu’daki Rolleri ve Tesirleri” nomli tadqiqoti alohida ahamiyatga ega. Muallif mo‘g‘ullar istilosidan keyin Xorazmlik turklarning Onado‘li va Yaqin Sharqdagi siyosiy, ijtimoiy va etnomadaniy ta’sirini tahlil qilgan. Tadqiqotda Xorazmliklarning nafaqat siyosiy-harbiy jarayonlarda, balki qabila, urug‘ va joy nomlarida qoldirgan izlari ham ko‘rsatiladi [2].

Shuningdek, Jaloliddin Manguberdi haqidagi xalqaro tarixshunoslikda uning 1230-yilda Onado‘lidagi Saljuqiylar va Ayyubiylar ittifoqi bilan to‘qnashuvi, mag‘lubiyatdan keyingi harakatlari va 1231-yildagi vafoti haqida muhim ma’lumotlar mavjud. Encyclopaedia Iranica ma’lumotlariga ko‘ra, Jaloliddinning qo‘shinlari uning vafotidan keyin ham Onado‘li va Suriya hududlarida qolgan va ma’lum muddat alohida etnik-ijtimoiy guruh sifatida mavjud bo‘lgan [3].

Demak, mavjud tadqiqotlar Xorazmliklarning Onado‘lida qolganini tasdiqlaydi. Biroq mazkur jarayonning Xorazmdan boshlangan migratsion yo‘nalishlari, uning bosqichlari va keyingi toponimik izlari o‘zaro bog‘liq holda kompleks tadqiq etishni talab qiladi.

Maqolaning maqsadi XIII asrda Xorazmdan Onado‘ligacha bo‘lgan tarixiy migratsiya jarayonlarining asosiy bosqichlarini aniqlash va ushbu migratsiyaning keyingi etnomadaniy hamda toponimik jarayonlar uchun tarixiy asosini belgilashdan iborat. Shu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi:

• mo‘g‘ullar istilosining Xorazm aholisi harakatiga ta’sirini aniqlash;
• Jaloliddin Manguberdining g‘arbga harakatlanish yo‘nalishlarini tahlil qilish;
• Xorazmlik harbiy guruhlarning Onado‘li hududi bilan bog‘liqligini aniqlash;
• 1230 yilgi Yassi Chaman jangi va uning migratsion jarayonlarga ta’sirini baholash;
• Jaloliddin Manguberdi vafotidan keyin Xorazmlik guruhlarning Onado‘li va Yaqin Sharqdagi holatini o‘rganish;
• keyingi toponimik tadqiqotlar uchun tarixiy dalillar tizimini shakllantirish.

Tadqiqotda tarixiy-genetik, tarixiy-qiyosiy, xronologik va tarixiy-geografik usullardan foydalanildi. Shuningdek, migratsiya jarayonlarini toponimik materiallar bilan bog‘lashda tarixiy manbalarning o‘zaro qiyosiy tahliliga ustuvor ahamiyat berildi.

XIII asr boshlariga kelib, Xorazmshohlar davlati Markaziy Osiyo va Eronning katta qismini qamrab olgan yirik siyosiy tuzilmalardan biriga aylangan edi. Biroq Chingizxon boshchiligidagi mo‘g‘ullar yurishi ushbu davlatning siyosiy tizimi va iqtisodiy hayotiga katta zarba berdi. 1219-yildan boshlangan mo‘g‘ullar istilosi natijasida Xorazmshoh Muhammad II o‘z davlatining asosiy markazlarini saqlab qolish imkoniyatidan mahrum bo‘ldi. Shaharlarning vayron qilinishi, aholining qisman qirilishi va bir qismining boshqa hududlarga ko‘chishi Xorazm hududidagi demografik jarayonlarga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi.

Muhammad II vafotidan keyin uning o‘g‘li Jaloliddin Manguberdi mo‘g‘ullarga qarshi kurashni davom ettirdi. Biroq u endi avvalgi Xorazmshohlar davlatining markaziy hududlariga tayanib emas, balki turli mintaqalarda yangi siyosiy va harbiy tayanchlar izlashga majbur bo‘ldi. Jaloliddinning siyosiy harakatlari uning Xorazm hududidan uzoqlashib, Afg‘oniston, Hind daryosi havzasi, Eron, Ozarbayjon va Kavkaz hududlari orqali g‘arbga siljishiga olib keldi. Shu jarayonda uning atrofidagi harbiy kuchlar tarkibida Xorazmliklar bilan bir qatorda turli turkiy va mahalliy guruhlar ham mavjud bo‘lgan.

Shu jihatdan Jaloliddinning g‘arbga harakati faqat bir hukmdorning siyosiy yurishi emas, balki uning harbiy-siyosiy muhitidagi aholi va guruhlarning ham bir hududdan boshqasiga ko‘chishiga sabab bo‘lgan murakkab jarayon sifatida qaralishi lozim. Jaloliddin Manguberdining Onado‘li bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqalari uning Eron va Ozarbayjon hududlaridagi siyosiy faoliyatidan keyin kuchaydi. Uning mintaqadagi faoliyati Onado‘lining sharqiy hududlaridagi siyosiy vaziyat bilan bevosita bog‘liq edi. Xususan, Ahlat masalasi Jaloliddin va Onado‘li Saljuqiylari o‘rtasidagi munosabatlarni keskinlashtirgan muhim omillardan biri bo‘ldi.

1230-yilda Jaloliddin qo‘shinlari bilan Onado‘liga kirib keldi. Bu davrda Onado‘li Saljuqiylar davlati sulton Alouddin Kayqubod I boshchiligida mintaqadagi eng kuchli siyosiy tuzilmalardan biri edi. Jaloliddinning siyosiy ta’sirini kengaytirishga intilishi Saljuqiylar uchun jiddiy xavf sifatida baholandi. Natijada Saljuqiylar sultoni Alouddin Kayqubod I va Diyori Bakr hokimi al-Malik al-Ashraf o‘rtasida ittifoq shakllanib, Jaloliddinga qarshi birgalikda harakat qilindi.

1230-yil avgust oyida Erzinjan yaqinidagi Yassi Chaman maydonida ikki tomon qo‘shinlari to‘qnashdi. Jaloliddin mag‘lubiyatga uchrab, Ozarbayjon tomon chekinishga majbur bo‘ldi. Bu jang uning Onado‘lida mustaqil siyosiy mavqe yaratish imkoniyatini barbod qildi. Biroq Yassi Chaman jangi Xorazmliklarning Onado‘li bilan tarixiy aloqasini tugatmadi. Aksincha, keyingi voqealar Xorazmlik harbiy guruhlarning mintaqada qolishi va turli siyosiy kuchlar xizmatiga kirishiga olib keldi [4].

1230-yilgi mag‘lubiyatdan keyin Jaloliddin Ozarbayjon tomon chekindi. Biroq mo‘g‘ul qo‘shinlarining yangi yurishi uni yana g‘arbga harakatlanishga majbur qildi. 1231-yilda Jaloliddin Manguberdi Onado‘lining sharqiy hududlari va Jazira mintaqasiga yaqin hududlarda harakat qildi. Uning mo‘g‘ullardan qochishi Diyori Bakr va Mayyafarikin atrofida davom etdi. Shu hududda u halok bo‘ldi [5].

Jaloliddin Manguberdining vafoti Xorazmshohlar sulolasining siyosiy tarixiga nuqta qo‘ygan bo‘lsa-da, Xorazmlik harbiy guruhlarning tarixi shu bilan tugamadi. Muammer Gulning tadqiqotiga ko‘ra, Jaloliddinga tobe bo‘lgan Xorazmliklar keyinchalik Onado‘li, Suriya, Iroq va Misrdagi siyosiy voqealarda sezilarli rol o‘ynagan. Ayrim Xorazmlik guruhlar turli davlatlar hukmdorlari xizmatiga kirgan, boshqalari esa Onado‘lining turli hududlarida joylashib qolgan [6].

Encyclopaedia Iranica ham Jaloliddin vafotidan keyin uning qo‘shinlari Onado‘li va Suriya hududlarida qolganini hamda ma’lum vaqt davomida alohida etnik guruh sifatida mavjud bo‘lganini qayd etadi [7].

Bu ma’lumotlar biz uchun prinsipial ahamiyatga ega. Chunki migratsiyaning tarixiy natijasini faqat Jaloliddinning harbiy yurishlari bilan cheklab bo‘lmaydi. Asosiy tarixiy jarayon — Xorazmlik harbiy va ijtimoiy guruhlarning yangi hududlarda qolib, yangi ijtimoiy muhitga moslashuvidir. Xorazmliklarning Onado‘lida qolishi bir martalik va bir yo‘nalishli migratsiyadan iborat bo‘lmagan. Mavjud ma’lumotlar ularning Onado‘lining turli hududlarida tarqalganini ko‘rsatadi.

Muammer Gul Sharqiy va Janubi-Sharqiy Onado‘li bilan bir qatorda G‘arbiy Onado‘lida ham Xorazmlik turklarning izlarini qabila, urug‘, o‘ymoq va joy nomlari orqali aniqlash mumkinligini ko‘rsatadi. Muallif Kutahyo, Ichel, Teke va Alaye hududlarida “Harzem” nomi bilan bog‘liq jamoalar, shuningdek Kutahyo va boshqa hududlarda “Horzum” nomi bilan atalgan jamoalar mavjud bo‘lganini qayd etadi [8]. Mazkur holat Xorazmliklarning Onado‘lidagi mavjudligini ikki darajada ko‘rish imkonini beradi:

Birinchi daraja — etnik-ijtimoiy mavjudlik. Bunda Xorazmliklar muayyan jamoa, urug‘ yoki qabilaviy guruh sifatida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchi daraja — makonda qolgan tarixiy nomlar. Bu holatda esa Xorazm bilan bog‘liq etnonim yoki joy nomi yangi makonda saqlanadi. Aynan ikkinchi holat maqolaning keyingi tadqiqotlar uchun eng muhim yo‘nalishini belgilaydi.

Toponimik izlarning paydo bo‘lishi masalasi. Migratsiya va toponim o‘rtasidagi aloqani avtomatik ravishda qabul qilish ilmiy jihatdan to‘g‘ri emas. Har qanday o‘xshash joy nomi migratsiya natijasi bo‘lgan, deb xulosa qilish uchun qo‘shimcha dalillar talab etiladi. Biroq Xorazmliklarning Onado‘lida jamoa sifatida mavjud bo‘lgani, ularning turli hududlarda tarqalgani va ayrim joylarda

"Harzem", "Horzum", "Harzuni" kabi nomlar bilan bog'langani toponimik tadqiqot uchun muhim tarixiy asos yaratadi.

Muammer Gul Onado'lining turli hududlarida Xorazmliklarning izlarini aynan shu nomlar orqali kuzatish mumkinligini ko'rsatadi. Xususan, Urfa markazi yaqinidagi *Horzum* va *Küçük Horzum* qishloqlari, Urfa–Siverek hududidagi *Harzunî* nomi, Usmonli hujjatlarida Diyori Bakr atrofida qayd etilgan *Harzemi* va Kars–Ardahon hududidagi *Küçük Harziyan* nomlari shular jumlasidandir [9].

Bu ma'lumotlar kelgusida har bir toponimning:

• birinchi qayd etilgan sanasi;
• geografik joylashuvi;
• aholi tarkibi;
• nomning etimologik varianti;
• shu nom bilan atalgan jamoa mavjudligi;
• migratsion yo'nalishlar bilan munosabati;
• boshqa tarixiy hujjatlardagi qaydlari asosida kompleks o'rganilishini talab etadi.

Usmonli davri manbalarida Xorzum nomlari. Toponimik jarayonlarning tarixiy davomiyligini ko'rsatishda Usmonli davri yer-soliq ro'yxatlari alohida ahamiyatga ega. Turkiya Davlat arxivlari tomonidan nashr etilgan "Osmanlı Yer Adları: Anadolu, Karaman, Rum, Diyarbakır, Arap ve Zülkadriye Eyaletleri (1530–1556)" to'plamida bir nechta Horzum nomlari qayd etilgan. Jumladan, Gorum, Golhisor, Yalvach, Mudurnu va Shile hududlaridagi *Horzum, Horzumbükü, Horzum-ı Büzürk va Horzum-ı Küçük* kabi nomlar keltirilgan.

Mazkur hujjatlar bizga juda muhim xronologik imkoniyat beradi. Chunki bu nomlar zamonaviy xaritalarda tasodifiy o'xshashlik sifatida emas, balki XVI asrgacha borib taqaladigan tarixiy nomlar sifatida tadqiq qilinishi mumkin. Shu bilan birga, mazkur nomlarning barchasini bir xil genezisga ega deb qabul qilish mumkin emas. Masalan, bir nomning Xorazmdan kelgan jamoa nomi asosida paydo bo'lgani arxiv, demografik va genealogik ma'lumotlar bilan alohida tasdiqlanishi lozim. Shu sababli biz uchun toponimik o'xshashlik — dalilning boshlang'ich nuqtasi, ammo yakuniy xulosa emas.

Migratsiyadan toponimik xotiragacha. Xorazmliklarning Onado'liga harakati va keyingi toponimik izlarni bir-biri bilan bog'lash uchun shartli ravishda quyidagi tarixiy zanjirni taklif qilish mumkin:

Xorazmdagi siyosiy inqiroz → majburiy va harbiy migratsiya → Onado'liga kirib kelish → yangi hududlarga joylashish → jamoaviy identiklikning saqlanishi → etnonim va urug' nomlarining davom etishi → toponimik nomlanish → tarixiy xotiraning makonda saqlanishi.

Ushbu zanjirning har bir bosqichi mustaqil manbalar bilan tekshirilishi lozim.

Shu nuqtayi nazardan toponimni oddiy geografik nom emas, balki muayyan tarixiy jarayonning ehtimoliy "iz saqlovchisi" sifatida qarash mumkin.

Biroq toponimning tarixiy manba sifatidagi qiymati uning o'zidagina emas, balki boshqa manbalar bilan mosligida namoyon bo'ladi. Masalan, joy nomi Xorazmga ishora qilsa, shu hududda Xorazmlik jamoa mavjudligi haqidagi ma'lumot, migratsiya xronologiyasi va arxiv qaydlari ham mavjud bo'lsa, tarixiy-genetik aloqa haqidagi gipoteza ancha asosli bo'ladi.

Xulosa. XIII asrdagi mo'g'ullar istilosi Xorazm tarixida tub burilish yasagan va aholining turli yo'nalishlarda harakatlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan tarixiy jarayonlardan biri bo'ldi. Xorazmshohlar davlatining siyosiy inqirozi va Jaloliddin Manguberdining mo'g'ullarga qarshi kurashi Xorazmlik harbiy va ijtimoiy guruhlarning Markaziy Osiyodan Eron, Ozarbayjon, Kavkaz, Jazira va Onado'li tomon harakatlanishini kuchaytirdi. 1230 yilgi Yassi Chaman jangi Jaloliddin Manguberdining Onado'lida mustaqil siyosiy tayanch yaratish imkoniyatini cheklagan bo'lsa-da, uning qo'shinlari va unga aloqador Xorazmlik guruhlarning Onado'li bilan tarixiy aloqasini tugatmadi. Aksincha, Jaloliddinning 1231 yilda vafotidan keyin ham uning qo'shinlari va Xorazmlik guruhlarning bir qismi Onado'li va Yaqin Sharq hududlarida qolib, turli siyosiy va ijtimoiy tuzilmalar tarkibiga kirdi.

Tarixiy manbalarda qayd etilgan *Harzem, Horzum, Harzunî, Harzemi* kabi nomlar esa mazkur jarayonning keyingi davrlardagi ehtimoliy makoniy izlarini o'rganish uchun muhim manba qatlamini

tashkil etadi. Shu bilan birga, har qanday toponimik o‘xshashlikni to‘g‘ridan to‘g‘ri Xorazm migratsiyasining natijasi sifatida baholash ilmiy jihatdan asoslanmagan bo‘ladi. Bunday xulosa uchun toponimning xronologiyasi, aholi tarkibi, migratsiya yo‘nalishi, arxiv hujjatlari va boshqa tarixiy dalillarni kompleks tahlil qilish zarur. Shu asosda kelgusida Xorazm–Onado‘li tarixiy aloqalarini toponimik manbalar orqali o‘rganishda quyidagi ilmiy yondashuv taklif etiladi: toponim → birinchi tarixiy qayd → aholi/jamoa → migratsiya dalili → geografik tarqalish → tarixiy kontekst → ehtimoliy genetik aloqa. Mazkur yondashuv Xorazmdan Onado‘liga yo‘nalgan migratsiya jarayonlarini faqat siyosiy-harbiy tarix doirasida emas, balki tarixiy geografiya, etnomadaniy aloqalar va makoniy tarixiy xotira nuqtayi nazaridan ham tadqiq etish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Gül M. Harezmli Türklerin Anadolu ve Yakındoğu'daki Rolleri ve Tesirleri // Belleten. – 2006. – Cilt 70. – Sayı 257. – S. 95–118. DOI: 10.37879/belleten.

2. Bosworth C. E. Jalāl-al-Dīn Khvārazm-Shāh(i) Mengübirni // Encyclopaedia Iranica.

3. Özkılınç A., Coşkun A., Sivridağ A. (yay. haz.). Osmanlı Yer Adları: II. Anadolu, Karaman, Rum, Diyarbakır, Arap ve Zülkadriye Eyaletleri (1530–1556). – Ankara: T.C. Başbakanlık Devlet Arşivleri Genel Müdürlüğü, 2013.

4. Cüveynî A. Târîh-i Cihângüşâ.

5. İbnü'l-Esîr. el-Kâmil fi't-Târîh.

6. Ebü'l-Ferec İbnü'l-İbrî. Abû'l-Farac Tarihi.

7. Nesavî Ş. Sîretü's-Sultân Celâleddin Mengüberti.

8. Taneri A. Hârizmşâhlar. – Ankara: Türkiye Diyanet Vakfı Yayınları.

9. Şahin B. Y. Anadolu Selçuklu Devleti ile Harzemşahlar Devleti Münasebetleri: Yüksek Lisans Tezi. – Konya: Selçuk Üniversitesi, 2008.

UDC 39(575.1)(091)

TAJIKS OF THE FERGHANA VALLEY: ETHNIC GROUPS, SETTLEMENT PATTERNS AND ETHNOCULTURAL INTERACTION WITH THE TURKIC-SPEAKING POPULATION (LATE 19TH – EARLY 20TH CENTURY)

Yusupov A. A., PhD, Fergana Medical Institute of Public Health, Fergana

Annotatsiya. *Maqolada bugungi O‘zbekiston hududida yashovchi yirik xalqlardan biri – Farg‘ona vodiysi tojiklarining tarixi yoritilgan. Ularning vodiyda joylashish xususiyatlari, voha (tekislik) va tog‘li tojiklarga bo‘linishi hamda mahalliy turkiyzabon xalqlar bilan asrlar davomida yaqinlashuvi, integratsiyasi va qisman assimilyatsiyalashuvi tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *tojiklar, Farg‘ona vodiysi, joylashuv, assimilyatsiya, turkiyzabon aholi.*

Аннотация. *В статье рассматривается история таджиков Ферганской долины – одного из крупных народов, проживающих на территории современного Узбекистана. Анализируются особенности их расселения, деление на таджиков оазисов (равнинных) и горных таджиков, а также многовековые процессы сближения, интеграции и частичной ассимиляции с местными тюркоязычными народами.*

Ключевые слова: *таджики, Ферганская долина, расселение, ассимиляция, тюркоязычное население.*

Abstract. *The article examines the history of the Tajiks of the Ferghana Valley, one of the major peoples living in present-day Uzbekistan. It analyses the patterns of their settlement, their division into oasis (lowland) and mountain Tajiks, and the centuries-long processes of rapprochement, integration and partial assimilation with the local Turkic-speaking peoples.*

Keywords: *Tajiks, Ferghana Valley, settlement, assimilation, Turkic-speaking population.*

Introduction. The social sciences and humanities play an exceptional role in strengthening national spirituality, especially among young people. Recent history, being closely tied to the present, also helps us to understand the prospects of future development. For this reason, President Shavkat Mirziyoyev has repeatedly emphasised that the younger generation should know the history of independence in depth and understand at what cost it was achieved. In the words of the head of state, “if the economy is the body of society’s life, then spirituality is its soul and spirit” [1].

Literature review. Modern Uzbekistan is a tolerant state, home to many ethnic groups and more than fifteen religious confessions. For the further development of "New Uzbekistan", the works of orientalists, historians and other scholars in the humanities who studied the historical heritage, achievements and experience of the peoples that inhabited the country in different periods are of particular value. The existing literature can be roughly divided into two groups.

The first group comprises the works of A. Shishov, A. F. Middendorf, V. V. Bartold, V. F. Oshanin, A. P. Fedchenko, N. A. Severtsov, D. V. Nalivkin and other researchers, which describe the history, customs and traditions of the Tajiks, the natural conditions, flora, fauna, water and other resources of the region, as well as the way of life and economic occupations of its population [2].

The second group consists of 20th-century works based on primary sources and devoted to various aspects of the life of the Tajik people. A considerable contribution to the study of its history was made by A. Donish, S. Aini, B. G. Gafurov, N. A. Kislyakov, S. S. Gubaeva and a number of other scholars [3].

In our view, historical knowledge cannot develop by simply repeating the conclusions of predecessors: it requires attention to new trends in world historiography and an independent, concrete-historical approach on the part of the researcher.

Methodology. The study is based on the principles of historicism and logical analysis, the deterministic approach and discourse analysis, applied to the works of scholars who directly addressed the history of Central Asia. The methods of scientific abstraction and systems analysis were also used.

Results. Tajiks have lived in the Ferghana Valley for many centuries. Ethnologists and ethnographers of the late 19th and early 20th centuries who studied the ethnic history of this people divided the Tajiks, including those of Ferghana, into two main groups: oasis Tajiks and mountain Tajiks [4, p. 397]. This classification has retained its significance in modern ethnology [5, p. 59].

The oasis Tajiks are the indigenous population of the valley, who have lived here since ancient times, were not absorbed by the Turkic peoples and preserved their language and ethnic identity. This group also included migrants from Samarkand, Bukhara, Tashkent and Ura-Tyube who settled in Ferghana at different times. Their economy was based on farming, crafts and trade. Close ethnocultural contacts with neighbouring Turkic peoples, above all the Uzbeks, led to a gradual convergence of the way of life and of the material and spiritual culture of the Tajiks and Uzbeks of the valley, and to the mutual borrowing of achievements in everyday and social life.

The term mountain Tajiks referred to migrants from the mountainous areas of present-day Tajikistan (Karategin, Macha, Darvaz, Kulyab, the Pamirs, etc.) who settled in Ferghana or came here for seasonal work [6, p. 8]. Since in their historical homeland they had lived for centuries in isolation in mountain valleys and gorges, their contacts with Turkic peoples were limited, and they therefore preserved more of their national features of material and spiritual culture. While sharing a number of common traits, the two groups differ noticeably in physical appearance, dialects, way of life and culture.

In the late 19th and early 20th centuries, Tajiks lived in practically all towns and districts of the Ferghana Region of the Turkestan Governorate-General: in some places they formed the majority, in others they lived in roughly equal numbers with Uzbeks and Kyrgyz, and elsewhere they were a minority. Thus, A. Shishov noted in his 1910 work that in the mountainous part of Namangan District Tajik villages were scattered among Sart villages and camps of nomadic Kyrgyz, singling out the ancient villages of Akhsi and Kasan; in Ferghana proper Tajiks lived in all towns alongside the Sarts, while their most numerous and "relatively pure" group inhabited the mountain oases of the Kokand and Margilan districts [6].

In the period under study, oasis Tajiks were concentrated mainly in the western (Khujand, Kanibadam), southern (Rishtan, Sokh, Uchkurgan), central (Chust, Kasansay) and north-western (Asht, Chadak) parts of the valley. According to researchers, they made up 85% of the inhabitants of Khujand and its environs, 76.5% of the population of Babadarkhan volost, 61.5% of Asht volost, 81.6% of Isfara volost and 63% of Kanibadam [7, p. 37, 43–46]. Tajiks also predominated in such large settlements as Rishtan, Chadak, Kasan, Chust, Sokh and Uchkurgan, whereas mountain Tajiks

lived mainly in the eastern part of the valley. According to 1923 data, Tajiks formed the majority in more than 120 settlements of the Ferghana Region [8, p. 5–96].

Official statistics did not distinguish between lowland and mountain Tajiks. Drawing on the accounts of orientalists of that time and our own field materials, we compiled a table showing the distribution of oasis Tajiks in the Ferghana Valley in the late 19th and early 20th centuries.

Table. Settlements of the Ferghana Valley with a majority of oasis Tajiks

No.	District (uyezd)	Volost	Settlements
1.	Ferghana*	Uchkurgan	Upper Uchkurgan
		Chimion	Burbalik
2.	Kokand	Isfara	Vorukh, Kulkent, Navgilem, Shurtan, Zumrasho, Nayman, Sur, Chorkishlak, Baland, Zarkhon, Pirdevon, Machay, Chorku, Karbon, Lakon, Chilgazi, Kalachamozorshar, Mashrafa, Isfara
		Kanibadam	Kanibadam
		Kenagas	Mamachol (Tojikvaqf)
		Kudash	Davlatbotir, Rajabgardi, Khudoyorkhon
		Makhram	Makhram, Qaroqchiqum, Mirkhodiev, Vodokachka
		Rishtan	Qalaynav, Upper Rishtan, Patki Rishtan, Qashqariyon, Khurramobod
		Sokh**	Malbut, Katta Migna, Ravon, Sarikanda, Yangiariq, Gaznov, Qalacha, Tul, Chungara, Lembur, Demursad, Pidirgon, Mulgoni Bolo, Mulgoni Poyon, Toshmozor, Obikor, Chumoqcha
		Yaypan	Vokukh, Rapqon, Yangiqurgon
3.	Namangan	Asht	Oqjar, Ashti Bolo, Ashti Poyon, Jarbuloq, Gudas, Pnuk
		Babadarkhan	Beshtol, Juga, Yertula, Kamishkurgan, Kukquruq, Rovot, Urmontol, Drish, Karamozor, Kulikhoja, Mullomiron, Pongozi Bolo, Babadarkhan
		Varzik	Varzik, Varzikon, Qorasuv, Oqsuv, Rovot, Lower Kasan, Upper Kasan, Isfayrin, Shavand, Khitoysoy
		Kapa	Shamsikul
		Tergauchi***	Toshjar, Qoqumbay
		Chust****	Sadacha, Chust
		Chadak	Lower Chadak, Upper Chadak

* Tajiks made up the majority of the population in 24 villages of Ferghana District. ** The villages of Devayron, Sheykhotalik, Kyzylkiyak and Khushyor in Sokh volost were inhabited mainly by mountain Tajiks. *** The population of Kuyunmozor village in Tergauchi volost consisted of mountain Tajiks. **** The inhabitants of the villages of Dachaba and Sarimsoqtepa in Chust volost were mostly mountain Tajiks.

Conclusion. Thus, in the late 19th and early 20th centuries, processes of consolidation were taking place between the oasis and mountain Tajiks of the Ferghana Valley: their economic life, everyday culture and customs were growing ever closer. At the same time, the Tajiks developed diverse ethnocultural ties with their Uzbek, Kyrgyz and Kipchak neighbours. As a result, more and more common features emerged in the material and spiritual culture of the peoples of the valley.

REFERENCES:

1. Shavkat Mirziyoyev: "Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi" [National history must be created in a national spirit]. Materials of the videoconference of 19 January 2021.

2. Shishov A. Tadzhiki: Etnograficheskoe i antropologicheskoe issledovanie [Tajiks: An Ethnographic and Anthropological Study]. Part I. Tashkent, 1910. P. 43; Middendorf A. F. Ocherki Ferganskoy doliny [Essays on the Ferghana Valley]. St. Petersburg, 1882; Bartold V. V. Tadzhiki. Istoricheskiy ocherk [Tajiks: A Historical Essay] // Sochineniya. Vol. II, part 1; Oshanin V. F. Zoogeographical Character of the Hemiptera Fauna of Turkestan. St. Petersburg, 1891; Fedchenko A. P. Collection of Documents. Tashkent, 1956, etc.

3. Gafurov B. G. Istoriya tadzhikskogo naroda [History of the Tajik People]. Moscow, 1952; Kislyakov N. A. On the Ethnogenesis of the Tajiks // Sovetskaya etnografiya. 1947; Mandelshtam A. M. On Some Questions of the Formation of the Tajik Nationality in the Central Asian Interfluve // Sovetskaya arkheologiya. Moscow, 1954; Gubaeva S. S. Naselenie Ferganskoy doliny v kontse XIX – nachale XX v. [Population of the Ferghana Valley in the Late 19th – Early 20th Century]. Tashkent, 1991, etc.

4. Shishov A. Op. cit. P. 43; Middendorf A. F. Ocherki Ferganskoy doliny. St. Petersburg, 1882. P. 397.

5. Gubaeva S. S. Naselenie Ferganskoy doliny v kontse XIX – nachale XX v. Etnokulturnye protsessy [Ethnocultural Processes]. Tashkent, 1991. P. 59.

6. Shishov A. Op. cit. P. 8.

7. Tursunov N. O. Slozhenie i puti razvitiya gorodskogo i selskogo naseleniya Severnogo Tadzhikistana XIX – nachala XX v. [Formation and Development of the Urban and Rural Population of Northern Tajikistan]. Dushanbe, 1976. P. 37, 43–46.

8. Spisok naselennykh mest Ferganskoy oblasti [List of Settlements of the Ferghana Region]. Moscow, 1923. P. 5–96.

УЎК 72.03(575.171):628.1

ХИВА ШАҲРИ МЕЪМОРЧИЛИГИ ВА СУВ ТАЪМИНОТИ ТАРИХИ

Бабожонов Д. К., PhD, Хоразм Маъмун академияси, Хива

Аннотация. *Ушбу мақолада Хоразм шаҳарлари меъморчилиги сув таъминоти ва қадимги Хивақ қудуғи тўғрисида маълумотлар берилган.*

Калит сўзлар: *Амударё, Хоразм, Хивақ, Кўҳандиз, Арк, шаҳристон, работ, Ичанқалъа, Дишанқалъа.*

Аннотация. *В этой статье представлены сведения об архитектуре хорезмских городов, водоснабжении и древнем колодце Хивак.*

Ключевые слова: *Амударья, Хорезм, Хивак, Кухандиз, Арк, шахристан, рабад, Ичан-Кала, Дишан-Кала.*

Abstract. *This article presents information on the architecture of Khorezmian cities, water supply, and the ancient well of Khivak.*

Keywords: *Amu Darya, Khorezm, Khivak, Kuhandiz, Ark, shahristan, rabad, Ichan-Kala, Dishan-Kala.*

Хива-энг қадимий шаҳарлардан бири бўлиб, осмонўпар миноралар, нақшинкор бинолар, нилий гумбазлари билан машҳур бўлган Ўрта аср Шарқ меъморчилигининг тенгсиз жавоҳиридир.

Ривоят қилишларича, яратганнинг иродаси билан рўй берган бутун олам тошқини бир қадар тинчиб, курраи замин баҳрида ороллар ҳосил бўла бошлаганида Нуҳ пайғамбарнинг кемаси Хоразм воҳаси атрофидан ўтади. Шунда Нуҳ пайғамбарнинг ўғли Сом отасидан рухсат олиб соҳилга тушади ва шу ерда тунаб қолади. Тушида унга атрофида минглаб машъалалар ёниб тургани кўринади. Эртаси тонгда тушининг таъбирини отасидан сўраганида, отаси унга бу жойлар муқаддас эканлигини айтиб, ўша жойнинг атрофини қўрғон билан ўраб олишини ва унинг ичида аҳоли учун турар жойлар қуришини амр этади. Ўғил отасининг даъватини бажаришга қаттиқ бел боғлаб, жаннатда таъриф этилганидек, бир кўркам шаҳар барпо этади. Буюк карвон йўлида жойлашганлиги учун у ерда савдогарлар тез-тез бўлишиб туришарди. Шаҳарга тушиб, унинг чуқур қудуғидан чиқаётган обиҳаётидан баҳра олган йўловчилар ҳайратдан "хей-воҳ" деб юборишган. Буни ўзларича талқин қилган маҳаллий аҳоли шаҳарни "Хей-воҳ", "Хайва", "Хивақ" деб айтиб бошлашган [4].

Бу ривоят шаҳарнинг келиб чиқиши ҳақидаги халқ тасаввурларини акс эттиради. Археологик тадқиқотлар Хиванинг қадимийлигини ёритади, бироқ ривоятдаги воқеаларни исботламайди. Хива шаҳри тўғрисидаги дастлабки ишончли маълумотлар X асрлардан бошлаб араб-форс тилларидаги тарихий-жўғрофий манбаларда учрайди. Ушбу давр солномачиларидан бири Ал-Истахрий (930 йил) Хивани ўз даврининг энг йирик 30 та шаҳри рўйхатига киритган. У "Хива-Ҳазораспдан 8 фарсах масофада Журжония ёки Гурганч (Урганч) йўлида жойлашган"лигини қайд қилади. Ал-Мақсидийнинг маълумотларига кўра эса Хива билан Ҳазорасп ўртасидаги масофа 8-девондан (10 фарсах) иборат бўлган. Хива шаҳри ва унинг теварак-атрофи Хейконик (ҳозирги Полвонёп) ариғидан суғорилиб обод ва хушманзара бўлган. Мазкур ариқ Амударёдан бир ирмоқ сифатидан ажралиб чиққан, шаҳар саҳро чегарасида бўлиб, катта ажойиб ҳашаматли жамоа масжиди бор. Масжиднинг ёғочдан ишланган ўйма нақш билан безатилган эшиклари бор. Шаҳар атрофи сув билан тўлдирилган ҳандақ билан ўраб олинган. Кардаранхас ва Хазорасп шаҳарлари ҳам Хивага ўхшаган [8].

Хива шаҳри Ёқут Ҳамавий (XIII аср), Низомиддин Шомий (XIV) асарларида карвон йўлида жойлашган шаҳар сифатида тилга олинади. Улуғ саркарда Амир Темур ва унинг тарихий фаолиятини кўрсатувчи Низомиддин Шомийнинг «Зафарнома» китобида ҳам XIV-XV асрлардаги Хоразм шаҳарлари ва шу жумладан Хива Кат ҳақидаги маълумотларни учратамиз. Бу асарда Амир Темур ҳали мамлакат бошига келмасдан илгариги даврга оид ва Балх амири Ҳусайн билан муносабатига алоқадор ҳолда Хоразм шаҳарлари эслаб ўтилади. Асарда Амир Темур Ҳусайн ҳузурига йўл олиб уни саҳрода излаган пайтида Хивага яқин ердаги Сагажа қудуғи ёнида учратганлиги ва улар биргалашиб Хива томонга йўл олганлиги, Хива ҳокими Тўқол навкарлари озлигидан фойдаланиб Амир Темур ва Амир Ҳусайнларни асир қилиб олмоқчи бўлгани, аммо, Амир Темур ва Амир Ҳусайн томонидан қаршиликка учрагани ҳақида маълумотлар келтирилади [9].

Хива тўғрисидаги яна бир қимматли маълумотни XVII асрнинг биринчи ярмида ижод этган Муҳаммад Тоҳирнинг «Ажойиб ат- табақот» китобида кўриш мумкин. Хусусан китобда, бундай дейилади: «Хоразм-катта мамлакат, бешинчи иқлимдан; кўплаб шаҳарлари ва беҳисоб қишлоқлари бор. Даромади дон-дун ва мева ҳисобидан; ҳосили яхши битади; айниқса, Хоразмнинг қовунлари мазалидир. Пойтахти-Урганч, Хоразм шаҳарларидан яна бири Хивақ бўлиб, у ерда шайх Нажмиддин Кубро туғилган. Ҳозир Хива пойтахт шаҳардир [2].»

XVII асрдаги Хива хони Абулғози Баҳодирхоннинг «Шажараи турк» асарида [3], Маҳмуд Валининг «Баҳр ул-асрор» асарида, Мунис- Огаҳийларнинг «Фирдавс ал-иқбол» асари, шунингдек, Хива тарихчилари Худайберди ибн Эшмуҳаммад ибн Аваз Муҳаммаднинг амир Роҳманқули иноқнинг топшириғи билан ёзилган «Дили ғаройиб» ва Баёнийнинг «Шажараи Хоразмшоҳий» асарларида Хоразм хонлигининг XVII-XIX асрлардаги маркази ва тарихига оид маълумотлар берилган.

Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси, Қорақалпоғистон Республикаси Тарих ва археология институти олимлари томонидан 1984-1993 йилларда ўтказилган археологик қазишмалар (6 марта қазиш ва 7 марта бурғулаш) натижаси шуни кўрсатадики, “Ичан қалъа” ҳудуди эрамиздан аввалги VI-V асрларида пайдо бўлган. Шаҳарнинг энг пастки қатламида топилган ашёлар (сопол буюмлар ва қалин пахса деворлар) шундан далолат беради. Шаҳар деворлари остидан топилган сопол буюмлар, катта ҳажмдаги хом ғиштлар шаҳарни 2500 ёшда эканини тасдиқлайди.

Қадимий Хива шаҳрига ташриф буюрган сайёҳларнинг тарихий обидаларни кўриб, ҳайратланишлари табиий. Бундан икки минг беш юз йил олдин бунёд қилинган бу шаҳарнинг чўл-саҳро ўртасида гуллаб-яшнашига қандай эришилди экан, деган савол туғилади. Уларга оддийгина қилиб, бу халқнинг билими, меҳнати ва ватанни севиши сабабли деб жавоб бериш мумкин. Улар шаҳар тарихи билан жуда ҳам қизиқишади. Хоразм воҳаси Буюк Ипак йўлининг шимолий-ғарбий йўналишида жойлашган асосий ўлка бўлиб воҳа аҳолиси дунёнинг кўпгина мамлакатлари билан борди-келди, савдо-сотиқ қилишган. Айниқса, Эрон, Хуросон (Афғонистон), Туркия, Ироқ, Ҳиндистон каби мамлакатлар билан яқин алоқа ўрнатган. Ўз-ўзидан маълумки, бу алоқалар от ва туя карвонлари ёрдамида амалга оширилган. Шарқ ва жанубдан келган савдогарлар Хивага Марв орқали Қорақум барханлари оша етиб келганлар.

Марв билан Хива ва Қўҳна Урганч шаҳарлари ўртасида савдогарлар учун машҳур хон йўли устида ҳар 30-40 чақиримдан қудуқлар бўлган. Саҳро ўз номи билан саҳро. У ерда сувнинг баҳоси олтинга тенг. Шу боисдан ҳам ота-боболаримиз қумлар қўйнида қудуқлар қазиганлар. Бир қудуқдан шўр сув чиқса, яна бошқасини қазиганлар. Хуллас, улар оғир қийинчиликлар билан қумлар қўйнида ўтов тикиб, қўй боқиб кун кечирганлар, қудуқлар яқинида овуллар ҳам пайдо бўлган. Чўпонлар ҳанузгача ўша қудуқларнинг номини эсга олишади. Қудуқлар ҳар хил номлар билан аталган: «Бол қудуғи», «Қоп қудуғи», «Ноиб қудуғи», «Сарчаман қудуғи», «Катовул қудуғи», «Ожи қудуғи», «Касакли қудуғи», «Сазақли қудуғи», «Аламли қудуғи», «Хажжали қудуғи», «Шўр қудуқ» “Бўри тешик” қудуғи кабилар. Бу қудуқлар «Буюк Ипак йўли» савдогарларига хизмат қилган, уларнинг кўпчилиги сақланмаган. Қудуқлар асоси сазақдан ўрилиб чиққан. Сўнгги вақтларда турли хил тошлардан терилиб қўйилган. Ўтмишда Хон йўлидаги бу қудуқлар ҳар хил номлар билан аталган.

Масалан: "Қоп қудуғи" қумдаги қудуқларнинг энг кексаси ҳисобланади. Қарияларнинг айтишларига қараганда, бу қудуқнинг қазилганига камида 5 аср бўлган. Янгибозор қишлоғида 50 км жанубда, чуқурлиги 40 м. "Бол қудуғи" Қора қумдаги кўхна қудуқларнинг бири. Бу қудуқ суви мазали бўлганлиги сабабли, "Бол қудуқ" деб ном берилган. Бу қудуқ Карвак қишлоғидан 60 км жанубда жойлашган, чуқурлиги 50 метр бўлган. "Ноиб қудуғи" бу қудуқ Ноипбой деган чўпон томонидан қазилган. Бошқа қудуқлардан фарқи, жуда серсувлигидир. У Янгибозор қишлоғида, Хивадан 50 км узоқликда, чуқурлиги 45 метр атрофида. "Сарчаман қудуғи" чучук сувли бу қудуқ ўтган асрларда қазилган. Хазараспнинг Карвак қишлоғидан 25 км жанубда, чуқурлиги 20 метр. "Катовул қудуғи" Қутлимурод деган уста томонидан қаздирилган, Овшар қишлоғидан 40 км жанубда, чуқурлиги 30-35 метр. "Ожи қудуғи" у 1947 йили Жумабой бобо бошчилигида қазилган, чуқурлиги 25 метр, Карвак қишлоғидан 25 км узоқда жойлашган.

Ғозиобод йўли бўйидадан Қорақум марказига олиб борувчи Хон йўлининг яна бир тармоғи ўртасида серсув ва чучук сувли машҳур "Бўри тешик" қудуғи бўлиб бу қудуқ атрофида нафақат савдо карвонлари балки улкан қўшин учун ҳам махсус бинолар қурилган.

Қадимги даврларда Хоразм шаҳарлари каналлар бўйида қурилган, чунки бу каналлар шаҳарларни сув билан таъминлабгина қолмай мудофаа иншооти сифатида ҳам қўлланилган. Каналлар бўйидаги шаҳарлар ичидаги қудуқлар чучук сувли қудуқлар сирасига кириб кўп асрлар давомида фойдаланилган.

Қуйида биз Хива шаҳри мисолида аҳолини турар жойлари қурилиши ва шаҳарнинг сув таъминоти билан танишамиз. Ўтмишда Хива шаҳрини сув билан таъминловчи асосий манбалар Хейканик канали, ҳовуз ва сардобалар бўлиб, шаҳарнинг ҳар бир масжид, мадраса ва катта кўпчилик хонадонларида ҳам қудуқлар бўлган.

Хива уйларининг ўзига хос тузилиши диққатга сазовордир, бинонинг конструктив асосини бир қаватли чўпкори девор ташкил этиб, синчлар орасига хом ғишт билан лой урилган. Бу ердаги ёзги ва қишки хоналарнинг жойлашуви катта-кичиклиги, безаклари Бухоро, Самарқанд ва Фарғона уй-жойларидан тамоман фарқ қилади. Марказий Осиё меъморчилигида асрлар давомида иморат тарҳи тарзидаги зарурий унсур бўлиб келган. Унинг юзага келишига минтақадаги иқлим шароитининг таъсири катта бўлган. Бу ерда ёз жуда иссиқ, қиш эса совуқ бўлади. Хива уй-жойларининг ташқи кўриниши жуда ажойибдир: ҳар бир уйда шимол томонга қаратиб айвон қурилади, айвонда асосан ёзда "саратон ойида" кишилар иссиқдан жон сақлашган. Ҳар бир уйни ичидаги аҳоли эҳтиёжи учун ҳовлида қудуқ қазилган ва жуда диққатли равишда фойдаланилган. Айвон қишда хонанинг жуда совуқ бўлишидан, ёзда эса жуда исиб кетишидан сақлаган. Айвоннинг турар жой меъморчилигида қўлланилиши ўша жойнинг иқлим шароити ва хоналарнинг жойлашув тартибидан келиб чиққан. Масалан, Хивада иқлим шароитининг ўзгачалиги, ёзда ҳавонинг нисбатан иссиқлиги сабабли айвон хона ва ҳовли ҳавосини янгилаб туришга мўлжалланган. Бу ердаги айвонлар икки хил тузилишга эга. Улли (Улуғ) айвон хонанинг олд қисмини эгаллаган ва ундан анча баланд кўтарилган. Унинг қаршисида тескари кичикроқ айвон ўрнатилган. Улли айвон битта марказий устунга эгалиги жиҳатидан минорага монанддир. У шамол эсадиган томонга қаратилган бўлиб, шамолни ҳовлига йўналтирган [6].

Хива шаҳридан шимоли-шарқ томонида Полвон каналидан икки ирмоқ- Серчали ва Ангарик ариқлари ажралиб чиққан. Серчали шаҳар ичкариси, Ангарик эса шарқий томондан оқиб ўтган. Серчалидан Шайхлар ва Хумбуз ариқлари ажралиб чиккан, улар шаҳар аҳолиси ва боғларни сув билан таъмин қилган. Шаҳарда 14 та сув тўплайдиган ҳовузлар бўлиб, уларда баҳордан кеч кузгача ичимлик суви асралган. Ичан-қалъада эса юзлаб қудуқлар мавжуд бўлиб, шаҳар аҳли қудуқ сувини ҳам истеъмол қилган. Сирчали канали орқали Дишан калъадаги Рафаник [7], Нуруллабой, Нуруллабек боғлари суғорилган. Сирчали канали кичик ирмоқларга бўлиниб, шаҳар аҳолиси томорқаларига оқиб борган. Канал ва ёплар «бегор» (хашар) йўли билан тозаланган. Яъни, ҳар бир хонадондан бир киши йилига 12 кун текин ишлаб бериши шарт эди. Шаҳар ахолисини ичимлик суви билан таъминлаш мақсадида ҳовузлар, қудуқлар, сардобалар қазилган. Шаҳарда 14 та ҳовуз бўлган, булар: Ота ҳовуз, Боғча ҳовуз, Читгар ҳовуз,

Бол ҳовуз, Давлатёр охун, Полвон ҳовуз, Бий ҳовуз, Чилла авлиё, Султон заргар, Мадаминхон, Тўрт Шаббоз, Абдал бобо, Бозор ҳовуз ва Дишан ҳовузлар бўлган. Ховузлар «гулбадав» лар орқали бир-бирлари билан боғланган. Ховуздаги сув салқин бўлиши учун атрофига кўп йиллик дарахтлар эқилган. Баҳор фаслида ҳовузлар тозаланиб, остига буйра (буйра - қамишдан тўқилган тўшама, ҳар хил касалликлар чиқмаслиги учун фильтр вазифасини бажарган) тўшалган. Хар бир ҳовузнинг махсус соқчиси ва мешқобчилари бўлган. Ховузлар суви яхлаганда музлар камишларга ўралиб, музхоналарда сақланган. Баҳорда уларни эритиб, ичимлик суви сифатида фойдаланишган. Шахримизда «музхона» (бузхона) номли махалла ҳозир ҳам мавжуд. Хива шаҳрида еттита сардоба мавжуд бўлиб бизни кунларимизгача кўпчилиги етиб келмаган. Қутлуғ Мурод иноқ мадрасасида ва Тўрт шаббоз масжидида таг заминлар (сардоба) сақланган.

O‘zbekistonlik olimlar va amaliyotchi mutaxassislardan R. Gaisina, M. Quronov, N. Sog‘inov va boshqalar axborot muhitining yoshlar ruhiyatiga ta’siri hamda axborot-psixologik xavfsizligini ta’minlash masalalarini ilmiy tahlil etganlar. Biroq, o‘smirlarning ruhiy va jismoniy salomatligini bir vaqtning o‘zida, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish va profilaktik mexanizmlar kontekstida yaxlit hamda amaliy intervensiya nuqtai nazaridan o‘rganish yetarlicha tizimlashtirilmagan. Metodologiya: Tadqiqot jarayonida tizimli-strukturali yondashuv, qiyosiy-profilaktik tahlil, psixodiagnostik so‘rovnoma, kuzatish hamda ijtimoiy-pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot ob’ekti sifatida 12–16 yoshdagi o‘smirlar, ularning ota-onalari hamda hududiy ijtimoiy xodimlar qamrab olindi.

Kiberbulling va ijtimoiy bosim: Ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy izohlar, virallashgan kamsitishlar va muloqotdagi zo‘ravonlik (ta’qib, tahdid) o‘smirda o‘ziga bo‘lgan ishonchning pasayishiga, affektiv buzilishlar hamda kuchli va surunkali stress holatlariga xavfini oshirishi mumkin.

Nomofobiya (*No Mobile Phone Phobia*): Smartfonsiz qolish, internet aloqasidan uzilib qolish yoki quvvat tugashidan qo‘rqishning patologik hissi. Bu holat o‘smirda doimiy emotsional xavotirlik, nevrotik reaksiyalar, tajovuzkorlik va diqqatning tarqoqligini bilan birga kuzatilishi mumkin.

FOMO sindromi (*Fear of Missing Out*): Muhim voqea, axborot yoki yangilikdan qolib ketish qo‘rquvi. O‘smir doimiy ravishda bildirishnomalarni va tarmoqdagi yangilanishlarni tekshirishga

majbur bo‘ladi, bu esa kognitiv funksiyalarga hamda emotsional barqarorlikka doimiy yuklama beradi.

Diqqat va kognitiv jarayonlar. Qisqa videolar va axborotning tez almashinuvi diqqatni boshqarish odatlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Biroq “klipsimon fikrlash” k*linik tashxis emas; qisqa videolardan foydalanishning* o‘zi chuqur tahlil yoki uzoq matnlarni o‘zlashtirish qobiliyatini keskin pasaytiradi, degan sababiy xulosa chiqarish uchun yetarli emas.

Ekran qarshisida uzoq vaqt harakatsiz o‘tirish jismoniy faollik, uyqu va kundalik faoliyat muvozanatiga ta’sir qilishi mumkin. Quyidagi xavflarni qurilmadan foydalanish davomiyligi, holati va boshqa turmush tarzi omillari bilan birga baholash lozim:

Gipodinamiya va tayanch-harakat tizimidagi noqulayliklar. Uzoq vaqt bir holatda o‘tirish jismoniy faollikning kamayishi, bo‘yin va beldagi og‘riq yoki noqulaylik bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Buni skolioz yoki boshqa anatomik deformatsiyalarning bevosita sababi deb baholash uchun alohida klinik dalillar zarur.

Ko‘rish a’zolaridagi noqulayliklar. Ekrandan uzoq vaqt foydalanish ko‘zning zo‘riqishi va qurishi bilan birga kuzatilishi mumkin. Miopiya xavfini baholashda yaqin masofadagi ishlar hamda ochiq havoda o‘tkaziladigan vaqt ham hisobga olinadi [5].

Uyqu gigiyenasi. Uyqu oldidan ekranlardan foydalanish uyquga ketish va uyqu sifatiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Bunda yorug‘lik bilan birga kontentning qo‘zg‘atuvchi xususiyati va uyqu vaqtining qisqarishi ham ahamiyatga ega [5].

Semizlik va moddalar almashinuvining buzilishi: Gadjet o‘ynash yoki video ko‘rish davomida nazoratsiz va tartibsiz ovqatlanish (snacking) va kamharakatlik o‘smirlar o‘rtasida semizlik va metabolik buzilishlar xavfini oshiruvchi omillar bo‘lishi mumkin.

Ekran vaqtining o‘smirlar salomatligi ko‘rsatkichlariga ta’siri tahlili (so‘rovnoma va kuzatuv natijalari)

Jadval. O‘smirlarning kunlik ekran vaqti hamda psixofiziologik va jismoniy holati ko‘rsatkichlari

Kunlik ekran vaqti	Xavotirlik va tajovuzkorlik darajasi (%)	Uyqu buzilishi kuzatilganlar (%)	Gipodinamika va qomat buzilishi (%)
1–2 soat	12%	8%	10%
3–5 soat	38%	32%	28%
5 soatdan ortiq	74%	68%	—

Jadvalda ekran vaqti guruhlari bo‘yicha keltirilgan tavsifiy ko‘rsatkichlar farqlanadi. Biroq ushbu foizlarning o‘zi sabab-oqibat bog‘liqligini yoki eksponentasimon o‘sishni isbotlamaydi. Bunday xulosalar uchun guruhlar hajmi, o‘lchov usullari va statistik tahlil natijalari talab etiladi.

Raqamli texnologiyalarning salbiy ta’sirini kamaytirish va ulardan unumli foydalanish madaniyatini shakllantirish uchun ko‘p bo‘g‘inli hamda kompleks profilaktika tizimini joriy etish zarur. Ushbu tizim oila, maktab hamda ijtimoiy xizmatlar markazlari (xususan, "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi) hamkorligiga va keys-menedjment texnologiyasiga asoslanadi.

"Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi ijtimoiy xodimlari tomonidan xavf guruhidagi o‘smirlar va ularning oilalari bilan keys-menedjment va faoliyatni substitutsiya qilish (foydali mashg‘ulotlarga yo‘naltirish) asosida muloqot va reabilitatsiya rejasini tuzish.

Ota-onalar uchun mediasavodxonlik va nazorat dasturlari (Parental Control) bo‘yicha amaliy trening va seminarlar tashkil etish.

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan kompleks tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar o‘smir shaxsining rivojlanishida ham ijobiy, ham salbiy omil sifatida namoyon bo‘ldi. Asosiy muammo va xavf texnologiyalarning o‘zida emas, balki ulardan foydalanish vaqti, mazmuni hamda foydalanish madaniyatidadir. O‘smirlarning ruhiy va jismoniy salomatligini saqlash uchun texnologiyalarni to‘liq taqiqlash emas, balki ulardan oqilona, xavfsiz va unumli foydalanishni o‘rgatish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi Farmoni.

2. Twenge, J. M. (2017). iGen: Why Today's Super-Connected Kids Are Growing Up Less Rebellious, More Tolerant, Less Happy--and Completely Unprepared for Adulthood. Atria Books.

3. World Health Organization. Mental health of adolescents. https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/adolescent-mental-health.

4. World Health Organization. WHO guidelines on physical activity and sedentary behaviour. Geneva: WHO, 2020. https://www.who.int/publications/i/item/9789240015128/.

5. American Academy of Ophthalmology. Screen Use for Kids. https://www.aao.org/eye-health/tips-prevention/screen-use-kids.

UO'K 378.147:811.133.1:004.8

FRANSUZ TILI MASHG'ULOTLARIDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI SUHBATDOSHDAN FOYDALANIB TALABALARNING MULOQOTGA TAYYORLIGINI OSHIRISH

Narzulloyeva R. M., assistent o'qituvchi, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, Navoiy

Annotatsiya. *Maqolada fransuz tilini o'rganayotgan talabalarning muloqotga tayyorligini oshirishda sun'iy intellekt asosidagi suhbatdoshdan foydalanish masalalari yoritilgan. Xalqaro tadqiqotlar tahlili asosida SI-suhbatdosh bilan ishlashning besh bosqichli sikli, prompt namunalari va etik qoidalari ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *fransuz tili, sun'iy intellekt, SI-suhbatdosh, chatbot, muloqotga tayyorlik, xavotir, prompt, akademik halollik.*

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы использования собеседника на основе искусственного интеллекта для повышения готовности к общению студентов, изучающих французский язык. На основе анализа зарубежных исследований разработаны пятиэтапный цикл работы с ИИ-собеседником, образцы промптов и этические правила.*

Ключевые слова: *французский язык, искусственный интеллект, ИИ-собеседник, чат-бот, готовность к общению, тревожность, промпт, академическая честность.*

Abstract. *The article examines the use of an AI-based conversational partner to enhance the willingness to communicate of students learning French. Drawing on international research, a five-stage cycle of working with an AI partner, sample prompts and ethical rules are developed.*

Keywords: *French language, artificial intelligence, AI conversational partner, chatbot, willingness to communicate, anxiety, prompt, academic integrity.*


O'zbekiston Respublikasida sun'iy intellekt texnologiyalarini ta'lim tizimiga joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi: 2024-yilda 2030-yilgacha sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasi tasdiqlandi [11], "O'zbekiston – 2030" strategiyasida esa ta'lim jarayoniga zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etish vazifasi belgilandi [10]. Fransuz tilini o'rganayotgan o'zbek talabalari uchun asosiy muammolardan biri – auditoriyadan tashqarida jonli muloqot sherigining yo'qligi va xato qilishdan qo'rqib gapirishdan qochishdir. Chet til xavotirining asosiy manbalaridan biri guruh oldida tayyorgarliksiz gapirish zarurati ekanligi tasdiqlangan [2; 461–479-b.]. P. MacIntyre va hammualliflari kiritgan "muloqotga tayyorlik" (willingness to communicate) tushunchasi ham talabaning chet tilda muloqotga kirishishi o'ziga ishonch va xavotir darajasiga bevosita bog'liqligini ko'rsatadi [8; 545–562-b.].

W. Huang, K.F. Hew va L.K. Fryer chatbotlar yordamidagi til o'rganishga oid tadqiqotlarni tizimli tahlil qilib, ularning afzalliklari sifatida istalgan vaqtda mavjudlik va xavotirsiz muloqot muhitini, cheklovlari sifatida esa texnologik nomukammallik va yangilik samarasining susayishini ko'rsatgan [3; 237–257-b.]. S. Bibauw va hammualliflari meta-tahlili dialog tizimlarining til o'rganish natijalariga ijobiy ta'sirini tasdiqlagan [1; 1–24-b.]. T.-Y. Tai va H.H.-J. Chen 112 nafar o'smir EFL o'quvchisi ishtirokidagi tadqiqotda ovozli SI-yordamchi bilan ikki hafta muntazam muloqot o'quvchilarning muloqotga tayyorligini oshirib, gapirishdagi xavotirini kamaytirganini aniqlagan [12; 1485–1502-b.]. H. Yang va hammualliflari 314 nafar o'quvchi ishtirokida topshiriqqa asoslangan ovozli chatbotni sinab, uning o'quvchilarni muloqotga faol jalb etishini qayd etgan [14; 327–343-b.]. L. Kohnke, B.L. Moorhouse va D. Zou ChatGPTni suhbatdosh va tushuntirish manbai

sifatida qo‘llash imkoniyatlari bilan birga o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini oshirish zarurligini ko‘rsatgan [6; 537–550-b.].

Generativ SI paydo bo‘lishi bilan bu yo‘nalish yangi bosqichga ko‘tarildi. L. Law generativ SI bo‘yicha tadqiqotlar sharhida bu soha tez rivojlanayotganini, biroq uzoq muddatli empirik dalillar hali yetarli emasligini ko‘rsatgan [7]. E. Kasneci va hammualliflari esa katta til modellarini ta’limda qo‘llash noaniq axborot va akademik halollik bilan bog‘liq xavflarni keltirib chiqarishini ta’kidlagan [5]. P.V. Sysoyev va Ye.M. Filatov talabalarga ChatGPTdan foydalanishni taqiqlash emas, balki uni to‘g‘ri qo‘llashga o‘rgatish lozimligini asoslagan [16; 276–301-b.]. YUNESKO esa generativ SI ni ta’limda qo‘llashda insonga yo‘naltirilgan yondashuv va ma’lumotlar maxfiyligini asosiy talablar sifatida belgilagan [13]. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlar asosan ingliz tili materialida olib borilgan; fransuz tilini ikkinchi chet til sifatida o‘rganuvchi talabalar uchun SI-suhbatdoshdan foydalanish metodikasi yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil va pedagogik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Metodikani ishlab chiqishda muloqotga tayyorlik konsepsiyasi [8; 545–562-b.] va o‘quvchilar nutqiy faolligini ta’minlash talabi [4] asos qilib olindi. SI-suhbatdosh “Réveil pédagogique” texnologiyasining Réinvestissement (qayta qo‘llash) bosqichida “xavfsiz sherik” sifatida qo‘llanilib, jonli guruh muloqotini almashtirmaydi, balki unga tayyorlaydi. SI-suhbatdosh bilan ishlashning besh bosqichli sikli ishlab chiqildi (1-rasm): auditoriyada mavzu va til vositalarini tanishtirish; prompt asosida SI bilan 5–7 daqiqalik rol o‘yini; SI dan asosiy xatolar haqida qayta aloqa so‘rash; portfolioga qisqa hisobot yozish; hisobotlarni keyingi mashg‘ulotning Éveil bosqichida guruhda muhokama qilish.



1-rasm. Fransuz tili mashg‘ulotlarida SI-suhbatdosh bilan ishlash sikli

Prompt sifati samaradorlikni belgilovchi asosiy omil hisoblanadi: u SI ga rol, vaziyat, talabaning til darajasi va xatolarni tuzatish tartibini aniq ko‘rsatishi lozim. Xatolarni suhbat oxirida so‘rash muloqot oqimini saqlaydi va xavotirni kamaytiradi. Prompt namunalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

SI-suhbatdosh uchun prompt namunalari

Maqsad	Prompt namunasi (fransuz tilida)	Izoh
Rol o‘yini (A2–B1)	“Tu es serveur dans un café à Paris. Je suis un client. Parle lentement et utilise des phrases simples (niveau A2). Ne corrige pas mes erreurs pendant la conversation.”	Muloqot oqimi to‘xtatilmaydi, suhbat 5–7 daqiqa davom etadi.
Qayta aloqa olish	“Maintenant, donne-moi mes trois erreurs les plus importantes et explique-les simplement.”	Faqat suhbat yakunida so‘raladi, xatolar portfolioga yoziladi.
Munozaraga tayyorgarlik (B1–B2)	“Tu es contre l’idée que le télétravail est meilleur. Donne un seul argument à la fois et attends ma réponse.”	Talaba o‘z dalillarini mustaqil ishlab chiqadi.
Madaniy mediatsiya	“Pose-moi des questions sur Navrouz comme un étudiant français curieux.”	O‘zbek madaniyatini fransuz tilida tushuntirish ko‘nikmasi rivojlanadi.

Masalan, “Au café” mavzusida talabalar auditoriyada buyurtma berish iboralarini (“Je voudrais…”, “L’addition, s’il vous plaît”) o‘rganadi, uyda esa SI bilan ofitsiant va mijoz rol o‘yinini o‘tkazib, yakunda artikllarni qo‘llashdagi xatolari haqida tushuntirish oladi. Keyingi mashg‘ulotda

bir necha talaba o‘z tajribasi bilan o‘rtoqlashadi, o‘qituvchi esa umumiy xatolarni guruh bilan tahlil qiladi.

Nazariy tahlil SI-suhbatdoshning quyidagi imkoniyatini ko‘rsatadi: u talabaga baholanish va guruhdoshlar oldida xato qilish xavfisiz og‘zaki amaliyot imkonini beradi. Muloqotga tayyorlik real vaqt rejimida o‘zgarishini hisobga olsak [9; 67–84-b.], xavfsiz muhitdagi muvaffaqiyatli tajriba keyingi jonli muloqotdagi ishonchni oshiradi. Shu bilan birga, xavflar ham aniqlandi: talaba SI bilan muloqotni jonli muloqot o‘rniga qo‘yishi, SI ba’zan g‘ayritabiiy til shakllarini taklif qilishi va SI yaratgan matnlarni o‘z ishi sifatida topshirish ehtimoli. P.V. Sysoyev tadqiqotida ham talabalarning mualliflik etikasini tushunish darajasi yetarli emasligi qayd etilgan [15; 31–53-b.]. Shu bois quyidagi qoidalar belgilandi: SI asosan og‘zaki mashq va qayta aloqa uchun ishlatiladi; baholanadigan topshiriqlar talabaning shaxsiy ishtirokini talab qiladi; shaxsiy ma’lumotlar kiritilmaydi; SI javoblari tanqidiy tekshiriladi. Metodikaning samaradorligini kengroq baholash uchun quyidagi ko‘rsatkichlar taklif etiladi: muloqotga tayyorlik shkalasi bo‘yicha ko‘rsatkichning o‘zgarishi; auditoriyada tashabbus bilan so‘z olish holatlari soni; chet til xavotiri darajasi; talabalarning refleksiv hisobotlaridagi o‘z-o‘zini baholash. Ushbu ko‘rsatkichlar bo‘yicha keng ko‘lamli tekshiruv dissertatsiya doirasidagi tajriba-sinov ishlarida davom ettiriladi.

Xalqaro tadqiqotlar SI asosidagi suhbatdosh talabalarga xavotirsiz muhitda og‘zaki amaliyot imkonini berib, muloqotga tayyorlikni oshirishi mumkinligini ko‘rsatmoqda. Uning samaradorligi pedagogik dizaynga bog‘liq: SI jonli muloqotni almashtirmasdan, unga tayyorlovchi vosita sifatida qo‘llanilishi lozim. Ishlab chiqilgan besh bosqichli sikl, prompt namunalari va etik qoidalar SI-suhbatdoshni “Réveil pédagogique” texnologiyasiga integratsiya qilish uchun metodik asos yaratadi. Amaliyotga joriy etish uchun o‘qituvchilarni prompt yozish va SI dan etik foydalanishga tayyorlash hamda kafedralar miqyosida prompt namunalari bankini yaratish taklif etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bibauw S., Van den Noortgate W., François T., Desmet P. Dialogue systems for language learning: A meta-analysis // Language Learning & Technology. – 2022. – Vol. 26, No. 1. – P. 1–24.

2. Dewaele J.-M., Botes E., Greiff S. Sources and effects of foreign language enjoyment, anxiety, and boredom: A structural equation modeling approach // Studies in Second Language Acquisition. – 2023. – Vol. 45, No. 2. – P. 461–479.

3. Huang W., Hew K.F., Fryer L.K. Chatbots for language learning – Are they really useful? A systematic review of chatbot-supported language learning // Journal of Computer Assisted Learning. – 2022. – Vol. 38, No. 1. – P. 237–257.

4. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 432 b.

5. Kasneci E., Seßler K., Küchemann S., et al. ChatGPT for good? On opportunities and challenges of large language models for education // Learning and Individual Differences. – 2023. – Vol. 103. – Article 102274.

6. Kohnke L., Moorhouse B.L., Zou D. ChatGPT for language teaching and learning // RELC Journal. – 2023. – Vol. 54, No. 2. – P. 537–550.

7. Law L. Application of generative artificial intelligence (GenAI) in language teaching and learning: A scoping literature review // Computers and Education Open. – 2024. – Vol. 6. – Article 100174.

8. MacIntyre P.D., Clément R., Dörnyei Z., Noels K.A. Conceptualizing willingness to communicate in a L2: A situational model of L2 confidence and affiliation // The Modern Language Journal. – 1998. – Vol. 82, No. 4. – P. 545–562.

9. MacIntyre P.D., Gregersen T. The idiodynamic method: Willingness to communicate and anxiety processes interacting in real time // International Review of Applied Linguistics in Language Teaching. – 2022. – Vol. 60, No. 1. – P. 67–84.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-6600413.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-358-son qarori. https://lex.uz/uz/docs/7158604.

11. Tai T.-Y., Chen H.H.-J. The impact of Google Assistant on adolescent EFL learners’ willingness to communicate // Interactive Learning Environments. – 2023. – Vol. 31, No. 3. – P. 1485–1502.

13. Miao F., Holmes W. Guidance for Generative AI in Education and Research. Paris: UNESCO, 2023. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000386693.

12. Yang H., Kim H., Lee J.H., Shin D. Implementation of an AI chatbot as an English conversation partner in EFL speaking classes // ReCALL. – 2022. – Vol. 34, No. 3. – P. 327–343.

13. Сысоев П.В. Этика и ИИ-плагиат в академической среде: понимание студентами вопросов соблюдения авторской этики и проблемы плагиата в процессе взаимодействия с генеративным искусственным интеллектом // Высшее образование в России. – 2024. – Т. 33, № 2. – С. 31–53.

14. Сысоев П.В., Филатов Е.М. ChatGPT в исследовательской работе студентов: запрещать или обучать? // Вестник Тамбовского университета. Серия: Гуманитарные науки. – 2023. – Т. 28, № 2. – С. 276–301.

UO‘K 373.3:37.015.3

O‘QUVCHILARDA KREATIV YONDASHUV VA TANQIDIY FIKRLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Nazarova K.X., o‘qituvchi, Namangan davlat universiteti, Namangan

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘quvchilarning kreativ yondashuv hamda tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Unda loyiha asosida o‘qitish, muammoli vaziyat yaratish, aqliy hujum va “6 shlyapa” metodi kabi innovatsion yondashuvlarning o‘quvchilar tafakkurini faollashtirishdagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijasida o‘quvchilarning kreativ yondashuv hamda tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishning muhim omili ekanligi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *kreativ fikrlash, ijodkorlik, faol ta’lim metodlari, muammoli vaziyat, aqliy hujum, “6 shlyapa” metodi, tanqidiy fikrlash, loyihaviy ta’lim, pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuv.*

Аннотация. *В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты формирования у студентов творческого подхода и навыков критического мышления. Особое внимание уделяется значимости инновационных методов — таких как проектное обучение, создание проблемных ситуаций, «мозговой штурм» и методика «Шесть шляп мышления» — для стимулирования мыслительной деятельности обучающихся. В работе обосновывается, что развитие навыков творческого и критического мышления является ключевым фактором повышения качества образования.*

Ключевые слова: *креативное мышление, творчество, активные методы обучения, проблемная ситуация, мозговой штурм, метод «6 шляп», критическое мышление, проектное обучение, педагогические технологии, инновационный подход.*

Abstract. *This article analyses the theoretical and practical aspects of developing pupils’ creative approaches and critical thinking skills. It discusses project-based learning, problem situations, brainstorming and the Six Thinking Hats method as approaches to stimulating thinking. The article argues that developing creative and critical thinking skills is an important factor in improving educational quality.*

Keywords: *creative thinking, creativity, active learning methods, problem situation, brainstorming, Six Thinking Hats method, critical thinking, project-based learning, pedagogical technologies, innovative approach.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va muammolarni samarali hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti, ilm-fan va texnologiyalarning tez sur’atlarda rivojlanishi ta’lim jarayoniga yangicha yondashuvlarni joriy etishni talab etmoqda [1; 2]. Shunday ekan, o‘quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Kreativ fikrlash o‘quvchilarda yangilik yaratish, noodatiy qarorlar qabul qilish va bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash imkonini beradi.

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda ta’lim tizimi oldida zamonaviy, mustaqil fikrlaydigan, muammolarga noodatiy yondasha oladigan hamda innovatsion g‘oyalarni ilgari suruvchi shaxsni tarbiyalash vazifasi turibdi. Shu sababli o‘quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish zamonaviy ta’limning eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Kreativ fikrlash o‘quvchilarda yangi g‘oyalarni yaratish, muammolarga turli nuqtai nazardan qarash, mustaqil qaror qabul qilish va ijodiy yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi va adabiyotlar tahlili: O‘zbekistonda pedagogik texnologiyalar, innovatsion ta’lim, mustaqil ta’lim va o‘quvchilarning ijodiy faolligini rivojlantirish masalalari qator olimlarning ilmiy ishlarida yoritilgan. Xususan, O‘. Tolipov va M.

Usmonboyevaning “Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari” yo‘nalishidagi ilmiy-metodik qarashlari ta’lim jarayonini maqsadli tashkil etish, o‘quvchilar faolligini oshirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalarini o‘rganishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi [1; 2]. Mazkur yondashuvlar kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim metodlarini tanlash hamda ularni o‘quv faoliyatiga tatbiq etish nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir. R. Ishmuhamedov, A. Abduqodirov va A. Pardayevning “Ta’limda innovatsion texnologiyalar” nomli ishida innovatsion ta’lim texnologiyalari, o‘qitish jarayonini takomillashtirish va o‘quvchilarning bilish faolligini oshirishga xizmat qiluvchi yondashuvlar yoritilgan [3; 4]. Ushbu ilmiy-metodik qarashlar ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlar, interfaol mashg‘ulotlar, guruhli ishlar va mustaqil topshiriqlardan foydalanishning nazariy asoslarini tushunishga yordam beradi. Bunday metodlar o‘quvchilarning o‘z fikrini erkin ifodalashi, muqobil g‘oyalarni ishlab chiqishi va boshqalarning fikrlarini tahlil qilishi uchun qulay pedagogik muhit yaratadi. N.A.Muslimov va O.A.Qo‘ysinovning kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limni tashkil etish nazariyasi va metodikasiga bag‘ishlangan monografiyasida ta’lim oluvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etish masalalari tadqiq etilgan [5; 6]. Mustaqil ta’limning mazmuni va tashkil etilishiga oid bunday yondashuvlar o‘quvchilarda mustaqil izlanish, axborot bilan ishlash, muammoni anglash va o‘z faoliyati natijalarini baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan uzviy bog‘liqdir.

Hozirgi kunda an’anaviy ta’lim usullari bilan bir qatorda interfaol metodlar, loyihaviy ta’lim, muammoli vaziyatlar yaratish va innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning tafakkur faolligini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki kreativ fikrlashga ega bo‘lgan o‘quvchi nafaqat bilimni o‘zlashtiradi, balki uni amaliyotda qo‘llash, yangi yechimlar topish va jamiyat rivojiga hissa qo‘shish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi. Shu jihatdan, o‘quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish mavzusi pedagogika va ta’lim tizimi uchun dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

Natijalar va ularning tahlili: Kreativ fikrlash tug‘ma bo‘lmay balki, to‘g‘ri tashkil etilgan o‘quv jarayoni orqali rivojlanadi. Kreativ fikrlashni rivojlantirishning didaktik asoslarini quyidagicha berishimiz mumkin: Faol o‘quv metodlari — bu o‘quvchilarni dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradigan, mustaqil fikrlash, tahlil qilish, ijodkorlik va amaliy faoliyatni rivojlantiradigan ta’lim usullaridir. Bunday metodlarda o‘qituvchi faqat ma’lumot beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi va tashkil etuvchi vazifasini bajaradi.

An’anaviy ta’limda asosiy faoliyat o‘qituvchiga tegishli bo‘lsa, faol o‘qitish metodlarida markazda o‘quvchi turadi.

O‘quvchi: mustaqil fikrlaydi, muammoni hal qiladi, guruh bilan ishlaydi, o‘z fikrini himoya qiladi, yangi bilimni o‘zi kashf etadi.

Faol metodlardan foydalanishning asosiy maqsadi: o‘quvchilarni darsga jalb qilish, bilimlarni ongli o‘zlashtirish, kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini shakllantirish, amaliy tajriba hosil qilish, kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishdir.

Faol o‘quv metodlarining ahamiyati. Faol metodlar: dars samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarning qiziqishini kuchaytiradi, bilimni uzoq vaqt esda saqlashga yordam beradi, jamoada ishlash madaniyatini shakllantiradi, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilishni rivojlantiradi.

O‘yin texnologiyalari - bu ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilim olish faoliyatini qiziqarli, faol va samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi pedagogik texnologiyalardir. Bunda o‘yin elementlari orqali o‘quvchilarning: qiziqishi, faolligi, mustaqil fikrlashi, ijodkorligi, muloqot ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

O‘yin texnologiyalari ayniqsa maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim va kasbiy ta’limda samarali qo‘llaniladi. Chunki o‘yin insonning tabiiy ehtiyojlaridan biri bo‘lib, bilimni oson va mustahkam o‘zlashtirishga yordam beradi.

Tanqidiy fikrlash bilan integratsiya - bu ta’lim jarayonida o‘quvchilarning mantiqiy, tahliliy va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini boshqa fanlar, metodlar va kreativ yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish jarayonidir. Zamonaviy pedagogikada faqat bilim berish emas, balki o‘quvchini fikrlashga, dalillarni tahlil qilishga, muammoni baholashga va asoslangan xulosa chiqarishga o‘rgatish muhim hisoblanadi.

Tanqidiy fikrlash integratsiyasi orqali o‘quvchilar: ma’lumotlarni tahlil qiladi, haqiqat va noto‘g‘ri fikrni ajratadi, dalillar asosida xulosa chiqaradi, mustaqil qaror qabul qiladi, muammoga turli nuqtai nazardan yondashadi.

Savol berish madaniyati — bu insonning bilim olish, muloqot qilish, fikrlash va muammoni anglash jarayonida savollarni to‘g‘ri, aniq, mazmunli va odob doirasida bera olish qobiliyatidir. Ta’lim jarayonida savol berish madaniyati o‘quvchilarning: mustaqil fikrlashi, tanqidiy tafakkuri, muloqot ko‘nikmasi, ijodkorligi, faolligini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda quyidagi usullar samarali bo‘ladi:

- Aqliy xaritalar tuzish - g‘oyalarni vizual ifodalash. Bu usul o‘quvchilarning fikrlash tezligi va moslashuvchanligini rivojlantiradi;
- De Bono qalpoqlari usuli - turli nuqtai nazardan fikrlash. Bu usul o‘quvchilarning tanqidiy va kreativ fikrlashini rivojlantiradi;
- SCAMPER usuli - mavjud g‘oyalarni takomillashtirish. Bu usul o‘quvchilarning originalitetini rivojlantiradi;
- G‘oyalar almashinuvi - g‘oyalarni erkin almashish. Bu usul g‘oyalarning rivojlanishini ta’minlaydi;
- "Six Thinking Hats" - tizimli fikrlash. Bu usul o‘quvchilarning kompleks fikrlashini rivojlantiradi;
- Kreativ yozuvlar - kundalik, xotira yozish. Bu usul o‘quvchilarning aniqligini rivojlantiradi;
- Rasm chizish va loyihalash - vizual kreativlik. Bu usul o‘quvchilarning vizual ifoda qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Shunday qilib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish murakkab jarayon bo‘lib, uning samaradorligi o‘quvchining ichki xususiyatlari va tashqi muhit shart-sharoitlarining uyg‘unligiga bog‘liq. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari bu jarayonda samarali vosita hisoblanadi.

Kreativ fikrlashni rivojlantirish bevosita ta’lim muhitiga bog‘liq. Kreativ muhit quyidagi omillar orqali shakllanadi: o‘quvchilarning fikrini hurmat qilish va rag‘batlantirish, xatolarni jazolash emas, balki o‘rganish imkoniyati sifatida qabul qilish, ochiq savollar va muammoli topshiriqlardan foydalanish, guruhda ishlash va hamkorlikni rivojlantirish, o‘quv jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish (multimedia, raqamli platformalar).

Bunday muhit o‘quvchilarda mustaqillik, tashabbuskorlik va ijodiy yondashuvni kuchaytiradi. Kreativ fikrlashni rivojlantirish bilan birga uni baholash ham muhim pedagogik jarayon hisoblanadi. Baholashda quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin:

Originalitet – yangi va noodatiy g‘oyalar ishlab chiqish qobiliyati;
Moslashuvchanlik – turli vaziyatlarda turlicha yechim topa olish;
Fluentlik (tezkorlik) – ko‘p g‘oyalarni tez ishlab chiqish;
Detallashganlik – g‘oyalarni batafsil tushuntirish va rivojlantirish;
Amaliylik – g‘oyalarning real hayotda qo‘llanilishi.

Ushbu mezonlar o‘qituvchiga o‘quvchilarning ijodiy rivojlanish darajasini aniqlash imkonini beradi.

Muhokama: Tadqiqot jarayonida o‘quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan interfaol metodlar qo‘llanildi. Xususan, loyiha asosida o‘qitish, muammoli vaziyat yaratish, “Aqliy hujum” va “6 shlyapa” metodlari dars jarayoniga tatbiq etildi. Tajriba davomida o‘quvchilarning darsdagi faolligi, mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuv darajasi kuzatildi. Shuningdek, o‘quvchilarga turli muammoli topshiriqlar berilib, ularning noodatiy yechim topish qobiliyatlari tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, interfaol va innovatsion metodlardan foydalanilgan darslarda o‘quvchilarning faolligi va qiziqishi sezilarli darajada oshgan. O‘quvchilar muammolarni tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish va yangi g‘oyalarni ilgari surishda yuqori natijalarni namoyon etdilar. Ayniqsa, “Aqliy hujum” va “6 shlyapa” metodlari o‘quvchilarning tanqidiy hamda kreativ

fikrlashini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qildi. Natijalar kreativ fikrlashni rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi.

Xulosa: o‘quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Interfaol metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini oshirishda samarali vosita hisoblanadi. Ta’lim jarayonida kreativ muhit yaratish, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undash hamda muammoli vaziyatlardan foydalanish ularning kreativ kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘quvchini faqat bilim oluvchi emas, balki yangi g‘oyalar yaratuvchi shaxs sifatida shakllantiradi. Shu sababli pedagoglar dars jarayonida zamonaviy metodlarni keng qo‘llashi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. *Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi.* – Toshkent, 2022.

2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. *Zamonaviy ta’limda kreativ yondashuvlar.* – Toshkent, 2023.

3. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari.–Toshkent: Fan, 2006.–261 b.

4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – Toshkent, 2008. – 180 b.

5. Muslimov N.A., Qo‘ysinov O.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limni tashkil etishning nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Fan, 2009.

6. Hojikarimova G. O‘quvchilarda kreativ qobiliyatlarni shakllantirish bosqichlari // Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2023. – J. 3, № 7. – B. 13–17.

7. Yorkulova G‘.Sh. Badiiy matn asosida o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish metodikasi // Журнал академических исследований Нового Узбекистана. – 2026. – J. 3, № 5, 2-qism. – B. 137–139. DOI: 10.5281/zenodo.20520707.

UDC 37.014:34

YOUTH LEGAL LITERACY IN UZBEKISTAN: CURRENT CHALLENGES AND PROSPECTS FOR DEVELOPMENT

J.Z.Otakulov, Deputy Director for Youth Affairs, Samarkand Regional Academic Lyceum affiliated with Tashkent State University of Law, Samarkand

M.A.Saydirasulova, Student, Samarkand Regional Academic Lyceum affiliated with Tashkent State University of Law, Samarkand

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekistonda yoshlarning huquqiy savodxonligi huquqiy madaniyat va mas’uliyatli fuqarolikning muhim tarkibiy qismi sifatida tadqiq etiladi. Unda huquqiy ta’limning zamonaviy yondashuvlari, jumladan, institutsional, amaliy va raqamli mexanizmlar tahlil qilinadi hamda huquqiy bilimlarni amaliyotda qo‘llash bilan bog‘liq tafovut va ishonchli huquqiy axborotdan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi kabi asosiy muammolar aniqlanadi. Yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish interaktiv ta’lim usullarini joriy etish, manzilli huquqiy ko‘makni kuchaytirish hamda yoshlarga o‘z huquq va majburiyatlarini anglash va ulardan samarali foydalanish imkonini beruvchi qulay raqamli resurslarni rivojlantirishni talab etishi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *yoshlar, huquqiy savodxonlik, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy ta’lim, O‘zbekiston, fuqarolik mas’uliyati, raqamli ta’lim.*

Аннотация. *В статье рассматривается правовая грамотность молодежи в Узбекистане как важнейшая составляющая правовой культуры и ответственного гражданства. Анализируются современные подходы к правовому образованию, включая институциональные, практико-ориентированные и цифровые механизмы, а также выявляются основные проблемы, такие как разрыв между правовыми знаниями и их практическим применением и доступностью достоверной правовой информации. Обосновывается, что повышение уровня правовой грамотности молодежи требует внедрения интерактивных образовательных подходов, организации адресной правовой поддержки и развития доступных цифровых ресурсов, позволяющих молодым людям понимать и эффективно реализовывать свои права и обязанности.*

Ключевые слова: *молодежь, правовая грамотность, правосознание, правовая культура, правовое образование, Узбекистан, гражданская ответственность, цифровое образование.*

Abstract. *This article examines youth legal literacy in Uzbekistan as an important component of legal culture and responsible citizenship. It analyzes current approaches to legal education, including institutional, practical and digital mechanisms, and identifies key challenges such as the gap between legal knowledge and its practical application and the accessibility of reliable legal information. The study argues that strengthening youth legal literacy requires interactive education, targeted legal support and accessible digital resources that enable young people to understand and effectively exercise their rights and responsibilities.*

Key words: *youth, legal literacy, legal awareness, legal culture, legal education, Uzbekistan, civic responsibility, digital education.*

Introduction. A legally informed and responsible younger generation is essential for the development of a law-based society. For young people, legal literacy is important not only because it provides knowledge of laws but also because it enables them to understand their rights, fulfill their responsibilities and make informed decisions in everyday life.

In Uzbekistan, this issue has gained importance within the broader process of legal reform and the development of civil society [1]. The Presidential Decree PF-5618 of 9 January 2019 established an important policy framework for improving legal consciousness and legal culture in society. Within this process, educational institutions, justice bodies, youth organizations and local communities have increasingly participated in legal-awareness activities.

Recent studies emphasize different aspects of this process. Yo'ldashev examines mechanisms for increasing the legal literacy of young people and the relationship between legal consciousness and legal culture [4]. Kulakhmetov focuses on improving legal education for youth in Uzbekistan [2], while Khakimova examines the formation and structure of youth legal consciousness [1]. Other studies connect legal education with civic participation and the prevention of problematic and unlawful behaviour among young people.

However, an important issue remains: legal knowledge does not automatically result in practical legal competence. A young person may know that a particular right exists but still not know how to exercise it, where to obtain reliable information or which institution can provide assistance [5]. Therefore, contemporary approaches should focus not only on providing information but also on developing the ability to apply it.

The study uses qualitative analysis, comparison and synthesis of academic publications addressing youth legal literacy, legal awareness, legal culture and legal education in Uzbekistan [6]. The analysis also considers official information concerning current government initiatives aimed at improving legal awareness among young people.

The main analytical dimensions are the relationship between legal knowledge and behaviour, the role of educational institutions, the contribution of social and governmental institutions, and the growing importance of digital legal education [7].

The analysis demonstrates that legal literacy, legal awareness and legal culture are interconnected but should not be treated as identical concepts. Legal literacy primarily concerns knowledge and understanding of legal information, whereas legal awareness reflects an individual's perception of law and legal values. Legal culture is expressed more broadly through attitudes and behaviour toward legal norms.

This distinction has practical importance [8]. Effective legal education should enable young people not only to remember legal provisions but also to analyze real-life situations, identify relevant legal norms and select appropriate ways of protecting their legitimate interests. Therefore, practical cases, discussions, simulations, legal consultations and problem-based tasks can be more effective than purely theoretical instruction.

Educational institutions remain one of the most important environments for developing youth legal culture [9]. Schools and universities can provide systematic legal education while connecting it with issues directly relevant to students, including educational rights, employment, contracts, digital safety and civic responsibilities. The Ministry of Justice reported that legal-awareness activities,

including "Law Classes," were organized extensively in educational institutions and mahallas during 2025.

Digitalization offers further opportunities. In 2024, the Ministry of Justice launched the "School of Law" mobile application, providing young people with accessible legal materials, including information on children's rights, legal terminology and educational resources. Digital platforms can make legal information faster and easier to access, particularly for young people who rely heavily on smartphones and social media [10].

At the same time, digitalization creates a new challenge: the abundance of information does not guarantee its reliability. Young people may encounter incomplete or inaccurate interpretations of legislation online. Consequently, modern legal literacy should also include the ability to distinguish official and trustworthy legal sources from unreliable information.

The analysis therefore identifies four major challenges: the gap between legal knowledge and practical application, the complexity of legal language, insufficient coordination among institutions, and the problem of reliable legal information in the digital environment. Addressing these challenges requires a more integrated approach to legal education.

Prospects for development. Further development of youth legal literacy in Uzbekistan should focus on transforming legal education from an information-based model into a competency-based model. Young people should learn not only what the law provides but also how to use legal information in practical situations.

First, legal education should become more interactive through case studies, debates, simulations and practical problem-solving. Second, educational content should correspond to young people's age and actual needs. Third, digital resources should be expanded while ensuring that their content is based on reliable and regularly updated legal sources. Finally, cooperation among schools, universities, justice bodies, mahallas, youth organizations and civil society should be strengthened.

Evaluation should also move beyond counting seminars and participants. The effectiveness of legal education can be measured by young people's ability to identify legal problems, find authoritative information, understand their rights and choose lawful mechanisms for resolving disputes.

Conclusion. Youth legal literacy is a multidimensional process that combines legal knowledge, legal awareness, legal culture and practical competence. The existing literature and current institutional initiatives in Uzbekistan demonstrate significant attention to this area, but important challenges remain.

The central task is to transform legal information into practical competence. For this reason, future legal-education programs should combine systematic education, practical activities, targeted legal assistance and accessible digital resources. A legally literate young generation is not simply one that knows legal rules; it is one capable of understanding its rights and responsibilities, critically evaluating legal information and acting lawfully and responsibly in society.

REFERENCES:

1. Khakimova, D. (2024). Some aspects of forming youth legal awareness in New Uzbekistan. Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals, 4(12), 76–78.

2. Kulakhmetov, A. (2024). Issues of improving legal education for youth in Uzbekistan. Scientific Approach to the Modern Education System, 2(7).

3. Saydirasulov, A. A., & Saydirasulova, M. A. (2025). The importance of legal education and advocacy in increasing legal literacy among the young generation in Uzbekistan. Journal of New Century Innovations.

4. Yo'ldashev, Sh. (2023). Mechanisms of increasing legal literacy of young people in building a new Uzbek society. O'zMU Xabarlari (ACTA NUUz), 1(1.12.2), 103–105.

5. Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan. (2025). Modern mechanisms for improving youth legal literacy.

6. Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan. (2024). The "School of Law" mobile application has been launched.

7. Kadirov, E. O. (2022). Some problems of the formation of the legal culture of youth in Uzbekistan. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(11), 262–265.

8. Xo'jaxonov, I. (2026). Features of the development of legal consciousness and legal culture. O'zMU Xabarlari (ACTA NUUz).

9. Zamonbekov, U. (2026). Issues of improving national legislation in enhancing youth legal awareness and culture (based on the results of sociological surveys). Oriental Journal of History, Politics and Law, 6(05), 122–128.

10. Ataullayev, F. (2025). Youth and civil society: Issues of enhancing legal culture. Oriental Journal of History, Politics and Law, 1325–1330.

UO'K 372.881.111.1:37.02

INGLIZ TILI DARSIDA TIL KO'NIKMALARINI OSHIRISHDA EVRISTIK USULLARDAN FOYDALANISH

M.E.Qodirova, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent

M.R.Qurolboyeva, talaba, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz tili ta'limi jarayonida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi evristik yondashuvlarning didaktik imkoniyatlari konstruktivistik nuqtayi nazardan tahlil etilish bilan birga muammoli vaziyatlar, kashfiyotga yo'naltirilgan topshiriqlar va sokratik muloqot mexanizmlarining tinglab tushunish, o'qish, so'zlashuv hamda yozma nutq faoliyatiga integratsiyasi yoritiladi. Natijada mustaqil tafakkur, lingvistik hodisalarni anglab o'zlashtirish va kommunikativ faollikni jadallashtirishda mazkur metodlar tizimining samaradorligi asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *evristik metod, nutqiy kompetensiya, konstruktivizm, kommunikativ yondashuv, lingvodidaktika*

Аннотация. *В настоящей статье с позиций конструктивизма анализируются дидактические возможности эвристических подходов, служащих формированию речевой компетенции учащихся в процессе обучения английскому языку, наряду с чем освещается интеграция механизмов проблемных ситуаций, заданий, ориентированных на открытие, и сократического диалога в аудирование, чтение, говорение и письменную речь. В результате обосновывается эффективность данной системы методов в активизации самостоятельного мышления, осознанного усвоения языковых явлений и коммуникативной активности.*

Ключевые слова: *эвристический метод, речевая компетенция, конструктивизм, коммуникативный подход, лингводидактика.*

Abstract. *This article analyzes, from a constructivist perspective, the didactic potential of heuristic approaches that serve the formation of learners' speech competence in the process of English language education, while also elucidating how the mechanisms of problem situations, discovery-oriented tasks, and Socratic dialogue are integrated into listening, reading, speaking, and writing activity. As a result, the effectiveness of this system of methods in intensifying independent thinking, conscious acquisition of linguistic phenomena, and communicative activity is substantiated.*

Key words: *heuristic method, speech competence, constructivism, communicative approach, linguodidactics.*

Globallashuv sharoitida ingliz tili ta'limining strategik maqsadi o'quvchida lingvistik bilimlar yig'indisini shakllantirish bilan cheklanmay, ularni real kommunikativ vaziyatlarda ongli va ijodiy qo'llay oladigan nutqiy kompetensiyani shakllantirishdan iborat. Biroq an'anaviy, tayyor qoidalarni amalga tatbiq qilishga asoslangan o'qitish modeli o'quvchini bilimning sust iste'molchisiga aylantirib, til materialining yuzaki o'zlashtirilishiga va nutqiy faollikning susayishiga zamin hozirlamoqda. Mazkur muammo ta'lim paradigmasini bilimni o'zlashtirishdan uni mustaqil kashf etishga yo'naltirilgan yondashuvlar tomon qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Aynan shu nuqtayi nazardan evristik usullar, ya'ni muammoli vaziyatlar, sokratik muloqot va izlanuvchanlikka asoslangan topshiriqlar tizimi, o'quvchi tafakkurini faollashtiruvchi didaktik mexanizm sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Nazariy qarashlarga ko'ra, bilim tayyor holda uzatilmaydi, subyektning o'z kognitiv tajribasi zaminida quriladi; shu bois evristik muhit lingvistik hodisalarning mohiyatini anglash, qonuniyatlarni til faktlarini kuzatish asosida umumlashtirish orqali aniqlash va ularni nutqiy faoliyatda qo'llash imkonini beradi [1].

Chet tilini o‘qitishda o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida evristik yondashuv va muammoli o‘qitish metodikasidan foydalanish masalasi o‘zbekistonlik olimlar M.U.Askarov va J.J.Jalolovning ilmiy-pedagogik asarlarida o‘z aksini topgan. Pedagogika fanida muammoli-evristik ta’lim texnologiyalarining nazariy asoslari professor M.U.Askarovning ishlarida yoritilgan. Olim o‘zining “Pedagogika” nomli o‘quv qo‘llanmasida ta’lim jarayonini reproduktiv (tayyor bilimlarni yodlatish) usuldan rivojlantiruvchi va muammoli ta’limga o‘tkazish zaruriyatini ilmiy jihatdan asoslagan [1]. Muallif ta’rificha, evristik ta’lim o‘quvchilarda bilimlarni tayyor holda o‘zlashtirish emas, balki o‘quv muammosini mustaqil hal etish, farazlar ilgari surish hamda tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Chet tili (ingliz tili) o‘qitish metodikasida esa ushbu yondashuv professor J.J.Jalolovning fundamental ilmiy-uslubiy ishlarida ochib berilgan [2]. J.J.Jalolovning “Chet til o‘qitish metodikasi” darsligida ongli-kommunikativ yondashuv va o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshirish masalalari tahlil qilingan. Darslikda keltirilishicha, chet tili darslarida til qoidalarini shunchaki yodlatish o‘quvchilarning muloqotdagi passivligini keltirib chiqaradi [2].

Mazkur yo‘nalishning psixologik-didaktik asoslari rus olimlari A.M.Matyushkin [3] va M.N.Skatkinning [4] ilmiy ishlarida ham tubdan tadqiq etilgan. Psixolog olim A.M.Matyushkin o‘zining “Проблемные ситуации в мышлении и обучении” nomli asarida o‘quvchida tafakkurning faollashishi uchun qanday muammoli vaziyatlar yaratish kerakligini ilmiy jihatdan isbotlagan. Olimning ko‘rsatib berishicha, o‘quvchi oldiga muammo qo‘yilgandagina unda kashf qilish va evristik izlanish ehtiyoji yuzaga keladi. Didaktika yo‘nalishining yirik namoyandasi M.N.Skatkin esa “Проблемное и эвристическое обучение” asarida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etish usullarini ishlab chiqqan. Skatkin evristik ta’limni ta’lim mazmunini o‘zlashtirishning asosiy usuli sifatida kiritib, o‘quvchining tayyor bilimlarni shunchaki yodlashini cheklash va qoidalarni mustaqil topishga yo‘naltiruvchi evristik suhbat hamda qidiruv metodlarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish zarurligini asoslab bergan.

Amerikalik faylasuf va pedagog Jon Dewey o‘zining “How We Think” nomli fundamental asarida o‘quvchining fikrlash jarayoni mustaqil ravishda muammoni hal qilish (problem-solving) bosqichlaridan iborat bo‘lishi kerakligini ilmiy jihatdan isbotlagan [5].

Tadqiqotda sokratik muloqot, muammoli vaziyat va yo‘naltirilgan kashfiyot metodlari tahlil qilindi. Konstruktivistik nuqtayi nazardan ularning har biri o‘quvchi tafakkurining alohida bosqichini faollashtiradi: savol bilishni, muammo ehtiyojni, kashfiyot esa umumlashmani shakllantiradi. Quyida har bir metodning modeli, formulasi va ishlash mexanizmi bayon etiladi.

1. Sokratik muloqot metodi. Metodning modeli quyidagi formula bilan ifodalanadi: *Savol + Javob + Qayta savol = O‘quvchining o‘z xulosasi.*

Mohiyati shundaki, o‘qituvchi tayyor javob bermaydi, balki savollar zanjiri orqali o‘quvchini o‘z fikridagi ziddiyatni topishga yo‘naltiradi. Metod samaradorligi oddiy nisbat bilan o‘lchanadi: *Nutqiy faollik = o‘quvchi gaplari soni ÷ o‘qituvchi gaplari soni.*

Nisbat birdan katta bo‘lsa, dars monologdan muloqotga o‘tgan hisoblanadi. Mexanizmi: qayta savol o‘quvchini o‘z javobini til faktlari bilan asoslashga majbur qiladi, bu esa fikrni ingliz tilida dalillab bayon etish ko‘nikmasini rivojlantiradi va J.J.Jalolov ta’kidlagan muloqotdagi passivlikni bartaraf etadi [2].

2. Muammoli vaziyat metodi. Modeli to‘rt bosqichdan iborat: *muammoni anglash → faraz → tekshirish → xulosa.* Bu ketma-ketlik J.Dewey tasvirlagan fikrlash bosqichlariga mos keladi [5]. Metodning ishga tushish sharti: *Muammo = Topshiriq talabi − O‘quvchining bilimi.*

Natija nolga teng bo‘lsa, topshiriq izlanish talab qilmaydi; juda katta bo‘lsa, o‘quvchi uni yecha olmay tushkunlikka tushadi. Shuning uchun farq kichik, ammo mavjud bo‘lishi, ya’ni o‘quvchi kuchi yetadigan darajada bo‘lishi lozim. Mexanizmi: aytmoqchi bo‘lgan fikr bilan mavjud til vositalari o‘rtasidagi tafovut o‘quvchini yangi shakllarni izlashga undaydi. A.M.Matyushkinning muammo qo‘yilgandagina kashf etish ehtiyoji tug‘iladi, degan g‘oyasi shu qonuniyatga tayanadi [3].

3. Yo‘naltirilgan kashfiyot metodi. Modeli induktiv bo‘lib, quyidagicha ifodalanadi: *Til namunalari + Qiyoslash = O‘quvchi topgan qoida.* Ketma-ketligi: *kuzatish → qiyoslash → qoida → nutqda qo‘llash.*

Namunalar qancha ko‘p va xilma-xil bo‘lsa, topilgan qoida shuncha barqaror bo‘ladi. J.Bruner fikricha, shu yo‘l bilan o‘zlashtirilgan bilim mustahkam saqlanadi va yangi vaziyatlarga oson ko‘chiriladi [6]. “Yo‘naltirilgan” degani, o‘qituvchi tayanch savollar bilan izlanish yo‘nalishini belgilab turishini bildiradi, bu M.N.Skatkinning evristik suhbat tamoyiliga mos keladi [4].

4. Metodlarning integratsiyasi. Uchala metod birgalikda qo‘llanganda nutqiy kompetensiya shakllanishi quyidagicha ifodalanadi: *Nutqiy kompetensiya = Sokratik muloqot + Muammoli vaziyat + Kashfiyot.*

Ularning to‘rt turdagi nutq faoliyatidagi vazifasi: Nutq faoliyati; sokratik muloqot; muammoli vaziyat; yo‘naltirilgan kashfiyot; tinglab tushunish; mazmun bo‘yicha izchil savollar; tinglanganlardagi ziddiyatni topish; audio matndagi qonuniyatni kuzatish va h.k.

O‘qish − muallif pozitsiyasini savollar bilan ochish; qarama-qarshi matnlarni qiyoslash − matndan til qoidasini topish; so‘zlashuv − argumentli munozara; rolli muammoli vaziyat− topilgan qoidani suhbatda qo‘llash; yozma nutq − insho rejasini savollar bilan qurish; muammo-yechim matni yozish; namunalardan yozma uslub qoidasini chiqarishdir. Dars maqsadiga qarab metodlarning ulushi o‘zgaradi: so‘zlashuv darsida sokratik muloqot, grammatik mavzuda kashfiyot ustuvor bo‘ladi.

Mavjud tadqiqotlarda evristik metodlar asosan alohida ko‘rib chiqilgan [1; 3; 4]; to‘rt turdagi nutq faoliyatini qamrab oluvchi yaxlit tizim yetarlicha asoslanmagan edi. Tadqiqotning yangiligi aynan shu tizimli yondashuvda hamda har bir metod uchun ishlab chiqilgan model, formula va mexanizmda namoyon bo‘ladi. Natijalarning ishonchliligi U.Askarov, J.Jalolov, M.Matyushkin, N.Skatkin, J.Dewey va J.Bruner kabi olimlar asoslagan nazariy poydevorga tayanishi bilan ta’minlanadi. Samaradorlikka ta’sir etuvchi omillar: o‘quvchilarning til darajasi, guruh hajmi, topshiriq murakkabligi va o‘qituvchining metodik tayyorgarligi.

Ilmiy jihatdan tadqiqot evristik ta’limning lingvodidaktik asoslarini chuqurlashtiradi va uni konstruktivistik paradigma bilan bog‘laydi. Amaliy jihatdan o‘qituvchilarga qaysi nutq faoliyatida qaysi metodni qo‘llash bo‘yicha tayyor sxema beradi. Ijtimoiy jihatdan mustaqil fikrlovchi va o‘z fikrini asoslay oladigan shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi. Olib borilgan tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ingliz tili darsida evristik usullardan foydalanish o‘quvchi nutqiy kompetensiyasini shakllantirishning konstruktivistik asosga tayangan samarali didaktik mexanizmi hisoblanadi. Tadqiqotda sokratik muloqot (savol, javob va qayta savol orqali o‘quvchi o‘z xulosasiga kelishi), muammoli vaziyat (muammoni anglash, faraz ilgari surish, uni tekshirish va xulosa chiqarish) hamda yo‘naltirilgan kashfiyot (til namunalarini kuzatish, qiyoslash va qoidani mustaqil shakllantirish) metodlarining modeli, operatsional formulasi va ishlash mexanizmi asoslab berildi. Aniqlandiki, har bir metod nutqiy faoliyatning muayyan jihatini rivojlantiradi: sokratik muloqot argumentli fikr bayon etishni, muammoli vaziyat mustaqil tahliliy tafakkurni, kashfiyot esa lingvistik hodisalarni ongli anglab o‘zlashtirishni ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Askarov, M. U. Pedagogika: o‘quv qo‘llanma / M. U. Askarov. – Toshkent: Talqin, 2008. – 288 b.
2. Jalolov, J. J. Chet til o‘qitish metodikasi [Matn]: darslik / J. J. Jalolov. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 432 b.
3. Матюшкин, А. М. Проблемные ситуации в мышлении и обучении [Текст] / А. М. Матюшкин. – Москва: Педагогика, 1972. – 208 с.
4. Скаткин, М. Н. Проблемное и эвристическое обучение [Текст] / М. Н. Скаткин. – Москва: Педагогика, 1982. – 96 с.
5. Dewey, J. How We Think [Text] / J. Dewey. – Boston: D. C. Heath & Co., 1910. – 224 p.
6. Bruner J. S. The Process of Education. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960.

UO‘K 378.147:618

AKUSHERLIK VA GINEKOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA TALABALARNING AMALIY KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION USULLARI

Qodirova N. S., tibbiyot fanlari nomzodi, Andijon davlat tibbiyot instituti, Andijon

Annotatsiya. *Ushbu maqolada akusherlik va ginekologiya fanini o‘qitishda talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishning innovatsion usullari yoritilgan. Simulyatsion texnologiyalar, interaktiv ta’lim metodlari, klinik vaziyatlar va raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishning samaradorligi ko‘rib chiqilgan. Mazkur usullar talabalarning faolligini oshirish,*

klinik fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *akusherlik, ginekologiya, amaliy ko'nikmalar, innovatsion usullar, simulyatsion ta'lim, klinik fikrlash, kasbiy kompetensiya.*

Аннотация. *В статье рассматриваются инновационные методы развития практических навыков студентов при изучении акушерства и гинекологии. Особое внимание уделяется использованию симуляционных технологий, интерактивных методов обучения, клинических ситуаций и цифровых образовательных ресурсов. Применение данных методов способствует повышению активности студентов, развитию клинического мышления, самостоятельности и профессиональных компетенций.*

Ключевые слова: *акушерство, гинекология, практические навыки, инновационные методы, симуляционное обучение, клиническое мышление, профессиональные компетенции.*

Abstract. *This article discusses innovative methods for developing students' practical skills in the study of obstetrics and gynecology. Particular attention is paid to simulation-based training, interactive teaching methods, clinical cases, and digital educational resources. The use of these methods contributes to increasing students' learning activity, developing clinical thinking, independence, and professional competencies.*

Keywords: *obstetrics, gynecology, practical skills, innovative methods, simulation-based training, clinical thinking, professional competencies.*

Kirish. Bugungi kunda tibbiy ta'limning asosiy vazifalaridan biri bo'lajak shifokorlarda chuqur nazariy bilimlar bilan bir qatorda mustahkam amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. Ayniqsa, akusherlik va ginekologiya fanini o'qitishda amaliy tayyorgarlik muhim ahamiyatga ega, chunki ushbu yo'nalish bemorni tekshirish, klinik holatni baholash, to'g'ri tashxis qo'yish va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish kabi ko'nikmalarni talab etadi.

Zamonaviy tibbiy ta'limda an'anaviy o'qitish usullari bilan bir qatorda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish tobora kengayib bormoqda. Simulyatsion texnologiyalar, klinik vaziyatlar, interaktiv metodlar, virtual ta'lim vositalari va raqamli resurslardan foydalanish talabalarning amaliy mashg'ulotlardagi faolligini oshirishga imkon beradi.

Akusherlik va ginekologiya fanini innovatsion usullar asosida o'qitish talabalarning klinik fikrlashini, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli talabalarning amaliy ko'nikmalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan zamonaviy ta'lim texnologiyalarini o'quv jarayoniga joriy etish dolzarb pedagogik va tibbiy ta'lim masalalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot davomida akusherlik va ginekologiya fanini o'qitishda talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion ta'lim usullarining samaradorligi o'rganildi. Tadqiqotda pedagogik kuzatuv, taqqoslash, so'rovnoma, test, suhbat va pedagogik tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi.

Amaliy mashg'ulotlarda simulyatsion texnologiyalar, klinik vaziyatli masalalar, interaktiv metodlar va raqamli ta'lim resurslari qo'llanildi. Talabalarning bemorni ko'rikdan o'tkazish, klinik holatni baholash, amaliy muolajalarni bajarish va mustaqil klinik qaror qabul qilish ko'nikmalari baholandi.

Nazariy tahlil va umumlashtirish: Tadqiqotning nazariy bosqichida akusherlik va ginekologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlardan foydalanishga oid ilmiy-metodik adabiyotlar tahlil qilindi. Mavjud ilmiy yondashuvlarni umumlashtirish asosida simulyatsion ta'lim, interaktiv metodlar, klinik vaziyatli masalalar va raqamli texnologiyalarning talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati aniqlandi.

Nazariy tahlil natijasida innovatsion metodlarni amaliy mashg'ulotlarga tizimli joriy etish talabalarning klinik fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilishi, amaliy muolajalarni to'g'ri bajarishi va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi belgilandi.

Modellashtirish va vizualizatsiya vositalari: Akusherlik va ginekologiya fanini o'qitishda modellashtirish va vizualizatsiya vositalaridan foydalanish murakkab klinik jarayonlarni talabalar

uchun tushunarli va amaliy shaklda o‘zlashtirish imkonini beradi. Amaliy mashg‘ulotlarda anatomik modellar, simulyatorlar, klinik algoritmlar, videomateriallar va raqamli ta’lim resurslaridan foydalanildi. Mazkur vositalardan foydalanish talabalarning darsdagi faolligini oshirib, amaliy harakatlarni xavfsiz muhitda takrorlash, xatolarni aniqlash va mustaqil ravishda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Eksperimental-sinov usuli: Tadqiqotning eksperimental bosqichida akusherlik va ginekologiya fanini o‘qitishda innovatsion usullarning talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga ta’siri o‘rganildi. Amaliy mashg‘ulotlarda simulyatsion texnologiyalar, klinik vaziyatli topshiriqlar, interaktiv metodlar va raqamli ta’lim vositalaridan foydalanildi.

Tajriba davomida talabalarning bemorni ko‘rikdan o‘tkazish, akusherlik va ginekologik muolajalarni bajarish, klinik vaziyatni baholash hamda mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari baholandi. Olingan natijalar an’anaviy ta’lim usullari bilan taqqoslanib, innovatsion yondashuvlarning samaradorligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Tadqiqot natijalari akusherlik va ginekologiya fanini o‘qitishda innovatsion usullardan foydalanish talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanligini ko‘rsatdi. Simulyatsion texnologiyalar, klinik vaziyatli topshiriqlar, interaktiv metodlar va raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish talabalarning amaliy mashg‘ulotlardagi faolligini oshirdi.

Innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda talabalar bemorni ko‘rikdan o‘tkazish, klinik holatni baholash, akusherlik va ginekologik muolajalarni bajarish hamda mustaqil klinik qaror qabul qilish ko‘nikmalarini faol ravishda rivojlantirdilar. Simulyatorlardan foydalanish amaliy ko‘nikmalarni xavfsiz sharoitda bir necha marotaba takrorlash va xatolarni tahlil qilish imkonini berdi. Klinik vaziyatli masalalar va interaktiv metodlar talabalarning klinik fikrlashi, muammoli vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilishi hamda nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash qobiliyatini kuchaytirdi. Raqamli vizual materiallardan foydalanish esa murakkab klinik jarayonlarni tushunishni osonlashtirib, talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirdi.

Laboratoriya va raqamli vizualizatsiyaning o‘rni: Akusherlik va ginekologiya fanini o‘qitishda amaliy mashg‘ulotlar talabalarning nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalar bilan mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Simulyatsion laboratoriyalarda anatomik modellar va maxsus trenajyorlardan foydalanish orqali talabalar akusherlik va ginekologik muolajalarni xavfsiz sharoitda bajarish, amaliy harakatlarni takrorlash va o‘z xatolarini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Fanlararo integratsiyaning ta’siri: Akusherlik va ginekologiya fanlarini anatomiya, fiziologiya, patologik anatomiya, farmakologiya va pediatriya fanlari bilan integratsiyalashgan holda o‘qitish talabalarning bilimlarini yaxlit shakllantirishga yordam beradi. Fanlararo yondashuv orqali talabalar homiladorlik, tug‘ruq va ginekologik kasalliklarning fiziologik hamda patologik jarayonlarini o‘zaro bog‘liq holda o‘rganadilar.

Bunday integratsiya talabalarning klinik fikrlash qobiliyatini rivojlantirib, bemorning holatini kompleks baholash va to‘g‘ri klinik qaror qabul qilish imkoniyatini oshiradi. Shuningdek, turli fanlardan olingan bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash talabalarning diagnostik va davolash ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Muhokama: Tadqiqot natijalari akusherlik va ginekologiya fanini o‘qitishda innovatsion usullardan foydalanish talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanligini ko‘rsatdi. Simulyatsion texnologiyalar, klinik vaziyatlar va interaktiv metodlar talabalarning klinik fikrlashi hamda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini oshiradi.

Innovatsion usullarni an’anaviy ta’lim bilan uyg‘unlashtirish nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va talabalarning amaliy tayyorgarligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Xulosa. Akusherlik va ginekologiya fanini o‘qitishda innovatsion usullardan foydalanish talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Simulyatsion texnologiyalar, interaktiv metodlar va raqamli ta’lim vositalari talabalarning klinik fikrlashi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Innovatsion yondashuvlarni amaliy mashg‘ulotlarga tizimli joriy etish ta’lim sifatini oshirish, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash va talabalarni kelgusidagi kasbiy faoliyatga samarali tayyorlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Cunningham F.G., Leveno K.J., Bloom S.L. va boshqalar. Williams Obstetrics. – 26-nashr. – McGraw-Hill Education, 2022.

2. Berek J.S. Berek & Novak’s Gynecology. – 16-nashr. – Wolters Kluwer, 2020.

3. Hoffman B.L., Schorge J.O., Bradshaw K.D. va boshqalar. Williams Gynecology. – 4-nashr. – McGraw-Hill Education, 2020.

4. Gabbe S.G., Niebyl J.R., Simpson J.L. va boshqalar. Obstetrics: Normal and Problem Pregnancies. – 8-nashr. – Elsevier, 2021.

5. World Health Organization. WHO Recommendations for Antenatal Care for a Positive Pregnancy Experience. – Geneva: WHO, 2016.

UO‘K 372.881.111.1:81'373.21

O‘ZBEK VA INGLIZ GIDRONIMLARIDAN INGLIZ TILI TA’LIMIDA FOYDALANISHNING LINGVODIDAKTIK IMKONIYATLARI

G.A.Qurbonova, o‘qituvchi, Termiz davlat pedagogika instituti, Termiz tumani

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi gidronimlardan ingliz tili ta’limida lingvomadaniy va lingvodidaktik material sifatida foydalanish imkoniyatlari tadqiq etiladi. Gidronimlar – daryo, ko‘l, kanal, buloq va boshqa suv obyektlarining nomlari – nafaqat geografik obyektlarni ifodalovchi onomastik birliklar, balki muayyan xalqning tarixi, madaniyati, geografik muhiti va milliy xotirasi bilan bog‘liq til birliklari sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy, struktur-semantik va lingvodidaktik tahlil usullaridan foydalanildi. O‘zbek va ingliz gidronimlarining shakllanishi, nomlanish motivlari hamda ularni ingliz tili darslarida qo‘llash imkoniyatlari tahlil qilindi. Shuningdek, gidronimlar asosida lug‘at boyligini rivojlantirish, o‘qish, gapirish, qiyosiy tahlil va loyiha faoliyatini tashkil etishga yo‘naltirilgan topshiriqlar taklif etildi.*

Kalit so‘zlar: *gidronim, gidronimiya, onomastika, lingvodidaktika, ingliz tili ta’limi, lingvomadaniy kompetensiya, qiyosiy tahlil, mahalliy material.*

Аннотация. *В данной статье исследуются лингводидактические возможности использования узбекских и английских гидронимов в процессе обучения английскому языку. Гидронимы, обозначающие названия рек, озёр, каналов, родников и других водных объектов, являются не только ономастическими единицами, но и важными носителями исторической, культурной и географической информации. В исследовании применяются описательный, сравнительный, структурно-семантический и лингводидактический методы анализа. Рассматриваются особенности формирования и мотивации названий узбекских и английских гидронимов, а также возможности их использования в образовательном процессе. Предлагаются практические задания, направленные на развитие словарного запаса, навыков чтения и говорения, сравнительного анализа и проектной деятельности учащихся.*

Ключевые слова: *гидроним, гидронимия, ономастика, лингводидактика, обучение английскому языку, лингвокультурная компетенция, сравнительный анализ, локальный материал.*

Abstract. *This article examines the linguodidactic potential of Uzbek and English hydronyms in English language education. Hydronyms, including the names of rivers, lakes, canals, springs and other water features, are not merely geographical names; they also preserve historical, cultural and geographical information. The study employs descriptive, comparative, structural-semantic and linguodidactic methods to analyse selected Uzbek and English hydronyms and their potential for classroom use. Particular attention is paid to naming patterns, semantic features and culturally relevant information represented by hydronyms. The article proposes practical classroom activities for vocabulary development, reading, speaking, comparative analysis and project-based learning. A five-stage teaching model—Discover, Explore, Compare, Communicate and Reflect—is also proposed. The approach enables learners to investigate familiar geographical names, compare them*

with English-language examples and communicate information about their own cultural and geographical environment in English.

Key words: *hydronym, hydronymy, onomastics, linguodidactics, English language teaching, linguocultural competence, comparative analysis, local materials.*

Bugungi kunda xorijiy tillarni o‘qitish jarayonida faqat grammatik va leksik bilimlarni shakllantirish bilan cheklanib qolmasdan, o‘quvchilarning madaniy bilimlarini kengaytirish, o‘z madaniyatini xorijiy tilda ifodalash hamda turli madaniyatlar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni anglashiga imkon beruvchi ta’limiy yondashuvlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, mahalliy lingvistik materiallardan foydalanish ingliz tili ta’limining mazmunini boyituvchi vositalardan biri hisoblanadi.

Mahalliy materiallar orasida toponimik va xususan, gidronimik birliklar alohida o‘rin tutadi. Gidronimlar suv obyektlarining atoqli nomlari bo‘lib, ular til, geografiya, tarix va madaniyatning o‘zaro aloqasini namoyon etadi. O‘zbek tilidagi Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Chirchiq, Qorasuv kabi nomlar o‘quvchilarga o‘zlari yashayotgan yoki yaxshi biladigan geografik muhit haqida ingliz tilida fikr yuritish imkonini beradi. Ingliz tilidagi the Thames, the Avon, Windermere kabi nomlar esa ingliz tilida so‘zlashuvchi hududlarning geografik va madaniy makoni bilan tanishtirishga xizmat qiladi.

Gidronimlarning ilmiy jihatdan o‘rganilishi o‘zbek tilshunosligida ham muhim yo‘nalishlardan biridir. G.A.Qurbonova o‘z tadqiqotlarida o‘zbek gidronimiyasining shakllanishi va struktur xususiyatlarini tahlil qilgan hamda gidronimlarning onomastik tizimdagi o‘rniga e’tibor qaratgan [1]. Shuningdek, gidronimlarning onomastika tarkibidagi o‘rni alohida tadqiqotlarda yoritilgan [2].

Onomastika atoqli otlarni o‘rganuvchi tilshunoslik sohasi bo‘lib, uning tarkibida antroponimiya, toponimiya, gidronimiya, oykonimiya kabi yo‘nalishlar mavjud. Gidronimiya suv obyektlarining atoqli nomlarini o‘rganadi. Gidronimlarning muhim jihati shundaki, ular geografik obyektni nomlash bilan bir qatorda, mazkur nom shakllangan davr, hudud, til va madaniyat haqida ma’lumot berishi mumkin. Gidronimlarning strukturasi ham turlicha bo‘ladi. Ayrim nomlar bir komponentli, ayrimlari esa ikki yoki undan ortiq komponentli shaklda uchraydi. Masalan, o‘zbek tilidagi Qorasuv nomi qo‘shma strukturaga ega bo‘lib, qora + suv komponentlarining birikishi asosida shakllangan. Amudaryo va Sirdaryo kabi birliklarda esa gidronimik komponent sifatida “daryo” leksemasining ishtiroki kuzatiladi. Ingliz tilidagi gidronimlarda ham suv obyektining turini ko‘rsatuvchi umumiy komponentlardan foydalanish mumkin. Masalan, River Thames, River Avon birliklarida *river* geografik obyekt turini bildiruvchi komponent sifatida qatnashadi. Bunday birliklarni ingliz tilini o‘rganayotgan talabalar bilan tahlil qilish orqali atoqli va turdosh otlarning o‘zaro munosabati, geografik terminologiya hamda nomlash modellarini o‘rganish mumkin [3]. Gidronimlarning yana bir muhim xususiyati - ularning lingvomadaniy mazmunidir. Har qanday geografik nomning yuzaga kelishida tabiiy xususiyat, geografik joylashuv, tarixiy voqea, mahalliy aholi faoliyati yoki boshqa omillar ishtirok etishi mumkin. Shu sababli gidronimlar oddiy so‘zlardan farqli ravishda kengroq assotsiativ va madaniy mazmunni ifodalashi mumkin. Gidronimlarni o‘rganish o‘quvchilarga “nom - obyekt - hudud - tarix - madaniyat” munosabatlarini ko‘rishga yordam beradi. Bunday yondashuv ingliz tili darsida leksik birliklarni alohida o‘rgatishdan ko‘ra ularni real geografik va madaniy kontekstda qo‘llash imkonini beradi. Qiyosiy tilshunoslikda turli tillarga mansub birliklarni o‘zaro solishtirish orqali ularning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash muhim hisoblanadi. Gidronimlar ham bunday qiyosiy tahlil uchun qulay material bo‘la oladi. O‘zbek va ingliz gidronimlarini o‘rganishda quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin:

1-jadval.

O‘zbek va ingliz gidronimlarining qiyosiy lingvistik hamda lingvodidaktik tavsifi

Tahlil mezoni	O‘zbek gidronimlari	Ingliz gidronimlari
Obyekt turi	daryo, kanal, buloq, ko‘l	river, lake, canal, spring
Strukturasi	sodda, qo‘shma, birikmali	sodda, qo‘shma, birikmali
Nomlash motivi	geografik, tabiiy, tarixiy va boshqa omillar	geografik, tarixiy, tabiiy va boshqa omillar
Lingvomadaniy mazmun	mahalliy tarix va geografik muhit bilan bog‘liq	hudud tarixi va ingliz madaniy makoni bilan bog‘liq

Tahlil mezoni	O‘zbek gidronimlari	Ingliz gidronimlari
Ta’limiy imkoniyat	mahalliy material sifatida	xorijiy madaniyat materiali sifatida

Bunday jadval asosida talabalar o‘zlari biladigan gidronimlarni ingliz tilidagi gidronimlar bilan qiyoslashlari mumkin. Masalan, o‘qituvchi Amudaryo - the Thames juftligini tanlab, o‘quvchilardan ikkala obyekt haqida ingliz tilida ma’lumot berishni so‘rashi mumkin.

Bu jarayonda quyidagi savollar berilishi mumkin:

1. What type of water feature is it?
2. Where is it located?
3. What is the name of the water feature?
4. What does the name tell us about the place?
5. What similarities and differences can you identify?
6. Why is this geographical name important for local people?

Mazkur topshiriqlar oddiy lug‘at mashqidan boshlab murakkabroq kommunikativ faoliyatga o‘tish imkonini beradi. Gidronimik materiallardan foydalanishning asosiy afzalliklaridan biri shundaki, bitta geografik nom asosida bir nechta til ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin [4].

Ushbu modelning muhim jihati shundaki, o‘quvchi tayyor ma’lumotni shunchaki yodlamaydi, balki mahalliy materialni izlaydi, tahlil qiladi, boshqa til materiali bilan qiyoslaydi va ingliz tilida taqdim etadi. Gidronimlardan ingliz tili ta’limida foydalanish bir nechta metodik imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi. Birinchidan, ular o‘quvchi uchun tanish va mazmunan yaqin material bo‘lishi mumkin. O‘quvchi o‘z hududidagi geografik obyekt haqida avvaldan ma’lum bilimga ega bo‘lgani sababli, ushbu mazmunni ingliz tilida ifodalashga e’tibor qaratishi mumkin. Ikkinchidan, gidronimlar fanlararo integratsiya uchun qulay materialdir. Ularni ingliz tili bilan bir qatorda geografiya, tarix, o‘lkashunoslik va madaniyat bilan bog‘lash mumkin. Shu jihatdan, gidronimlar til ta’limini real hayot va mahalliy muhit bilan bog‘lash vositasi sifatida xizmat qiladi. Uchinchidan, gidronimik materiallar kommunikativ topshiriqlar uchun keng imkoniyat yaratadi. Masalan, “My local river”, “Water names in my region”, “Uzbek and English hydronyms”, “The story behind a geographical name” kabi mini-loyihalarni tashkil etish mumkin. To‘rtinchidan, bunday materiallar o‘quvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Talaba gidronimning kelib chiqishini aniqlash, manbalarni solishtirish, ma’lumotlarni saralash va natijani ingliz tilida taqdim etish jarayonida mustaqil izlanadi. Bunda muhim metodik talab – gidronimlarning etimologiyasi va tarixiy ma’nolari faqat ishonchli ilmiy yoki rasmiy manbalar asosida berilishidir. Chunki geografik nomlarning xalq orasidagi izohlari bilan ilmiy etimologik talqinlari har doim ham bir xil bo‘lmasligi mumkin [5]. O‘zbek va ingliz gidronimlarini ingliz tili ta’limiga integratsiya qilish til o‘rgatish jarayonini mahalliy geografik, tarixiy va madaniy mazmun bilan boyitish imkonini beradi. Gidronimlar o‘zida geografik ma’lumot bilan birga til va madaniyatga oid muhim axborotni mujassamlashtirishi sababli, ularni autentik lingvomadaniy material sifatida qo‘llash mumkin. Tadqiqot asosida gidronimlardan foydalanishning lug‘at boyligini rivojlantirish, reading va speaking ko‘nikmalarini shakllantirish, qiyosiy tahlil o‘tkazish, loyiha faoliyatini tashkil etish hamda o‘quvchilarning madaniyatlararo muloqotga tayyorgarligini rivojlantirishdagi imkoniyatlari ko‘rsatildi [6].

Taklif etilgan Discover-Explore-Compare-Communicate-Reflect modeli o‘quvchilarni tanish mahalliy materialdan boshlab, uni ingliz tilidagi geografik va madaniy material bilan qiyoslash hamda ingliz tilida taqdim etishga olib keladi. Mazkur yondashuv ayniqsa o‘quvchilarning o‘z hududi va madaniy muhitini ingliz tilida ifodalash ko‘nikmasini rivojlantirish uchun foydali bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, gidronimlarni ingliz tili ta’limida qo‘llash faqat geografik nomlarni o‘rgatish bilan cheklanmaydi. U til, geografiya, tarix va madaniyatni integratsiyalashgan holda o‘rganishga sharoit yaratadi hamda zamonaviy ijtimoiy-gumanitar ta’limning mazmuniy imkoniyatlarini kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Qurbonova G. A. Preliminary study of Uzbek hydronymy on the roots // Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Vol. 11, No. 7. – P. 215–218.

2. Qurbonova G. A. Hydronyms are a component of onomastics // International Conference on Modern Development of Pedagogy and Linguistics. – 2024. – Vol. 1, No. 1. – P. 169–172.

3. Ulugov N. O‘zbek tili gidronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2008.

4. Hough C. (Ed.). The Oxford Handbook of Names and Naming. – Oxford: Oxford University Press, 2016.

5. Kramsch C. Context and Culture in Language Teaching. – Oxford: Oxford University Press, 1993.

6. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. – Clevedon: Multilingual Matters, 1997.

UO‘K 378.147:070

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK JURNALISTLARNING MUSTAQIL O‘QUV MALAKALARINI RIVOJLANTIRISHDA MASHQ TIZIMINING PEDAGOGIK VA DIDAKTIK NEGIZLARI

Saidova Z. U., katta o‘qituvchi, O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Mazkur maqolada integrativ yondashuv asosida bo‘lajak jurnalistlarning mustaqil o‘quv malakalarini rivojlantirishda mashqlar tizimining pedagogik va didaktik asoslari tadqiq etiladi. Mustaqil ta’limni tashkil etish, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, fanlararo integratsiyani ta’minlash hamda amaliy mashqlar orqali talabalarning tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish imkoniyatlari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *integrativ yondashuv, jurnalistika ta’limi, mustaqil ta’lim, mashqlar tizimi, pedagogik texnologiya, didaktik tamoyillar, kasbiy kompetensiya, tanqidiy fikrlash.*

Аннотация. *В статье исследуются педагогические и дидактические основы системы упражнений, направленной на развитие навыков самостоятельной учебной деятельности будущих журналистов на основе интегративного подхода. Рассматриваются возможности организации самостоятельного обучения, формирования профессиональных компетенций, обеспечения междисциплинарной интеграции, а также развития критического и творческого мышления студентов посредством практических упражнений.*

Ключевые слова: *интегративный подход, журналистское образование, самостоятельное обучение, система упражнений, педагогическая технология, дидактические принципы, профессиональная компетентность, критическое мышление.*

Abstract. *This article examines the pedagogical and didactic foundations of an exercise system designed to develop future journalists' independent learning skills through an integrative approach. It discusses the organization of independent learning, the development of professional competencies, interdisciplinary integration, and opportunities to enhance students' critical and creative thinking through practical exercises.*

Keywords: *integrative approach, journalism education, independent learning, exercise system, educational technology, didactic principles, professional competence, critical thinking.*

Kirish. Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda jurnalistika sohasi ijtimoiy kommunikatsiya, axborot almashinuvi va jamoatchilik fikrini shakllantirishning muhim instituti sifatida rivojlanmoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal taraqqiyoti, axborot oqimining kengayishi, sun’iy intellekt vositalarining ommalashuvi hamda media makonida raqobatning kuchayishi jurnalistlarning kasbiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablarni tubdan o‘zgartirmoqda. Bugungi jurnalist nafaqat axborotni izlash, qayta ishlash va tarqatish, balki uning ishonchliligini tekshirish, tanqidiy tahlil qilish, turli manbalarni qiyoslash hamda axborot mahsulotlarini mustaqil yaratish kompetensiyalariga ega bo‘lishi zarur.

Adabiyotlar tahlili. Bo‘lajak jurnalistlarning mustaqil o‘quv malakalarini rivojlantirish masalasi pedagogika, ta’lim psixologiyasi, kasbiy ta’lim va media pedagogikasi doirasida o‘rganiladigan muhim ilmiy yo‘nalishlardan biridir. Mazkur muammoning nazariy asoslarini yoritishda mustaqil ta’lim, o‘zini o‘zi boshqarib o‘rganish, fanlararo integratsiya, tajribaga asoslangan o‘qitish va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga oid ilmiy qarashlar muhim ahamiyatga ega.

Amerikalik pedagog John Dewey o‘zining *Experience and Education* asarida ta’lim jarayonida shaxsiy tajriba, faol ishtirok va amaliy faoliyatning ahamiyatini asoslab bergan [1]. Uning pedagogik qarashlariga ko‘ra, bilimlar talabaning real hayotiy tajribasi bilan bog‘langandagina mazmunli o‘zlashtiriladi. Mazkur yondashuv jurnalistika ta’limida nazariy bilimlarni axborot izlash, intervyu

tashkil etish, maqola yozish va media materiallarni tahlil qilish kabi amaliy mashqlar bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Malcolm Knowles o‘zining *Self-Directed Learning: A Guide for Learners and Teachers* asarida mustaqil ta’limni shaxsning o‘z o‘quv ehtiyojlarini aniqlashi, maqsadlarini belgilashi, resurslarni tanlashi va natijalarni baholashi bilan bog‘liq jarayon sifatida talqin etadi [2]. Mazkur nazariya bo‘lajak jurnalistlarning mustaqil axborot izlash, individual o‘quv strategiyalarini ishlab chiqish va kasbiy bilimlarini muntazam yangilab borish malakalarini rivojlantirish uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Barry Zimmerman tomonidan ishlab chiqilgan o‘zini o‘zi boshqarib o‘rganish konsepsiyasida talabaning o‘quv faoliyatini rejalashtirishi, kuzatishi, nazorat qilishi va refleksiv baholashi muhim o‘rin egallaydi [3]. Ushbu yondashuv jurnalistika yo‘nalishi talabalarida mustaqil ta’lim jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish, topshiriqlarni bajarish strategiyalarini tanlash va o‘z kasbiy rivojlanishini baholash imkoniyatlarini kengaytiradi.

David Kolbning tajribaga asoslangan o‘qitish nazariyasida bilimlarni egallash aniq tajriba, refleksiv kuzatish, abstrakt konseptuallashtirish va faol eksperiment bosqichlari orqali amalga oshishi ta’kidlanadi [4]. Mazkur model jurnalistika ta’limida ayniqsa dolzarb bo‘lib, talabalar dastlab real media vaziyatlarini o‘rganadilar, ularni tahlil qiladilar, nazariy xulosalar chiqaradilar va yangi axborot mahsulotlarini yaratish orqali o‘z bilimlarini amaliyotda sinab ko‘radilar.

Julie Thompson Klein fanlararo integratsiya masalasini tadqiq etib, murakkab muammolarni o‘rganishda turli fanlar bilimlari va metodlarini birlashtirish zarurligini asoslagan [5]. Jurnalistika ta’limida bunday yondashuv tilshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, huquqshunoslik, axborot texnologiyalari va media kommunikatsiya fanlarining o‘zaro integratsiyasini ta’minlash imkonini beradi.

Bill Kovach va Tom Rosenstielning *The Elements of Journalism* asarida jurnalistikaning asosiy kasbiy tamoyillari, jumladan, haqiqatga intilish, axborotni tekshirish, mustaqillik va jamoatchilik oldidagi mas’uliyat masalalari yoritilgan [6]. Ushbu qarashlar bo‘lajak jurnalistlarning mustaqil o‘quv faoliyatini kasbiy etika, faktlarni tekshirish va ishonchli axborot bilan ishlashga yo‘naltirilgan mashqlar orqali rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar integrativ yondashuv asosida mustaqil o‘quv malakalarini rivojlantirishda amaliy faoliyat, refleksiya, o‘zini o‘zi boshqarish, fanlararo hamkorlik va kasbiy mas’uliyat tamoyillarining muhimligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, mazkur nazariy qarashlarni jurnalistika ta’limiga moslashtirish va ularni yaxlit mashqlar tizimi orqali amalga oshirish alohida metodik ishlab chiqishni talab etadi.

Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak jurnalistlarning mustaqil o‘quv malakalarini rivojlantirish masalasini nazariy tahlil qilish mashqlar tizimini yaxlit pedagogik mexanizm sifatida tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi. Bunda mustaqil ta’lim jarayonining samaradorligi mashqlar mazmuni, ularning murakkablik darajasi, kasbiy faoliyat bilan bog‘liqligi va talabalar tomonidan bajariladigan amaliy harakatlarning izchilligiga bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Mashqlar tizimini tashkil etishda pedagogik rahbarlik va talaba mustaqilligi o‘rtasidagi muvozanat ham muhim ahamiyat kasb etadi. Dastlabki bosqichlarda o‘qituvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar, namunalar va baholash mezonlari taqdim etilishi zarur. Talabalarning mustaqil ishlash tajribasi ortib borgani sari pedagogik yordam bosqichma-bosqich kamaytirilib, ularning individual qaror qabul qilish imkoniyatlari kengaytiriladi.

Shuningdek, integrativ mashqlar tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish mustaqil ta’limning tashkiliy va metodik imkoniyatlarini kengaytiradi. Elektron kutubxonalar, media arxivlar, onlayn tahrir platformalari, faktcheking vositalari va multimedia dasturlari talabalarning kasbiy topshiriqlarni mustaqil bajarishiga yordam beradi.

Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda esa talabalarning tanqidiy fikrlashi, mualliflik mas’uliyati va axborotni tekshirish malakalarini rivojlantirish ustuvor vazifa bo‘lib qolishi lozim. Sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan matn yoki axborotdan foydalanish uning ishonchliligini mustaqil tekshirish va tahririy javobgarlikni saqlash talablarini bekor qilmaydi.

Integrativ mashqlar tizimining natijadorligini baholash uchun motivatsion, kognitiv, faoliyatga oid va refleksiv mezonlardan foydalanish taklif etiladi. Motivatsion mezon talabaning mustaqil o‘rganishga qiziqishi va tashabbuskorligini; kognitiv mezon kasbiy bilimlarni tushunishi va fanlararo bog‘liqliklarni anglashini; faoliyatga oid mezon amaliy topshiriqlarni mustaqil bajarish sifatini; refleksiv mezon esa o‘z faoliyatini baholash va takomillashtirish qobiliyatini ifodalaydi.

Shunday qilib, nazariy tahlil integrativ yondashuv asosida ishlab chiqilgan mashqlar tizimi bo‘lajak jurnalistlarning mustaqil o‘quv malakalarini rivojlantirish uchun istiqbolli didaktik model bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Biroq uning amaliy samaradorligini tasdiqlash uchun tajriba-sinov ishlari o‘tkazish, tajriba va nazorat guruhlari natijalarini taqqoslash hamda olingan ma'lumotlarni statistik tahlil qilish talab etiladi.

Xulosa. Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak jurnalistlarning mustaqil o‘quv malakalarini rivojlantirish zamonaviy oliy ta'lim tizimining muhim pedagogik vazifalaridan biri hisoblanadi. Jurnalistika sohasidagi texnologik o‘zgarishlar, raqamli axborot muhitining kengayishi va kasbiy faoliyatga qo‘yilayotgan talablarning ortishi talabalarni mustaqil izlanish, axborotni tanqidiy tahlil qilish, ijodiy faoliyat yuritish va o‘z bilimlarini muntazam yangilashga tayyorlash zaruratini kuchaytirmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Dewey, J. (1938). *Experience and Education*. New York: Macmillan.

2. Knowles, M. S. (1975). *Self-Directed Learning: A Guide for Learners and Teachers*. New York: Association Press.

3. Zimmerman, B. J. (2002). Becoming a Self-Regulated Learner: An Overview. *Theory Into Practice, 41*(2), 64–70. https://doi.org/10.1207/s15430421tip4102_2

4. Kolb, D. A. (1984). *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.

5. Klein, J. T. (1990). *Interdisciplinarity: History, Theory, and Practice*. Detroit: Wayne State University Press.

6. Kovach B., Rosenstiel T. The Elements of Journalism: What Newspeople Should Know and the Public Should Expect. New York: Crown, 2001.

UO‘K 378.011.3-051:159.9

AKMEOLOGIK POZITSIYA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA AKMEOLOGIK-KREATIV SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA

Saidova G. H., DSc, O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Toshkent

Annotatsiya. *Mazkur maqolada akmeologik pozitsiyaning bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik-kreativ salohiyatni rivojlantirishdagi ahamiyati va pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kamolotga intilishi, ijodiy fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilishi hamda o‘z faoliyatini muntazam takomillashtirishida akmeologik yondashuvning o‘rni tahlil qilingan. Akmeologik pozitsiyani shakllantirish orqali talabalarda kasbiy motivatsiya, refleksiv tafakkur, innovatsion yondashuv va kreativ pedagogik faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *akmeologiya, akmeologik pozitsiya, bo‘lajak o‘qituvchi, kreativ salohiyat, kasbiy kamolot, pedagogik mahorat, ijodiy tafakkur, kasbiy motivatsiya, refleksiv yondashuv, innovatsion ta'lim.*

Аннотация. *В данной статье освещаются значение и педагогические возможности акмеологической позиции в развитии акмеолого-креативного потенциала будущих учителей. Проанализирована роль акмеологического подхода в стремлении будущих педагогов к профессиональному совершенствованию, развитии творческого мышления, самостоятельном принятии решений и непрерывном совершенствовании собственной деятельности. Особое внимание уделено вопросам формирования у студентов профессиональной мотивации, рефлексивного мышления, инновационного подхода и навыков креативной педагогической деятельности посредством развития акмеологической позиции.*

Ключевые слова: *акмеология, акмеологическая позиция, будущий учитель, креативный потенциал, профессиональное совершенствование, педагогическое мастерство, творческое мышление, профессиональная мотивация, рефлексивный подход, инновационное образование.*

Abstract. *This article explores the significance and pedagogical potential of the acmeological position in developing the acmeological and creative potential of future teachers. It analyzes the role of the acmeological approach in encouraging prospective teachers to pursue professional excellence, develop creative thinking, make independent decisions, and continuously improve their professional activities. Particular attention is paid to developing students' professional motivation, reflective thinking, innovative approaches, and creative teaching skills through the formation of an acmeological position.*

Keywords: *acmeology, acmeological position, future teacher, creative potential, professional development, pedagogical excellence, creative thinking, professional motivation, reflective approach, innovative education.*

Kirish. Akmeologiya fanining asosiy predmeti ijodiy yetuk shaxsni o‘rganishdan iborat. Akmeologiya insonning o‘z hayoti va faoliyatini ongli ravishda boshqarish qobiliyatini, ya’ni maqsad qo‘yish, kasb tanlash, faoliyatini rejalashtirish hamda belgilangan maqsadlarga erishish strategiyalarini mustaqil ravishda aniqlash jarayonlarini tadqiq etadi. Shaxs yetuklik bosqichiga erishishi bilan uning rivojlanishida muhim o‘zgarishlar yuz beradi: ta’lim va tarbiya jarayonlari tashqi ta’sirga asoslangan holatdan ichki motivatsiyaga asoslangan jarayonga aylanadi. Ya’ni shaxs rivojlanishining asosiy harakatlantiruvchi omili tashqi nazorat emas, balki o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ichki ehtiyoj hisoblanadi. Bu jarayon shaxs rivojlanishining tabiiy va bosqichma-bosqich kechishini ko‘rsatadi hamda refleksiya, mustaqil fikrlash va o‘zini anglash jarayonlarining kuchayishi bilan tavsiflanadi. Ilmiy adabiyotlarda akmeologiya insonning o‘z ustida ishlashi va ijodiy jihatdan yuksalish qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan sifatida talqin etiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Pedagogika va akmeologiyaga oid ilmiy adabiyotlarda “akmeologik pozitsiya” tushunchasi nisbatan yangi kategoriyalardan biri hisoblanadi. Shu sababli uning mazmuni va mohiyatini talqin qilishda turli mualliflarning yondashuvlari o‘zaro farqlanadi. Ayrim tadqiqotchilar ushbu tushunchani o‘qituvchining kasbiy faoliyati bilan bog‘liq holda izohlasalar, boshqalari uni shaxsning o‘zini anglashi, refleksiyasi va ijodiy o‘sish jarayonlari bilan bog‘laydilar. Masalan, maktab ta’limi akmeologiyasi doirasida V. N. Maksimova “akmeologik pozitsiya” tushunchasini o‘qituvchining kasbiy, shaxsiy va ma’naviy rivojlanishi bilan bog‘liq gumanistik yo‘nalishi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, akmeologik pozitsiya o‘qituvchining pedagogik faoliyatida o‘quvchining muvaffaqiyati, salomatligi hamda shaxsiy rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi ijodiy hamkorlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuvda akmeologik pozitsiya, asosan, pedagogning kasbiy mas’uliyati va gumanistik qadriyatlari bilan bog‘lanadi [1].

N. M. Poletayeva ushbu tushunchani yanada kengroq talqin qiladi. Uning qarashlariga ko‘ra, akmeologik pozitsiya o‘qituvchining gumanistik yo‘nalishi bilan bir qatorda, ijodiy yondashuvlarni qo‘llab-quvvatlash, stereotip fikrlashdan voz kechish, o‘z faoliyatini refleksiv tahlil qilish hamda o‘zini baholash qobiliyatini ham qamrab oladi. Bundan tashqari, Poletayeva akmeologik pozitsiyani nafaqat o‘qituvchiga, balki o‘quvchilarga ham tatbiq etish mumkinligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, shaxs salomatlik, hayotiy muvaffaqiyat va ma’naviy qadriyatlar kabi ustuvor yo‘nalishlarni ongli ravishda tanlash orqali o‘zini anglash va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga intiladi. Demak, bu yondashuvda akmeologik pozitsiya faqat pedagogga xos sifat sifatida emas, balki shaxs rivojlanishining umumiy mexanizmi sifatida talqin etiladi [2].

Muhokama va natijalar. Pedagogik va psixologik tadqiqotlarda o‘quv faoliyatining tashkil etilishi shaxs rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omil sifatida qaraladi. Yaxshi tashkil etilgan o‘quv faoliyati o‘quvchilarda nafaqat bilim va ko‘nikmalarni shakllantiradi, balki ularning akmeologik pozitsiyasini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Bu borada V. V. Repkin, V. V. Davidov hamda D. B. Elkonin kabi olimlar o‘quv faoliyatining tuzilishi va shaxsda o‘zini o‘zi o‘zgartirishga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish jarayoniga alohida e’tibor qaratganlar. Ularning tadqiqotlarida o‘quv faoliyati shaxsning mustaqil fikrlashi, o‘z faoliyatini boshqarishi va rivojlanish istiqbolini belgilashi uchun muhim shart sifatida talqin etiladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, o‘quv faoliyati shaxsning

hayot tarzini, kasb tanlashini hamda ijtimoiy muhitda o‘z o‘rnini topishini belgilovchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi [3; 4; 5].

Akmeologik yondashuv doirasida akmeologik pozitsiya ijtimoiy va shaxsiy xususiyatlarning o‘zaro birligi sifatida talqin qilinadi. Oliy ta’lim sharoitida bu pozitsiya talabaning ijtimoiy mavqeyi, shaxsiy qarashlari hamda kasbiy intilishlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aks ettiradi. Mazkur jarayonda talabalar o‘z nuqtayi nazarini shakllantirish, uni asoslash va himoya qilish, shuningdek, kasbiy muvaffaqiyatga erishish uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga o‘rganadilar. Shunday qilib, ta’lim akmeologiyasi talabalarda akmeologik pozitsiyani shakllantirish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslab beruvchi muhim konseptual yo‘nalish sifatida namoyon bo‘ladi. Akmeologik pozitsiyaning mazmunini yanada chuqurroq tushuntirishda A. S. Glinskiyning qarashlari ham muhim ahamiyatga ega. U o‘z tadqiqotlarida o‘qituvchi va o‘quvchi akmeologiyasini alohida ko‘rib chiqadi. Glinskiy o‘qituvchi akmeologiyasini pedagog-mutaxassis shaxsiy tuzilmalarining yig‘indisi sifatida talqin qilib, bu jarayon o‘qituvchining hayotiy maqsadlariga erishishi, o‘z-o‘zini rivojlantirish strategiyasini shakllantirishi hamda o‘quvchilarining «akme» darajasiga intilishiga yo‘naltirilganligini ta’kidlaydi. O‘quvchi akmeologiyasini esa u shaxsning hayotiy maqsadlari, faoliyat motivlari, o‘quv motivatsiyasi hamda o‘quv faoliyati ko‘nikmalarining o‘zaro uyg‘unligi sifatida izohlaydi. Olimning fikricha, o‘smirlik davrida o‘quv faoliyati muloqot faoliyati bilan birgalikda shaxs rivojlanishining asosiy omiliga aylanadi.

Boshlang‘ich sinfda lirik asar ustida ishlash metodikasi mavzusiga ma’ruza mashg‘uloti uchun “Boshlang‘ich sinfda lirik asarlar ustida ishlash metodikasi: hissiy idrok va kreativ tafakkurni uyg‘unlashtirish” rejasini kiritish orqali talaba lirik asarning bola ruhiyatiga ta’sirini tushunadi va unga metodik jihatdan to‘g‘ri yondashishni o‘rganadi. She’rni o‘rganish jarayonida o‘quvchining hissiy idroki va obrazli dunyoqarashini shakllantirish usullarini bilib oladi. Lirik matnni o‘qitishda kreativ tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodlardan foydalanishga o‘rgatiladi. Talaba o‘zining metodik yondashuvini shakllantirib, darsda kreativ pedagogik muhit yaratish tamoyillarini anglaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kreativ salohiyatini shakllantirishda akmeologik yondashuv asosida ishlab chiqilgan pedagogik strategiyalar (kognitiv, metakognitiv, affektiv va kommunikativ) muhim metodik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. «Ona tili – o‘qish savodxonligi va uni o‘qitish metodikasi» fani doirasida tanlangan kreativ xarakterdagi mavzular talabalarda mustaqil fikrlash, kasbiy refleksiya, ijodiy yondashuv va innovatsion pedagogik qarorlar qabul qilish salohiyatini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Максимова В. Н. Акмеология: новое качество образования. – Санкт-Петербург: Издательство РГПУ им. А. И. Герцена, 2002. – 99 с.

2. Максимова В. Н., Полетаева Н. М. Акмеология последипломного образования педагога: монография. – Санкт-Петербург: ИОВ РАО, 2004. – 227 с.

3. Давыдов В. В. Теория развивающего обучения. – Москва: ИНТОР, 1996. – 544 с.

4. Репкин В. В. О понятии учебной деятельности // Вестник Харьковского университета. Психология памяти и обучения. – Харьков, 1976. – № 132. – С. 3–10.

5. Эльконин Д. Б., Давыдов В. В. Некоторые психологические проблемы построения учебных программ // Психологическая наука и образование. – 1996. – Т. 1. – № 1. – С. 42–45.

6. Лукьянова М. И. Формирование акмеологической позиции личности как условие профессионально-личностного становления будущего специалиста // Современные проблемы науки и образования. – 2014. – № 5.

7. Максимова В. Н. Введение в акмеологию школьного образования. – Санкт-Петербург: ЛОИРО, 2002. – 156 с.

UO‘K 378.147:811.111:81’25

NOFILOLOGIK OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA INGLIZ TILI DARSLARIDA TARJIMANING AHAMIYATI VA VAZIFALARI

Saloydinova N. Sh., PhD, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Maqolada chet tilini o‘rganishning ahamiyati, uning ta’lim muassasalaridagi o‘rni va tarjimaga o‘rgatishning dolzarb vazifalari yoritiladi. Arxitektura va qurilish yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalarning bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlashida hamda amaliy*

mashg'ulotlarda maxsus adabiyotlarni tarjima qilishida tarjima ko'nikmalarining ahamiyatiga alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: *xorijiy til, shakl, muloqot vositasi, metod, leksik birlik, matn, tarjima.*

Аннотация. *В статье рассматриваются важность изучения иностранных языков, их роль в образовательных учреждениях, а также вопросы перевода, являющиеся одной из актуальных задач современного образования. Особое внимание уделяется значению перевода специальной литературы для студентов архитектурных и строительных направлений при написании выпускных квалификационных работ и проведении практических занятий.*

Ключевые слова: *иностранный язык, форма, средство общения, метод, лексическая единица, текст, перевод.*

Abstract. *This article discusses the importance of learning foreign languages, their role in educational institutions, and translation issues, which are among the pressing challenges of modern education. Particular attention is paid to the importance of translating specialized literature for students majoring in architecture and construction when preparing their graduation qualification papers and participating in practical classes.*

Keywords: *foreign language, form, means of communication, method, lexical unit, text, translation.*

O'zbekistonda ilm-fan, iqtisodiyot, arxitektura-qurilish, san'at va boshqa sohalarning rivojlanishi malakali mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojni oshirmoqda. Turli kasbiy sohalarda nutqiy va kommunikativ aloqalarni rivojlantirish mutaxassislarning tarjima ko'nikmalariga ega bo'lishini hamda talabalarni muayyan dastur asosida o'qitishni talab etadi. Xalqaro hamkorlikning kengayishi turli tillardan yangi leksik birliklarning kirib kelishiga olib kelmoqda. Turli tillarni bilish XXI asrning muhim talablaridan biridir. Til bilishdan tashqari, mutaxassis amaliy malaka hamda og'zaki va yozma tarjima ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Hozirgi kunda chet tilini o'rgatish ta'lim dasturlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son qarorida xorijiy tillarni o'rgatishni rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan choralar belgilangan. Qarorda 2021/2022-o'quv yilidan boshlab kamida C1 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan xalqaro sertifikatga ega xorijiy til o'qituvchilariga bazaviy tarif stavkasining 50 foizi miqdorida ustama to'lash nazarda tutilgan. Qarorning dastlabki tahririda xorijiy tillarga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalariga qabul va bitiruvchilarning til bilimini baholash bo'yicha ham choralar ko'rsatilgan [1].

Ushbu qarorni joriy etilishi bilan bir qatorda xorijiy tillarni mukammal biladigan tarjimonlarga bo'lgan ehtiyoj yanada ortib bordi, kasbiy ta'limga yoki muayyan mutaxassislikka yo'naltirilgan tillarni biluvchi mutaxassislarni tayyorlab, ularni malakali kadr sifatida o'qitish barcha ta'lim muassasalarining dolzarb maqsadlaridan biri hisoblanib kelmoqda.

Oxirgi yillar mobaynida olib borilgan tadqiqotlarni kuzatadigan bo'lsak, tarjimaning turli muammolariga va ularni o'qitilishiga oid izlanishlarda sinxron, ketma-ket va ikki tomonlama turlarini kuzatishimiz mumkin. Milliy tadqiqotchilarimizdan R. Doniyorov, A. Hojiyev, A. Madvaliyev, H. Dadaboyev, O.S. Axmedov, G.I. Ergasheva, X.D. Paluanova, Sh.N. Abdullayeva, N. Sh. Saloydinova, A.M. Kurganov, A.A. Ayakulovlar terminologiyaga oid tadqiqot olib borganlarida alohida tarjima muammosiga oid izlanishlarga ham alohida fikr-mulohazalar bildirganlar. Rus olimlari L.A. Gavrilov, M. Lederer, R.K. Minyar-Beloruchev, V.N. Komissarov, L.K. Latishev, G. V. Chernov, A.F. Shirayevlar ham tarjima o'qitish muammosiga oid tadqiqotlarni chetda qoldirishmagan.

Nofilologik yo'nalishlarda tahsil olayotgan talabalarga chet tilini o'qitishda tarjima muhim o'quv faoliyati turlaridan biridir. Kasbiy yo'naltirilgan matn bilan ishlashda talaba maktabda olgan til bilimlariga tayanadi, biroq maxsus terminologiya va kasbiy matn xususiyatlarini o'zlashtirish uchun qo'shimcha tayyorgarlik zarur. Chet tilini o'qitishda tarjima turli vazifalarni bajaradi. Keng tarqalgan mashqlardan biri so'z, gap yoki matnni chet tilidan ona tiliga yoxud aksincha tarjima

qilishdir. Tilshunoslik yo‘nalishlarida tarjima mustaqil o‘quv fani sifatida o‘rganilishi mumkin. Nofilologik yo‘nalishlarda esa tarjima mashqlari muayyan kasbiy mavzuning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganish bilan bog‘lanadi. Ijtimoiy-amaliy tajriba tarjimaning uchrashuvlar, konferensiyalar va xalqaro yig‘ilishlardagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

Tarjima jarayoni matnni o‘qish yoki tinglash va uning mazmunini anglash, tarjimonlik qarorini qabul qilish hamda mazmunni tarjima tilida ifodalash faoliyatlarini o‘z ichiga oladi. Bunday vazifalarni bajarishda tarjimaning psixolingvistik mexanizmlarini hisobga olish zarur [2].

Arxitektura-qurilish yo‘nalishlaridagi talabalarga tarjimani o‘rgatishdan oldin foydalaniladigan materiallarni aniqlab olish zarur. Ilmiy va texnik matnlar, patentlar hamda yo‘riqnomalarni tarjima qilishdan avval ularning leksik-grammatik va stilistik xususiyatlarini o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, texnik hujjat mazmunining matn va grafik vositalar orqali ifodalanishi tarjima jarayonida hisobga olinishi lozim.

Tarjimaning har bir turi o‘z ichiga keng kontekstni olgan, ya’ni aniq turdagi muloqotni yetkazishdan iboratdir. Tarjimaning xususiyatlarini o‘rganganda uning texnik hujjatdagi vazifalarini izchil o‘rganish kerak.

Texnik hujjatlarni tarjima qilishni o‘rgatish til bo‘lmagan mutaxassisliklar bo‘yicha yuqori kurs talabalarini intellektual va kasbiy rivojlanishi, ijodiy qobiliyat, kognitiv faoliyatni rag‘batlantirish, ularning mustaqil ehtiyojlarini shakllantirish uchun motivatsiya bo‘lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, nofilologik oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitish jarayonida tarjimadan foydalanish talabalarning lingvistik, kommunikativ va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim pedagogik vositalaridan biri hisoblanadi. Tarjima faoliyati nafaqat chet tilidagi matnlarning mazmunini tushunish va ularni ona tiliga o‘girish, balki talabalarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, qiyoslash hamda kasbiy axborotni to‘g‘ri talqin etish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-son qarori. https://lex.uz/docs/-5426736.

2. Касаткина К. А. Профессионально-ориентированное обучение переводу с листа текста делового письма на языковых факультетах вузов

3. Булатова А.Т «Основы юридического письма: методические рекомендации» (А. Т. Булатова) — Косшы: Академия правоохранительных органов при Генеральной прокуратуре Республики Казахстан, 2024,

UO‘K 378.147:811.111:004

TEXNIK OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARINING TERMINOLOGIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA ELEKTRON RESURSLARDAN FOYDALANISH

Saydullayeva X. O‘., dotsent, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, Navoiy

Annotatsiya. *Ushbu maqolada texnik oliy ta’lim muassasalari talabalarining terminologik kompetensiyasini shakllantirishda elektron resurslardan foydalanishning nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Terminologik kompetensiyaning tarkibiy qismlari (lingvistik, kognitiv, kommunikativ-pragmatik va axborot-texnologik) aniqlashtirilgan. Elektron lug‘atlar, korpuslar, mobil ilovalar, LMS platformalari va interaktiv mashqlar asosida terminologik kompetensiyani bosqichma-bosqich rivojlantirish modeli taklif etiladi*

Kalit so‘zlar: *terminologik kompetensiya, texnik OTM, elektron resurslar, elektron lug‘at, korpus, LMS, mobil ta’lim, kasbiy til, raqamli ta’lim.*

Аннотация. *В статье рассматриваются теоретические основы и практические возможности использования электронных ресурсов в формировании терминологической компетенции студентов технических высших учебных заведений. Уточнены компоненты терминологической компетенции: лингвистический, когнитивный, коммуникативно-прагматический и информационно-технологический. Предложена модель поэтапного развития терминологической компетенции на основе электронных словарей, корпусов, мобильных приложений, LMS-платформ и интерактивных упражнений.*

Ключевые слова: *терминологическая компетенция, технический вуз, электронные ресурсы, электронный словарь, корпус, LMS, мобильное обучение, профессиональный язык, цифровое образование.*

Abstract. *The article examines the theoretical foundations and practical potential of electronic resources in developing the terminological competence of students at technical higher education institutions. The components of terminological competence are specified as linguistic, cognitive, communicative-pragmatic, and information-technological. A model for the stage-by-stage development of terminological competence is proposed, based on electronic dictionaries, corpora, mobile applications, LMS platforms, and interactive exercises.*

Keywords: *terminological competence, technical university, electronic resources, electronic dictionary, corpus, LMS, mobile learning, professional language, digital education.*

Zamonaviy muhandis kadrlarning raqobatbardoshligi ko‘p jihatdan ularning kasbiy terminologiyani ona tilida va xorijiy tilda erkin qo‘llay olishiga bog‘liq. Texnika, energetika, axborot texnologiyalari, qurilish va transport sohalarida terminlar tizimi tez yangilanadi, yangi tushunchalar asosan ingliz tili orqali kirib keladi. Shu bois texnik OTM bitiruvchisi uchun terminologik kompetensiya kasbiy kompetensiyaning ajralmas qismiga aylangan.

O‘zbekiston Respublikasida ta’limni raqamlashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” o‘quv jarayoniga raqamli texnologiyalar va elektron ta’lim shakllarini keng joriy etishni nazarda tutadi [1]. Prezidentning 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarori esa xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish va o‘qitish sifatini oshirish vazifalarini belgilagan [2]. Shunga qaramay, amaliyotda terminlarni o‘qitish ko‘pincha an’anaviy lug‘at yodlash bilan cheklanadi, elektron resurslar esa tizimsiz, epizodik qo‘llaniladi. Elektron resurslarning didaktik imkoniyatlari terminologik kompetensiya tarkibi bilan uyg‘unlashtirilmagan.

Kompetensiyaviy yondashuv nazariyasi A.V. Xutorskoy va I.A. Zimnyaya ishlarida chuqur yoritilgan. Xutorskoy kompetensiyani shaxsning muayyan faoliyat sohasiga oid bilim, ko‘nikma va tajribalarining integrativ sifati sifatida talqin qiladi [7]. Zimnyaya esa kompetensiyani shaxsning amaliy faoliyatda namoyon bo‘ladigan yaxlit xususiyati deb hisoblaydi [8].

Terminning tabiati va terminologik tizimlar masalalari V.M. Leychik hamda A.V. Superanskaya, N.V. Podolskaya, N.V. Vasilyevalar tomonidan tadqiq etilgan [5; 6]. Ularning fikricha, termin maxsus sohaga xos tushunchani ifodalaydi va tizimlilik, aniqlik, bir ma’nolilik kabi talablarga javob berishi lozim. Bu xususiyatlar terminlarni o‘qitishda tizimli, kontekstli yondashuvni talab qiladi.

Xorijiy tadqiqotlarda terminlarni o‘qitish masalasi “maxsus maqsadlar uchun ingliz tili” (ESP) doirasida ko‘rib chiqiladi. T. Hutchinson va A. Waters ESP kursini talabaning kasbiy ehtiyojlari tahliliga asoslashni taklif etgan [9]. T. Dudley-Evans va M.J. St John texnik matnlar leksikasini umumilmiy, yarim texnik va tor texnik qatlamlarga ajratgan [10]. I.S.P. Nation esa leksikani o‘zlashtirishda takroriylik va ko‘p kanalli idrokning ahamiyatini asoslagan [11].

Kompyuter yordamida til o‘rgatish (CALL) yo‘nalishida M. Warschauer va D. Healey texnologiyalarning til ta’limidagi rivojlanish bosqichlarini tavsiflab, interaktiv va kommunikativ muhitning afzalliklarini ko‘rsatgan [12]. O‘zbekistonlik olimlardan J.J. Jalolov chet tili o‘qitish metodikasida kasbiy yo‘naltirilganlik tamoyilini ishlab chiqqan [4]. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, terminologik kompetensiya va elektron ta’lim alohida-alohida yetarlicha o‘rganilgan. Biroq texnik OTM sharoitida elektron resurslarni terminologik kompetensiya komponentlariga mos tizimli qo‘llash modeli hali to‘liq ishlab chiqilmagan.

Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy, tizimli-faoliyatli va kontekstli ta’lim yondashuvlari tashkil etadi [3; 7]. Kompetensiyaviy yondashuv o‘quv natijalarini kasbiy faoliyat talablari bilan bog‘lashga, kontekstli yondashuv esa terminlarni real kasbiy vaziyatlar orqali o‘zlashtirishga imkon beradi.

Tadqiqotda nazariy tahlil, umumlashtirish va pedagogik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Taklif etilgan modelni empirik baholash uchun tajriba va nazorat guruhlarining boshlang‘ich hamda yakuniy ko‘rsatkichlarini bir xil mezonlar asosida solishtirish zarur.

Terminologik kompetensiya darajasini baholash uchun to‘rt mezon belgilandi: terminlarni bilish va to‘g‘ri talqin qilish (lingvistik), terminlar o‘rtasidagi tizimli aloqalarni tushunish (kognitiv), terminlarni og‘zaki va yozma nutqda qo‘llash (kommunikativ-pragmatik), elektron manbalardan termin izlash va tekshirish (axborot-texnologik). Har bir mezon bo‘yicha past, o‘rta va yuqori darajalar ajratildi.

Tadqiqot natijasida terminologik kompetensiya to‘rt komponentli tuzilma sifatida aniqlashtirildi va har bir komponentni rivojlantirishga mos elektron resurslar guruhlandi (1-jadval).

1-jadval. Terminologik kompetensiya komponentlari va ularga mos elektron resurslar

Komponent	Mazmuni	Elektron resurs turi	Misollar
Lingvistik	Terminning shakli, talaffuzi, ma’nosi, ekvivalenti	Elektron va onlayn lug‘atlar, terminologik bazalar	Multitran, IATE, Oxford Learner’s Dictionaries, sohaviy glossariylar
Kognitiv	Terminlar tizimi, tushunchalar o‘rtasidagi aloqalar	Aqliy xarita va ontologiya vositalari	MindMeister, Coggle, sohaviy tezauruslar
Kommunikativ-pragmatik	Terminni kontekstda, og‘zaki va yozma nutqda qo‘llash	Matn korpuslari, video ma’ruzalar, onlayn munozara	Sketch Engine, COCA, TED, Coursera texnik kurslari
Axborot-texnologik	Terminni izlash, tekshirish, shaxsiy glossariy yuritish	LMS, mobil ilovalar, flesh-karta tizimlari	Moodle, Quizlet, Anki, Kahoot!, Wordwall

Elektron resurslar yordamida terminologik kompetensiyani shakllantirish modeli to‘rt bosqichni qamrab oladi: motivatsion-tanishtiruv bosqichida talabalar autentik materiallar va LMS’dagi tayanch terminlar bilan tanishadi; semantizatsiya bosqichida elektron lug‘at va terminologik bazalar orqali terminlarning ma’nosi, talaffuzi hamda ekvivalentlarini aniqlab, elektron glossariy tuzadi; tizimlashtirish va mustahkamlash bosqichida terminlarni tushunchaviy guruhlarga ajratib, interaktiv mashqlar orqali o‘zlashtiradi; kasbiy qo‘llash bosqichida esa ularni mutaxassislikka oid matnlar, muammoli vaziyatlar va kasbiy muloqotda qo‘llaydi.

Elektron resurslarning samarasi ularning soniga emas, balki terminologik kompetensiya komponentlariga mos tizimli tanlanishiga bog‘liq. Masalan, elektron lug‘at faqat lingvistik komponentni rivojlantiradi; korpus va keys-topshiriqlarsiz talaba terminni bilsa ham, uni kasbiy nutqda qo‘llashga qiynaladi.

Interaktiv takrorlash vositalari (Quizlet, Anki) I.S.P. Nation ta’kidlagan takroriylik tamoyilini amalga oshiradi va terminlarni uzoq muddatli xotirada saqlashga yordam beradi [11]. Korpus konkordanslari esa terminning real kontekstdagi birikuvchanligini ko‘rsatib, kommunikativ-pragmatik komponentni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, ayrim cheklovlar ham aniqlandi. Birinchidan, ba’zi texnik sohalar uchun sifatli o‘zbekcha elektron terminologik bazalar yetarli emas. Ikkinchidan, onlayn tarjimon va lug‘atlarni tanqidsiz qo‘llash noto‘g‘ri ekvivalent tanlashga olib kelishi mumkin. Uchinchidan, internet tezligi va qurilmalar bilan ta’minlanganlik barcha talabalarda bir xil emas. Bu muammolarni hal etishda o‘qituvchining roli muhim: u resurslarni tanlaydi, topshiriqlarni tashkil etadi va talabalarda manbalarni tanqidiy baholash ko‘nikmasini shakllantiradi. Shuningdek, OTMlarda mutaxassislik kafedralari bilan hamkorlikda sohaviy elektron glossariylarni yaratish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot natijalari texnik OTM talabalarining terminologik kompetensiyasi lingvistik, kognitiv, kommunikativ-pragmatik va axborot-texnologik komponentlar birligida shakllanishini ko‘rsatdi. Elektron resurslarni ushbu komponentlarga muvofiq tanlash va to‘rt bosqichli model asosida qo‘llash terminlarni o‘zlashtirishdan kasbiy faoliyatda qo‘llashga izchil o‘tishni ta’minlaydi. Model samaradorligini tasdiqlash uchun to‘liq tavsiflangan tajriba-sinov va uning miqdoriy natijalari zarur. Shu asosda ko‘p tilli elektron glossariy va terminologik bazalar yaratish, til fanlari dasturlariga elektron resurslarga asoslangan topshiriqlarni kiritish hamda o‘qituvchilarning korpus va LMS vositalaridan foydalanish malakasini oshirish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni.
4. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. - Toshkent: O'qituvchi, 2012.
5. Лейчик В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура. - Москва: Издательство ЛКИ, 2007.
6. Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология: вопросы теории. - Москва: Наука, 1989.
7. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. - 2003. - № 2. - С. 58–64.
8. Зимняя И.А. Ключевые компетенции - новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. - 2003. - № 5. - С. 34–42.
9. Hutchinson T., Waters A. English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach. - Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
10. Dudley-Evans T., St John M.J. Developments in English for Specific Purposes: A Multi-Disciplinary Approach. - Cambridge: Cambridge University Press, 1998.
11. Nation I.S.P. Learning Vocabulary in Another Language. - Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
12. Warschauer M., Healey D. Computers and language learning: An overview // Language Teaching. - 1998. - Vol. 31, No. 2. - P. 57–71.

UDC 378.147:811.111:61

MEDICAL ENGLISH TEACHING AND LEARNING TECHNIQUES IN INSTITUTIONS OF HIGHER EDUCATION

Shodikulova A. Z., PhD, Samarkand State Medical University, Samarkand
Ibragimova D. S., assistant lecturer, ZARMED University, Samarkand

Annotatsiya. *Oliy ta'lim muassasalarida chet tili eng muhim umumta'lim fanlaridan biri bo'lib, mutaxassisning gumanitar tayyorgarligini shakllantirishda majburiy tarkibiy qism hisoblanadi. Ingliz tili mashg'ulotlarida davlat ta'lim standarti talablariga muvofiq talabalarga ishbilarmonlik ingliz tilining asoslari, zarur kasbiy leksika o'rgatiladi, maxsus terminologiyani o'z ichiga olgan matnlarni o'qish, dialogik va monologik nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.*

Kalit so'zlar: *til, tibbiy ingliz tili, o'qitish, tibbiyot talabasi, kommunikativ samaradorlik, metodlar, sog'liqni saqlash.*

Аннотация. *В высших учебных заведениях иностранный язык является одним из важных общеобразовательных предметов и компонентом гуманитарной подготовки специалиста. На занятиях английского языка студентов знакомят с основами делового английского и необходимой профессиональной лексикой. Особое внимание уделяется чтению текстов со специальной терминологией, развитию диалогической и монологической речи.*

Ключевые слова: *язык, медицинский английский, преподавание, студент-медик, коммуникативная эффективность, методы, здравоохранение.*

Abstract. *In higher education institutions, a foreign language is an important general education subject and a component of specialists' humanities training. English classes introduce the basics of business English and the professional vocabulary students need. Reading texts containing specialized terminology and developing dialogue and monologue skills are important aspects of this training.*

Keywords: *language, medical English, teaching, medical student, communicative effectiveness, techniques, health.*

In the system of secondary vocational education, the discipline "Foreign Language" occupies a special place. Students develop skills in using a foreign language as a means of communication and as a tool for obtaining new, relevant and useful information from various fields, including medicine [Repyuk E. V., 2016].

In order to help non-native English-speaking medical students acquire English medical jargon, information about medical register and discourse should be combined with the pedagogical skills of

a language teacher. Maher reminds us that EMP courses--like all kinds of ESP--should be tailor-made to the learners' purposes and needs, that is, by first thinking about who these medical learners are and what their purposes are. He also points out the need for a specific syllabus, which will enhance the communicative effectiveness of an English language course. In order to design such specific courses for medical learners, several examples of courses, materials and strategies have been discussed in the literature. For example, attempts to develop courses using instructional methodologies such as content-based learning and problem-based learning have been made. In addition, the use of technological equipment has been regarded as an important aspect in EMP courses to bring real-life communication into the classroom. Various projects have also been undertaken to explore different ways of teaching medical terminology. Structural and traditional methods such as teaching term formation of medical terminology as a vocabulary teaching strategy and grammar translation have also been found in the literature.

To begin with, in content-based classes, in general, students practice English language skills while they are studying one subject area. In these classes, learners use language to do real tasks in authentic contexts. Bailey (2000, chap. 10) describes a course organized through the concept of health to enhance the students' learning in an ESL context.

The main task facing the teacher is to reveal the creative potential of students, find means that would awaken students' thinking activity and interest in a foreign language. In solving this problem, active methods of training come to the fore, which encourage students to master the material independently and creatively.

Active learning methods can be used at different stages of the learning process. In English classes, these may include warm-up activities, business simulations, role-playing, discussions of real-life situations, competitions, quizzes, round tables, presentations, projects, team-taught classes, press clubs, conferences and interdisciplinary academic competitions. To address learning difficulties and increase students' motivation, I also use educational role-playing games: practical activities that simulate aspects of future doctors' professional work.

Role-playing exercises provide opportunities for students to use their existing professional knowledge, improve their foreign language skills and practise communication in professional contexts. Role-playing can be used both in review lessons and while studying individual topics. Topics such as "At the dentist", "At the pharmacy", "Doctor's visit" and "Medical history" provide opportunities for classroom role-play. This method can also be adapted for students with a lower level of language proficiency.

The curriculum design for a medical English course should be based on professional content rather than solely on language structures or rules. According to Du Gas, Esson and Ronaldson (1999), it follows an "A–B" format. Lesson A focuses on vocabulary presentation and acquisition. Lesson B provides opportunities to apply learning from the previous lesson in context. Activities may include using hospital charts and forms, role-playing assessments, using medical equipment, and discussing treatments and interventions related to the main topic. As the students are also studying medicine, they can draw on their professional knowledge when discussing medical conditions and clinical practices. In these activities, less emphasis is placed on grammatical accuracy, and non-standard English may be accepted.

They also mentioned that medical English should be taught from the perspective of medicine and health care first and foremost while reinforcing vocabulary acquisition, grammar and structure secondly. Teacher-tutors are required to be health professionals as well as language instructors. Lessons, interactions, and case studies represent simple and complex medical practices, pharmacology, anatomy and physiology, pathology, treatment, etc. well beyond entry level English. Goals are set to prepare students for continuing studies in English, as preparation for licensing exams, and for English language competency at work that could be career-specific. Feedback from graduates of the medical faculties and the related students who have studied medical English can be very helpful regarding designing the new medical English programs and applying the most proper approaches of teaching medical English accordingly. Medical English language teaching requires a new and modern approach.

The literature discussed suggests that teaching medical English differs from teaching general English. Medical students develop professional knowledge and skills during their medical education. At this level, the goal is to use English in medical studies and professional contexts, while developing the language knowledge needed for those tasks. Classroom learning should therefore include meaningful uses of career-specific language. In the approach described here, a professional background similar to that of the students is considered an essential requirement for the teacher.

REFERENCES:

1. Brown, H. D. (2000). Principles of language learning and teaching (4th ed.). New York: Longman.
2. Brown, Nation. "Teaching Speaking: Suggestion for the Classroom." 4 January 2008. http://jaltpublications.org/tlt/files/97/jan/speaking.html
3. Chastain, K. (1998). Developing second language skills (2nd ed.). Chicago: Harcourt Brace Publishers.
4. Davis, P. & Pearse, E. (2000). Success in English Teaching. Oxford: Oxford University Press.
5. Harmer, Jeremy (2007). The Practice of English Language Teaching (4th ed.). London: Longman.
6. Jaramillo and Medina. (2011). "Adolescents' Awareness of Environmental Care: Experiences when Writing Short Descriptive Texts in English." PROFILE Vol. 13, No. 1, April 2011. ISSN 1657-0790. Bogotá, Colombia. Pages 11–30.
7. Larsen-Freeman, Diane. (2000). Techniques and Principles in Language Teaching. New York: Oxford University Press.
8. Panzhinsky, N. I. Formation of communicative competence in the study of English in the College of Medicine. International Journal of Experimental Education. No. 4-2, 2012.
9. Repyuk, E. V. International correspondence online-conference "Actual problems of fundamental nature of education". Moscow, 2016.
10. Rivers, Wilga Marie. Teaching Foreign Language Skills. Chicago: University of Chicago Press, 1968. Print.

UDC 378.147:811.111:336.22

CHALLENGES AND STRATEGIES IN TEACHING ENGLISH FOR FINANCIAL AND TAX LITERACY

Siyaeva G. A., associate professor, Higher School of Taxation under the Tax Committee of the Republic of Uzbekistan, Tashkent

Annotatsiya. *Mazkur maqolada moliyaviy va soliq savodxonligini shakllantirishga yo'naltirilgan ingliz tilini o'qitish jarayonidagi asosiy muammolar hamda samarali pedagogik strategiyalar tadqiq etiladi. Maxsus terminologiya, lingvistik to'siqlar, kasbiy kommunikatsiya hamda moliya va soliqqa oid tushunchalarni ingliz tili ta'limiga integratsiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.*

Kalit so'zlar: *maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili, moliyaviy savodxonlik, soliq savodxonligi, moliyaviy terminologiya, soliqqa tortish, kasbiy kommunikatsiya, vazifaga asoslangan ta'lim, fanlararo ta'lim.*

Аннотация. *В статье рассматриваются основные проблемы и эффективные педагогические стратегии преподавания английского языка для формирования финансовой и налоговой грамотности. Особое внимание уделяется специализированной терминологии, языковым барьерам, профессиональной коммуникации и интеграции финансовых и налоговых понятий в процесс обучения английскому языку.*

Ключевые слова: *английский язык для специальных целей, финансовая грамотность, налоговая грамотность, финансовая терминология, налогообложение, профессиональная коммуникация, обучение на основе заданий, междисциплинарное образование.*

Abstract. *This article examines the major challenges and effective pedagogical strategies in teaching English for financial and tax literacy. Particular attention is paid to specialized terminology, linguistic barriers, professional communication, and the integration of financial and taxation concepts into English language instruction.*

Keywords: *English for Specific Purposes, financial literacy, tax literacy, financial terminology, taxation, professional communication, task-based learning, interdisciplinary education.*

In the context of globalization, digital transformation, and increasing international economic cooperation, English has become an important language of professional communication in finance,

accounting, taxation, banking, and international business. The growing complexity of financial services, taxation systems, electronic reporting, and international financial transactions requires specialists to possess not only professional knowledge but also sufficient English language proficiency to understand and communicate specialized information effectively. Consequently, teaching English for financial and tax literacy has emerged as an important component of modern professional education.

Financial literacy generally refers to the knowledge, skills, attitudes, and behaviors necessary for making informed financial decisions. Tax literacy, as a related but distinct concept, involves understanding taxation principles, tax obligations, reporting procedures, taxpayer rights, and the role of taxation in economic and social development. Both areas require the interpretation of specialized terminology, official documents, numerical information, and professional communication practices. The theoretical foundations of teaching English for financial and tax literacy can be examined through research on English for Specific Purposes, communicative language teaching, task-based learning, financial literacy, and interdisciplinary education. These approaches provide important insights into the relationship between language proficiency, professional knowledge, and practical communication.

Hutchinson and Waters, in their influential work *English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach* (1987), emphasize that specialized language instruction should be designed according to learners' needs, professional objectives, and educational contexts [1]. Their approach represents an important theoretical foundation for teaching English in financial and taxation disciplines because students require language skills that correspond to specific professional activities. According to this perspective, the content of English language courses should not be determined exclusively by general linguistic structures. Instead, instruction should reflect the communicative situations learners are likely to encounter in their future professions. In financial education, such situations may include analyzing financial statements, discussing investment decisions, preparing professional reports, and interpreting banking documentation. In taxation, they may involve understanding tax regulations, explaining tax obligations, and communicating with clients or public institutions.

Dudley-Evans and St John further developed ESP methodology by emphasizing the importance of needs analysis, specialized discourse, and the integration of disciplinary knowledge into language instruction [2]. Their framework suggests that effective ESP teaching requires cooperation between language instructors and subject specialists. This principle is especially relevant to financial and tax literacy because accurate interpretation of professional terminology often depends on specialized conceptual knowledge.

The relationship between linguistic competence and professional communication can also be explained through Dell Hymes's theory of communicative competence [3]. Hymes argues that successful language use requires more than grammatical knowledge; it also involves understanding the social and contextual conditions of communication. In financial and tax contexts, this means that learners must be able to select appropriate linguistic expressions according to the professional situation, intended audience, and communicative purpose.

For example, explaining a tax deduction to an individual taxpayer requires a different communicative approach from discussing the same concept in an academic presentation or a professional financial report. Thus, communicative competence in specialized financial English includes accuracy, clarity, contextual appropriateness, and the ability to explain complex concepts.

Task-based language teaching provides another important methodological foundation. Rod Ellis, in *Task-Based Language Learning and Teaching* (2003), examines how meaningful communicative tasks can facilitate language acquisition and develop learners' ability to use language in practical situations [4]. This approach is particularly suitable for financial and tax literacy instruction because learners can engage in realistic professional activities rather than merely memorizing terminology.

For instance, students may be asked to interpret a simplified tax declaration, analyze a financial report, compare different taxation scenarios, or explain financial information to a hypothetical client.

Such activities encourage learners to combine linguistic knowledge with professional reasoning and problem-solving skills.

Research on financial literacy also contributes to understanding the educational importance of specialized financial communication. Lusardi and Mitchell, in their study *The Economic Importance of Financial Literacy: Theory and Evidence* (2014), examine the role of financial knowledge in economic decision-making and financial behavior [5]. Their findings demonstrate the importance of financial literacy for understanding financial choices and planning economic activities.

Although their research does not specifically focus on English language education, it provides a conceptual basis for recognizing the importance of accessible financial information. Financial knowledge is often communicated through specialized language, and difficulties in understanding terminology or document structure may create additional barriers to financial comprehension.

The theoretical analysis identifies specialized terminology as one of the principal challenges in teaching English for financial and tax literacy. Financial and taxation discourse contains numerous technical expressions that may be unfamiliar even to learners with intermediate or advanced general English proficiency.

For example, terms such as *depreciation, amortization, withholding tax, taxable income, tax credit, tax liability,* and *capital gains* require knowledge of specific economic and legal concepts. Their meanings cannot always be understood through direct translation or general vocabulary knowledge.

A particularly important challenge concerns the distinction between similar financial and tax terms. For instance, *tax deduction* and *tax credit* represent different mechanisms of reducing a taxpayer's financial obligations. A tax deduction generally reduces the amount of income subject to taxation, whereas a tax credit directly reduces calculated tax liability, subject to the rules of the applicable tax system.

Another example involves the terms *gross income* and *net income*. Although both expressions refer to income, their interpretation depends on the financial or taxation context and the deductions or expenses considered. Such distinctions demonstrate the necessity of combining linguistic instruction with conceptual clarification. Teaching English for financial and tax literacy represents an important interdisciplinary challenge in contemporary professional education. The increasing complexity of financial systems, taxation regulations, and international economic communication requires learners to develop both specialized linguistic competence and conceptual understanding of financial and tax-related information.

In conclusion, an integrated approach to teaching English for financial and tax literacy may contribute to the development of professionally competent, linguistically proficient, and financially informed learners. Further empirical research is necessary to evaluate the effectiveness of specific instructional strategies and determine their applicability in different educational and professional contexts.

REFERENCES:

1. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). *English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach*. Cambridge: Cambridge University Press.

2. Dudley-Evans, T., & St John, M. J. (1998). *Developments in English for Specific Purposes: A Multi-Disciplinary Approach*. Cambridge: Cambridge University Press.

3. Hymes, D. H. (1972). On Communicative Competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), *Sociolinguistics: Selected Readings* (pp. 269–293). Harmondsworth: Penguin Books.

4. Ellis, R. (2003). *Task-Based Language Learning and Teaching*. Oxford: Oxford University Press.

5. Lusardi, A., & Mitchell, O. S. (2014). The Economic Importance of Financial Literacy: Theory and Evidence. *Journal of Economic Literature, 52*(1), 5–44.

UO‘K 378:796

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA JISMONIY TARBIYA MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLARI

Sotvoldiyev Q. R., dotsent, Namangan davlat texnika universiteti, Namangan

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etishning nazariy va metodik jihatlari tahlil qilinadi. Talabalarning individual imkoniyatlari, jismoniy tayyorgarligi va qiziqishlarini hisobga olish, kompetensiyaviy yondashuv, hamkorlikda o‘qitish hamda raqamli vositalardan maqsadli foydalanish masalalari yoritiladi. Mashg‘ulotlarda faol ishtirokni qo‘llab-quvvatlash, mustaqil jismoniy faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirish va shaxsiy rivojlanishni baholash imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Nazariy tahlil asosida boshlang‘ich diagnostika, moslashtirilgan topshiriqlar, teskari aloqa va shakllantiruvchi baholashni birlashtiruvchi metodik model taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *jismoniy tarbiya, oliy ta’lim, individuallashtirish, motivatsiya, baholash.*

Аннотация. *В статье анализируются теоретические и методические аспекты организации занятий физической культурой в высших учебных заведениях на основе современных педагогических подходов. Рассматриваются вопросы учета индивидуальных возможностей, физической подготовленности и интересов студентов, применения компетентностного подхода, совместного обучения и целенаправленного использования цифровых средств. Раскрываются возможности поддержки активного участия студентов, формирования навыков самостоятельной физической активности и оценивания индивидуального прогресса. На основе теоретического анализа предложена методическая модель, объединяющая начальную диагностику, адаптированные задания, обратную связь и формирующее оценивание.*

Ключевые слова: *физическое воспитание, высшее образование, индивидуализация, мотивация, оценивание.*

Abstract. *This article examines the theoretical and methodological aspects of organizing physical education classes in higher education institutions through modern pedagogical approaches. It addresses students’ individual abilities, physical preparedness and interests, alongside competency-based teaching, cooperative learning and the purposeful use of digital tools. Particular attention is given to supporting active participation, developing independent physical activity skills and assessing individual progress. Based on theoretical analysis, the article proposes a methodological model integrating initial assessment, adapted learning tasks, feedback and formative assessment to guide the organization of physical education classes.*

Keywords: *physical education, higher education, individualization, motivation, assessment.*

Kirish. Oliy ta’limda jismoniy tarbiya talabaning harakat ko‘nikmalari bilan birga o‘z faolligini mustaqil boshqarish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi kerak. Bir guruhdagi talabalar tayyorgarligi, qiziqishi va mashg‘ulot tajribasi jihatidan farqlanadi. Shu sababli yagona topshiriq va yakuniy normativga tayangan dars barcha talabalar uchun teng o‘quv imkoniyatini yaratmaydi. Maqolaning maqsadi mashg‘ulot mazmuni, o‘qitish usuli va baholashni o‘zaro bog‘lovchi zamonaviy pedagogik modelni asoslashdir.

Adabiyotlar sharhi. A. Casey va D. Kirk pedagogik modellarni dastur maqsadi hamda ta’lim sharoitiga muvofiq qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi [1]. R. L. White va hammualliflar sharhida tanlov imkoniyati, o‘z kompetentligini his qilish va qo‘llab-quvvatlovchi munosabatlar ishtirok motivatsiyasi bilan bog‘langan [2]. UNESCO qo‘llanmasida sifatli jismoniy tarbiya inklyuzivlik va mazmunli ishtirok tamoyillari orqali yoritiladi [3]. Bu manbalarning ayrimlari maktab ta’limiga tegishli bo‘lgani uchun ularning xulosalari oliy ta’limga bevosita natija sifatida emas, moslashtiriladigan nazariy asos sifatida olinadi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot nazariy-metodik tahlil, pedagogik yondashuvlarni qiyoslash va o‘quv jarayonini modellashtirish usullariga tayandi. Empirik kuzatuv yoki eksperiment o‘tkazilmadi. Tahlil natijasi sifatida boshlang‘ich diagnostika, moslashtirilgan topshiriq, hamkorlikdagi faoliyat,

teskari aloqa va qayta rejalashtirishdan iborat o‘quv sikli ishlab chiqildi. Ushbu siklda har bir bosqich keyingi pedagogik qaror uchun axborot beradi. Modelning amaliy qiymati darsni faqat mashqlar ketma-ketligi emas, kuzatiladigan o‘quv natijasiga yo‘naltirilgan jarayon sifatida tashkil etishidadir.

Boshlang‘ich diagnostika talabaning oldingi sport tajribasi, qiziqishlari, o‘ziga ishonchi va topshiriqlarni bajarish imkoniyatini aniqlashdan boshlanadi. Bunda o‘qituvchi tibbiy tashxis qo‘ymaydi, mashg‘ulotga oid mavjud tavsiyalar va ruxsat etilgan faoliyat doirasini hisobga oladi. Olingan ma’lumot talabalarni doimiy kuchli yoki kuchsiz guruhlarga ajratish uchun ishlatilmaydi. U vaqtinchalik topshiriq darajasini belgilashga xizmat qiladi. Talaba rivojlangani sari mashqning murakkabligi, tayanch sharoiti yoki bajarish sur’ati qayta ko‘rib chiqiladi. Shu tariqa individual yondashuv umumiy dars maqsadini saqlagan holda turli o‘rganish yo‘llarini ta’minlaydi.

Kompetensiyaviy yondashuvda natija aniq harakatlar orqali ifodalanadi: talaba mashqni tushuntiradi, texnik xatoni aniqlaydi, yuklamani tanlash sababini izohlaydi va o‘z faoliyatini baholaydi. Masalan, to‘p uzatish mavzusida faqat takrorlar sonini belgilash yetarli emas. O‘quv natijasi sherik joylashuvini hisobga olib uzatish usulini tanlash va uning aniqligini tahlil qilish tarzida belgilanadi. Shundan keyin mashq sharoiti ham shu maqsadga mos quriladi. Bu usul texnik tayyorgarlikni vaziyatni anglash bilan bog‘laydi. Baholash esa dars boshida e’lon qilingan mezonlarga tayanadi.

Hamkorlikda o‘qitish kichik guruhlarda vazifalarni taqsimlash orqali amalga oshiriladi. Talabalar mashq bajaruvchi, kuzatuvchi va tahlil qiluvchi rollarini navbat bilan bajarishi mumkin. Kuzatuvchi oldindan berilgan ikki yoki uch mezon bo‘yicha fikr bildiradi; masalan, boshlang‘ich holat, harakatning izchilligi va yakuniy nazorat tekshiriladi. O‘qituvchi tengdoshlar fikrining aniqligini nazorat qiladi. Guruhdagi faol talabalar boshqalarning o‘rniga qaror qabul qilib yubormasligi uchun rollar almashishi zarur. Bunda hamkorlikning pedagogik mezoni jamoa yutug‘i bilan birga har bir ishtirokchining o‘rganishidir.

Muammoli va o‘yin vaziyatiga asoslangan topshiriqlar talabani tanlov qilishga undaydi. Masalan, kichik maydonda o‘yin qoidasi yoki ishtirokchilar soni o‘zgartirilib, bo‘sh joyni topish vazifasi beriladi. Mashqdan keyingi qisqa muhokamada qaysi qaror samarali bo‘lgani va nima sababdan xato yuz bergani aniqlanadi. Muhokama jismoniy faoliyat vaqtini ortiqcha qisqartirmasligi kerak. O‘qituvchi tushuntirishni keyingi urinishda tekshiriladigan bitta aniq vazifa bilan yakunlaydi. Shunda refleksiya amaliy harakatni davom ettirish vositasiga aylanadi.

Raqamli vositalar dars maqsadiga xizmat qilgandagina metodik qiymatga ega bo‘ladi. Qisqa videoyozuv texnik holatni qayta ko‘rish, elektron kundalik esa mustaqil mashg‘ulotni izohlash uchun qo‘llanishi mumkin. Qurilma bo‘lmagan talabaga qog‘oz shaklidagi teng imkoniyat beriladi. Qadamlar soni yoki ilovadagi faollik ballari ta’lim natijasining to‘liq o‘lchovi sifatida olinmaydi. Videoyozuvdan foydalanishda rozilik, foydalanish maqsadi va saqlash muddati oldindan aniqlanadi. Texnologiya talaba harakatini tushunishga yordam beradi, o‘qituvchining pedagogik kuzatuvini almashtirmaydi.

Shakllantiruvchi baholash bajarilgan ishni belgilashdan tashqari keyingi qadamni ham ko‘rsatadi. “Texnikani yaxshila” kabi umumiy fikr o‘rniga o‘qituvchi qaysi elementni qanday o‘zgartirishni tushuntiradi. Yakuniy bahoda texnik ko‘nikma, nazariy tushunish, mustaqil rejalashtirish va shaxsiy rivojlanish dalillari uyg‘unlashtirilishi taklif etiladi. Baholash mezonlari va ularning ulushi muassasa tartibiga mos ravishda oldindan ochiqlanadi. Faqat davomat yoki mutlaq sport natijasiga tayangan baholash o‘quv maqsadlarini toraytiradi. Shaxsiy o‘sishni hisobga olish esa umumiy talablarni bekor qilmasdan adolatliroq fikr bildirish imkonini beradi.

Taklif etilgan modelni joriy etish uchun har bir mavzu bo‘yicha qisqa texnologik xarita yetarli: unda o‘quv natijasi, topshiriq variantlari, kuzatuv mezoni va yakuniy refleksiya savoli yoziladi. Kafedra o‘qituvchilari mezonlarni birgalikda muhokama qilishi baholashdagi tafovutni kamaytirishi mumkin. Modelning samaradorligi hozircha nazariy asoslangan taklifdir. Uni tekshirishda boshlang‘ich tayyorgarligi hisobga olingan guruhlar, bir xil baholash sharoiti va yetarli kuzatuv muddati kerak. Ishtirok sifati, mustaqil faoliyatning davomiyligi hamda ko‘nikma rivoji alohida o‘lchanishi lozim. Faqat qiziqish so‘rovnomasi asosida umumiy samaradorlik haqida xulosa chiqarish yetarli emas.

Xulosa. Oliy ta'limda zamonaviy jismoniy tarbiya maqsad, moslashtirilgan topshiriq va mezonli baholashning birligiga tayanadi. Taklif etilgan o‘quv sikli individuallashtirishni hamkorlik va refleksiya bilan bog‘laydi. Uning natijadorligini aniqlash uchun oliy ta'lim sharoitida empirik sinov o‘tkazish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Casey A., Kirk D. Models-based Practice in Physical Education. Routledge, 2021. https://www.routledge.com/p/book/9780367333324

2. White R. L. et al. Self-determination theory in physical education: A systematic review of qualitative studies. Teaching and Teacher Education. 2021. Vol. 99. 103247. https://doi.org/10.1016/j.tate.2020.103247

3. McLennan N., Thompson J. Quality Physical Education: Guidelines for Policy-Makers. Paris: UNESCO, 2015. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000231101

UO‘K 796.322:004.9

GANDBOL O‘YINLARINI TAHLIL QILISHDA VIDEO ANALITIKA VA GPS TREKER TIZIMLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Tadjiaxmedov Sh. M., metodist, Namangan olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi, Namangan

Annotatsiya. *Mazkur maqolada gandbol o‘yinlarini tahlil qilishda video-analitika va sportchilar harakatini kuzatish tizimlaridan foydalanish imkoniyatlari hamda samaradorlikni baholash mezonlari ko‘rib chiqiladi. Video orqali texnik-taktik harakatlarni aniqlash, pozitsion ma'lumotlar yordamida masofa, tezlik va o‘yin fazalariga xos tashqi yuklamani baholash masalalari yoritiladi. GPS texnologiyasining yopiq sport zalidagi cheklovlari izohlanib, uning lokal pozitsiyalash va optik kuzatuv tizimlaridan farqi aniqlashtiriladi. Ilmiy manbalar tahlili asosida video va harakat ma'lumotlarini vaqt bo‘yicha moslashtirish, o‘lchov sifatini tekshirish hamda natijalarni o‘yinchi vazifasi va faol o‘yin vaqtini hisobga olib talqin qilish tartibi taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *gandbol, video-analitika, GPS, lokal pozitsiyalash, tashqi yuklama.*

Аннотация. *В статье рассматриваются возможности применения видеоаналитики и систем отслеживания движений игроков при анализе гандбольных матчей, а также критерии оценки их эффективности. Освещаются вопросы определения технико-тактических действий по видеозаписям, оценки дистанции, скорости и внешней нагрузки в различных фазах игры на основе позиционных данных. Объясняются ограничения GPS в закрытых спортивных залах и уточняются отличия этой технологии от локального позиционирования и оптического отслеживания. На основе анализа научных источников предложен порядок синхронизации видеозаписей и двигательных данных, проверки качества измерений и интерпретации результатов с учетом игровой роли и фактического времени участия игрока.*

Ключевые слова: *гандбол, видеоаналитика, GPS, локальное позиционирование, внешняя нагрузка.*

Abstract. *This article examines the potential of video analytics and player tracking systems in handball match analysis, together with criteria for evaluating their effectiveness. It discusses the identification of technical and tactical actions from video and the assessment of distance, speed and game-phase-specific external load using positional data. The limitations of GPS in indoor sports halls are explained, and distinctions between GPS, local positioning and optical tracking are clarified. Based on an analysis of scientific literature, the article proposes a workflow for synchronizing video and movement data, checking measurement quality and interpreting results according to playing role and actual on-court time.*

Keywords: *handball, video analytics, GPS, local positioning, external load.*

Kirish. Gandbolda tezkor hujum, himoyaga qaytish, qisqa tezlanish va o‘yinchilar almashinuvi bir-birini tez almashtiradi. O‘yinni faqat gol va xatolar soni bilan baholash ushbu jarayonlarning jismoniy hamda taktik mazmunini yetarli ochib bermaydi. Video-analitika harakatning vaziyatdagi ma'nosini, kuzatuv tizimlari esa uning fazoviy-vaqt ko‘rsatkichlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Maqolaning maqsadi bu vositalarning imkoniyatlari va cheklovlarini qiyoslab, oliy ta’limdagi gandbol mashg‘ulotlari hamda jamoa tahlili uchun asoslangan foydalanish tartibini taklif etishdir.

Adabiyotlar sharhi. A. Fleureau va hammualliflar gandbolga xos harakatlarda ultra keng polosali lokal pozitsiyalash tizimini tekshirib, ayrim yuqori tezlanish va tormozlanish o‘lchovlarida maydon hududiga bog‘liq xatolar mavjudligini ko‘rsatgan [1]. T. Lefèvre va hammualliflar o‘yin fazasi va o‘yinchi vazifasi tashqi yuklamani izohlashda muhimligini aniqlagan [2]. K. Katsioulas va I. Maglogiannis televizion videodan o‘yinchi trayektoriyasi hamda harakat ko‘rsatkichlarini ajratish usulini taklif etgan [3]. Ushbu tadqiqotlar turli texnologiyalar va sharoitlarga tegishli; ularning natijalarini barcha qurilmalar uchun bir xil aniqlik yoki tayyor pedagogik samara sifatida umumlashtirish mumkin emas.

Tahlil va natijalar. Maqola tanlangan ilmiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish va metodik modellashtirishga asoslangan. Mualliflik eksperimenti o‘tkazilmagan, yangi o‘lchov natijalari keltirilmaydi. Tahlil natijasi sifatida texnologik yaroqlilik, ma’lumot sifati, taktik mazmun va amaliy qaror mezonlarini birlashtiruvchi baholash yondashuvi taklif etiladi. Samaradorlik ko‘p ma’lumot yig‘ish bilan emas, tekshirilgan axborotning o‘quv yoki murabbiylik vazifasiga qanchalik xizmat qilishi bilan belgilanadi. Masalan, himoyaga kech qaytish muammosini o‘rganishda butun o‘yin masofasidan ko‘ra aynan o‘tish fazasidagi harakat va joylashuvni tekshirish mazmunliroqdir.

Avvalo GPS va lokal pozitsiyalash tizimi bir xil texnologiya emasligi aniqlashtirilishi kerak. GPS sun’iy yo‘ldosh signaliga tayanadi; yopiq gandbol zalida bu signalga asoslangan barqaror va aniq o‘yinchi pozitsiyasini olish cheklangan. Shuning uchun yopiq maydon tahlilida lokal pozitsiyalash tizimlari, xususan UWB texnologiyasi yoki optik kuzatuv qo‘llanadi [1; 2]. GPS bilan jihozlangan qurilmada akselerometr va giroskop ham bo‘lishi mumkin. Ularning zalda qayd etgan ma’lumotini GPS koordinatasi deb atash texnik jihatdan noto‘g‘ri. GPS ochiq maydondagi umumiy tayyorgarlikda alohida vazifani bajarishi mumkin, biroq uning ko‘rsatkichlari yopiq zaldagi LPS ma’lumotlari bilan tekshirilmasdan tenglashtirilmaydi.

Video-analitikaning asosiy afzalligi harakatni o‘yin vaziyati bilan birga ko‘rsatishidir. Video orqali hujumning boshlanishi, to‘p yo‘qotish, zarba sharoiti, himoya tizimi va son jihatidan ustunlik epizodlari belgilanishi mumkin. O‘qituvchi yoki tahlilchi oldindan hodisalar lug‘atini tuzishi lozim: masalan, “tezkor hujum” qaysi belgilar asosida qayd etilishi aniq yoziladi. Aks holda bir xil epizod turli kuzatuvchilar tomonidan turlicha baholanadi. Avtomatik aniqlash qo‘lda tekshirilgan namuna bilan solishtiriladi. Kamera harakati, o‘yinchilarning bir-birini to‘sishi va shaxs identifikatorining almashib ketishi video kuzatuvdagi muhim xato manbalaridir [3].

Lokal kuzatuv sportchining joylashuvi, bosib o‘tgan masofasi va vaqt bo‘yicha tezligini baholashga imkon beradi. Biroq tezlikdan hosil qilinadigan tezlanish ko‘rsatkichi o‘lchov shovqini va filtrlashga sezgir. Antennalar joylashuvi, sensor mahkamlanishi, uzilishlar va maydon chetidagi sharoit qayd etilishi kerak. Fleureau va hammualliflar sinovida ayrim chekka hududdagi chiziqli yugurishlarda yuqori tezlanish hamda tormozlanishning aniqligi pastroq bo‘lgan [1]. Bu topilma har bir tizimni aynan foydalaniladigan zalda tekshirish zarurligini asoslaydi. Mazkur kuzatuv ishning umumiy natijasi bo‘lib, boshqa ishlab chiqaruvchi yoki konfiguratsiyaga avtomatik ko‘chirilmaydi.

Video va pozitsiya ma’lumotlarini birlashtirish uchun umumiy vaqt shkalasi yaratiladi. O‘yinning boshlanish hodisasi yoki ikki yozuvda ko‘rinadigan boshqa tayanch nuqta belgilanib, yozuv oxirida ham vaqt siljishi tekshiriladi. Har bir o‘yinchining sensori, videodagi identifikatori va maydonda faol bo‘lgan vaqti moslashtiriladi. O‘yinchi zaxirada turgan davrni hisobga qo‘shish masofa va faollik ko‘rsatkichlarini buzadi. Shundan keyin harakat hujum, himoya va o‘tish fazalariga ajratiladi. Shu bog‘lanish masofaning qanday taktik vazifa davomida bosib o‘tilganini tushuntiradi; oddiy umumiy kilometr ko‘rsatkichi bunday mazmunni bermaydi.

Ko‘rsatkichlarni taqqoslashda maydonda o‘ynalgan vaqt albatta hisobga olinadi. Nisbiy masofa bosib o‘tilgan metrni faol o‘yin daqiqasiga bo‘lish orqali aniqlanadi. Tezkor hujum yakunlanishi, zarba sharoiti va to‘p yo‘qotish kabi hodisalar shu davr bilan bog‘lanadi. Bir o‘yinchi ko‘proq yugurgani uning taktik jihatdan samaraliroq o‘ynaganini anglatmaydi: ortiqcha masofa noto‘g‘ri joylashuv yoki sherik xatosini qoplash bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shuning uchun pozitsiya va o‘yin vazifasi o‘xshash epizodlar qiyoslanishi taklif etiladi. Lefèvre va hammualliflar tadqiqoti

ham o‘yin fazasi hamda hujum yoki himoya ixtisoslashuvini alohida ko‘rish ahamiyatini ko‘rsatadi [2].

Samaradorlikning texnik mezonlari sifatida yaroqli yozuv ulushi, uzilishlar davomiyligi, hodisani aniqlash aniqligi va qo‘lda tekshirishga sarflangan vaqt olinishi mumkin. Pedagogik mezon esa talabaga berilgan teskari aloqaning keyingi o‘xshash topshiriqda qo‘llanishidir. Masalan, videoda himoyaga qaytishdagi kechikish ko‘rsatilgach, navbatdagi mashg‘ulotda vaziyatni tanish va joy egallash qayta baholanadi. Bunday o‘zgarishni isbotlash uchun boshlang‘ich hamda yakuniy o‘lchov va taqqoslash sharoiti zarur. Faqat chiroyli issiqlik xaritasi yoki avtomatik hisobot yaratilgani sport natijasi oshganini tasdiqlamaydi. Tashqi harakat ko‘rsatkichidan charchoq yoki jarohat ehtimoli haqida yakka o‘zi qat’iy xulosa chiqarilmaydi.

Oliy ta’lim sharoitida joriy etish oddiy videoyozuv, kelishilgan hodisalar jadvali va kichik epizodlar tahlilidan boshlanishi mumkin. LPS qo‘shish qarori aniq tadqiqot vazifasi, texnik xizmat imkoniyati va ma’lumotga ishlov berish mehnati bilan asoslanadi. Xarajatni baholashda qurilma narxidan tashqari o‘rnatish, dasturiy xizmat, xodim tayyorlash va qo‘lda tekshirish vaqti ham hisobga olinadi. Yozuvlardan foydalanish maqsadi, ishtirokchi roziligi, kirish huquqi va saqlash muddati oldindan belgilanadi. Natijada texnologiyani tanlash nufuz yoki reklama da’vosiga emas, o‘quv vazifasi va tekshiriladigan ma’lumot sifatiga tayangan holda amalga oshiriladi.

Xulosa. Gandbol tahlilida video-analitika taktik mazmunni, lokal kuzatuv esa fazoviy-vaqt ko‘rsatkichlarini ochib beradi. Yopiq zal uchun GPSni LPS yoki optik tizim bilan tenglashtirish mumkin emas. Samarali foydalanish sinxronlashtirish, mahalliy aniqlikni tekshirish va vaziyatga mos talqinga bog‘liq. Taklif etilgan yondashuvning pedagogik samarasi kelgusida empirik tadqiqot orqali tekshirilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Fleureau A., Lacome M., Buchheit M., Couturier A., Rabita G. Validity of an ultra-wideband local positioning system to assess specific movements in handball. Biology of Sport. 2020. 37(4). 351–357. https://doi.org/10.5114/biolsport.2020.96850

2. Lefèvre T., Guignard B., Karcher C., Reche X., Font R., Komar J. A deep dive into the use of local positioning system in professional handball: Automatic detection of players' orientation, position and game phases to analyse specific physical demands. PLOS ONE. 2023. 18(8). e0289752. https://doi.org/10.1371/journal.pone.0289752

3. Katsioulas K., Maglogiannis I. Spatio-Temporal Analysis of Handball Players' Actions from Broadcast Videos Using Deep Learning. Big Data and Cognitive Computing. 2026. 10(4). 118. https://doi.org/10.3390/bdcc10040118

UO‘K 378.147:611.018

GISTOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA TALABALARNING AMALIY KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION USULLARI

Umarova Z. M., katta o‘qituvchi, Andijon davlat tibbiyot instituti, Andijon

Annotatsiya. *Ushbu maqolada gistologiya fanini o‘qitishda talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishning innovatsion usullari yoritilgan. Virtual mikroskopiya, interaktiv metodlar, raqamli texnologiyalar va muammoli ta’limdan foydalanishning samaradorligi ko‘rib chiqilgan. Ushbu usullar talabalarning mustaqil fikrlashi, mikroskopik preparatlarni tahlil qilish va kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Gistologiya, amaliy ko‘nikma, innovatsion usullar, virtual mikroskopiya, raqamli texnologiyalar, interaktiv ta’lim.*

Аннотация. *В статье рассматриваются инновационные методы развития практических навыков студентов при изучении гистологии. Освещается применение виртуальной микроскопии, интерактивных методов, цифровых технологий и проблемного обучения. Использование данных методов способствует развитию самостоятельного мышления студентов, навыков анализа микропрепаратов и профессиональных компетенций.*

Ключевые слова: *Гистология, практические навыки, инновационные методы, виртуальная микроскопия, цифровые технологии, интерактивное обучение.*

Abstract. *This article discusses innovative methods for developing students' practical skills in teaching histology. The use of virtual microscopy, interactive methods, digital technologies, and*

problem-based learning is highlighted. These approaches contribute to the development of students' independent thinking, skills in analyzing histological specimens, and professional competencies.
Keywords: *Histology, practical skills, innovative methods, virtual microscopy, digital technologies, interactive learning.*

Kirish. Bugungi kunda tibbiy ta'lim tizimida talabalarning nazariy bilimlari bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, gistologiya fanini o‘qitishda hujayra va to‘qimalarning mikroskopik tuzilishini chuqur o‘rganish, mikroskopik preparatlarni to‘g‘ri aniqlash va tahlil qilish talabalarning kelgusidagi kasbiy faoliyati uchun muhim asos hisoblanadi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalarining rivojlanishi gistologiya fanini o‘qitish jarayoniga innovatsion usullarni keng joriy etish imkonini bermoqda. Virtual mikroskopiya, raqamli tasvirlar, interaktiv ta'lim metodlari, muammoli vaziyatlar va kichik guruhlarda ishlash kabi usullar talabalarning darsdagi faolligini oshirish bilan birga, ularning mustaqil fikrlashi va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu sababli gistologiya fanini o‘qitishda an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish hamda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot davomida gistologiya fanini o‘qitishda talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy pedagogik va innovatsion usullardan foydalanildi. Tadqiqotda kuzatish, taqqoslash, pedagogik tajriba, so‘rovnoma va test usullaridan foydalanildi. Shuningdek, virtual mikroskopiya, interaktiv ta'lim, muammoli ta'lim va kichik guruhlarda ishlash metodlarining samaradorligi o‘rganildi.

Talabalarning mikroskopik preparatlarni aniqlash, ularning tuzilishini tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalari amaliy mashg‘ulotlar davomida baholandi. Olingan natijalar an'anaviy va innovatsion o‘qitish usullari asosida taqqoslanib, talabalarning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi samaradorligi tahlil qilindi.

Nazariy tahlil va umumlashtirish: Tadqiqotning nazariy bosqichida gistologiya fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlardan foydalanishga oid ilmiy manbalar tahlil qilindi. Mavjud yondashuvlarni umumlashtirish asosida virtual mikroskopiya, interaktiv ta'lim, muammoli o‘qitish va raqamli texnologiyalarning talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati aniqlandi. Nazariy tahlil natijalari asosida gistologiya mashg‘ulotlarini talabalarning mustaqil fikrlashi, mikroskopik preparatlarni tahlil qilishi va amaliy kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirish zarurligi belgilandi.

Modellashtirish va vizualizatsiya vositalari: Gistologik tuzilmalarni o‘rganishda raqamli tasvirlar, virtual mikroskopiya, interaktiv sxema va modellardan foydalanildi. Vizual vositalar yordamida hujayra va to‘qimalarning mikroskopik tuzilishi bosqichma-bosqich tushuntirilib, talabalarning ko‘rish, tahlil qilish va taqqoslash ko‘nikmalari rivojlantirildi. Ushbu yondashuv murakkab gistologik jarayonlarni yanada tushunarli va samarali o‘zlashtirishga yordam berdi.

Eksperimental-sinov usuli: Talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida innovatsion o‘qitish usullarining samaradorligi amaliy mashg‘ulotlar jarayonida sinovdan o‘tkazildi. Tajriba davomida virtual mikroskopiya, interaktiv topshiriqlar va muammoli vaziyatlardan foydalanildi. Talabalarning mikroskopik preparatlarni aniqlash, tuzilishini tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalari baholandi. Olingan natijalar asosida innovatsion usullardan foydalanish talabalarning amaliy tayyorgarligini oshirishga ijobiy ta'sir ko‘rsatishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Tadqiqot natijalari gistologiya fanini o‘qitishda innovatsion metodlardan foydalanish talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanligini ko‘rsatdi. Virtual mikroskopiya, raqamli tasvirlar, interaktiv topshiriqlar va muammoli ta'lim usullaridan foydalanish talabalarning mashg‘ulotlardagi faolligini oshirdi hamda mikroskopik preparatlarni mustaqil aniqlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini takomillashtirdi. Innovatsion usullar asosida tashkil etilgan amaliy mashg‘ulotlarda talabalar hujayra va

to‘qimalarning tuzilishini tezroq farqlash, morfologik belgilarni taqqoslash va o‘z xulosalarini asoslash imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Ayniqsa, virtual mikroskopiyadan foydalanish an’anaviy mikroskop bilan ishlashni to‘ldirib, murakkab gistologik obyektlarni bir necha marotaba ko‘rib chiqish va mustaqil tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqot davomida interaktiv va muammoli ta’lim metodlari talabalarning mustaqil fikrlashi, guruhda ishlashi va kasbiy qiziqishini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatgani kuzatildi. Shuningdek, raqamli vizual materiallardan foydalanish nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lashga yordam berdi.

Laboratoriya va raqamli vizualizatsiyaning o‘rni: Gistologiya fanini o‘qitishda laboratoriya mashg‘ulotlari talabalarning nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalar bilan mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Mikroskopik preparatlar bilan ishlash orqali talabalar hujayra va to‘qimalarning morfologik tuzilishini bevosita kuzatish, ularni aniqlash va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Raqamli vizualizatsiya va virtual mikroskopiyadan foydalanish esa gistologik obyektlarni yuqori aniqlikda ko‘rish, ularning alohida qismlarini kattalashtirish va qayta tahlil qilish imkonini beradi. Bunday texnologiyalar murakkab mikroskopik tuzilmalarni tushunishni osonlashtirib, talabalarning qiziqishi va darsdagi faolligini oshiradi. Laboratoriya mashg‘ulotlarini raqamli vizualizatsiya vositalari bilan uyg‘unlashtirish ta’lim samaradorligini oshirish, mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish va kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Fanlararo integratsiyaning ta’siri: Gistologiya fanini anatomiya, fiziologiya, biologiya va patologiya fanlari bilan integratsiyalashgan holda o‘qitish talabalarning bilimlarini yaxlit shakllantirishga yordam beradi. Fanlararo yondashuv orqali talabalar hujayra va to‘qimalarning tuzilishini ularning funksiyasi hamda patologik o‘zgarishlari bilan bog‘lab o‘rganadilar.

Bunday integratsiya talabalarning mantiqiy va klinik fikrlash qobiliyatini rivojlantirib, nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatini oshiradi. Shuningdek, turli fanlardan olingan bilimlarni birlashtirish mikroskopik preparatlarni chuqurroq tahlil qilish, sabab-oqibat munosabatlarini tushunish va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Muhokama: Tadqiqot natijalari gistologiya fanini o‘qitishda innovatsion ta’lim usullaridan foydalanish talabalarning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. An’anaviy laboratoriya mashg‘ulotlarini virtual mikroskopiya, raqamli vizualizatsiya va interaktiv metodlar bilan uyg‘unlashtirish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Innovatsion yondashuvlar talabalarga gistologik preparatlarni mustaqil kuzatish, morfologik belgilarni taqqoslash va o‘z xulosalarini asoslash imkonini beradi. Shuningdek, fanlararo integratsiya orqali gistologik bilimlarni anatomiya, fiziologiya va patologiya fanlari bilan bog‘lash talabalarning klinik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Xulosa. Gistologiya fanini o‘qitishda innovatsion usullardan foydalanish talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Virtual mikroskopiya, raqamli vizualizatsiya, interaktiv va muammoli ta’lim metodlari talabalarning darsdagi faolligini oshirib, mikroskopik preparatlarni mustaqil tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, gistologiya fanini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan tizimli foydalanish ta’lim sifatini oshirish, talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish va ularni kelgusidagi kasbiy faoliyatga samarali tayyorlashning muhim omilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Junqueira L.C., Carneiro J. Junqueira’s Basic Histology: Text and Atlas. – McGraw-Hill Education, 2019.
2. Mescher A.L. Junqueira’s Basic Histology: Text and Atlas. – 16th ed. – McGraw-Hill Education, 2021.
3. Ross M.H., Pawlina W. Histology: A Text and Atlas. – 8th ed. – Wolters Kluwer, 2020.
4. Gartner L.P., Hiatt J.L. Color Textbook of Histology. – 4th ed. – Elsevier, 2017.

UO'K 378.147:611.018

GISTOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Umarova Z. M., katta o'qituvchi, Andijon davlat tibbiyot instituti, Andijon

Annotatsiya. *Ushbu maqolada gistologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati yoritilgan. Interaktiv metodlar, multimedia vositalari va raqamli texnologiyalardan foydalanish talabalarning fanga qiziqishini oshirishi, gistologik tuzilmalarni yaxshiroq o'zlashtirishi hamda amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishi ta'kidlangan. Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash gistologiya fanini samarali va sifatli o'qitishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *Gistologiya, pedagogik texnologiya, tibbiy ta'lim, innovatsion ta'lim, raqamli texnologiyalar.*

Аннотация. *В статье рассматривается значение использования современных педагогических технологий в преподавании гистологии. Отмечается, что применение интерактивных методов, мультимедийных и цифровых технологий повышает интерес студентов к предмету, способствует лучшему усвоению гистологического материала и развитию практических навыков. Использование современных образовательных технологий способствует повышению эффективности и качества преподавания гистологии.*

Ключевые слова: *Гистология, педагогические технологии, медицинское образование, инновационное обучение, цифровые технологии.*

Abstract. *This article discusses the importance of using modern pedagogical technologies in teaching histology. The use of interactive methods, multimedia and digital technologies increases students' interest in the subject, improves their understanding of histological material, and develops practical skills. Modern educational technologies contribute to improving the effectiveness and quality of histology teaching.*

Keywords: *histology, pedagogical technologies, medical education, innovative learning, digital technologies.*

Kirish. Bugungi kunda tibbiy ta'lim tizimida talabalarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish, amaliy ko'nikmalarini shakllantirish va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, gistologiya fanini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o'qitish alohida ahamiyat kasb etadi. Gistologiya inson organizmidagi hujayralar, to'qimalar va a'zolarning mikroskopik tuzilishi hamda morfofunksional xususiyatlarini o'rganuvchi muhim tibbiy fanlardan biridir.

Gistologiya fanining murakkab va vizual ma'lumotlarga boyligi uni o'qitishda an'anaviy usullar bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishni talab etadi. Interaktiv ta'lim metodlari, multimedia vositalari, elektron ta'lim resurslari, raqamli tasvirlar va virtual mikroskopiya texnologiyalaridan foydalanish o'quv materiallarini talabalarga yanada tushunarli va samarali yetkazish imkonini beradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan maqsadli foydalanish talabalarning dars jarayonidagi faolligini oshirish, murakkab gistologik tuzilmalarni vizual ravishda idrok etish, mustaqil ishlash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, gistologik bilimlarni anatomiya, fiziologiya, patologik anatomiya va klinik fanlar bilan integratsiyalash talabalarda morfofunksional tafakkurni shakllantirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu sababli tibbiy oliy ta'lim muassasalarida gistologiya fanini o'qitish jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va ulardan samarali foydalanish ta'lim sifatini oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot davomida gistologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaradorligini o'rganish maqsadida pedagogik kuzatuv, so'rovnoma, suhbat, taqqoslash, tahlil va statistik usullardan foydalanildi. Tadqiqotda tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari ishtirok etdi.

Gistologiya mashg‘ulotlarida interaktiv metodlar, multimedia vositalari, elektron ta’lim resurslari va raqamli mikroskopiya imkoniyatlaridan foydalanish jarayoni kuzatildi. Talabalarning mavzuni o‘zlashtirish darajasi, darsdagi faolligi va amaliy ko‘nikmalari an’anaviy hamda zamonaviy o‘qitish usullari asosida taqqoslandi. Olingan natijalar umumlashtirilib, tegishli xulosalar chiqarildi.

Nazariy tahlil va umumlashtirish: Tadqiqot davomida gistologiya fanini o‘qitishning zamonaviy pedagogik yondashuvlari bo‘yicha ilmiy-uslubiy adabiyotlar, o‘quv qo‘llanmalar va metodik manbalar tahlil qilindi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning, jumladan, interaktiv metodlar, multimedia vositalari, raqamli ta’lim resurslari va virtual mikroskopiyaning ta’lim jarayonidagi o‘rni o‘rganildi. Olingan nazariy ma’lumotlar umumlashtirilib, ularning gistologiya fanini samarali o‘qitishdagi ahamiyati aniqlandi.

Modellashtirish va vizualizatsiya vositalari: Gistologiya fanini o‘qitishda hujayra va to‘qimalarning mikroskopik tuzilishini yaxshiroq tushuntirish maqsadida 3D modellar, interaktiv sxemalar, mikrofotografiyalar, animatsiyalar va raqamli tasvirlardan foydalanildi. Ushbu vositalar murakkab gistologik tuzilmalarni vizual tarzda namoyish etish, ularning tuzilishi va funksional xususiyatlarini tushunishni osonlashtirishga xizmat qildi. Shuningdek, virtual mikroskopiya imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabalar gistologik preparatlarni mustaqil kuzatish, tahlil qilish va morfologik belgilarini aniqlash ko‘nikmalarini rivojlantirdilar.

Eksperimental-sinov usuli: Tadqiqotda gistologiya fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samaradorligini aniqlash maqsadida eksperimental-sinov usulidan foydalanildi. Talabalarga dars jarayonida interaktiv metodlar, multimedia vositalari, raqamli ta’lim resurslari va virtual mikroskopiya imkoniyatlari qo‘llanildi. Tajriba-sinov jarayonida talabalarning bilim darajasi, mavzularni o‘zlashtirish ko‘rsatkichi, darsdagi faolligi hamda amaliy ko‘nikmalari baholandi. Olingan natijalar tahlil qilinib, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning gistologiya fanini o‘qitish samaradorligiga ta’siri aniqlandi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Tadqiqot natijalari gistologiya fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Dars jarayonida interaktiv metodlar, multimedia vositalari, raqamli ta’lim resurslari va virtual mikroskopiyadan foydalanish talabalarning mavzuga bo‘lgan qiziqishini oshirish, murakkab gistologik tuzilmalarni yaxshiroq tushunish va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam berdi.

Zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda talabalar o‘quv jarayonida faolroq ishtirok etib, gistologik preparatlarni mustaqil kuzatish va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Vizual materiallar va interaktiv topshiriqlardan foydalanish hujayra va to‘qimalarning morfologik xususiyatlarini aniqroq o‘zlashtirishga xizmat qildi.

Laboratoriya va raqamli vizualizatsiyaning o‘rni: Gistologiya fanini o‘qitishda laboratoriya mashg‘ulotlari va raqamli vizualizatsiya vositalarini uyg‘unlashtirish nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan mustahkamlashga yordam beradi. Mikroskopik preparatlarni bevosita o‘rganish hujayra va to‘qimalarning morfologik xususiyatlarini kuzatish hamda mustaqil tahlil qilish imkonini beradi. Interaktiv tasvirlar va virtual preparatlar murakkab gistologik tuzilmalarni aniq namoyish etib, materialni qayta o‘rganishga sharoit yaratadi.

Fanlararo integratsiyaning ta’siri: Gistologiya fanini o‘qitishda fanlararo integratsiyadan foydalanish talabalarning bilimlarini tizimli shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Gistologiya fanining anatomiya, fiziologiya, patologik anatomiya, biokimyo va klinik fanlar bilan bog‘liq holda o‘qitilishi hujayra, to‘qima va a’zolarning tuzilishi hamda funksiyasi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni chuqurroq anglash imkonini beradi.

Fanlararo yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda talabalar nazariy bilimlarni turli fanlar bilan bog‘lab, o‘rganilgan materialni tahlil qilish va amaliy vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Ayniqsa, gistologik tuzilmalarning fiziologik va patologik jarayonlar bilan bog‘liq holda tushuntirilishi talabalarda morfofunksional va klinik tafakkurni shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa. Gistologiya fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Interaktiv metodlar,

multimedia vositalari, raqamli mikroskopiya, virtual preparatlar va vizual materiallardan foydalanish talabalarning fanga qiziqishini oshirib, murakkab gistologik tuzilmalarni chuqurroq o'zlashtirishiga yordam beradi.

Zamonaviy texnologiyalarni laboratoriya mashg'ulotlari va fanlararo integratsiya bilan uyg'unlashtirish talabalarda mustaqil fikrlash, morfologik tahlil qilish va amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Shu bois gistologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan tizimli va maqsadli foydalanish tibbiy ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Afanasyev Yu.I., Yurina N.A. Gistologiya, sitologiya va embriologiya. — Moskva: GEOTAR-Media, 2016.
2. Bykov V.L. Sitologiya va umumiy gistologiya asoslari. — Sankt-Peterburg: СОТИС, 2014.
3. Junqueira L.C., Carneiro J. Basic Histology: Text and Atlas. — 16th ed. — McGraw-Hill Education, 2021.
4. Mescher A.L. Junqueira's Basic Histology: Text and Atlas. — 16th ed. — McGraw-Hill, 2021.

UO'K 372.857:004.9

EKOLOGIYA FANINI GEOAXBOROT TIZIMLARI ASOSIDA O'QITISH METODIKASINING SAMARADORLIGI: TAJRIBA-SINOV NATIJALARI

Urinova X. Sh., dotsent, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, Navoiy

Annotatsiya. *Maqolada ekologiya fanini geoaxborot tizimlari asosida o'qitish metodikasining samaradorligi tajriba-sinov orqali tekshiriladi. Nazorat va tajriba guruhlari ishtirokidagi eksperiment natijalari metodikaning ekologik kompetentlikni rivojlantirishdagi ustunligini matematik-statistik usullar bilan tasdiqlaydi.*

Kalit so'zlar: *ekologik ta'lim, geoaxborot tizimlari, ekologik kompetentlik, pedagogik eksperiment, tajriba-sinov, statistik tahlil, texnika oliy ta'limi.*

Аннотация. *В статье эффективность методики обучения экологии на основе геоинформационных систем проверяется опытно-экспериментальным путём. Результаты эксперимента с участием контрольной и экспериментальной групп подтверждают преимущество методики в развитии экологической компетентности математико-статистическими методами.*

Ключевые слова: *экологическое образование, геоинформационные системы, экологическая компетентность, педагогический эксперимент, опытно-экспериментальная работа, статистический анализ, техническое высшее образование.*

Abstract. *The article examines the effectiveness of the methodology for teaching ecology based on geographic information systems through experimental work. The results of the experiment involving control and experimental groups confirm the advantage of the methodology in developing environmental competence using mathematical and statistical methods.*

Keywords: *environmental education, geographic information systems, environmental competence, pedagogical experiment, experimental work, statistical analysis, technical higher education.*

Zamonaviy texnika oliy ta'limida ekologik kompetentlikni rivojlantirish bo'lajak muhandis tayyorlashning muhim vazifasiga aylanmoqda. Ayniqsa konchilik, metallurgiya va energetika kabi tabiiy resurslar bilan bevosita ishlaydigan sohalar uchun ekologik kompetentlik mutaxassis tayyorlashning ajralmas qismidir. Geoaxborot tizimlari (GAT) ekologik ta'limni atrof-muhitni fazoviy tahlil qilish, ekologik monitoring o'tkazish va natijalarni vizuallashtirish imkoniyatlari bilan boyitadi. Biroq ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligi tajriba-sinov orqali tasdiqlanishi zarur. Mazkur maqolaning maqsadi - ekologiya fanini GAT asosida o'qitish metodikasining ekologik kompetentlikni rivojlantirishdagi samaradorligini eksperimental tekshirishdan iborat.

Ekologik ta'limni raqamlashtirish bugungi kunda davlat siyosati darajasida belgilangan vazifadir. "Eko-madaniyat" umummilliy loyihasi doirasida ekologik ta'lim, ilm-fan va targ'ibotni jadallashtirish, amaliyot ulushini oshirish nazarda tutilgan [5]. Bu ekologik ta'lim mazmunini zamonaviy raqamli texnologiyalar, jumladan geoaxborot tizimlari bilan boyitishning dolzarbligini belgilaydi.

An’anaviy ekologik ta’lim ko‘pincha nazariy bilim berishga qaratilgan bo‘lib, talabalarda ekologik jarayonlarni fazoviy va dinamik tahlil qilish ko‘nikmasini yetarli shakllantirmaydi. Ekologik muammolar esa - ifloslanishning tarqalishi, yer degradatsiyasi, suv havzalarining qisqarishi - mohiyatan fazoviy xarakterga ega. Shu sababli ekologik ta’limni geoaxborot texnologiyalari bilan boyitish zamonaviy pedagogikaning dolzarb vazifasidir.

Geoaxborot texnologiyalari asosidagi o‘qitish samaradorligi xalqaro tadqiqotlarda keng o‘rganilgan. Nazorat va tajriba guruhlari ishtirokidagi eksperimentlar GAT bilan qo‘llab-quvvatlangan tadqiqotchilik ta’limi talabalarning o‘zlashtirish darajasini va fazoviy savodxonligini oshirishini tasdiqlagan [4; B.4.]. Havo ifloslanishi mavzularida GAT asosidagi o‘qitishning samaradorligi kvazi-eksperimental tadqiqotda isbotlangan [6; B.5.]. Fazoviy tafakkur va GAT ko‘nikmalarini baholash metodikalari ham ishlab chiqilgan [3; B.2.]. Shunga qaramay, O‘zbekiston sharoitida ekologiyani aynan GAT asosida o‘qitish metodikasining samaradorligi eksperimental tekshirilmagan; bu holat mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligini va dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotda nazorat va tajriba guruhlari ishtirokidagi uch bosqichli (aniqlovchi, shakllantiruvchi, yakunlovchi) pedagogik eksperiment metodikasi qo‘llanildi. Tajriba-sinov ishlari konchilik yo‘nalishi talabalari ishtirokida o‘tkazildi [1]. Tajriba va nazorat guruhlari o‘xshash boshlang‘ich tayyorgarlik darajasi va yaqin talabalar soni asosida tanlandi.

Ekologik kompetentlik to‘rt komponent (kognitiv, faoliyat-texnologik, refleksiv-baholovchi, motivatsion-qadriyatli) bo‘yicha diagnostika qilindi: kognitiv komponent test orqali, faoliyat-texnologik komponent GAT amaliy topshiriqlari orqali, refleksiv-baholovchi komponent loyiha va keys-topshiriqlar orqali, motivatsion-qadriyatli komponent esa so‘rovnoma va kuzatish orqali baholandi. Diagnostika natijalari asosida talabalar ekologik kompetentlikning uch darajasidan (past, o‘rta, yuqori) biriga ajratildi.


Diagnostika ishonchliligini ta’minlash uchun har bir komponent uchun aniq baholash mezonlari belgilandi va erishilgan daraja besh balli tizimda baholandi. Past daraja talabaning ekologik bilimi yuzaki, GAT vositalarida mustaqil ishlay olmasligi bilan; o‘rta daraja asosiy bilim va ko‘nikmalarning mavjudligi, ammo ularni mustaqil qo‘llashdagi qiyinchiliklar bilan; yuqori daraja esa chuqur bilim, GAT vositalarida mustaqil ishlash va asoslangan ekologik qaror qabul qilish qobiliyati bilan tavsiflanadi.

Aniqlovchi bosqichda tajriba va nazorat guruhlarining ekologik kompetentlik darajasi deyarli bir xil bo‘lib, ularning qiyoslash uchun tenglashtirilganligi aniqlandi. Shakllantiruvchi bosqichda tajriba guruhida GAT asosidagi metodik tizim joriy etildi: talabalar QGIS va Google Earth Engine vositalarida real sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlari bilan ishlab, fazoviy tahlil va ekologik monitoring ko‘nikmalarini egalladilar [2; B.20.]. O‘quv mashg‘ulotlarida real milliy ekologik muammolar - sanoat hududlaridagi ifloslanish, tog‘-kon ta’siri va yer qoplamining o‘zgarishi - tahlil qilindi. Nazorat guruhida esa an’anaviy metodika saqlanib, fan asosan matn, formula va statistik jadvallar asosida o‘qitildi. Yakunlovchi bosqichda har ikki guruhda yakuniy diagnostika o‘tkazildi va natijalar Styudent t-mezoni hamda Pirson χ^2 mezoni yordamida qayta ishlandi. Statistik hisob-kitoblar guruhlar o‘rtasidagi farqning tasodifiy emasligini obyektiv aniqlash imkonini berdi. Yakunlovchi bosqich natijalari tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasida sezilarli farqni ko‘rsatdi (1-jadval). Tajriba guruhida yuqori darajadagi talabalar ulushi 14% dan 42% ga, ya’ni uch baravar oshdi; nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich 15% dan 17% ga o‘zgardi. Past darajadagilar ulushi tajriba guruhida 38% dan 12% ga kamaydi, nazorat guruhida esa deyarli o‘zgarmadi.

1-jadval. Yakunlovchi bosqichda ekologik kompetentlik darajasi (%)

Daraja	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
Past	12	34
O‘rta	46	49
Yuqori	42	17

Kompetentlik darajasining qiyosiy taqsimoti diagrammada ko‘rgazmali aks ettirilgan (1-rasm). Tajriba guruhida talabalarning yuqori darajaga o‘tishi yaqqol ko‘rinadi.



1-rasm. Ekologik kompetentlik darajasining tajriba yakunidagi taqsimoti

Natijalarni kompetentlik komponentlari bo‘yicha tahlil qilish metodikaning kompleks ta’sirini ko‘rsatdi (2-jadval). Eng sezilarli o‘sish faoliyat-texnologik komponentda (2,6 dan 4,4 ballga) qayd etildi - bu an’anaviy metodika umuman rivojlantirmaydigan GAT ko‘nikmalaridir. Refleksiv-baholovchi komponent ham sezilarli o‘sdi (2,8 dan 4,2 ga), bu metodikaning mustaqil tahlil va ekologik qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirganini tasdiqlaydi.

2-jadval. Kompetensiya komponentlari bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichlar (ball)

Komponent	Tajriba (boshl.)	Tajriba (yakun.)	Nazorat (yakun.)
Kognitiv	3,1	4,3	3,6
Faoliyat-texnologik	2,6	4,4	3,0
Refleksiv-baholovchi	2,8	4,2	3,2
Motivatsion-qadriyatli	3,3	4,5	3,7

Kognitiv komponent (ekologik bilim) tajriba guruhida 3,1 dan 4,3 ballga oshdi, bu GAT asosidagi metodikaning nazariy bilimni ham chuqurroq o‘zlashtirishga yordam berishini ko‘rsatadi - chunki talaba ekologik qonuniyatlarni real ma’lumot va xaritalar asosida ko‘rgazmali o‘rganadi. Motivatsion-qadriyatli komponent esa 3,3 dan 4,5 ballga oshdi; bu real ekologik muammolar bilan ishlash talabaning ekologik mas’uliyatini va fanga qiziqishini oshirganini tasdiqlaydi. Barcha to‘rt komponentning muvozanatli va sezilarli o‘sishi metodik tizimning yaxlit, kompleks ta’sirini ko‘rsatadi.

Matematik-statistik tahlil metodikaning samaradorligini tasdiqladi. Tajriba guruhida o‘rtacha ball 2,95 dan 4,35 ga oshib, nisbiy o‘sish 47,5% ni tashkil etdi; nazorat guruhida esa o‘sish atigi 11,9% bo‘ldi. Tajriba guruhidagi o‘sish nazorat guruhidagidan qariyb to‘rt baravar yuqori. Styudentning t-mezoni yordamida guruhlar o‘rtasidagi farqning statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi ($p < 0,05$) tasdiqlandi. Samaradorlik koeffitsiyenti 1,29 ni tashkil etib, tajriba guruhi ko‘rsatkichlari nazorat guruhidan 29% yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Bu natijalar geoaxborot texnologiyalari asosidagi o‘qitishning yuqori samaradorligini ko‘rsatgan xalqaro tadqiqotlar bilan ham muvofiq keladi [4; B.3.].

Faoliyat-texnologik komponentdagi eng katta o‘sish (1,8 ball) kutilgan natija bo‘lib, uning pedagogik ahamiyati katta. An’anaviy metodika talabaga geoaxborot ko‘nikmalarini umuman bermaydi, GAT asosidagi metodika esa aynan shu zamonaviy raqamli kasbiy ko‘nikmalarni maqsadli va tizimli rivojlantiradi. Bu, ayniqsa, konchilik yo‘nalishi talabalari uchun muhim, chunki ular bo‘lajak kasbiy faoliyatida ekologik monitoring va atrof-muhitga ta’sirni baholash bilan bevosita shug‘ullanadilar. Shu tariqa metodika talabani real kasbiy faoliyatga tayyorlaydi.

Shakllantiruvchi bosqich davomida olib borilgan sifatiy kuzatishlar miqdoriy natijalarni to‘ldiradi. Tajriba guruhida talabalarning mashg‘ulotlardagi faolligi, mustaqilligi va fanga qiziqishi sezilarli oshdi. Agar boshida ko‘pchilik ekologik muammolarni mavhum deb qabul qilgan bo‘lsa, GAT asosida o‘z hududining real ekologik holatini tahlil qilgach, ular bu muammolarning yaqin va shaxsan ahamiyatli ekanligini angladilar. Nazorat guruhida bunday o‘zgarishlar kam kuzatildi, chunki an’anaviy metodika talabani real ekologik voqelik bilan bevosita bog‘lamaydi.

Olingan natijalar tadqiqot gipotezasini to‘liq tasdiqladi: ekologiya fanini GAT asosidagi metodik tizim asosida o‘qitish talabalarda ekologik kompetentlikning barcha komponentlarini

an’anaviy metodikaga nisbatan samaraliroq rivojlantiradi. t-mezon statistik farqni tekshirish uchun, samaradorlik koeffitsiyenti esa guruhlar natijalari nisbatini tavsiflash uchun qo‘llanilgan; koeffitsiyent mustaqil statistik ahamiyatlilik mezoni emas. Metodikaning real o‘quv dasturlariga va milliy ekologik muammolarga tayangani uning amaliy tatbiq etiluvchanligini ta’minlaydi va natijalarni boshqa texnika yo‘nalishlariga ham umumlashtirish imkonini beradi.

Tajriba-sinov ishlari ekologiya fanini GAT asosida o‘qitish metodikasining pedagogik samaradorligini eksperimental va statistik jihatdan isbotladi. Tajriba guruhida ekologik kompetentlik darajasi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli oshdi: yuqori darajadagi talabalar ulushi uch baravar ko‘paydi, nisbiy o‘sish esa qariyb to‘rt baravar yuqori bo‘ldi. Metodikaning eng kuchli ta’siri faoliyat-texnologik va refleksiv-baholovchi komponentlarda - an’anaviy metodika kam rivojlantiradigan jihatlarda - namoyon bo‘ldi. Statistik tahlil (Styudent t-mezoni, $p < 0,05$; samaradorlik koeffitsiyenti 1,29) metodika samaradorligini tasdiqlab, uning texnika oliy ta’limi amaliyotiga keng joriy etilishi uchun ilmiy asos yaratdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Ekologiya” fanining o‘quv dasturi. Ta’lim yo‘nalishi: 60722800 – Konchilik ishi. – Navoiy: NDKTU, 2025. – 24 b.

2. Gorelick N., Hancher M., Dixon M. et al. Google Earth Engine: Planetary-scale geospatial analysis for everyone // Remote Sensing of Environment. – 2017. – Vol. 202. – P. 18–27.

3. Hickman J. Spatial Thinking and GIS: Developing and Assessing Student Competencies // International Research in Geographical and Environmental Education. – 2023. – P. 1–18.

4. Hursen C., Beyoğlu D. The Impact of Inquiry-Based Learning Activities Supported by Geographical Information Systems on the Academic Achievement, Attitudes and Geography Literacy of Students // Transactions in GIS. – 2025. – Vol. 29(6). – e70122.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 25-martdagi “Eko-madaniyat” umummilliy loyihasi doirasida ekologik ta’lim, ilm-fan va targ‘ibotni jadallashtirishga oid kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-110-son qarori. https://lex.uz/uz/docs/8100110.

6. Yang X., Jin L., Zhang Y. Does the use of GIS in geographical education yield better learning outcomes? // Transactions in GIS. – 2024. – Vol. 28. – e13142.

UO‘K 378.147:579

MIKROBIOLOGIYA FANINI O‘QITISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK-METODIK XUSUSIYATLARI

Vakkosova M. K., assistent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Andijon
Ulug‘bekova G. J., DSc, Andijon davlat tibbiyot instituti, Andijon

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ta’lim muassasalarida mikrobiologiya fanini o‘qitishning zamonaviy usullari, pedagogik texnologiyalar va uning o‘ziga xos metodik xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, talabalarda mikroskopik va biokimyoviy jarayonlarni o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish, laboratoriya ko‘nikmalarini shakllantirishda raqamli vizualizatsiya hamda fanlararo integratsiyaning o‘rni ochib berilgan. Tadqiqot davomida qo‘llanilgan innovatsion yondashuvlar o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish va talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *mikrobiologiya, o‘qitish metodikasi, pedagogik texnologiyalar, virtual laboratoriyalar, fanlararo integratsiya, ta’lim samaradorligi.*

Аннотация. *В данной статье освещены современные методы, педагогические технологии и методические особенности преподавания дисциплины «Микробиология» в образовательных учреждениях. Также раскрыта роль цифровой визуализации и междисциплинарной интеграции в формировании у учащихся навыков комплексного анализа микробиологических процессов и развития лабораторных навыков. Предложенные в работе инновационные подходы способствуют повышению эффективности учебного процесса и развитию профессиональных компетенций студентов.*

Ключевые слова: *микробиология, методика преподавания, педагогические технологии, виртуальные лаборатории, междисциплинарная интеграция, эффективность образования.*

Abstract. *This article highlights modern methods, pedagogikal technologies, and methodological features of teaching "Microbiology" in educational institutions. It also reveals the*

role of digital visualization and interdisciplinary integration in developing students' skills for a comprehensive analysis of microbiological processes and building laboratory skills. The innovative approaches proposed in the study serve to increase the efficiency of the educational process and develop students' professional competencies.
Keywords: *microbiology, teaching methodology, pedagogikal technologies, virtual laboratories, interdisciplinary integration, educational efficiency.*

Kirish. Hozirgi kunda tibbiyot, biotexnologiya, farmatsevtika va qishloq xo‘jaligi sohalarining jadal rivojlanishi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda fundamental fanlar, jumladan, mikrobiologiya fanini o‘qitish sifatiga alohida talablar qo‘ymoqda. Tirik organizmlarning mikroskopik olami, ularning tabiatdagi aylanishi, inson salomatligi va xo‘jalik faoliyatidagi o‘rnini o‘rganuvchi ushbu fan talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim poydevor hisoblanadi.

Biroq ta’lim amaliyotida mikrobiologiya fanini o‘qitishda ayrim uslubiy qiyinchiliklar saqlanib qolmoqda. Xususan, ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydigan mikromexanizmlar, bakterial va viral jarayonlarni talabalarga yetarlicha tushuntirish, nazariy bilimlar bilan amaliy laboratoriya ko‘nikmalarini uzviy bog‘lashda an’anaviy yondashuvlarning imkoniyatlari cheklangan. Bu esa o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli vizualizatsiya vositalari va innovatsion metodlarni joriy etishni taqozo etadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi mikrobiologiya fanini o‘qitishning pedagogik-metodik xususiyatlarini ilmiy jihatdan takomillashtirish, ta’lim samaradorligini oshiruvchi yangi yondashuvlarni ishlab chiqish hamda talabalarning kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish zarurati bilan belgilanadi. Ushbu maqola mikrobiologiya fanini o‘qitish metodikasini yanada takomillashtirishga bag‘ishlangan.

Tadqiqot metodlari. Mavzuning o‘ziga xos pedagogik-metodik va amaliy yo‘nalishidan kelib chiqqan holda, tadqiqot jarayonida quyidagi nazariy va empirik usullardan foydalanildi:

Энг муҳими, ёшларда Ватан тақдирига дахлдорлик туйғусини шакллантиришни уларнинг реал ҳаётий эҳтиёжлари, таълим олиши, касб эгаллаши, ижод қилиши ва жамиятда ўз ўрнини топиши билан уйғунлаштириш зарур.

Шу маънода, умуммиллий тараққиёт ғояси ёшлар учун абстракт тушунча эмас, балки билим олиш, ҳалол меҳнат қилиш, касбий салоҳиятни ошириш, жамиятга фойда келтириш ва Ватан келажаги учун масъулият ҳис қилиш билан боғлиқ амалий ҳаётий позиция сифатида шаклланиши лозим.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. — Тошкент: Ўзбекистон, 2023.

2. Ўзбекистон Республикасининг “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги Қонуни, ЎРҚ-406-сон, 14.09.2016.

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатини 2025 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги 23-сон қарори, 18.01.2021.

4. Каримов И.А. Юксак маънавият — енгилмас куч. — Тошкент: Маънавият, 2008.

5. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. — Тошкент: Ўзбекистон, 2021.

6. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. — Тошкент: Ўзбекистон, 2001.

7. Камолов Ж., Қодиров У. Ёшлар тарбиясида мафкуравий иммунитетни шакллантиришнинг аҳамияти.

8. Дадамухамедов А. Ёшларда виртуал диний экстремизм ва терроризмга қарши мафкуравий иммунитетни шакллантириш масалалари. — 2023.

9. Hayridinov A.A. O‘zbekiston yoshlarida “ommaviy madaniyat xurujiga qarshi immunitet shakllanishida milliy qadriyatlarning o‘rni”. — avtoreferat, 2025.

10. Ўзбекистон Республикаси ёшларга оид сиёсати ва маънавий-маърифий тарбия соҳасидаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар.

УДК 378:811.161.1

ОБУЧЕНИЕ ЧТЕНИЮ И РЕФЕРИРОВАНИЮ НАУЧНЫХ ТЕКСТОВ ТЕХНИЧЕСКОГО ПРОФИЛЯ НА ЗАНЯТИЯХ ПО РКИ

В.Х.Хасанова, доцент, Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова, Ташкент

Annotatsiya. *Ushbu maqolada rus tilini chet tili sifatida o‘qitish (RKI) mashg‘ulotlarida texnik yo‘nalishdagi ilmiy matnlarni o‘qish va referat yozishga o‘rgatishning nazariy hamda metodik asoslari yoritilgan. Texnik mutaxassisliklarda tahsil olayotgan talabalarda matn mazmunini anglash, ilmiy axborotni tahlil qilish, asosiy va ikkinchi darajali ma’lumotlarni ajratish, matnning mantiqiy-mazmuniy tuzilishini aniqlash hamda rus tilida referat tuzish ko‘nikmalarini shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Maqolada kasbiy yo‘naltirilgan ilmiy matnlardan foydalanish, kommunikativ va interfaol metodlarni qo‘llash, shuningdek, zamonaviy raqamli ta’lim resurslarining imkoniyatlari asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *rus tilini chet tili sifatida o‘qitish, ilmiy matn, texnik yo‘nalish, o‘qishga o‘rgatish, referat yozish, kasbiy muloqot, terminologiya, mazmuniy o‘qish.*

Аннотация. *В статье рассматриваются теоретические и методические основы обучения чтению и реферированию научных текстов технического профиля на занятиях по русскому языку как иностранному (РКИ). Особое внимание уделяется формированию у студентов технических специальностей навыков смыслового чтения, анализа научной информации, выделения основной и второстепенной информации, определения логико-смысловой структуры текста и составления рефератов на русском языке. Обосновывается необходимость использования профессионально ориентированных текстов, коммуникативных и интерактивных методов обучения, а также современных цифровых образовательных ресурсов.*

Ключевые слова: *русский язык как иностранный, научный текст, технический профиль, обучение чтению, реферирование, профессиональное общение, терминология, смысловое чтение.*

Abstract. *This article examines the theoretical and methodological foundations of teaching reading and abstract writing of scientific texts related to technical fields in Russian as a Foreign Language (RFL) classes. Particular attention is paid to developing technical students' skills in understanding scientific texts, analyzing information, distinguishing between main and secondary ideas, identifying the logical and semantic structure of texts, and producing written abstracts in Russian. The article emphasizes the importance of professionally oriented scientific materials, communicative and interactive teaching methods, and modern digital educational resources.*

Key words: *Russian as a Foreign Language, scientific text, technical field, reading instruction, abstract writing, professional communication, terminology.*

В условиях модернизации системы высшего образования и расширения международного научно-технического сотрудничества особую актуальность приобретает формирование у студентов навыков работы с научной информацией на русском языке. Для будущих специалистов технического профиля владение русским языком является не только средством повседневного общения, но и важным инструментом профессиональной деятельности, позволяющим изучать специальную литературу, знакомиться с современными научными достижениями, анализировать техническую документацию и обмениваться профессиональной информацией.

Одним из важнейших направлений преподавания русского языка как иностранного в технических вузах является обучение чтению и реферированию научных текстов. Данные виды речевой деятельности имеют особое значение, поскольку обеспечивают способность студентов самостоятельно извлекать необходимую информацию из профессиональной литературы, обобщать полученные сведения и представлять их в краткой письменной форме.

Научные тексты технического профиля характеризуются специфической лексикой, насыщенностью терминологическими единицами, сложными синтаксическими конструкциями, логической последовательностью изложения и высокой степенью информативности. В связи с этим их понимание требует от иностранных студентов не только определенного уровня владения русским языком, но и сформированности специальных интеллектуальных и аналитических умений.

Традиционные методы преподавания, основанные преимущественно на переводе отдельных предложений и объяснении грамматических конструкций, не всегда обеспечивают полноценное развитие навыков самостоятельной работы с научной литературой. Поэтому возникает необходимость разработки комплексной методики, объединяющей языковую подготовку, профессиональную направленность обучения и современные образовательные технологии.

Целью данной статьи является определение эффективных методических подходов к обучению чтению и реферированию научных текстов технического профиля на занятиях по РКИ, а также разработка практических рекомендаций по формированию соответствующих речевых и профессиональных компетенций студентов.

1. Особенности научных текстов технического профиля как объекта обучения РКИ.

Научный текст представляет собой особую форму письменной коммуникации, предназначенную для передачи, объяснения и обоснования научных знаний. Его основными характеристиками являются логичность, последовательность, точность, объективность, терминологическая насыщенность и информативность.

Научные тексты технического профиля обладают рядом специфических особенностей:

Терминологическая насыщенность. В текстах широко используются специальные термины, обозначающие технические устройства, механизмы, технологические процессы, материалы и физические явления.

Логическая последовательность. Информация представляется в определенной системе: от постановки проблемы к объяснению процессов, описанию результатов и формулированию выводов.

Сложность синтаксических конструкций. Для научного стиля характерно использование сложноподчиненных предложений, причастных и деепричастных оборотов, безличных и пассивных конструкций.

Высокая информативность. Каждое предложение может содержать значительный объем профессиональной информации, требующей осмысления и анализа.

Объективность изложения. Научные тексты ориентированы на точное описание фактов, закономерностей, результатов экспериментов и технических характеристик.

Например, студентам технических специальностей могут предлагаться тексты по следующим направлениям:

современные информационные технологии;
искусственный интеллект и робототехника;
машиностроение и механика;
энергетика и альтернативные источники энергии;
строительные материалы и технологии;
автоматизация производственных процессов;
экологическая безопасность технических систем.

Использование подобных материалов позволяет соединить изучение русского языка с содержанием профильных дисциплин, повышая мотивацию студентов и практическую значимость занятий.

2. Обучение чтению научных текстов на занятиях по РКИ

Чтение является одним из основных видов речевой деятельности, обеспечивающим получение и переработку информации. В методике преподавания РКИ особое значение имеет развитие у студентов различных стратегий чтения.

При работе с научным текстом выбор стратегии чтения определяется учебной задачей. Следующий аспект связан с использованием цифровых средств в качестве дополнительной поддержки обучения.

Искусственный интеллект также может выступать дополнительным средством обучения. С его помощью студенты могут получать примеры научных речевых конструкций, составлять тренировочные задания, анализировать структуру текста и совершенствовать первоначальный вариант реферата. При этом необходимо сохранять самостоятельность обучающихся, проверять достоверность информации и соблюдать принципы академической честности.

Заключение. Таким образом, обучение чтению и реферированию научных текстов технического профиля является одним из важнейших компонентов профессионально ориентированного преподавания русского языка как иностранного в технических вузах.

Формирование данных умений требует комплексного подхода, предусматривающего развитие языковых знаний, навыков смыслового чтения, аналитического мышления и письменной научной речи. Последовательная организация работы с текстом, включающая предтекстовый, текстовый и послетекстовый этапы, позволяет постепенно сформировать у

студентов способность самостоятельно воспринимать, анализировать и обобщать научную информацию.

Использование профессионально ориентированных текстов, интерактивных упражнений и цифровых образовательных ресурсов способствует повышению эффективности учебного процесса и развитию академической самостоятельности студентов.

Перспективным направлением дальнейших исследований является разработка специализированных учебно-методических комплексов по РКИ для различных технических специальностей, включающих систему научно-профессиональных текстов, терминологические словари, упражнения по смысловому чтению и задания по реферированию.

Следовательно, целенаправленное обучение чтению и реферированию научных текстов не только совершенствует владение русским языком, но и способствует подготовке конкурентоспособных специалистов, способных эффективно работать с научной информацией в условиях современного профессионального и академического пространства.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). — М.: ИКАР, 2009.

2. Балыхина Т.М. Методика преподавания русского языка как неродного (нового). — М.: Издательство РУДН, 2007.

3. Вербицкий А.А. Активное обучение в высшей школе: контекстный подход. — М.: Высшая школа, 1991.

4. Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика. — М.: Академия, 2006.

5. Капитонова Т.И., Щукин А.Н. Современные методы обучения русскому языку иностранцев. — М.: Русский язык, 1987.

6. Методика преподавания русского языка как иностранного / под ред. А.Н. Щукина. — М.: Русский язык, 1990.

7. Соловова Е.Н. Методика обучения иностранным языкам: базовый курс лекций. — М.: Просвещение, 2002.

8. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment – Companion Volume. — Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020.

9. Ellis R. Task-Based Language Learning and Teaching. — Oxford: Oxford University Press, 2003.

10. Mayer R.E. Multimedia Learning. 2nd ed. — Cambridge: Cambridge University Press, 2009.

UO'K 613.2:796.071.5

SPORTCHI-TALABALARNING OVQATLANISH RATSIONIDA MIKRONUTRIYENTLAR BILAN TA'MINLANISH HOLATI

Oripov Sh. I., o'qituvchi, Qarshi davlat universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Maqolada kurashchi-talabalarning amaldagi ovqatlanish ratsionida ayrim vitaminlar va mineral moddalar bilan ta'minlanish darajasi tahlil qilingan. Tadqiqotda Qarshi davlat universitetining jismoniy madaniyat yo'nalishida tahsil oluvchi 17–20 yoshli 56 nafar erkak jinsidagi kurashchi-talaba ishtirok etgan. Tadqiqot materiallari anketa-so'rov usuli yordamida to'plangan va ratsion tarkibidagi ayrim mikronutriyentlar miqdori belgilangan me'yorlar bilan taqqoslangan. Natijalar vitaminlar orasida riboflavin va askorbin kislotasi, mineral moddalar orasida esa kalsiy va fosfor bilan ta'minlanish darajasi nisbatan past ekanligini ko'rsatgan. Olingan ma'lumotlar sportchi-talabalarning ovqatlanish ratsionini takomillashtirish, mahsulotlar xilma-xilligini oshirish va ratsional ovqatlanish bo'yicha bilimlarini mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *sportchi-talabalar, kurash, mikronutriyentlar, vitaminlar, mineral moddalar, amaldagi ovqatlanish, kunlik ratsion, ovqatlanish me'yorlari.*

Аннотация. *В статье проанализирован уровень обеспеченности отдельными витаминами и минеральными веществами в фактическом рационе питания студентов, занимающихся борьбой. В исследовании приняли участие 56 студентов мужского пола в возрасте 17–20 лет, обучающихся по направлению физической культуры Каршинского государственного университета. Материалы исследования были собраны с использованием анкетного опроса, а содержание отдельных микронутриентов в рационе сопоставлено с установленными нормативами. Результаты показали относительно низкий уровень обеспеченности рибофлавином и аскорбиновой кислотой среди витаминов, а также кальцием и фосфором среди минеральных веществ. Полученные данные свидетельствуют о необходимости совершенствования рациона студентов-спортсменов, повышения разнообразия потребляемых продуктов и формирования знаний о принципах рационального питания.*

Ключевые слова: *студенты-спортсмены, борьба, микронутриенты, витамины, минеральные вещества, фактическое питание, суточный рацион, нормы питания.*

Abstract. *This article examines the adequacy of selected vitamins and minerals in the actual diets of student wrestlers. The study involved 56 male students aged 17–20 years enrolled in the Physical Culture programme at Karshi State University. Dietary data were collected using a questionnaire survey, and the reported intake of selected micronutrients was compared with the nutritional reference values applied in the study. The results indicated relatively low levels of riboflavin and ascorbic acid among the vitamins assessed, as well as calcium and phosphorus among the minerals. The findings highlight the importance of improving dietary variety and strengthening nutrition education among student athletes.*

Keywords: *student athletes, wrestling, micronutrients, vitamins, minerals, actual nutrition, daily diet, nutritional requirements.*

Kirish. Sportchilarning ratsional ovqatlanishini tashkil etish jismoniy ish qobiliyatini saqlash, mashg'ulotlardan keyingi tiklanish jarayonlarini qo'llab-quvvatlash hamda salomatlikni muhofaza qilishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ovqatlanish ratsioni nafaqat organizmning energiyaga bo'lgan ehtiyojini, balki vitaminlar va mineral moddalarga bo'lgan talabini ham qondirishi zarur [2, 5, 6].

Mikronutriyentlar organizmdagi moddalar almashinuvi, fermentativ reaksiyalar, qon hosil bo'lishi, immun tizimi faoliyati va suyak to'qimasining fiziologik holatini ta'minlashda ishtirok etadi. Vitaminlar va mineral moddalarning yetarli miqdorda iste'mol qilinishi organizmning funksional

imkoniyatlarini saqlash uchun muhimdir. Biroq ularga bo‘lgan ehtiyoj yosh, jins, jismoniy faollik darajasi va individual fiziologik xususiyatlarga qarab farqlanadi.

Kurash sport turida kuch, tezkorlik, chidamlilik va harakatlarni muvofiqlashtirish qobiliyati muhim ahamiyatga ega. Muntazam mashg‘ulotlar organizmning energiya va ayrim oziq moddalarga bo‘lgan ehtiyojini o‘zgartirishi mumkin. Shu sababli sportchilarning amaldagi ovqatlanishini o‘rganish, ratsion tarkibidagi vitaminlar va mineral moddalar miqdorini baholash hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi [2, 3, 5].

Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida tahsil oluvchi sportchi-talabalarning ovqatlanish xususiyatlarini o‘rganish muhimdir. Chunki ularning kundalik ovqatlanishi o‘quv mashg‘ulotlari, sport mashg‘ulotlari, yashash sharoiti va ovqatlanishni mustaqil tashkil etish imkoniyatlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Tadqiqotning maqsadi — kurashchi-talabalarning amaldagi ovqatlanish ratsionida ayrim vitaminlar va mineral moddalar bilan ta’minlanish darajasini baholash hamda ratsionni takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Metodologiya. Tadqiqot Qashqadaryo viloyatida istiqomat qiluvchi, Qarshi davlat universitetining jismoniy madaniyat yo‘nalishida tahsil oluvchi 17–20 yoshli kurashchi-talabalar ishtirokida o‘tkazilgan. Tadqiqotda jami 56 nafar erkak jinsidagi talaba qatnashgan.

Ma’lumotlar 2022 yil oktabr oyida, kuz faslida to‘plangan. Respondentlarning amaldagi ovqatlanishini o‘rganishda anketa-so‘rov, sotsiologik va gigiyenik usullardan foydalanilgan [7]. Tekshiriluvchilar bir hafta davomida maxsus anketalarni to‘ldirganlar. Anketa ma’lumotlari asosida kunlik ratsiondagi ayrim vitaminlar va mineral moddalarning miqdori baholanib, tadqiqotda qabul qilingan me’yoriy ko‘rsatkichlar bilan taqqoslangan [1, 4]. Tahlilda B_1 (tiamin), B_2 (riboflavin), B_6 (piridoksin), C (askorbin kislotasi) va PP (niatsin) vitaminlari, shuningdek, kalsiy, fosfor, magniy va temir miqdori hisobga olingan.

Olingan ma’lumotlarga matematik hisob-kitoblar qo‘llanilgan va ular Microsoft Excel 2010 hamda Origin 6.1 dasturlari yordamida qayta ishlangan. Natijalar o‘rtacha qiymat va standart xatolik shaklida taqdim etilgan.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Tadqiqot davomida kurashchi-talabalarning kunlik ovqatlanish ratsionidagi ayrim vitaminlar va mineral moddalarning miqdori o‘rganildi. Olingan natijalar belgilangan me’yoriy ko‘rsatkichlar bilan taqqoslandi.

1-jadval. Kurashchi-talabalarning kunlik ratsionida ayrim mikronutriyentlar bilan ta’minlanish darajasi

№	Mikronutriyentlar	Amaldagi miqdor	Me’yor	Farq, mg	Me’yorning bajarilishi, %
1	B_1 vitamini, mg	5,3 ± 0,1	6	−0,7	88,3
2	B_2 vitamini, mg	2,62 ± 0,02	5	−2,38	52,4
3	B_6 vitamini, mg	7,3 ± 0,03	10	−2,7	73,0
4	C vitamini, mg	115 ± 2,1	200	−85	57,5
5	PP vitamini, mg	37,3 ± 0,16	40	−2,7	93,2
6	Kalsiy (Ca), mg	1506 ± 3,3	2000	−494	75,3
7	Fosfor (P), mg	2346 ± 7,8	3000	−654	78,2
8	Magniy (Mg), mg	684 ± 2,1	700	−16	97,7
9	Temir (Fe), mg	27,1 ± 0,18	30	−2,9	90,3

Jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, tadqiqotda baholangan vitaminlar orasida B_2 va C vitaminlari bilan ta’minlanish darajasi nisbatan past bo‘lgan. Xususan, riboflavin miqdori belgilangan me’yorning 52,4 foizini, askorbin kislotasi esa 57,5 foizini tashkil etgan. B_6 vitamini bilan ta’minlanish 73,0 foiz darajasida qayd etilgan.

B_1 vitamini va PP vitamini bo‘yicha ko‘rsatkichlar tegishlicha 88,3 va 93,2 foizni tashkil qilgan. Biroq mazkur ko‘rsatkichlarni faqat foizlar asosida organizmda vitamin yetishmovchiligi mavjudligining klinik dalili sifatida talqin qilib bo‘lmaydi. Buning uchun ovqatlanish ma’lumotlaridan tashqari, zarur hollarda laborator va klinik baholash ham talab etiladi.

Riboflavin energetik almashinuvda ishtirok etuvchi kofermentlar tarkibiga kiradi. Uning asosiy oziq-ovqat manbalari qatoriga sut va sut mahsulotlari, tuxum, go‘sht va ayrim boshqa mahsulotlar kiradi. Askorbin kislotasi esa biriktiruvchi to‘qima hosil bo‘lishi, temirning so‘rilishi va antioksidant

himoya mexanizmlarida ishtirok etadi. Uning asosiy manbalari meva-sabzavotlar, ayniqsa, C vitaminiga boy mahsulotlar hisoblanadi.

B_6 vitamini oqsillar almashinuvi va ayrim neyromediatorlar sintezida ishtirok etadi. Sportchi-talabalar ratsionida mazkur vitaminning yetarli bo‘lishi oqsillarga boy mahsulotlar va boshqa xilma-xil oziq-ovqat manbalarini iste’mol qilish bilan bog‘liq. Shu sababli ratsionni baholashda mahsulotlarning umumiy miqdori bilan bir qatorda ularning turlari va oziqaviy qiymati ham hisobga olinishi zarur.

Mineral moddalar bo‘yicha natijalar kalsiy va fosfor bilan ta’minlanish darajasi nisbatan past ekanligini ko‘rsatdi. Kalsiy miqdori me’yorning 75,3 foizini, fosfor miqdori esa 78,2 foizini tashkil etgan. Magniy va temir bo‘yicha ko‘rsatkichlar tegishlicha 97,7 va 90,3 foizga teng bo‘lgan.

Kalsiy suyak to‘qimasi, mushak qisqarishi va nerv impulslarining uzatilishi uchun muhim ahamiyatga ega. Fosfor energetik almashinuvda, nuklein kislotalar va hujayra membranalari tarkibida ishtirok etadi. Ushbu mineral moddalarning oziqlanish orqali yetarli miqdorda qabul qilinishi organizmning fiziologik funksiyalarini qo‘llab-quvvatlashda muhimdir.

Magniy fermentativ reaksiyalar, nerv-mushak faoliyati va energiya almashinuvida ishtirok etadi. Temir esa gemoglobin tarkibiga kiradi va kislorod tashilishida muhim vazifani bajaradi. Biroq ularning ratsiondagi hisoblangan miqdori me’yorga yaqin bo‘lishi organizmdagi haqiqiy ta’minlanish darajasini to‘liq isbotlamaydi. Bu holat, ayniqsa, temirning biologik o‘zlashtirilishi va organizmdagi zaxiralarini baholashda e’tiborga olinishi kerak.

Anketa ma’lumotlari tahlilida respondentlar ratsionida non va xamirli taomlar, quyuq ovqatlar hamda fast-fud mahsulotlari iste’moli nisbatan ko‘p bo‘lgani qayd etilgan. Mevalardan asosan olma va uzum iste’mol qilingan, sut va sut mahsulotlari hamda sabzavotlar esa kamroq iste’mol qilingani ko‘rsatilgan. Baliq iste’moli ham cheklangani haqida ma’lumot berilgan.

Ushbu kuzatuvlar ratsiondagi oziq-ovqat mahsulotlari xilma-xilligini oshirish zarurligini ko‘rsatadi. Biroq ayrim mahsulotlarning kam iste’mol qilinishi va mikronutriyentlar miqdori o‘rtasidagi sababiy bog‘liqlikni qat’iy tasdiqlash uchun mahsulotlar iste’moli bo‘yicha batafsil ma’lumotlar va ularning oziqaviy tarkibini alohida tahlil qilish talab etiladi.

Sportchi-talabalarning ovqatlanishini takomillashtirishda ratsionning energetik qiymati, oqsillar, yog‘lar va uglevodlar nisbati, suyuqlik iste’moli, mashg‘ulotlar davomiyligi hamda tiklanish jarayonlarini birgalikda hisobga olish muhim. Ratsionni faqat ayrim vitaminlar va mineral moddalar ko‘rsatkichlari asosida baholash ovqatlanish holatining barcha jihatlarini qamrab olmaydi.

Xulosa va amaliy tavsiyalar

1. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi.

2. O‘rganilgan 56 nafar kurashchi-talabaning amaldagi ovqatlanish ratsionida B_2 va C vitaminlari bilan ta’minlanish darajasi nisbatan past bo‘lib, belgilangan me’yorning tegishlicha 52,4 va 57,5 foizini tashkil etgan. B_6 vitamini bo‘yicha mazkur ko‘rsatkich 73,0 foizga teng bo‘lgan.

3. Mineral moddalar orasida kalsiy va fosfor bilan ta’minlanish darajasi nisbatan past qayd etilgan. Ularning amaldagi miqdori tadqiqotda qo‘llanilgan me’yorning tegishlicha 75,3 va 78,2 foizini tashkil qilgan.

4. Anketa ma’lumotlarida sut va sut mahsulotlari, sabzavotlar hamda baliq iste’molining cheklangani qayd etilgan. Bu holat ratsionning xilma-xilligini oshirish va oziq-ovqat mahsulotlarini tanlashga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

5. Sportchi-talabalarning ovqatlanishini takomillashtirish uchun ular, murabbiylar va ta’lim muassasasi mas’ullari o‘rtasida ratsional ovqatlanish bo‘yicha tushuntirish ishlarini tashkil etish, kunlik ratsionni individual ehtiyojlarga muvofiqlashtirish va ovqatlanish tarkibini davriy ravishda baholash tavsiya etiladi.

6. Keyingi tadqiqotlarda ratsionning energetik qiymati va oziq moddalar tarkibini batafsil hisoblash, jismoniy yuklama darajasini inobatga olish hamda zarur hollarda laborator ko‘rsatkichlardan foydalanish natijalarning ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Химический состав российских пищевых продуктов: справочник / под ред. И. М. Скурихина, В. А. Тутельяна. — М.: ДеЛи принт, 2002. — 236 с.

2. Коллеман Э. Питание для выносливости / пер. с англ. — Мурманск: Тулома, 2005. — 192 с.

3. Тухтаров Б. Э. Белковая обеспеченность профессиональных спортсменов, занимающихся борьбой кураш // Вопросы питания. — 2008. — Т. 77, № 1. — С. 46–47.

4. Среднесуточные рациональные нормы пищевых продуктов в колледжах олимпийского резерва и специализированных школах-интернатах спортивного профиля: СанПиН № 0274-09 / сост. Н. В. Шарипова, Б. Б. Рахимов и др. — Ташкент, 2009. — 15 с.

5. Азизбекян Г. А., Никитюк Д. Б., Поздняков А. Л. и др. Принципы оптимального питания спортсменов различных специализаций // Вопросы питания. — 2010. — Т. 79, № 4. — С. 67–71.

6. Кучкарова Л. С., Қурбонов Ш. Қ. Овқат ҳазм қилиш ва овқатланиш физиологияси. — Тошкент: Sano-standart, 2013. — 384 б.

7. Петров В. А. Методология изучения питания различных групп населения: учебное пособие. — Владивосток: Медицина ДВ, 2015. — 287 с.

UÖK 611.9:616-07

ÇANOQ TUBI ANATOMIYASI VA UNING KLINIK-DIAGNOSTIK AHAMIYATI

Tulyanova D. Y., katta öqituvçi, Andijon davlat tibbiyot instituti, Andijon

Annotatsiya. *Uşbu maqolada çanoq tubining anatomik tuzilişi, uni taşkil etuvçi muşaklar, fassiyalar, boylamlar va ularning özaro topografik munosabatlari yoritilgan. Çanoq tubining asosiy vazifalari, jumladan, çanoq a'zolarini fiziologik holatda uşlab turiş, siydik va najasni tutiş mexanizmlaridagi iştiroki hamda reproduktiv funksiyadagi ahamiyati tahlil qilingan.*

Kalit sözlar: *çanoq tubi, klinik anatomiya, topografik anatomiya, çanoq tubi muşaklari, fassiyalar, çanoq a'zolari, diagnostik usullar, çanoq a'zolari prolapsi.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются анатомическое строение тазового дна, формирующие его мышцы, фасции, связки и их топографо-анатомические взаимоотношения. Анализируются основные функции тазового дна, включая поддержание органов малого таза в физиологическом положении, участие в механизмах удержания мочи и кала, а также его значение для репродуктивной функции.*

Ключевые слова: *тазовое дно, клиническая анатомия, топографическая анатомия, мышцы тазового дна, фасции, органы малого таза, диагностические методы, пролапс тазовых органов.*

Abstract. *This article examines the anatomical structure of the pelvic floor, including its constituent muscles, fasciae, ligaments, and their topographic relationships. The principal functions of the pelvic floor are analyzed, including the support of the pelvic organs in their physiological positions, its role in urinary and fecal continence mechanisms, and its significance in reproductive function.*

Keywords: *pelvic floor, clinical anatomy, topographic anatomy, pelvic floor muscles, fasciae, pelvic organs, diagnostic methods, pelvic organ prolapse.*

Kiriş. Çanoq tubi inson organizmining muhim anatomik va funksional tuzilmalaridan biri bölib, kiçik çanoq böşliğidagi a'zolarni fiziologik holatda uşlab turiş, qorin böşliği bosimini muvozanatlaş hamda siydik va najasni tutiş mexanizmlarini ta'minlaşda muhim rol öynaydi. Çanoq tubi muşaklari, fassiyalari, boylamlari va biriktiruvçi töqima elementlaridan taşkil topgan murakkab anatomik majmua hisoblanadi. Uşbu tuzilmalarning özaro uyğun faoliyati siydik çiqariş, defekatsiya, jinsiy va reproduktiv funksiyalarning me'yorida keçişini ta'minlaydi.

Çanoq tubining anatomik tuzilişini çuqur örganiş zamonaviy klinik tibbiyotda alohida ahamiyatga ega. Çunki uning muşaklari va biriktiruvçi töqimalarida yuzaga keladigan strukturaviy yoki funksional özgarişlar çanoq a'zolari prolapsi, siydik tutolmaslik, najasni tutiş buzilişlari va boşqa klinik holatlarning rivojlanişiga sabab bölişi mumkin. Ayniqsa, tuğruq, yoşga boğliq özgarişlar, surunkali qorin içi bosimining oşişi va ayrim jarrohlik amaliyotlari çanoq tubining anatomik-funksional holatiga ta'sir körsatişi mumkin.

Çanoq tubi anatomiyasini örganişda topografik anatomiya, klinik anatomiya, ginekologiya, urologiya, koloproktologiya va radiologiya fanlari örtasidagi uzviy boğliqlik muhim örin tutadi. Zamonaviy ultratovuş tekşiruvi, magnit-rezonans tomografiya (MRT) va boşqa vizualizatsiya usullari çanoq tubi tuzilmalarining joylaşuvi, morfologik xususiyatlari hamda funksional holatini baholaş

imkonini beradi. Uşbu usullar anatomik bilimlarni klinik ma’lumotlar bilan taqqoslaş, patologik özgarişlarni aniqlaş va diagnostik aniqlikni oşirişda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuning dolzarbligi çanoq tubining anatomik tuzilişi va uning klinik-diagnostik ahamiyatini kompleks örganiş zarurati bilan belgilanadi. Çanoq tubi tuzilmalarining normal anatomik xususiyatlarini biliş patologik jarayonlarning rivojlaniş mexanizmlarini tuşuniş, kasalliklarni erta aniqlaş va davolaş taktikasini töğri tanlaş uçun muhim nazariy va amaliy asos hisoblanadi.

Nazariy tahlil va umumlaştiriş usuli. Çanoq tubining anatomik tuzilişi, uni taşkil etuvçi muşaklar, fassiyalar, boylamlar hamda ularning özaro topografik munosabatlariga oid ilmiy adabiyotlar örganiladi. Olingan ma’lumotlar tizimlaştirilib, çanoq tubining tayanç, sfinkter va funksional faoliyatdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Qiyosiy anatomik tahlil usuli. Çanoq tubining asosiy anatomik tarkibiy qismlari, jumladan, m. levator ani, m. coccygeus, çanoq diafragmasi va u bilan boğliq biriktiruvçi töqima tuzilmalarining xususiyatlari özaro taqqoslanadi. Uşbu tuzilmalarning kiçik çanoq a’zolarini qöllab-quvvatlaşdagi roli yoritiladi.

Klinik-anatomik tahlil usuli. Çanoq tubining normal anatomik tuzilişi va uning buzilişlari örtasidagi boğliqlik tahlil qilinadi. Xususan, çanoq a’zolari prolapsi, siydik tutolmaslik va çanoq tubi muşaklari faoliyatining buzilişi kabi klinik holatlarning anatomik asoslari körib çiqiladi.

Zamonaviy diagnostik usullarni tahlil qiliş. Ultratovuş tekşiruvi (UTT), magnit-rezonans tomografiya (MRT) va boşqa vizualizatsiya usullarining çanoq tubi muşaklari, fassiyalari va tayanç tuzilmalarini baholaşdagi imkoniyatlari ilmiy manbalar asosida örganiladi. Uşbu usullarning anatomik özgarişlarni aniqlaş va klinik taşxisni asoslaşdagi ahamiyati baholanadi.

Ma’lumotlarni tizimlaştiriş va umumlaştiriş usuli. Örganilgan ilmiy manbalardan olingan ma’lumotlar umumlaştirilib, çanoq tubi anatomiyasining klinik-diagnostik ahamiyati böyiça xulosalar şakllantiriladi.

Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bölib, uning natijalari örganilgan ilmiy adabiyotlar va mavjud anatomik-klinik ma’lumotlarni tahlil qiliş asosida şakllantiriladi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Çanoq tubining anatomik tuzilişi va uning klinik-diagnostik ahamiyatiga oid ilmiy adabiyotlar tahlili uşbu anatomik tuzilmaning kiçik çanoq a’zolarini qöllab-quvvatlaş, ularning fiziologik holatini saqlaş hamda siydik va najasni tutiş mexanizmlarini ta’minlaşdagi muhim rolini körsatadi. Çanoq tubi muşaklari, fassiyalari, boylamlari va biriktiruvçi töqima elementlarining özaro anatomik-funksional boğliqligi uning tayanç va himoya vazifalarini amalga oşiriş uçun muhim hisoblanadi. Çanoq tubining asosiy tarkibiy qismlaridan biri çanoq diafragmasi bölib, u *m. levator ani* va *m. coccygeus* muşaklaridan taşkil topgan. *M. levator ani* muşagi puborektal, pubokoksigeal va iliokoksigeal qismlarni öz içiga oladi. Uşbu muşaklar kiçik çanoq a’zolarini qöllab-quvvatlaş, çanoq tubining barqarorligini saqlaş va kontinensiya mexanizmlarida iştirok etadi. Çanoq tubining anatomik yaxlitligi muşaklar bilan bir qatorda fassial va boylam apparatining holatiga ham boğliq.

Çanoq tubi anatomiyasining klinik ahamiyati. Çanoq tubining anatomik tuzilişi va funksional holati örtasidagi boğliqlik bir qator klinik holatlarning kelib çiqiş mexanizmlarini tuşunişda muhim ahamiyatga ega. Muşaklarning zaiflaşişi, biriktiruvçi töqimalarning tayanç xususiyatlari pasayişi yoki anatomik tayanç tizimining şikastlanişi çanoq a’zolari prolapsi, siydik tutolmaslik va boşqa funksional buzilişlar bilan boğliq bölişi mumkin.

Çanoq tubi tuzilmalarini örganişda individual anatomik xususiyatlarni hisobga oliş zarur. Yoşga boğliq özgarişlar, homiladorlik va tuğruq, şuningdek, qorin içi bosimining uzoq muddat oşişi çanoq tubining morfologik va funksional holatiga ta’sir körsatişi mumkin. Şu sababli çanoq tubining anatomik xususiyatlarini klinik belgilar bilan birgalikda baholaş patologik jarayonlarning anatomik asoslarini tuşunişga yordam beradi.

Çanoq tubini diagnostik baholaşda zamonaviy vizualizatsiya usullarining örni. Zamonaviy diagnostik usullar çanoq tubining anatomik tuzilişini örganiş va uning patologik özgarişlarini aniqlaşda muhim imkoniyatlar yaratadi. Ultratovuş tekşiruvi çanoq tubining ayrim muşak va yumşoq töqima tuzilmalarini, şuningdek, tekşiruv turiga qarab, ularning dinamik özgarişlarini baholaş imkonini beradi. Magnit-rezonans tomografiya esa yumşoq töqimalarning anatomik xususiyatlari va

çanoq a'zolari bilan özaro topografik munosabatlarini batafsil tasvirlaşda muhim ahamiyatga ega. Uşbu diagnostik usullardan foydalaniş çanoq tubining normal anatomik tuzilişi va patologik özgarişlari örtasidagi farqlarni aniqlaşga yordam beradi. Biroq instrumental tekşiruv natijalarini bemorning şikoyatlari, anamnezi va klinik körik ma'lumotlari bilan birgalikda tahlil qiliş lozim. Bu yondaşuv anatomik özgarişlarning klinik ahamiyatini töğri baholaş uçun zarur.

Çanoq tubi anatomiyasini örganişda fanlararo yondaşuv. Çanoq tubi anatomiyasini çuqur örganiş klinik anatomiya, ginekologiya, urologiya, koloproktologiya va radiologiya fanlari örtasidagi uzviy boğliqlikni namoyon etadi. Anatomik bilimlar klinik simptomlarning kelib çiqiş mexanizmlarini tuşuntiriş, diagnostik tekşiruvlarni töğri talqin qiliş va davolaş usullarini asoslaşda muhim nazariy poydevor hisoblanadi

Anatomik atlaslar, uç ölçamli modellar va radiologik tasvirlardan foydalaniş çanoq tubining murakkab tuzilişini vizual örganişga yordam beradi. Ayniqsa, muşaklar, fassiyalar, boylamlar va çanoq a'zolarining fazoviy munosabatlarini tahlil qiliş anatomik bilimlarni klinik amaliyot bilan boğlaş imkonini beradi.

Xulosa. Çanoq tubi anatomiyasi va uning klinik-diagnostik ahamiyatini örganiş natijasida uşbu anatomik tuzilmaning kiçik çanoq a'zolarini qöllab-quvvatlaş, ularning fiziologik holatini saqlaş hamda siydik va najasni tutiş mexanizmlarini ta'minlaşda muhim örin tutişi aniqlandi. Çanoq tubi muşaklari, fassiyalari, boylamlari va biriktiruvçi töqima elementlarining özaro muvofiqlaşgan faoliyati uning anatomik va funksional yaxlitligini belgilaydi.

Umuman olganda, çanoq tubining anatomik va funksional xususiyatlarini kompleks örganiş patologik özgarişlarning mohiyatini tuşuniş, diagnostik ma'lumotlarni töğri talqin qiliş va klinik qarorlarni ilmiy asoslaş uçun muhim nazariy asos hisoblanadi. Kelgusida uşbu yönalişda olib boriladigan morfologik va klinik tadqiqotlar çanoq tubi tuzilmalarining individual xususiyatlarini aniqlaştiriş hamda diagnostik yondaşuvlarni takomillaştirişga xizmat qilişi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RÖYXATI:

1. Standring S., ed. Gray's Anatomy: The Anatomical Basis of Clinical Practice. 42nd ed. Elsevier; 2020

2. Flusberg M., Kobi M., Bahrami S., Palmer S., Chernyak V., Kanmaniraja D., El Sayed R.F. Multimodality imaging of pelvic floor anatomy. Abdominal Radiology. 2021;46:1302–1311. DOI: 10.1007/s00261-019-02235-5

3. Doumouchtsis S.K., de Tayrac R., Lee J., et al. An International Continence Society (ICS)/International Urogynecological Association (IUGA) joint report on the terminology for the assessment and management of obstetric pelvic floor disorders. International Urogynecology Journal. 2023;34:1–42. DOI: 10.1007/s00192-022-05397-x

УЎК 613.2:616.314.17

ПАРОДОНТОЗ ТАШХИСЛАНГАН БЕМОРЛАРНИНГ ЁЗ-КУЗ МАВСУМИДА ОВҚАТЛАНИШИНИНГ ЎЗИГА ХОС ГИГИЕНИК ТАҲЛИЛ НАТИЖАЛАРИ

Б.Б.Холбеков, тиббиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат тиббиёт университетининг Термиз филиали, Термиз

Н.Ж.Ерматов, тиббиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат тиббиёт университети, Тошкент

Ф.Э.Эгамбердиева, талаба, Тошкент давлат тиббиёт университетининг Термиз филиали, Термиз

М.Н.Аминова, талаба, Тошкент давлат тиббиёт университетининг Термиз филиали, Термиз

Аннотация. *Мақолада Пародонтоз билан хасталанган беморларнинг енгил, ўрта ва оғир даражаларида функционал озиқ-овқат маҳсулотларининг истеъмолидан кейин оғиз бўшлиғидаги нохуш ҳидларнинг сақланиши эркакларда 51,3%-аёлларда 56,3 %га, тишларнинг тош ҳосил бўлиши жинслар кесимида 38,7-47,5%ни, ўртача даражада тишларда тошларнинг сақланиши 35,41-45,1%ни, милкларнинг қонаш даражасида эса 28,7-44,4%га яхшиланган, милкларнинг емирилиши 56,1-62,2%ни, тиш қаторларидаги ўзгаришларни пасайиши, назорат гуруҳида милклардаги ўзгаришлар, тиш тошларнинг ҳосил бўлиши даражаси 2 мартага ҳамда ошқозон ичак тизимидаги ўзгаришларнинг ортиши ёритиб берилган.*

Калит сўзлар: *Пародонтоз, оғиз бўшлиғи, назорат гуруҳи, ошқозон ичак тизими, озиқ-овқат маҳсулотлари, милкларнинг емирилиши, моносахаридлар, қаҳва, маргарин, ортиқча ош тузи ва қандолат.*

Аннотация. *В статье описывается сохранение неприятных запахов в полости рта после употребления функциональных продуктов питания у пациентов с легкой, средней и тяжелой формой пародонтита на 51,3% у мужчин и 56,3% у женщин, образование зубного камня на 38,7-47,5% у обоих полов, сохранение зубного камня на 35,41-45,1% в случаях средней степени тяжести, уровень кровоточивости десен на 28,7-44,4%, снижение эрозии десен на 56,1-62,2%, уменьшение изменений в зубных рядах, изменений десен в контрольной группе, двукратное увеличение уровня образования зубного камня и усиление изменений в желудочно-кишечном тракте.*

Ключевые слова: *Пародонтит, полость рта, контрольная группа, желудочно-кишечный тракт, пищевые продукты, эрозия десен, моносахариды, кофе, маргарин, избыток поваренной соли и кондитерские изделия.*

Abstract. *The article describes the persistence of oral malodor following the consumption of functional foods in patients with mild, moderate, and severe periodontitis (51.3% in men and 56.3% in women); the formation of dental calculus (38.7–47.5% in both sexes) and its persistence (35.41–45.1% in moderate cases); the level of gingival bleeding (28.7–44.4%); a reduction in gingival erosion (56.1–62.2%) and in changes to the dentition and gums; and—in the control group—a twofold increase in the rate of dental calculus formation and an intensification of gastrointestinal tract abnormalities.*

Key words: *Periodontitis, oral cavity, control group, gastrointestinal tract, food products, gingival erosion, monosaccharides, coffee, margarine, excess table salt, confectionery products.*

Кириш. Дунёда аҳолининг катта қатламларини озиқ-овқат маҳсулотлари билан овқатланиши алиментар боғлиқ касалликлар, атроф-муҳит хавф омиллари таъсирини камайтириш билан биргаликда умр кўриш давомийлигини оширишга қаратилган асосий интеграл кўрсаткичлардан ҳисобланади. Пародонтоз - бу тишни ўраб турган ва ушлаб турувчи пародонт тўқималарининг сурункали, яллиғланишсиз дистрофик касаллиги бўлиб, асосан альвеоляр суяк тўқимасининг аста-секин сўрилиши ва милк чекиниши билан намоён бўлади. У тишларни қўллаб-қувватловчи бириктирувчи тўқима ёки суякни йўқ қилади ва пародонтоз чўнтаклар ёки тиш гўшти қон кетишига олиб келади. [2] ЖССТ ва илмий манбаларга кўра «....аҳолининг 98%дан ортиғи яллиғланишли пародонтозга эга бўлиб, инсонларда олтинчи энг кўп тарқалган касаллик бўлиб, дунёда 740 миллион инсонларда қайд қилинган, тиш тўқималарининг бактериал сурункали вайрон қилувчи яллиғланишлар қаторига киради....». Пародонтозда маҳаллий маҳсулотлардан тузилган таомнома асосида пациентларнинг овқатланиш рационини гигиеник баҳолаш нафақат профилактик, балки, клиник ва стоматологик соҳа ходимлари олдида турган долзарб муаммолардан биридир.[3]

Мамлакатимизда соғлиқни сақлаш тизимини ривожлантириш, тиббиёт соҳасини жаҳон андозалари талабларига мослаштириш, жумладан, турли соматик касалликларни эрта ташхислаш, даволаш ва олдини олишга қаратилган муайян чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Бу борада 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясининг етти устувор йўналишига мувофиқ аҳолига тиббий хизмат кўрсатиш даражасини янги босқичга кўтаришда «...бирламчи тиббий-санитария хизматида аҳолига малакали хизмат кўрсатиш сифатини яхшилаш» каби вазифалар белгиланган. Ушбу вазифалардан келиб чиққан ҳолда катта ёшли инсонларда пародонтоз касаллигини даволашда функционал овқатларнинг самарадорлигини такомиллаштириш борасида тадқиқотларни амалга ошириш мақсадга мувофиқдир.[4]

Адабиётлар таҳлили. Saho H. тадқиқотида, шунингдек, ўртача кунлик ҳарорат билан сурункали пародонтитнинг ўткир симптоми пайдо бўлиши тезлиги ўртасида боғлиқлик аниқланди. Ўртача ҳарорат 13˚C ва ундан юқори бўлган кундан 1 кун ўтгач, номаълум сабабга кўра сурункали пародонтитнинг ўткир симптом пайдо бўлиши тезлиги 0,89% ни, ўртача

кунлик ҳарорат 13˚С дан паст бўлган кундан 1 кун ўтгач эса 1,05% ни ташкил этди (р=0,03). Бундан ташқари, у ўртача кунлик ҳарорат 17˚С ва ундан юқори бўлган кундан 1 кун ўтгач 0,86% ни, ўртача ҳарорат 17˚С дан паст бўлган кундан 1 кун ўтгач эса 1,07% ни ташкил этди. Бу икки гуруҳ ўртасида ишончли фарқ кузатилди (р=0,03) (3-расм). Окаямада қишки даврдаги ўртача суткалик ҳарорат 17˚С дан паст бўлиб, бу сурункали пародонтитнинг ўткир даражаси билан касалланишнинг қишда ўсиш тенденцияси ва чўққисини қўллаб-қувватлайди.

Arendorf T.M. ва B. Bredekampларнинг илмий нашрларида (2021) Жанубий Африка аҳолисида ўткир некротик ярали гингивит (ЎНЯГ) нинг мавсумий ўзгарувчанлиги кўриб чиқилган; пародонтологик клиникага мурожаат қилган барча беморлар кўрикдан ўтказилган ва суҳбатлар ўтказилган. Комплекс клиник оғиз ичи ва периорал текширувлар стоматологик кўзгу ва зонд ёрдамида уч нафар махсус тайёргарликдан ўтган, калибрланган стоматологик экспертлар томонидан амалга оширилган.

Материаллар ва Усуллар. Тадқиқотда пародонтоз ташхисланган пациентларнинг функционал озиқ-овқат маҳсулотлари билан даволашни такомиллаштиришда гигиеник, ижтимоий-гигиеник, клиник, биокимёвий ва статистик усулларидан фойдаланилган.

Натижалар ва Мунозара. Олинган таҳлиллар асосида таъкидлаш жоизки, бирламчи тиббий-санитария ёрдами тизимида оилавий шифокорлар томонидан катта ёшли аҳолида пародонтознинг турли босқичларини ривожланишига таъсир этувчи тиббий-биологик омилларнинг ўрни ва аҳамияти комплекс баҳоланиб, зарарли меҳнат шароитлари ҳамда кунлик овқатланиш рационининг сон ва сифат жиҳатдан ўзгариши натижасида касалликнинг илк босқичларини ташхислашнинг ўзига хос хусусиятлари, уларнинг ёш ва жинсга боғлиқлиги асосланган. Бирламчи тизимда пародонтоз билан хасталанган беморларда овқатланиш рациони таркибининг омилли таҳлили асосида юқори хавф омиллари (олий навли ун маҳсулотлари, моносахаридлар, қаҳва, маргарин, ортиқча ош тузи ва қандолат маҳсулотлари), ўртача хавф омиллари (ёрма маҳсулотлари, дуккаклилар, жавдар нони, гўшт, балиқ ва сут маҳсулотлари) ҳамда паст хавф омиллари (мева ва сабзавотларнинг кам истеъмоли)нинг касаллик ривожланишидаги ўрни исботланган. Пародонтоз билан хасталанган беморларда овқатланиш рационини оптималлаштириш орқали (олий навли ун маҳсулотлари, ортиқча туз ва аччиқ маҳсулотларни иккинчи навли ун маҳсулотлари ва Али чой билан алмаштириш) тиш-жағ тизими ҳолатини яхшилаш, ошқозон-ичак тизими фаолиятини меъёрлаштириш ҳамда қондаги эритроцитлар миқдорини барқарорлаштириш имконияти илмий асосланган.


1-жадвал

Назорат остига олинган беморларнинг тақсимоти

Белгилар	Асосий гуруҳ эркаклар (н=119)	Асосий гуруҳ аёллар (н=57)	Назорат гуруҳида эркаклар (н=15)	Назорат гуруҳи аёллар (н= 20)
Тиш тошларининг пайдо бўлиши	116 (97,48)	57 (100,00)	7 (46,67)	11 (55,00)
Сезгирликнинг ошиши	116 (97,48)	53 (92,98)	8 (53,33)	12 (60,00)
Милкларнинг қонаши	115 (96,64)	38 (66,67)	3 (20,00)	5 (25,00)
Тишлар қимирлаши	75 (63,03)	36 (63,16)	0	0
Милк емирилиши	79 (66,39)	35 (61,40)	0	0
Тиш қаторини бузилиши	110 (92,44)	47 (82,46)	13 (86,67)	13 (65,00)
Оғиз бўшлиғидаги бадбўй ҳиди	119 (100,00)	57 (100,00)	15 (100,00)	20 (100,00)
Овқатланиш рационини омилли таҳлили	119 (100,00)	57 (100,00)	15 (100,00)	20 (100,00)
Кунлик рационга иккинчи навли нон, Али Чой ва РЕГЕНЕ СОЛЛАГЕН	119 (100,00)	57 (100,00)	0 (0,00)	0 (0,00)
Одатий таом	0 (0,00)	0 (0,00)	15 (100,00)	20 (100,00)

Материаллар экспедиция шароитида йилда 4 марта (қиш, баҳор, ёз ва куз мавсумларида) ўртача кунлик кўрсаткичларда 14 кун давомида пациентларнинг истеъмол қилган аниқ маҳсулотларни ҳисоб варақасида қайд этилган ва СанНваҚ 0007-2020 «Ўзбекистон Республикаси аҳолисини ёшга, жинсга ва касбий фаолияти гуруҳлари учун соғлом овқатланишни таъминлашга қаратилган ўртача кунлик рационал овқатланиш нормалари» санитария меъёр ва қоидалари талаблари билан солиштирилган. Кунлик рационда асосий

озиқа моддалар ва энергетик қиймати «Озиқ-овқат маҳсулотларининг кимёвий таркиби» бўйича ҳисобланган.



1-расм. Пародонтоз билан хасталанган беморларнинг куз мавсумида уй шароитида юқори хавф гуруҳига кирувчи маҳсулотларнинг истеъмоли даражаси.

Ош тузининг кунлик овқатланиш рационидаги ортиқчалиги қатор касалликларга, хусусан буйрак касаллигини ривожланишига шароит яратади.

Ош тузининг истеъмол даражаси (кунлик янги меъёр бўйича 5 грамм) физиологик меъёрдан 3,5-2,2 мартагача, шакарнинг истеъмол миқдори эса 2,2-2,7 мартагача, қандолат маҳсулотларининг истеъмол даражаси 1,3-1,4 мартагача ортиқчалиги аниқланган.

Беморларнинг шифохонага келган вақти ва динамикада ҳамма беморлар қонининг клиник таҳлили ўтказилди. Беморларнинг стоматологик поликлиника ва бошқа хасталиклар, яъни ошқозон ичак тизими касалликлари билан хастланган беморларнинг шифохонага келган вақти ва динамикада ҳамма беморлар қонининг клиник ва биокимёвий таҳлиллари амалга оширилган.

Хулоса. Пародонтоз ташхисланган пациентларнинг кунлик рациони таркибида оқсилларнинг қиш-баҳор мавсумида 32,8-28,6%, аёлларда 40,5-34,4%, ёз-куз мавсумида анологик тартибида 26,5-25,6%га, аёлларда 37,3-35,1%га кам истеъмол қилганли аниқланди. Кунлик рационда ёғ ва мойлар қиш-баҳор мавсумида истеъмоли эркакларда 24,8-21,3%, аёлларда 23,9-25,3%, ёз-куз мавсумида эса 20,1-23,3-27,8-30,8%ни, карбонсувлар эса 156,4-161,9%ни, аёлларда 162,5-173,4%га, ёз-куз мавсумида 144,8-159,5% ҳамда 158,8-163,5%ни ташкил қилди. Пародонтоз билан хасталанган беморларнинг енгил, ўрта ва оғир даражаларида функционал озиқ-овқат маҳсулотларининг истеъмолидан кейин оғиз бўшлиғидаги ноҳуш ҳидларнинг сақланиши эркакларда 51,3%-аёлларда 56,3 %га, тишларнинг тош ҳосил бўлиши жинслар кесимида 38,7-47,5%ни, ўртача даражада тишларда тошларнинг сақланиши 35,41-45,1%ни, милкларнинг қонаш даражасида эса 28,7-44,4%га яхшиланган, милкларнинг емирилиши 56,1-62,2%ни, тиш қаторларидаги ўзгаришларни пасайиши, назорат гуруҳида милклардаги ўзгаришлар, тиш тошларнинг ҳосил бўлиши даражаси 2 мартага ҳамда ошқозон ичак тизимидаги ўзгаришларнинг ортиши аниқланди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. ЎзРҚ-251 «Аҳоли орасида микронутриент етишмаслиги профилактикаси тўғрисида» ги Қонуни. Тошкент, 2010.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 10 ноябрдаги 4887-сон «Аҳолини соғлом овқатланишни таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори.

